

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOSIM SULAYMONOV
TO‘LAN JO‘LDO‘SHEV

88

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOSIM SULAYMONOV

TO‘LAN JO‘LDO‘SHEV

88

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
Q 54

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Zuhriddin Isomiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-5-5

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

IKKI ROMAN — IKKI OLAM

Qirg'iz adabiyotida roman janrining shakllanishi qirg'iz xalqining milliy yozuvi paydo bo'lishiga, nasrning turli janrlari shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Qirg'iz romanining tug'ilishiga yozma adabiyoti uzoq davrlardan beri taraqqiy etib kelayotgan xalqlarning adabiyoti katta ta'sir qilgan. Bular qatorida qardosh turkiy ellarning, xususan, qozoq va o'zbek romanlarining ham o'rni bor. Qirg'iz romani Tugalboy Siddiqbekovning qator epos-lari orqali yuzaga kelgan. Adibning "Tog' orasida", "Temir", "Zamonamiz kishilari", "Tog' bolalari", "Yo'l", "Ko'k yalov" singari romanlari milliy adabiyotning faxri bo'lib qoldi. Muqay Eleboyevning "Uzoq yo'l", Qosimali Boyalinovning "Jigarlar", Uzoqboy Abduqayumovning "Maydon", To'lagan Qosimbekovning "Singan qilich", "Omad", "Bosqin", Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun", "Kassandra tamg'asi", Qazat Aqmatovning "Zamon", "Quyosh tegrasida kechgan yillar" romanlari qirg'iz adabiyotida roman janrining eng yaxshi namunalaridir.

1990-yillardan keyin paydo bo'lgan romanlar ichida esa O'mar Sultonovning "Inson umri" she'riy romani alohida. Muallif bu asar ustida o'n yildan ortiqroq mehnat qilgan. Garchi muallif unda inson umrining mazmuni, ezgu ishlarning osongina unutilishi kabi mavzularda falsafiy fikr yuritishni niyat qilgan bo'lsa-da, hayot haqiqatlari asar o'zanini boshqa yoqqa qarab burilishga majbur qildi. Romanda Qachi Quramayev degan kishining fojiaviy hayoti naql qilinadi. Qachi Quramayev sovet hukumatiga, o'zi a'zo bo'lgan partiyaga sadoqat bilan xizmat qildi. Biroq umri qash-shoqlikda yakun topadi. Zero o'sha yillarda mamlakatda ahvol og'ir edi, ko'p odamlar ishsiz qolib, iqtisodiy buhron boshlanib ketgan, Qachi Quramayev kabi odamlarni har bir mintaqada uchratish mumkin edi.

Bu jihatdan O‘mar Sultonovning asari o‘zbek adibi Tog‘ay Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani bilan hamohang. Har ikki asarda ham muallifning o‘tkir hayotiy pozitsiyaga ega ekanligi alohida sezilib turadi.

Albatta, butun bir xalqning so‘z san’ati sifatida qirg‘iz adabiyotida ham yuzlab romanlar bor, ularning har biri haqida fikr yuritish esa imkonsiz. Shuning uchun ham biz ushbu jildda sizga taqdim etilayotgan ikki roman xususida ikki og‘iz tushuncha berib o‘tsak.

Har bir yaxshi roman — alohida bir olam. Uning bag‘rida hayot qaynaydi, siz unga avval uzoqroqdan turib nazar solasiz, u o‘z jozibasi bilan mahliyo qilgach, yaqinroqdan tanishishga jazm qilasiz. Bora-bora shu dunyoning bag‘rida ko‘rasiz o‘zingizni, aralashib ham ketasiz, shu hayot ichida yashaysiz. O‘qigan yaxshi romanlaringizni yodga olsangiz, har biri misolida bu so‘zlarning haqligiga amin bo‘lasiz. Ushbu jildda sizga taqdim etilayotgan ikki roman ham, umid qilamizki, ana shunday, o‘z ichki hayoti bilan e’tiboringizni o‘ziga jalb eta oladiganlardan bo‘lib chiqsa, ajab emas.

Qirg‘iz adabiyotida bo‘ladimi, yoki o‘zbek (va hokazo) so‘z san’atida, o‘tgan zamonlarda ko‘p bitilgan sokin va uzun-uzun romanlar davri o‘tganday. Kitobxonni o‘z olamiga jalb etish uchun adabiyot endilikda kitobxonning dunyosini tasvirlayapti, bu orqali uning diliga yanada yaqinroq kirib boryapti, uning ong-shuuriga, didi va ta’biga ta’sir etishga harakat qilyapti.

“Vahshiylar saltanati” va “Manas” deb nomlangan bu ikki roman orasida g‘alati bir paradoksni ko‘rganday bo‘laman. Gap shundaki, bu asarlarning biri XXI asrning boshlaridagi jinoyatchilik olamining kirdikorlarini bizga namoyon qilsa, ikkinchisi kamida ming yil avvaldan — qirg‘iz xalqining afsonaviy qahramoni Manas zamonlaridan naql etadi.

Yana bir ajabtovur jihati, “Manas” eposi — so‘z san’ati mahsuli, adabiy ijod mevasi. Uni, ajabki, bizga shoir yoki yozuvchi emas, asl kasbi yurist bo‘lgan otlin bir qalamkash talqin etib beradi. “Manas” eposi negizida roman yozgan To‘lan Jo‘ldoshev esa 1963-yilda O‘sh shahrida tug‘ilgan. Maktabni bitirgach, turli kasblarda ishlagan. So‘ng Lomonosov nomidagi Moskva davlat

universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirib, uni 1989-yili tamomlagan. Hozirda Qirg'iziston parlamentida xizmat qiladi.

"Vahshiylar saltanati" romanining muallifi Qosim Sulaymonov esa 1939-yili Jalolobod viloyatining Suzoq tumanida tug'ilgan. 1960-yili To'qmoq shahridagi madaniy maorif bilimgohini tamomlagan. 1967–1974-yillari O'sh pedagogika institutining filologiya fakultetida o'qigan, so'ng Jalolobod pedagogik bilim yurtida ishlagan. "Vahshiylar saltanati"dan tashqari, uning "O'rinli o'ylar" singari yana bir qancha kitoblari bosilgan.

Ko'ramizki, yurist — adabiy materialni bugungi zamonaga moslab, ayniqsa katta hajmli she'riy materialni o'qishga hali ko'nikmagan yoshlar uchun, nasrga o'tkazgan va roman janri imkon bergani qadar epos voqeligiga qo'shgan bo'lsa, "sof" adabiyotchi — "Vahshiylar saltanati"da tasvirlangan mudhish voqeliklardan ancha uzoq yashaydigan boshqa bir qalamkash kriminalistika sohasini bizga talqin etib beradi.

Har ikki asar bugungi hayot taqozosi bilan yuzaga kelgan. "Vahshiylar saltanati" romani hozirgi dunyoda hatto jinoyatchilik ham globallashganini, manfur va g'addor kimsalar jinoiy til biriktirish orqali ezgu niyatli, ezgu amalli kishilarga kutilmagan hollarda ziyon yetkazish va bundan o'zi uchun manfaat olishini ko'rsatish maqsadida bitilgan. XX asr so'ngida — ulkan imperiya qulayotgan chog'da bu taloto'plardan foydalanib qolishga intiladigan kuchlar quturdi, yomon odamlar ko'payib ham ketdi. Ularning yaxshilarga qilgan qabohati ham chegara bilmay qoldi. Xayriyatki, bir-birini tushunadigan va qo'llaydigan sofdil, halol odamlar bor. Ana o'shalarning sa'y-harakati bilan, garchi bir qancha talafotlar berib bo'lsa-da, haq ish joyiga qaror topadi. Bir-birlaridan qutqu bilan ajratilgan ota-ona va bolalar yana topishishadi. Shu ma'noda aytganda, "Vahshiylar saltanati" — odamlarni hushyorlikka chorlaydigan bong.

To'lan Jo'ldoshevning "Manas" romanini ham, boya aytganimizday, bugungi kunning ehtiyoji taqozo etgan. Zero hozirgi shoshqin bir davrda avvalgiday ovul odamlarining haftalab bir joyga to'planib, har oqshom tun og'gunicha dostonchi shoir og'zidan "Manas" eshitishi mahol. Shuning uchun ham har bir xalqda qa-

dimiy dostonlarning nasriy bayonlari, kinofilm va hatto multifilmlari yaratilgan. Jumladan, qirg'iz "Manas" eposining o'smirlarbop qilib tayyorlangan nasriy bayoni (Kengash Jusupov talqini) bor edi. To'lan Jo'ldoshev esa doston voqeligini yanada ommalashtirish uchun asar sujeti asosida mustaqil roman ijod qildi.

Bu borada avvalo shuni aytish kerakki, "Manas" — tirik doston. U bugungi kunda ham nafaqat ijro, balki ijod ham etilayotir. Har bir asr, har bir zamon unda badiiy yo'sinda aks etadi. Manaschi oqinning mahorati tufayli unga yangi sujetlar qo'shiladi, avvalgi voqealar tafsiloti kengayadi yoki qisqartiriladi. Shuning uchun ham hozir qirg'iz folklori xazinasida "Manas" eposining yetmishdan ortiq varianti bor.

Ana shuni hisobga olgan holda, To'lan Jo'ldoshev romanga bir qancha yangi voqealar kiritadi, bu voqealar esa asarning ruhiga xalal bermagani holda, unga yangi motivlar baxsh etadi. Buning muhim sabablari bor edi.


Gap shundaki, mustaqillik qo'lga kirgach, Qirg'iziston xalqi oldida milliy g'oyaning asosiy jihatlarini belgilab olish masalasi ko'ndalang bo'ldi. Elning bir qismi har turli missioner va prozelitistlar ta'siriga tushib qoldi va jamiyatda bo'linish xavfi kuchaydi. Buni demokratiya va u bergan erkinlik bilan oqlab bo'lmas edi. Ana shu vaziyatda islom ta'limoti chuqurroq o'rganila boshladi, unga millat ma'naviyatini tajassum etadigan omil sifatida qaraladigan bo'lib qoldi. To'lan Jo'ldoshev ham romanga yosh Manasni tarbiyalashda islomiy aqidalar muhim rol o'ynaganini ko'rsatuvchi voqealarni kiritadi, boya aytganimizdek, bu hol eposning tabiatiga yot emas.

Albatta, muallifning professional yozuvchi emasligi sezilib qoladigan o'rinlar ham yo'q emas, biroq asarning boshqa fazilatlari uning bu qusurini biroz bo'lsa ham yopib ketadi, degan fikrdamiz. Alhosil, ikki zamon, ikki uslub, ikki mavzu va hokazo bir-biriga o'xshamaydigan holatlar tasvir etilgan mazkur asarlar bugungi qirg'iz romani taraqqiyoti haqida bir qadar tushuncha bera olsa, ajab emas.

Zuhriddin Isomiddinov,
filologiya fanlari nomzodi

QOSIM SULAYMONOV





VAHSHIYLAR SALTANATI

Roman

Ushbu asarimni o'n gulidan bir guli ochilmay turib bolalik ojizliklari bois vahshiy savdoyilar, besharm-behayo bachchavozlar o'ljasiga aylangan, ota-onalarini qon yig'latib, dunyodan ko'zi ochiq ketgan norasidalarning armonli xotirasiga bag'ishlayman.

Muallif

Otakeldi Mojariston (Vengriya)ga maxsus taklif bilan tashrif buyurdi. Professor Konur Mondokining vasiyatini ado etish uchun uning yaqin maslakdoshlari qadim ko'chmanchi turk ajdodlar haqida, aniqroq qilib aytganda, qirg'iz qipchoqlarning XII–XIII asrlardagi turmush tarzi hamda Chingizxonning lashkarlari bilan bo'lgan ayovsiz janglarda behad talafotlarga duchor bo'lishganidan so'ng Yevropaga, Markaziy Osiyoning chor tarafiga, Arab o'lkalariga tariqday tirqirab ketganligi, ba'zi bir guruhlari Misrga, Iordaniyaga singib o'troqlashib, fir'avnlarga ham aralashib ketishlarigacha bo'lgan tarixiy ulkan voqealarni jo etgan yangi, ko'p seriyali filmda kaskador sifatida ishtirok etish uchun Budapeshtga kelgan. Bungacha Otakeldi kaskadorlik bilan qirg'iz sirkida shug'ullangan bo'lsa, keyinchalik mustaqil ravishda inisi Otto'qirni hamroh qilib olib, uning otlari bilan keng dalada har xil truklar — xavfli vaziyatlarni o'zlashtirishga ko'p vaqt sarfladi. Uning maqsadi oliyjanob Manasga taqlidan qirg'izning iqtidorli yigitlaridan uyushtirilgan, Qarqira yaylovida namoyish qilinadigan Salburun ot o'yinlariga puxta tayyorgarlik ko'rish edi. O'sha kun ham yetib kelib, Qarqiradagi Salburun yuqori saviyada o'tdi. Otakeldi ot o'yinlarida har xil truklarni mohirlik bilan ijro etishda, kamon bilan yombi otishda, ot choptirib kelayotib yerdagi tangani chapdastlik bilan olib ketishda ko'plab o'lkalardan kelgan meh-

monlar nazariga tushdi. Qirg'iz yigitlarining ot ustidagi o'yinlari, ularning chaqqonligi barcha mehmonlarning hayrati va tahsiniga sazovor bo'ldi. Shuning uchun bu yerga kelgan kino ustalariga Otakeldi Xudoning inoyatiday tuyulib, uni Mojaristonga taklif etishdi.

Tarixiy kinofilmda suratga tushish huquqi osongina nasib qilmaydi, albatta. Chavandozlik bilan ijro etiladigan murakkab truklarni mahorat bilan bajarishi tufayli g'alabaga erishgan Otakeldi u yoqqa bir o'zi borishga qaror qildi. Chavandoz jangchilarning jang lavhalari ishonarli tasvirlanishi uchun Qozog'istondan, Turkmanistondan, Mo'g'ulistondan, Osetiyadan mohir yigitlar taklif etilgan edilar. Otakeldi bu ko'rik-sinovda shohsupaning eng to'ridan joy olishga muyassar bo'ldi.

Otakeldi bilan film mutasaddilari o'rtasida jamiki majburiyatlar ko'zda tutilgan holda shartnoma imzolandi. Shartnomaga binoan, Otakeldi mashhur qipchoq tumanboshisi — o'n ming askarning sarkardasi rolini o'ynaydigan bo'ldi. Boisi, Otakeldining rang-ro'yi, soxt-sumbati sarkardalikka ayni mos edi. Kino ustalarining nazarida uning yurish-turishi, chapdastligi, chaqqonligi, notiqlik salohiyati, kulishi, qisqa qilib aytganda, barcha jihatlari mazkur film uchun yaratilganday edi. Yangi kinofilm ikki yilda tayyor bo'ladigan bo'ldi. Otakeldi ssenariydagi o'z roli matnini mutasaddilar va rejissordan ruschaga tarjima qilib berishlarini o'tindi. Hademay tarjima matni ham tayyor bo'ldi. U o'z xonasida ssenariyni diqqat bilan o'qib yotgan vaqtida qo'l telefoni jiringlab qoldi.

— Al-lo-oo, bu kim?

— Me-yen, Nazikman.

— Nazik, yaxshimisan? Bolalarning sog'lig'i qalay?

— Yomon, — Nazik ezilib yig'lashga tushdi.

— Nazik, senga nima bo'ldi? Tinchlikmi, nima gap o'zi? — hovliqib so'radi Otakeldi.

— Uv-v-vv, Qubontoy bilan Omontoy yo'q.

— Nega yo'q bo'ladi, qancha kun bo'ldi?

— O'n kundan oshib ketdi, uv-v... — Nazik uvvos tortib yig'lashga o'tdi.

— Militsiya izlayaptimi?

— Ha, lekin topisha olmayapti.

Otakeldi bir lahzada ming bir ko'chaga kirib chiqdi.

— Men o'zim borib, qayerdan bo'lsayam topaman! — deya telefonini o'chirdi.

Farzandlarining siymolari ko'z oldidan o'ta boshladi. Hech bir bandaga bunday mudhish xabarni ravo ko'rmasin. Qanday qilib ikkalasi birdaniga yo'qolib qoladi? Bu noxush fojiaga ishonib-ishonmay, allamahalgacha boshini changallab o'tirdi. Anchadan keyin o'ziga kelib, eshikka chiqdi. Yarim kecha. Soatiga qarasa, uchga 20 daqiqa qolibdi. Qani endi, qanoti bo'lsa-yu, darhol musibat bosgan xonadoniga uchib borsa. Kutmaganingda keladigan falokat qarshisida ojiz ekansan. Ko'chada qatnovi uzilmagan mashinalargina bo'lmasa, azim shahar sokin uyqu og'ushida edi. Otakeldining yuragi siqilib, his-tuyg'ulari irodasiga bo'ysunmas edi. Tong otsa fojiani mutasaddilarga tushuntirib, darhol Qirg'izistonga uchib ketishga qaror qildi. Soat millari o'rnidan jilmay, vaqt to'xtab qolganday tuyular edi. Xonasiga kirib o'zini karavotga tashladi. Bir oy ichida bolalarini behad sog'inganini his etdi. O'ylab ko'rsa, zimmasiga olgan ishi o'ta qiziqarli bo'lgani uchun vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolibdi. Oldiga qo'ygan ulkan maqsadi tosh tekkan ko'zgudek burdalanib, sarobga aylandi. Zildek vazmin g'am yukiga omixta bo'lib, farzandlariga taalluqli xotiralar ko'z oldidan o'ta boshladi.

To'ng'ichi Qubontoyning dunyoga kelishi otasiga cheksiz quvonch olib kelgan edi. Farzandiga munosib ism qo'yishni orzu qilgan Otakeldiga Qubontoy degan yaxshi ism osongina topila qoldi. Murg'ak o'g'liga bu ism uzukka ko'z qo'ygandek yarashib tushdi. Erkalatib aytishga ham qulay ism qo'yganidan o'zi ham dildan quvonib yurdi. Qubontoy yoshligidan otasining pinjidan chiqmaydigan bola bo'lib ulg'aydi. To'rt-besh oylik bo'lib, boshini tutib qolganidan boshlab otasidan ko'zini uzmay, ovoz chiqarib kulib, tobora yoqimtoy bo'la boshladi. Ulg'aygan sari otasini ko'rganda qo'llarini cho'zib, quchog'iga intilardi. Tili ham "ota" so'zi bilan chiqdi. Otasi ishdan kelganida chirqirab yig'lab, darhol qo'liga olishga majbur qilardi. Tetapoya bo'lganida otasiga

yetgunicha shoshib, dumalab ketardi. Ikki yildan keyin ikkinchi o'g'li tug'ilganda Qubontoyga sherik bo'ldi deb, quvonchdan boshi ko'kka yetib, uch kun do'stlari bilan "yuvdi, yuvdi" qilgan edi. Umrlari uzoq bo'lib, omon yurishsin degan tilak bilan ismini Omontoy qo'ygan edi. Uyda ko'p vaqtini Qubontoy bilan o'tkazib, Omontoy bilan uncha ishi bo'lmadi. Qubontoy ulg'aya borgan sari o'rniga Omontoy shirintoy bo'la boshladi. Uning tabiati boshqacharoq, o'ziga xos edi. Tabiatan oyisiga yaqinroq bo'lgani bilan, akasi Qubontoyga ham, otasiga ham birday mehr qo'ygan edi.

Qubontoyga nisbatan Omontoy norg'ulroq edi. Ikki yoshidayoq qad-qomati akasiga yaqinlashib, ikkalasi egizday bo'lib ulg'ayishdi. Otakeldi quvonchdan terisiga sig'may, "Xudo xohlasa, o'g'illarimni ham sportchi qilaman", deb niyat qilardi. Otakeldi ko'p vaqtini bolalariga ajratib, ularga gimnastika mashqlarini o'rgata boshladi. Ikkala o'g'lining ham bo'yi tengqurlaridan ancha baland bo'lib, xuddi otasidek daroz yigit bo'lishlari ko'rinib turardi. O'g'illari charos ko'z, qora qosh, oqqa moyil yuzli, qirra burun bolalar edi. Tabiatning o'zi shunday mutanosib qilib yaratib qo'ygan ekan, tan bermay ilojingiz yo'q. Eng hayratlanarlisi, bolalarning onasi Nazikning ham, Otakeldining ham badanlarining turli joylarida — yuzlarida bir-ikkitadan yarim tomchi suvday xollari bor edi. Suyak surishi natijasida bunday xolchalar farzandlariga ham o'tgandi. Qubontoyning burnining o'ng tomonida, ko'kragida, qo'ltig'ining pastida ham shunday xollari bor edi. Omontoyning ham yuzida, badanining turli joylarida xollari bor edi. Bunday xollar bolalarning chehrasiga xo'b yarashgan bo'lib, husniga husn qo'shib turardi. Otakeldi o'g'illarining qad-qomati hamda suyak surishi tufayli o'tgan irsiy belgilaridan faxrlanar edi. Nasib qilsa, ikkala o'g'limni ham vatanparvar yigitlardan qilib tarbiyalayman, degan qat'iy qarorga kelib qo'ygan edi. Katta o'g'li to'rt yoshga chiqqanida qizi Sayqal tug'ildi.

Otakeldi bilan Nazikning o'zaro mehr-muhabbati kuchli bo'lib, suyukli farzandlari tufayli juda baxtiyor edilar. Otakeldi dilida oilamizga ko'z tegmasin deb tilak qilib qo'yardi. Omontoy ham akasi singari otasining pinjidan chiqmaydigan bo'lib

qolgan edi. Uchovlon baqamti bajaradigan gimnastika o'yinlari ularga huzur-halovat bag'ishlab, buningsiz bir-birini sog'inadigan bo'lib qolishgan edi. Oradan bilinmay oylar, yillar o'ta berdi. O'sha damlar hayotning eng baxtiyor davri bo'lgan ekan. Vaqtning bir kuncha bilinmay o'tib ketayotganini qarang. Qubontoy bog'cha yoshidan o'tib, maktabda ikkinchi sinfda o'qiy boshladi. Er-xotin Qubontoyning o'qishini doim nazorat qilib borishar edi. Muallimi Qubontoyning hamisha a'lo baholarga o'qigani bilan haddan tashqari sho'xligidan shikoyat qilar edi. U o'z sinfining boshvog'i yo'q peshqadami edi. Omontoy ikki yildan buyon bog'chaga qatnaydi. U ashulaga, raqsga qobiliyatli bo'lib, bog'chaning namunali tarbiyalanuvchilaridan biri edi. Otakeldining gimnastikaga oid mashqlari o'g'illarining chaqqon, abjir va qomatlari barkamol bo'lib yetilishida o'z samarasini bera boshlagandi.

Otakeldi Budapeshtga jo'nash arafasida o'g'illari bilan xayrlashuv onlarini eslaganida vujudi zirqirab, nafasi qisilib, alp qomati qaltirab, ko'z yoshlarini tiya olmay, miyasiga qon urib, nari borib, beri keldi. Ikkala o'g'li ham otasining bo'ynidan quchoqlab qo'yib yubormay, galma-gal o'pkilashib, "Ota, bormay qo'ysangiz bo'lmaydimi?" deyishib, yelimdek yopishishgan edi. Otakeldi mehribon qo'llar "zanjir"ini oxista bo'ynidan bo'shatib: "O'g'illarim, endi sizlar binoyidek yigit bo'lib qoldinglar, oyingizni ranjitmay, aytganini qilinglar, men ishlab kelayin. Erkak kishi el ko'rib, yer ko'rib, hunari bilan, mehnati bilan bolalarini boqadi. Men ham yaxshi ishlab, sizlarni ulg'aytirib, yaxshi o'qishlaring uchun mablag' topib kelayin", deb go'yo kattalar bilan dardlashganday ularni ovutdi. Uchala bolasini o'pib, hidiga to'yib, erkalatib bo'lgach, olis safarga jo'nagan edi.

Otakeldi yengil mashina eshigini ochib o'tirgan pallada Qubontoy "Ota-aa!" deb qiyqirib, yugurib kelib bo'ynini quchoqlab oldi. Uning ortidan Omontoy ham yugurib kelib, otasini o'pib, hidlab xayrlasha boshladi. Ushbu xayrlashuv ota-bolalarning so'nggi fojiali xayrlashuvi ekanligini hech kimisi xayoliga ham keltirmagan edi. Chunki bunday manzara ular uchun odatdagi xayrlashuvlarning biriday bo'lib tuyulgan edi. Ammo o'g'illari

go‘yo otaning diydoriga to‘ymayotganday ruhiy holatda edilar. Qizi Sayqal ham o‘ksib yig‘lab qolaverdi. Otakeldi: “Bo‘ldi endi” deb, mashina eshigini oxista yopib, jo‘nab ketdi.

O‘sha xayrlashuv xotirasida tiklanib, o‘pkasini bosolmay, ko‘zlaridan shashqator yosh quyilib, yosh boladay uvillab yig‘-ladi. Yonida hamdardlik bildiradigan hech kimsa yo‘q edi. Farzandlarining ayni damdagi taqdiri, ularga bo‘lgan sog‘inch hissi, kutilmagan musibat bir lahzada qaddini bukib qo‘ydi. Xay-riyat, yalt etgan xayrli bir fikr (interpolatsiya) uni g‘am daryosidan sohilga olib chiqdi. “Ularni qayerda bo‘lsa ham izlab topaman” deya shahd o‘rnidan turib ketdi. Sentabr oyi bo‘lgani uchun nam-xush havo hukmron edi. Eshikka shitob bilan chiqib, chor-atrofga ko‘z yugurtirdi. Shahar ichi odatdagiday benuqson ko‘rinishda. Ko‘chadan onda-sonda mashinalar o‘tib turibdi. Hech qanday mu-sibat sharpasi yo‘q, doimgiday osudalik. Mayin, salqin shabada esib turibdi. Soatiga qarasa, beshga 25 daqiqa qolibdi. Otakeldi o‘zini erkakcha qo‘lga olishga qaror qildi. O‘zining zaifligiga ori ham keldi. Otam “Erkak bo‘lsang — irodali bo‘l” degan, shu vasi-yatini unutib qo‘ydimmi, degan o‘yni xayolidan o‘tkazdi. O‘ziga o‘zi g‘ayrat berib, bolalarini topish uchun iroda kerakligini, ilga-rigidek bardoshli bo‘lishi lozimligini, zudlik bilan Qirg‘izistonga uchib ketishi kerak ekanligini xayolidan o‘tkazdi.

* * *

Otakeldi Mojaristonga ketgandan beri farzandlar tarbiyasi, ro‘zg‘orning barcha tashvishlari yolg‘iz Nazikning zimmasida bo‘lib qoldi. Ikkala o‘g‘il ham otasining o‘rniga onasiga ko‘mak-dosh bo‘lish bilan birga gimnastika mashqlarini ham unutishma-di. Yelib-yugurishdan boshi chiqmay qolgan Nazikning durustroq hordiq chiqarishga imkoni bo‘lmay qoldi. Sayqal bilan Omon-toyni bog‘chadan olib kelib, Qubontoyga: “Hovlidan uzoqqa ket-may o‘ynanglar”, deb tayinlab, Sayqalni yetaklab zarur narsalar xarid qilgani bozorga jo‘nadi.

Qubontoy bilan Omontoy hovli yaqinida o‘ynay boshladilar. Onalari bozorga ketganidan o‘n daqiqa o‘tmay, uning ketishi-ni poylab turgan qora rangli “Mersedes” mashinasi oxista kelib,

bolalar yonida to‘xtadi. Qubontoy otam kelib qoldimi degan umid bilan mashinaga tikilib qoldi. Yo‘q, otasi emas ekan, mashinaning eshigi sekin ochilib, uzun bo‘yli, qora ko‘zoynak taqqan notanish kishi ko‘rindi.

— Otakeldining uyi shumi? — deb bolalardan so‘radi notanish kishi.

— Shu bizning uyimiz, — deb ko‘rsatkich barmog‘i bilan ishora qildi Qubontoy.

— Hm-m... — deb o‘ylanib turib qoldi Aqlbek. Keyin ko‘zidan ko‘zoynagini olib, riyokorlik bilan jilmayib, yana savol berdi:

— Sen kimning o‘g‘lisan?

— Otakeldining, — dedi Qubontoy.

— Rostdanmi?

— Ha, — dedi Qubontoy quvonch bilan.

— Bay-bay, men izlagan sen ekansan-da.

— Meni izlab keldingizmi? Meni tanimaysiz-ku? — dedi Qubontoy.

— Ha, men seni izlab keldim, sirtingdan taniyman-da.

— Omontoyni ham taniysizmi?

— U kim?

— Mening ukam-da, — deb Omontoyni ko‘rsatdi Qubontoy.

— O‘zingning isming nima?

— Mening ismim Qubontoy.

— Ukam Omontoy degin, o‘zingizga duch kelganim zap ish bo‘ldi-da, otang qayoqda?

— Uzoqqa ketgan, otamni sog‘indik.

— Otang qachon keladi?

— Bilmayman, — deya javob bergan Qubontoy xomush tortdi.

— Bizni nega izladingiz? — deb so‘zga aralashdi Omontoy.

— Meni otalaringiz sizlarga yubordi.

— Otamning o‘zi kelmay, nega sizni yubordi? — deb so‘radi Omontoy.

— O‘zi ishlayapti, vaqti yo‘q, men o‘sha uzoq Rossiyaga ketyapman, otanglar sizlarni olib borishimni iltimos qilgan, — dedi Aqlbek jiddiy tarzda.

— Oyim ham boradimi? — deb so‘radi Omontoy.

— Yo‘q, faqat ikkalangiz borasizlar. Oying Nazikmi?

— Ha, — dedi Qubontoy.

— Oyimni qayerdan taniysiz? — so‘zga aralashdi Omontoy.

— Oyingni taniyman, — dedi Aqlbek.

— Unda nega oyim biz bilan birga bormaydi?

— U qoladi, sizlardan kichigi ham bormi?

— Sayqal degan singlimiz ham bor, — dedi Qubontoy.

— Oying biron joyda ishlaydimi?

— Oyim ishlaydi, — dedi Qubontoy. Aqlbek biroz o‘ylanib turib:

— Biz Nazikka uchraganmiz, hozir u uydami? — deb Qubontoydan so‘radi.

— Uyda yo‘q, bozorga ketgan.

— Biz o‘sha bozorda uchrashganmiz, u uyga tezroq boraman degan edi, mashinaga chiqib o‘tiringlar, balki yana yo‘lda uchrab qolar.

Aqlbek mashinaga kirib, xotini Meerkan bilan nimalarnidir shivirlashib olishdi. Meerkan mashinadan chiqib, bolalarga bir changaldan shokolad berib, aylanib-o‘rgilib “olinglar, yenglar” deb, tabassum bilan mashinaga taklif qildi. Aqlbek kattalardan birontasi kelib qolib, ishning pachavasini chiqaradimi deb, zimdan chor atrofga alanglardi. Bolalar shokolad yeyishga kirishib, oyog‘i tortmayroq mashinaga o‘tirishdi. Ayol mehri ularning ikkilanishiga barham bergan edi. Aqlbek biroz xotirjam bo‘la tushdi. Otasini o‘ta sog‘ingan norasidalar bu kishini otasi jo‘natganiga chindan ishonib qolishdi. Bularni uzoqda kuzatib turgan qo‘shnilarning o‘g‘il-qizlari bu notanish kimsalar Qubontoylarning qarindoshlari ekan-da, degan xayolga borishgan edilar.

— Otam yaxshi yuribdimi? — deb Omontoy er-xotinga galma-gal qaradi.

— Otang yaxshi yuribdi, maktabda o‘qish boshlanguncha men ularni yana eltib qo‘yishim kerak, hozir sen so‘zsiz o‘g‘illarimni olib kel, deb menga qat’iy tayinlagan. — Aqlbek yolg‘onni yamlamay yutib, bolalarning ishonchini qozondi.

— Siz o‘zingiz kimsiz?

— Men otangning qadrdon do‘sti Odil degan bo‘laman.

— Biz ketsak oyim yig‘laydi-ku, — dedi Omontoy.

— Aytdim-ku, bozorda oyingga uchradik deb, otangga yetgach, oyingga qo‘ng‘iroq qilib qo‘yamiz. To‘rt-besh kundan keyin Otakeldi sizlarni yana oyinglarga tashlab ketadi. Yana maktabga boraverasizlar.

— Men o‘qimayman, bog‘chaga boraman, — dedi Omontoy.

— Nazik bog‘cha opalaringga seni otasining oldiga ketdi, deb aytib qo‘yadi.

G‘alamislikni xayoliga ham keltirmagan farishtadek bolakaylarning ko‘ziga otalarining soxta do‘sti “Odil” najot farishtasidek bo‘lib ko‘rindi. Otalarini behad sog‘ingan aka-uka tezroq ota diydoriga to‘yib, qayta kelish umidida ablahning taklifiga rozi bo‘lishdi.

Aqlbek mashinani o‘t oldirib, yovdan qochgandek yeldirib ketdi. Xiyla masofani bosib o‘tgach, xilvatroq yerda nomerini almashtirdi. Meerkan aka-ukaga turli salqin ichimliklarni ichirib, ovqatga maylini so‘ragandi, bolalar to‘q ekanligini aytishdi. Ayol bolalarni gapga soldi:

— Otalaringni sog‘indinglarmi?

— Sog‘indik, — bolalar baravariga javob berishdi.

— Opa, otamning oldiga tezda yetib boramizmi? — deb so‘radi Omontoy.

— Yo‘l uzoq, to‘rt-besh kunda yetib boramiz, — dedi Meerkan.

Aka-uka mamnuniyat bilan jilmayib qo‘yishdi. Ularning fikri-zikri tezroq otalariga yetib, diydoriga to‘yish ishtiyoqi bilan band edi. Aqlbek mum tishlagandek jimgina mashinani o‘qdek uchirib borardi.

Aqlbek birdaniga ikkita o‘ljani in’om etgan Tangriga shukronalik keltirib borardi. Mashina bepoyon qozoq cho‘lida Rossiya sari yo‘l tanobini tortmoqda. Meerkan ham, bolalar ham tungi uyqu og‘ushida. Aqlbekning ikki ko‘zi yo‘lda, ketma-ket sigareta yondirib, yutoqib tortib, shu ikki norasidaga taalluqli o‘ylar girdobida ezgu niyatiga endi yetgan g‘oliblardek ketib borardi. O‘tmish

hayoti kino lavhalaridek ko'z oldidan o'ta boshlab, shu ikki bola mendan tug'ilganida ularning taqdiri boshqacha bo'lar edi, deb o'yladi dilida. Bunga Nazikning o'zi aybdor, u shu musibatni ko'rishi kerak edi, deb hukm chiqardi. Bu ikki go'dakning o'g'irlanishining siri uzoq o'tmishga tegishli bo'lib, hech kimsaga aytilmaydi. Qasos hissi hamisha Aqlbekning qalbini o'rtab kelgan.

Aqlbek o'ninchi sinf o'quvchisi edi. Yangi yilni kutib olish maktabda katta tadbirga aylanardi. Aqlbek ham bayram tayyorgarligida faol ishtirok etdi. Bayram tantanalaridagi qizlar ichidan Nazik Aqlbekning jigaridan urib qo'ygan edi. Uning maftunkor chehrasi, miyig'iga yaqin nuqtadagi bir tomchi qora xoli, so'zlash ohangi, jozibador raqsi, navnihol qomati Aqlbekning hirsini (afsuski, hislarini emas) junbushga keltirib qo'ygan edi. Nazik 6-sinfdan boshlab gimnastika to'garagiga qatnashib kelardi. U 8-sinf o'quvchisi ekanligi paytida Aqlbekni devonayi majnun qildi-qo'ydi.

Nazikning Aqlbekdan boshqa xushtorlari ham ko'p edi, lekin u hozircha hech kimga ko'ngil qo'ymagandi. Aqlbek ko'pgacha dardi ichida, sirtdan Nazikning soyasiga salom berib yurib, nihoyat qizga izhori dil etishga qaror qildi. Bir kuni qulay vaziyat ham tug'ildi. Aqlbek maktabga dars boshlanishidan yarim soat ilgari keldi, o'n daqiqalardan keyin Nazik ham kelib qoldi. Yo'lakda ikkalasi qamti kelishib, salom-alik qilishganidan so'ng Aqlbek ko'pdan ayta olmay yurgan sirini sirtga chiqardi.

— Nazik!..

Qiz yalt etib qarab:

— Nima deysiz? — dedi.

— Men seni sevaman, sen ham meni sevasanmi? — Aqlbek uzun bo'yli, qorachadan kelgan xushro'y yigit edi. Yigitning kutilmagan savoli, jilmayib tikilib turishi qizni kalovlatib qo'ydi. Beixtiyor: "Siz ham menga yoqasiz" deb yuborib, o'z sinf xonasi tomon yurib ketdi. Aqlbek atrofga alanglab, hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, muddaosidagi javobdan hayajon bilan tashqariga qarab yurdi. Bu paytda ketma-ket o'quvchilar-u muallimlar kela boshlagan edilar. O'sha kuni kechgacha Aqlbek o'zini arshi a'loda yurgandek his qildi. Aqlbekning odatdan tashqari kayfiya-

tidan sinfdoshlari taajjublanishib, hazil-mutoyiba bilan ustidan kulishdi ham. U hissiyotlarini o'zgalarga oshkor qilib qo'ygani uchun xijolat tortdi. Shunday qilib, vaqt o'tgan sari ularning muhabbati avjiga chiqib boraverdi.

Aqlbek 10-sinfni bitirganidan ikki yil o'tib, Nazikning ham maktabni bitirish vaqti yetib keldi. Aqlbekning otasi boshqa xotini bilan uzoqda yashardi. Aqlbek ikki singlisi, onasi bilan bir oila edilar. Shunday bo'lsa-da, moddiy jihatdan nochorroq yashashsa ham, sportga berilib, boks seksiyasiga qatnashib, voleybol o'ynab, parvoyi falak ulg'aydi. Tengqurlari orasida uning aytgani amri farmon edi. Nazik yosh bo'lsa ham, ikki yilning badalida uning shaxsiyatiga qiziqib, aql elagidan o'tkazib, talay nuqsonlarini payqadi. So'nggi paytlarda ikkovi jiddiy arazlashib qoldilar. Arazning boshi Aqlbekning Nazik maktabni bitirishi bilanoq uni uyiga olib qochib ketish taklifidan boshlandi. Nazik, aksincha, ikkalasi oliy o'quv yurtiga kirib, ikkinchi kursni bitirgandan keyingina rafiqasi bo'lishga rozi ekanligini aytdi. Aqlbek bunga rozi bo'lmay, o'g'rincha ayshimizni surib yashayveraylik degan niyatini aytdi. Nazik bu rasvo taklifdan ko'kka sapchib, yerga tushdi.

— Ota-onamning yuzini yerga qaratib, nikohsiz qornimni bo'xchadek qilganimdan ko'ra, o'lganim yaxshi, — deb dangalini aytdi.

Nazik Aqlbekning kelishgan sirti bilan ichki dunyosi o't bilan suvdek xudbin, kekchil, qaysar, yengiltabiat, shahvatparast ekanligini anglab yetdi. Nazikka Aqlbekning taklifi uni masxaralayotgandek bo'lib tuyuldi. Aqlbek:

— Boshqalar xilvatda ayshini surib, mazza qilib yurishibdi-ku, sening ulardan qayering ortiq? — dedi darg'azab bo'lib.

— Tushunchang rasvo ekan, bunday yengiltak bo'lib, meni jazmanlikka tanlagan bo'lsang, o'rgildim sendan, — deya Nazik shartta turib jo'nab qoldi.

Aqlbek qizning yo'lini to'sib, bilagidan tutib qo'rqitdi:

— Shundoq ketib qutulaman deb xomtama bo'lma, seni gumdon qilib yuboraman.

Nazik qo'lini siltab tortib olarkan:

— Men o'limdan qo'rqmayman, osmon qo'lingda bo'lsa tashlab yubor, mening ham orqa qiladiganlarim bor, — deb jahl bilan yugurib ketib qoldi.

— Nazik, shoshma, Nazi-ik! — deb Aqlbek qiyqirganicha qolaverdi. Yana ortidan yugurib osiladigan bo'lsa, o'tgan-ketganlarga sharmanda bo'lishini o'ylab, taqdirga tan berdi. O'rtaga militsiya tushishi ehtimoli ham uni shashtidan qaytardi. Xilvatda bo'lganida onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatar edim, deb dardini ichiga yutdi. O'shandan buyon ular yuzko'rmas bo'lib ketishgan edi, mana endi qasos olish davri keldi. Ikki norasida tufayli niyatiga yetgani uchun og'zi qulog'ida, qo'li rulda, ikki ko'zi yo'lda. Yana sigareta yondirdi.

* * *

Aprel, may oylari har xil sport musobaqalariga boy palla emasmi. Nazik viloyat musobaqalarida badiiy gimnastika bo'yicha erishgan yutuqlari tufayli respublika musobaqasida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan edi. Endi esa respublika musobaqasida faxrli to'rtinchi o'rinni zabt etishga muyassar bo'ldi. Tuman miqyosidagi sportchi uchun bu ulkan zafar edi. Otakeldi mohir trener maqomida juri tarkibida edi. U faxriy yorliqlarni, diplomlar va mukofotlarni topshirayotib, Nazikning qo'lini samimiy qisib: "Sizga ikki og'iz gapim bor edi, tantana tugaguncha kutib tursangiz", — deb sekin shivirladi. Nazik bosh silkib "ma'qul" ishorasini berdi. Davomli qarsaklar, dilrabo musiqa avjida edi. Nazik murabbiy opaga kelib, Otakeldining gapini aytgan edi, u: "Mumkin, seni badiiy gimnastikani davom ettirish uchun poytaxtga taklif qilmoqchidir", — deya taxmin qildi.

— Ehtimol, — deb qo'ydi Nazik.

— Mayli, kutamiz, sen anig'ini bilishing kerak, — dedi murabbiysi.

Marosim tugab, Otakeldi Nazikning oldiga kelib, murabbiysi bilan salomlashgach, yetuk shogirdlarni tarbiyalagani uchun unga minnatdorchilik bildirdi. So'ngra Nazikdan:

— Barcha ko'rinishlarni a'lo darajada namoyish qildingiz, sizning kelajagingizdan ko'p narsani umid qilsa bo'lar ekan. Agar

murabbiyingiz rozi bo'lsa, mashqlarni markazga borib davom ettirarmidingiz? — deb so'radi.

— Markazda davom ettirsa nur ustiga a'lo nur, men kelajagi porloq shogirdimga monelik qilarmidim, — dedi murabbiy ayol iftixor bilan.

— Bu yil Bishkekka borib, oliy o'quv yurtiga hujjat topshirib, omadimni sinab ko'raman, — dedi Nazik.

— O-o, unda juda soz, men bugunoq ota-onangizning oldidan bir o'tishim kerak bo'ladi. Qarshi bo'lmasangiz, meni ular bilan uchrashtirsangiz, — deb, Otakeldi keyin murabbiyga murojaat qildi: — Siz bu qizingizga meni ota-onalari bilan uchrashtirishiga ruxsat bersangiz.

— Mayli, Nazik sizni uyiga olib borsin, men uni uyga borgan-bormaganini otasidan so'rab qo'yaman, — dedi murabbiy ayol.

— Xijolat bo'lmang, bu qizni gard yuqtirmay oilasiga topshirish mening mas'uliyatim, — dedi Otakeldi. Nazik ikkilanibroq rozi bo'ldi.

— Siz ham o'zimiz tomonlardanmisiz? — deb so'radi Nazik.

— Yo'q, men boshqa tumandanman, yuring endi, siznikiga ketdik, — dedi Otakeldi qat'iy ohangda.

Ikkalasi ko'chaga chiqishib, Otakeldining mashinasiga o'tirishib, yo'lga ravona bo'lishdi.

Otakeldi hakamlar hay'atida o'tirib, Nazikning mohirona xatti-harakatlarini, yo'l qo'ygan nuqsonlarini diqqat bilan kuzatdi. Qizning xushro'y chehrasi, qad-qomati, issiq istarasi Otakeldini mahliyo qilib, ruhiyatini tug'yonga solib qo'ydi. U hozir o'z taqdiriga beparvolik qiladigan bo'lsa, shu qiz tufayli umrbod armonda o'tishini his etdi. Shuning uchun bunday imkoniyatni boy bermay, munosib juftlik topilganda temirni qizig'ida bosishga qaror qildi. Mana endi yuragiga cho'g' tashlagan qiz yonida o'tiribdi. Otakeldi ishqilib oxiri xayrli bo'lsin deb Yaratganga iltijo qilib kelardi.

— Og'ay, meni mashinangizda eltganingizga ota-onam qanday qararkin?

— Bu tomondan tashvishlanmang, sizni xijolatda qoldirmayman, — dedi Otakeldi. U yosh qizni sizlayotganiga o'zi ham hay-

ron qoldi. Bu yoshdagi qizlarni "sizlamas" edi. Bunisi hozirgi hissiyotimdan bo'lsa kerak deb, o'yladi u. Nazik ham o'z xayollari bilan band edi. Otakeldining purma'no so'zlari, kelishgan qad-qomati, bilimdonligi, istarasining issiqligi qizga ham har tomonlama yoqib tushgan edi. Bir qusuri o'zidan 8-10 yoshlar chamasida kattaligi edi. Oilali bo'lsa kerak, degan taxmini dilini biroz g'ashlab qo'ydi. Bu yog'i taqdirga havola deb, o'zini o'zi ovutdi.

— Nazik, uzoq yo'lni suhbat qisqartiradi, suhbatlashib ketaylik, qarshi emasmisiz?

— Qarshi emasman, og'ay.

— Unda meni zeriktirmay keting.

— Sizga nimani gapirsam ekan, yaxshisi, siz savol bering, men javob beray.

Otakeldi qizning o'rinli javoblaridan mamnun bo'lib, navbatdagi savolni berdi:

— Murabbiyingizning ismi nima?

— Gulnara opa.

— O'sha opangiz siz uchun xo'b ter to'kibdi-da.

— Men ham undan behad minnatdorman.

— Endi bundan buyog'iga siz bilan men shug'ullansam, nima deysiz?

— Oliy o'quv yurtiga kirib qolsam gimnastikani ham davom ettirar edim, og'ay.

— Ilohim shaharda o'qing-da, murabbiyingiz men bo'lib qolay.

— Aytganingiz kelsin, og'ay.

— Shuning uchun yaxshi niyat bilan sizlarnikiga ketyapman-da.

— Siz ortiqcha ovora bo'ladigan bo'ldingiz.

— Ovorasi bormi, sizni uyingizga eltib qo'yish mening hayotimda muhim ahamiyatga ega, — deb Otakeldi "qarmoq" tashladi.

Ziyrak qiz piq etib kulib qo'yib, savolga o'tdi.

— Siz o'zingiz qaysi o'quv yurtini bitirgansiz?

— Oliy harbiy bilim yurtini bitirganman. Ittifoq davrida harbiy xizmatni Rossiyada o'tab, o'qishni ham o'sha yoqda bitirganman.

— Harbiyda xizmat qilmaganmisiz?

— Armiyada desant rotasi komandirining yordamchisi edim. Qirg'iziston mustaqillikka erishgach, elimga xizmat qilay deb o'zimizga kelganman.

— Harbiygacha sportning qaysi turi bilan shug'ullangansiz?

— Gimnastika bo'yicha sport ustasi edim. Bundan tashqari, erkin kurash bilan ham shug'ullanardim.

— Shuning uchun juri tarkibida ekansiz-da?

— Ha, albatta.

— Hozir nima ish qilyapsiz?

— Shaharda badiiy gimnastikadan yoshlarga saboq beraman.

— Unda o'qish nasib qilib qolsa, bo'sh vaqtlarimda sizlarga kelib shug'ullansam bo'lar ekan-da?

— Ayni muddao, men sizga tan berib, ota-onangizning fikrini bilay deb, siz bilan ketyapman-da.

— Og'ay, siz rosa ovora bo'ldingiz-da.

— Bu aytishga arziydigan narsa emas. Siz mashinamga o'tirib, birga borishga rozi bo'lganingizdan boshim ko'kka yetdi.

— Meni uyimga olib ketayotganingiz uchun katta rahmat! Mening kelajagimning ham g'amini yeb kelayotgan ekansiz-da?

— Ha, albatta, yo'qsa nima qilishim kerak edi?

— Bu yoqqa ovora bo'lib kelib yurmay, o'zim va murabbiyim bilan hal qilib qo'ysangiz bo'lardi-ku.

— Bunisi-chi, yomonmi?

— Yomon emas, lekin darrov mashinangizga chiqib o'tirib olganimga endi o'zim hayron qolyapman.

— Men ham sizni mashinamga taklif etishga jur'at qilganimga o'zim endi ishonmayapman.

Ikkalasi ham miriqib kulishdi. Nazik shirin xayolga berildi. Kelajakdagi umr yo'ldoshim shu og'ayday bo'lsaydi, deb havasi keldi. Aqlbekka qiyoslab, Otakeldidan zarracha qusur topmadi. Jimib qolgan Nazikni Otakeldi yana "turtkilab" qo'ydi:

— Meni zeriktirmay gapirib turing.

— Ko'p gapirib, siz haqingizda to'liq axborotga ega bo'ldim.

— Bir yeri chala qoldi.

— Qaysi yeri?

— Oilam bormi, yo‘qmi, shuni so‘ramadingiz.

Nazik qiqirlab olib:

— To‘g‘ri aytdingiz, og‘ay, so‘rayin dedim-u, lekin og‘zim bormadi, — dedi.

— Uylanganimcha yo‘q, bo‘ydoqman, — deb kulib qo‘ydi Otakeldi.

— Bunisi yaxshi, — deb Nazik ham kuldi.

— Nimasi yaxshi, yoshim o‘tib ketyapti.

— Yigitlarning yoshi o‘tmaydi. Sog‘lig‘ingizga ko‘z tegmasin, shoshilmay uylansangiz ham bo‘laveradi.

— Qarib qolibsan deb, qizlar burnini jiyirsa nima qilaman.

— Qo‘rqmang, sizga turmushga chiqmay qo‘yishmaydi.

Nazikning oilaviy mavzudagi ham samimiy suhbati Otakeldining mehrini yanada tovlantirdi.

— Endi men ham siz haqingizda ma’lumotga ega bo‘lsam yaxshi bo‘lar edi, — dedi Otakeldi.

— Mayli, og‘ay, so‘rayvering.

— Siz Nazik Akjo‘levna Joldoshevasiz, to‘g‘rimi?

— Meni yaxshi tanib qolibsiz, endi oyimni ham tanishtirib ketayin, oyim Anipa Joldosheva.

— Ota-onangizning kasbi nima?

— Ikkisi ham muallim, oyim biolog, otam filolog.

— O-o, ziyoli insonlar deng! Men bo‘lsam ular bilan til topisha olamanmi, yo‘qmi, deb g‘ulg‘ulada edim.

— Yaqinda test topshirib, o‘qishga kirib qolsam, ota-onam sizning maktabingizga qatnashimga ham qarshi bo‘lmas.

— Men ham shuni o‘ylab, sizni o‘zim toblab, respublikaning katta musobaqalarida peshqadamga aylantirsam, deyman.

— Tangrim qo‘llab, o‘sha kunlarga yetayin, og‘ay.

Qizning hayotga munosabati, ko‘pni ko‘rgan kattalardek yorqin, tortinmay ochiq so‘zlashi, yoqimtoy chehrasi Otakeldining qalbini tobora ohanrabodek o‘ziga tortar edi. Shunday barkamol qizga yigitlar pashshaxo‘rda bo‘lmay qo‘yadimi, ishqilib yigiti yo‘q, boshi ochiq bo‘lsin-da, degan xayol Otakeldining miyasida charx urardi. U qanday qilib bu muammoning tagiga yetishni bilmay, so‘rasam qizni ranjitib q‘oyamanmi

deb, ichidan ezilardi. Qiz ham orqadagi o'rindiqda o'z xayollariga g'arq bo'lgandi. Mabodo qiz: "Yigitim bor, og'ay", — desa boshiga gurzi tushadigandek, umid bilan urib turgan yuragiga xanjar sanchilgandek ahvolga tushishini o'ylab, Otakeldini vahima bosardi. Anchagacha so'zsiz qolishgandan keyin Otakeldi qat'iyat bilan tavakkaliga hazil aralash savol berdi:

— Indamay qoldingiz, yigitingizni o'ylab qoldingizmi? Qo'pol savolim uchun uzr.

— Yigitim yo'q, og'ay. Ilgari bittasi xushtor bo'lib qoluvdi, tushunchasi rasvo ekan, yuzko'rmas bo'lib ketganmiz.

Bu xushxabardan Otakeldining yuragi gumburga kelib, yelkasidan tog' ag'darilganday bo'ldi. Quvonchini qizga bildirmaslikka urinib, sipolik bilan so'z boshladi:

— Arazlashuvlar bo'laveradi, vaqt o'tib yaralar bitib, bir-birini kechirishadi, shunday emasmi?

— Yo'q, og'ay, gap arazlashuvda emas, to'qimtabiat, fe'l-xushi xudobezor odam bilan umrbod baxtli yashash mumkin emas, deb o'ylayman. Xudo bir marta bergan umrni tavakkalga solmay, baxtiyor yashab o'tishimiz kerak-ku.

Qiz ichki dunyosini, hayotga ko'z qarashini Otakeldiga to'kib solgan edi.

— To'g'ri aytasiz, har bir odam baxtli yashagisi keladi, lekin baxtsizlikni odam o'ziga o'zi tilab oladi. Eng asosiysi — yengiltaklik bilan o'tkinchi rohatga aldanmay, uzoqni ko'ra bilib, tabiatga, odamlarga xolis niyat, mehr ko'zi bilan qarashga o'rganishimiz kerak, — dedi Otakeldi.

— Men ham shunday fikrdaman, og'ay.

— Ikkalamizning fikrimiz bir joydan chiqdi, dunyoga, hayotga bo'lgan ko'z qarashimiz bir qolipda ekan.

— Og'ay, hurmat yuzasidan meni "siz"lab gapiryapsiz, meni "sen"layvering. Men hozir maktab partasidagi o'quvchiman, boz ustiga, ota-onamning ko'zicha ham "sizlasangiz" ularga o'yan ko'rinmasin.

— Xo'p, bundan buyon "sen" deyman. Bizning mashg'ulotimizdagilarning kattasi ham bor, kichigi ham bor, shuning uchun ularga umumiy tarzda "siz" deb murojaat qilib ko'nikib qolibmiz, — dedi Otakeldi kulib.

— Endi meni "sen"lab ko'ring-chi, og'ay.

— Nazik, sen!

Ikkalasi qah-qah urib kulishdi. Bu hamrohlik ikkalasiga ham cheksiz huzur-halovat in'om etgan edi. Vaqt ham bilinmay o'tib ketdi. Mashina yaltillagan ravon yo'lda zuvillab ketib borardi. Yo'l chetidagi dov-daraxtlar qiyilib yiqilayotganday ketma-ket ortda qolib ketardi. Nazik u yoq, bu yoqqa alanglab olib:

— Og'ay, qishloqqa yaqinlashib qoldik, — dedi.

— Yana qancha yuramiz?

— O'n daqiqalarda yetib qolamiz.

— Juda oz qolibdi. Yanada uzoqroq bo'lganda yaxshi bo'lardi.

— Nega?

— Sen bilan uzoq gaplashgim kelyapti, — deb Otakeldi kulib qo'ydi.

— Men o'qishga borib olsam, keragicha gaplashaveramiz.

— Juda soz, o'shanda uzoq-uzoq suhbatlashaylik. Sen bilan tanishganimdan juda baxtiyorman, bugungi kun aslo yodimdan chiqmaydi.

— Men uchun ham xuddi shunday, og'ay. Mana, qishloqqa ham kirib keldik. Endi anavi qarshi yo'ldan chapga burilasiz.

— Yarim soatga qolmay yetib keldikmi?

— Og'ay, yo'lga chiqqanimizga bir soatdan oshdi.

Otakeldi mashinasini chapga burdi.

— Endi to'g'riga haydayverayinmi?

— Ha, to'g'riga haydayvering.

— Ikki yuz metrcha qolganda to'xtating degin.

— Xo'p bo'ladi, xo'v anavi katta terakdan o'tib to'xtatasiz.

Mashina katta ko'k eshikning oldiga kelib to'xtadi.

— Og'ay, men uyga kirib chiqayin, siz ozgina kutib turing, — deya Nazik mashinadan tushib hovliga kirib ketdi. Otakeldi mashinadan tushib kutib turdi. Nazik uyga kirsa otasi bor ekan. Otasiga mehmon kelganini aytib, o'zi to'shak solishga kirishdi. Akjo'l mehmonga peshvoz chiqib, salom-alik qilgach, ichkariga boshladi. Nazik mehmonga: "To'rga o'ting", deb joy ko'rsatdi. Mehmon bilan mezbon o'tirishgach, darhol Otakeldi so'z boshladi. Akjo'l bu kutilmagan mehmon nima maqsadda keldi ekan deb,

undan ko'zini uzmay diqqat bilan tingladi. Otakeldi qanchalik vazmin, sipo bo'lishga intilsa ham, baribir mezbonning suri bosib, so'zlari poyintar-soyintarroq chiqdi:

— Men Bishkekdan keldim.

— Ism-sharifing kim?

— Otakeldi Aqmatov Kemelbek o'g'li.

— Kasbing nima?

— Bishkek shahrida gimnastika bo'yicha yoshlarga murabbiylik qilaman.

— Bu yoqqa qanday ish bilan kelding?

— Huzuringizga kelishimdan maqsad, agar sizlar rozi bo'lsanglar, Nazik maktabini bitirgach, uni Bishkekdagi badiiy gimnastika seksiyasiga qabul qilsak, degan qarorga keldik. Nazik o'ta qobiliyatli qiz. Respublika musobaqasida yaxshi natijaga erishdi.

— Nechanchi o'ringa ilashdi.

— To'rtinchi o'rinni oldi.

— Qoyil, qizim azamat-da!

Otakeldi so'zida davom etdi.

— Qishloqlik sportchi uchun bu ulkan muvaffaqiyat. Agar bizda malakasini oshirsa, keyingi musobaqalarda birinchi o'rinni olishi shubhasiz. Bo'lajak chempionlarni shunday qishloqlardan o'zimiz topib, mashhur yulduzlarga aylantiramiz.

— Nimaga kelganingni endi tushundim, — dedi Akjo'l. U avvaliga Otakeldiga ro'yixush bermay o'tirgan edi. Ilmoqli savollarining sababi ham shunda edi. Endi mehmonning beg'araz tashrifini tushunib yetgach, uni samimiyat bilan dasturxonga taklif qildi.

— Imkoniyat tug'ilib qolsa, taklifingga roziman, — dedi Akjo'l choy ichilib bo'lgach.

Otakeldi minnatdorchilik bildirib, ota va qizi bilan xayrlashib, iziga qaytdi. Akjo'l uni kayfiyati chog', oq yo'l tilab kuzatib qoldi.

* * *

Aqlbek Nazikning ko'nglini ovlab, yarashib olishga ko'p bor urindi. Lekin Nazik cheksiz nafratini zarracha yashirmay, uni aslo yoniga yo'latmadi. Aqlbekning tepa sochi tikka turib: "Shoshmay

tur, ahmoq bo'lmasam allaqachon tilingni qisiq qilib qo'ymasmidim. Omon bo'lsam, dunyoga kelganingga pushaymon qildirmasammi", — deb shafqatsiz kek saqlab qo'ydi.

Kunlar oyga, oylar yilga almashib, vaqt degani uchqur qushdek o'taverdi. Nazik onasi izidan borib, universitetning biologiya fakultetiga shartnoma asosida o'qishga kirdi. Budjetga juda oz o'rin berilgan ekan. Bu o'rinlar yuqori martabali amaldorlar bilan boylarning o'g'il-qizlaridan ortmay qoldi. O'sha paytlarda Ittifoq parchalanib, Qirg'iziston mustaqil davlatga aylanib, yuzdan ortiq davlatlar Qirg'izistonning mustaqil davlat ekanligini tan olgan edi. Hokimiyat kursisida akademik Asqar Akayev o'tirardi. Qirg'iziston xalqi o'z vatani ham obod, madaniyatli o'lkalar qatoriga qo'shiladi degan umidda og'zi qulog'ida edi. Xorijiy mamlakatlar yoppasiga Qirg'izistonga o'z elchixonalarini ochib, turli delegatsiyalar, konsultantlar kelib, boy mamlakatlar Amerika dollari hisobida birin-ketin yordam tariqasida grantlarni 4 foiz bilan qarz bera boshlagandi. Qirg'izistonga qarzga berilgan pullar ikki milliard Amerika dollaridan oshib ketgan edi. Qirg'iz amaldorlari pulga g'arq bo'lib, bosar-tusarini bilmay qolishgandi. Natijada ochko'zlik dardiga chalingan oliy martabali amaldorlarning barchasi boylik desa o'zlarini samolyotdan parashutsiz tashlaydigan bo'lib qoldilar. Qirg'izistonning jamiki boyliklarini, zavod va fabrikalarini, hatto yerni ham suvtekin xomtalash qilishlari uchun qonunni o'zlarining foydasiga muvofiqlashtirishib, mulklarni xususiylashtirishga o'tdilar. Yomg'irdan keyingi qo'ziqorinday banklar bolalay boshladi. Bankirlar chet ellardagi gumashtalari bilan og'iz-burun o'pishib, har xil firmalarni ochdilar.

Ular shuncha boylikka ham qanoat qilmay, chiroyli qizlarning konkurslarini uyushtirishib, 18-25 yoshli suluv qizlarni tanlab, xorijdagi maoshi yaxshi ishxonalarga shartnoma asosida yuborish yoki shunchaki turist bo'lib borib, go'zal maskanlarni ko'rib kelishlari uchun chiqimini hotamtoylik bilan ko'tarishib, o'zlarini o'ta saxovatpesha qilib ko'rsatishib, ularni aldab, yoppasiga samolyotlarga solib, jinsiy qullikka sotib yubora boshladilar. Qirg'izning bo'lajak onalari Germaniya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklariga jo'natilar edi. U yerlardagi maxfiy

firmalar, fohishaxonalar qirg'iz qizlaridan shunchaki tovar sifatida foydalanishib, yayrab qolishdi. Beor, pastkash qirg'iz amaldorlari shunchalik ablahlikka borishdi.

Qirg'iz xavfsizlik xizmatlari poraga bo'kib, aybni bozor iqtisodiyotiga to'nkab qo'yishdi. Qirg'iz amaldorlari, firma egalari fohishabozlarga dallollik qilib, qirg'iz qizlarini sotish bilan o'ta sharmandalik va pastkashlikka borayotganliklarini xayollariga ham keltirganlari yo'q.

Zavod, fabrikalarning dastgohlari, ishlab chiqarish mashinalari talon-taroj qilinib, chet elga sotib yuborildi. Temir zotining o'ta qimmatbahosi ham, oddiysi ham sotilib ketdi. Qirg'izistonning tog'-kon sanoati tanazzulga uchrab, ulardagi a'lo darajadagi imoratlar buzilib, armatura, temirlar, yog'och-taxtalar ham sotib yuborildi. Ko'kyong'oq, Toshko'mir, Sulukta singari shaharlarning sanoat nuqtalari urushda qolganday harobaga aylandi. Ochko'zlik yuqori cho'qqisiga chiqib, navbat oltin konlariga keldi. Kelajak avlodga hech narsa qoldirgilari kelmadi. Oddiy aholining turmush darajasi ayanchli ahvolda edi. Nafaqaga muhtojlar besh-olti oylab nafaqasini ololmas edilar. Akademik Asqar Akayevning saltanati davridagi Qirg'izistonning mudhish manzarasi ana shunday edi.

Qirg'iz generallari harbiyga olingan askarlarga yirtiq, chirigan formalarni kiygizib, qornini ovqatga yolchitmay, ularni mardikorlikka sotib, o'zlari chelakdek qorin solib, bo'rdoqidek semirdilar. O'g'ri, kazzoblar tobora bolalay boshladilar. Turmadan chiqqan ucharlar baquvvat sportchi yigitlardan to'dalar uyushtirib, "Biz reketmiz!" deb, hokimi mutlaqqa aylana boshladilar. Ular zo'ravonlik bilan kimlarningdir unmagan dovini undirib berib, undan o'z ulushlarini olib, qo'lida borlarni qo'rqitib, to'nab, boz ustiga kontrabanda bilan shug'ullanishib, hamyonlari shishganidan keyin davlat ahamiyatiga ega tushumi zo'r qurilishlarni ham sotib ola boshladilar. Qirg'izistonning badavlat arboblari ishtoni yo'qning hadigi cho'pdan deganlaridek, o'z soyasidan ham qo'rqadigan bo'lib qolishib, ustasi farang sportchilardan tansoqchi yollashga majbur bo'ldilar.

Prezident Akayev to'zg'iganni to'plagan Manas otamizning vasiyatlarini yuziga niqob qilib olib, poraxo'rlikni Oq uyning

yettinchi qavatigacha yetkazib qo'yib, xo'jako'rsinga darg'azab bo'lib, "Manasning arvohi ursin!"— deb stolni mushtlaganini zangori ekrandan ko'rib, boshimiz ko'kka yetgan edi. Afsuski, tili boshqa-yu, dili boshqa, qilgan ishlari goh Xudo-yu Rasul, goh g'amzayi usul ekanligini ko'rib, barmoq tishlab qolaverdik. Muqaddas Konstitutsiyani oyoqosti qilib, uchinchi muddatga ham saylanib olgach, Qirg'izistonning eng serhosil yerlarini o'z oilasiga, farzandlarining hamtovoqlari, shofyorlarigacha ulashib, daxlsiz mulkka aylantirishib, qonunlashtirib oldilar. Prezidentdan o'rnak olgan qolgan amaldorlari mo'may daromad manbayi bo'lgan bekatlarni, ko'chalarni, katta-kichik bozorlarni o'z mavqelariga yarasha bo'lishib oldilar. Sud, prokuratura, DAN xodimlari, jamiki kuch tizimlari porasiz salomga alik olmaydigan bo'lib qoldilar. Adolat, haqiqat degan tushunchalar borsa kelmasga ketdi. O'g'ri, muttahamlar ochiqchasiga avom xalqni qon qaqshatib, chorvasini o'g'irlab, hamyonini to'nab, tadbirkorlarga zo'ravonlik bilan oy sayin to'lab turiladigan qonunda yo'q soliqni soldilar. Bo'yin tovlaganlarni imi-jimida gumdon qilib yubordilar. Mana, G'arb demokratiyasining sharofati. Mana, to'ng'ich prezidentning karomatlari.

Ma'naviy jihatdan mayib, majruh shaxs Aqlbek qora guruhlar podasiga osongina qo'shildi-qo'ydi. Uni turmadan chiqqan Arab (laqabi "Volk") suhbatdan o'tkazgach, bir-ikki jinoiy operatsiyalarda ishtirok ettirib qanoat hosil qilgach, mukofot tariqasida xorij markasidagi mashina sovg'a qildi. Nazik yuz o'girganidan ichidan ezilib hamda moddiy jihatdan qiynalib yurgan Aqlbekning izlagani oyog'ining tagidan chiqib qoldi. Jir bitib qolgan Aqlbek o'zicha: "Endi Nazikni taslim qiladigan fursat yetib keldi", — degan qarorga keldi.

Nazik hademay fakultetning ilg'or talabalari safidan joy oldi. Leksiyalardan bo'sh vaqtlarida 2–3 soatlab badiiy gimnastika bilan shug'ullandi. Otakeldi uning mashqlariga alohida diqqat bilan e'tibor berib, qiz bilan yanada yaqin muomalada bo'lib qoldi. Ba'zan bo'sh vaqtlarida o'qish va gimnastikagina emas, hayotiy mavzularda ham samimiy suhbat quradigan bo'lib qoldilar. Nazikka Otakeldining o'zidan yoshi ancha katta ekanligi ham bilinmay

qoldi. "Og'ay" deb murojaat qilgani bilan, ikkalasi qadrdon do'stlarcha muomalada edi. Aslida ham Nazikni birinchi ko'rishdayoq Otakeldining qalbida muqaddas bir tuyg'u uyg'ongan bo'lib, uni tez-tez ko'rib turmasa, oromini yo'qotadigan bo'lib qolgan edi.

Otakeldi o'z ko'nglidagi juftini topganiga imoni komil edi. U yangi yil bayrami munosabati bilan Nazikka qo'l telefoni sovg'a qildi. U paytlarda qo'l telefoni endigina urf bo'lib, ozgina odamlarda bor edi. Nazik bu noyob sovg'ani ko'rib o'ng'aysizlandi. "Og'ay, bu narsa o'zingizga zarur, men uchun ovora bo'lmang" — degan edi, Otakeldi kulib:

— Nazik, menda ham bor, — deb o'zining telefonini ko'rsatdi, — endi ikkalamiz xohlagan paytimizda bir-birimiz bilan gaplashaveramiz.

— Ha, rostdan ham ajoyib narsa ekan, unda menga ham o'rgatib qo'ying, — deb o'tindi.

Yangi yil arafasi edi. Ikkalasi anchagacha suhbatlashib o'tirishdi. Otakeldi Nazikka telefondan foydalanishni o'rgatdi. Ikkalasi bir-biriga qo'ng'iroq qilishib, rohatlanib kulib o'tirishdi.

Nazik ham Otakeldisiz yashashni tasavvur qila olmas edi. Uning bilan umrbod birga bo'lishni Yaratgandan tilar edi. Bir umr unga aynan hozirgidek hurmat-ehtirom ko'rsatib yashashga ahd qilib qo'ydi. Esli jon emasmi, Otakeldining beg'ubor va muqaddas sevgisiga ishonsa ham, o'zi muhabbat izhor qilishini kutib yurdi. Otakeldi esa "Tez qaynagan tez soviydi", degan xalq hikmatiga amal qilib, bugungi kundagi "O'ldim, kuydim" deyilayotgan yengiltabiatlikka berilmay, ehtiyotkorlik bilan muomala qildi. Sovchilar masalasida ham qiz va ota-onalari qo'ygan shartga rozi bo'lishi kerakligini o'ylab yurardi. Badiiy gimnastika mashqlarida Nazikka ham boshqalarga qo'ygan talabni qo'yib, jiddiy munosabatda bo'ldi. Nazik Otakeldining qo'ygan talablarini aniq bajarishga ko'p kuch sarfladi. Bir kuni qiz Otakeldiga:

— Og'ay, yaqinda Valentin kuni, ya'ni sevgi bayrami bo'ladi deyishib qizlarning og'zi qulog'ida, siz bunga qanday qaraysiz? — dedi.

— Qaysi qizlar?

— Mening kursdoshlarim.

— Ularning sevgan yigitlari bor ekanmi yoki o'sha bayram kuni so'zsiz birovni sevib, bayram qilishar ekanmi?

— Unisini bilmadim-u, haytovur bayram yaqinlashib qoldi, deb quvonib yurishibdi.

— Sen ham quvonib yuribsanmi?

— Men uncha quvonganim yo'q, men siz bilan har uchrashganimda quvonaman.

— Men ham sen bilan uchrashganimda boshim ko'kka yetadi. Sen mening abadiy bayramimsan.

— Unday demang-chi, og'ay, Valentin kuni — sevgi bayrami haqidagi fikringizni aytsangiz.

— Bu bayram yengiltak, ko'cha qizlarining bayrami. Sen mening keskin fikr bildirganimga ranjima, bu bayram qizlarning boshini aylantirib, bahona topadigan ucharlarning, sevgini niqob qilgan palidlarning bayrami.

— Og'ay, juda qattiq ketdingiz-ku, aslida muhabbat degan narsa bor-ku.

— Ha, sevgi bor narsa, ammo u o'ta muqaddas, qalb to'rida saqlanadigan tuyg'u. Uni balandparvoz so'zlar bilan izhor qilish shart emas, aql bilan his etish kerak. Sevgini qalb to'rida e'zozlagan muhabbat sohiblari umrbod bir-birini hurmat qilib yashaydilar.

— Og'ay, o'rinsiz bergan savolim uchun kechiring.

— To'g'ri savol berib, mening muhabbat haqidagi fikrimni bilib olding. Ayt-chi, Nazik, mening sevgi borasidagi fikrimning qaysi yeriga ma'qul emassan?

— Men ham sizning fikringizga yuz foiz qo'shilaman.

— Juda soz. Unda ikkovimiz birga bir ovqatlanib olaylik, yur ketdik.

— Qayerga boramiz, og'ay?

— Sen qaysi ovqatni xush ko'rasan, shuni ayt-chi?

— Bugun jiddiy masalani muhokama qildik, shuning sharafiga beshbarmoq yeb qo'ya qolaylik, og'ay.

— Juda yaxshi.

Nazik Otakeldining muhabbatga bo'lgan munosabatiga bugun ham chuqur razm solib ko'rdi. Otakeldi Nazikning o'qishiga xa-

lal bergisi kelmay, uning vaqtini ham qizg‘anib yurdi. U qizning ota-onasidan keyingi eng yaqin odami bo‘lib qoldi. Nazik ayol zotidan ekanligiga borib, biroz tortinchoqlik qilsa ham, ancha-muncha hazil-huzulga borib, dilidagini aytishga moyil bo‘lib qoldi. Visol onlari ikkalasiga ham huzur-halovat bag‘ishlardi. 7 mart kuni soat 12 dan o‘tganda Otakeldi Nazikka qo‘ng‘iroq qildi.

— Nazik, bugun qay vaqtda bo‘sh bo‘lasan?

— Soat 4 dan keyin ancha bo‘sh vaqtim bor.

— Unda 3 dan keyin qo‘ng‘iroq qilaman, aytadigan gaplarim bor.

— Mayli, og‘ay, qo‘ng‘irog‘ingizni kutaman.

— Xo‘p, rahmat! — deb Otakeldi telefonni o‘chirdi.

Otakeldi bugungi uchrashuvning boshqacharoq bo‘lishini xohladi. Muhimi emin-erkin suhbatlashib, bayram bilan tabriklab, dil izhorini aytmoqchi bo‘ldi. Soyaga to‘n bichib yuravermay, qizning ham dilidagini bilgisi kelib, tag‘in birorta uchar o‘ziga og‘dirib olsa-ya, deb o‘ylaganda rashk o‘ti yuragiga g‘ulg‘ula soldi. Kelishilgan vaqtda Nazikka qo‘ng‘iroq qilib so‘radi:

— Nazik, seni qayerda kutay?

Nazik picha o‘ylanib turib, javob berdi:

— Kechagi ovqatlangan joyimizga borayin, og‘ay.

— Yaxshi, o‘sha yerda kutib turaman, — deb telefonini o‘chirdi Otakeldi.

U kecha birga ovqatlanishgan kafega yetganida Nazikning ham kelayotganini ko‘rdi. Ikkalasi ham ayni bir paytda yetib kelishi bir-biriga bo‘lgan hurmat ramzi edi.

— Og‘ay, sog‘liqlaringiz yaxshimi? — deb Nazik birinchi bo‘lib qo‘l uzatdi.

— O‘zing yaxshimisan, o‘qishlaring durustmi? — dedi Otakeldi tabassum bilan.

— Hammasi joyida, og‘ay, universitetimizda ertangi 8 mart bayramiga atalib tantanali majlis bo‘lib o‘tdi. Domlalarimiz muallima opalarimizni, qizlarni yoppasiga bayram bilan tabriklashdi. Tashqariga chiqsak, bir yigit meni bayram bilan tabriklab, gul uzatdi.

— Gulni nima qilding? — deb shoshib so‘radi Otakeldi.

— Nima qilardim, rahmat deb bosh silkib qo'ydim-da, bu yoqqa shoshildim.

— U gulini senga bera olmay qolaverdimi?

— Qolaverdi, gulini olsam yana boshqa gapga o'tishi tayin, natijada sizni kuttirib qo'yaman.

— U yigitni taniysanmi?

— Yuqori kursda o'qisa kerak, onda-sonda ko'rib yuraman-u, tanimayman.

— Ismini bilasanmi?

— Yo'q, buncha qiziqib qoldingiz, og'ay?

— U yigit bilan tanish bo'lsang, chaqirib olib xalal berdimmi deyman-da.

— Siz shubhalanmay qo'yavering, o'z erkim o'zimda-ku. Xohlasam "daf bo'l!" deyishim mumkin edi.

— Meni ham shunaqa siltab tashlayverasanmi? — dedi Otakeldi kulib.

— Qo'ysangiz-chi, og'ay, sizga hech qachon bunday muomala qilmayman.

— Shu ahdingda turasanmi?

— Shu ahdimda turaman! — dedi Nazik jiddiylik bilan.

— Unda yur, mening xonamga ketdik.

— Og'ay, u yoqqa bormayoq, shu kafeda ovqatlanib olib, biror joyda suhbatlashib o'tirmaylikmi, mening ovqatga yetarli pulim bor.

— Mening yotog'imni ko'rganingcha yo'q, bayram oldidan bir ko'rib qo'ysang, devdim.

— Mayli, og'ay, sazangiz o'lmasin.

Ikkovlon Otakeldining xonasi tomon jo'nashdi. Bu safargi uchrashuvda Otakeldi Nazikning qad-qomati, husni jamoliga mahliyo bo'lib, ko'z uzmay o'tirib suhbatlashdi. Qizning go'zal qomati paltoning ichida bo'lsa ham go'zalligini ko'z-ko'z qilib, maftunkor edi. Uzun sochi, manglayidagi bir tomchi qora xoli, charosdek ko'zlari, qayrilma qora qoshlari, kulganida behad yarashib turuvchi kuldirgichlari, kelishgan bo'yni — bari-bari bequsur edi. Otakeldi shuncha vaqtdan beri qizga razm solib yurib, uning boshqa qizlarga o'xshab tirnog'ini bo'yab, pardoz-andoz

qilmaganiga tan berdi. Yaratgan Nazikka tabiiy go'zallikni in'om etishda o'ta saxiylik qilgan edi. Ikkalasi trolleybusdan tushib, ozgina yurishgach, olti qavatli imoratning o'rtadagi podyezdidan ko'tarilishib, ikkinchi qavatdagi 19-xonaga kirishdi. "Mana keldik", dedi Otakeldi tashqi kiyimlarini yechib, ilgichga ilarkan.

— Uy iliq, sen ham ustki kiyimlaringni yechib o'tir, Nazik.

Nazik biroz tortinibroq u yoq-bu yoqqa alanglab qarab, tugmalarini yecha boshladi. Otakeldi Nazikning kiyimlarini o'zi olib, ilgichga ilib qo'yib, qo'li bilan ishora qilib, ichki xonaga ergashtirib kirib: "Bu yoqqa o'tib o'tir", — deb joy ko'rsatdi. Nazik o'rindiqqa o'tirib, chor-atrofga nazar tashladi. Uy xonalarida ikkovidan boshqa hech kim yo'q edi. Bu yerga Nazikning birinchi marta kelishi. Otakeldi oshxona tarafdan bejirim guldastani ko'tarib chiqib:

— Nazik, ertangi bayraming qutlug' bo'lsin! Shuningdek, umring uzoq bo'lsin! O'qishda, badiiy gimnastikada ulkan muvaffaqiyatlarga erish! Chehrangga soya tushmay, labingdan kulgu arimasin! Baxtli bo'l! — deb tabriklab, gulni uzatdi.

Nazik o'rnidan turib, gulni oldi-da:

— Rahmat, og'ay! Meni shunchalik siylaganingiz uchun niyatingizga yeting, oila a'zolaringiz bilan baxtli bo'ling, — deb guldastani ko'ksiga bosdi.

— Endi sen o'tiraver, bu gul seniki bo'ldi, men buni vazaga solib kelay, — deb Otakeldi guldastani Nazikning qo'lidan olib, oshxonaga qo'yib kelgach, Nazikning ro'parasiga o'tirdi. Nazik xayol og'ushida o'tirar edi. U bugungi uchrashuvda qandaydir o'zgarish yuz berishini dildan his qilgan edi. Bundan naryog'iga qanday voqealar kecharkin degan xavfsirashi ham yo'q emasdi. Otakeldi so'z boshladi:

— Nazik, senga nima bo'ldi, xomush tortib qolding?

— Yo'q, og'ay, kayfiyatim joyida, sizga shunaqa tuyuldimi? — dedi muloyim tabassum bilan.

Otakeldining ko'ngli ko'tarilib, sevgilisini to'yib hidlagisi kelib, miyasiga qon ufurdi... Yo'q, u o'zini qo'lga olib, hissiyotga berilmaslikka qaror qildi.

— Sening qorning och, kafeda ovqat yedirmay, bu yoqqa olib keldim. Sen zerikmay o'tirib tur, men gazga ovqat qo'yib ketgandim, pishib qolibdi, olib kelayin.

— Yo'q, og'ay, men ham yordamlashaman, — deb Nazik ham o'rnidan tura qoldi. Ikkalasi bir zumda stol ustini noz-ne'matga to'ldirib yuborishdi. Ovloq xonada bafurja ovqatlandilar.

— Qo'lingiz shirin ekan, bundan keyin ham bo'sh vaqtingiz bo'lganda shunaqa ovqatlardan pishirib berib tursangiz, — dedi Nazik.

— Meni rosa maqtab yubording-ku, ovqat qilib beradigan hech kimim bo'lmagach, o'zim qilishga majburman-da.

— Bo'sh vaqtingizda menga ham ovqat qilishni o'rgatib qo'ysangiz, ovqatni men qilib berib turaman. Qanday taomni xush ko'rasiz, oldindan shuni aytib qo'ysangiz bo'ldi, — dedi Nazik.

— Yaxshi, unda ikkalamiz birga ovqatlanib yuraylik.

— Hamisha emas, gohi-gohida shunday qilib tursak bo'ladi, og'ay.

— O'shani kelishib olaylik deb seni bu yerga olib keldim-da.

— Qulog'im sizda, og'ay.

— Nazik, sen meni tug'ishgan og'angdek ko'rib, doim hurmat qilasan, men esa seni boshqacha hurmat qilaman. Men hozir senga dangalini aytishim kerak, aytmasam keyin kech bo'lib qoladi. Sening fikringni ham bilishim kerak, — dedi Otakeldi.

— Badiiy gimnastikadan oqsoqlanyapmanmi, og'ay, shuni aytmoqchimisiz? — Nazik gap mavzuini o'zgartirmoqchi bo'ldi.

— E-e, yo'q, men tamoman boshqa narsani aytmoqchiman, — dedi Otakeldi.

— Unda aytavering, — dedi kulib Nazik.

— Nazik, sen mening baxtimsan, biz umrbod birga bo'lishimiz kerak, sensiz menga hayotning qizig'i yo'q. Qalbim to'ridagi ezgu tuyg'ularimni izhor qilmoqdaman. Shunchaki muhabbatim kamlik qiladi, sening butun hayotingga ona sutidan keyin qarzdorman, hammasi uchun kafolat beraman. Sen ham ochig'ini ayt, taklifimga rozimisan? — Otakeldi behad his-hayajon va qiziqqonlik bilan gapirdi.

Kulib, yayrab o'tirgan Nazik Otakeldining bunday muhabbat izhorini eshitgach, kulgidan to'xtab yerga qarab qoldi. Bexos-

dan ko‘zlaridan yosh quyila boshladi. Javob kutib turgan Otakeldi tashvishga tushib, xafa qilib qo‘ydimmi deb, ovutish uchun qizning sochlarini silay boshladi. Zo‘rg‘a turgan Nazik Otakeldining bo‘ynidan quchib, yig‘i aralash:

— Og‘ay, men ham sizni deyman, sizsiz yashay olmayman, — deb sochlarini hidlay boshladi.

Ikkalasi ko‘pgacha quchoqlashib, yalab-yulqashib olishgach, hovuridan tushishdi. Nazik gunoh ish qilib qo‘ygandek boshini xam qilib o‘tirib qoldi. Otakeldi o‘zini arshi a’loda his qilardi. U servantdan bir qutichani olib kelib, undan bir juft chiroyli tilla isirg‘ani chiqardi:

— Nazik, sening ertangi bayramingga sovg‘am shu, taqib yurgin.

— Og‘ay, hozircha bunday sovg‘aga erta-ku, keyinroq taqarman, — dedi Nazik.

— Yo‘q, rad etmagin, buni atayin bugungi kun uchun olganman, keyingisi keyin bo‘laveradi, — deb isirg‘ani mehr bilan taqib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Nazik eskilarini qulog‘idan o‘zi chiqardi. Otakeldi isirg‘alarni o‘zi taqib qo‘ydi.

— Mana endi men senga so‘yka solib qo‘ydim, sen umrbod meniki bo‘lding. So‘ykang qutlug‘ bo‘lsin! Umr yo‘ldoshing mehr-oqibatli bo‘lsin, — deb Otakeldi Nazikning manglayidan o‘pib qo‘ygach, so‘zida davom etdi. — Bugun qirg‘izning muhim urf-odatini ado etdik. Qolgani ota-onalar ishtirokida keyin bo‘laveradi. Endi seni yotoqxonaga yetkazib qo‘yay.

Ikkalasi kiyinib, Nazikning yotoqxonasiga jo‘nab ketishdi.

* * *

Aqlbek tobora haddidan osha boshladi. U Volkning ishongan navkarlaridan bo‘lib qolgan edi. Volkning to‘dasi uch-to‘rt qishloqning mollarini o‘g‘irlab bitirib, endi biroz uzoqroq qishloqlarga hamda qo‘shni rayonlarga ham ko‘z olaytira boshladi. Qo‘lida bor, tadbirkor kimsalarga po‘pisa qilib, soliq sola boshladilar. Pul deganni somonday sovurishardi. Chorvasini o‘g‘irlatgan avom xalq tuman ichki ishlar bo‘limiga, hokimlarga, gubernatorgacha o‘g‘rilarga qarshi chora ko‘rish iltimosi bilan shikoyat qilishdi. Ichki ishlar xodimlari xo‘jako‘rsinga bir-ikkita may-

da o'g'rilarni tutib, ularni ko'pgacha so'roq qilib, keyin qo'yib yuborishardi.

Volkning odamlari o'zi xon, ko'lankasi maydon bo'lib, hech kimni mensimay, qishloq ahlini urib, so'kib, vahimaga solib, mollarini oshkor ham, yashirincha ham pullab, saunalarda, restoranlarda, suyuqoyoq qizlarning quchoqlarida ayshini surib yurishdi. Xalqning arz-u dodi toshga tomgan tomchiday besamar ketdi. Sabr kosasi to'lgan oriyatli yoshlar o'g'ri, kazzoblarga qarshi maxfiy uyushma tuzdilar. Volkning to'dasi talonchilik faoliyatini tobora avj oldira boshladi. Davlat kuch tizimlari bilan yeng ichida til topishib, ularning barchasini qo'lga olib qo'yishgan edi. Ular shuning uchun arzanda, to'rt tomoni ochiq edi.

Aqlbek qanchalik jir bitib farog'atda yashasa ham, hamon Nazikni unuta olmas edi. Qiz o'z ixtiyori bilan yarashga kelmasa, uni do'zax azobiga solishni diliga tugib qo'ydi. Bir kuni "Mersedes"ini minib, shohona kiyinib Bishkek shahriga kelib, Nazikni izlab topadi-da, yaxshilikcha aytganiga ko'nmasa, bilganini qiladi. Nazikning Aqlbekni ko'rmaganiga bir yil bo'lib qolgan edi. Aqlbekning bo'yi ancha o'sib, et qo'yib, yuzi go'zallashib, ko'rkiga ko'rk qo'shilib, o'zgarib ketibdi.

Aqlbek ham Nazikni ko'rib, hayrat-la tikilib turib qoldi. Qizning hozirgi qiyofasi uni mahliyo qilib qo'ygan edi. Aqlbek o'ziga kelib so'z boshladi.

— Qandaysan, sog'liqlaring yaxshimi? — dedi Aqlbek qizning qo'lini mahkam qisib, keyin Nazikning yonidagi dugonasi bilan omonatgina salomlashgan bo'ldi.

— Sog'liqlar yaxshi, — dedi Nazik.

— O'qishlaring qanday?

— Bir navi bo'lib turibdi.

— Men seni unuta olmay, arazi tarqagandir deb izlab keldim.

— Kelganing yaxshi, hamqishloqmiz-ku, o'zing qandaysan? — dedi Nazik.

Aqlbek "vo-o" deb bosh barmog'ini ko'rsatdi.

— Ko'rib turibsan-ku, ko'rinishim yomon emasmi? — deb kibr bilan kulib qo'ydi.

Nazik uning barcha kirdikorlari, nomayi a'mollarini hamqishloqlaridan eshitib, uning razilligidan nafratlanib yurardi. Uning

qo'lidan har qanday yomonlik kelishini ham bilardi. Shuning uchun juda ehtiyotkorlik bilan muomala qildi.

— Kelishgan yigit bo'libsan, mening hamqishlog'im shunday bo'lishi kerak-da, — deb emizak emizib qo'ydi. Aqlbek darrov havolanib ketdi.

— Nazik, o'rgildim sening hamqishloqligingdan, puch yong'og'ing o'zingga siylov, qachon tegasan menga, shundan gapir? Men seni kutyapman, mana, universitetda o'qiyapsan, yana qanday bahonang bor? — deb muammoni ko'ndalang qo'ydi.

— Sen ham o'qimaysanmi? — dedi Nazik.

— Tupurdim o'qish-po'qishga, hozirgi topish-tutishim umrbod yetadi menga. O'qisam ko'chaning bechorahol farroshi bo'laman-da. Sen shuni xohlaysanmi?

— Tavba, o'qigan kimsa farrosh bo'lib qolarkanmi. Uzr, Aqlbek, imtihonga shoshib turibman, boshqa kuni gaplasharmiz. Yur, Gulay, ketdik, — deb Nazik ketishga bahona topdi.

— Vaqting bo'ladigan kunni ayt, sen aytgan yerga kelayin, kelishib olishimiz kerak, — deb silliqroq gapirdi dilida umid uyg'ona boshlagan Aqlbek.

— Kelasi yakshanbada, soat 3 da xuddi shu yerda uchrashaylik, ko'rishguncha xayr, — deb Nazik dugonasi bilan shoshib yo'nalishdagi taksiga chiqib ketdi. Aqlbekni avrab, tinchgina qutulib ketganiga suyundi qiz.

Universitetning yotoqxonasiga yetishi bilan ichkariga kirmay turib Otakeldiga qo'ng'iroq qilib, tezda yetib kelishini iltimos qildi. Otakeldi yarim soatga qolmay yetib kelib:

— Nima bo'ldi, tinchlikmi? — deb so'radi.

— Xudoga shukr, hozircha tinchlik, lekin men xavotirdaman, — dedi Nazik.

— Sababi nima?

Nazik Aqlbekning poylab yurganligini, yarim soatcha avval uchrashganda unga yakshanba kuni uchrashuvga va'da berib arang qutilgani-yu, hamma gaplarni batafsil aytib berdi.

— Yigitim bor, deb aytdingmi?

— Yo'q, aytishga qo'rqdim. Kuch ishlatib olib qochishdan ham toymaydi u. Va'dalashilgan yakshanba kuni siz bilan yuz-

ma-yuz bo'lganda aytib, birato'la umidini uzdirib qo'yish kerak ekan, degan o'ydaman. Ammo siz undan ehtiyot bo'ling, har qanday hodisa ro'y berib qolishi mumkin. Bunday rasvo shaxsdan har qanday fojiani kutish mumkin. Shu muammolar xususida maslahatlashish uchun sizni chaqirgan edim.

— Sen xavotirlanma, buyam arzimagan narsa, hayotda bunaqangi ziddiyatlar bo'laveradi. Ikkalamizning maqsadimiz bir bo'lsa, omad biz tomonda. Yana ta'kidlayman, sira xavotirga tushma, — Nazikni xotirjam qilishga urindi Otakeldi.

— Men qo'rqib qoldim, u har qanday falokatni boshlab yuborishi mumkin. Men ham ehtiyot bo'layin, siz ham ehtiyot bo'ling. Men undan kutuldim deb yurgan edim, endi bilsam, qutulmagan ekanman. Aqlbek haqida eldan eshitishimcha, reketmi yoki o'g'rilar to'dasimi, o'shalarning boshlig'i deb qishloqdagilar ham qo'rqishib, nomini eshitganda qaltirab turisharkan. Siz ham uchrashadigan kunimiz ishongan do'stlaringizdan olib boring, — dedi Nazik.

— Yaxshi fikr, tasodifan yomon vaziyat yuz berishini oldindan sezib qolsang, turgan joyingni aniq aytib, darhol menga qo'ng'iroq qil.

— Og'ay, ertaga uchrashaylik, men sizga yakshanba kuni Aqlbek bilan uchrashadigan joyni ko'rsatay, shunda bizga qulay bo'ladi.

— Oqilona fikr, har qanday tasodifga tayyor turishimiz kerak, — dedi Otakeldi.

O'sha kundan boshlab Nazik o'zi yolg'iz yurmaydigan bo'lib qoldi.

* * *

Aqlbek bilan Nazikning kelishilgan yakshanbasi ham yetib kelib, soat uch ham bo'ldi. Va'dalashilgan joyda Aqlbek Nazikni kutib turgan ekan. U Nazikni so'zsiz olib qochib ketishga qasd qilib kelgan edi. Buni sezib qolgan Nazik uni niyatiga yetkazmadi.

Otakeldi mashinasini 150 metrcha nariga to'xtatib, do'stlariga shu yerda kutib turishlarini tayinlab, Nazik ikkalasi qo'l ushlashganicha Aqlbekning yoniga kelishdi. Otakeldi yoshi katta bo'lsa

ham, Aqlbekka salom berishni unutmadi. Aqlbek shunchaki bosh irg'ab alik olgan bo'ldi-da, Nazikka:

— Sen nega bu kishini ergashtirib kelding, ikkovimizgina uchrashamiz deb kelishmaganmidik, — deb g'ijinib gapirdi.

— Bu jo'n kishi emas, mening umr yo'ldoshim, tanishib ol, — deb jiddiy javob berdi Nazik.

Aqlbek Otakeldini mensimay dedi:

— Umr yo'ldoshing bor ekan, nega men bilan qiyshanglashasan, bugun sen bilan bo'laman deb o'zing va'da bermaganmiding, yana umr yo'ldoshim bor deb qo'yadi.

— Aqlbek, og'zingga qarab gapir, yonimda yigitim turibdi, ko'pik ustiga qurgan imoratingni vayron qilib, birato'la umidingni uzdirish maqsadida senga umrbod sevgan yorimni ko'rsatish uchun olib keldim.

— O'tgan safar ikkalamiz birga bo'lgan kunimizoq kuyovim bor, deb aytmaysanmi, bugun yana uchrashuvga chaqirib, meni o'ynatmasdan.

— Men sen bilan birga bo'lganim yo'q, ko'p qasamxo'rlik qilaverma, tasodifan uchrashib qolgandim, bugun esa atayin sen bilan uchrashib, sendan umrbod qutulish uchun va'da bergandim.

— Va'dangga tupurdim, fohisha, shu chol mendan ortiqmi? — deb Aqlbek tishlarini g'ichirlatib, Nazikni yoqasidan oldi. Otakeldining qoni qaynab tursa ham, shaytonga hay berib, o'zini arang bosib turgan edi. Endi sabri tugab: "Xoy yigit, tilingni tiy", — deb Aqlbekning qarshisiga keldi. Aqlbek mensimay:

— Sen tumshug'ingni suqmay nari tur! — deb Otakeldini ko'kragidan itarib yubordi.

Otakeldi bir lahzada Aqlbekni shappa qo'lidan oldi-da, yerga ko'tarib urib, ko'kragiga oyog'i bilan bosib, qo'lini qayirib turib:

— Sen qiz bolani haqorat qilding, ayb sendan o'tdi, undan uzr so'ra, — dedi.

Bu orada naridagi mashina ichida o'tirgan Volk mashinadan irg'ib chiqib, qo'lida xanjar bilan ular tomonga yugurdi.

— Og'ay! Pichoq! — deb Nazik qiyqirib yubordi. Otakeldi darhol Volk tomonga o'girilib, ikkalasi urishqoq xo'rozdek qulay paytni poylashayotgan pallada Aqlbek tura solib musht bilan qattiq zarba

berishga intildi. Otakeldi zarbaga chap berib, bir lahzada ortga ikki qadam chekinib, baland sakrab Aqlbekning bo'yniga tepib qulatib, Volkning xanjaridan himoyalana boshladi. Aqlbek kuchli zarbadan chalqanchasiga tushib sulayib qoldi. Buni ko'rgan Volk yanada darg'azab bo'lib, xanjari bilan ketma-ket hamla qila boshladi.

Bunday dahshatli manzarani kuzatib turgan Nazikning yuragi qinidan chiqqudek potirlab, rangi bo'zdek oqargan, ko'z yoshi yonog'ini yuvib, nuqul:" Yo Xudoyim, og'ayni o'zing saqla!" deb Yaratganga iltijo qilardi.

Otakeldi payt poylab turib sakrab tepgandi, xanjar Volkning qo'lidan uchib ketdi. Otakeldi fursatni boy bermay, qoplondek chapdastlik bilan Volkni yelkasidan oshirib zarb bilan yerga urdi. Volk tipirchilab jon xalpida turishga uringandi, lekin Otakeldi uning qo'lini qayirib yer suzdirdi. Shu asnoda Otakeldining mashinadagi do'stlari yetib kelishib, turishga urinayotgan Aqlbekni yuz tuban yiqitishib, qo'liga kishan solishdi. Aqlbek ayanchli ovozda: "Qo'limni bo'shatib qo'yinglar", deb yalindi. Qo'llariga kishan solingach, ikkala bezorining popugi pasaydi-qoldi. Nazik ikki odamga qarshi olishuvda Otakeldi tig' yeb qoldimi degan vahimada karaxt bo'lib qolgan edi. Olishuv g'alaba bilan tugaganini ko'rgan qiz ikki qo'li bilan yuzini yashirib, sevinch yoshlarini tiyolmas edi. Otakeldining yigitlari ikkalasini ham bir-ikki martadan tepkilashgach, yelkasidan tortib o'tirg'izib qo'yishdi. Shundan keyin Volk tilga kelib:

— Sizlar kimsizlar, qaysi to'dadansizlar? — deb so'radi.

— Avval o'zlaringdan so'raylik, sizlar qaysi bandadansizlar? — dedi Otakeldi.

— Biz Volkning bandasidanmiz, endi sizlar ham aytinglar? — dedi Volk.

Ikki yigit hujjatlarini chiqarib, ikkalasining basharasiga tutib, jerkib gapirdi:

— O'qi, mana buni.

Volk ko'z yugurtirib:

— M...Ment ekansizlar-da? Abjir yigitlar ekan, safimizga qo'shib olaylik deb o'ylagan edik, — dedi. Aqlbek yeli chiqqan pufakdek shalvirab qolgan edi.

— Aqlbek, ahmoqlik qilib hamma narsani sen rasvo qilding. O'zingni sher bilib anavi yigitga qo'l ko'tarib, yaxshilikcha bitib ketadigan ishni gazak oldirib yubording. Bu yigitlardan kechirim so'ra, — dedi Volk.

Xo'jayinning gapi — qonun. Aqlbek:

— Meni kechiringlar, Nazikni sevganim uchun... — dedi Aqlbek.

— Men seni sevgan emasman, hamqishloq qatoridagina hurmat qilardim. Hurmatning tengi emas ekansan, — dedi Nazik yig'i aralash.

— Volk degan qayoqda? — dedi kishan solgan yigitlarning biri.

— Volk menman, — dedi Volk.

Otakeldi yerda yotgan xanjarni olib:

— Meni shu xanjar bilan qo'rqitmoqchimiding yo chavaqlab tashlamoqchimiding? — deb so'radi.

— Rosti qo'rqitib qo'ymoqchi edim, chavaqlamoqchi emasdim.

Tezkor guruhning yigitlaridan biri:

— Qo'lingdan kelmay qoldi-da, yo'qsa chavaqlab tashlar eding. Xanjar jinoyatning noyob dalili, endi buni ekspertizaga beramiz. Guvohlar yetarli, turinglar ketdik, — dedi.

Ikkalasini mashina tomonga yetaklab jo'nashdi. O'n qadamcha yurishgandan keyin Volk yigitlarga:

— Xoy yigitlar, sizlardan iltimos, anavi qiz mashinanglarga boraversin, ikki og'iz erkakcha gaplashib olaylik, — deb yolvordi.

Yigitlarning biri yurishdan to'xtab, nima qilaylik degandek Otakeldiga qaradi.

— O'zlaring bilinglar, — dedi Otakeldi.

Yigitlarning biri Nazikka:

— Bizni holi qoldiring-chi, buni eshitib ko'raylik, — dedi.

Nazik mashina tomonga ketdi. Volk shivirlab, yigitlarga yalinib-yolvorishga o'tdi.

— Xoy ukalar, biz sharmanda bo'ldik, kechiringlar, sizlarni tanimay qoldik, tanimasni siylamas degani shu. Bundan buyog'i og'a-ini bo'lib yuraylik, do'st bo'laylik, umrbod bir-birimizni hurmat qilaylik. Bahonada tanish bo'lib qoldik, ikkinchi biz sizlarga yomonlik qilmaslikka qasam ichamiz. Mening asil ismim Arab,

manavi shumshukka ergashib kelib it bo'ldim, buni men odam qilgan edim. Bu ahmoq yuzimni yerga qaratdi, — dedi Volk va Aqlbekka gapirdi: — Xoy shumshuk, cho'ntagingdagini hammasini chiqar, yo'qsa mendan o'lasan, — dedi.

Aqlbek cho'ntagidan yuz so'mlikdan ikki bog'lamni chiqarib Volkka berdi. Volk pullarni yigitlarga uzatib:

— Yigitlar, choy ichib qo'yinglar, bizdan katta xatolik o'tdi, kechiringlar, — dedi.

— Mabodo, keyin yana shunaqa uchrashuv bo'lib qolsa-chi, — dedi Otakeldi.

— Agarda sizlarning birortangizni tanib qolsam bag'rimga bosib ko'rishaman, — deb soxta qah-qaha urdi Volk.

Yigitlarning biri pullarni olib cho'ntagiga soldi. Ikkinchi yigit Volk bilan Aqlbekning qo'lini kishandan bo'shatdi. Otakeldi:

— Bu safargisi sizlarga saboq bo'lsin, — dedi.

— So'zsiz, so'zsiz, — deyishdi ular baravariga.

Ikkalasi ham qo'l uzatib xayrlashishdi. Aqlbek Otakeldining qo'lini olganda:

— Kechiring, akaxon, — deb mashinasi tomon ketdi. Pulni olgan yigit cho'ntagidan bir bog'lamni chiqarib Otakeldiga uzatdi.

— Yo'q, men olmayman, — deb qo'l siltadi Otakeldi.

To'rtovlon mashinaga o'tirishib, yo'lga ravona bo'lishdi. Endi Nazikning yelkasidan tog' qulaganday bo'ldi.

Aqlbek bilan Volk hamon tinch yashashmadi. Ular elning sho'rini quritib, mol-mulkini o'chakishganday o'g'irlab, tadbirkorlarga soliqni ko'paytirib, undirib yotishdi. Borgan sari zo'ravonlik avjiga chiqaverdi. Kuch organlari shikoyatchilarga: "Biz ham tun-u kun uyqu bilmay, o'g'rilarning payidamiz. Ancha-muncha qo'lga tushganlarning ishini sudga o'tkazib beryapmiz, o'zlaring ham mol-mulklaringga ehtiyot bo'linglar", — deb suvdan quruq chiqib ketaverishdi. Kuch organlarining qo'lidan hech narsa kelmasligini, aksincha, ularning jinoiy guruhlar bilan osh-u qatiq ekanligini el tushundi. El o'zing uchun o'l yetim qabilida o'g'ri, kazzoblarga qarshi zimdan musht bo'lib tugila boshladi. Bunday botiniy uyushmaning o'zagi el xizmatiga shay jasur, aqlli, fidoyi yigitlardan iborat edi.

Bandalarni qo'lga olishga tayyorgarlik nihoyasiga yetib qoldi. Endi ularni qo'lga tushirib, to'liq ro'yxatini olib, kuch organlariga o'tkazib bergach, televideniya, gazetalar orqali e'lon qilish rejalashtirilgan edi. Kimni qaysi yerdan, qay vaqtda qo'lga olish kerakligi kelishib qo'yildi. Ishboshi qilib Volkni qo'lga olish kerak edi. Tungi soat uch yarimlarda Volkning qarorgohi ko'ngillilar tomonidan qurshovga olindi. Qarorgohda qurolli tungi soqchilar bor ekan. Volk qochib ketmasligi uchun uning mashinalarini ishdan chiqarish kerak edi. Hovlida besh-oltita mashina bor ekan. Birinchi bo'lib bu ishga bo'lingan yigitlar borib, ballonlarni teshishni boshlagandayoq mashinalardagi avtomatik signallar ishga tushib, qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Tungi soqchilar osmonga qaratib miltiq otishib, xonalardagi lampochkalar yonib, Volkning hamxonalari tashqariga yugurib chiqishdi. Shunday qilib Volkning bandasi osonlikcha qo'lga tushmay, kutilmaganda ulkan jang boshlanib ketdi. Volk o'z odatiga ko'ra o'ng qo'lida to'pponcha, chap qo'lida xanjar bilan yugurib chiqdi. Chiqqan zahotiyoq bir-ikki yigitni otib, xanjar urib yarador qilib tashladi. Shafqatsiz jang boshlanib ketgan edi. Xayriyat, bir nechta yigit qisqa tayoq bilan Volkning boshiga tushirib, yerparchin qilib tashlashdi. Olatasir jangda nechtasi mashinalariga o'tirib, qochib ketishga ulgurib qoldi. Volk yiqilgancha o'rtada sulayib yotardi. Undan behad jabr ko'rgan alamzada yigitlar o'rtaga olib tepkilab yuborishdi. Volk murdadek qimirlamay yotardi. Shu asnoda ichkaridan o'n chog'li qizlar qiy-chuv bilan yugurib chiqishdi. Volkning harakatsiz yotganini ko'rishib, dod-voy bilan sudrashib, ichkariga olib kirib ketishdi.

Volkning to'dasi tumtaraqay bo'lib, barham topib ketdi. Aqlbek ayyorlik bilan jangda qatnashmay, qo'lga tushmasdan qochishga ulgurdi. Boshidan qattiq zarba yegan Volk omonatini topshirib qo'ygan ekan. O'sha tungi fojialar bo'yicha tuman prokuraturasida jinoyat ishi ochildi. Besh-oltita qiz guvoh sifatida so'roq bera boshladilar. Tungi olishuvda faol ishtirok etgan ko'ngillilardan besh-olti yigit militsiyaning vaqtinchalik qamoqxonasida so'roq bera boshladi. Tergovda Volkning bandasi behad quyushqondan chiqib ketgani, kuch tizimlari esa hech bir chora ko'rmaganligi oshkor bo'ldi. Volkning to'dasidan alamzada el

prokuratura, ichki ishlar bo'linmalarini qurshovga olib, qamalgan yigitlarni ozod qilishlarini talab qilib, ketmay qo'yishdi.

Endi kuch organlari bilan jabrdiyda aholi o'rtasida keskin ziddiyat boshlangan edi. Volk to'pponcha bilan otib, xanjar bilan yarador qilgan uch-to'rt yigit og'ir ahvolda kasalxonada davolanib yotishardi. Elning kuchli tazyiqi bilan sud jarayoni boshlanib, besh-oltita aybdor deb shubha ostiga olinib qamalgan yigitlar ozod etildilar.

* * *

Otakeldining otasi Kemelbek Ittifoq parchalanguncha jamoa xo'jaligining yilqisini boqdi. Otakeldi oilada to'ng'ich farzand edi. U bolaligidanoq ot minib, otasiga yordam berib, mehnatkash bo'lib ulg'aydi. O'n uch-o'n to'rt yoshidan qulun va toylarni o'rgata boshladi. Keyinchalik toylarni o'rgatishga mukkasidan ketib, ko'p marta toylardan yiqilish "lazzat"ini ham totidi. Bora-bora asov toylar qanchalik cho'changlab munkisa ham, yiqilib tushmaslikning hadisini oldi. O'zi ulg'aygan sari, endi toylar menga yoshlik qiladi deb, g'unon va to'rt yoshli otlarni o'rgata boshladi. Bundan xabari borlar o'ta asov g'unon va otlarini minishga o'rgatib berishi uchun Otakeldini chaqirishar edi. Bir gal sinfdoshlari uyga kelayotsa, yo'l bo'yida ikki yoshli buqa o'tlab yurgan ekan. Otakeldi uning yonidan sekin o'tib borayotib, keskin sakrab, bir lahzada buqaning ustiga minib oldi. Bechora buqa kutilmagan hamladan o'takasi yorilib, "mo'-o'" deb ma'rab yubordi-da, cho'changlagancha juftakni rostlamoqchi bo'ldi. Otakeldi ikki oyog'ini buqaning qo'ltig'iga suqib, ikki qo'li bilan uning bo'yniga tayanib, aslo bo'sh kelmadi. Oxiri buqa mudirilib yiqilganda, chaqqonlik bilan o'zini yerga olib, parvoyi falak ketaverdi. Sinfdoshlari sirkda tomosha ko'rgandek hayratda qolishdi. O'rta maktabdan keyin respublika sport maktabining gimnastika bo'limiga qabul qilinib, vaqti kelganda gimnastika bo'yicha sport ustasi degan unvonga sazovor bo'ldi. U paytlar Ittifoq davri edi. Sovet Armiyasi safiga chaqirilganda desant qo'shinlari bo'limida xizmatni o'tadi. Qo'l jangi mashqlarida hamisha ilg'orlar safida yurdi. Otakeldining bo'yi 183 santimetr edi. Armiyada qadrdon do'sti

Vasiliy Ivanovich Kozlov ikkalasi bot-bot qoidasiz jang mashqlariga qatnashib yurishdi. Harbiy xizmatni o'taganidan keyin Rossiyaning o'zidagi oliy desant o'quv yurtiga kirdi. Mazkur o'quv yurtida ham Kozlov ikkalasi birga o'qishdi. Parashutdan sakrash mashqlarida ham hamisha bir-biriga madadkor edilar. Bunday inoqlik ularga muvaffaqiyat olib kelardi. Oliy o'quv yurtini bitirishgandan so'ng ikki boshqa qismda xizmat qilib, bo'linib ketishdi. Otakeldi leytenant unvoni bilan desant qismida vzvod komandiri bo'lib ishlay boshladi. Namunali xizmatlari tufayli hademay kapitan unvoniga erishib, rota komandiriga aylandi. Ittifoq parchalanganidan keyin mustaqil Qirg'izistonga kelib, o'z vatanida xizmat qilmoqchi edi, biroq Chechenistondagi urushning oxirgi paytlarida qatnashishiga to'g'ri kelib, u yerda mayor unvoniga ega bo'ldi. Nihoyat, Oliy Bosh Qo'mondonning ruxsati bilan Qirg'izistonga demoblizatsiya qilindi.

Otakeldi Qirg'izistonga kelgach, qirg'iz armiyasining ayachli ahvolini ko'rib hayratga tushdi. Qirg'iz askarining qorni ovqatga yolchimasligi, askar formasining yirtiq-yamoqligi, hatto askarlarni bit bosganligi, davlatning armiyadek eng muhim sohaga panja orasidan qarashi uning qalbini tegirmon toshidek yanchardi. Bir kuni polk komandiri mayor Aqmatovni huzuriga chaqirtirdi. U komandirning xonasiga kirib: "Mayor Aqmatov buyrug'ingizga binoan keldi", — deb chest berdi. Komandirning oldida bir dung'on chol o'tirgan ekan. Gap qisqa bo'ldi. Komandir besh askarni bir oy muddatga berib, ulardan tez-tez xabar olib turishni topshirdi. Mayor Aqmatov o'z rotasidan besh askarni cholning ixtiyoriga berdi. Dung'on chol besh askarni soldiradigan katta saroyining poydevorini quydirishda tinimsiz ishlatib, abjag'ini chiqarib yubordi. G'iring deganini "Komandiringga aytaman!" deb qo'rqitardi. Pichoq suyagiga yetgan askarlar bir kechada uylariga qochib ketishib, ish sudga oshirildi. Sud jarayonida aybsiz aybdor mayor Aqmatovni oqlovchisi qanchalik himoya qilmasin, u xizmatdan chetlatilib, xayriyatki, panjara ortiga tushishdan qutulib qoldi. Jinoyatchi polk komandirining mushugini hech kim "pisht" demadi. Komandirning buyrug'ini bajarmaslik ustavda yo'q. Otakeldi qaytadan shikoyat qilgisi kelmay, iste'foga chi-

qishga majbur bo'ldi. Qirg'iz armiyasini yuksaltirishga hissasini qo'sha olmay qolganiga armoni ichida ketdi. Qirg'iz armiyasini kelajakda ilg'orlar safiga qo'shib, o'zi ham generalikka yetishib, mohir sarkarda bo'lishni orzu qilardi. Afsuski, uning bu niyatini puchga chiqarishdi.

Bundan buyon nima qilish kerakligi haqida o'ylay-o'ylay, qadrdon oilasiga qaytishga qaror qildi. Otasi qanday qabul qilarkin? "Ha, bolasi tushmagur, shuncha yil o'qib, buzoqning yugurgani somonxonagacha bo'libdi-da", — desa-chi. Yoshligida otasining: "Yigit kishi hayotda har qanday muammoga duch kelishi mumkin, er yigit o'shanday paytda irodali bo'lishi kerak", — degan so'zlarini eslab, ko'ngli joyiga tushdi. Ota-onam nima deyishsa shunga ko'naman, degan qat'iy qarorga keldi. U uyiga qorong'i tushganda kirib keldi. Hammalari uyda ekan, uni shodlik bilan kutib olishdi. Otakeldi ichidagini sirtga chiqarmay, ular bilan yaxshi kayfiyatda diydorlashdi. Onasi topgan-tutganini dasturxonga to'kib tashladi. Hammalari bafurja ovqatlanib bo'lishgach, otasi savol berdi:

— O'zingchay-la keldingmi, o'g'lim? — Otakeldi nima deyarini bilmay o'ylangunicha, otasi yana davom etdi: — Ko'pdan beri bizdan xabar olmay qo'yding, o'zi ishlaring joyidami?

— Mening rotamdan besh askar uylariga qochib ketib, mas'uliyat mening zimmamga tushib, xizmatdan chetlatildim.

— Shugina xolosmi? — dedi otasi.

— Ha, shuginay-la.

— Birato'la bo'shab keldingmi?

— Ha, birato'la.

— Oh-oh, ayni muddao bo'libdi-da, — dedi otasi quvonib.

— Sevgan kasbimdan qo'l yuvgan bo'lsam, nimasi "ayni muddao" bo'ladi?

— Endi biz bilan birga ekansan-da, ukalaringga sening o'rning juda bilindi. Endi ular bilan birga ishlaysan. Ukang To'rageldi bir bolali bo'lib qoldi, sen uylanganingcha yo'q, uyat emasmi? Ko'z ostiga olganing bo'lsa, ayt, o'shani olib beraylik. To'yingni binoyidek qilib o'tkazib berishga qudratim yetadi, — dedi otasi.

— Men kimisi bilan nima ish qilaman?

— Sen yilqini yaxshi ko'rasan, Otto'qir bilan birga ishla, suvaylarni sen boq, bo'g'oz biyalarni Otto'qir boqsin.

— Ma'qulman, ota, — dedi Otakeldi huzurlanib kularkan.

— Yana toy o'rgatasan, — dedi To'rageldi.

Otakeldining bolaligini eslashib, hammalari kulishdi.

Ukasi Otto'qirning kasbi zootexnik. Bu kasbni otasining xohishiga ko'ra tanlagan. Uning o'zi ham hayvon zoti ichidan otga o'zgacha mehr qo'ygan. Yilqilarning zotini yaxshilash uchun chatishtirish bilan muntazam shug'ullanib keladi. Bu borada Otto'qir otasidan ham o'zib ketdi. Qirg'izlar qachongacha bechora bo'lib yurishi kerak deb, hamisha ulkan rejalar bilan yashaydi.

Otto'qir Otakeldini yilqilarining bugungi ahvoli bilan tanishtirdi. Angliyadan, Rossiyadan keltirilgan ayg'irlarini ko'rsatdi. Kelajakda uchqur arg'umoqlarning egasi bo'lishi va talay rejalarini gapirib berdi.

— Yaxshi, ajoyib, men seni chin dilimdan qo'llayman, — dedi Otakeldi.

Qadrdon dalalarida ot minib yurganigami, Otakeldining ko'ngli a'lo darajada ko'tarilgan edi. Otto'qir Otakeldiga boshqa o'tloqdagi toylar, g'unonlar va to'rt yoshli otlarigacha ko'rsatdi.

— Odamlar: "Kemelbekning yilqilari sara", deb havas bilan tamshanishar ekan, — dedi Otto'qir.

Rostdan ham, Otto'qir aytganidek, suvay yilqilarning zotdorligi Otakeldining ham havasini keltirdi. Ba'zi bir g'unonlar to'rt yoshli otlardan kattaroq ko'rinishi ham jozibali edi. Otakeldi bolaligi, o'smirlik davri qaytib kelganday quvondi. Ayrim toylar, g'unonlar sen kimsan deganday quloqlarini dikkaytirib Otakeldiga tikilib turishsa, ayrimlari pishqirib, dumini xoda qilib juftak urishadi. Otto'qirning aytishicha, asov otlar ko'p ekan.

Shunday qilib, Otakeldi bir yil davomida bolalik kunlariga qaytib, oilasining, qarindosh-urug'larining dehqonchilik hamda chorvachilik ishlariga chin dildan ko'maklashdi. Kemelbek qariya Otakeldini oldiga chaqirib olib, jiddiylik bilan:

— Men taklif qilgan qizlarni yoqtirmading, endi o'zingga yoqqanini topib uylan, bolam, — deb iltimos qildi.

— Ma'qul, ota, avvalo men o'zimga loyiq bir ishga kirib ishlayin, uningsiz ko'nglim joyiga tushmas ekan, — dedi Otakeldi.

— Yana shaharga ketasanmi?

— Ha, shunday qilmasam bo'lmas ekan.

— Mayli, o'zing bil, ishing baroridan kelsin, — deb oq fotihasini berdi otasi.

Otakeldi paysalga solmay shaharga kelib, badiiy gimnastika bo'yicha murabbiy bo'lib ishga joylashdi. Bundan tashqari, qirg'iz sirki bilan kelishib, bo'sh vaqtlarida ot ustida o'yin ko'rsatib, har xil truklarni — qaltis nomerlarni bajarishni o'zi o'rganib yurdi. Uning omadi kelib, ot ustidagi truklarni o'rgatuvchi murabbiysi Yevropada, xalqaro nomdor sirklarda o'yin ko'rsatib yurgan atoqli mohir yigit ekan. Sirk otlarining layoqatliligi Otakeldini lol qoldirdi. Bu otlar bilan ko'nikma hosil qilish o'ta oson edi. Avvalo otlarni mashqtirish muhim ekan. Otlarga bexato muomala qilib, ularni mashqtirish mahoratini ham o'rgana boshladi. Hamkor sifatida otning roli muhim ekanini angladi. Otakeldi shanba, yakshanba kunlari ukasi Otto'qirning otlaridan tanlab minib, keng dalada ularni har xil truklarni bajarishga o'rgata boshladi. Jonivor otlar ko'p kuttirmay iyga kela boshladi. Otlarni o'rgatish jarayonida o'zi ham mahoratini oshira bordi. Otto'qir ham otlarini ko'z-ko'z qilib, og'zi qulog'ida, chunki otlari akasi tufayli bir qancha chet ellarga qimmat narxda sotildi. Otakeldi badiiy gimnastikaga butun vujudi bilan berilib ishlay boshladi.

Ittifoq davrida Qirg'izistonda badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchilar faqat rus millatidagilar bo'lgan ekan. Qirg'iz yoshlarining iste'dodlilari qishloqlarda yashaganliklari uchun ularga e'tibor berilgan emas. Gimnastika seksiyalariga shaharlik bolalargina qatnay olgan. Shuning uchun Qirg'izistondan sportning bu turi bo'yicha iste'dodli sportchilar chiqmagan. Otakeldi mustaqil Qirg'izistonning yoshlarini xalqaro sahnaga olib chiqsam deb orzu qiladi. Qirg'iz yoshlaridan yetuk murabbiylarni shakllantirish zarurligi xayolidan ketmaydi. Uning shogirdlari musobaqalarda oldingi o'rinlarni egallab kelishmoqda. Shunday bo'lsa ham ishtiyoqmandlarning tabiat in'om etgan iste'dodlilarini izlab topish bilan ovora. Nazik ham shunday izlanishlarining samarasi bo'ldi.

Nazikning bu sohadagi iqtidori tobora yuksalib bordi. Otakeldi Nazikni kelajakda yetuk murabbiy qilib chiqarishni diliga tugib qo'ygandi.

Nazik o'qishda davom etardi. Otakeldi bir kuni ota-onasiga ko'rsatib kelish uchun Nazikni qishlog'iga taklif qildi. Shanba kunga to'g'ri kelgani uchun Nazik taklifni bajon-u dil qabul qildi. Sayohat bahona Nazik Otakeldining qanday oilada ulg'ayib, tarbiya topganini ko'rib, qanoat hosil qildi. Ota-onasi, inilarining risoladagidek muomalalaridan o'zida yo'q xursand bo'lib, bu oilada o'zining baxtli kelajagini ko'rdi.

Otakeldining ota-onasi ham: "Shu qiz ko'nsa, kelin qilib olaylik, qo'ldan chiqarma", — deb qayta-qayta tayinlashdi. Shundan ko'p o'tmay Kemelbek qariya boyvuchchasi bilan o'g'lini oldiga solib Naziklarnikiga qulchilikka kelishdi. Quda — yigit tomon, anda — qiz tomon, ikkalasining ham didi-didiga mos tushib, qirg'izning urf-odatlari asosida binoyidek to'y o'tkazilib, Otakeldi bilan Nazik bir yostiqqa bosh qo'ydilar.

* * *

Nazik bozordan ro'zg'orga zarur narsalarni shoshmay xarid qilgach, g'ira-shirada uyiga keldi. Olgan narsalarini joy-joyiga qo'yib bo'lib, u yoq-bu yoqni qarasa, Qubontoy bilan Omontoy ko'rinmaydi. Hech qanday sharpa yo'q, uy ichi jimjit. Hamisha uyda yoki tashqarida bir-biriga ergashib, qiy-chuv bilan yurishmasmidi. Eshikda yurishgandir deb, tashqarining hammayog'ini qarab chiqdi, hech tayini bilinmaydi. Nazikning yuragi o'ynab, vahima bosdi. Sayqalga: "Men hozir kelaman, o'tirib tur, qizim"— deb, tashqariga chopdi. Ko'chada ham ularning qorasi ko'rinmaydi. Shoshib-pishib qo'shnilarnikiga kirib so'radi. "Yo'q, ko'rganimiz yo'q", deyishdi ular ham. Kunda birga o'ynaydigan tengqur o'g'il-qizlarni topib so'raganda o'shalargina: "Bir qora "Mersedes" mashinaga tushib, ko'cha bo'ylab anavi tomonga ketishdi", — deb aytishdi. Bechora ona: "Qanday kishilar ekan? Mashinasi qanaqa ekan?" — deb har biridan so'rayverdi. Ko'rgan bolalar tayinli javob ayta olmay, baholi qudrat tasvirlab berishardi. Kattalardan hech kim u kishilarga ham, mashinaga ham e'tibor berishmagan

ekan. Nazikning ko'z yoshi aralash savollariga hech kimdan umidli javob bo'lmagach, uv tortib yig'lashga o'tdi. Biroq yaxshilikdan umid uzmadi. Tog'alaridan birortasi yangi mashina olgan bo'lsa, mening yo'g'imda ikkalasini aylantirib ketgandir, degan xayolga bordi. Qo'shnilar ham bu fikrni ma'qullashib: "O'zlaringning qarindosh-urug'laringdan boshqa kim mashinasiga o'tqazardi, bolalaringning ham esi baloday, tanimagan, begona mashinaga chiqishmaydi ular, kim bo'lsa ham olib kelib qolar", — deyishdi. Bu gaplardan xiyla taskin topgan Nazik Sayqalni eslab, qo'rqib qolmasin deb, uyiga shoshildi. Kelsa Sayqal eshikda tumshayib, yig'lamsirab o'tirgan ekan. Qorong'i, kimsasiz uyda qo'rqib o'tirgan Sayqal oyisini ko'rib sevinch bilan yugurib keldi.

— Qubontoy bilan Omontoyni izlab, hech qayerdan topolmadim, qora mashinaga o'tirishib, bir yoqqa ketishibdi, — deb Nazik yana yig'lashga tushdi.

— Ular endi kelishmaydimi? — avzoyi buzilib so'radi Sayqal.

— Kelishadi, qizim, lekin hozir kelishmayapti-da, — deb javob berdi ko'z yoshini tiya olmayotgan Nazik. Keyin o'ziga kelib, cho'ntak telefonini qo'liga olib, qaysi yaqinlarimizda qora rangdagi mashina bor deb o'ylay boshladi. Birgina Otto'qir qaynisida qora "Mersedes" bor ekan. Unga qo'ng'iroq qilib: "Qubontoy bilan Omontoyni siz mashinaga solib olib ketdingizmi?" — deb so'radi.

— Yo'q, men sizlar tomonga borganim yo'q, — deb javob berdi u.

Yana vahima bosib, yuragi dukurlay boshladi. Uv tortib, titrab, ikki qo'lini yuziga bosib yig'lay-yig'lay, yana o'zini qo'lga olib otasiga qo'ng'iroq qildi.

— Tinchlikmi, omonmisizlar? — deb so'radi otasi.

Nazik o'zini bosa olmay yig'lab yubordi. Otasi jig'ibiyron bo'lib, qayta-qayta so'radi:

— Qizim, ayt-chi, nima bo'ldi?

— Qubontoy bilan Omontoy yo'q!

— Qanaqasiga yo'q? Yo o'zing asra! Ular qayoqda bo'ldi ekan? — ota-onalari ham tinchini yo'qotdi. Nazik yig'lagan ko'yi telefonni o'chirdi. U goh yig'lab, goh ovunib, telefonidagi bor

puli tugaguncha barcha qarindosh-urug'lariga qo'ng'iroq qilib chiqdi. Qaynilari Otto'qir bilan To'rageldi kechasiyoq ota-onasini olib yetib kelishdi. Nazikdan voqeaning tafsilotini biri qo'yib, biri so'rashdan charchashmadi.

Qandaydir bir uddaburon bolalarni xiyla bilan o'g'irlab ketganiga To'rageldining imoni komil edi. Shahar militsiya bo'limida katta tergovchi lavozimida ishlaydigan kapitan Aqmatov To'rageldi Kemelbekovich Nazikka taskin berib:

— Kelinoyi, bolalar topiladi, qayerdan bo'lsa ham izlab topamiz, — dedi jiddiylik bilan.

— Tirik topilsa bo'ldi, — deb Nazik hiqillab yig'lay boshladi.

— Mashinada ketganini bolalar ko'rishibdi-ku, bo'lgani ular bizdan pul talab qilishadi, — dedi To'rageldi.

— Uyimizni sotib bo'lsa ham, bolalarimni tirik olib qolaylik. Yo Parvardigor! Qanday zolim begunoh bolalarimni barimtaga olishga qo'li bordiykin, — deb bo'zladi Nazik.

— Ko'p yig'layvermang, undan ko'ra aqlni ishlatib, bolalarni izlaylik, kelinoyi. Men hozir bo'limga borib, qidiruv e'lon qilayin, siz telefondan nari ketmang, nima deyishsa ham telefonni Otto'qirga bering. Muzokarani Otto'qir olib borsin, — dedi To'rageldi.

— Mayli, shunday qilinglar, — dedi Nazik boshini ko'tarib.

— Garovga olishgan bo'lsa, ularning talabini senga aytaman, — dedi Otto'qir.

— Xo'p, yana bir gap qulog'ingda bo'lsin, Otto'qir, ularga: "Sizlar qo'ygan talablarning oxirigacha bajarilishini manavi telefon nomeri hal qiladi" deb, mening nomerimni aniq aytib bergin, qolgan ishni o'shanga qarab qilaveramiz, — dedi To'rageldi.

U o'rnidan turib: "Men ertalab kelib, anavi bolalardan o'zim ham sinchiklab surishtiraman", — deb shoshib jo'nab ketdi.

— Xudo xohlasa, Qubontoy bilan Omontoyni topamiz, so'nggi kuchimiz qolguncha izlaymiz, kurashamiz, — deb kelinoyisiga taskin berdi Otto'qir.

Nazik bosh silkib, qaynisinikini ma'qulladi. Yomon xayolga borishdan yuragi bezillardi. Qanchalik xavotirlanib tursa ham, qaynisi To'rageldining qidiruv e'lon qilib, bolalarini topib kelishiga ishonib, ko'ngli to'q edi. Nazik Otto'qirga:

— Otakeldini chaqirsak-chi? — deb so'radi.

— Qo'ya turing-chi, yanga, u olisda, o'zi orzu qilgan ulug' maqsadi bilan ovora, unga xalal bermaylik, jiyanlarim topilib qolar. Akam eshitsa adoyi tamom bo'ladi-ku. Ishini tashlab, uyga qarab uchadi. Uni ovora qilmay turaylik-chi, — dedi Otto'qir.

Bu mulohaza Nazikka ham ma'qul kelib, podadan avval chang chiqarmaslikka qaror qildi. Davomli qo'ng'iroqlar Nazikning yuragiga vahima solishda davom etardi. Qubontoy bilan Omontoyning yo'qolganini eshitgan qarindosh-urug'larning savoli bitta bo'lib, "Bolalar topildimi?" — deyishardi xolos.

Shunday qilib, tun allamahal bo'lib qoldi. Otto'qir telefon poylab o'tirganicha uxlab qolgan edi. Nazik hamon bedor, qo'ng'iroq qilganlarga: "Topilganicha yo'q", — deb javob berardi. Qubontoy bilan Omontoydan hech bir darak yo'q. Nazikning nazarida halizamon bolalari "oyi" deb eshikdan chopqilab kirib kelishadigandek. Uxlab qolgan qizi esiga tushib, uni ichkariga olib kirib yotqizib, o'zining och ekanligini sezdi. Lekin tomog'idan ovqat o'tarmidi. Qaynota-qaynonasi boshqa xonada hasratlashib o'tirishibdi. Bot-bot: "Xabar bormi?" — deb so'rab qo'yishadi. Har qalay ular Nazikning yarasiga malham bo'lishmoqda. Nazik ichki bir dard va ixlos bilan Yaratganga iltijo qildi: "Yo Xudoyim, men gunohkor bo'lsam, o'zing kechir! Ey Xudo, sendan tilaganim faqat shu — bolalarimning umrini uzoq qil! Ular uzoq yashasin, ular voyaga yetgandan keyin meni olib ket! Ularning o'rniga meni olaqol!" U eshikka chiqib, osmonga qaradi. Osmon musaffo, yulduzlar bir-biriga ko'z qisish bilan ovora. Go'yo hayot o'z oqimida, hech qanday falokat yuz bermagandek. Faqat Otakeldi bilan Nazikning boshiga qora bulut soya tashlab turibdi. Hozircha Otakeldi bundan bexabar. U shu yerda bo'lganida bunday musibat yuz bermagan bo'larmidi, yuz bersa ham, u bolalarimni tezroq topib kelgan bo'larmidi, deb o'yladi Nazik. U yana Tangriga iltijo qila-qila telefon qo'yilgan xonaga kirdi. Otto'qir uyg'onib: "To'rageldi akam kelgani yo'qmi?" — deb so'rab, javobni eshitgach, yana uyquga ketdi. Nazikning sira uyqusi yo'q. Ona bechora qayoqdan uxlasin, bolalarining qiliqlari ko'z oldidan o'tib, ular bilan birga yashayotgandek edi. Bolalarining yo'qolgani yodiga

tushsa, yana qaltiroq bosib, havo yetishmay, yuragi qinidan chiqib ketgudek bo'lardi. Nazik bu kecha musibatga qarshi yakkama-yakka olishuv bilan tong ottirdi. Tonggi soat beshlar chamasida qaynisi To'rageldi keldi.

— Bolalardan tayin bormi?

— Hozircha hech qanday xabar yo'q.

— Menga tong otishi bir yilday tuyuldi, tong bilan birga kirib kelishadiganday kutib yotgandim, — dedi Nazik.

— Butun rayondagi, shahardagi, qishloqdagi uchastka militsionerlariga, DANlarga ham ma'lum qildik. Endi suratlarini bering, kiygan kiyimlarini ham tasvirlab yozib bering, televideniya bilan radiolardan ham e'lon qildiraylik, — dedi To'rageldi.

Nazik zudlik bilan bolalarining barcha suratlarini olib chiqdi. To'rageldi Qubontoy bilan Omontoyning yoqimtoy, kulimsirab turgan suratini albomdan chiqarib, cho'ntagiga soldi. "Bolalarning mashinaga tushib ketgan paytdagi kiyimlarini, tug'ilgan kuni va yillarini to'liq, bexato yozing", deb tayinladi To'rageldi. Nazik hayajondan qo'li qaltirab, arang yozib berdi. To'rageldi Nazikning qo'lidan qog'ozlarni olib:

— Yanga, qo'shnilaringiz hammasi uydaligida barvaqt borib, bolalar va kattalardan Qubontoy bilan Omontoyni olib ketgan mashina qayerga kelib to'xtagani, qayoqqa qarab ketganini batafsil yozib olishim kerak, — dedi.

— Unda yur, seni ularga olib borayin.

Ertalabki soat yettilar chamasida Nazik bilan To'rageldi mahalla aylanib, har bir eshikni taqillatib, bezovta qilganliklari uchun uzr so'rab, bolalardan ko'rgan va bilganlarini ipidan ignasigacha surishtirib, hatto mashina egasining rang-ro'yi, qad-qomati, kiyim-kechagigacha so'rab, mashinadagi ayolning tashqi belgilarini batafsil yozib oldi. Keyin qo'l telefonida jinoiy laboratoriyaning mutaxassisini chaqirib, bolalarni o'g'irlab ketgan mashina g'ildiraklarining izini suratga olishni iltimos qilib, turgan joyini tushuntirib, ular kelguncha kutib turishini aytdi. Keyin kattalarga murojaat qilib, mabodo ko'rgan-bilganlari yodga tushsa, xabar berib qo'yishlarini iltimos qilib, qo'l telefonining nomerini berdi. Bu musibatdan iztirobga tushgan qo'shnilar ham biror narsadan

xabardor bo'lib qolsa darhol Nazikka aytishlarini va'da qilishdi. Bolalarni o'g'irlab ketgan kimsalar To'rageldiga mavhumligicha qoldi. Ko'rgan bolalarning ta'rifi asosida jinoyatchilarning fotorobotini tiklash ancha mushkul bo'lsa ham bir urinib ko'rish kerakligi haqida o'yladi. Bolalarning yoshlik qilib, voqeaga jiddiy ahamiyat bermaganliklari, arzirli gap aytib bera olmaganliklari To'rageldiga juda alam qilardi. To'rageldi qo'l telefonini zaryadlab, ukalaridan biror ma'lumot bo'lib qolsa, darhol o'ziga ma'lum qilishlarini tayinlab, mashina izlarini suratga oldirgandan keyin tezda jo'nab ketdi.

To'rageldi shu kuniyoq shoshilinch ravishda bunaqangi vaziyatda nimalar qilinishi lozim bo'lsa, birortasini ham nazardan qochirmay, MDH davlatlarining barchasiga, qolaversa, yalpi Qirg'iziston bo'yicha qidiruv e'lon qildirdi. Bunday ma'lumotlar internet, radio, televideniya hamda gazetalarga ham jo'natildi.

Bu vaqtda Aqlbek ikki bolani Xudoning bergan ne'mati deb, shukronalik bilan qozoq cho'lidagi ravon yo'lda mashinasini yeldek uchirib borardi. Meerkanga bolalarni nega o'g'irlab ketayotganining isini ham chiqarmadi. Meerkan esa bolalarning o'g'irlab ketilayotganini boshdanoq bilgan edi. Meerkanga: "Otasi tayinlagan", — dedi, xolos. Meerkan Aqlbekning yirtqichlarcha turli qiyofalarini ko'p ko'rgan, lekin uning zolimligidan qo'rqib, qora qilmishlariga qarshi lom-mim deya olmas edi.

* * *

Volk bandasining kuni bitib, qurshovda qolganda Aqlbek hech narsaga qaramay, qochib ketish payida bo'ldi. Chaqqon yugurib mashinasiga yetib, zudlik bilan qochishga ulgurdi. U hamtovoqlarining bariga tupurib, yolg'iz o'zini o'yladi. Oxirgi paytlarda Volkning o'ynash qizi bilan don olishib qolganining isi chiqib, u gunohkor bo'lib qolgan edi. Boz ustiga, bir galgi o'ljani bo'lishtirishda g'irromligi bilinib qolgach, Volkka shumshuk ko'rinib qolgandi. Volk evini topgan kuni dorulbaqoga qiya qilib yuboradimi degan tashvishda qolgan edi. U o'sha bandadan to'rt muchasi sog' qutulib ketganiga suyundi. O'sha kungi qurshov bahona bo'lmaganda, bu to'dadan tiriklayin qutulib, mustaqil hayot kechirishi

aslo mumkin emas edi. O'sha qochishida ham xuddi shu yo'l bilan ketgan, unga hech kim monelik qilgan emas. Bir rayonning markaziga kelganda qo'lidagi bor pulini Amerika dollariga almashtirib olgan. Rossiya chegarasiga kelganda pul berib o'tib ketdi. Rossiya tuprog'ida Qirg'iziston nomeridagi mashinaga DANchilar ariday yopirilishar ekan. U faqat dollar bilan o'ziga yo'l ochib borardi.

Nihoyat, u mashina bilan bundan nariga borish mushkul ekanligini tushunib, bir postdagi keksa DAN xodimi bilan ochiqchasiga gaplashib, mashinamni sotgani olib ketyapman, dedi. DAN xodimi bir entikib oldi. Ko'p savdolashib o'tirmay, mashina yarim bahosiga sotilib, Aqlbekning cho'ntagi pulga yanada to'la tushdi. Taksiga o'tirib, to'ppa-to'g'ri Moskva shahriga kelib tushdi. Bundan nariga nima qilish kerak, mana shunisi muammo edi. Vaqtincha yashash uchun mehmonxonadan joy olib, turli kafelarda ovqatlanib yurdi. Bu yerda ovqat o'ta qimmat ekanligini ko'rib, juda hayratlandi. Qirg'izistondan qochib, iz yashirish uchun kelgandan keyin mentlarning qo'liga tushib qolishdan xavotirda edi. Xavotiri o'ngidan kelib kafedan chiqishiga mentlarning tuzog'iga ilindi. Uni mashinaga itarib kirgizishib, militsiya bo'limiga keltirishib, so'roq qila boshladilar. Aqlbek esa: "Qirg'izistonda ishxonalarning barchasi yopilgan, u yoqda ish yo'q. Bu yoqqa ish izlab keldim, yordam beringlar", — deb mo'ltonilik qildi. Pasportini, pullarini, cho'ntaklarini tit-pit qilib, ming dollarini olishdi-da, "Seni ko'rganimiz yo'q, bu yerda yashashga ruxsatnoma olishing kerak, yo'qol!" — deb haydab yuborishdi.

U yerdan qutulib chiqib, shaharning shimol tomonidagi chekkaroq rayonga borib, osongina uch oyga ruxsatnoma beradigan ichki ishlar bo'limini topib, dardini aytdi. U yerdagilar: "Yashayotgan uyingdan ruxsatnoma olib kel, o'sha uyning hisobida bormisan, yo'qmi, aniqlaylik, keyin ruxsatnoma beramiz", — deyishdi. Aqlbek unday hujjatni qaydan topsin hozir, noiloj besh yuz dollar taklif qildi. Ular Xudo bunday bermas deb, bir zumda ishni bitkazib berishdi. Ittifoq parchalanib, qonunlar o'lda-jo'lda, faqat poraxo'rlik bilan ish bitib, it egasini tanimay qolgan damlar edi. Fursatdan foydalangan Aqlbek uch oyga ruxsatnoma olib, bir

uyga ijarachi bo'lib joylashib olgach, ish izlay boshladi. Bir oycha vaqt o'tsa ham, unga loyiq yengilroq ish topilmadi. Kunlarning birida ish izlab yurib, bir qirg'iz yigitni uchratib qoldi. Yigitning ismi Risbek bo'lib, O'shdan ekan. Ishxonasidan ruxsat olib, uyiga qaytish taraddudida ekan. Shaharning bir chetidagi qurilishda ishlabdi. Aqlbek unga ish izlab yaqinda Qirg'izistondan kelganligini aytdi. "Agarda qurilishda ishlaging kelsa, senga qo'ldan kelganicha yordam berayin", — dedi Risbek. Aqlbek qurilishda bo'lsa ham ishlashga rozi ekanligini bildirdi.

— Bu deyman, u yerda sizdan boshqa qirg'izlar ham bormi? — deb so'radi Aqlbek.

— O'ndan ziyod qirg'iz yigitlari birga ishlaymiz.

— O'rta hisobdagi moyana qancha?

— Yaxshi ishlasak o'n, o'n besh ming rubl.

— Yotoqxona masalasi qanday?

— Barak uydan joy berishgan. O'sha yerda besh-oltitadan bo'linib yotamiz.

— Ovqat masalasi-chi?

— Masalliqni keltirib berishadi, bir oshpaz ayol ovqat pishirib beradi.

— O-o, unda yaxshi ekan.

— Yomon emas, kimdir qishlog'iga borib uy sotib oldi, kimdir mashinali bo'lib qoldi.

— Shu yerning fuqarosi bo'lib yashayotganlar ham bormi?

— Bor. Boshqa millatdagilarga uylanib, ro'zg'or qilib yashayotgan qirg'izlar ham bor. Hammasi qobiliyatga, ishbilgilikka bog'liq.

— Ha, to'g'ri aytasan, endi men qanday qilib ish topsam bo'ladi?

— Hoziroq olib borib, yigitlarga qo'shib qo'yaman. Alim degan brigadirimiz bor, o'shanga mening o'rnimga ishlaydi deb tavsiya qilaman.

— Juda soz, bu yaxshiligingni unutmayman.

— E-e qo'ysang-chi, qirg'iz bo'lganimizdan keyin musofirchilikda bir-birimizni qo'llashimiz kerak-da, to'g'rimi?

— Albatta to'g'ri.

— Ikkalasi o‘sha zahotiyoq brigadaga borishdi. Qurilishda ish qizg‘in ketayotgan ekan. Alim Risbekni ko‘rishi bilan qirg‘izcha baland pardada: “Poyezd bilan ketasanmi yoki samolyotda ketadigan bo‘ldingmi?” — deb so‘rab qoldi.

— Hozircha chipta olganim yo‘q, o‘rnimga manavi yigitni joylashtirib qo‘yib, ertaga chipta olaversam ham bo‘ladi, — javob qildi Risbek.

— O‘zing bilasan, bu yigit kim?

— Ismi Aqlbek, Qirg‘izistondan ishlagani kelibdi, ishlasin, mening o‘rnimga shu yigitni ol!

— Buning bizning ishga chidarmikin?

— Bu yog‘ini o‘zing gaplashasan-da, kelbatini ko‘rib turibsan-ku, senga shunday davangir, baquvvat yigitlar kerak-da.

— Xo‘p, o‘zi bilan gaplashaman, — deb Alim lapanglab kelib, Aqlbek bilan salom-alik qildi.

— Ish bilan yaxshilab tanishtirib, majburiyatlarini tushuntirib, keyin mening o‘rnimda ishlataver, — dedi Risbek.

— Gap o‘zida, xohish bo‘lsa, chidasa ishlayveradi. Agar yalqovlik qilsa, sheriklarining o‘zlari chetga chiqarib qo‘yishadi, — dedi Alim va Aqlbekni savolga tutdi. — Qirg‘iz eli durustla-mi?

— El bir navi, ish yo‘q, qiyinchilik ko‘p.

— Yuqori zinadagi amaldorlar hamon ishxonalarni to‘nab, o‘zlarining shaxsiy mulklariga aylantirishmoqdami?

— Aynan o‘zi, oddiy xalq savdo-sotiq bilan bir-birini aldab, eplab kun ko‘rishmoqda, — deb o‘zini bechorahol qilib ko‘rsatdi Aqlbek.

— Sening kasbing nima?

— Hech qanday kasbim yo‘q.

— O‘qigan emasmisan?

— O‘n birinchi sinfni bitirganman.

— Hech qayerda ishlamaganmisan?

Aqlbek o‘g‘ri, kazzob, reketlar bandasida yurganini sir tutdi.

— Ha, eplab kun kechirdim-da.

— Mening aytganlarimni ikki qilmay bajarasan, kelishdikmi?

— Qo‘limdan kelganicha harakat qilaman.

— Unda yur, ish bilan tanishtirib chiqay.

Alim Aqlbekni qurilish obyektlaridagi barcha ish turlari bilan tanishtirib chiqib, Risbekning ish joyiga olib keldi. Uning qilgan ishlarini ko'rsatdi. Risbek mohirlik bilan biron joyida "so'gali" yo'q, qolipdan chiqqanday to'g'ri va silliq poydevor quyibdi. Aqlbek buni ko'rib, bunday ish o'zining qo'lidan kelishiga ko'zi yetmay, Alimga dedi:

— Men hozir Risbekday sifatli ishlay olmasam kerak, vaqtincha shogird bo'lib o'rganayin, bo'ptimi, aka?

— Eng asosiysi yalqovlik qilmay tirishsang bo'ldi, hamma ish odamning qo'lidan keladi.

— Harakat qilaman, aka.

— Unda bugun Risbekning yoniga borib damingni ol, ertadan ish boshlaysan.

Aqlbek Risbekning oldiga borib, yotoqxona bilan tanishib chiqqach, Risbek ikkalasi karavotga cho'zilib dam olishdi. Aqlbek Risbekdan maslahat so'radi:

— Risbek, ayt-chi, Qirg'izistonga qaytib borgim kelmay qoldi. Men ham Rossiya fuqarosi bo'lsam bo'ladimi?

— Nega, umrbod shu yerda qolib ketsam deysanmi? Qarindosh-urug'laring yo'qmi?

— Qirg'izistonda yashash qiyin, ko'plagan yigitlar shu yoqlarda yashayapsizlar-ku.

— Bu gaping to'g'ri, bu yoqda qirg'iz yigitlari ko'p. Qirg'iz diasporasi bor, yomon kunda baholi qudrat yordamlashib turamiz. O'zaro fond tuzganmiz, unga pul o'tkazib turamiz. Qirg'izlar bu yerda ham bir-birimizni qo'llab turishimiz kerak.

— Kimlarni qo'llaysizlar?

— Kasal bo'lib qolsa, boshiga musibat tushganda mablag'dan yordam beramiz.

— Yaxshi tadbir ekan.

— Sekin-sekin hammasini ko'raverasan.

— Yaxshi, mening hech kimim yo'q. Bu yoqqa fuqaroligini olib, bir yo'la qolib ketishga keldim.

— Buning uchun pul kerak, sening puling bormi?

— Yo'lkiradan ortgan ozroq pulim bor.

— Qancha?

— Ming dollardan ozroq.

— O'sha yetadi, pulingga ehtiyot bo'l. Qo'lga tushsang, mentlar ham olib qo'yadi, tezroq fuqarolikka hujjatlaringni topshir.

— Unda men fuqarolikka ariza yozib, hujjatlarimni topshirib qo'yib, keyin birato'la ish boshlayin. Alim akaga tushuntirib aytib qo'y, — deb Risbekdan iltimos qildi Aqlbek.

Risbek Alimga aytib qo'yadigan bo'ldi. Ikkalasi birga sayr qilishib, yotoqxonaga kech kelishib, yotib uyquga ketishdi. Ertasiga hamma barvaqt turib, ovqatlanib ishga jo'nayotganda Risbek Alimga Aqlbekning kechagi iltimosini aytdi. Alim yelkasini qisib: "Mayli, o'zi bilsin", — deb brigadasini olib ishga jo'nadi. Aqlbek Risbek bilan apil-tapil xayrlashdi-da, o'tgan safar uch oyga ruxsatnoma bergan bo'limga borib, Rossiyaning fuqaroligini olishga ishtiyoqmand ekanligini eplab tushuntirdi. U yerdagilar boshliqning o'zi bilan gaplash deb, boshliqning kabinetiga yo'llashdi. Aqlbek kirib borsa, boshliq g'o'laburdan kelgan, tepakal Boris Nikolayevich Binyukov degan mayor ekan. Aqlbekka chaqchayib:

— Nima ish bilan kelding, ayt! — dedi. Xodimlari Aqlbek kirishidan oldin nima ish bilan kelganini aytishgan bo'lsa ham, o'zi qaytalab so'radi. Aqlbek eplab maqsadini tushuntirgan bo'ldi.

— Qozoqmisan yoki qalmoqmisan?

— Ya kirgiz, — deb javob berdi Aqlbek.

— Qancha dollar berasan?

— Ming dollar.

— Yo'q, bir yarim ming dollar.

Ishining bitishiga ko'zi yetgan Aqlbek rozi bo'la qoldi.

— Pulni chiqar!

Aqlbek belidagi belbog'ini yechib, bir yarim ming dollarni sanab, boshliqqa uzatdi. Boris Nikolayevich pulni stolining g'aladoniga yashirib:

— Dahlizga chiqib ariza yozib kir, — deb Rossiyaning gerbi tushirilgan ariza namunasini berdi. Aqlbek chiqib ketayotganda: "Men imzo chekib beraman, olib kirgin", — dedi.

Aqlbek hujjatlarni to'g'rilab, fuqarolikka topshirib, ozgina pul evaziga kvitansiya, tilxatini cho'ntagiga solib, ishning tez bitga-

niga og'zi qulog'ida yotoqxonaga qaytib kelayotib yana militsiyaning qo'liga tushdi. Oldini to'sib, chest berib o'zini tanishtirgan militsioner hujjatlarini so'radi. Aqlbek uch oylik ruxsatnomasini, kvitansiyani, tilxatni ko'rsatdi. Militsioner bularga ko'nmay:

— Bo'limga yur, o'sha yoqda aniqlaymiz, — deb yetakladi.

— Ishxonamdan so'rab kelganman, qurilishda ishlayapman, meni qo'yib yuboring, — deb yalinib ikki yuz rubl uzatgan edi, militsioner: "Ikkinchi ko'zimga ko'rinma", deb qo'yib yubordi.

Rossiyada ham zaiflarni yanchib, och bo'riday g'ajishning rosa havosini olibdi degan xayolga bordi Aqlbek. Yana boshqasiga duch kelib qolmay deb taksi yollab, ishxonasiga yetib keldi. Brigadadagilar tushlikni qilib, ishga chiqib ketishibdi. Birgina Risbek bafurja tushlik qilib o'tiribdi. Ikkovlon birga ovqatlanishdi.

— Qirg'izistonga bilet oldim, — dedi Risbek.

— Samolyotgami?

— Ha, O'shga uchadigan bo'ldim.

— Qachon?

— Indinga, soat 23.00 da.

— O'shga tongga yaqin yetarkansan-da.

— Shunaqa bo'lib qoldi.

— Qancha soat uchilarkan?

— To'rt soat.

— Hechqisi yo'q, sog'-u salomat yetib olsang bo'ldi-da.

— Xudo xohlasa.

— Ertaga bo'sh ekansan, menga poydevor quyishni o'rgatib qo'y, iltimos? — dedi Aqlbek.

— Qiziq, hech beton quyib ko'rmaganmisan?

— Rosti, hech quyib ko'rmaganman, taralabedod qilib yuravergan ekanman.

— Pul topish oson emas, bu yerga peshana teri bilan pul topish uchun kelganmiz. Sen ham zahmat cheksang, pulning qadriga yetib, odam bo'lasan, — deb uf tortib qo'ydi Risbek.

— Nima, sen ham qiynalganmisan?

— Qiynalganda-chi, abjag'im chiqib ketdi.

— Yana qachon kelasan?

— Kelmaslikka harakat qilaman. O‘z uyimda ham shu yerdagidek erta turib, jonimni jabborga berib, qat’iy tartib bilan ishlasam, to‘kis yashashga ko‘zim yetdi. U yoqda bel og‘ritmay, ish yo‘q degan bahonani niqob qilib olib, xotinlarimizni bozorga chiqarib qo‘yib, topganini yeb, qachon boshi berk ko‘chaga kirib qolganimizda belni mahkam bog‘lab tavakkaliga bu yoqqa kelganmiz.

— Kelganingning oqibati qaytdimi?

— Qaytdi, erta turishni o‘rgandim, hunarli bo‘ldim, mashaqqatga chidab ishlashni o‘rgandim. O‘zingdan gapir, fuqarolik nima bo‘ldi?

— Kerakli hujjatlarning barini topshirdim. Osongina ekan, bir oydan so‘ng kelib pasportingni olib ket deyishdi. Kvitansiya, tilxat yozib berishdi.

— Qancha pul olishdi?

— Mana, — deb Aqlbek kvitansiyani ko‘rsatdi.

— Judayla oz olishibdi, tanishing bormidi?

— Yo‘q, menga rahm qilishdi shekilli. Endi fuqaro bo‘lishdan oldin ishlashni o‘rganayin. Ertaga menga ham o‘zingday ishlashni o‘rgat.

— Ma’qul, irodang kuchli bo‘lsa, astoydil xohlasang so‘zsiz o‘rganasan.

— Men Qirg‘izistonga ketmayman, shu yerda qolib, ruslar bilan bas boylashib, badavlat yashagim keladi.

— Bu o‘zingga bog‘liq, bu yerda boyishing uchun ko‘p ter to‘kishing kerak, ko‘p moneliklar bo‘ladi.

Ikkalasi anchagacha suhbatlashib o‘tirishdi. Keyin brigada ishlayotgan yerga kelishib, Risbek Aqlbekka ishning ikir-chikirlarini yaxshilab tushuntirdi. Ertasi kuni Aqlbek ishga chiqdi. Alim Aqlbekdan so‘radi:

— Beton quyganmisan?

— Yo‘q.

— Unda manavi betonchilarga sement yetkazib berish sening zimmangda. Anavi zambilg‘altak bilan tashiysan, — dedi Alim, keyin bir sherigiga buyurdi: — Akbar, sement turgan saroyni Aqlbekka ochib ber.

— Xo'p bo'ladi, — deb Akbar saroyni ochib, sementni ko'rsatib qo'ydi. Aqlbek kechgacha beton quyuvchilarga sement tashidi. U ko'pdan buyon qora ishga qo'l urmagan edi. Surobi to'g'rilanib qolgan Aqlbek kechki ovqatdan keyin sulayib qolganicha, ertalab o'rnidan arang turdi. Holdan toyib tursa ham hech kimga sezdirmaslikka harakat qildi.

Ish har qancha og'ir bo'lsa ham, biror oycha chidashga qat'iy qaror qildi. Birga ishlaganlarning hammasi ham shunaqa ahvolda ekanligini ko'rib turibdi. U brigada a'zolarining hammasi bilan yaxshi tanish bo'lib qoldi. Akbar Alimning ishongan kishisi, u hamisha Alimning qo'ltig'ida. Alim quruvchilik kasbi bo'yicha oliy ma'lumotni Rossiyaning o'zida olgan ekan. Akbar esa Qirg'izistondagi politexnika institutini bitirib, shu yerga kelgan ekan. Akbar Aqlbekdan olti-yetti yosh katta. Alim biror yoqqa ish bilan ketsa, uning vazifasini Akbar bajaradi. Xullas, qurilishdagi ishlarga ikkalasi birday mutasaddi. Aqlbek yigirma kuncha ishlaganidan keyin sement tashishdan bezillab qoldi. Bir kuni Alimning yo'g'ida Akbarga:

— Aka, men sement tashishdan to'ydim, yordamchi bo'lib beton quyayin-chi, mening o'rnimga boshqasi ishlasin, — dedi.

— Ko'ramiz, buguncha ishlab tur, ertaga bolalar bilan gaplashib ko'rib, ular ko'nsa almashtirayin, — dedi Akbar.

— Bugun bo'lmaydimi?

— Yo'q, bo'lmaydi.

Aqlbek: "Kalondimog' svoloch!" deb, ichida Akbarni yomon ko'rib qoldi.

Alimni boshqa brigadalarda ishlayotgan qirg'iz yigitlari maxsus yig'ilishga chaqirishgan ekan. Moskva shahrining deparasida ishlab yurgan hamma qirg'izlarning kattalari bari yig'ilishib, qirg'iz diasporasining bugungi ahvoli, qirg'izlarning yaxshi-yomon kunlarda bir-birini himoya qilishi borasida qizg'in muhokama bo'ldi. Har oy sayin jon boshiga diasporaning yig'imiga 100 rubldan yig'ib, vatandoshlar boshiga musibat tushganda yordam berishni bir ovozdan ma'qullashdi. Yig'in mehmondorchilik bilan nihoyasiga yetdi. Bu ishlarni boshdan oyog'igacha rayondagi militsiya xodimlari sirtdan kuzatib turishdi. Ular bu qanday yig'in

deb so'rashganda, "Bugun bizda bayram, shuning sharafiga yig'ildik" deb javob berishib, hammasi o'z turgan joylariga ketishdi.

Brigadada ish doimgidek bir maromda borardi. Alim kelgach, Akbar Aqlbekning iltimosini unga aytdi. Alim iltimosni rad qilib: "Bir oy ishlasin, keyin ko'ramiz", deb qo'ydi. Aqlbek buni eshitib, hammasidan norozi bo'ldi. Bu yerdan ketib qolishni ham o'yladi. Lekin qayoqqa? Agar qayoqqadir boradigan bo'lsa militsiyaning qo'liga tushadi, chunki hozircha Rossiyaning fuqarosi emas. Ular xohlagan aybni bo'yniga qo'yib, qamab qo'yishsa, kimga shikoyat qiladi. Shularni o'ylagan Aqlbek qiynalsam ham hozircha shu ishimga chidashim kerak, degan qarorga keldi. Vaqt charxpalagi aylanishda davom etardi.

Rossiyaning fuqaroligi ham qo'liga tegdi. Qalbida kibr-u havo bosh ko'tardi. Endi Rossiyaning qaysi yeriga borsam ham yashab keta olaman, degan ishonch paydo bo'ldi. Ikki-uch marta maoshini oldi. Biroq qanchalik qiynalib ishlaganini eslaganida bu pullardan qanoat hosil qilmadi. Hamkasblarining birortasida esa norozilik alomatini sezmadi. Ular qish kelganda Qirg'izistonga ketamiz deb, xushchaqchaq ishlab yurishibdi. Aqlbek yengil ishni orzu qilardi. Alimga o'xshab brigadir bo'lishni orzu qiladi yoki oyligi katta yengil ish topsam deydi, biroq hech qanday bilimi yo kasbi yo'q. Shu jihatdan qattiq o'ksib yurdi. U umr bo'yi og'ir ishlarga yo'lamay, yengil ish topgisi keladi. Shuning uchun hozirgi ishidan oyligi oz bo'lgani uchun ranjigani-ranjigan. Hech kimga aytmasdan, bu brigadadan ketishga qaror qildi. U hamon sement tashishdan qutulmagan edi.

Kutilmaganda bir qora "Jip" yaqin kelib to'xtadi-da, rus millatidagi uchta basavlat kishi mashinadan tushib kelishdi. Alim o'ta kamtarlik bilan shoshib kelib, ular bilan salomlashdi. Alim qayta-qayta Aleksandr Pavlovich deb ta'zim qilardi. Kelganlar ishning sifatini, qanday borishini surishtirib, ancha-muncha nuqsonlarini aytib, Alimga tushuntirishardi. Alim bosh silkib, ularning aytganlari ma'qul ekanligini bildirar edi. Aqlbek bular kimligini so'radi.

— Sheflar, — deb javob berdi Akbar.

Ular ko'radiganini ko'rib bo'lib, ketish uchun "Jip" tomonga yurishganda Aqlbek ruschani chala-chulpa qilib:

— Aleksandr Pavlovich, sizga savol bor, — deb murojaat qildi. Sheflar Aqlbekka qarab to'xtab qolishdi.

— Ayt, — dedi Aleksandr Pavlovich.

— Biz og'ir ishda ishlayapmiz, ish haqimizni ko'paytirsangiz bo'ladimi? — dedi Aqlbek.

Aleksandr Pavlovich gapirguncha norg'ul, uzun bo'ylisi:

— Bu yoqqa kel, mashinaga chiq, — dedi amirona ohangda. Aqlbek kalovlanib, oxista ularning yoniga keldi. Uni qo'ltig'idan olishib, orqa o'rindiqqa o'tirg'izib, ikkitasi o'rtaga olib, jo'nab ketishdi. Qarab turgan qirg'izlar bironta so'z aytisha olmadi. "Buni nima qilarkin", — deb bir-biridan so'rashdi. Hammasiga Alim: "Oyligini ko'paytiradi", — deb javob qaytarib qo'ydi. Ish davom etdi. Aqlbek o'sha kuni yotoqxonaga kelmadi. Sheriklari uni rostdan ham oyligi ko'p boshqa ishga joylashtirishdi chog'i, degan o'yga borishdi.

Aqlbek bir haftadan so'ng o'lasi ahvolda sudralib yotoqxonaga kirib keldi. Aqlbekni ko'rishib: "Qayoqda yurding?" — deb qisti-bastiga olib so'rab qolishdi. Ko'rsa u kasalxonada yotibdi. Aleksandr Pavlovichning haligi ikki basavlat yigiti boshi-ko'ziga qaramay, po'stakday tepkilab, ezib tashlashibdi. Kasalxonaga kimlar olib borganini o'zi ham bilmas ekan. Doim belida bog'lanib yuradigan dollarlardan hech vaqo qolmabdi. Ko'krak cho'ntagidagi ikki yuz rubldan ko'proq puli qolibdi, xolos. Uni ko'rib Alimning rahmi keldi. "Obdan tuzalmaguningcha dam olib yotaver. Bizning yigitlar seni og'ir olmaydi, bu yog'idan hech xijolat bo'lma", — deb ko'nglini ko'tardi. — Tuzalganingda o'zingla yotavermay, ishlaging kelib qoladi".

Yigitlarning bari Alimning aytganlarini ma'qullab, g'amgin bosh silkib qo'yishdi. Aqlbek ularning marhamatidan minnatdor bo'lib: "Sizlarga rahmat, tuvg'onlar", — dedi. U uch haftacha ishlamay, tekin yeb-ichib yotdi. Ko'chaga chiqay desa mullajiring yo'q. Bir kuni nonushtadan keyin avvalgi ishimni qilaverayin, deb iltimos qilib qoldi. Hamkasblarining bari bu xushxabarni mamnunlik bilan qabul qilishdi. Aqlbek ilgarigidek bardam ishlay olmay qolibdi. Beli zirqirab og'rib, ko'z ochirmas edi. Nihoyat, bel og'rig'iga chidab bo'lmay qoldi. Qattiq og'riqning zarbidan tush-

likni ham yeya olmay, karavotda sulayib yotib qoldi. Alim eplab taksi chaqirib, poliklinikaga olib bordi.

Terapevt vrachning ko'rsatmasiga binoan UZI ko'rigidan o'tkazsa, o'ng buyragi qattiq lat yegani, kasalxonada davolanishi kerakligini aytishib, yo'llanma yozib berishdi. Aqlbek yana bir oycha urologiya bo'limida davolandi. Uning butkul chiqimini o'sha yerdagi qirg'iz diasporasi ko'tardi. Aqlbekning ilgarigi oylik maoshini Alim saqlab yurib, kasalxonadan chiqqanidan keyin o'zi berdi. Aqlbek ikki hafta sog'lig'iga mosroq ish izlab, topa olmadi. Boshi qotib ko'chadagi skameykada o'tirsa, Volkning davrida birga "ishlashgan" Aybek kelib qoldi. Aybek bilan onasini topgan yetim boladay quvonib omonlashdi. Zulmat qa'ridagi qalbiga chiroq yoqilganday bo'ldi. Ikkalasi o'tmishlari haqida miriqib suhbatlashdi. Aqlbek Aybekdan Qirg'izistondagi talay yangiliklardan xabardor bo'ldi.

Volkning bandasidagi o'g'rilarning ko'pi sudlanib, turmaga ketibdi. Aybek Volkning bandasi bilan oz kun birga bo'lgani uchun, qora ro'yxatga tushmay nazardan chetda qolib ketibdi. Shunday bo'lsa ham, birortasi sotib qo'yadimi deb, o'z soyasidan qo'rqib, iz yashirish uchun 90 kunga arang ruxsat olib, yaqinda Rossiyaga kelibdi. U ham hozir ish izlab yurgan ekan. Aqlbek bundan buyog'iga anchagacha qirg'iz tuprog'iga bora olmasligiga yana bir karra amin bo'ldi. Nazikdan o'ch olish armoni yuragini mijg'ib o'tdi.

— Rossiyaning fuqarosi bo'la turib, men ham ish izlab yuribman, — dedi Aqlbek.

— Nahotki?

— Shunday, og'ir ishga yaramay qoldim.

— Yengil ish izlab yuribman, degin?

— Shunday desa ham bo'laveradi.

— Hm-m, menga og'ir ish bo'lsa ham topib bera olasanmi?

— Sen beton quyib, qurilishda ishlay olasanmi?

— Nachora, ishlayman-da, menga ham oyligi ko'p, yengil ish bo'lsa yaxshi bo'lardi.

— Volk bilan ishlagandaymi?

— U hunarimiz bu yerda o'tmaydi, u davrlar jannat edi.

— Ayta ko'rma, cho'ntaklarga aqcha botmay, nimaga sarflashimizni bilmay yurdik-ku, bay-bay!

— Ha-ya, restoran, qizlardan ham ortib qolardi.

— Eh, bevafo dunyo!

— U kunlar endi qaytib kelmaydi, undan ko'ra menga qurilishdanmi yoki boshqa ish topib ber.

— Mayli, hozir men bilan yur, ish bor, uni senga ko'rsataman, yoqsa ishlaysan. Xudo berib seni uchratganim yaxshi bo'lmadimi. Eski ko'kyolsan-da![1]

Hoynahoy, eski qaroqchilarni taqdirning o'zi uchrashtirgan edi. Aybek Aqlbekning o'rnida ishlab qoldi. Aqlbek yengil ish izlab, anchagacha izg'ib yurdi.

Bir kuni katta sumka ko'targan qirg'iz yigitni uchratib qoldi. Ikkalasi qirg'izchasiga salomlashishdi. Aqlbek uning qayoqqa ketayotganini astoydil so'rab qoldi. U yigit Qirg'izistonga, qadrdon qishlog'iga ketayotganini aytdi.

— Qirg'iz yeriga bizdan salom ayt, — dedi Aqlbek.

— Ma'qul, vatandosh, kimdan deb aytib qo'yayin, — deb kuldi yigit. Aqlbek ismini yashirib, "Asandan salom!" deysan, dedi jilmayib.

— Xudo xohlasa, so'zsiz aytaman.

— Sening isming nima?

— Nurbek.

— Yaxshi ism ekan, nurdek porlagan yigit ekansan, senga oq yo'l tilayman.

— Rahmat.

— Nimada ketyapsan, samolyotdami yoki poyezddami?

— Samolyot qimmat, poyezdda ketyapman.

— Tanishganimizni nishonlab qo'yaylik, vaqting bormi? Nurbek soatiga qarab: "Bor, poyezdga 22.00 da o'tiraman", — dedi.

— Unda yur.

Yangi tanishlar kafega borishsa tirband ekan, chekkadagi oshxonaga kirishdi. Ovqatlanishib, oz-ozdan ichishib, o'zlarining qismatlari borasida hasratlashib, ancha o'tirishdi. Aqlbek qora qilmishlarini yashirib: "Yangi kelib, ish izlab yuribman", — deb

[1] **Ko'kyol** — qashqirning sarasi.

yolg'onni yamlamay yutdi. Ikkalasi oshxonadan chiqqanda, Nurbekning bir soatgina vaqti qolgan edi.

Aqlbek Nurbekni poyezdga solib, kuzatib qo'yadigan bo'ldi. Shom bo'lib tun kira boshlagan edi. Ancha yurishgandan keyin Aqlbek "yozilib" olmoqchi ekanligini aytib, yo'l chetidagi daraxtlar ichiga kirib, yerni paypaslab, g'oz tuxumidan kattaroq toshni topib, cho'ntagiga yashirdi. Ular yana yo'lda davom etishdi. Atrof kimsasiz edi. Hech qancha yurishmasdan, didiga mos yerga kelib qolishganida, Aqlbek ajaldan bexabar Nurbekning boshiga bor kuch bilan tushirdi. Nurbek yerga qulashi bilan yana besh-olti marta miyasiga urib, apil-tapil cho'ntaklarini titkilab, bor pullarini o'z cho'ntagiga solib, sumkani ko'targanicha juftakni rostladi. Nurbek kalimaga kelmay, o'sha zahotiyoq jon bergan edi. Aqlbekning ortidan ta'qib qiladigan hech kimsa yo'q edi. Hodisa ikki-uch daqiqa davomida bo'lib o'tdi. Yana bir begunohning dildagi umidlari, ezgu niyatlari o'zi bilan borsa kelmasga ketdi. Qirg'izning yana bir yigitiga ona yurt diydorini ko'rish nasib qilmay, bu foniy dunyo bilan vidolashdi. Nurbekning soddadilligi o'ziga ajal olib keldi.

Aqlbek taksiga o'tirib, uch chaqirimcha borib tushib qolgach, hayajonini bosib, yorug'ga kelib, o'lja pullarni hisoblasa, o'n ming rubl va Nurbekning Qirg'iziston pasporti, poyezdga olgan bileti bor ekan. Sumkadagilar esa, faqat kiyim-kechaklar bo'lib chiqdi. Aqlbek kamida yuz mingdan mo'lroqni taxmin qilgan edi. U qo'l telefonidan Aybekka: "Men ketdim", — deb qo'ng'iroq qildi-yu, qayoqqa ketayotganini aytmadi. U izini yashirib, Sankt-Peterburgga jo'nab ketdi.

* * *

Aqlbek yaltillagan tasmadek yo'lda uchib borarkan, o'tmishi kinolavhadek birma-bir ko'z o'ngidan o'tib borardi. Charchadimi yoki uyqu keldimi, lanjlikdan bir esnab oldi. U yoq-bu yoqqa qarasa, qorong'ida hech narsa ko'rinmaydi. Soatiga qarasa, tonggi to'rtdan o'tib qolibdi. Mashinani chetroqqa olib, jindek qush uyqusi qilib olishga qaror qildi. Meerkan bilan bolalar qattiq uyquda.

* * *

Qubontoy bilan Omontoyning yo'qolganiga bugun uchinchi kunga oyoq qo'ydi. Hamon biron darak yo'q. Nazikning ahvoli tobora og'irlashib borardi. Bolalarim topilib qoladi, degan umidgina uni yashashga undardi. Falokat yuz berib, bolalarini qayta ko'rish nasib qilmasligini bilsa, o'zini o'rtab yuborishga ham tayyor edi. Uning ishongani To'rageldi bilan Otakeldi edi. Eri ikki o'g'lini Nazikdan ham qattiq sevardi. U ikki o'g'li uchun o'z hayotini qurbon qilishga ham tayyor edi. Shuning uchun ham Otakeldini ayab, musibatga o'zi bardosh berishga qaror qilgan edi. To'rageldi qaynisiga, el-yurtga ishonib, umid bilan yashamoqda. Haligacha bolalarning daragi yo'qligidan ba'zan umid ham ojizlik qilib, vahimali, har xil xayollar ming bir ko'chaga yetaklaydi. Nazikning onasi yonidan jilmay, yo'lak-tirgak bo'lib kelmoqda.

Nazik deyarli ovqatdan qolgan edi. Onasining yalinib-yolvorgani uchungina nomiga cho'qilab qo'ygan bo'ladi. O'zi bilan universitet va badiiy gimnastikada birga ishlagan ayollar musibatdan xabar topishib, hol so'ragani kelishibdi. Ularni ko'rib, ko'ngli bo'shab, yig'iga zo'r berdi. Kelgan ayollar ham yupata olmay, ona suti og'zilariga keldi. Ayollarning yoshi kattasi: "Nega yig'laysan, bolalaring topiladi, yomon shumlikni boshlab yig'layverma, ular bolalik qilib, borishib kela olmay yurgandir. El bor, yurt bor, izlaganlar va militsiya topa olmayotgan bo'lsa, boshqa birovlar xushxabar aytib qolar. Yomonlikdan Xudo saqlasin, qo'y, yig'lama", — deb tanbeh berib o'tirib, arang yupatishdi. Nihoyat, Nazik hammasi bilan horma-bor bo'lga kelib, ko'ngil so'rab kelganlari uchun minnatdorchilik bildirdi. Kelganlarga bolalarining qay tarzda yo'qolganini qisqacha aytib berdi. Nazikning ko'ngli xiyla taskin topa tushdi. Rostdan ham biror joyda adashib yurishgan bo'lsa-chi. Yig'i xosiyatsiz narsa deyishadi, ko'p yig'layvermayin-chi, deb o'ziga o'zi nasihat qildi. Mehmonlarni kuzatgach, picha tamaddi qilib, divanga yonboshlab uyquga ketdi.

* * *

Nazik odatiga ko'ra bolalarining o'yinini nazorat qilib turish uchun ko'chaga chiqdi. Bolalari hadeganda ko'rinavermadi. Bolalari o'ynaydigan maydonga bordi. Ho'v narida Omontoyning

qorasi ko'ringanday bo'ldi. Qubontoy qayoqda ekan deb alanglasa, ko'rinmaydi. Omontoydan so'rayin-chi, u qayoqda bo'ldi ekan deb yaqiniga kelsa, Omontoy onasiga qiyo boqmay qo'yganiga hayron qolib, bolasidan norozi bo'ldi. U bir to'da notanish bolalar bilan o'ynayotgan ekan. Nazik bular ovqat ichmay yurishibdi, qorinlari och-ku, deb bolalariga rahmi kelib, ularni chaqirib olib, ovqatlantirmoqchi bo'ldi. Qubontoyning ko'rinmaganiga dilida andak xavotirlik.

— Omontoy, Qubontoy qayoqda-a? — deb qichqirdi Nazik.

— Ho'-o'v anavi yoqda!

— Qani, uni chaqir, ovqatlanib olinglar.

— Hozi-ir, Qubontoyni chaqirib kelayin.

Omontoy o'yinni qo'yib, Qubontoyni izlab ketdi. Nazik tobora yaqinlashgan sayin bolalar tobora uzoqlashib borar edilar. Nazikning qadami hech arimas edi. Ho'-o'v uzoqdan Qubontoyning qorasi ko'rindi. Nazik uni ko'rib suyunib ketdi. Ular ikkalasi nimalarnidir gaplashib, onasiga qo'l siltashib, xayrlashar edilar. Nazik ulardan ko'z uzmay qarab turardi. Bolalar onasi tomon yurmasdan, nari tomon ketishardi. Atrof tobora xiralashib, tuman tushib, tun kirib borardi. Nazik jig'ibiyron bo'lib: "Qubontoy, Omontoy! Qorong'i tushib kelmoqda, uyga yuringlar!" — deb qo'l siltab chaqirar edi. Nazikning ovozi ham qiynalib chiqardi. O'g'illari hamon odatiga xilof parvoyi falak. Nazik ularni yana chaqirdi. Ikkalasi eshitmaganga olib, nari qarab yugurib ketishdi. Nazik darg'azab bo'lib, ularning ortidan yugurdi.

— Qubontoy! Omontoy! Uyga qaytinglar! Qorong'i kirib qoldi, qaytinglar!

— Oyi-i! Biz o'ynagani ketyapmi-iz!

— Uyga yuringlar! Qorong'i kirdi.

O'g'illari ikkalasi ham yugurganicha ketib qolishdi. Aka-ukaning qorasi xiralasha borib, zulmatga singib ketdi. Ularning ortidan chopgan Nazikning oyoqlari o'ziga bo'ysunay demasdi.

— Qubontoy, Omontoy, to'xtanglar!

U quyuq qorong'ilik og'ushida qolib ketdi. Lekin qorong'ida bo'lsa ham bolalarining ortidan yugurib ketayotib, qoqilib yiqilib tushganda uyg'onib ketdi. Eshikdan endigina kirib kelgan onasi

Nazikning bolalari ismini aytib chaqirayotganini ko'rib, xavotir bilan qizini quchoqladi.

— Tush ko'rdingmi, qizim?

Nazik javob bera olmay, nafasi yetishmayotgandek o'pkasi qisilib, xiylagacha hansirab turgach, u yoq-bu yoqqa alanglab, tush ko'rganini sezib, keyin onasiga javob qildi:

— Ozgina uxlabman-u, tush ko'ribman.

— Meni qo'rqitib yubording, qizim.

— Uxlab yotib qiyqirdimmi?

— Ha, bolalaringning ismini aytib chaqirayotganingni ko'rib, cho'chib ketdim. Qubontoy bilan Omontoyni qanaqa tush ko'rding?

— Ularning o'ynab yurganini ko'rdim, oyi. Ular menga qiyo boqmay yugurib ketib qolishdi.

— Ular qayoqqa qarab ketishdi.

— Tushimda qorong'i tun kirib, qayoqqa ketishayotganini aniq ko'rolmay qoldim. Orqalaridan yugurib, yeta olmadim.

Nazikning ko'zlaridan duv etib yosh quyila boshladi.

— Muncha siqilmasang, qizim, tush degani tupukka arzimaydigan narsa. Tushga nimalar kirmaydi. Bu tushingni ariqning bo'yiga borib, batafsil suvga aytib ber. Tushing yaxshi tomonga og'adi. Qiyo boqmay ketgani bolaligida. Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada, deb eskilar bekorga aytgan emas.

Onasi shunchalik javrasa ham, baribir Nazik onasini quchoqlab olib o'ksib-o'ksib yig'ladi. Qizini ovutishning chorasini topa olmay onaning shashti ketdi. Ona ekan-da, qizining musibatini teng bo'lishib, Nazikdan ham ko'proq ichidan zil ketdi. Xudo bandam desa, Nazikning kunini hech kimning boshiga solmasin.

Ikki birday ko'zining oq-u qorasi, jonga payvand norasidalarini yo'qotib, topa olmay xavotirda yashashi — ona uchun yer ko'tara olmaydigan kulfat emasmi? Nazik ko'rgan tushidan yuragi g'ulg'ulada, ko'ngli g'ash, xayoli parishon, hislari ostin-ustun. O'zini qo'ygani joy topa olmaydi. Qanchalar erkatoy, mehribon Qubontoy bilan Omontoyning tushidagi teskari qiliqlarini eslab, yuragi orqasiga tortib, bir sapchib oldi. Farzandlariga aslo yomonlikni ravo ko'rmasdi. Hozir ularni topa olmay, ezilib yurganimga

tushimga shu taxlitda kiribdi-da deb o'ylab, o'zini o'zi ovutib, qaynisi To'rageldiga qo'ng'iroq qildi.

— Qulog'im sizda, yanga...

— Qubontoylardan biron xabar bormi?

— Xabar bo'lgan zahotiyoq sizga qo'ng'iroq qilaman, izlayapmiz. Ko'p xavotirga tushavermang, so'zsiz topamiz.

— Og'zingizga shakar, qani endi tezroq topila qolsa, akangiz bu yerda yo'q, birgina sizga ishonaman, ho'v bola![1] — deb Nazik telefonini o'chirdi. Keyin shalvirab o'tirib qoldi. O'g'illarini shunchalar sog'ingan ediki, asti naryog'i yo'q. Nogahon Otakeldining bolalari bilan o'ynab yotgan paytini kameraga tortishib, uni ayash[2]lari videodiskka ko'chirib berishgani yodiga tushib, o'shani izlab topdi. Ona va qiz televizordan o'sha diskni ko'ra boshladilar. Disk tomoshasida butun oila jamuljam edi. Hammasining yuzida tabassum, baxtiyor damlar.

Qubontoy bilan Omontoy baxtli bolalikning ayshini surib, qah-qah urib o'ynashib, biri qo'yib, biri Otakeldining bo'ynidan quchoqlab, ustiga chiqib minib, zavq-shavqqa g'arq. Sayqal ham qiy-chuv ko'tarishda ulardan qolishmaydi. Ikki o'g'li dumalab Sayqalni yiqitib, uni arazlatib qo'yishdi. Nazik ularni yarashga keltirish bilan ovora. So'ngra otasi o'g'illarini gimnastika mashqlari bilan shug'ullantirayotgani ko'rsatilib, disk nihoyasiga yetib qoldi. Tomosha tugagach, onasi Anipa: "Voy bo'-o'y, zap ish qilgan ekansizlar, ajoyib esdalik bo'libdi", — dedi.

Nazik chuqur uf tortib, quvonchli hayotining bir parchasini miriqib ko'rib, ozgina bo'lsa ham qayg'usini unutganday bo'luvdi. Videolavhalar tugaganidan keyin bolalarining fojiasi yana esiga tushib, ichi tuzdek achishib, qayg'usi yana avjiga chiqdi. Onasining "Ajoyib esdalik bo'libdi", — degan so'zlaridan tug'ilgan yoqimsiz taassurot tufayli hozirgina his etilgan xursandchilik qayg'uga almashib, yana yig'iga zo'r berdi. Nazik onasini quchoqlab olib anchagacha yig'ladi. Anipa ham yuragini obdan bo'shatib

---

[1] Qirg'izlarda, odatda, yanga qaynisiga "O', bola!" deb murojaat qiladi.

[2] **Ayash** — do'stning xotiniga yoki xotinning eriga hurmat yuzasidan aytiladigan so'z.

olsin dedimi, jimgina, qizining sochini silab anchagacha o'tirdi. Anipa yana:

— Na chora, sening bunchalik qiynalishingni bilishganida birovning mashinasiga tushib ketisharmidi. Bola shuning uchun bola, sen ham kichikligingda ko'zimga birpas ko'rinmay qolsang, men ham sendek oyog'i kuygan tovuqqa o'xshab qolar edim. Onani Xudo shunday yaratgan ekan-da. Bandasida iloj qancha, tur endi, ovqat sovib qoldi. Tur, ovqat ich, — deb onasi Nazikni ovqatga unday boshladi.

* * *

Meerkan ertalabki soat oltilarga yaqin uyg'ondi. Ikki yonini qarasa, dunyodan bexabar bolalar shirin uyquda yotishibdi. Aqlbek o'rindiqni ortga yotqizib, chalqanchasiga yastanib uxlab yotibdi. Uning norasida go'daklarni ota-onasidan judo qilib, g'alamislik bilan o'g'irlab kelayotganining sababini tushuna olmay Meerkanning boshi qotardi. Aqlbekning: "Bolalarni avrab yoningga o'tirg'iz, suv ber, konfet ber, yalinib-yolvorib bo'lsa ham o'zingga tort", — deb shivirlagani hayron qoldirar edi. "Bu yosh bolalarni aldab nima qilasan, qo'y, yur ketdik", — deganida Aqlbek: "Og'zingni yum, aytganlarimni qil, yo'qsa itdek otib tashlayman", — deb pistoletini o'qtalib, yana cho'ntagiga solib qo'ygani qayta-qayta ko'z oldidan o'tadi. Bu ikki go'dakni o'g'irlashga u majburan sherik bo'lgandi. Meerkanning onalik hissi ikki bolaga yon bosib, shafqat tuyg'usini qo'zg'ar edi. Onasi bechora do'zaxda qolgandir deb ichidan zil ketdi. Meerkan Aqlbekning odamiylikka begona ko'plab qilmishlaridan nafratlanar edi.

U erta-yu kech undan qutulishning ilojini izlardi. Aqlbek haddan tashqari qo'pol bo'lib, Meerkanni ham ko'p palid ishlarni bajarishga zo'ravonlik bilan majburlardi. Begunoh norasidalarni o'g'irlashga sherik qilishi ham o'sha zo'ravonliklarning bir ko'rinishi edi. Shularni o'ylab, ruhi tushib o'tirgan paytida Aqlbek uyg'onib qoldi. U o'rnidan turib, bolalar tomonga qarab, mamnunlik bilan jilmayib qo'ydi. Keyin mashinadan chiqib "yozilib" kelgach, soatiga qarab qo'yib, baklashkadagi suv bilan bet-qo'lini yuvib artingach, mashinani o't oldirib yo'lga ravona bo'ldi.

Bolalar uyg'onganda ularni yupatib, onalik mehri bilan ovqatlantirib, suhbatlashib borish kafolatini Meerkan o'z zimmasiga olgan. Meerkan o'z ixtiyoriga qarshi ravishda riyokorlik qilib, bolalarni aldab-suldab yo'lida davom etmoqda.

Aqlbek jiddiy, yo'l tanobini tortish bilan mashg'ul. Bolalarning savollariga ishonarli qilib javob berish, yolg'onni yamlamay yutishning ham hadisini oldi Meerkan. Aqlbek Rossiyaning bojxonasiga ayyorlik bilan atayin tonggi soat to'rtlar chamasida — uyqudan qolgan nazoratchilarning hushyorligi susaygan paytda keldi. Aqlbek o'zining va xotinining pasportini ko'rsatishga tayyorlab qo'ydi. Agarda bojxonachilar bolalarning yuziga qo'lchiroq yoqib qaraydigan bo'lsa, bunga qarshi yuz dollarni tayyorlab qo'ydi. Nihoyat, Rossiyaning chegara punktiga ham yetib kelishdi. Qozog'istonning bojxonachilari hech qanaqa taftishsiz o'tkazib yuborishgan edi. Rossiyaning bojxonachilari ikkalasining pasportlarini olib shu yerda kutib turishlarini tayinladi. Buyruq bergani yolg'izligini ko'rgan Aqlbek shoshib uning yoniga borib: "Shoshib ketyapmiz, bizni kuttirmasangiz, bolalar isitmalab turibdi, do'xtirga ko'rsatishimiz kerak", — deb yuz dollarni qistirgandi, bojxonachi bajon-u dil shlagbaumni ochib berdi. Rossiya tuprog'iga silliqqina o'tib olganidan so'ng Aqlbek chuqur bir uf tortib oldi. Asosiy dovon zabt etilgan edi.

* * *

Rossiya zaminiga qadam qo'ygach, yana o'tmish kunlari kinolavhadek ko'z oldidan o'ta boshladi. Aqlbek Nurbekni o'ldirgan tuni Moskva — Sankt-Peterburg elektrichkasiga o'tirib, tongga yaqin shaharning o'ziga yetmay, elektrichka to'xtagan stansiyada tushib qoldi. Ish qidirish muammosini ko'p o'ylab, katta shahardan tezroq, yengilroq ish topishga ko'zi yetmadi. Orzusidagi ishi — bir joyda o'tirib, jon qiynamay katta oylik olish edi. Eng asosiysi jinoyat izini yashirib, manzilini o'zgartirishi kerak edi. Endi begona shaharda o'ziga loyiq ish topib, xavfli ko'zlardan nari, o'z holicha yashash muammosi ko'ndalang bo'lgandi. Tong ham otdi. O'z tashvishi bilan band odamlar oqimi boshlandi. Aqlbekning shoshadigan yeri yo'q, yot yerga, begona odamlarga qiziqish bilan

qarab turdi. Keyin oxista odimlar bilan yurib, zimdan atrof-muhitni o'rganib, yana stansiyaga qaytib, uzoqqa ketolmay merovlanib yurdi. Nihoyat yolg'izlikdan bezib, odamlar uymalashgan yerga kelib, keksa bir ayolning yoniga o'tirdi. Moskvadan kelganiga ikki soatcha vaqt o'tsa ham, biror kimsa bilan gaplashishga yuragi betlamadi. Begona kimsalar bilan nimani gaplashishni bilmas edi. Kutilmaganda yonidagi keksa ayol tilga kirdi:

— Qayoqqa ketyapsan, o'g'lim?

— Boradigan yerim yo'q, tirikchilik uchun shahringizga ish izlab keldim.

— Bu yerda biror boshpanang bormi?

— Afsuski, boshpanam ham yo'q.

— Unda qayerda tunaysan?

— Hozircha bunisiyam muammo.

— Hm-m, dumim xurjunda degin.

— Shunday. Siz o'zingiz shu yerlikmisiz?

— Ha, shu yaqingina yerdaman.

— Unda kvartira topishimga yordam berishingiz mumkin ekan-da.

— Mumkin... qo'shnimning adresini berayin, gaplashib ko'rchi.

— Rahmat, hozir qayoqqa ketyapsiz?

— Qizimning oldiga, ertaga qaytib kelaman.

— Unda hozirgi aytgan adresingizni yozib berasizmi?

— Yozib berayin, ruchka, qog'ozing bormi?

Aqlbek cho'ntaklarini axtarib, bir parcha eski qog'oz topib, ro'parada o'tirgan yosh yigitning ruchkasini so'rab olib ayolga berayotib: "Uzr, ism-sharifingizni so'ramabman", — dedi.

— Ism-sharifim Lida Antonovna Barashkina, — deb aytgach, ayol Beregovaya ko'chasi, 69-uy deb yozib Aqlbekka berayotib tushuntirdi: — Shu yerdan kun botarga besh yuz-olti yuz metrcha yursang ko'chaning nomini o'qib, topib olasan.

Aqlbek yozuvni o'qib ko'rib: "Uy egasining ismi qanday, kim deb murojaat qilaman?" — dedi.

— Voy esim qursin, ismini yozmabman-da, uy egasi Anna Vasilyevna. O'zi biroz qo'polroq gapiradi, bunisiga e'tibor ber-

maysan, hech kimga ziyoni yo‘q ayol, qo‘li yupqaligidan qiynalib yashaydi.

— Sizga katta rahmat! — deb Aqlbek qog‘ozni cho‘ntagiga solib, ruchkani egasiga qaytardi.

— Avval yotoqxona topib olib, keyin ish izla, — deb maslahat berdi ayol.

— Xo‘p, aytganingizdek qilaman.

— O‘zing qayerdansan?

Aqlbek o‘ylanib turib: “Qozog‘istondan”, dedi.

— O‘shanday, ranging ham boshqa, qorachadan kelgan ekan.

Aqlbek o‘rnidan turib: “Omon bo‘ling, men ertaroq kvartira izlay, sizga oq yo‘l tilayman”, — deb jo‘nab ketdi. U yo‘l chetidagi oshxonada qornini to‘yg‘azib, ayol bergan adresni izlab yurib, topib bordi. Uy egasi bilan bahosini kelishib, bir oy muddatga bir xonani ijaraga oldi. Buguncha dam olib, ertadan ish izlashga qaror qildi. Buyragiga kuch kelmaydigan ish izlab, ikki-uch kun ovora bo‘ldi. Oxiri bir garajga ishga kirdi. Shu ish o‘ziga yoqib qoldi. Ishi yengil bo‘lsa ham, onda-sonda buyragi og‘rib, tinchlik bermasdi. Shunday qilib, Aqlbekning qorovul bo‘lib ishlayotganiga ham bir yildan oshib qoldi.

U Anna Vasilyevnaga ham yoqib qolib, begonaligi ham bilinmay qolgan edi. Bir oyga mo‘ljallangan shartnoma o‘zgartirilib, Aqlbek qachon o‘zi xohlaganda ketadigan bo‘ldi. Aqlbek askar yoshida edi. Rossiya fuqarosi bo‘lgani uchun harbiyga chaqirtirilib, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishdi. Ko‘rikda uning o‘ng buyragi mayib bo‘lib chiqib, vaqtinchalik harbiyga yaroqsiz degan spravka berishdi. Shunday qilib, u qorovulligini qilib yuraverdi. Anna Vasilyevnaning ikki oyog‘i shol, bir qaynovi kamroq, 19 yoshdagi qizi bor edi. Aqlbek mayib qizga yaxshi muomala qilib, sovg‘a-salomlar bilan Anna Vasilyevnaning marhamatiga sazovor bo‘ldi. Shunday qilib, Mashaning ko‘nglini olib yurib, yashirincha o‘ynashga aylantirib oldi. Masha hamisha Aqlbekning ishdan kelishini tashnalik bilan kutardi. Anna Vasilyevna ikkalasining don olishib yurganini sezsa ham, go‘yoki sezmagandek edi. Boz ustiga, Aqlbek maosh olganda bir oylik oziq-ovqatni uch kishiga yetarli qilib g‘amlab qo‘yardi. Bunisiga ham Anna Vasilyevnaning boshi ko‘kda edi.

Vaqt o‘tgan sari Aqlbek ularning o‘z kishisiga aylanib, hammalari bir oiladek yashay boshladilar. Natijada Anna Vasilyevna Aqlbekning karavotini Mashaning yoniga qo‘yib berdi. Pirovardida kampir o‘zining tobora keksayib borayotganidan tashvishga tushib, xo‘jaligini notarius orqali birato‘la Aqlbekka o‘tkazib berishni ham o‘ylaydigan bo‘lib qoldi. Vaqt zuvillab o‘tgani sari Aqlbekning sog‘lig‘i puturdan keta boshladi. O‘ng buyragi ko‘z ochirmas edi. Nihoyat, davolanish arzonroq ekan deb yangi ochilgan xususiy kasalxonaga yotishga majbur bo‘ldi. Yangi kasalxonaga qorovullikda birga ishlaydigan Ivan Petrovichning tavsiyasi bilan yotdi. Chunki uning qizi Vera Ivanovna o‘sha kasalxonada hamshira bo‘lib ishlardi. Vera Ivanovna bu xususiy kasalxonaning davolash narxi arzonligini, zamonaviy meditsina apparatlari bilan ta’minlangani, sifatli davolashi ham oliy darajada ekanligini ko‘p marta maqtagan edi. Aqlbekni kasəlxonaning sohibi Robert Pinxasavich Fridmanning shaxsan o‘zi davolay boshladi.

* * *

Aqlbek Sankt-Peterburgga kelganidan buyon o‘z jinoyatlaridan xavfsirab, g‘oyatda ehtiyot bo‘lib, birorta qirg‘izistonlik bilan aloqa qilmay, faqat rus millatidagilar bilan osh-u qatiq bo‘lishga harakat qilib keldi. Birgina Aybek bilan aloqasini sira uzmadi. U Aqlbek uchun Qirg‘izistondagi vaziyat, yangiliklardan xabardor bo‘lib turish uchun bir vositachi edi. Shunday bo‘lsa ham u bilan yuzma-yuz uchrashishni istamadi. Qo‘l telefoni bilangina ko‘plab savollarga javob olib, unda o‘ziga juda yaqin maslakdosh qatori taassurot qoldirib, og‘zaki muomala qilib yurdi. Hatto uning manzilini so‘rab bergan savollariga boshqa adreslarni aytib, aldab qo‘yardi. Maktabda o‘qib yurgan bolalik paytlarini xotirlashardi. Nazikka bo‘lgan muhabbatini ham ilk bor Aybekka aytgan. Aybekning ularning oshiq-ma’shuqligiga havasi kelardi. Telefonda suhbatlashishsa ham o‘sha yoshlik paytlarini ko‘p xotirlashar edilar. Aybek boyagi Volkning to‘dasiga so‘nggi paytlarda bo‘lsa ham qo‘shilib qolganini yashirish uchungina Rossiyada yurishga arang bir yil chidadi. Qirg‘izistonda o‘zi haqida yomon so‘z aytilmaganini bilgach, uyiga qaytib, Bishkekka borib, biznes bilan shug‘ullanishga qaror qildi.

* * *

Kasalxona egasini bemorlar Robert degan ismini aytmay Fridman deb qo'yishar edi. Aqlbek bir hafta davolangandan keyin Fridman uni huzuriga konsultatsiyaga chaqirib, xoli suhbatlashdi. Aqlbek kirib o'tirishi bilan Fridman darhol: "Sening o'ng buyragingni almashtirish kerak", — dedi. Aqlbek bir ozga garangsib, tili kalimaga kelmay, peshanasida ter yiltilladi. Fridman uning ahvolini tushunib, o'ziga kelishini kutdi. Nihoyat Aqlbek: "Operatsiya qilinmasa bo'lmaydimi?" — deb so'radi.

— Ha, chap buyragingni ham yaxshilab davolash kerak, unisi ham mayib, ikkala buyraging ham qattiq zarba yegan.

— Hm-m, men endi nima qilishim kerak?

— Buyrakni almashtirish uchun sog'lom buyrak kerak. Hozir buyragini beradigan donor kerak. Uni katta miqdordagi Amerika dollariga sotib olsa bo'ladi. O'shanda ham donor topish jiddiy muammo. Hozir buyrakka navbatda turgan buyurtmachilar juda ko'p. Seni ham buyurtmachi qatori navbatga qo'yishga qaror qildik. Senga qachon yangi "ehtiyot qism" topiladi, oldindan aytish qiyin.

— Buyrakning sun'iysi yo'qmi?

— Sun'iy buyraklar yasalyapti, lekin to'liq ishonchga ega bo'lganicha yo'q. Sun'iy buyrakdan tashqari, har xil jonivorlaning buyragi ham qo'yilib, tajriba qilib ko'rilyapti, biroq yaxshi natija bermayapti. Ular to'liq ishonchga kirgunicha bemorlarning kutib turishi jiddiy muammo. Shuning uchun narxi osmonda bo'lsa ham donor topish kerak.

— Donorni qanday topish mumkin? Uni men izlashim kerakmi yoki o'zinglar topasizlarmi?

— Ko'pincha donorni mijozlarning o'zlari tanishlari orqali topishsa, gohida bizda ham naqd pulga chiqib qoladi.

— Sizlarda bo'lib qolsa, narxi qancha bo'ladi.

— Hozir bizda yo'q, agar bo'lib qolsa, 50-60 ming Amerika dollari turadi.

— Menda buncha pul yo'q-da.

Fridman yelkasini qisib, birpas jimgina Aqlbekka tikilib turib dedi:

— Tabobatda odamni davolash uchun muhim, hech kimga aytilmaydigan maxfiy sir bor, agar uni hech kimga aytmaslik uchun qasam ichsang, senga aytaman.

— Men uchun foydali bo'lsa ayting, maxfiy sirni saqlashga sizga qasamyod qilaman.

— Unda gap bunday, eshitib tur, — Fridman ikki yoqqa alanglab qarab olib, so'zida davom etdi: — Agar sir ochilsa ikkalamiz ham otilib ketamiz. Aqlbek Aliyev, o'rningdan turib qasam ichasan.

Aqlbek o'rnidan turib, g'oz turgan holatda: "Tabobatga oid maxfiy sirni ochmaslikka qasamyod qilaman", — dedi.

— Endi o'tir, sening sog'lig'ingni tiklash uchun jinoyat qilishgacha boramiz. Ortidan izlaydigan hech kimisi yo'q odamlardan topib, bizga o'tkazsang, seni otdek qilib, sog'aytirib, ustiga-ustak 10 ming Amerika dollari ham beramiz. Bizga o'tkazgan odaming senga donor bo'ladi, bizdan tashqariga chiqmaydi ham, yashamaydi ham, — dedi Fridman Aqlbekka qattiq tikilib turib. Aqlbek shalviraganicha palatasiga chiqib ketdi.

— Vrach nima dedi? — so'radi Nikolay degan hamxonasi.

— Operatsiya bo'lasan, deyapti.

— Hm-m.

Aqlbek karavotiga chalqancha yotib, xayolga cho'mdi. Kasali jiddiy ekanligini endi anglab yetdi. Xayoli parishon, olatasir o'ylar g'ujg'on o'ynardi. Bu boyagi qurilishda sement tashib ishlab yurganida xo'jayinga oylik oz deb shikoyat qilib, qattiq do'pposlanganining asorati ekanligini bilar edi. Rossiyada ham hayot ostin-ustin, tartibsizlik hukm surib, kuchlisi zaifning qonini so'rib yotganini, yashash uchun katta boylik kerakligini o'ylab yotdi.

Ertasi kuni Aqlbekni kasalxonadan chiqarishdi. Chiqarish oldidan: "Seni qo'limizdan kelishicha yaxshi davoladik, endi donor topilguncha kutasan, biz bilan aloqani uzmay tur, — deb Fridman qo'l telefonining raqamini yozib berdi. Fridman Aqlbekdan boshqa ba'zi bir didiga mos bemorlarga ham yuqoridagiday qasam ichirib, donorga buyurtma berar edi. Aqlbek kvartirasiga kelib odatdagiday ishlab, yashab yurdi. Sog'lig'i ancha iziga tushib qoldi. Goh-gohida og'rib qolsa, joni ko'ziga ko'rinib qoladi. Ikkinchi

buyragim ham og'rib qolsa, o'lib qolamanmi deb azob chekardi. Kasalxonadan kelganida Anna Vasilyevna bilan Masha o'zida yo'q quvonishdi. "Ko'rinishing yaxshi, lekin kayfiyating tushkun, haliyam og'riyapsanmi?" — deb so'rashdi. Aqlbek sir boy bermay: "Ancha durustman", — deb qo'ydi. Anna Vasilyevna ichib olib tog'dan-bog'dan gapiraveradi. "Mashaga uylansang, shu uy seniki bo'ladi", — deb aytgan paytlari ham bo'ldi. Aqlbekning Mashaga uylangisi kelmaydi, o'zi yura olmagan qizga qanday qilib uylansin. Buni xayoliga ham keltirmaydi. Anna Vasilyevna o'zining qarib borayotganidan xavotirda, ko'zi o'tib ketsa, bular ikkalasi er-xotin bo'lib birga yashab qolishsa deb orzu qiladi. Bandasi hamisha kelajakka umid bilan yashaydi. Masha ham keyingi paytlarda o'zi yurishga harakat qila boshladi. Kuchli vrachlarda davolanib, yurib ketishga puli yo'q. Onasi ham shundan siqilib, ko'p ichadi. Aqlbek o'zining shaxsiy manfaati va ko'proq pul g'amlab olish uchun vaqtincha yashab yurganini sezdirmay, ba'zan shu uyni shaxsiy mulkimga aylantirib olsammi, degan xayolga ham boradi. Qisqasi, u oqimga qarab suzib ketmoqda. Bir kuni Masha ikkalasi onadan tug'ilganday yalang'och yotishganda qiz o'zini cheksiz baxtiyor sezib:

— Alik, senga bir gap aytayinmi? — deb qoldi.

— Qulog'im senda, — dedi Aqlbek.

— Oyim shu uyni birato'la senga o'tkazib bermoqchi, sen meni tashlab ketmaysanmi?

— Yo'q, men seni hech qachon tashlab ketmayman, seni sevaman.

— Xoh-xoh-xo! Shunday deyishingni bilardim, oltinim mening! — deb Aqlbekni mahkam bag'riga bosib, erkalab so'zida davom etdi qiz. — Sen meni kuchli mutaxassis professorlarga davolatsang yurib ketaman.

— O-o, unda men ham baxtli bo'lar edim, — dedi Aqlbek. "Baxtli bo'lar edim" degan jumla qanday qilib og'zidan chiqib ketganini o'zi ham bilmay qoldi. Mashaning og'zi qulog'ida, Aqlbekni yanada mahkam quchoqlab, o'pa boshladi. Aqlbekning chindan ham shu uy shaxsiy mulkiga aylanib qolishiga ko'zi yetdi. Hademay o'sha kun ham yetib keldi. Uyni o'tkazish ol-

didan Anna Vasilyevna Aqlbek bilan ochiqchasiga gaplashib, va'dasini oldi. Aqlbek ona va qizning umri o'tguncha yordam berib, issiq-sovug'ini gardaniga olib, boqadigan bo'ldi. Guvoh sifatida Lida Antonovna Barashkina ishtirok etib, shartnomaga pasport raqamlari yozilib, imzo chekishdi. Shundan keyingina Anna Vasilevna uyning Aqlbekka tegishli hujjatlarini to'g'rilab, notarius orqali o'tkazib berdi. Shartnoma ham o'sha hujjatda ro'yxatga kiritildi. Masha bilan Aqlbekning jazmanlarcha hayot kechirishi maxfiyligicha qolib ketdi. Pixini yorgan tullak Aqlbek shol qizdan farzand ko'rishni istamay, u bilan kunora qilinadigan jinsiy aloqada hamisha prezervativdan foydalanar edi. Aqlbek Mashadan g'amxo'rligini ayamay, ikkalasi bir-birining pinjida edi. Aqlbek majburan muloyim va g'amxo'r bo'lishga intilardi. Kundalik hayot taqozosi uni shunga majbur qilgan edi.

Aqlbek Nazikning hafsalasini pir qilgan yovvoyi qo'polligini endi tan ola boshlagan edi. Uning ayni kunlardagi hayotidan Aybek orqali xabardor bo'lib turibdi. Nazikning baxtiyor, to'kis yashayotganini eshitib, unga behad havasi kelib, rashkdan ichini it tatalaydi. Uning muhabbatini rad etganiga g'azabi qaynab: "Hap senimi, shoshmay tur!" — deb tishlarini g'ichirlatganida jag' mushaklari o'ynab chiqadi. O'zining ayni kunlardagi hayoti, ayniqsa, shol qizga malayligi, xushomadlari o'zini o'zi oyoqosti qilayotgandek tuyulardi. Biroq, iloj qancha. Endi asosiy maqsadi yetarli pul yig'ib, sog'lig'ini tiklash bo'lib qoldi. Fikri-zikri shu o'y bilan band. Bir kuni bir fikr miyasida yalt etdi-yu, Fridman bilan dangaliga gaplashishga ahd qildi. Hozir o'sha niyati uchun qulay payt keldi deb, Anna Vasilyevnaga Masha bilan yaqin munosabatini bildirishga harakat qilar edi. Bir kuni Aqlbek Mashani katta doktorlarga ko'rsatib, qanday bo'lsa ham oyoqqa turg'azish niyatida ekanligini Anna Vasilyevnaga aytdi. Anna Vasilyevna: "Qani endi shunday bo'lsa", — deb o'zicha g'uvuranib, Yaratganga iltijo qilib cho'qindi. Kunlarning birida Aqlbek katta doktorlar bilan gaplashgani ketayotganini ma'lum qildi. Buni eshitgan Mashaning quvonchi yer-u ko'kka sig'masdi. Anna Vasilyevna chap qo'li bilan yoqasini ushlab, Iso Masihga yolvorib, cho'qin-

ishni boshladi. Aqlbek Fridmanning qabulxonasiga kirib bordi. Ikkalasi maxfiy donor masalasini batafsil muhokama qilishdi.

— Ortidan izlab, da'vo qiladigani yo'qmi? — deb so'radi Fridman.

— Birgina onasi bor, uni o'zimga qo'yavering. Agarda onasi so'rab keladigan bo'lsa, xorijga, masalan Italiyaga yoki boshqasiga "Qizil hoch" jamiyatining ko'magi bilan davolanishga jo'natdik, deb ishontiring. Men ham shunday deyman. Bundan faqat xursand bo'ladi.

— Yaxshi, buning mantiqiy maslahat. U bizga kelgandan keyin 5–6 kun o'tkazib, o'zing ham kelib yotasan. Bir-ikki soatlik farqi bilan ikkalangni ham operatsiya qilamiz, kelishdikmi?

— Kelishdik.

— O'zimiz "Tez yordam" mashinasi jo'natamiz. Sen menga "Tez yordam" deb qo'ng'iroq qil. Keyin o'zing ham qattiq og'rib, yotib qolgan bo'lasan.

— Aytganingizdek qilaman.

— Endi gap tamom, ishga kirishsak ham bo'laveradi, ketaverishing mumkin.

Ikki firibgar mamnuniyat bilan xayrlashdilar. Aqlbek Anna Vasilyevnaga: "Shifokor Mashani davolab, oyoqqa turg'azishga va'da berib, kasalxonaga yotqizadi", — deb xushxabar olib keldi. Anna Vasilyevna o'z odaticha yana bir cho'qinib oldi. Chiqimning barini o'zi ko'tarishga va'da berdi Aqlbek. Vaqti kelib hammasi Fridman aytganday bo'ldi. Mashani "Tez yordam" mashinasi kelib olib ketdi. "Tez yordam" kelganda Anna Vasilyevnaning kayfi taroq edi. "Sen birga bor", deb Aqlbekka tayinlab qola berdi. Besh-olti kundan keyin Aqlbek ham qattiq og'rib qolib, operatsiyaga yotib chiqdi. Voqealar Fridmanning ssenariysi bo'yicha yuz berib o'tdi. Aqlbek kasalxonadan Fridman bergan o'n ming amerika dollarini cho'ntagiga solib chiqdi. Aqlbek endi Mashasidan judo bo'lgan edi. Bu sirni to'rt kishidan boshqa hech kimsa bilgani yo'q. Anna Vasilyevna qo'shnisi Lida Antonovnaga Masha "Qizil hoch" jamiyatining homiyligida Italiyada davolanayotganini aytib maqtandi.

Robert Pinxasovich o'ta ayyor va tavakkalchi, muttaham odam edi. U Aqlbekni ham chuv tushirdi. Uning buyragini almashti-

rishga ehtiyoj yo'q edi. Tepkilar zarbidan jarohatlangan buyrakni yosh organizm allaqachon asliga qaytarib olgandi. Hozirgi bezovtalikka sabab esa, buyrakda hosil bo'lgan mayda toshchalar edi. Operatsiyada o'sha toshlarni olib tashlab, buyragingni almashtirdim deb imonini yutdi. Tashhis ham butunlay boshqacha qo'yilgan edi. Bunday fojia Ittifoq parchalanib, tabobat xodimlarining razolat ko'chasiga kirib, nafs quliga aylanganining mudhish manzarasi edi. Kuchlisi ojizini yamlamay yutadigan changalzor qonunining davri kelgan edi. Vahshiylar saltanatining bitta vakili Aqlbek hozircha yirtqichlik kirdikorining jazosini olganicha yo'q.

Anna Vasilyevna endi Mashasini sog'ina boshladi. Uyda dardlashadigan sherigi yo'q, ichkilikka yanada ko'proq ruju qo'ydi. Doim Aqlbekdan pul so'rab olib, uyga gandiraklab, arang yetib keladi. Gohida haftalab ichib, og'ziga kelganini gapirib, baralla yig'laydi, ortidan ashula ayta boshlaydi. Anna Vasilyevna aroqqa bo'kib, sulayib qolgan paytlarida Aqlbek hech ikkilanmay shahvoniy hirsini qondirib yurdi. Anna Vasilyevnaning baqir-chaqirig'ini eshitgan qo'shnilar: "Boyagi Annada", deb qo'yishardi. O'shanday mast kunlarning birida: "Mashani olib kel", — deb Aqlbekni bezori jon qildi. Bunday hol ko'p takrorlanadigan bo'lib qoldi. Bunisi Aqlbekka qattiq zarba bo'ldi. U, shunday ketaversa kampir bir kuni ishning pachavasini chiqaradi, degan vahimaga tushib qoldi. Yarim kechada kampir araqqa bo'kib, tarrakdek qotib yotgan paytida Aqlbek qo'liga qo'lqop kiyib, yelim xaltani kampirning boshiga kiygizib, besh-olti daqiqacha dimiqtirib, joni chiqqandan keyin qo'lqop bilan yelim xaltani pechga tiqib kuydirib yubordi.

Ertalab "Tez yordam" va qo'shnilarni chaqirib, jinoyatni xaspo'shlab yubordi. Shunday qilib, Anna Vasilyevnani ham dorulbaqoga jo'natdi. Barcha chiqimni saxiylik bilan Aqlbekning o'zi ko'tarib, qo'shnilarning hurmatiga sazovor bo'ldi. Barcha rasm-rusumlarni qo'shnilar bilan bamaslahat, ularning yo'sinida ado etdi. Hech kim Aqlbekdan shubhalanmadi. Endi u uyning yakka xo'jayiniga aylangan edi. Kunlar o'tgan sari sog'lig'i ham tiklanib, kasallikdan xalos bo'ldi.

Uyni kuchi yetganicha ta'mirdan chiqarib, xonasi kelganda katta pulga urib yuborishga tayyorlab qo'ydi. Qo'shnilar bilan salom-aligi quyuqlashib, to'y, bayramlarda qadah ko'taradigan bo'lib qoldi. Kvartira topib bergani uchun undan minnatdor ekanligini Lida Antonovnaga bot-bot eslatib turadi. Qo'shnilar Mashadan gap ochishsa, xarajati yetarli bo'lgan kuni xabar olib, sog'ayib qolgan bo'lsa olib kelishini aytib, emizak emizib qo'yadi. Aqlbek o'zining firibgarligiga o'zi mahliyo, o'zini oqil sanab, hayotda yo'li ravonligiga imoni komil edi. Ishxonasidagilar ham "Alik" deb murojaat qilishib, uni komil inson sifatida hurmatini joyiga qo'yishadi. Mullajiring borasida ham o'ksigi yo'q. Kelganiga uch-to'rt yil bo'lsa ham, Sankt-Peterburg shahrining markaziga sira bormabdi. Shularni o'ylab, dam olish kuni barcha hujjatlarini olib, sayohatga chiqdi. Shaharning g'oyatda go'zal ekanligidan hayratda qoldi. Shahar ahli kamtarin, madaniyatli el ekan. Militsionerlar ham "cherniy"ni ko'rsa, o'zini tomdan tashlamas ekan. Shundan keyin har yakshanbada shaharda sayr qilib, hordiq chiqaradigan bo'lib qoldi. Qirg'izbashara ko'plab odamlarni uchratsa ham, birortasi tanish emas edi. Shunday sayrlarning birida yo'nalishdagi taksidan tushib uyiga ketayotsa, yo'l chetida bir kishi miriqib uxlab yotibdi. Aqlbek biroz hayrat-la qarab turdi-da, o'tib ketaverdi.

Keyingi sayrga chiqqanida ham o'sha kishi doim uchraydigan bo'lib qoldi. Hamisha kayfi taraq, yurishi atak-chechak, qiyofasi o'ta isqirt. Bir gal atayin yonidan o'tib borayotib, salom-aliksiz "qirg'izmisan?" deb so'radi.

— Ha, qirg'izman.

— Bu qanday yurish?

— Voy bechora-yey, s-sening ishing b-bo'lmasin, — deb qirg'izcha g'udranib qo'pol javob qaytardi haligi odam. Keyingi gal ko'rsa soppa-sog', yo'lak chetida mung'ayib o'tiribdi. Bu safar Aqlbek salom bergandi, alik olib: "Qirg'iz ekansan, ellik rubl ber-chi, qornim juda och", — dedi.

— Ishlaysanmi?

— Belangim bor, ishga yaramayman.

— Unda davolanishing kerak ekan.

— Qaysi pulga davolanaman?
— Unda Qirg'izistonga ket.
— U yoqda hech kimim yo'q, meni kim boqadi?
— O'zingga o'xshagan qirg'izlar boqadi.
— Hm-m, qirg'izlar boqsa Xudo xayringni bersin. Qirg'izligingni ko'rib turib ellik rubl so'rayapman-da.
— Ma, manavini ol, — deb Aqlbek yuz rubl uzatgandi, pulni shartta olib cho'ntagiga solgan g'aribning chehrasi yorisha tushdi.
— Seni davolatmoqchiman, nima deysan?
— Qandaychasiga?
— Shundoqqina, men ham qirg'izman dedim-ku.
— Senga keyin nimani to'layman?
— Hech narsangning keragi yo'q, savob uchun.
— Unda qachon davolatasan?
— Isming nima, qayerdansan?
— Ismim O'tabay, O'shdan bo'laman.
— Sen o'ta boy odam ekansan, qirg'iz degan eling, millating bor.
— Qachon belimni davolatasan, aytmading-ku?
Aqlbek soatiga qarab:
— Ertaga soat to'rtda shu yerda uchrashaylik, o'shanda aytaman, — dedi.
— Rostdanmi?
— Rostdan.
— Unda juda soz, bir yaxshilik qilib qo'y-chi.
— So'zsiz.
— Sening isming nima?
— Alik.
— Men seni shu yerda kutaman.
— Xuddi shu yerda kut.
— Kutaman, qani beshni tashla.
Ikkalasi qo'l tashlashib xayrlashdilar. Aqlbek shu ketishdayoq to'g'ri Fridmanga borib, yana bitta "mijoz" topganini suyunchiladi. Fridman ikir-chikirigacha surishtirib olgach, ikkalasi savdolashib, Aqlbek qirq ming AQSH dollariga rozi bo'ldi.
Ertasiga O'tabayni odamxo'rlar ixtiyoriga topshirdi. Shundan keyin O'tabay ko'chada ko'rinmay qoldi. Aqlbek qorin solib, bo-

quvdagi otdek ko'rkiga chiqa boshladi. Restoran, kafelarda taomni tanlab yeb, ichimlikning sarasini ichadigan bo'lib qoldi. Kafelarning birida idish-oyoq yuvuvchi Meerkan degan qiz bilan tanish bo'lib qoldi. Meerkanning Sankt-Peterburg shahriga kelganiga uch yil bo'ldi. Bir yil ishlaganidan keyin singlisi Kumushoyni ham chaqirib olgan edi. Bu qizlar talaslik bo'lib, ikkalasi bir kafeda ishlab, topgan-tutganini onasiga, ukalariga jo'natib turishardi. Aqlbek uch oy Meerkan bilan salom-alik qilib yurgach, kafeda kamtarona to'ycha o'tkazishib, bir yostiqqa bosh qo'ydilar. Meerkan o'z uyi, o'lan to'shagiga ega, kelishgan yigitga chin dildan mehr qo'yib qolgan edi. Aqlbek mashina ham sotib oldi. Endi uning hayoti to'kis, tugal edi.

Aqlbek Aybek bilan aloqasini sira uzmadi. Har ikki haftada suhbatlashib, Qirg'izistondagi yangiliklardan xabardor bo'lib turdi. Oradan oylar, yillar o'tsa ham Aqlbek Nazikni aslo unuta olmadi. Uning nima ish qilishini, manzilini, qancha bolali bo'lganini — hammasini Aybekdan so'rab, aniq ma'lumot olib turdi. Aqlbekning puli ko'paygan sari Nazikka bo'lgan nafrati, o'chi tobora lovullab borardi. Nazik bilan Otakeldidan o'ch olish alami uning miyasiga mixlanib qolgan edi. Jilla qursa, ularning uyiga uxlab yotishganda o't qo'yib yuborish uning birdan-bir orzusi edi. Ularni qanday qilib gumdon qilish rejalari qalbida g'ujg'on o'ynardi.

Pirovardida Aybekka uchrab, hammasini rejalashtirib, niyatiga yetsagina xumordan chiqar edi. Buningsiz u bedavo dardiga chora topolmasdi. Aqlbek ishidan otpuska olib, qat'iyat bilan Qirg'izistonga razvedkaga jo'nadi. Mana endi o'sha razvedkaning sharofati bilan ikki bola uning o'ljasiga aylandi. Aqlbek tun-u kun rulda yolg'iz o'zi abjag'i chiqib, yarim kechada uyiga yetib kelib, ko'pgacha hayajonlanib uxlay olmay, tong yorishganda uyquga ketdi. Meerkan va bolalar yo'l-yo'lakay binoyidek uxlab olishgani uchun ertalab maromida uyg'onishdi.

Opasining kelganini telefonda eshitgan Kumushoy Meerkandan oilasining ahvoli va hokazo yangiliklarni eshitish uchun barvaqt yetib keldi. Eshikdan kira qolsa, Meerkan ikkita yoqimtoy bolani ovqatlantirayotgan ekan.

Otaga tashna aka-ukalar eshik ochilgandayoq o'rnidan irg'ib turishdi. Kumushoyni ko'rishib, tarvuzi qo'ltig'idan tushib o'tirib qolishdi. Kumushoy opasi bilan omonlashib, yo'lda qiynalmadimi, qadrdon qishlog'ini, onasini, but oila a'zolarini birma-bir so'rab chiqdi. Keyin yoqimtoy ikki bolaga havas bilan nazar tashlab: "Bular kimning bolalari?" — deb so'radi.

— Bu bolalar otasini izlab Qirg'izistondan kelishdi, — dedi Meerkan.

— Shu yosh bolalar-a? Shular Qirg'izistondan sizlar bilan birga otasini izlab kelishdimi?

— Nima bo'libdi, o'g'il bolalar otasini izlaydi-da.

— Qo'ying-chi, bular pochchamning bolalari bo'lsa kerak?

— Yo'q, unday emas, otang biz tomonda deb, onasi yo'q bo'lsa ham pochchang bularni olib kelaverdi.

— Qiziq ekansizlar, Rossiyada bularga nima bor? — deb ajablandi Kumushoy. Bunaqasi mantiqan mumkin emasligidan bolalarga qiziqishi ortdi.

— Pochchang qo'yarda-qo'ymay olib kelaverdi, — deb takrorladi Meerkan.

— Otasini izlab...vax-xa-xa-a... Qani men o'zlari bilan gaplashay-chi, — deb Kumushoy kamerali qo'l telefonini olib, Qubontoy bilan Omontoyni savolga tuta boshladi.

— Oyinglar qayoqda qoldi?

— Oyim uyda qoldi, — dedi Qubontoy.

— Uni tashlab kelaverdinglarmi, oying bu yoqqa kelishlaringni biladimi?

— Yo'q, oyim bilmaydi, — deb so'zga aralashdi Omontoy, — anavi bizni olib kelgan amaki oyingga aytib qo'yamiz degan.

— Aqlbek pochcham otangiz emasmi?

— Haligi amakimi?.. Otam Otakeldi.

— Otakeldi otang qayoqda?

— Otamning qayoqda ekanligini bilmaymiz-da, — dedi Qubontoy.

— Unda nega bu yoqqa keldinglar?

— Otamizni sog'indik-da, — dedi ikkisi jo'r ovoz bo'lib.

— Oyinglarni ham sog'indinglarmi?

— Ha, endi oyimni ham sog'indik, — deyishdi ikkalasi.

— Bu yoqqa kelmay-la qo'ymabsizlar-da, — dedi Kumushoy.

— Bilmasam, otang shu yoqda, sizlarni chaqiryapti, — deb haligi amaki mashinasida olib keldi-ku, — dedi Qubontoy.

— Otang shu yoqda deb kim aytdi.

— Kim edi, — deb Qubontoy Meerkandan so'radi.

— Alik amaking.

— Ha, o'sha, — dedi Omontoy.

— Qo'y endi, bolalardan qayta-qayta so'rayverasanmi, nima qilsa pochchang o'zi biladi-da, — dedi Meerkan.

Kumushoy bolalarning ismlarini bilib olgach, onasi bilan otasining ismlarini ham aniqlab so'rab oldi.

— Bulardan ota-onalarining ismlarini so'rab nima qilasan? — dedi Meerkan.

Kumushoy rostdan ham bularning otasi shu yoqlarda bo'lsa surishtirib topishga yordamlashaman, deb bolalarni savolga tutishni to'xtatib, opasiga bu yerdagi yangiliklardan aytib, biroz suhbatlashib o'tirgach, "hozir ishga borishim kerak" deb uchalasi bilan xayrlashib, Meerkan bergan sovg'a-salomlarni olib chiqib ketdi.

Bu paytda Aqlbek ichkarigi xonaning eshigini yopib olib, xurrak otib uxlab yotardi. Qubontoy bilan Omontoy: "Otam qachon keladi?" — deyishib biri qo'yib, biri so'rayverib Meerkanning shashtini oldi. Aqlbek tushgacha o'likdek qotib uxlab, uyqusi pishganda turib, yuvingandan so'ng ularning yoniga lapanglab kelib: "Ishlar qalay, yigitlar?"— deb qo'ydi. Qubontoy bilan Omontoy tushkun kayfiyatda: "Amaki, otamga olib bormaysizmi, otam qayoqda, boramizmi?" — deyishib Aqlbekka javdirashdi. Ular bu yoqqa kelishi bilanoq otamiz quchoq ochib kutib oladi, yalab-yulqashib, ota diydoriga to'yib, xumordan chiqamiz deb tasavvur qilishgandi. Xayollari sarob bo'lib chiqqanidan bolalarning ruhi tushkun edi. Baribir umid uzishmay, otasi bilan uchrashishni sabrsizlik bilan kutishardi.

— Otalaringga boramiz, uchrashamiz, — deb Aqlbek hamon aldashda davom etardi.

— Amaki, otamni chaqiring, bizni olib boring, amaki! — deb yolvora boshlashdi bolalar.

— Xo'p mayli, men hozir borib uchrashib, olib kelayin, — deb imonsizlik bilan bolalarni avrab tinchlantirdi. U ovqatlanib bo'lib, bashang kiyinib, uydan chiqarda: "Bolalar uydan chiqib yo'qolib ketmasin, basharti yo'qolib ketsa naq boshing bilan javob berasan", — deb Meerkanni qattiq ogohlantirdi. U xilvatroq yerga borib, Fridmanga qo'ng'iroq qilib, quyuq salom-alikdan keyin: "Qachon borayin, muhim gaplar bor, mijozlar keldi", — dedi.

— Hoziroq kel, men seni kutib yurgandim, shunday bo'lishi kerak edi, — dedi Fridman.

Aqlbek mashinasiga o'tirib, darrov yetib bordi. Xususiy kasalxonaning qarshisida Vera Ivanovna kutib turgan ekan. Aqlbekni iliq kutib olib salomlashgach, Vera: "Sizni kutib turibdi", — deb uni Fridmanning huzuriga navbatsiz kirgizib yubordi. Ikki vahshiy holi xonada anchagacha savdolashishdi.

* * *

Bozor kuni edi. Olga Shcherbakova Vera Ivanovnaga ertalabki soat to'qqizda qo'ng'iroq qildi:

— Verochka, hozir menikiga kel, seni uyimda kutyapman.

— Ishqilib tinchlikmi?

— Ha, tinchlik, shunchaki mehmon bo'lib ketasan. Sergey komandirovkada. Anastasiya buvisinikiga ketdi. Hozir o'zim yolg'izman, o'ladigan jonga dugonalarcha bir maishat qilaylik-chi, yoshlikni xotirlaymiz, ma'qulmi?

— Ma'qul, hozir yetib boraman.

Olga bilan Vera meditsina bilim yurtini birga bitirishgan. Ikkovi eski inoq dugonalardan. Fridmanning xususiy kasalxonasiga Olgani hamshiralikka Vera joylashtirgan. Ikkalasi qirq yoshdan oshsa ham, hamon apoq-chapoq, o'zaro hurmat bilan do'stlik rishtalarini uzmay kelishadi.

Vera bir soatga qolmay dahlizni yangratib tugmachani bosdi. Olga uni xurramlik bilan kutib oldi. Ikkalasi to'kin-sochin stolga o'tirishdi.

— Sening ishing haddan ziyod og'ir, aqalli dam olish kuni bir miriqib hordiq chiqaraylik-chi, degan qarorga keldim, — dedi Olga.

— Menga g'amxo'rlik qilganing uchun rahmat. Haqiqatan ham behad charchayman. Yakkash operatsiyaga qatnashaman, ishim shunaqa.

— Rostdan sening ishing juda og'ir.

— Nachora, chidab ishlaymiz-da.

— Xususan, Fridman bilan ishlash o'zgacha og'ir.

— Men shu ishdan bezillab qoldim, tobora hafsalam sovib boryapti, biroq bergan oyligi menga yoqadi, bo'ynimdan bog'lagandek ishlayman.

— Haq gapni aytding, men ham rosa qiynalaman. Hamisha uyga kech qaytaman. Gohida kech kelganimda Sergey ikkalamiz adi-badi aytishib qolamiz.

Olga servantdan araq olib, qadahlarga paydar-pay quyib, ikkovlon cho'qishtirib sipqorishib, gazakni ham kanda qilishmasdi. Sigirning tiliga yoqimli narsalar qo'shib pishirilgan totli taomni rohatlanib chaynar ekan, Vera so'z boshladi:

— Qanchalik horib-tolsak ham, bugungidek dardlashib, o'zimizni o'zimiz ovutamiz-da.

— Albatta, yashash uchun kurashamiz, ammo Fridman man etgan narsalar aytilmaydi.

— Qo'ysang-chi, Vera, mendan ham yashirasanmi?

— Fridmanning qat'iy talabi shunday.

— Qiziq ekan, — deb ajablandi Olga. Ikkalasi qittak-qittak qilib o'tirishib, durustgina qizib qolishdi.

— Bir paytlar men uni judayam yaxshi ko'rib qolganman, unga maylim bor edi.

— Endi-chi? — dedi Olga.

— Hozir ham yaxshi ko'raman, lekin ko'nglim sovib boryapti.

— Nega?

— Sababi, u boylikka mukkasidan ketgan, ikkinchidan, nuqul yosh qizlar bilan o'ynaydi, uchinchidan, sira yozilib gaplashmaydi. O'ta sirli, unga tekkan xotin qanday qilib yasharkin?

— Sir saqlaydi demoqchi, uning ko'p odamlar bilan o'ta ehtiyotkorona, maxfiy gaplashganini payqayman. Hatto sen bilan ham yeng uchida gaplashadi, to'g'rimi?

— Buning rost, bizda ko'p maxfiy sirlar bor, sen ham fahmlabsan, — dedi Vera Ivanovna.

— Biz shifokorlarning, ayniqsa, jarrohlarning ko‘p sirini bilmaymiz. Operatsiyaga qatnashib yurgan sen menga nisbatan ko‘p narsani bilsang kerak, — dedi Olga.

— Jarrohlarning shilta ishlari ham bor, bu o‘ta maxfiy sir, bundan picha xabaring bormi? — dedi Vera.

— Yo‘q.

— Gap o‘rtamizda qolsa aytaman.

— Aytaver, hech kimga aytmayman, sir sirligicha qolishiga va’da beraman.

— Shunday bo‘lsin, sen do‘stimsan, senga ishonaman, sen bilib qo‘ysang o‘zingga yaxshi, shuning uchun aytaman. Sen ham ishxonangning maxfiy kirdikorlarini bilib yurishing kerak.

— Mutlaqo sir saqlayman, picha xabardor bo‘lib qo‘ysam zarari yo‘q.

— Shunday, biroq hech kimga og‘zingdan gullama, yana ta’kidlayman.

— Voy, menga ishonaver, meni bilasan-ku.

— Agarda sirimiz ochilib qolsa, ikkalamiz ham ishdan haydalamiz, hatto jinoiy javobgarlikka tortilishimiz mumkin.

— Qiziq, shunday degin, dahshat-ku, aytaver-chi.

— Fridman menga doim ”Maoshga loyiq ishingni qil, boshqa hammasini unut. Mabodo, og‘zingdan gullaydigan bo‘lsang, qora kursiga o‘tirasan”, deydi. Men ham senga o‘xshab qat’iy va’da berganman.

— Haligi maxfiy siring qanday?

— Buni faqat uch kishigina bilamiz.

— Uchinchisi kim?

— Jarroh Anton Gavrilovich Beryozin.

— Men bilan to‘rtta bo‘lar ekanmiz-da.

— Yo‘q, sen bizga qo‘shilmaysan.

— Yana-chi?

— Yana sirtdan keladigan buyurtmachilar bor, ularni biz bilmaymiz. Birgina Fridman o‘zi biladi. Ular Fridmanning mijozlari.

— Taajjub! Qiziq-ku.

— So‘qqabosh, so‘rab-surishtirari yo‘q patsiyentlarni operatsiya qilganda ular o‘lib ketaveradi.

— Nega?

— Chunki ularning yaroqli ichki a'zolari chetga eksport qilinadi. Hatto nuqsonsiz marhumlarning jasadlari ham vaqt-vaqti bilan eksport qilib turiladi.

— Unda sizlar odamni so'yib, ichki a'zolarini sotuvchi maxfiy qassoblar uyushmasi ekansizlar-da.

— Shunday desa ham bo'laveradi.

— Qo'y-chi, Vera, aql bovar qilmaydi.

— Xo'-o'p, eksportga qanday qilib chiqarasizlar?

— Fridman telefonda shunchaki tirikchilikka oid so'zlarni gapirgan bo'ladi, nimkosasi esa mijozlarga besh qo'ldek ayon. Ular bir-birini juda yaxshi tushunishadi. Ularning ish vaqtlari ham o'ta aniq. Ko'rsatilgan soatda, daqiqada vazifasini aniq bajarishadi. Maxsus oq xalatli odamlar soxta bemorni operatsiyaga kirgizishib, o'sha "bemor"ni yana oq xalatda, tovarni maxsus idishlarga solib, "Tez yordam" mashinasida olib ketishadi.

— Astag'firullo! Naq detektivning o'zi-ya!

— Fridman chetga buyurtma berib, o'zi chetdan buyurtma olib turadi.

— Hammasini pulga sotishsa kerak-da.

— U yog'i menga qorong'i, biroq qarovsiz insonlarni so'yib sotishyapti. Shunisidan butun vujudim zirqiraydi. Oyligiga ham tupurib, bu yovuzlik maskanini tark etgim keladi.

— Talay bemorlar shifo topib ketishyapti-ku.

— Ha, bizda yaxshi davolanib, sog'ayib ketishyapti. Ular orqasida yo'qlaydigani bor odamlar, bunday bemorlar jinoyatni xaspo'shlab turishibdi. O'shalar tufayli kasalxonamiz sha'niga dog' tushmaydi. Boz ustiga vrachlarimiz yangi apparatlar vositasida tashhisni bexato qo'yib, yaxshi davolashmoqda. Xullasi kalom, shifokorlarimiz o'ta bilimdon, o'z ishining ustalari.

— Ilm-fan tobora rivojlanib borgani sari uning vahshiyona oqibatlari ham ko'payaveradi, shekilli.

— Afsuski, bu ayni haqiqat.

— Insonlar ham bir-birini vahshiylarcha yegani shu-da.

— Yaxshi odamlar ham serob, biroq odam odamni turli usullar bilan qirmoqda.

— Qo'y endi, Verochka, tushkun xayollarga berilmay, yaxshi kayfiyatda o'tiraylik.

— Unda shu qadahni sog'liq uchun, yaxshi yashash uchun olib yuboraylik.

— Endi navbat — ashulaga, qani, qaysinisidan boshlaymiz?

Ikkalasi ashula aytishib, musiqaga raqsga tushishdi. Olga bilan Vera o'sha dam olish kuni qadrdon dugonalarcha, chin dildan miriqib hasratlashdilar.

* * *

Aqlbek Fridmanning huzuridan quvnoq kayfiyatda chiqib, yoqimli hislar og'ushida vaqt o'tkazish uchun hayajon bilan shahar ko'chalarida anchagacha yurdi. U g'ira-shirada uyiga keldi. Qubontoy bilan Omontoy yugurganicha oldiga kelib otasini so'rashdi. Ayniqsa Qubontoy nimadandir xavfsiraganday, qovog'ini solib yig'lab yubordi.

— Rostini ayting, otam bu yoqlarda yo'qmi, nega o'zi bizlarni chaqirib olib, o'zi kelmaydi, rostini ayting, amaki! — deb piqillab yig'lab, ko'z yoshlari yonog'ini yuvib turdi. Uni ko'rib Omontoy ham qaltirab yig'lay boshladi. Aqlbek bularning yig'isini sassiz ko'pgacha tomosha qilib turdi. Meerkanning bolalarga rahmi kelib: "Bularni otasi bilan uchrashtir, bechoralarni ko'p yig'latmay, otasini izlamaysanmi? Bugun bo'lmasa ham, ertaga otasini topib uchrashtir", — dedi.

Aqlbek miyig'ida kulib, hamon bolalarga tikilib turibdi. Bolalar Meerkanning ularga yon bosib gapirganidan ko'ngli tinchib, yig'idan to'xtashdi.

Aqlbek Qubontoy bilan Omontoyning rang-ro'yiga, xatti-harakatiga diqqat bilan razm soldi. Ularning shunchalar yoqimtoy, beg'ubor bolalik qiyofasiga hasad bilan tikildi. Ularning Nazikka o'xshash tomonlari ko'p edi. Bir qarashda Otakeldiga ham o'xshab ketishadi. Nazik bilan Otakeldining vujudidan dunyoga kelgan chiroyli bolalarga nisbatan g'azabi qaynab turardi. Qubontoyning o'ng yonog'ining markazida tomchiday qop-qora xoli ko'rinib turardi. Nazikning yuzida, manglayida shunaqa qora xollari bor edi. U xollar Nazikka behad yarashib, go'zallik baxsh

etib turardi. O'shanday xollar Nazikdan bolalariga ham o'tganligi Aqlbekni hayratda qoldirdi. Bunday xol — "muhrlar" keyinchalik tasodifan menga qarshi ashyoviy dalil bo'lsa-chi, degan fikr miyasida yalt etdi-yu, Aqlbek seskanib ketdi.

Kutilmaganda u: "Bolalarni ovqatlantirib uxlat!" — deb Meerkanga buyruq berib, o'zi ichkari xonaga kirib, anchagacha televizor tomosha qilib o'tirdi. Kayfiyati rasvo bolalar yolchitib ovqat yemay, yechinmasdan uyquga ketishdi. Meerkan ularning ustiga bittadan to'shakni yopib qo'yib, o'zi ham uyquga ketdi. Aqlbek chaqchayib uxlamay o'tiribdi. U soatiga qarab qo'yib o'rnidan turib, choynakka suv quyib, elektr plitaga qo'ydi. Suv qaynaguncha yana televizor ko'rdi. Vaqt o'tgan sari uning tinchi buzilib, hayajonlanib, ketma-ket sigareta chekardi. Plitadagi suv sharaqlab qaynaganda choynakni ko'tarib, oxista bolalar yotgan xonaga kirib, lampochkani yondirdi. Qarasa, ota-onasini sog'ingan Qubontoy bilan Omontoy shirin uyquda uxlab yotishibdi. Aqlbek bir nafas tikilib turdi-da, qaynoq suvni shundoq Qubontoyning yuziga quyib yubordi. Bola bechora: "Oy-i-i!!" deb faryod urib, o'rnidan irg'ib turib ketdi. Ayni paytda Omontoy ham cho'chib o'rnidan tura qoldi. Aqlbek endi qaynoq suvni Omontoy tomonga yo'naltirdi. Qubontoy bo'taday bo'zlab, ikki qo'li bilan yuzini changallab, "Oy-i! Ota-a!" deb baqirib, yig'lab dumalar edi. Omontoy ham unga jo'r bo'lib, "Oy-i!" deb chinqirib yig'lardi. Ikkalasining bo'taday bo'zlashi Yaratganga ham yetgandir. Shiftda qaynoq suvdan ko'tarilgan bir parcha hovur suzib yuribdi. Bu dahshatli fojia qanchadir lahzalar ichida bo'lib o'tdi. Bolalarning faryodi yangragandayoq cho'chib uyg'ongan Meerkan ham yugurib keldi. U ko'rib turgan ko'zlariga ishonmasdi. Meerkan yugurib kelganda Aqlbek ko'tarib ketayotgan choynakni ko'rdi. "Xoy vahshiy, bu go'daklarning nima gunohi bor, nima qilib qo'yding!" — deb dahshatga tushgan juvon bolalarni quchoqlab yiqildi. Aka-ukalar "Oy-i"lab yig'lashmoqda. Aqlbek choynakni yerga qo'yib, Meerkanni qo'lidan ushlab, zarda bilan silkitib, "Nari tur, fohisha, men o'zim bilaman", deb kuch bilan boshqa xonaga itarib kirgizdi.

Ikki norasida faryod etishda davom etardi. Bu ikki go'dakning hozirgi ahvoliga risoladagi odam bandasining dosh berishi

mushkul edi. Aqlbek vahshiylikdan battar jinoyatga bordi. Ko'ra olmaslik, rashk, xudbinlik, nafrat ham evi bilan-da! Qubontoy ko'zlarini ocholmay, nima bo'lganini ham tushuna olmay, do'zax olovida qolgan edi. Jon achchig'ida "Oy-i-i!" deb chinqirib yig'lashdan boshqasi qo'lidan kelmasdi. Uy ichidagi oh-u zorlar, eshik mahkam yopiq bo'lgani uchun, tashqariga ko'pam eshitilmas edi. Bo'lar-bo'lmas eshitilganda ham, bugungi kunda nima serob — Gollivudning dahshatli seriallari serob. Aqlbek Meerkanning oldiga kirib, sira qovushmasa ham: "Qo'lim kuyib, choynak qo'limdan tushib ketib, shu ish bo'ldi", — deb qasamxo'rlik qildi. Meerkan uning bu afsonasiga laqqa tushadigan anqovlardan emas edi.

Aqlbek shoshib ko'chaga chiqib, Fridmanga: "Tez yordam" mashinasini jo'nating, bolalar og'rib qoldi", — deb qo'ng'iroq qildi. Aqlbek ichkariga qaytib kirdi. Omontoy bo'zlab yig'lab yotibdi. Meerkan ham o'z xonasida yig'iga cho'mgan. Qubontoy yig'lashdan qolib, og'ir o'ntab, chalqanchasiga yotibdi. Aqlbek Meerkanning oldiga kirib: "Bugungi voqea og'zingdan chiqsa, imi-jimida o'lib ketasan, fohisha", — dedi. Meerkan izg'irin tekkanday bir seskanib oldi. Haqiqatan ham, Aqlbek uni o'zi aytganday imi-jimida yo'q qilib yuborishi turgan gap edi. U Aqlbekdan qanday qilib qutulishning yo'lini izlay boshladi. Aqlbek tilyog'lamalik bilan: "Bu bolalarga nega bunchalik jon kuydirasan, bularni hozir kasalxonaga olib borib, sog'aytirib, otasiga topshiraman", — deb imonini yutdi. Meerkan iloyo shunday qilsin deb Xudodan tiladi. Shu asnoda tashqaridan "tez yordam"ning signali eshitildi. Aqlbek eshikka uchib chiqdi. Ikki kishi zambil ko'tarib kirishib, bolalarni zambilga solib olib chiqishib, mashinaga yotqizishdi. Bu orada Aqlbek bilan Fridman xoli xonaga kirib, "savdo-sotig'ni Amerika dollari bilan yakunlashmoqda edi. Qolgan shifokorlarning biri bolalar olib chiqib ketilishi kerakligini Fridmanga aytdi. Fridman minnatdorlik bilan Aqlbeking qo'lini qisib xayrlashib, mashinaga o'tirib jo'nab ketdi. Uy ichi bir zumda g'ala-g'ovurdan arib qoldi.

— Sen nega bormading, kasalxonaga bolalar bilan borsang yaxshi bo'lardi, — dedi Meerkan.

— Ertaga boraman, kechasi menga nima bor, ularga qattiq tayinladim. Bosh vrachning o'zi kelibdi, u meni yaxshi taniydi, mening buyragimni operatsiya qilib, sog'aytirgan o'shaning o'zi, — deb Meerkanga taskin berdi Aqlbek. Hamyoni dollarga to'lib, niyatiga silliqqina erishgani uchun og'zi qulog'ida edi.

* * *

Bunday musibatni Xudo bandam desa hech kimning boshiga solmasin. Nazik yolchitib ovqat yemay, Xudodan ikki bolasining omonligini tilab, ularning topilmayotganiga yuragi bezovta, tobora vahimasi ortib borardi. Uy telefonining yonidan jilmay, uyqu betini ko'rmay, bedorlik bilan tonglar ottirib yurdi. Bolalaridan hamon darak yo'q edi. Nazikning sog'lig'i tobora yomonlashib, esi kirdi-chiqdi bo'lib, ruhiy karaxt holatga tushib qolgan edi. Bu uyqu ko'rmay, doimo yo'qolgan farzandlari tufayli qo'rqinchli xayollarga borib, g'am-g'ussaga botishning oqibati edi. Bot-bot Qubontoy bilan Omontoyning yurish-turishi, ularning tabiati, turfa qiliqlari yodiga tushib, ko'zidan yosh arimas edi. Onasi Anipa qizining boshiga tushgan musibatni teng tortishib, kuyib-pishib, pand-nasihat bilan Nazikning xayolini mumkin qadar qayg'udan chalg'itish bilan ovora.

Onasi qizining sog'lig'i zaiflashib borayotganidan xavotirda. Mabodo, yomon xabar eshitsa, Nazik o'z joniga qasd qilar darajaga kelib qolgan. Uni faqat umidgina ushlab turardi. Ruhiy tushkunlikka majburan chidab, dam yig'lab, dam ovunib, yarim kechadan ham ancha o'tgandan keyin arang ko'zi ilindi. Uyqudagi Nazikning qulog'iga Qubontoyning dahshat bilan "Oy-i-i!" degan faryodi aniq eshitildi. Nazik o'rnidan sakrab turib, "Mana, ketyapman!" deb tashqariga otildi. U yo'lidagi narsalarga qoqilib, chalinib, yelib borardi. Anipa ham cho'chib uyg'onib, Nazikning ortidan yugurdi. Nazik yo'l-yo'lakay bolalariga yolvorib, "Sadag'ang ketaylar, qorong'ida kelishdingmi, sog'-u salomat keldinglarmi?" — deb javrab borardi. Tun allamahal bo'lib qolgan bo'lsa ham, hamma lampochkalar o'chirilmagan edi. Nazik eshikni shiddat bilan ochib: "Hozir, ketyapman!" deb takrorlab, qorong'i ko'chaga yugurib chiqib cho tarafga qarasa, hech kim

yo‘q. Boshqa yoqqa ketishib qoldimi deb, o‘ng-u so‘lga yugurib, "Qubontoy! Omontoy!" — deb ikki-uch marta qiyqirdi. Nazikning ovozi yig‘i aralash, g‘ayritabiiy chiqdi. Ko‘cha qorong‘i, sukunat hukmron edi. Bolalarim menga erkalanib, biron qorong‘i joyga berkinib oldimi degan umidda: "Qubonto-oy! Mana, men chiqdim. Omontoy! Qayerdasizlar?" — deb qiyqirardi. Nazikning ovozi yig‘i aralash, mungga to‘la edi. Hech kimsa sado bermadi. Qorong‘i, jim-jit ko‘chada hech kim ko‘rinmasdi. Hozirgina bolalarining yig‘i aralash "Oy-i-i!" degan qadrdon ovozini eshitmaganmidi? Bu nimasi, ular yo‘q-ku. O‘zlari oyi deb chaqirgan bolalarining yo‘q bo‘lib chiqqaniga ichi tuz sepgandek achishdi. Bolalarining diydori nasib qilmagani dilini o‘rtadi. Yaratganning bunday xo‘rlaganiga o‘ksib, bor ovozda baqirib, yig‘lab o‘tirib qoldi. Anipa qizining bunday holatini ko‘rib, telba bo‘lib ketdimi degan qo‘rqinchda uni tinchlantirish talvasasiga tushib qoldi. Anipa Nazikning yoniga o‘tirib, yelkasidan quchib: "Tush ko‘rdingmi? Nima bo‘ldi?" — deb so‘radi. Nazikning sog‘inchi avjiga chiqib, onasiga javob qaytara olmay, "Ohim Xudoga yetsin!" deb anchagacha yig‘ladi. Nihoyat, onasining iztirobga tushganini ko‘rib: "Qubontoy bilan Omontoy ketma-ket "oy-i-i!" deb qiyqirishdi, — dedi. Ularning ayanchli qichqirishlari odatdagidek eshitilib, xuddi qorong‘ida uyga kirisha olmayotgandek tuyuldi. Jigarim ezilib ketdi, oyi. Men sevinib, darhol uyga kirgizib, bir diydoriga to‘yayin desam, yo‘q", deb yana uv tortib yig‘ladi. Anipa qizini ovuntirguncha xiyla aziyat chekdi. Nazik yig‘i aralash: "Ko‘rib turibsiz-ku, oyi, Xudoga nima yozug‘im bor, bolalar bilan uchrashtirib qo‘ya qolmaydimi! Yaratgan meni buncha azobga soladi?" — deb o‘pkasini bosa olmay yig‘lar edi. Ona qalbi his etdimi yoki telepatiya deysizmi, xaytovur, shuncha olis masofadagi Qubontoy bilan Omontoyning yuziga qaynoq suv quyilganda Xudoga nola qilib, onasidan najot izlab chekkan faryodlari o‘sha daqiqada, o‘sha soniyada ona qulog‘iga aniq eshitilgani o‘ta hayratomuz hodisa edi. Bolalardan ona hissiyotiga signal keldimi, kim bilsin, fanda hali yechilmagan jumboqlar ko‘p emasmi.

Favqulodda qonxo‘rlik va yirtqichlik bilan Nazikdan qasos olishni niyat qilgan qotil, vahshiy Aqlbek–manyakning bolalar-

ning yuziga ko‘rk berib, yoqimtoy qilib ko‘rsatib turgan yarim tomchiday xoli o‘ziga pand berib qolishi mumkinligidan qo‘rqib qilgan rasvoligi edi bu.

* * *

“Tez yordam” mashinasi kasalxonaga yetishi bilan Fridman qattiq o‘ntab yotgan Qubontoyni darhol operatsiya xonasiga olib kirishni buyurdi. Omontoyni esa akasining operatsiyasi bitgunga qadar bo‘sh palataga yotqiza turishlarini buyurdi. Bu ikki bemorga kasallik varaqasi ham to‘ldirilmadi, hech qanday tashhis ham qo‘yilmadi. Fridmanning fikri-zikri bolalarni tun ichida zudlik bilan operatsiya qilish edi. Qo‘pol qilib aytganda, so‘yish kerak edi. Azobda to‘lg‘onib yotgan Qubontoyni operatsiya xonasiga olib kirib ketishdi. Olga Nikolayevna o‘sha kechada navbatchi edi. Omontoyga palatada qarab turish unga topshirildi.

— Bu bola ham operatsiya qilinadi, navbatga qo‘yib turinglar, — deb tayinladi Fridman.

Omontoyni zambilg‘altakka solib bo‘sh palataga kirgizishdi. Uni zambilg‘altakdan ko‘tarib olib karavotga olib borishmoqchi bo‘lishganda Omontoy:

— O‘zim tushaman, — deb o‘zi tushib borib karavotga yotdi. Qubontoy bilan Omontoy bog‘chada ruschani binoyidek o‘rganib olishgandi.

— Qayering og‘riydi? — deb so‘radi Olga.

— Manavi yerim achishib og‘riyapti, — deb ko‘kragini ko‘rsatdi Omontoy.

— Nima bo‘lgan edi?

— Qubontoy qiyqirib yig‘laganda tura qolsam, qaynoq suv quyib yubordi.

— Qaynoq suvni kim quyib yubordi?

— Sababini bilmayman, Alik degan amaki ikkalamizga ham quyib yubordi.

— Uni yaxshi taniysanmi?

— Taniyman, otangga olib boraman deb, uyimizdan olib kelgandi, lekin otamiz bilan uchrashtirgani yo‘q.

— Uylaring qayerda?

— Olisda, Qirg'izistonda.

Olga Nikolayevna Omontoyning ko'kragini ochib ko'rdi. O'ta qattiq ilvirab kuymabdi, bo'lgani ko'kragi qizarib turibdi. Buni davolash yengil ekanligini Olga yaxshi tushundi. O'sha paytda Aqlbek qaynoq suvni Qubontoyning betiga quyganda, u qo'rqib "oyilab" tura qolganda Omontoy ham cho'chib turib ketgan edi. Quyilgan qaynoq suv Omontoyning yuziga tegmay, ozginasi ko'kragiga, ko'prog'i to'shakka quyilib, Xudo bir asrab qolgan edi. Bug' ko'tarilib, Aqlbek kalovlanib qolgan edi.

— Otang qayoqda? — deb so'radi Olga.

— Qayoqdaligini bilmayman.

— Sen bilan birga kuygan bola kim?

— Qubontoy.

— U kiming bo'ladi?

— Akam.

— Tug'ishgan akangmi?

— Ha.

— Qayeri og'riydi?

— Unga ham qaynoq suv quyib yubordi, hech qayeri og'rimas edi.

— Ataylab quydimi?

— Shunday chamasi, ataylab quydi.

Olga Nikolayevna endi hammasini tushunib yetgan edi. "Essiz, qarovsiz qolgan bolalarni o'g'irlab kelib, yeyishmoqchi ekanda, yirtqichlar" — deb tushundi. Tunov kuni hordiq chiqarib o'tirishganda Veraning aytgan gaplari yodiga tushib, g'azabi qaynadi. Fridmanning: "Bu bola ham operatsiya bo'ladi, navbatga qo'yib turinglar", — deb qat'iy buyruq bergani qayta-qayta esiga tushib, qulog'iga eshitilib turdi. Naqadar yoqimtoy, kelishgan norasidalar himoyasiz qolib, vahshiylarga yem bo'lganligi qalbini larzaga soldi. Omontoyning hozir so'yilishini ko'z oldiga keltirib, bolani ko'zi qiymay, Olga Nikolayevnaning ko'zidan yosh quyilib, nafasi bo'g'ilib, Yaratganning o'zi matonat berganday, qat'iyat bilan o'rnidan turdi...

* * *

Qubontoy bilan Omontoy yo'qolgan kundan tortib kapitan To'rageldi Aqmatovning ham iztirobli kunlari boshlandi. Tug'ishgan akasining munchoqday ikki bolasi birdaniga yo'qolib tursa, qanday qilib iztirobga tushmasin. Hatto kechalari ham uyqudan kechib, bor imkoniyatlarini qo'llab, yelib-yugursa ham biror natija chiqmadi. Jinoyatga tegishli jamiki ikir-chikirlarni miridan sirigacha jamlab, Markaziy Osiyogagina emas, MDH davlatlariga qarashli barcha shaharlarning radio-televideniyalariga, ORTning "Jdi menya" ko'rsatuvining 6601052 nomeriga yordam so'rab ma'lumot jo'natdi. Shundan to'rt-besh kun o'tmay ORT telekanalining "Jdi menya" programmasida I. Kvasha ko'pchilik yo'qolganlar qatorida Qubontoy va Omontoyning yonma-yon kulimsirab tushgan suratini ko'rsatib, bolalarning qachon va qanday mashinada olib ketilganini, ularning yoshlarini aytib, hamma teletomoshabinlardan, Rossiyaning militsiyasidan (u paytda politsiya emas, militsiya edi) agar bolalardan xabar topishsa, ko'rsatuvga xabar berishlarini o'tindi. Bu ko'rsatuvni tomosha qilgan Kumushoy bolalarning o'tgan safar opasinikida ko'rgan, "otasini izlab kelgan" norasidalar ekanligini adashmay tanidi. Bolalarning o'sha paytdagi holati uning xotirasida muhrlanib qolgan edi. Pochchasi Aqlbek allaqachon bolalarning otasini topib bergandir, deb o'ylagandi. Pochchasidan aslo yomonlik kutmagandi. Bolalarga rahmi kelgan Kumushoy darhol Meerkanga qo'ng'iroq qilib, bolalar otasini topgan-topmaganligini jiddiylik bilan so'radi. Meerkan: "Bolalar otasi bilan uchrashgani yo'q", — deb javob berdi. Kumushoy bolalarning o'shandagi kameraga tushirilgan tasvirini diskka ko'chirib, yashayotgan manzilini aniq ko'rsatib, elektron pochta orqali zudlik bilan "Jdi menya" programmasining 6601052 nomeriga jo'natib yuborib, bolalarni o'z ko'zi bilan ko'rgani opasinikiga keldi. Baxtiga opasi uyda yolg'iz o'zi ekan. Kumushoy darhol bolalarni so'radi. Meerkan bolalarning qayoqda ekanligini bilmasligi, Aqlbek chaqirgan "Tez yordam" mashinasi bolalarni kasalxonaga olib ketganini aytib berdi.

— Qanday qilib ikkalasi birdaniga og'rib, kasalxonaga olib ketildi? — deb so'radi Kumushoy. Meerkan: "Hech kimga

og'zingdan chiqarma, Aqlbek ularni Bishkekdan aldab, o'g'irlab olib kelgan", — dedi.

— Unday bo'lsa, nega u bilan hamto'shaksan, sen ham qora kursiga o'tirib qolma, darhol u bilan ajrash, — dedi Kumushoy.

— Yaqinda ajrashaman.

— Ha, shunday qil, uning odamlik xususiyati yo'q ekanligini bilgan edim.

— Menga ish topib qo'y, xabarlashib, kengashib turib keyin ajrashaman, — dedi Meerkan.

Opa-singillar bir qarorga kelib xayrlashdilar.

* * *

Nazikning dard, alami kun o'tgan sayin avjiga chiqaverdi. Ko'rgan tushlari ham xosiyatsiz edi. Uzilmagan umidgina hayot rishtasini ulab turardi. Har bir daqiqa uning uchun asrga teng azob bilan o'tardi. Ovqatga qiyo boqmaydi, ichgani faqat suv bo'lib qoldi. Og'zi qurib, lablari yelimlashib, rangi za'faronga aylanib, ko'rgan kimsa tanimaydigan ahvolga kelib qoldi. Otakeldi kelsa nima deyman deb ichidan ezilib, yig'lab yurdi. Otasi Akjo'l bilan onasi Anipa o'zaro kengashib, shifokor chaqirishib ko'rsatishdi. Nazikni sinchiklab tekshirgan shifokor so'zsiz kasalxonaga yotib davolanishi kerak deb, yo'llanma yozib berdi. Lekin Nazik o'laman sattor deb, kasalxonadan bosh tortdi. Insonga eng avval sog'liq muhim ekanligini aytib, jon kuydirgan otasining so'zlari qulog'ining sirtidan ketdi. Onasining: "Bolam, sening sog'lig'ing bolalaring uchun ham kerak, nega buncha qovurilasan? Joningda qasding bormi, davolanishdan bosh tortma", — deb iltijo qilsa:

— Oyi! Qubontoy bilan Omontoy uyga kelib qolsa, men uyda yo'q bo'lsam ular ranjib, o'ksib qolmaydimi? — dedi Nazik.

Bu gapdan Anipa xiylagacha ezilib yig'ladi. Nazik ertasi kuni hushdan ketib, yotib qoldi. Ota-ona, qarindosh-urug'lar oyog'i kuygan tovuqdek chop-chop bilan "Tez yordam" chaqirishib, uni og'ir ahvolda kasalxonaga yotqizishdi. Shifokorlar lozim bo'lgan jamiki muolajalarni qilib, Nazikning sog'lig'ini mo'tadil holatga keltirishib, umumiy tekshiruvdan o'tkazishdi. Chuqur g'am-qayg'uga botish, vahimali stress natijasida shokka tushish, boz

ustiga homiladorligi ham qo'shimcha bo'lgan. Boshqa xavfli kasalligi yo'q, deb xulosa chiqarishdi. Psixoterapiya muolajalarini ham qilishdi. Lekin Nazikning oyoqqa turib ketishiga hali bor edi. Shunday vaziyatda Otakeldi ham kelib qoldi. Shuncha kundan buyon bolalarining topilmayotganligini, fojianing tafsilotini qarindosh-urug'lari, ichki ishlar bo'limi hamda qo'ni-qo'shnilardan surishtirib chiqdi. Hech qanday tayinli gap eshitmagach, boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Nazikning kasalxonaga tushib qolishi ham unga qattiq zarba bo'ldi. Barcha yaqinlari uning oldida o'zlarini go'yo gunohkordek tutishar edi. Birgina Sayqal otasining tashrifidan yer-u ko'kka sig'masdi. Otakeldi Sayqalni olib kasalxonaga kelib, Nazik yotgan palataga kirdi. Otakeldi Nazikning eti ustixoniga yopishgan qiyofasini ko'rib, ichidan zil ketdi. Shoshib kelib rafiqasini bag'riga bosdi. Sayqal ham yugurib kelib onasini quchoqladi. Nazik: "Hammasiga men gunohkorman", — deb yig'lab, qayta-qayta Otakeldidan kechirim so'rayverdi.

— Uzoqqa ketib qolgan men aybdorman, — dedi Otakeldi, — sen aslo gunohkor emassan, yosh bolalar o'g'rilarga aldanib mashinasiga chiqqan. O'g'rilar pul talab qilishadi, bolalarimni qutqarib olaman.

Otakeldi o'zining qalb tug'yonini sezdirmaslikka harakat qilib, erkaklarcha matonat bilan: "Mana endi men keldim, o'g'illarimni qayerdan bo'lsa ham topaman. Nazik, sen menga ishonaver, yana qaytaraman: sen zarracha gunohkor emassan, bu bir olg'ir ablahning ishi, men aytgan so'zimda turaman. Nazik, sen menga ishon, jonim", — deb xotinini erkalatib, manglayidan o'pdi. Nazikda bolalarining topilishiga yana ishonch paydo bo'lib, g'ayrat bilan o'rnidan turib o'tirdi. Nazik hamisha Otakeldiga ishonib, uni orqa qilib yashab kelgan. Otakeldiga javdirab: "Otasi, bolalarim topilarmikin?" — deb yana so'radi.

— Men aytdim-ku, senga men va'da beryapman, agar va'damni bajara olmasam, undan ko'ra o'lganim yaxshi, — dedi Otakeldi.

— Qo'ying, unday demang, biz sizningsiz yashay olmaymiz. Qubontoy bilan Omontoyni sog'indim, tezroq topila qolsaydi, deyman-da, otasi, — dedi Nazik.

Otakeldi bilan Nazikning o'zaro bu suhbati qaynoq muhabbatning, samimiy ehtiromning ramzi edi. Bu damlar ikkalasi uchun ham og'ir qayg'uning imtihoni edi. Shundayda bir-biriga madakor bo'lish suv bilan havodek zarur edi. Kasalxonadagi hamshiralar ham Nazikning musibatlaridan voqif bo'lishgani uchun unga juda avaylab muomala qilishardi. Hamshiralardan biri oxista Nazikning palatasiga kirib, Otakeldi ikkalasidan: "ORTdan "Jdi menya" ko'rsatuvi boshlandi, ko'rasizlarmi?" — deb so'rab qoldi. Nazik: "Ha, ko'raylik!" — deb o'rnidan turdi. Otakeldi: "Shoshilma, o'zim olib boraman", — deb, shoshmay kiyintirib, yetaklab televizor qo'yilgan xonaga olib kirdi. Ekranda Igor Kvasha gapirayotgan ekan. Otakeldi bilan Nazik qulay kursidan joy oldilar. Kvasha bedarak ketganlarning tug'ilgan yilini, qayerda yo'qolganini, ism-shariflarini aytib, suratlarini ko'rsatib o'tardi. Kutilmaganda u: "Bizga xushxabar keldi, — deb gap boshladi. — Qirg'izistonning Bishkek shahridan Otakeldi o'g'li Qubontoy bilan Otakeldi o'g'li Omontoylarning avvalgi ko'rsatuvimizda qidiruvda ekanligini aytib, xabarini bilganlardan tezda bizga ma'lum qilishlarini so'rab murojaat etgan edik. Mana o'sha bolalar", — deb Qubontoy va Omontoyning yonma-yon o'tirib kulimsirab tushgan suratini aniq ko'rsatib, ko'rsatkich barmog'ini nuqib: "Bizning xodimlar bularni Sankt-Peterburg shahridan qidirishmoqda. Ularni noma'lum kimsa Beregovaya ko'chasining 69-xonadonidan qo'l telefonining kamerasiga tortib olib jo'natgan. O'sha kameraga tushirib, adresini qo'sha xabar bergan kimsaga minnatdorchilik bildiramiz. Mana, ekranga diqqat qiling", — deb elga murojaat qildi.

Qubontoy bilan Omontoyning suratini ko'rgan zahotiyoq Otakeldi ham, Nazik ham sapchib o'rnidan turib ketishdi. Otakeldi o'zini qo'lga olib: "O'tirib ko'raveraylik, orqadagilarni to'sib qoldik", — deb Nazikni ham o'tirg'izdi. Ikkalasi tosh qotib, ekranga mixlanib qolishdi. Ekranda Qubontoy bilan Omontoy ko'rindi. Ikkalasi ham tushkun kayfiyatda, qosh-qovog'i osilgan, o'zi ko'rinmagan ayolning qirg'izcha savollariga g'amginlik bilan dangal qirg'izcha javob berishmoqda. Nazik o'zini to'xtata olmay yig'lab yubordi. Otakeldi: "Oxirigacha ko'rishimiz kerak, yig'la-

may tur", — deb Nazikni yig'idan tiydi. Ekranda ko'rinmagan ayol savollar berib, bolalardan intervyu ola boshladi.

— Oyinglar qayoqda qoldi?

— Oyim uyda qoldi, — dedi Qubontoy.

— Uni tashlab bu yoqqa kelaverdinglarmi? Oying bu yoqqa kelishlaringni bildimi?

— Yo'q, oyim bilmaydi, haligi bizni olib kelgan amaki oyingga aytib qo'yamiz degan, — dedi Omontoy.

— Aqlbek pochcham otalaring emasmi?

Nazik Aqlbekning nomini eshitib, seskanib ketdi. Otakeldining tishlari g'ichirladi. Qubontoy javob berdi:

— Haligi amakimi, u emas, otam Otakeldi.

— O'sha Otakeldi otang qayerda?

— Otam qayerda ekanligini bilmaymiz-da, — deb javob berdi Qubontoy.

— Unda nega bu yoqqa keldinglar?

— Otamni sog'indik-da, — dedi Omontoy, Qubontoy ham uni quvvatladi.

— Oyinglarni ham sog'indinglarmi? — degan savolga bolalar jo'r bo'lib: "Ha, endi oyimizni ham sog'indik", — deyishdi.

— Bu yoqqa kelmay-la qo'ymabsizlar-da? — dedi ayol.

— Otang shu yoqda, sizlarni kelsin deb chaqiryapti deb haligi amaki mashinasiga solib olib keldi-ku, — dedi Qubontoy.

— Kim degan amaking otang shu yoqda dedi? Uning ismini bilmaysanmi?

— Ismi nima edi? — deb Qubontoy Meerkandan so'radi.

— Alik amaking, — dedi Meerkan.

— Ha, o'sha, — dedi Omontoy.

— Qo'y endi, bolalardan qayta-qayta so'rab nima qilasan, Alik pochchang-ku, o'zi biladi-da, — deb qo'ydi Meerkan. Ayol bolalarning ismini so'ray boshladi.

— Sening isming nima?

— Qubontoy.

— Seniki-chi?

— Omontoy.

— Aka-ukasizlarmi, oyingning ismi nima?

— Oyimning ismi Nazik, — dedi Omontoy.

(Bu intervyuni mutasaddilar ruschaga tarjima qilib turdilar.)

— Sening oying-chi?

— Nazik, — dedi Qubontoy ham.

— Voy, shirin-shakarlarim, aka-uka ekansizlar-da, — dedi ayol.

— Bolalarning ota-onalari ismini so'rab nima qilasan? — dedi noma'lum ayol. Savol berayotgan ayol: "Rostdan ham bularning otasi shu yoqlarda bo'lsa, men ham topishga yordamlashaman, mana, hammasini telefonga yozib oldim", — deganidan keyin ekran o'chdi. Igor Kvasha o'sha diskni jo'natgan ayolga yana bir bor rahmat aytdi. "Bu bolalarning adresi ma'lum. Ota-onasi bizga kelsa bolalari bilan diydorlashishga oz qoldi", — deb boshqa mavzuga o'tib ketdi. Masha Shukshina boshqa bedarak ketganlarni eidan so'rab surishtira boshladi. Bu paytda Nazik Otakeldini quchoqlab, ezilib-ezilib yig'lar edi. Biror narsa deyishga majoli qolmagan edi. Farzandlarining tirik ekanligini ko'rib, quvonch yoshlarini tiya olmas edi. Otakeldining ham ko'z yoshlari quyilib, yig'idan titrab o'tirardi. Ikkalasining hozirgi ahvolini ko'rib turganlarning ham ko'zlarida yosh g'iltillardi. Ko'rsatuv tugagandan keyin o'tirganlar: "Bolalaringiz topildi", — deb ikkalasini tabriklay boshlashdi.

Otakeldi Nazikni palatasiga olib kirgandan hech qancha vaqt o'tmay To'rageldi bosh bo'lib barcha qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar telefonni dam oldirmay, ularni xushxabar bilan tabriklay boshladilar.

Nazikning kayfiyatini buzmaslik va tabriklovchilarning ko'ngli uchun majburan quvnoq ko'rinishga uringani bilan Otakeldining qalbida vahimali o'ylar tug'yon urardi. Moskva aviareysi bo'lsa, hoziroq uchib ketishga qaror qildi. Bolalarni o'g'irlagan o'sha Aqlbek ekanini bilgach, tishlari g'ichirlab, hoziroq topib olsa-yu, burdalab tashlagisi kelib tursa ham, o'zini qo'lga olib, hali oldinda muhim ishlar ko'p ekanligini his etib turardi. Yaratganga yagona iltijosi — farzandlarini sog'-u salomat ko'rish bo'lib qoldi. U erkakcha matonat bilan, yasama jilmayib: "Xudoga shukr, Qubontoy bilan Omontoy sog'-salomat ekan. Bu biz uchun katta baxt. Men tezda borib, olib kelishga g'amlanayin", — dedi Nazikka.

— Shunday qiling-chi, baraka topkur, — dedi Nazik eriga javdirab.

— Bolalar kelganda sen uyda bo'lishing kerak. Ovqatni ko'p-ko'p ichib, yaxshilab davolanib, uyga otdek bo'lib borgin, — dedi Otakeldi mamnuniyat bilan. Bolalari Aqlbekning tuzog'ida ekanligi yodiga tushib, yuragi o'ynab, yana kayfiyati buzildi. To'rageldiga qo'ng'iroq qilib:

— Ukalaringning xabarini bildingmi? — deb so'radi.

— Ha, bildim, — javob berdi To'rageldi.

— Tez tayyorlan, Moskvaga uchamiz.

— O'zing tez tayyorlanib, uyga kel.

— Mana hozir ketyapman, — deb Otakeldi Nazikning sochlarini silab, xayrlashib yo'lga tushdi.

* * *

Operatsiya xonasidan Vera Ivanovna chiqib, navbatchi hamshiraga buyruq berdi:

— Haligi reanimatsiya bo'limiga yangi yotqizilgan bemor bolani tezda tayyorlab, operatsiya xonasiga olib kelinglar.

— Xo'p bo'ladi, — deb hamshira reanimatsiya bo'limiga yugurib ketdi. U yoqdan tezda qaytib chiqib: "Bu yoqda bemor bola yo'q ekan", — dedi. Vera Ivanovna amirona ohangda: "Qayerdan bo'lsa ham tezda topinglar, Fridmanning jahli chiqib turibdi", — dedi.

Veraning shovqinini eshitgan Olga Nikolayevna ham yugurib reanimatsiya bo'limiga kirib chiqqach: "Rostdan ham bu yoqda yo'q ekan, boshqa yerlarni qarash kerak", — deb boshqa palatalarni qidira boshladi. Bu orada Fridmanning o'zi ham operatsiya xonasidan chiqib, tez olib kelmaysizlarmi!" — deb qiyqirdi.

— Topa olmayapmiz, qayoqqa g'oyib bo'ldi ekan, — deb kuyindi Olga Nikolayevna.

— Hojatxona, hamma yerlarni qidiringlar, — deb Fridmanning o'zi hamma joylarni tintiy boshladi. Qanchalik izlashmasin, Omontoy hech qayerdan topilmadi. Darg'azab Fridmanning og'zidan bodi kirib shodi chiqardi. "Onasi baytallar, bemor bolaga mehribonliklaring shumi? O'lib qolsa nima bo'ladi!" — deb jig'ibiyroni chiqib, xususiy kasalxonasini ostin-ustun qildi.

Navbatchi hamshiralar oyog'i kuygan tovuqdek yelib-yugurishib, kasalxonaning tashqarisini ham axtarib chiqishdi. Omontoy hech qayerdan topilmadi. "Bu nimasi, yerga kirib ketdimi yo osmonga uchib ketdimi?" — deyishib, ikki soatcha besamar qidiruvdan keyin barining tarvuzi qo'ltig'idan tushib, o'tirishib qoldi. G'azabdan qaltiragan Fridman sigaretaga zo'r berardi. Kutilmaganda hamshiralarga zahrini sochib: "Ablahlar, senlar qochirding, yo'qsa osmonga uchib ketdimi!?" — dedi. Navbatchi hamshiralar: "Biz bemor bolani qochirib o'libmizmi!" — degan o'ydan ma'yus tortib o'tirib qolishdi.

— Buguncha mayli, ertadan boshlab Veradan boshqa bugun navbatchilikda bo'lgan hamshiralarning to'rt tomoni qibla, — dedi Fridman. Uning fig'oni falakka chiqib, goh u yoqqa, goh bu yoqqa tanda qo'yarkan, yodiga tushib, operatsiya xonasiga kirib maxfiy mijoz "mehmonlar"ga: "Ikkinchi operatsiya bo'lmay qoldi, shunga rozi bo'linglar, qolganini keyin hisoblashamiz", — deb silliq-sipo jo'natib yubordi.

"Mehmonlar" ketgandan keyin Fridman yolg'iz o'ylanib o'tirib, Aqlbekka qo'ng'iroq qildi. — Alik, ikkinchi bolangni birinchi operatsiya bitgunicha o'g'irlab ketibsan-ku, biror xavf bormi?

— Bu nima deganingiz, men uni sizga topshirdim-ku, — dedi Aqlbek.

— Aqlbek, hazilingni qo'y, men senga yana 15 ming dollar to'layin, hozir topib ber, mijozlarning oldida uyatga qoldim, — dedi Fridman.

— Yo'q odamni hozir qayerdan topaman, agarda yana top desangiz, o'z bahosida boshqasini topaman.

— Tuf-fu! Ablah ekansan! — dedi Fridman. Bugun hamyoniga yuz ming Amerika dollari tushishi kerak edi, atigi ellik ming dollargina tushgani ta'bini tirriq qilardi. Eng yomoni, bugungi bemorning yo'qolishi xususiy kasalxonaning kelajagiga jiddiy zarba hamda falokat nishonasi edi.

* * *

O'zining uy adresi aniq ko'rsatilib, ORT orqali "Jdi menya" ko'rsatuvida Qubontoy bilan Omontoy chiqib, savollarga javob berganini ishxonasida o'tirib ko'rgan Aqlbekning miyasiga gur-

zi bilan urilganday bo'ldi. Bu Aqlbek uchun dahshatli zarba edi. U kirdikorlarini hech kimsa bilmasligiga amin edi. Endi qarasa, jinoyati ochilgan turibdi. Qubontoy bilan Omontoyning yarim tomchiday qora hollarini hech kim ko'rmasligi uchun ularning yuziga atayin vahshiylik bilan qaynoq suv quyishi, Qirg'istondan ularni o'z niyatiga yetish uchun ayyorlik bilan o'g'irlab kelishini faqatgina Meerkan bilardi. Aqlbek o'z jinoyatining fosh etilishi tamoman Meerkanning qilgan ishi degan qarorga keldi. Kumushoyni maxsus kamera bilan chaqirib, bolalar bilan savol-javoblarni uyushtirgan ham shu Meerkan deb tushundi. Necha martalab Meerkanga: "Mabodo, meni kimgadir sotadigan bo'lsang, it o'limida ketasan", — deganlarini esladi. Endi o'z uvoli o'ziga", — deb hukm chiqardi Aqlbek.

Meerkanga bo'lgan nafrati, o'chi'tug'yon urib tursa ham sirtiga chiqarmaslikka harakat qilib, qora niyatini ichiga yutdi. Rangi gezarib, jag' mushaklari o'ynoqlab, tishlari g'ichirlab tursa ham, beparvogina ohangda Meerkandan:

— Kumushoy kelib bolalar bilan gaplashganmidi? — deb so'radi.

— Ha.

— Uni sen chaqirganmiding?

— Yo'q, menga o'zi qo'ng'iroq qilib, Qirg'izistondan kelganimni so'rab, shoshilinch kelib, oyim berib yuborgan sovg'a-salomlarni olib ketdi.

— Unda bolalarni kameraga kim tushirdi?

— Kameraga tushirganini bilmayman, bu bolalar qanaqa bolalar deb so'radi.

— Sen nima deb javob berding?

— Men otasini izlab kelgan bolalar dedim, buni nega so'rayapsan? — dedi Meerkan.

— Nega so'ramayin, bolalarni kameraga tortib, "Jdi menya"ga kim jo'natdi?

— Unisini qaydan bilay, men mayda-chuyda yumushlar bilan kuymanib yurgandim.

— Ha-ya, sen qaydanam bilarding? — deb shunchaki "silliqqina" gapirib qo'ydi Aqlbek.

Bunday muloyim so'zlar Meerkanni shubhaga solib qo'ymaslik uchun bir niqob edi. Meerkan ro'zg'or yumushlari bilan alahsisa ham, yuragi bezovta, qalbi qandaydir bir falokatni his etib turardi. U o'zi haqida hech narsani o'ylamay, singlisi Kumushoydan xavotirda edi. Bu dog'uli Kumushoyni aldab, biror xilvatga olib borib gumdon qilib yubormasaydi, degan o'y miyasida yilt etganda vujudi tirnog'igacha zirillay boshladi. U yaqinlashib kelayotgan falokatdan singlisini ogohlantirib qo'yishga qaror qildi. Aqlbek ham divanda sulayganicha opa-singillarni imi-jimida gumdon qilib yuborish rejalarini tuzardi. Boz ustiga, uyni sotib gadoytopmasga urib ketish muammosi ham ko'ndalang bo'lib qolgandi. Sermuammo o'ylardan boshiga qattiq og'riq kirdi. Shahdam o'rnidan turib, sigareta yondirib, chuqur-chuqur tortganicha eshikka chiqib, xiylagacha u yoq-bu yoqqa tanda qo'yib, qilinadigan razil ishlarining har xil variantlarini xomcho't qila boshladi. Kutilmaganda qaltis bir qarorga keldi-da, uyga kirib zarur buyumlarni olib, mashinasiga o'tirib, qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Aqlbek ketgan zahotiyoq Meerkan Kumushoyga qo'ng'iroq qilib, uni qattiq ogohlantirdi.

— Kumushoy, bolalarni kameraga tushirib, "Jdi menya"ga sen jo'natdingmi?

— Ha, bolalarga nafim tegsin degandim.

— Endi o'sha ishing uchun boshing ketadi, Aqlbek seni gumdon qiladi, hozir seni izlab ketdi. Tezda qayoqqadir qoch yoki sezdirmasdan Qirg'izistonga uchib ketishing kerak.

— Sen o'zing-chi, seni gumdon qilmaydimi?

— Bilmadim, men sendan tashvishdaman.

— Opa, men yashirinaman, sen o'zing ham qoch! Eringning barcha kirdikorlarini sen mendan ko'ra yaxshi bilasan. Qo'lga tushsa hammasiga guvohlik berishingni xohlamaydi, shuni tushunmaysanmi? O'ta ehtiyot bo'l! Men yashirinaman.

— Shunday qil, — deb Meerkan telefonni o'chirdi-da, shalvirab divanga o'tirib qoldi. O'sha kechada Aqlbekning farishtadek begunoh bolalarning shirin uyquda yotganida yuzlariga vahshiylik bilan qaynoq suv quygani yana ko'z oldidan o'tdi.

Kumushoyning jon kuydirib aytgan ogohlantirishidan so'ng o'zining hayoti xavf ostida ekanligini Meerkan endi aniq his etdi.

Aqlbek bilan birga yashaganidan buyon unga hech bir yomonlikni ravo ko'rmay hurmatini joyiga qo'yib kelsa ham, uning yaxshi gapini eshitmay, hamisha qo'pol muomala qilishidan ko'ngli qolib, tinchgina ajrashib olishni o'ylar edi. Biroq uning ayni damdagi yovuz niyatini, o'z hayotiga xavf tug'ilganini sezmagan edi. Endi boshi qotib, ko'pgacha o'ylandi. Nihoyat, yashirincha Moskvaga qochib ketishga qaror qildi. Barcha kerakli buyumlarini, pasportini ketishga tayyorlab qo'ydi.

Vaqt o'tgan sari uni Aqlbekning vahimasi bosa boshladi. Bir zumda qaytib kelib, tinchitib ketsa-ya, deb yuragi bezovta ura boshladi. G'amgin xayollar og'ushida har ehtimolga qarshi qo'shnisi Lida Antonovnaning oldiga kirdi. U bilan hol-ahvol so'rashgandan keyin: "Men bu yerdan birato'la ketyapman, siz bilan xayrlashgani keldim. Sizga katta rahmat! Yaxshi qo'shnilar bo'lib yashadik, sizdan behad minnatdorman, — dedi Meerkan.

— Nega birdaniga birato'la ketmoqchisan? Aqlbek ikkovinglar urishib qolinglarmi?

— Yo'q, urishganimiz yo'q. Aqlbek o'ta xavfli odam, jo'nab ketgunimcha kelib qolib, meni bir narsa qiladigan bo'lsa, militsiya chaqirishingizni iltimos qilaman, — dedi Meerkan tushkun kayfiyatda.

— E-e, qo'ysang-chi, qayoqdagi qo'rqinchli narsalarni gapirasan-a, nahotki Aqlbek shunaqa ishga borsa, mana biz bormiz-ku, — dedi Lida Antonovna.

Shunday qilib, Meerkan yaxshi qo'shnisi bilan hasratlashib, xayrlashib o'tirganda Aqlbek qaytib kelib qoldi. Mashinaning ovozini eshitgan Meerkan uyi tomonga qarab, Aqlbekning uyiga kirib qaytib chiqqanini ko'rdi.

— Men boray, yaxshi qoling, — dedi Meerkan. Lida Antonovna Meerkanni kuzatib chiqib: "Merishka, ketsang yaxshi bor", — deb qaytib uyiga kirib ketdi. Aqlbek qo'shni ayolning Meerkan bilan xayrlashganini uzoqdan bo'lsa ham eshitib turdi. Meerkanning he yo'q-be yo'q, uning ruxsatisiz qayoqqadir g'aminib qo'ygani qappaygan katta sumkadan ma'lum edi. Aqlbek Meerkanga peshvoz chiqib so'radi:

— Qayoqqadir ketyapsanmi?

— Ha, Lidaga Aqlbekning yo‘g‘ida uyga ko‘z solib turing, deb tayinladim.

— Men bilan maslahatlashmay ketyapsanmi?

— Maslahatlashgani seni kutib turgan edim.

— Men ruxsat bermasam-chi? Qayoqqa bormoqchisan?

— Moskvadagi Almagul opam tez kel, deb chaqirdi.

— Opang bilan gaplashdingmi?

— Ha, gaplashdim, chamasi, pochcham ikkalasi it-mushuk bo‘lib qolganga o‘xshaydi, — deb bu yog‘ining kiftini kelishtirib yubordi.

— Er-xotinning urishi — doka ro‘molning qurishi, sen borib nima karomat ko‘rsatib yuborarding?

— Opam betob, borib yordamlashmasam bo‘lmaydi, shifokorlarga ko‘rsatishim kerak.

— Bormaysan!

— Juda boraman-da, hamisha buyrug‘ingni bajarib keldim, bu safar unday bo‘lmaydi, boraman dedimmi, boraman! — dedi Meerkan qat’iy turib.

— Bormaysan!

— Boraman, undan ko‘ra puldan ber.

— Qancha?

— O‘n ming rublcha, — dedi Meerkan o‘jarlik bilan.

— Xo‘p, mayli, pul sendan aylansin, ma, ol, — deb o‘n ming rublni sanab berdi Aqlbek.

Kech kirib, qorong‘ilik tusha boshlagan edi. Aqlbek Meerkanni shoshtirdi.

— Elektrichkadan kech qolasan, tez bo‘l, men seni kuzatib qo‘yay.

— O‘zim ketaveraman, sen ovora bo‘lma.

— Ovora bo‘laman, sumkangni menga ber. Mashina buzuq, uyga arang keldim — deb shoshtirdi Aqlbek va sumkani ko‘tarib jo‘nadi.

Ikkalasi ko‘z boylanganda yo‘lak bo‘ylab shoshib borishardi. Aqlbek Meerkanning ortidan ketib borarkan, boyagi g‘ira-shirada Nurbekni o‘ldirgan eski usulini qo‘lladi. Maqsadiga muvofiq yerga kelganda cho‘ntagidagi toshni olib, qulochkashlab Meer-

kanning boshiga tushirdi. Meerkan hech narsani idrok qilolmay, gandiraklab borib chalqanchasiga yiqildi. U sulayib yotgan xotinining boshiga yana ikki-uch marta urdi-da, dast ko'tarib bor kuchi bilan katta yo'lga irg'itdi. Meerkanning jonsiz gavdasi trassaning mashinalar o'tadigan yerigacha qulab borib yotib qoldi. Aqlbekning bu hiylasi marhumani "mashina urib ketdi"ga chiqarish bo'lib, buni oldindan xayolan pishirib kelgan edi. Fojia qisqa vaqtda bo'lib o'tdi. Niyatiga yetgan Aqlbek chor atrofga alangladi. Omadi kelib, atrofda hech kimsa ko'rinmadi. Chirog'ini yoqib, katta tezlikda kelayotgan mashina murdaga urinib o'tganday bo'ldi. Aqlbek xotiniga nasib qilmagan katta sumkani ishxonasiga olib ketmoqchi edi, keyin bu niyatidan aynib, sumkani qoldirib, chopganicha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yugurib ketarkan, urgan toshini qayoqqa irg'itganini yoki tashlaganini bilmay qolganiga o'kindi.

* * *

Kapitan To'rageldi Aqmatov o'z xizmat bo'limidan shoshilinch ravishda Moskvaga safarga chiqish uchun hujjatlarini to'g'riladi. ORT teleko'rsatuvining "Jdi menya" programmasida ko'rsatilgan adres bo'yicha Qubontoy bilan Omontoyni izlab, Otakeldi ikkalasi Moskvaga uchishdi. Layner Bishkekdan erta uchgani uchun Moskva vaqti bilan soat o'n birga yetmay Domodedovo aeroportiga kelib qo'ndi. Samolyotdan tushiboq darhol taksi yollashib, ORT telekanali tomon jo'nashdi. Surishtirib o'tirib topishib, "Jdi menya" programmasining ofisiga kirib borishib, katta koridorga duch kelishdi. Uning ichida xonalar ko'p ekan. Har bir xonada qizlar, yigitlar kompyuter va telefonlarda turli tomonlar bilan bog'lanishib, ishlab o'tirishibdi. Bu yerda yo'qotganlarini izlab kelganlar ko'p ekan. Otakeldining yuragi o'ynab, xayoli parishon, vujudi chuqur iztirob og'ushida edi. O'g'illarini televizorda ko'rganidan buyon aniq manzilini eshitib, tirik ekanligini ko'rib quvonsa, Aqlbekday olchoqning changalida ekanligini eslaganda yuragi zirqiraydi. Ikki-uch kundan beri bolalarining taqdirini o'ylab, uyqu betini ko'rgani yo'q. Kapitan Aqmatov esa inilarining tirik ekanligiga suyunib, ularni sog'-u salomat ko'rishiga sobit ishonch bilan keldi. Igor Kvasha o'zi aytdi-ku: "ORTga

bolalarning ota-onalari kelsa, ularning uchrashuvlariga oz qoldi", — deb. Bunga ikkalasi ishonishgan. Lekin Otakeldini bolalarning sog'lig'i behad tashvishga solardi. Aka-ukalar Qubontoy bilan Omontoyni yetti qavat yerning ostidan bo'lsa ham topishga qasd qilib kelishgan. Ikkalasi ofisdan Kvasha bilan Shukshinani izlashdi. Kvashaning ta'tilda ekanini aytishdi. Masha Shukshina bor ekan. Yo'rg'agina chiroyli rus qiz ularni Mashaning xonasiga olib bordi.

Hammaga birdek Masha ularni ochiq chehra bilan kutib oldi. Otakeldi Qirg'izistondan birdaniga ikki bolasi yo'qolib, ularning xabarini "Jdi menya"dan topishganini tushuntirib, bolalarning otasi ekanligini isbotlovchi tug'ilgani haqidagi guvohnomalarni, suratlarini va o'zining pasportini ko'rsatdi.

— Biz sizlarga ishonamiz, sizlarga qo'ldan kelgan yordamni berishga tayyormiz, — deb Masha Shukshina Otakeldiga o'tirishga joy ko'rsatdi. Keyin "hozir" deb bir tugmachani bosgan edi, ko'hlikkina, biqqiday qiz kirib keldi. Masha unga qattiq tayinladi: "O'tgan hafta Qirg'izistondan yo'qolgan ikki bola haqida so'z ochib, ularning otasini izlab kelishib, Beregovaya ko'chasining 69-uyida yashayotganini ko'rsatganmiz. Mana bolalarning suratlari, bu kishi otasi Otakeldi, bu kishi amakisi To'rageldi. Endi so'zsiz bu bolalar bilan otasini, amakisini uchrashtirib, kameraga yaxshilab tushiringlar. Keyin programmada uni elga ko'rsatamiz, hozirdan ishingni puxta bajar". Ko'hlik qiz "yuringlar" deb ularni o'z xonasiga olib ketdi. Xonasida yigitlar, qizlar ko'pchilik ekan. Har birining qarshisida kompyuter, telefonlar, har xil apparaturalar. Aka-uka xonaga kirib kelishganda hammasi o'rnidan turishib, bosh silkib salomlashib, qayta o'tirishib, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lsalar-da, Otakeldilarga qiziqsinib qarab qo'yishardi. To'rageldi:

— Bizga har tomonlama yordam kerak, qisqasi, bolalarni bizga uchrashtiringlar, — dedi.

— Ha, bolalarni tezroq topishga yordam beramiz.

— Sizning ismingiz nima?

— Anna Petrovna.

— Anna Petrovna, bolalarni hoziroq ko'rishimiz kerak.

— Ozgina noqulay vaziyat yuzaga kelib qoldi.

— Qanaqasiga? — deb so'radi Otakeldi.

— Bolalarning manzili shahar chetidagi posyolkaning Beregovaya ko'chasi, 69-uyda edi, bizning xodimlar ayni paytda bolalarni u yerdan topisha olmadi.

— Ular qayoqqa ketishibdi? — shoshib so'radi To'rageldi.

— Hozircha bunisi bizga ham qorong'i, biroq bizning xodimlar uchastka militsiyasi bilan birgalikda izlayapti.

— Buni Kvasha yoki Shukshina biladimi? — deb so'radi Otakeldi.

— Yo'q, ularda birorta aniq ma'lumot yo'q. Ularga aniq ma'lumotni biz berib turamiz.

Otakeldining bolalarga tashna tilagi barbod bo'lib, umidi boshi berk ko'chada qoldi. Vujudini ter bosib, shalvirab borib, o'rindiqqa o'tirib qoldi.

— Ularni topishga qanday yordam bera olasizlar? — deb so'radi nochor qolgan To'rageldi.

— Mana, hozir bizning u yerdagi vakillarimiz va militsiya bo'limlari bilan bog'lanib,

natijasini sizlarga aytamiz.

— Shunday qilinglar-chi, iltimos, — dedi Otakeldi.

Anna Petrovna goh u yerga, goh bu yerga telefon qilib, ancha gaplashdi.

— Yaxshi xabar bormi? — dedi To'rageldi.

— Hozircha yaxshi xabar yo'q. Bolalarni yashirib turgan Aqlbek Aliyev degan shaxs ham jinoyatchi sifatida qidiruvda ekan.

— Eh, la'nati! Ishlar yana murakkablashib ketibdi-da, o'sha Sankt-Peterburgdagi vakillaringizning manzilini yozib bering, o'zimiz borib, birga izlashaylik, militsiya bo'limlariga ham bizning haqimizda xabar berib qo'ysangiz, — deb o'tindi To'rageldi.

Anna Petrovna Sankt-Peterburgdagi "Jdi menya"ning vakili Ira Nikolayevnaning aniq manzilini, Qubontoy bilan Omontoy turgan Kirov rayoni, Beregovaya ko'chasidagi uyning to'liq adresini yozib berdi. Militsiya bo'limiga yo'qolgan bolalarning otasi Qirg'izistondan keldi, ularga yordam beringlar, deb xabar yo'lladi.

Otakeldi bilan To'rageldi endi Sankt-Peterburgga jo'nashga majbur bo'lishdi. U yoqqa borishdan oldin Otakeldiga eski do'sti bilan uchrashish zarur edi. U ilgari armiyada, oliy harbiy bilim yurtida birga o'qigan, sport bilan birga shug'ullanib yurgan qadrdon do'stining ish joyini bilish uchun o'ziga qo'ng'iroq qilib, manzilini so'rab, imkoni bo'lsa ishxonasida kutib turishini o'tindi. Do'sti Vladimir Ivanovich Kozlov Otakeldiga Ostankinoda kutib turishini, oq rangli "Jip" mashina jo'natishini aytdi. Yigirma daqiqaga qolmay yetib kelgan mashinadan tushgan rus kapitani chest berib: "Otakeldi Aqmatov sizmisiz?" — deb so'rab, tasdiq javobini olgach:

— Marhamat qilinglar, — deb muloyimlik bilan mashinaga o'tqazib olib ketdi.

Vladimir Ivanovich Otakeldilarni tabassum bilan kutib oldi. Ikkalasi quchoqlashib ko'rishishgach, hammalari uning kabinetiga kirib o'tirishdi. Kozlov Otakeldini hamisha qo'ng'iroq qilib, hol-ahvol so'rab turgani uchun minnatdorchilik bildirdi. To'rageldi dolzarb pallada ham Otakeldining do'sti bilan ezilib gaplashayotganiga g'ayirligi kelib, arang chidab o'tirdi.

— Zarur ishing yo'qmi? — deb so'radi Kozlov.

— Ishim o'ta zarur, — dedi Otakeldi.

— Nega bunchalik?

— Ikkita yosh bolamni o'g'irlab, Sankt-Peterburgga olib ketishibdi.

— Qayerdan?

— Bishkekdan. O'g'irlagan Aqlbek Aliyev jinoyatchi ekan, uning o'zini topa olishmayapti.

— Mendan yordam kerakmi?

— Kerak bo'lganda qandoq, o'g'rini, bolalarimni topishga yordam ber, general.

— Xo'p, yordam beraman, ularni topish qiyin emas, keyin bolalaring bilan mehmon bo'lib ketasan, va'da berasanmi?

— Bolalarim topilsayoq kelaman, o'rtoq general.

General Kozlov Moskva OMONi zarbdor guruhining komandiri edi. Shuning uchun Otakeldining undan umidi katta edi. General kerakli tugmani bosgan edi, mayor unvonidagi

ofitser kirib, chest berib turib qoldi. General unga Otakeldini ko'rsatib:

— Bular bilan Sankt-Peterburgga borib, u yerdagi jinoyatchi Aqlbek Aliyevni tutib, keyin o'g'irlangan bolalarning bir tola sochini tushirmay otasi bilan uchrashtirasan. Senga va hammalaringga muvaffaqiyat tilayman, oq yo'l! — dedi.

Kozlov yana bir xodimini chaqirib: "Mayor Meshkov, sen kutib tur", — dedi. Keyin Otakeldiga dedi: "Yo'qolgan bolalarningning suratlarini, yoshini va hokazo belgilarining kseronusxasini bizga qoldirib ketinglar".

Boyagi kirgan xodim generalning aytganlarini bajarib, asl nusxalarini To'rageldiga qaytarib berdi. General xodimiga yana buyurdi: "O'rtoq kapitan, Rossiyaning barcha territoriyasida shoshilinch ravishda qidiruv e'lon qilinsin!" Keyin mayor Meshkovga murojaat qildi:

— Do'stim Otakeldiga xizmat qilasan. Aytganlarini bajarib, ishi bitgandan keyin mening oldimga olib kelasan. Omadingizni berib, ishlar o'ngidan kelsin, oq yo'l!

General o'rnidan turib, ularni tashqariga kuzatib chiqib, qo'l berib xayrlashdi va mehmonlarni elektrichkaga eltib qo'yishni shofyoriga buyurdi. Otakeldi go'yo o'g'illari topilganday boshi ko'kka yetib, do'stidan minnator bo'lib, ko'zlarida yosh qalqidi.

* * *

Murdaga urinib ketgan mashina ortidan kelayotgan yengil mashina keskin tormoz berib to'xtadi. Unda reydga chiqqan DAN xodimlari o'tirgan edi. Ular mashinadan tushayotib, katta sumka ko'targan sharpa sumkani tashlab qochib borayotganini payqab qolishdi. Murdaning yonidan qochgan kimsa bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. DAN xodimlari o'lib yotgan ayolning hamma yog'ini fonar yorug'ida sinchiklab qarab chiqishdi. Ular sal naridan marhumaning sumkachasini ham topib olishdi. DAN xodimlari murdaga ham, sumkaga ham qo'l tekkizmay, murdani yana mashinalar bosib ketmasligi uchun undan nariroqqa qizil belgi qo'yishib, darhol militsiya bo'limi va "Tez yordam"ga qo'ng'iroq qilishdi. Militsiya xodimlari zudlik bilan yetib kelishdi. DAN

xodimlari bilan jinoyat-qidiruv bo'limi xodimlari birgalikda katta sumka va sumkacha ichidagi buyumlarni ro'yxatga olib, akt yozishdi. "Tez yordam" xodimlari ham aktga imzo chekishgach, har kimisi o'ziga tegishli ishga kirishdilar. Osiyo millatiga mansub marhumaning sumkachasida pasporti, o'n ming rubl pul hamda qo'l telefoni bor ekan. Katta sumkadagilar esa nuqul marhumaning kiyimlari ekan. Shu asnoda sumkacha ichidagi qo'l telefoni jiringlab qoldi. Jinoyat-qidiruv bo'limi xodimi aloqaga chiqdi.

— Allo, Meerkan, qandaysan? — ayol kishining qirg'izcha gapirgan ovozi eshitildi. "Ruscha gapiring-chi, siz kimsiz, ismingizni ayting?" — dedi xodim. So'zlayotgan ayol kalovlanib, to'xtab qolib, keyin ruscha gapira boshladi.

— Men Kumushoyman, Meerkanning tug'ishgan singlisiman. Siz o'zingiz kimsiz?

— Men jinoyat-qidiruv boshqarmasining xodimi Nikita Sergeyevich Vlasovman, ertalab soat to'qqizda shahar militsiya bo'limiga, yettinchi xonaga keling, — deb xodim telefonni o'chirdi.

Bu fojia bo'yicha maxsus jinoyat ishi ochilib, jiddiy tekshiruv tadbirlari boshlandi. Marhumani mashina urib ketganmi yoki qotillik yuz berganmi, hozircha noma'lum edi. Meerkanning jasadini sud-medekspertizaga berishdi. Sumkani tashlab qochgan sharpa ham shubhadan holi emasdi. Bundan tashqari, katta sumka ham, sumkacha ham birga trotuarda yotgan edi. Meerkanning o'limi qotillik tufayli yuz bergan deb xulosa chiqarishga mantiqiy asos bor edi. Sumkani tashlab qochgan sharpa kim, bu ham bir muammo edi. "Tez yordam" Meerkanning jasadini eng yaqin kasalxonaning o'likxonasiga olib ketdi. DAN xodimlari va jinoyat-qidiruv bo'limi xodimlari rasmiy hujjatlarni to'g'rilab bo'lishgach, bu yerdan jo'nab ketishdi.

Ertasiga soat to'qqizga qolmay Kumushoy militsiya bo'limiga kirib keldi. Aytilgan xonaga kirsa, yoshi qirqlardan oshgan, tepakal mayor o'tirgan ekan. U ayolni o'rnidan turib qarshi oldi-da, o'tirgani joy ko'rsatdi. So'ngra sinchiklab tikilib turgach, savolga o'tdi:

— O'tgan kecha Meerkan degan ayolga qo'ng'iroq qilgan sizmidingiz?

— Ha, u mening opam, ishqilib uning o'zi sog'-u salomatmi?
— Ismingiz Kumushoymidi?
— Ha, ismim Kumushoy. Sizniki-chi?
— Meniki Albert Vasilyevich Timoshenko.
— Meni Nikita Sergeyevich Vlasov chaqirgan edi-ku.
— U ham shu yerda. Sizning ismingizni o'sha aytdi.
— Meerkan opamning qo'l telefoni sizlarda nima qiladi?
— Opangizning pasporti ham bizda.
— Ko'rsating-chi?

Timoshenko stolning g'aladonidan Meerkanning pasportini olib, Kumushoyning oldiga surib qo'ydi. Kumushoy opasining pasportini qo'liga oldi-yu, bir falokatni sezgganday yuragi o'ynab ketdi.

— Opamning o'zi omonmi, ishqilib? Bu narsalar qayoqdan sizning qo'lingizga tushib qoldi? — dedi iztirob bilan.

Jinoyat-qidiruv bo'limi xodimi Meerkanning o'limini vaqtincha aytmay turib, Kumushoydan ko'proq ma'lumot olgisi keldi.

— Shunchaki, bir tasodif tufayli bizga tegib qoldi. Opangiz qayerda yashaydi? Manzilini bilasizmi?
— Ha, bilaman.
— O'sha yerga bizni olib bora olasizmi?
— Olib bormaganda-chi?
— Opangizning oilasi bormi?
— Hozircha farzandi yo'q, eri bor.
— Eri kim degan?
— Aqlbek Aliyev.
— Nega bolalari yo'q?
— Turmushga chiqqaniga ikki yil bo'ldi, kim bilsin, bolali bo'lishganicha yo'q.
— Eri qayerda ishlaydi?
— Aniq bilmayman, qayerdadir qorovul deb opam aytgandi.
— Hozir o'sha opangizning uyiga boramiz.
— Ayting-chi, asli tinchlikmi o'zi?
— Tinchlik, xavotirlanmang, Kumushoy xonim, — deb mayor boshlig'ining xonasiga kirib, birozdan so'ng yana ikki xodim bilan chiqib Kumushoyga:

— Yuring xonim, opangizning uyiga boraylik, — dedi.

— Xo'p bo'ladi, — deb Kumushoy o'rnidan turib, tashqariga chiqdi.

— Ayting-chi, qaysi manzilga boramiz?

— Shaharning chekka rayoni, Kirov deb qo'yishadi-ku, Beregovaya ko'chasi, 69-uyga.

— Manavi mashinaga o'tiring, — deb UAZ rusumli mashinani ko'rsatdi mayor Timoshenko.

Hammasi mashinaga o'tirishib, Aqlbekning uyiga tezdayla yetib kelishdi. Hovliga kirishgach, Kumushoy eshikni tortsa, eshik qulf ekan. "Opa" deb ikki-uch marta opasini chaqirdi. Hech qanday sado yo'q, sukunat. Bir tayinini bilarmikin deb qo'shnisi Lida Antonovnanikiga ketdi. Mayor Timoshenko uchastka noziri Mixail Yefremovich Katkovni chaqirdi. U o'zining mashinasida tezda yetib keldi. Mayor kapitan Katkovni g'adablay boshladi:

— Uchastkangda jinoyat yuz berib tursa, sen qayoqlarda yuribsan?

— Ola-a, men ham ish bilan yuribman-ku.

— Qanaqa ish bilan?

— Biz bu uyga necha martalab keldik.

— Nega keldinglar?

— "Jdi menya" programmasining xodimi yo'qolgan ikki bolaning manzili shu yerda deb menga murojaat qilgani uchun Ira Nikolayevna Seleznyova ikkalamiz ularni izlab topolmay yuribmiz.

— U bolalar qayoqqa ketishibdi?

— Qaynoq suvni quyishgan ekan ularga, "Tez yordam" ularni olib ketgan, ammo qaysi kasalxonaga eltganini bilolmayapmiz. Ularni kasalxonaga Aqlbek Aliyev jo'natgan, o'shani topish kerak bo'lib turibdi.

— Biz ham o'shani izlab keldik, — dedi Timoshenko.

Kumushoy Lida Antonovnaga yo'liqib, Meerkanning qayoqda ekanligini so'radi.

— Moskvaga, opamnikiga boraman, degan edi. Qorong'i kirib qolganda Aqlbek sumkasini ko'tarib, uni kuzatib qo'yish uchun birga ketgan edi.

— Unda nega opamning qo'l telefoni, pasporti manavi militsionerlarning qo'lida yuribdi?

— Yo tavba, bu qanaqasi? Aqlbek uyda yo'qmi?

— U uyda yo'q. Ikkalasi urishishgan emasmidi?

— Buni bilmayman, lekin Meerkan jo'nab ketar oldida menga uchrashib, xayrlashar ekan: "Qaytib kelmayman, Aqlbekdan qo'rqaman, u ashaddiy odamxo'r, qo'rqinchli nusxa", deb shivirlab aytgan edi.

— Yuring-chi, ancha-muncha ko'rgan-bilganlaringizni anavi militsionerlarga aytib berasiz. Opamga nimadir bo'lgan, — deb yolvordi Kumushoy.

— Alhazar, bu qanday ko'rgilik, — deb Lida ham Kumushoy bilan birga militsionerlarning oldiga keldi.

— Siz bularning qo'shnisi bo'lasizmi? — deb so'radi mayor Timoshenko Lida Antonovnadan.

— Ha, — dedi Lida.

— Uyning egalari qayerda?

— Kecha kechqurun ko'z boylanganda Meerkanni Moskvaga jo'nataman deb, Aqlbek sumkasini ko'tarishib kuzatgani ketgan.

— Qo'shningiz Aqlbekka inson sifatida qanday baho bera olasiz?

— Nima desam ekan. Alik yolg'onchi odam, ko'cha xandoni, uy zindoni. Meerkan undan g'oyatda qo'rqar edi.

— Begunoh bo'lsa ham qo'rqaverarmidi?

— Ha, undan juda qo'rqar edi.

Tergovchi Ilya Semyonovich Olshanskiy Kumushoyga savol berdi:

— Siz yomon qiliqlarini bilarmidingiz?

— Bilardim. U hammaga o'zini Alik deb tanishtirardi. Asl ismi Aqlbek Aliyev. Yaqindagina Qirg'izistondan ikkita murg'akkina bolani o'g'irlab kelganini bilaman. Men Aqlbek uxlab yotganida sezdirmasdan bolalarni kameraga tushirib, "Jdi menya" teleko'rsatuviga jo'natganman. U bolalar uxlab yotganida vahshiylik bilan ustidan qaynoq suv quyib, kasalxonaga jo'natibdi. Nega bunday qilgan, bilmayman. Meerkan opam yig'lab o'tirib, bolalarga obdon kuyinib gapirib bergan edi.

Kumushoydan bularni eshitgan Lida ham gapga aralashdi:

— Ha, mening ham Alikdan shubham bor.

— Qanday shubhalaringiz bor, bizga aytib bersangiz, — dedi mayor Timoshenko.

Tergovchi Olshanskiy hammasini so'zma-so'z yozib borardi. Lida Antonovna davom etdi:

— Bu uyning sobiq egasi Anna Vasilyevna Zapolskaya edi, uyini Alikka o'tkazib berganidan so'ng tezdagina o'lib qoldi. Bunga e'tibor bergan hech kimsa bo'lmadi. Annaning Masha degan mayib qizi bor edi. Alik uni chet elga davolatgani jo'natdim degan. Ko'p vaqtdan buyon dom-daragi yo'q. Endi uni izlaydigan hech kimisi yo'q. Alik uyni sotish uchun e'lonlar yozgan. Hozircha xaridor pul sanaganicha yo'q. Ajablanarlisi, bu uy Mashaning roziligisiz sotilmasligi shart edi. Bilganlarim shu, mening aytganlarim shunchaki taxmin bo'lib chiqar. Bu tomonini sinchiklab tekshirib ko'ringlar.

— Bebaho ma'lumotlarni berdingiz, albatta tekshiramiz, — dedi kapitan Olshanskiy.

— Opamning pasporti bilan qo'l telefoni qanday qilib sizlarga tegib qoldi? Men shunga g'ulg'uladaman, aytmaysizlarmi? — deb talab qildi Kumushoy.

— Buni aniqlaydigan jihati bor. Pasport bilan telefonni ekspertizaga beramiz. Opangiz ham aybdor bo'lib chiqishi mumkin.

— Qanaqasiga opam aybdor bo'lishi mumkin?

— Buni sud-medekspertiza hal qiladi. Avval Aqlbek Aliyevni topish kerak, — dedi mayor.

Timoshenko Kumushoyni tinchlantirish uchun atayin "opangiz ham aybdor bo'lishi mumkin", — dedi. Kumushoy opasiga kuyib dod-voy qilganidan ko'ra, dolzarb pallada muhim ma'lumotlarni bergani afzal edi.

Tergovchi Ilya Semyonovich: "Uyni tintuv qilamiz, eshikni buzib kiramiz, menda prokuraturaning sanksiyasi bor" — dedi. Qulflangan uyning eshigini lom bilan buzib kirishdi. Uy ichi o'ta parokanda ahvolda ekan. Jinoyatga gumonli Aqlbekning surati hamda ashyoviy dalilar ham kerak edi. Alik birorta ham suratni qoldirmay olib ketgan ekan. Bundan Aqlbekning qo'lga tushishini bilib, maxsus tayyorgarlik bilan qochib ketgani ko'rinib turar edi.

* * *

Omontoy sirli ravishda g'oyib bo'lmaganida, uning boshiga ham akasining kuni tushib, kerakli a'zolari ehtiyot qism sifatida qotil jarroh tomonidan katta pulga sotib yuborilar edi. Qubontoy shunday bo'lgan edi. Uning jasadi butunicha sotilib ketar edi, lekin yuzi, badanining talay qismi kuyib, ilvillab yaroqsiz holga kelib qolgani uchun noiloj yerga ko'mib tashlangan edi. Omontoyning tasodifan g'oyib bo'lishi Fridman uchun dahshatli zarba bo'ldi. U o'ziga qarshi baquvvat qo'llar bor ekanini his etdi. Odamni so'yib sotishdek savdoyi illati fosh etilish arafasiga kelib qolganini tushundi. Shuning uchun Qubontoy bu xususiy kasalxonaning so'nggi qurboniga aylanib qoldi. Shunday qilib, Fridman ham Qubontoy singari bedarak ketdi. Uning qayoqqa gumdon bo'lgani hech kimga ma'lum emas edi.

Muhimi, xususiy kasalxona Fridman g'oyib bo'lganidan so'ng jinoiy faoliyatini to'xtatib, bemorlarni davolashni amal-taqal olib bora boshladi. Robert Pinxasovichning o'rniga Anton Gavrilovich Beryozin bosh vrach vazifasini bajarib qoldi. Omontoy yo'qolganda bosh aybdor hisoblanib, ishdan haydalgan hamshira Olga Nikolayevna Shcherbakova qayta chaqirib olinib, avvalgidek ishlab qoldi. U farishtadek, jarohati yengilgina, operatsiyaga ehtiyoji yo'q norasidani bemahal o'limga ravo ko'rmadi. Yuksak qat'iyat bilan chorasini topib, Omontoyni muqarrar ajaldan olib qolish uchun turmush o'rtog'i Sergeyni o'zi chamalagan yerga mashinasi bilan kelib turishini tayinlab, bolani o'g'rincha olib borib, o'zining onasinikiga eltishni o'tindi. Olga beqiyos jasurlik ko'rsatdi. Mushkul ishni qaltis vaziyatda mohirona bajardi. Bunisi mehribon, fidoyi hamshiralarning ham bor ekanligiga bir isbot edi. Ayol ishdan haydalishini mamnuniyat bilan qabul qildi. Onasi Mariya Pavlovna bilan birga Omontoyning kuygan yerlarini g'ozning moyi va tabobat vositalari bilan binoyidek qilib davolab olishdi. Ularning fikri-zikri Omontoyni imi-jimida ota-onasiga sog'-u salomat topshirish edi. Omontoyga baxtli bolaligini qaytarib berish uchun umr yo'ldoshi Sergey ikkalasi jonini jabborga berishdi. Omontoyning ota-onasiga, qarindosh-urug'lariga bo'lgan sog'inchini yengillatib, uqubatli kunlar oz qolganini tushuntirishga ha-

rakat qilishib, yupatib, qizlari Anastasiya bilan birdek ko'rib parvarishlashdi. Omontoy bilan egizakdek bo'lib qolgan Anastasiya bolani g'urbatdan chalg'itishda asosiy vositaga aylanib qolgan edi.

Omontoy ota-onasini, akasini unuta olmay, ularni sog'inib, ko'rgisi kelganini har kuni aytib, Mariya Pavlovnaning shashtini olardi. U akasining o'limidan bexabar (xabardor bo'lganda ham yosh bola nimani tushunardi), sog'ayib ketgach shu yerga keladi degan tushunchada edi. Boz ustiga, otasining ham shu yerga izlab kelishidan umidvor edi. Olga Nikolayevna uni o'limdan qanday saqlab qolganini ham bilmaydi-da, albatta. Qubontoy o'zidan bo'linib qolganiga, uning ham shu yerda bo'lib, Anastasiya uchalasi birga o'ynab yurishmaganiga o'kinchda edi.

* * *

Jinoyatga oid nimadir topilib qolar degan umidda Aqlbekning uyidagi tintuv hamon davom etsa ham, arzirli biron narsa qo'lga ilinmasdi. Shu asnoda yana to'rtta notanish kishilar kelib qoldi. Bular Otakeldi, To'rageldi, mayor Gennadiy Petrovich Meshkov va ORTdagi "Jdi menya" programmasining vakili Ira Nikolayevna Seleznyova edi. Ular ham Aqlbekni izlab, Qubontoy va Omontoyning qayerda ekanligini aniq bilish uchun kelishgan edilar. Ikki qidiruv guruhi bir nuqtada uchrashib qolgandi. Mayor Meshkov Timoshenkoga Moskvadagi maxsus tezkor guruhning rahbari general Vasiliy Ivanovich Kozlovning topshirig'iga binoan Otakeldining ikki o'g'lini izlab kelishganini tushuntirdi.

Ikki guruhning salom-aligi, tanishuvi tugagandan keyin mayor Timoshenko asosiy muammo Aqlbekni topish ekanligi, o'shanda jinoyatlar fosh etilishini ta'kidlab o'tdi. Ikkala guruh birgalikda shoshilinch chora ko'rishga qaror qilishdi. Ikkalasi uchun ham ushbu uyning jinoyatkor sohibi Aqlbekning suratini topish zarur edi. To'rageldi bilan Otakeldi anavi qirg'izga o'xshagan Kumushoyga qiziqishib, imkoni bo'ldi deguncha unga savol berishga shoshib turishardi. Kumushoy ham bular yo'qolgan bolalarning otasi yoki yaqinlaridan bo'lsa kerak deb, tez-tez ularga nigoh tashlab turardi. Qulay payt kelib, Otakeldi Kumushoydan:

— Qirg'izmisan? — deb so'radi.

— Ha, qirg'izman, — dedi Kumushoy.

— Shu uyning egasini taniysanmi?

— Taniyman.

— U kiming bo'ladi?

— Pochcham bo'ladi.

— Aqlbek pochchangmi?

— Ha, shu Aqlbek...

— Singlim, sen menga eng kerakli odam ekansan, mening ikki o'g'lim shu ablahning qo'lida ekanligini bilasanmi?

— Ikki o'g'lingizni shu uyda ko'rib, suhbatlashib, ularni kameraga tushirib, "Jdi menya"da e'lon qildirgan menman. O'sha ko'rsatuvni ko'rdinglarmi?

— Singlim, senga ming marta rahmat. O'sha ko'rsatuv tufayli shu yerga keldik-da.

— O'sha Aqlbek pochcham ikki o'g'lingiz uxlab yotganda ustidan qaynoq suv quyib kuydirib, kechasi "Tez yordam" chaqirib kasalxonaga jo'natibdi. Buni menga Meerkan opam telefonda aytib bergan. Bolalar otasini topdimi, deb so'raganimda, yuqoridagilarni qisqa qilib aytib bergan edi. Mening hayotim ham xavf ostida ekanligini aytib, qattiq ogohlantirgan edi.

— Men ham o'sha opangni izlab yuribman. O'g'illarim qaysi kasalxonada ekan?

— Unisini bilmayman, opam ham bilmaydi. Buni birgina Aqlbek biladi.

Bularni eshitgan Otakeldi hushidan ketayozib, vujudi qaltirab, tepa sochi tik turdi. Bolalarining qanday ahvolda ekanligini o'ylab, g'ulg'ulaga tushib qoldi. Bu gaplarni To'rageldi ham eshitib turgan edi. Aka-ukaning fikri bir yerdan chiqib, zudlik bilan Aqlbekning ishxonasini topib, kadrlar bo'limidan uning shaxsiy daftarchasidan 6x9 hajmidagi suratini olib, shu surat orqali qidiruvni tezlatadigan bo'lishdi. Otakeldining ta'rif-tasvirlashi bo'yicha Aqlbekning fotoroboti ham tuzilgan edi. Rossiya bo'yicha Aqlbekka qidiruv e'lon qilindi. U bir necha kundan buyon izlanayotgan bo'lsa ham, topilmayotgan edi. Nihoyat, militsiya bo'limiga xushxabar kelib tushdi. Jinoyatchi sifatida qidirilayotgan Aqlbek Aliyev Sankt-Peterburg aeroportida qo'lga tushgan

edi. Mayorlar Meshkov va Timoshenko, To'rageldi, Otakeldilar darhol aeroportga shoshilishdi. Otakeldi Aqlbekning shunchalar vahshiyligini, farzandlariga qasddan qaynoq suv quyib yuborganini o'ylab, yetguncha o'tdagi kuldek to'lg'anib bordi. Aeroportga yetguncha ilohim shu nusxa Aqlbek bo'lsin-da, tag'in boshqa birov bo'lib chiqmasin-da deb, Xudoga iltijo qilib bordi. U ablahning Nazik bilan Otakeldida qanchalik o'chi bo'lsa ham, norasida, ojiz go'daklarda nima gunoh!? Zarracha gunohi yo'q go'daklarni nega bunchalik xo'rladi? Aqlbekning yirtqich hayvon, ma'nan ojiz, o'ta tuban ekanligidan nafratlanib borar edi. Ruhiy dunyosi o'ta zaif erkaklargina yosh bolalar bilan ayollarga qo'l ko'taradi. Har qancha o'chi bo'lmasin, erkakchasiga, o'sha raqibining o'zi bilan hisoblashmaydimi deb tutuni chiqib borardi. Eng muhimi, farzandlarim sog'-u salomat bo'lsa bas, deb Xudodan tilab borar edi. O'g'illarining qaysi kasalxonada ekanligini bilgunicha bardoshli bo'lishga qaror qildi. Aeroportgacha ozgina vaqt ketgan bo'lsa ham, Otakeldi shunaqangi ming bir ko'chaga kirib chiqdi. Ular katta tezlikda yurishib, to'ppa-to'g'ri aeroportdagi militsiya maxsus bo'limiga kirib borishdi. Kirgan zahotiyoq Otakeldi qo'liga kishan urilgan Aqlbekni ko'rdi. Raqibi o'n yil avvalgi ko'rganiga nisbatan xiyla to'lishib, basavlat qiyofaga ega bo'libdi. Otakeldi Aqlbekning naqd ro'parasiga borib: "Mening o'g'illarim qani?" — dedi.

— Kasalxonaga jo'natganman.

— Qaysi kasalxonaga?

— Robert Fridmanning xususiy kasalxonasiga.

— Nega kasalxonaga jo'natding?

— Tasodifan issiq suv to'kilib, kuyib qolishdi.

Mayor Timoshenko so'zga aralashdi:

— Yuringlar, qolgan hamma ishni o'zimizning bo'limlarda hal qilamiz.

— Avvalo bolalarni topish kerak.

— Bolalarni ham izlaymiz. Ularni topib, otasi bilan uchrashtiraylik, — dedi mayor Meshkov.

Aqlbekni birga olishib, darhol Fridmanning xususiy kasalxonasiga borishib, Qubontoy bilan Omontoyni izlashdi. Bola-

lar bu yerda yo'q bo'lib chiqishdi. Mayor Timoshenko Aqlbekni so'roqqa oldi:

— Bolalarni kimlar qabul qilib olgan?

— Robert Pinxasovich Fridman.

— U qayoqda, topib kelinglar! — deb buyurdi mayor Meshkov. Kasalxonadagi bemorlarni bezovta qilmaslik uchun holi xonaga kirishdi. Kasalxonada ishlayotganlarning bari bular nima qilib yurishibdi, deganday ajablanib bir-biriga qarashar edi. Narigi tomondan Vera Ivanovna oq xalatini hilpiratib, odatdagiday tamanno bilan yurib kelib, go'yo hech narsa bilmaganday:

— Kimni izlab yuribsizlar, — deb so'radi. Xonaga kirgach, qo'liga kishan solingan Aqlbekni ko'rdi-yu, seskanib ketsa ham, sirtiga chiqarmaslikka harakat qildi. Hammadan ilgari Otakeldi:

— Qubontoy va Omontoy Aqmatovlarni izlab keldik, — dedi.

— Ha, ikki bola jiddiy kuyib bizga tushgan edi.

— Hozir o'sha bolalar qayerda? O'shalarni bizga ko'rsatinglar?

Vera Ivanovna nima deyishini bilmay, anchagacha kalovlanib turib tilga kirdi:

— U bolalar hozir bizda yo'q.

— Bolalar qayoqda? — dedi mayor Meshkov.

— Birini bilmayman, biri qazo qilib qoldi, — dedi Vera Ivanovna. Otakeldi uvvos tortib yig'lab yubordi. To'rageldi ham ko'zidan yoshi quyilib, arang savol berishga yaradi.

— Nima sababdan qazo bo'ldi?

— Operatsiyadan chiqmay qoldi.

— Kuygan bolani operatsiya qilishadimi?

— Ha, operatsiya qilishdi.

— Operatsiyani kim qildi?

— Robert Pinxasovich Fridman.

— Qanday tashhis bilan operatsiya qilishdi.

— U kuygan tashhisi bilan operatsiya qilingani yo'q.

— Unda qanday sabab bilan operatsiya qildi?

— Bilmadim, ichki a'zolarini ko'rish uchun qildi.

— Operatsiyada siz qatnashdingizmi?

— Ha, men o'zim qatnashdim, operatsiya nohaqlik bilan qilindi.

— Operatsiyani qilgan vrach qayoqda?

— Hozir yo‘q, tayinsiz.

— Biri qazo qilgan bo‘lsa, ikkinchisi qayoqda? — dedi Otakeldi.

— Ikkinchisi operatsiya paytida yo‘qoldi.

— Bu nima deganingiz? Kuyib, og‘rib qolgan bola biror yoqqa qochib ketdimi?

— Haqiqatan yo‘qolib qoldi, hech qayerdan topa olmay qoldik.

— Topasizlar, — dedi mayor Timoshenko. — Vrachlardan kim bor?

— Anton Gavrilovich Beryozin bor.

— Siz bu yerda kim bo‘lib ishlaysiz?

— Men hamshiraman.

— Vrachni chaqirtiring-chi.

Vera ostonaga borib: “Anton Gavrilovichni organdan kelganlar so‘rashyapti, chaqirib qo‘yinglar”, — dedi. Hamshiralarning bittasi yo‘lak bo‘ylab zipillab ketdi. Otakeldi boshini changallab, qattiq so‘lqillab yig‘lar edi. Mayor Meshkov Otakeldining yelkasiga qo‘lini qo‘yib: ”Bardam bo‘linglar, bolalarning ikkinchisini izlab topaylik, yig‘ini to‘xtatinglar”, — deb iltimos qildi.

Shu payt kelib qolgan vrach Anton Gavrilovich Beryozin Aqlbekdan boshqa hamma bilan salomlashdi. Tergovchi Olshanskiy darhol Anton Gavrilovichni so‘roqqa tutdi:

— Hozir siz bosh vrachmisiz?

— Ha, hozircha men.

Tergovchi Aqlbekni barmog‘i bilan ko‘rsatib so‘radi:

— Manavi kishi qasddan kuydirib topshirgan ikki bola qayerda?

— Biri shu yerning o‘zida operatsiyagacha yo‘qolib qoldi. Ikkinchisi operatsiyadan tirik chiqmadi.

— Operatsiyani siz qildingizmi?

— Men operatsiyada ishtirok etdim, xolos.

— Operatsiyani kim qildi?

— Robert Fridman qildi.

— Operatsiya to‘g‘ri qilinganmidi?

— Yo‘q, u o‘z manfaati uchun bolani qurbon qildi.

— Qanday manfaat?

— Men sizga haqiqatni ochiq aytsam, unga ehtiyot qism sifatida ichki a’zolari kerak edi.

— Bolaning ichki a'zolarini nima qildi?

— Robert Pinxasovich o'z mijozlariga pulladi-da.

— Fridmanga bolalarni manavi kishi yetkazib berganmidi? — deb Olshanskiy Aqlbekni ko'rsatdi.

— Bunisini aniq bilmayman, faqat taxmin qilaman.

— Fridmanga sen yetkazib berganmiding? — Aqlbekdan so'radi Olshanskiy. Aqlbek boshi bilan tasdiq ishorasini qildi.

— O'lgan bolaning jasadi qayerda? Zudlik bilan sud-medekspertizadan o'tkazish kerak, — dedi kapitan Olshanskiy.

Bu orada Qubontoy dafn qilingan go'ristonni topib, jasadni sud-medekspertizaga tayyorlab berish Anton Gavrilovichga jiddiy ravishda buyurildi. O'lgan bola Qubontoy ekanligini tasdiqlab berishi uchun Aqlbekning qo'lidagi kishanning bir tomonini tergovchi Olshanskiy o'z qo'liga solib, qabristonga olib borishdi. Marhum bola Qubontoy ham, Omontoy ham bo'lmasin-da deb, Otakeldi Xudoga iltijo qilib bordi. Go'riston ochildi. Operatsiyada o'lgan bola Qubontoy bo'lib chiqdi. Yuzi ilvirab kuyib ketganligidan, basharasidan tanib bo'lmasdi. Qo'ltig'idan pastroqdagi tomchiday qop-qora holni ko'rib, Otakeldi bolasi ekanligiga amin bo'lib, murdaning ustiga o'zini tashlab, olamni buzib faryod ura boshladi. To'rageldi ham akasining bo'ynidan quchoqlab, ko'z yoshini sel qilardi. Kutilmaganda Otakeldi yig'lab, bolasini quchoqlab yotgan yeridan shartta irg'ib turib, kishan solingan Aqlbekka tashlangisi keldi. U mayor Timoshenkoga yolvorib: "Manavi vahshiyning qo'lini bo'shating, iltimos qilaman", — dedi.

— Bu vahshiy qochib ketsa kim javob beradi? — dedi Timoshenko.

— Men javob beraman, qochirmayman, — dedi Otakeldi.

— Mayli, bo'shataman, ehtiyot bo'ling, — mayor Aqlbekning qo'lini bo'shatib yubordi. Shuni kutib turgan Aqlbek bir sakrab, UAZ shofyorining yoniga yetib, ikki qo'lini shofyorning ikki cho'ntagiga suqib, kalitni sug'urib olib, mashina tomon yugurdi. Otakeldi chaqqonlik bilan uning bo'ynidan olib, eski usulga solib yerga urdi. Aqlbek yerda qattiq dumalanib borib, tura solib yana mashinaga qarab yugurdi. Otakeldi sakrab yetib, yelkasidan ushlab to'xtatdi. Ikkalasi olishib, bir-biriga musht tushirishdi. Aqlbek

yana qochib, mashinaga yetib eshikni ochib o'tirganida Otakeldi uning oyog'idan tortib tushirib, ustidan bosib qoldi. Endi Aqlbekni sira turg'izmay qo'ydi. Aqlbek uning tagida yotib ham olishardi. Qarab turganlar yordamga oshiqishdi.

— Sizlar bizga yaqinlashmanglar, — deb qichqirdi Otakeldi. Kelayotganlar to'xtab qolishdi. Beomon olishuv davom etardi. Nihoyat, Aqlbek "yeding!" deb qatiq qiyqirib, sulayib yotib qoldi.

— Endi qocha olmaysan, hech kimga yomonlik ham qila olmaysan, — deb Otakeldi o'rnidan turib ketdi. Chunki Otakeldi shunchalik darg'azab bo'lgan ediki, Aqlbekning ikki ko'ziga ikki panjasini suqib, ko'z gavharini kosasidan sug'urib tashlagan edi. Umrbod zulmat qa'riga hukm qilingan Aqlbek taqdiriga tan berib, yerda sulayib yotardi. U besh kunlik dunyoda vahshiyona o'tmishga qaytish sifatida ekkanini o'rgan edi. Qarab turganlar olishuv davomida yo'qolgan mashina kalitini arang topib olishdi.

Sud-medekspertizada Qubontoyning zarur ichki a'zolari o'zlashtirilgani tasdiqlanib, Fridmanga qarashli xususiy kasalxonaning jinoiy faoliyati fosh etildi. Aqlbekka kasalxonada uzoq yotishga to'g'ri keldi.

* * *

Qubontoyning o'limi Otakeldi uchun yer ko'tarishga ojiz kulfat yuki edi. Uning jasadini Qirg'izistonga olib ketish kerak edi. Aka-ukalar mayitga tobut, irib, hidlanib ketmasligi uchun kimyoviy ishlov berilishiga buyurtma berdilar. Endi Omontoyning bedarakligi ular uchun og'ir zarba bo'ldi. Ular bir soniyani ham boy bermay, qidiruvni davom ettirishardi. Kumushoy ham opasi Meerkanning jasadini bir kasalxonaning o'likxonasidan topdi.

Kumushoy opasining murdasini tanidi-yu, bir dodlab olgach, hushidan ketib yiqildi. Uni kasalxonaga yotqizishdi. Sankt-Peterburgda ishlayotgan qirg'izlar Kumushoyga qo'llov ko'rsatishib, ular ham tobut tayyorlay boshladilar. Fridmanning xususiy kasalxonasi xodimlari yoppasiga so'roq bera boshladilar. Shifokor Anton Gavrilovich Beryozin bilan hamshira Vera Ivanovna Sushkova jinoyatchilikda shubhalanib, bevosita ishtirokchi sifatida darhol qamoqqa olindi. Fridmanga xalqaro qidiruv e'lon qilindi. Olga

Nikolayevna Shcherbakova qaynoq suvda kuyib, operatsiyadan chiqmay o'lgan bolaning otasi bilan o'zini tezroq uchrashtirishlarini qayta-qayta iltimos qildi. Ilya Semyonovich Olshanskiy zudlik bilan aka-ukalarni chaqirtirib, ularni uchrashtirdi. Olga Nikolayevna Otakeldi va To'rageldi bilan salom-alikdan keyin, ularning og'ir musibatlarini teng bo'lishishini aytib hamdardlik bildirgach, Otakeldiga:

— Hozir sizda o'g'illaringizning suratlaridan bormi? — deb so'radi.

— Suratlari bor, — Otakeldi uchun najot uchquni yilt etganday bo'ldi. — Mana bolalarimning suratlari.

Olga suratlarni ko'rib bir jilmayib qo'ydi-yu, Qubontoyning suratiga tikilib turib: "Shunday yoqimtoy norasida go'dakni juvonmarg qilishga qanday vahshiyning qo'li bordi ekan", — deb ezilib yig'ladi.

— Siz bularni ko'rganmisiz? — dedi To'rageldi.

— O'lgan bolani ko'rgan emasman, endi ko'rib turibman.

— Manavi Omontoyni-chi?

— Buni kasalxonadan men o'g'irlab olib qochib ketganman.

— Hozir sizning uyingizdami? — shoshib so'radi Otakeldi.

— Ha, Omontoy hozir menikida.

Otakeldi Olga Nikolayevnani shartta quchoqlab olib tiz cho'kib, boshini egib nuqul "rahmat", deb takrorlay berdi. Olga sekin Otakeldining qo'lidan ushlab, o'rnidan turg'izdi. Otakeldining ko'zidan shashqator yosh quyilar edi. Tergovchi Olshanskiy Olgaga savol berdi:

— Nega bemor bolani kasalxonadan o'g'irlab ketdingiz?

— Bilasizmi, shunday qilmaganimda bu bola ham operatsiya qilinib, u yerdan tirik chiqmasdi, — dedi Olga ko'z yoshlarini artar ekan.

— Siz buni qanday bildingiz?

— O'sha kuni kechasi men navbatchi edim, kuyib kelgan bolani deyarli ko'zdan kechirmay, tashhis qo'ymay, kasallik varaqasi ochilmay operatsiyaga olib kirib ketishganidan shubhaga tushib qoldim. Boz ustiga, Omontoy bilan gaplashsam, otamizni izlab keldik deydi. Robert Pinxasovich esa bolalarning ota-onalari olisda, boshqa mamlakatda ekanligidan foydalanib kelgan.

Ilya Olshanskiy Olgadan xususiy kasalxonaga tegishli muhim ma'lumotlarni ola boshladi. To'rageldining sabri tugab:

— Omontoyni biz bilan uchrashtirasizmi? — dedi.

— Ha, hozir uchrashtiraman, — deb Olga qo'l telefonini olib: "Sergey, eshityapsanmi, suyunchi! Omontoyning ota-onasi topildi! Hozir Kirov militsiya bo'limiga Omontoyni olib kel, yangi kiyim-kechagini ham ola kel", — deb tayinladi.

Har qancha qayg'u bosib tursa ham, yomonlikni yaxshilik yengadi degandek, Otakeldi farzandini ko'rishga shoshilib, hayajonini bosa olmas edi. Omontoyning topilganiga goh ishonib, goh ishonmadi. Yana nimadir bo'lib ketmasaydi, deb xavotirda edi. Olganing "hozir uchrashtiraman" degani ancha taskin berib turdi. Vaqt to'xtab qolgandek edi. Agar manzilini bilsa-yu, o'zi uchib bora qolsa. Qanchalik og'ir bo'lishga intilsa ham bolasini tezroq ko'rish ishtiyoqi unga azob bo'ldi. To'rageldi bilan Olga: "Qani bo'lmasam, tashqariga chiqib kutib olaylik", — deb sirtga qarab yurishdi. Hammalari eshikka chiqishib, ikki yoqqa alanglab qaray boshlashdi. Xiyladan keyin qora "Leksus" avtomashinasi yo'l chetidagi maydonchaga kelib to'xtadi.

— Kelishdi, — dedi Olga.

Hamma mashinaga qarab qoldi. Otakeldi mashina tomon shoshib jo'nadi. Eshik ochilib, salobatli, ziyoli rus yigiti Sergey mashinadan tushib, orqa eshikni ochib, Omontoyni qo'lidan ushlab tushirib, kutib turganlar tomon yurdi. Omontoy otasini darhol tanib: "Ota!" — deb jon-jahdi bilan qiyqirib, otasiga qarab yugurdi. Qoqinib ketib, yiqilib borib, o'zini tutib qoldi. Bola bechoraning otasiga yetib kelishi xiyla mashaqqatli kechdi. Otakeldi ham yugurib, ota-bola bir-biriga yetishib, quchoqlashib, hidlashib, yalab-yulqashib, bir-birining diydoriga to'yishmas edi.

— Otajon! Nega kech keldingiz, Qubontoy ikkimiz sizni izlab topolmay, yomon qiynaldik, — deb Omontoy o'pkasini bosa olmasdi. Otakeldi ham ko'z yoshini sel qilib, Omontoyni tirik topganiga suyunib yig'lasa, Qubontoyidan judo bo'lganiga o'ksib yig'lar edi.

— Qubontoy akamga uchradingizmi? — deya Omontoy qayta-qayta so'rab, otasini quchoqlab, toleyidan mast edi.

Ota-bolaning ham baxtiyor, ham fojiali bu diydorlashuvini ko'rib turganlar ham yig'iga g'arq bo'lgan edilar.

SO'NGGI SO'Z O'RNIDA

Sudlar har bir voqeani, jinoyatni alohida-alohida ko'rib chiqadi. Aqlbekning jinoiy ishlari ham shu zaylda ko'rib chiqildi. Meerkanning o'limi alohida tahlil qilindi. Sud-medekspertizaning xulosasi hamda guvohlarning ko'rsatmalari asosida Rossiya Federatsiyasining sudi Aqlbekning 15 yil ozodlikdan mahrum etilganligi haqidagi hukmni e'lon qildi.

Otakeldi bilan To'rageldining arizasiga binoan Aqlbekning jinoiy ishlari to'la-to'kis g'alvirdan o'tkazilib, Qubontoy bilan Omontoylar Qirg'izistondan qasddan o'g'irlab kelinib, ularni ehtiyot qism sifatida Aqlbek tomonidan sotilishi, vahshiylik bilan qaynoq suv quyib kuydirilishi isbotlanib, u favqulodda xavfli jinoyatchi sifatida, garchi so'qir bo'lsa ham, umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Aqlbek sud jarayonida: "Otakeldi ko'zimni o'yib tashladi", — deb qayta-qayta imkoniyat qidirdi. Lekin guvohlar bu Aqlbek o'zi qochib ketishga harakat qilganida yuz bergan tasodif, deb isbotlashdi. Aqlbekning da'vosi hamda oqlovchisining xo'jako'rsinga qilgan urinishlari sudda inobatga olinmadi. Aqlbekning ko'zdan mahrum bo'lishi sudda ishtirok etuvchilarda vahshiyona jinoyatlari uchun Yaratganning o'zidan unga berilgan bir jazoday taassurot qoldirdi. Aqlbek jinoyatchi sifatida Nurbek, Masha, Anna, O'tabaylarni o'ldirgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilmadi. Chunki ularning ortidan da'vo qiladigan hech kimsa bo'lmadi. Vera Ivanovna Sushkova 9 yilga, Anton Gavrilovich Beryozin 12 yilga og'ir jinoyat ishtirokchilari sifatida kuchaytirilgan qamoq rejimiga hukm qilindilar. Robert Pinxasovich Fridmanga jinoyat ishi ochilib, butun Rossiya bo'ylab qidiruv e'lon qilindi, Interpolga berildi. Hozircha u qo'lga tushgani yo'q. Uning kasalxonasi, restoran, kafelari va boshqa jamiki mol-mulklari sud hukmi bilan davlat foydasiga musodara qilindi.

Aka-uka jinoyatchi Aqlbekning sud jarayonidan qaytib kelishganidan keyin ikki oyga yetmay, Otakeldi Qirg'iziston ichki ishlar bo'limiga ishga taklif qilindi. U yangi xizmatda ishlash bilan birga Rossiyaning Omsk shahridagi oliy militsiya bilim yurtini sirtdan o'qib tamomladi. Ishga yangi qabul qilinganida maxsus tezkor guruhning komandiri bo'lgan bo'lsa, endi Ichki ishlar vazirining muovini bo'lib qoldi. O'z kasbining mohir mutaxassisi bo'lib qolgan Otakeldi polkovnik unvoniga ega edi.

Nazik bilan Otakeldi Qubontoyidan judo bo'lishdek ta'rifga til ojiz armonli musibatni boshdan kechirishdi. Hammasiga chidashdi. Yozmishning bunday ko'rgiligi aksariyat bandalarining qismatiga bitilgan azaliy meros emasmi. Omontoyning tirik topilishi, Qubontoydan mangu judolik — inson hayotida quvonch bilan qayg'uning egizak hamroh ekanligining bir isboti emasmi. Boshga tushganni ko'z ko'rishi har qanday kulfatdan g'olib kelar ekan. Vaqt har qanday dardning davosi ekan, hayot davom etaverdi.

Nazik yana o'g'il tug'di. Go'dakning ismini O'rinbek qo'yishdi. Har gulning isi boshqa deganlaridek, O'rinbek ham akalariga o'xshamagan, qiliq-yo'rig'i, tabiati bilan shirin-shakar nuri diyda bo'lib ulg'aya boshladi. Farzand dog'i bedavo dard ekan, oradan qancha vaqt o'tsa ham, to'ng'ich farzandning betakror, ma'sum siymosi ota-onaning qalbiga mangulikka muhrlanib qolgan edi. Alamzada ota-ona farzand dog'i xuruj qilib qolganda shunisiga ham shukr qilib, qolgan farzandlarining kamolini tilashadi.


Omontoyni ajaldan saqlab qolgan Olga Nikolayevna Shcherbakovaning oilasi bilan Otakeldilarning oilasi o'zaro hurmat, ehtirom va do'stlikning namunasiga aylandi. Olganing eri Sergey Petrovich Semyonov bilan Otakeldi, Olga bilan Nazik ma'nan muqaddas insoniylik rishtasi ila chambarchas bog'lanib qoldilar. Olgalar oilasi uchun Omontoy o'z farzandiga aylanib qoldi. Ular Omontoyni "mama", "papa" degan so'zlar bilan tarbiyalashdi. Anastasiya Omontoyning tug'ishgan opasi bo'lib qolgan. U Otakeldi va Nazik uchun qizi Sayqal bilan o'g'illarining opachasi. Olganing onasi Mariya Pavlovna Tereshkina ikki oilaning bunday inoqligidan boshi osmonda. Otakeldi bilan Nazik general Vasiliy Ivanovich Kozlov va Olga Nikolayevna Shcherbakovaning oila-

sini har yili bo‘sh vaqtlarini bilib turib yoz mavsumida Qirg‘izistonga taklif etishadi. Uch oila jamuljam bo‘lishib, Qirg‘istonning go‘zal tabiati og‘ushida, Issiqko‘l sohilida hordiq chiqarishib, tan-sihatliklarini tiklashib, baxtiyor umrguzaronlik qilishadi. Omontoy ikkinchi ota-onasining uyida yashab, Sankt-Peterburg davlat universitetining qonunshunoslik fakultetida tahsil olmoqda. Bu havasga loyiq do‘stlik rishtasi uchala oila uchun ham rohat-farog‘at poydevoriga aylangan edi. Bularning hayoti shu zaylda davom etishi shubhasiz. Alhazar, ko‘z tegmasin!

Tamom

TO‘LAN JO‘LDO‘SHEV





MANAS

Roman

I. Qirg‘izlarning Alokedan yengilib, Olatovdan surilishi

Qirg‘iz qirg‘iz bo‘lgani, qirg‘iz nomga qo‘ngani necha asrlarni qaritdi. Qanchalagan dushmanlar bilan chopishib, necha qiyalik, qoyalarni oshdi. Biroq qadr-qimmatini tushirmadi, millatining nomusini oldirmadi. Elining, yerining osoyishtaligi, farovonligi uchun qanchalagan mard azamatlar o‘z umrlarini ham ayashgani yo‘q. Ularning orasida Manasning o‘rni o‘zgacha. Unda, gapni bobomiz haqida boshlaylik.

Ulamodan ulasak, ulug‘lardan so‘rasak, qirg‘iz xalqi birgina muqaddas Olatog‘ni egallagan emas. Qirg‘iz makon qilgan yerlar janub tarafi Erongacha, shimoli Enasoy, kun botishi O‘rol, kun chiqishi Tebitni qamrab turgan.

Enasoy elini xon Mamay boshqarib turgan. U Enasoyni dushmanga bermay, eli ko‘payib, qirq urug‘ga yetgan. Xon Mamay eliga qirq yil xon bo‘ldi. Biroq, besh xotin olsa ham bolali bo‘lmabdi. O‘shanda u ko‘p tug‘gan tul ayolni oladi. U Mamayga bir o‘g‘il tug‘ib beradi. Bundan quvongan otasi bolaning ismini Bo‘do‘no‘ deb qo‘ydi. Otasi o‘lganda Bo‘do‘no‘ uning o‘rniga xon bo‘ladi.

Bo‘do‘no‘dan Bo‘to‘y, Bo‘yo‘n xon tug‘iladi. Bo‘yo‘n xondan Chayan xon, Chayan xondan Qora xon, Qora xondan O‘razli botir tarqagan. O‘razli botirning huzurida qirg‘izlar nihoyatda boyib, farovon turmushda yashashadi.

O‘razli botir besh xotin oladi. Ulardan o‘n bola tug‘iladi. To‘ng‘ich xotinidan Jaqip bilan Shig‘ay xon, ikkinchi ayolidan Qatag‘an bilan Qatqalang, uchinchi ayolidan Jamg‘irchi bilan Bolta, to‘rtinchisidan Qasiyet bilan Qalqa, beshinchisidan Tekechi bilan Qiziltay tug‘iladi.

Vaqt-soati kelib, O'razli dunyodan qaytganda qirg'izning boshiga og'ir mushkullik tushadi. O'sha kezda qirg'izning el bo'lmas dushmani qora xitoy, qalmoqni Norin shahrida Aloke boshqarib turgan.

O'razli o'ldi degan xabar eshtilganda Aloke xon Mo'lto' xon bilan Samarqand, Andijonni chopib yurgan. Buni eshitgandan keyin ular misli ko'rilmagan askari bilan Talasga yetib kelishadi. O'zro'zduning to'ng'ich o'g'li Jaqip o'n beshda, qolgan inilari undan ham yosh. Qirg'izlarni boshqaradigan hech kim yo'q bo'lib, ular dushmanga munosib qarshilik ko'rsata olishmadi.

Qorovul cho'qqisidagi Ko'ktog' titilib yondirilib, O'rda to'lig'i bilan yakson qilindi. Elning bari talon-tarojga olinib, Talas yeri yig'iga, qonga to'ldi. Nechalagan avlodlar topib-to'plagan O'rdaning g'aznasini dushmanlar talab ketishdi. Unda asrlar bo'yi saqlanib kelgan bitiklarni xitoy rohiblari yoqib yuborishdi. "Qirg'izlar bilimdan ajrab, savodsiz, qorong'u bo'yi qolsin. Bizning elgina dunyoda bilimli bo'lsin!", deyishib, ular tog'lardagi betida yozuvi bo'lgan qadimgi toshlarni topdirishdi. Ulardan hech qanday iz qolmasin deb, rohiblar toshlarni daryoning o'pqon joylariga ho'kiz bilan sudratib borib, cho'ktirib yuborishdi.

Qirg'iz elining boshiga qora kun tushdi, kulfat bosdi.

* * *

To'liq g'alabaga erishgandan keyin, qirg'izning tosh-tolqonin chiqardik deb, dushmanlar sayr qila boshlashdi. Sariq yuzli, o'rta bo'yli, qisiq ko'zli, qursog'i sanochday salanglagan Aloke xon ham g'alabasiga quvondi. O'z O'rdasining bo'lmalaridan birida gilamning ustiga qalin solingan to'shak uzra yostiqda Aloke xon yonboshlab, dam olib yotadi. Uning oldida ko'k dasturxon bilan yopilgan xontaxta turadi. Uning ustida katta kosaga solingan qo'y go'shti, uni kesish uchun sariq sopli pichoq, sindirilgan non, chinnilarga quyilgan sariyog', qaymoq, pishloq, qimiz bor.

Aloke oldidagi tovaga solingan yog'li qo'yning go'shtidan pichoq bilan kesib, yutinib yeb, chinnidagi qimizdan rohatlanib ichdi. Keyin chinnisini dasturxonga qo'yib, og'zini qo'li bilan artib, o'yga cho'mdi.

Ushbu asnoda bo'lmaga tashqaridan uzun bo'yli, oriq chiroy, sariq yuzli Irangquduq rohib kirdi.

— Chaqirgan ekansiz, xonim! — deb Alokega yukundi u.

Aloke o'tirgan joyidan biroz qo'zg'alganday bo'ldi hamda Irangquduqqa sirli qaradi.

— Chaqirdim, rohib! — dedi u. — Qanday yangliliklar bor? yengilgan qirg'izlar biz haqimizda nima deyishyapti?

— Hammasi tinch, xonim! — kibrlanib javob berdi Irangquduq. — Biz ularni yengib olgandan keyin qirg'izlarning dami ichiga tushib, bizga so'ylay olmay qolishdi.

— Ha, xuddi shunday bo'ldi! — kekkaydi Aloke. — Bu qizitaloq burutlar O'razli xon davrida nihoyatda quturishgan edi. O'lguncha boyishib, vaqqillashdi. Yerga sig'may mol to'ldi, qirg'izning nasli o'sib ko'payib, to'qson ming tumanlik el bo'ldi. Boyligi ortib barcha narsadan ko'ngli chog' bo'ldi!

— Ha, xonim. Qirg'izlar maishatga botib sayr qilib, kampiri yoqqa qaramay, kelini qaymoq yalamay, nihoyatda davr surishdi!

— Shunday kuchli, shuncha ko'p qirg'izning payhonini kim chiqardi? Men! Qo'sh qaytarar jon yo'q, olamda menday xon yo'q! — o'zi o'zidan faxrlanib so'yladi Aloke.

— Juda to'g'ri aytasiz, xoni! Sizdek ulug', donishmand xonni bergan taqdirga qalmoq elingizning barchasi o'ta rozi! Martabangiz bundan-da o'sib, ming yil yashangiz, xonim! — qo'lidan kelganicha ko'pirtirib maqtadi xonini Irangquduq.

Aloke bu so'zlarga rozi bo'lib qahqaha urdi.

— Qani, rohibim! Shunday yoqimli so'zlaring chin yurakdan aytilgan bo'lsa, o'tirib, chinnidagi qimizni simirib yubor! — deb taklif qildi u.

— Rahmat, xonim! — deb Irangquduq Alokening qarshisiga o'tirdi.

U kosadagi qimizni astagina bir-ikki ho'plab, o'rniga qo'ydi. Aloke ham oldidagi chinnidan qimizni shoshmay, uch marta ho'plab, ichdi.

Aloke qimizini ichib, Irangquduqqa o'ychan termidi.

— Sen qanday deb o'ylaysan, rohib? — so'radi u. — Shunday farovon yashagan qirg'izlar endi bizga qul bo'lib, indamasdan

qo'l qovushtirib, hech qanday qarshilik ko'rsatmay o'tiraveradimi? Bizga ular birato'la taslim bo'lib berishdimi?

Irangquduq biroz o'ylanib, boshini ters chayqadi.

— Yo'q, xonim! — javob berdi u. — Ular bizga birato'la bo'ysungani yo'q. Qirg'izlar bunday el emas. Ular so'zsiz ravishda o'ch olishga harakat qilishadi!

— To'g'ri aytasan, rohib! — boshini silkidi Aloke. — Ular birdam bo'lib, hamjihatlikda harakat qilmaganligi boisgina biz ularni yengga oldik. Har qaysisi o'zini O'razli sezib, birining so'zini biri uqmay, tarqoq bo'lib, bizga yengilib qolishdi.

— Bo'linganni bo'ri yer degani shu! — kuladi Irangquduq. — Biroq bu qizitaloq burutlar, birga turadigan bo'lsa oxiri bir kun chang solib, bizga qarshi chiqishadi. Shu boisdan ularni har qaysi yerga tarqatishimiz kerak. Ularning barchasiga bu yerda o'rin yo'q, xonim!

— Bo'lmagan gap! — loqayd javob berdi Aloke. — Men qirg'izlarning menman degan yigitlarining barchasini joyladim. Yolg'izgina yosh bolalari, qari-qartanglarigina qoldi. Qirg'izlarning yuragining xushini nihoyatda oldim. Ular o'ziga kelib, menga qarshi chiqqunga qadar kamida o'n-yigirma yil o'tadi.

— Ehtiyotkorlikdan ziyon yo'q! — o'z o'yini bermadi Irangquduq. — Ularni bo'lib tashlaganimizgina o'ng!

— Yo'q, — rozi bo'lmadi Aloke. — Hozircha bunday qadamlarga bormoqlikning hech qanday zarurati yo'q.

* * *

O'sha kezda xitoy, qalmoqlarning xo'rligiga chidamay, no'yg'utlarning Oqboltasining joni qiynalib, zamoni tundlashdi. U qanday qilib el-yurtini bu qiyinchliklardan olib chiqishni bilmay, boshi qotib, teran o'yga g'arq bo'ldi.

"Bechora yurtim! — deb g'amgusor o'yga tolib o'tirardi bo'z uyida Oqbolta. — Bechora elim! Sening yig'ingni, sening ko'z yoshingni ko'rganda keng dunyo ko'zimga tor bo'lib, o'zimni qo'yarga joy topolmay qolaman. O'n yetti yoshda shunday mushkulotni hech bir jonning boshiga Xudo solmasin! Xitoy, qalmoqlarga qarshi chiqay desam, holim yo'q. Jo'ngina qo'yay desam, bu

yer yutgurlar elimning tubiga yetadigan bo'ldi. Endi nima qisam? Qanday yo'l bilan elimni bu halokatdan qutqara olaman?!"

Bo'ylari kelishgan, oq yuzli, qora qosh, chiroyli Oqbolta armonli boshin chayqadi. O'rnidan turib, dushmanlariga noiloj g'azablanib nari-beri bosdi.

"Biri kam dunyo! O'razli amakim tirik bo'lganida, elimiz shunchalik xor bo'lmas edi-ya!" — deb Oqboltaning dimog'i qurib, ikki ko'zidan beixtiyor yosh oqdi.

U ho'ngrab, nima qilarini bilmay, anchagacha o'rnidan qo'zg'almay o'tirdi. Keyin esini yig'ib, eshikka chiqib, yuz-boshini xurmachadagi suvda chayqadi.

"Qo'y! — o'ziga o'zi tasalli berdi u. — Xafa bo'lib, jig'ibiyron bo'lgandan foyda yo'q. O'tganga qayg'urgan bilan ne foyda?! Har qanday yomon narsani o'ylayversang, undan battar bo'g'inlaring bo'shashib, yuraging yaralanaveradi. Ko'p qayg'uravermay, O'zro'zdu amakimning o'g'li Jaqipga borayin. O'lik bo'lsak bir cho'nqurda, tirik bo'lsak bir tepada bo'laylik!".

Shunday qarorga kelgandan keyin Oqbolta qizil qirg'indan omon qolgan eli bilan Talasga, Jaqipga keldi.

Talasda u O'razlining o'n bolasini, inisi Boyni to'plab, ular bilan qo'radosh qo'ndi. Bundan nari qanday kun ko'rishni hal qilish uchun qirg'izlar Oqbolta kelgan kuniyoq Jaqipning bo'z uyiga kechga yaqin to'planishdi.

Saraton davri bo'lganligidan, kun nihoyatda isib ketgan. Shu sababdan toza havo kirib tursin deb, Jaqip bo'z uyning eshigini ochib qo'ydi. So'zlarini qalmoqlar eshitib qolmasligi uchun ular tashqariga soqchi qo'yishdi.

Mehmonlarni siylash uchun Jaqip bir semiz qo'yni so'ydirib, go'shtini o'ta eziltirib pishirtirib, kelganlarga beshbarmoq tortdi. Taom yeb bo'linganidan so'ng boshiga tushgan azoblarni aytishib, barchasi yig'lab-siqtashdi.

— Qo'yinglar yig'inglarni! — tasalli berdi tug'ishganlariga o'rta bo'yli, qorato'ri, ingichka jag'li, oriqdan kelgan Boy. — O'kirib-baqirib yig'lagandan ne foyda? Yov ketgandan keyin qilichingni toshga chop. Bo'lar ish bo'ldi, o'tgan ishga salovot. Ishongan-suyangan, tog'-qoyadek bo'lgan O'razli botir borsa kel-

mas safariga ketdi. Qanchalar yig'lasak-da, endi u qaytib kelmaydi! Shu sababdan sabrli bo'laylik!

— To'g'ri aytasiz, amaki! — ko'z yoshini artib javob berdi uzun bo'yli, keng yelkali, baquvvat gavdali Jaqip. — Xudo berdi, Xudo berdi! Otam qaytadan bu yorug' jahonga qaytib kelmaydi. U bilan biz endi narigi dunyoda Qiyomatdagina ko'rishamiz. Bor-yo'g'i, u biz bo'yga yetib, ulg'ayayotgan chog'da ehtiromimizni ko'rmay, qazo qilgani yurakni qon qiladi.

— O'lim haq! — javob berdi Boy. — U barimizga keladi. Undan hech kim qochib ketolmaydi. Hech kim bul dunyoga ustun bo'lmaydi. Shu tufayli har bir odam savob ishlarni qilib, gunoh qilishdan o'zini saqlab, o'limga oldindanoq hozirlik ko'rmog'i zarur. Shundagina u jannatga tushib, do'zax azobidan qutulishi mumkin.

— Aytganlaringiz to'g'ri, amaki! — dedi Oqbolta! — O'razli amakim yaxshi inson edi. Barchaga adolatli muomala qilib, keng fe'l bo'lgan.

— Rost, amakim shunday kishi edi! — og'ir entikdi Boy. — Nachora. Rizqi tugab qolgan ekan, amakim yorug' olam bilan vidolashdi. O'lganga qiiyn deyishadi. Tirikning turmushi davom etib ketaveradi. Alloh taolo bergan rizq-ro'zi bilan umrini o'tkazaveradi. Hech kim o'lganning ortidan o'lib olmaydi. Bor-yo'g'i biz amakimni yo'qlab, o'kirib-baqirib, yig'lab, qattiq qayg'urib, gunohga botmaylik, birodarlar!

— Nega? — hayron qoldi Oqbolta. — O'lganni xotirlab, yig'lashning nimasi gunoh!

— Nega deysanmi? — Oqboltaning savoliga savol bilan javob berdi Boy. — Shariat bo'yicha, har bir odamga uning jonini Alloh omonatga, vaqtincha foydalanishga bergan. Uni qachon qaytadan o'ziga olishni o'zigina biladi.

— Bu haqda biz uqqanmiz! — dedi Oqbolta. — Biroq nima uchun marhumni yodlash gunoh ekanligini men baribir tushunmayapman!

— Buning ma'nosi shunday — tushuntira boshladi Boy. — Deylik, sizlar birovdan vaqtincha foydalanish uchun bironta buyum oldinglar. Biroz vaqt o'tgandan keyin u kishi sizlarga

kelib, buyumini qaytib so'radi. Sizlar uning o'tinchini ado etish o'rniga o'kirib-baqirib, yig'lab, qarg'ab so'ka boshladinglar. Shu qilganinglar to'g'ri bo'ladimi, nima deb o'ylaysizlar?

— Albatta, to'g'ri emas! — achchiqlandi Jaqip. — Sababi u buyumning egasi emasmi? Unga, uning erkiga qanday qarshi chiqa olasan? Bunday qilsang, odamgarchilikdan chiqib qolasan! Buyumning egasi seni odobsiz, yaxshilikni bilmagan it demaydimi?

— To'g'ri aytasan! — dedi Boy. — U holda nima uchun Alloh taologa bergan omonatini — bizning jonimizni olgani kelganida, biz unga norozi bo'lishimiz kerak? Nega unga rahmat aytishning o'rniga biz uni qarg'ab, so'kib, xafa bo'lishimiz kerak?

— Biz sizning o'yingizni endi tushundik! — noilojlikdan kulib yubordi Jaqip. — O'lgan odamga o'ta qayg'urganimizda, biz Alloh taoloning g'ashiga tegib, uni norozi qilar ekanmiz-da?

— Albatta! — javob qaytardi Boy. — O'lgan kishiga qattiq qayg'urish — Alloh taoloning amriga bosh egmay, gunohga botish deb hisoblanadi. Shu sababdan men silarga O'razli amakimni ko'pam yo'qlayvermanglar deyapman. Mening aytganimni tushundinglarmi?

— Tushundik! — hammasi uchun javob berdi Jaqip.

— Tushungan bo'lsanglar yaxshi! — rozi bo'lib so'yladi Boy. — Men boya aytganday, o'lganning o'zining sho'ri. Turmush o'z yo'lida davom etaveradi. Shu boisdan biz endi qolgan el-yurtimizning taqdirini o'ylaylik. Uni bundan keyingi ofat - halokatlardan saqlashning yo'lin izlaylik.

— Sizning fikringizcha, biz nima qilishimiz kerak, amaki? — savol berib qaradi Boyga Oqbolta.

— Mening so'zimni ma'qul ko'rsangizlar, bo'zlab bu yerda o'tiravermasdan Talasdan ketaylik! — biroz vazminlashib javob berdi Boy inisiga.

— Qayga ketamiz? — ko'ngli cho'kkancha so'radi Jaqip. — Kurkuro'o'ga yo'l oladigan bo'lsak, u taraf hozir birato'la Alokening qaramog'ida.

— Yo'q! — e'tirozli bosh chayqadi Boy. — Biz Kurkuruo'o'ga bormaymiz. Bizda tog' yonbag'irlab yurilsa, keyin o'tar O'tmo'k bor. Biz o'shanga yuz tutib, tog' yonbag'ri bo'ylab ko'chaylik.

— Talasdan birato'la ketamizmi? — mung'ayib so'radi Jaqip.

— Ha! — deb javob berdi Boy qayg'uli. — Bundan boshqa choramiz yo'q. Yondirilgan, yakson qilingan O'rdani qo'riqlab o'tirishdan foyda yo'q. Turmushimizni o'tkazsak bo'ladigan yangi yerni izlaylik.

Tug'ilib o'sgan yerini tashlab ketish qanchalik qiyin bo'lsa ham, boshqa chorasi qolmaganligidan, barchasi bu taklifga rozi bo'lishdi.

Ertasi kuni tirik qolgan el qolgan-qutgan mulkini yig'ishtirib, yo'lga otlandi. Avvalgi farovon turmushning nishonasi bo'lgan O'rdaning to'rt tarafiga termilib bo'zlashib, O'tmo'k sari yuzlanishdi.

Safarining nihoyasida Uyrulmo'ning botqog'ida dam olish uchun qo'nim topishdi. Shu yerda Boy, Oqbolta, O'razlining farzandlari bilan Jaqipning bo'z uyida majlis qurishdi.

— Xudoga shukur! — deb so'zin boshladi Boy. — Qalin qalmoqlardan surilib chiqib, o'zimiz mo'ljallagan yerga eson-omon yetib oldik. Bundan nari qanday qilib tirikchiligimizni o'tkazamiz? Shu xususda maslahatlashib olaylik. Biz dushmanlarimizga "yengildik, sizlarga qulligimiz bor!" — deb qo'l qovushtirib, qo'rqib-pisib yashaymizmi? Yoki oziq tishimizni ko'rsatib, qo'yga tekkan bo'riday hamla qilib, ularga qarshilik ko'rsatamizmi? O'yinglarni aytinglar, yigitlar?!

Boy bo'z uyning ichida, dasturxon atrofida o'tirgan inilariga savolomuz qaradi. Birinchi bo'lib oriqdan kelgan, qora ko'zli, qora qoshli, ko'zlari katta, xushsurat, o'n uchdagi Jamg'irchi gapga aralashdi.

— Amaki! — dedi u. — Menimcha, biz qalmoqlar, manjular bilan til topishganimiz durust. Ular azaldan beri bizning ota-bobolarimizga qul bo'lib kelishgan. Shunday ekan, qanday qilib biz ularga qo'l qovushtirib, yukinib beramiz? Qandoq qilib ularga qul, kun bo'lamiz? Bunday qilsak, bizni ota-bobolarimizning arvohi urmaydimi?! — achchiqlanib gapirdi Jamg'irchi. — Shu sababdan ular bilan qirqishaylik. Ularni yengaylik! Ajalimiz yetsa, o'laylik! Biroq o'zimizning nomusimizni saqlaylik. Obro'yimizni qatiqday to'kmay, o'limga tik boraylik!

— Og'asining bu so'zlariga sariq yuzli, ingichka jag'li, to'ladan kelgan o'n yoshdagi Ulaqqan qarshi chiqdi.

— Siz nima deyapsiz, amaki? — norozi bo'ldi u. — Shuncha ko'p yovga bizning qanday qilib kuchimiz yetadi? Otam O'razli tirik bo'lganida bir jo'n edi. Hozir bo'lsa bunday qadamga borganimiz to'g'ri emas. Bizni bosib olgan dushmanga olishib holimiz, kurashib kuchimiz yetmaydi!

Ulaqqanning so'zini Jaqip qo'lladi:

— Inim to'g'ri aytyapti! — dedi u. — Biz hozir qalmoqlarga teng kela olmaymiz. Agarda ularning aytganini qilmasak, sho'rimizga sho'rva to'kiladi. Hozirgidan ham yomon xor bo'lamiz. Shu tufayli, biz ularning jahliga tegmay, aytganlariga ko'naylik. Nima so'rasa beraylik! Jonimiz omon qolsa bo'ldi!

— Jaqipning aytganlarini uqqan Oqbolta qayg'uli bosh chayqadi. Buni ko'rgan Boy unga murojaat qildi:

— I-i, inim! — dedi u. — Nega bosh chayqayapsan? Yo Jaqipning so'zlari senga yoqmadimi?

Oqbolta takroran Jaqipga bir qarab, Boyga ranjiganday javob berdi:

— Ha, ha! — dedi u. — Menga Jaqipning gaplari mutlaqo yoqqani yo'q.

— Nega?

— Men qalmoqlarga turish bera olmay, ona zamnimni ularga oldirib yubordim. Talasdagi qondoshlarim bilan biriksam, dushmanlardan o'chimni olaman. Bo'o'do' bo'lsa, xor bo'lmasdan, ular bilan birga dushmanlar bilan chopishib, nomusim bilan on maydonda o'laman deb, bir hovuch elim bilan sizlarni orqa qilib kelgan edim. Jaqip bo'lsa dushmanga taslim bo'lib beraylik deyapti. Menga qanday qilib shunday so'zlar yoqishi mumkin?! — dedi xafa bo'lib Oqbolta.

O'zi bergan savol bo'yicha inilarining o'yi ikki xil chiqqanini ko'rgan Boy noilojlikdan og'ir xo'rsindi.

— Sizga nima bo'ldi, amaki? — tinchsizlanib so'radi undan Uluqqan. — Biron yeringiz og'riyatimi?

— Ha, inim! — diqqat bo'lgancha javob berdi Boy. — Yuragim og'riyapti. El-u yurtimning bo'linganidan, dushmanga xor

bo'lganini ko'rib, dunyo ko'zimga qorong'u ko'rinyapti. Qo'limdan kelsa, bizni bosib olgan yovning birontasini qoldirmay, o'z qo'lim bilan bo'g'izlar edim. Biroq bunday qilishga bizda hol qayda, inilarim?!

— Unda nima qil deysiz, amaki? — xijolatomuz so'radi Oqbolta. — Dushmanga qo'l ko'tarib, qo'ydek yuvosh bo'lib, bo'ysunib beraylikmi?!

— Bundan boshqa iloj yo'q, inim. Achchiqqa, jaholatga oldirmay, aqlni peshlaylik. Sabrning tagi sariq oltin. Sabr qilib, arqonni uzun tashlaylik. Hozircha biz holsizmiz. El boshqarar boshchimiz yo'q, egalik qilarga yerimiz yo'q. Shu tufayli hadeganda sochilgan elimizni to'playlik. Kuchimizni to'plab, avvalgi quvvatimizga kelaylik. Keyin dushmanlarga zarba urib, el-yurtimizni bo'shatib, ularni quvib chiqaraylik. Unga qadar qo'rqoq yetim bo'laylik. O'shanda dushman bizni haqiqatan bo'ysunibdi deb, ko'ngli tinchib, bizga aldanadi. Bunga nima deysizlar, inilarim?! — deb so'zini savol bilan tugatdi Boy.

Qiziq muhokamadan keyin barchasi uning so'zini ep ko'rdi. Dushmanga sir oldirmasdan, pinhona kuch yig'ishga qaror qabul qilindi.

* * *

Biroq bu tilaklar tosh qotdi. Sababi Aloke qirg'izlar jo'n yotmasligini tushunib, oldini olib ularning orasiga ayg'oqchi qo'ygan edi. Bu ayg'oqchi qirg'izlar qabul qilgan qaror haqida Alokega xabar yetkazdi.

Qirg'izlarning qalmoqlarga birato'la taslim bo'lmasligi to'g'risidagi qaroridan jahli chiqqan Aloke o'z lashkarlarini olib qirg'iz ovullariga butunlay chopa boshladi. Qalmoqlar ularga qarshilik ko'rsatganlarni ham, ulardan qochganlarni ham, o'ldirib borishardi. O'ljaga yosh bolalarni, suluv qiz-kelinlarni olishdi. Bunga shukur qilmay, Aloke qirg'izlarni birato'la yo'q qilish uchun yayloviga qirg'izning jami chorvasini haydab ketdi.

Qalmoqlarning bunday zo'ravonligidan, hayvonday qonxo'rligidan xo'rligi kelgan qirg'izlar qasdlashgan dushmanlari bilan el-yurti uchun bir qoshiq qoni qolguncha kurashishga bel

bog‘lashdi. Ko‘p o‘tmay, bunday qadamni amalga oshirish uchun qulay vaziyat ham yaraldi. Sababi Aloke qirg‘izdan olgan o‘ljasini yuz to‘qson tuyaga yuklatib, sakson polvonini qo‘shlatib, uzun karvonni Chinga, Esonxonga sovg‘aga jo‘natgan edi.

— Buni eshitgan Oqbolta bilan Jaqip amakisi Boyning chodiriga kelishdi.

— Amaki! — g‘azablanib gapirdi Oqbolta. — Qalmoqlar ota-bobomiz to‘plagan xazinaning barini Esonxonga tuhfa tarzida jo‘natyapti ekan!

— Qo‘ysang-chi?! — o‘rnidan irg‘ib tushdi Boy. — Shuncha oltin, kumush, yoqut, gavhar toshning barchasini Aloke Esonxonga berarkanmi?

— Endi nima qilamiz, amaki? — tund so‘radi Oqbolta. — Dushmanning qahridan qo‘rqib, ota-bobomizning boyligini oldirib, indamasdan o‘tiraveramizmi?!

— Ha, ha! — bosh silkitdi Jaqip.

Bul so‘zlarni uqqan Boy o‘rnidan turib, achiig‘iga chidamay nari-beri yurdi.

— Yo‘q! — keskin javob berdi Boy. — Qo‘rqoqlikning ham evi bor. Agarda biz hozir qo‘rqoqlik qilib, ota-bobolarning xazinasini qalmoqlarga oldirib yuborsak, o‘zimizni abadiy sharmanda qilgan bo‘lamiz. Bunday suv yurakligimizni urpoqlarimiz hech qachon kechirmaydi. Shu boisdan biz qalmoqlarga hujum qilib, xazinani tortib olishimiz kerak. Sizlar bunga rozimisizlar? — deb Boy ikki inisiga savol bilan termildi.

— Men roziman! — hozirlik bilan javob berdi Oqbolta.

— Men bo‘lsa rozi emasman! — deb un chiqardi Jaqip.

— Nima uchun? — lol qoldi Oqbolta. — Sen nima, qalmoqlardan qo‘rqasanmi? Ular sening yuragingni tushurib qo‘ydimi?

— Men hech kimdan qo‘rqqanim yo‘q! — deb shosha-pisha javob berdi Jaqip.

— U holda sen nima uchun bizning taklifga qarshi bo‘lyapsan? — jini keldi Oqboltaning.

— Men bunga ikki asos bo‘yicha qarshiman. Birinchidan, biz hozir xazinani qaytarib olsak, ertasigayoq qalmoqlar katta lashkar bilan kelib, biz olgandan o‘n, yuz hissa qilib ziyonini qayta-

rib oladi. Ikkinchidan, buning oqibatida yuzlab, minglab begunoh qirg'izlar shahid ketishadi.

— Unda nima, biz qo'l qovushtirib, indamasdan o'tiraveraylikmi? — ijirg'anib so'radi Oqbolta.

— Bilmayman! — og'ir xo'rsindi Jaqip. — Men o'z fikrimnigina aytdim, xolos.

Oqbolta Jaqipga bir lahza nafratlanib qaradi. Keyin u qaytadan Boyga burildi.

— Siz bunga nima deysiz, amaki? — hayron bo'lib so'radi Oqbolta. — Siz ham xazinaga tegmasdan, jimgina turaylik demoqchimisiz?

— Yo'q!

— Unda bizning qirg'izlar bekorga qizil qirg'inga qolsinmi, amaki? — tinchsizlanib so'radi undan Jaqip.

— Sening bu jo'yali o'ying ham to'g'ri, inim! — horigan kuyi javob berdi Boy. — Bizning hujumimizdan jahli chiqqan qalmoqlar xazinaning o'chini jami qirg'izlardan olishi shubhasiz. Necha-necha mard azamatlarimiz o'lib, qiz-kelinlarimiz o'ljaga ketishi ham turgan gap!

— Amaki! Bunday vaziyatda xazinaga chopar qo'yganimiz ham to'g'ri bo'lmaydimi? — Umid bilan qaradi Boyga Jaqip.

— Yo'q, inim, to'g'ri emas! — rozi bo'lmadi u bilan Boy. — Hozir qo'rqoqlik qiladigan vaziyat emas. To'g'ri, hujumimiz ortidan ko'p qurbonliklar bo'ladi. Balkim, biz ham qalmoqlarning qo'lidan ajal toparmiz. Biroq shunday qo'rqinchga qaramay, biz o'z nomusimizni, obro'yimizni saqlashimiz kerak. Qirg'izni qirg'iz qilgan, uni boshqa ellardan ajratib turgan eng asosiy fe'li qaysi? Bu — nomus! Nomus uchun qirg'iz o'limdan ham, o'tdan ham, cho'g'dan ham ortga qaytmaydi. Yigitlik obro'sini saqlash uchun haqiqiy qirg'iz jonidan kechishga ham rozi bo'ladi!

— Aytgan so'zlaringizga shubha yo'q, amaki! — qo'lladi Boyni Oqbolta.

— Barchamiz bir kun bo'lmasa, bir kun ajalning ta'mini totamiz! — deya so'zini o'ychan davom ettirdi Boy. — Hech kim bu dunyoga ustun bo'lmaydi. Barimiz o'lamiz. Shu boisdan men o'limdan qo'rqqanim yo'q. Mening qo'rqqanim, Yaratgandan

yolg'iz tilaganim — bizning qurbonliklar bejiz ketmasin! Agarda biz shahid ketsak, bu elimizga qirg'izning nomusini himoya qila oladigan, uning o'chini olib bera oladigan mard azamatlarni bersin! Bunday azamatlar bizning ko'z yoshimiz, to'kilgan qonimiz uchun dushmanlardan o'ch olsa, men Yaratgandan ikki dunyo rozi bo'lar edim!

— Biz ham shunday o'ydamiz! — hayajonlanib gapirdi Oqbolta.

— Unday bo'lsa, yigitlar, bardam-baquvvat oltmish yigitni tayyorlanglar! — deb hukm chiqardi Boy. — Ular bilan tong otar chog'da qalmoqlarga hujum qilib, elimizning xazinasini qaytarib olaylik!

O'sha kuniyoq Oqbolta bilan Jaqip oltmish yigitni tayyorlab, ertasi tong mahal karvonga qo'l solishdi. Qisqa, qarama-qarshi olishuvdan so'ng qirg'izlar elining boyligini dushmandan tortib olishdi. Ortga qaytib kelishib, xazinaning barini elga tutunma-tutun yurib qaytarib berishdi.

* * *

Qirg'izlarning bunday mardonavor hujumi javobsiz qolgani yo'q. Qalmoqlarning karvonini qo'riqlagan sakson polvonning biri qirg'izlardan eson-omon qutulib, qochib ketishga ulgurdi. U Alokega borib, bo'lgan voqeani aytib berdi.

— Xonim! — dedi u. — Bizning karvonga qaroqchi burut*lar qo'l solishdi. Barcha soqchilarni so'yib, Esonxonga atalgan mulkning barini to'nab ketishdi.

— Burutlar deysanmi? — hayron qoldi Aloke.

— Ha, xonim!

— Ularning qanday qilib karvonga qo'l solishga yuragi dov bersin? — hamon ishonmas edi bu so'zlarga Aloke. — Men ularning botirlarining barchasini o'ldirib, tosh-tolqonini chiqarib tashlamaganmidim? Balkim, sen adashayotgandirsan? Balkim, karvonga boshqa birovlar qo'l solgan bo'lmasin?

— Yo'q, xonim! — aytganidan qaytmadi uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri polvon. — Men adashganim yo'q. Men qaroqchi burutlarni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ularning qirg'iz tilida gaplashayotganini o'z qulog'im bilan eshitdim!

Bu gaplarga ishonish-ishonmasligini bilmay, boshi hang-mang bo'lgan Aloke xabar berib, barcha jaysan*larini chaqirtirdi. Barcha ilmli sehrgarlarini to'plab, fol ochtirdi. Kurak tutqizib ta'bir kitobini o'qitdi. Oxirida Irangquduq ularning hukmini e'lon qildi:

— Xonim! — dedi u. — Sening polvoning haqiqatni aytibdi. Xazinaga chindan ham burutlar hamla qilibdi. Bo'lganda ham O'razlining yigitlari olibdi!

Buni eshitganida Alokening a'zoyi badani titradi. O'zi yengdim, yakson qildim degan dushmanlarining bunday hunar ko'rsatgani Alokening jonini chiqarib, suyagigacha borib yetdi.

— Ahmoqlar! — hayqirdi u. Qaysi holi bilan ular men bilan chopishib yurishibdi?! Men endi ularning ta'zrini berib, qon qustiraman!!!

— To'g'ri aytasan, xonim! — qo'lladi uning so'zini Irangquduq. — Bo'ri bolasi it bo'lmaydi! Men senga o'tgan safaroq bularning birato'la yaksonini chiqarib, ikkinchi bor bosh ko'tarolmaydigan qil desam, rozi bo'lmay qo'ygan eding!

Alokening bu so'zlardan yanada battar achchig'i keldi. Qonxo'rligi tutib, qahrli buyruq berdi:

— Men burutlarni ayab, o'tgan safar qattiq yanglishibman! — dedi u. — Men bularni odam desam, bular yaxshilikni bilmagan hayvon ekan-ku! Endi o'zi qirqishgan qirg'izlar mendan xafa bo'lishmasin. Ularning barchasining naslini quritib, birontasini qo'ymay chopamiz. Hech kimni ayamasdan, yosh-u qari demay, qirg'izning barchasini yo'q qilamiz!

Alokening buyrug'ini bajarib, zamin to'la lashkar qirg'izlarga qo'l soldi. Qalmoqlar, jarlik-balandlik qoldirmay hammayoqni tintib, yo'lliqqan qirg'izlarning birontasini qoldirmay o'ldira boshlashdi. Qarshilik ko'rsatganlar ham, taslim bo'lib berganlar ham yorug' dunyo bilan vidolashishdi. Ularning mol-mulki to'lig'i bilan dushmanlarga o'lja bo'ldi. Qirg'iz yeriga qora tun tushdi, kulfat oraladi. Beshafqat, berahm dushmanning qo'lidan hech kim qochib qutulolmadi.

Buni eshitib, ko'rgan qirg'izlarning rangi o'chdi. Dushmanmning bunday odamxo'rligini qanday to'xtatishni bilmay, barchasining boshi xam bo'ldi.

— Yo tavba! — tong qolib so'yladi Oqbolta, O'razlining farzandlari qaytadan Jaqipning bo'z uyida majlisga to'planganda. — Tubi o'zimizga tug'ishgan bo'lgan qalmoqlar shunchalar ham yirtqich bo'ladimi?! Qari demay, yosh demay, erkakmi, ayolmi — hech kimni ayamay, qolmig'ing qirg'izning barini tekis qirib kelayotir!

— Sizlar nima deb o'ylagan edinglar?! — tund so'yladi Jaqip. — Biz ularning karvoniga tekkan bo'lsak, ular bizga indamasdan, jo'ngina qolarmidi? Yoki bu yo'rig'imiz uchun bizga rahmat aytib, boshimizdan silaydi deb o'ylaganmidinglar?

— Yo'q! — deb javob berdi unga Oqbolta. — Biroq boylik uchun, bo'lganda ham o'zimizning bobolar to'plagan xazinani qayta tortib olganimiz uchun shunchalik zulmga borishning nima keragi bor?!

— Men sizlarga boshidayoq qalmoqlarga tegmaylik, achchig'ini keltirmaylik, baloga qolib, o'zimiz yana keyin armonda qolmaylik deb eslatgan edim-ku?! — qayg'uli gapirdi Jaqip. — Mana, bari men aytganday bo'ldi!

O'razlining qolgan farzandlari, Oqbolta bu so'zlarga nima deb javob berishini bilmay, dushmanga qarshi chora izlab topa olmay, bo'shashib o'tirib qoldi. O'shanda Boy o'rnidan turib, inilariga tund qaradi.

— Inilarim! — dedi u. — Bo'lar ish bo'ldi. Hozir bunga kim aybdor, kim oq, kim ko'k ekani haqida bahslashib, bir-birimizga ayb qo'yganimizdan hech qanday naf chiqmaydi. Bizning oxirgi maqsadimiz mutlaqo boshqa. Bu — qalmoqlarning qirg'inini to'xtatish! Agarda biz hozir ularni to'xtatmasak, oshib ketsa bir-ikki oy ichida ular qirg'izning tubiga yetadi!

— To'g'ri aytasiz, amaki! — ma'qulladi Jaqip. — Qalmoqlarni so'zsiz to'xtatish kerak. Biroq qanday qilib?!

Bir lahzaga bo'z uyning ichida sukunat hukm surdi. Inilarim nima der ekan, deganday, Boy ularga umid bilan qaradi. Hech kim so'z aytmaganidan keyin u qaytadan o'zi gapirdi.

— Qalmoqlarning qirg'izlarning barini qiradigan niyati oydek ayon bo'ldi, — dedi u. — Shu sababdan ularni to'xtatish uchun men Alokening oldiga boraman.

— Nima? — tepa sochi tikka bo'ldi Oqboltaning. — Siz Alokega o'zingiz borasizmi, amaki?

— Ha!

— Biroq ular sizning so'zingizni uqish u yoqda tursin, darrov sizning teringizni toshga yoyishadi! Hozir O'razlining o'rniga qirg'izlarni siz boshqarib, xazinaga hujumni ham uyushtirganingizni ular bilmaydi deb o'ylaysizmi? — savol bilan qaradi Boyga Oqbolta.

— Menimcha, bilishsa kerak! — apil-tapil javob berdi Boy.

— Unda siz qalmoqlarga nima uchun boraman deyapsiz? Bunday harakatingizdan hech qanday foyda yo'q. Siz bekorga qurbon bo'lasiz. Qalmoqlarning hujumini to'xtatib, qirg'izlarni ham o'limdan saqlab qola olmaysiz, amaki!

— Mayli, bormasam bormay. Biroq unda biz qalmoqlarni qanday to'xtatamiz? — savol berdi Boy Oqboltaga.

Haligi bir soniya indamay turib, keyin dudalanib javob berdi:

— Alokening oldiga men boraman!

— Senmi?! — jilmayib so'radi Boy.

— Ha, men! — dedi Oqbolta.

— Agarda sen borsang, ular seni sog' qo'yadi deb o'ylaysanmi? Qirg'izlarning oxirgi boshchisi sen ekaningni qalmoqlarning ayg'oqchilari bilsa kerak?

— Ha, bilsa kerak.

— Shularning barchasini tushunib turib, sen qaysi aqling bilan qalmoqlarga boraman deyapsan?!

— Ha, boraman! — qat'iy javob berdi Oqbolta. — To'g'ri, men hozir qirg'izlarning yo'lboshchilarining biriman. Biroq, sizdek bo'lib, asosiy yo'lning boshchisi emasman. Shu boisdan qalmoqlarga siz bormay, men borganim to'g'ri. Sababi ularning qo'lidan omon qolishga menda sizga qaraganda ko'proq mumkinchilik bor!

— Boy inisining so'zlariga qo'shilganday unga qaradi:

— Shunday qat'iy so'zlaring, g'ayrating uchun rahmat, inim! — dedi u. — Sendek yigitlar bor ekan, qirg'izimni hech kim, hech qachon yenga olmaydi, naslini qurita olmaydi!

— Demak, Alokega men boramanmi? — suyunib ketdi Oqbolta.

— Yo'q! Sen hech qayoqqa bormaysan. Alokega men boraman!

— Nimaga?!

— Inim! — dedi Boy. — Birinchidan, men sizlarning barchangizdan kattaman. Ozmi-ko'pmi, yashadim. Ichganimni ichdim, yeganimni yedim. O'lsam ham u qadar armonda ketmayman. Sizlar bo'lsangiz, hali o'n gulidan bir guli ochilmagan o'spirin bolalarsiz. Kelajaginglar hali oldinda.

Ikkinchidan, o'zing aytganday, men hozir qirg'izlarning boshchisiman. Xazinaga hujum qilish to'g'risidagi oxirgi qarorni men qabul qilganman. Shu tufayli uning bunday qayg'uli natijalari uchun asosiy m'suliyatni his etib, Alokega borish — mening majburiyatim!

— Amaki! — so'zini boshladi Oqbolta.

Biroq Boy uni gapirtirmadi:

— Bo'ldi, so'z tamom! — qat'iy so'zladi u. Alokega men boraman. Bu — eng to'g'ri, xolis qaror. Ustiga-ustak, buning yana bir jiddiy sababi bor.

— Qanday sabab? — ko'ngli cho'kib so'radi Oqbolta.

— Unutmanglar. Alokega borishimizdan asosiy maqsad — uning qo'lidan ajal topish emas, qirg'izlarning jonini omon olib qolish. Agarda unga sen boradigan bo'lsang, Oqbolta, sen yoshlik qilib, unga qattiq gapirib qo'yishing mumkin. U holda u izza bo'lib, seni mahv etib qo'yishi turgan gap. Men bo'lsa bunday qo'rslikka bormayman. Balkim, men bu shumshuk bilan umumiy til topishib, elimni og'ir kundan qutqarishga chora toparman?!

Inilari qanchalik yalinib-yolvorsa ham Boy so'zidan qaytmadi:

— Yo'q, inilarim! Men qurbon bo'lsam, bo'layin. Biroq el-u yurtni kulfatdan saqlashga men majburman. Qalmoqlar elimni qirib, tubiga yetguncha, ularga jonim sadqa!

Shundan so'ng yoniga ikki yigitni olib, Boy Alokening oldiga bordi. Qirg'izlarning kelganini uqqan Aloke chalqanchasiga tushay dedi.

— Hoy, sen chindan aytyapsanmi?! — tong qolib so'radi u ushbu xabarni aytib kirgan soqchisiga. — Ular chindan ham qirg'izlar ekanmi?

— Ha, xonim! — yukinib javob berdi soqchi. — Ulardan biri o'zini Boyman deb tanishtirdi.

— Qirg'izlarning boshchisi, landavur Boy o'zi kelganga o'xshaydi bizga! — deb o'zicha hayron qoldi Alokening yonidagi Irangquduq. — Qarang buning botirlashganini! Qilar ishni qilib qo'yib, endi hech narsa bo'lmaganday kelganini buning! Naq devning o'zi ekan, bu shumshuk!

— U devmi, chiyami — hozir ko'ramiz! — jahli chiqib gapirdi Aloke. — Kiritinglar qirg'izlarni huzurimga!

Soqchilar birozdan keyin uyga Alokening oldiga Boyni olib kirishdi. Boy Alokega egilib salom berdi. Aloke bo'lsa unga sustgina boshini silkib qo'ydi. Uning g'azablangan ro'yidan Boy o'zining yomon taxminlari o'rinli ekaligini tushundi.

"Ahvolim chatoqqa o'xshaydi?! — ko'nglidan o'tkazdi Boy. — Alokening rangi oqarganini qaramaysanmi?! Naq meni yeb yuborguday qaraydi! Bu yerdan men tirik chiqamanmi yoki o'ligim chiqadimi — bir Alloh taologina biladi. Nima bo'lganda ham bir boshga — bir o'lim! Yotib o'lguncha, otib o'l! So'nggi damim qolguncha maqsadimni amalga oshirib, elim uchun kurashay!".

Jonidan birato'la umidini uzgan Boy o'zida qandaydir bir o'zgacha o'zgarishni payqadi. Bu yerga kelgunga qadar u biroz bo'lsa ham jonidan qo'rqib kelgan bo'lsa, hozir o'zi haqida mutlaqo o'ylamay qo'ydi. O'zi tirik qoladimi yoki yo'qmi — unga baribir bo'lib qoldi.Uning bor niyati, bor kuchi el-yurtini saqlashgagina yo'naltirilgan edi.

"Tuzoqqa tushgan yirtqichlar qutulmoqqa chora qolmaganida, umrini tavakkalga solib, ortidan quvib kelgan ovchilarga hayiqmay raxna solishadi. Oxirgi imkoniyatidan foydalanishga harakat qilishadi! Men ham o'shanday chekka yetdim, chamasi! — deb beixtiyor o'yladi Boy. — Yirtqichlarning tap tortmasligi degani shunday bo'ladi, shekilli!".

Umrini tavakkalga solgan Boy Alokega qo'rqmasdan murojaat qildi:

— Botir! — dedi u. — Men qirg'izlarning boshchisi Boyman!

— Men buni uqdim! — boshini silkidi Aloke. — Sen hozir O'razlining o'rniga qirg'izlarni boshqaryapsan. Xo'sh. Mening yonimga qanday maqsad bilan kelding.

— Xonim! Sening askarlaring qirg'izlarni yosh-qari demay barini qiryapti. Men sendan bu qirg'inni to'xtatishni so'rayman! — deb javob berdi Boy.

— Bu qirg'inning sababi nimada ekanligini sen bilasanmi? — shumshayib so'radi Aloke.

— Yo'q! Bilmayman!

— Bilmas emish, ahmoq! — o'rnidan sakrab turdi Aloke. — Men Esonxonga tuhfaga yuborgan xazinani sening qirg'izlaring to'nadimi yoki boshqalarmi?

— Ha! — dudalanib javob berdi Boy. — Xazinani qirg'izlar to'nadi. Sababi u qirg'izlarning ota-bobosidan beri to'planib kelayotgan boylik edi. Shu sababli xazinani qaytarib olish uchun tegishli buyruq berilgan edi.

— Sen bilmaysanmi, Boy, — ularga bunday buyruqni kim berdi? — qitmirona so'radi Aloke.

— Bu buyruqni yigitlarga men berdim! — tap tortmasdan javob berdi Boy.

— Barakalla, qirg'izim! — nafratlanib dedi Aloke. — Chin so'zni aytding. Men bo'lsam rost gapirganlarni nihoyatda yaxshi ko'raman, hurmat qilaman. Shu tufayli men jallodlarimga aytib, seni qiynamaygina o'ldirtiraman! Narigi dunyoga, xazinani to'plagan ota-bobolaring yoniga tezdagina borasan!

Bu sovuq so'zlarni eshitgan Boyning yuragi qalqib tushdi. Biroq bunday javobga oldindanoq tayyorlanib kelganligidan, u o'zini o'zi qo'lga oldi.

— Botir! — tavoze bilan so'zladi u. — Xonlik narxing chin bo'lsa, egaligingga yer turadi! Tobe qilib, ushlab turaman desang, oldingda qalin qirg'iz eli turadi! Sen to'g'ri aytasan. Sening oltin karvoningni biz to'nadik. Bunday buyruqni qirg'izlarga men berdim. Sen buning uchun o'ch olish maqsadida askarlaringga buyruq berding. Ular biz qaytarib olgan xazinadan o'n, yuz hissa o'ljani to'nab ketishdi. Endi xonim, bu qizil qirg'inni to'xtat! Begunoh elimni qirmagin. Xazina uchun yana jazolayman desang, meni jazolagin! Sababi bariga men aybdorman. Men javobgarman. Mana, buning uchun boshimni ol! Biroq elimga qo'l tekkizma. Elimga jon sovg'a, botir!

Aloke o'rnidan qo'zg'alib, bir narsa demoqchi bo'ldi. Biroq keyin niyatidan qaytib, yonidagi Irangquduqqa murojaat qildi.

— Sen nima deysan, rohibim? — deb so'radi u Irangquduqdan.

— Xonim! — ta'zim qildi Alokega Irangquduq. — Qilgan qilmishi uchun bu landavur qirg'izni ikkiga bo'lib tashlasa ham ozlik qiladi. Biroq, u to'g'ri so'zni aytib turibdi. Buni bo'yinga olish kerak. Biz talangan karvondan o'nlab, yuzlab ko'proq o'ljani qirg'izlardan tortib oldik. Shu sababdan endi qirg'inni to'xtatsa bo'ladi, deb o'ylayman!

— Nima? — achchiqlanib qaradi unga Aloke. — Men dushmanlarimni to'liq bo'ydan yo'q qilmasdan, ularni ayaymi?

— Ha, xonim!

— Sen bundan bir necha kun avvalroq burutlarni tag-tomiri bilan yo'q qilish kerak demaganmiding? — yeb yuborgudek bo'lib tashlandi Irangquduqqa Aloke. — Nega bu o'yingdan qaytding, rohib?

— Xonim! Men bu so'zlarni achchiq ustida aytgan edim. Biroq hozir ulardan qaytdim.

— Nima uchun?

— Biz qirg'izlardan o'chimizni to'lig'i bilan olib, o'ljaga ega bo'ldik. Hovliqqan qirg'iz botirlarining ham tubiga yetdik. Qirg'izda faqatgina kampir-chollar, qiz-kelinlargina qoldi. Ular bizga hech qanday qo'rqinch tug'dira olmaydi. Biroq senga, xonim, kul chiqargani, mol boqqani qul, kun kerak! Soliq to'laydigan tobe el kerak. Shu sababdan, yana qaytalayman — qirg'inni to'xtatgin! — deb so'randi Irangquduq.

Aloke bir lahza o'yga cho'mdi.

— Aytgan so'zlaringda shubha yo'q, rohib! — dedi u o'ylanib bitganidan keyin. — Men ularga eridim. Men hoziroq tegishli buyruq berib, qaroqchiligimizni to'xtataman!

"Xudoga shukur!" — ichida quvonib ketdi Boy. — Urush to'xtasin. Oradan bir-ikki yil o'tgandan keyin biz o'zimizga kelamiz. O'shanda bu yalmog'izlar bilan qayta chopishamiz! O'zimizning yerimizni qaytarib olib, ozodlikka chiqamiz!".

Boyning bu o'ylarini uqqan kabi, Aloke miyig'ida jilmaydi:

— Bari sen o'ylaganday bo'lmaydi, qirg'izboyim! — dedi u Boyga. — Men endi sizlarni jo'n qo'ymayman. Bir safar sizlarni ayagan edim. Endi bunday qilmayman. Sizlarning uyuringlarni sochib, to'rt tarafga tarqatmasam, sizlar menga tinchlik bermaysizlar. O'zinglarga kelib olganda, qayta menga osilasizlar. Shu tufayli men qirg'izlarning barini Olatog'dek xosiyatli yerdan haydayman. Olatog'ni qirg'izga emas, jon do'stimga tortiq qilaman!

Alokening so'zi so'z bo'ldi. O'razlining o'n o'g'li o'n tarafga quvildi. Aloke Tekechi bilan Shig'ayni eli bilan Afg'ondan nariga oshirib, Erenga quvidi. Jamg'irchining yurti bilan Andijondan nari Samarqandning cho'liga haydadi. Uso'n bilan Qizilbekni Qang'aydan nari oshira, naq Chinning shimoliga quvidi. O'razlining inisi Boyni Qashg'arga quvidi. Qirq urug'li qirg'iz shunday qilib qirq bo'lindi bo'lib, tug'ilib o'sgan yeridan ayrildi.

* * *

Qirg'izlarni haydayotganda Aloke ayniqsa Jaqipga hamda Oqboltaga o'chakishdi. Ularni hech bir yerga qo'ndirmasdan, kuntun tinimsiz haydashni askarlariga buyurdi.

— Qirg'izlarni Olatog'dan ikki kun olislamaguncha hech bir yerga qo'ndirmangizlar! — dedi u soqchilarining boshliqlariga. — Oqin suvga yaqinlashtirmangizlar! Qaqragan soy bo'ylab, jazirama cho'l bilan beto'xtov haydanglar! Qo'llarini ortga bog'lab, jonini tindirmangizlar!

Irangquduq bu so'zlarga nihoyatda hayron qoldi.

— Xonim? — savol bilan tikildi u Alokega. — Jaqipga siz nima uchun bunchalik shafqatsiz muomala qilyapsiz? Boshqalarni bunday qilmagan edingiz-ku?

— Men Jaqipning yuragining xushini olayin deyapman! — javob berdi Aloke.

— Nima uchun, xonim?

— U O'razlining eng katta bolasi. Qirg'izda bo'lsa bunday bola otasining o'rnini bosadi, uning faoliyatini davom ettiradi. Jaqip hozir yosh. Biroq, balog'atga yetganda qirg'izni boshqarib qolishi mumkin. Men shunga qadar uning ta'zirini berib, yuragini tushurib, bizga qarshi mutlaqo qarshilik ko'rsatmaydigan qilib tarbiyalab qo'yishim kerak!

— Ha-a! — jilmaydi Irangquduq. — Masqadingizni tushundim, xonim. "Bo'zakligida suzdirgan xo'kizligida ham qo'rqadi!" — deydi qirg'izda. Hozir suzdirib olgandan keyin Jaqip bizga ho'kiz bo'lganida qo'l ko'tara olmasin deyayotgan ekansiz-da, botir?

— Xuddi shunday bo'layotir!

Sizdek aqlli, donishmand, oldindan ko'ra bilgan xoni bo'lgan qalmoq elingiz Xudolariga ham cheksiz minnatdorchilik bildirsa bo'lar ekan! Ming yil yashangiz, xonim! — deb xushomad qildi Alokega Irangquduq.

Shundan so'ng xonning buyrug'ini bajargani tayyorgarliklar boshlandi. Qirq xonadonli qirg'izning yuki olti ho'kiz, to'rt xachirga yuklatildi. Yo'lda borayotib sutini ichishga uchta sigir, olti echki bo'lindi. Qirg'izlarning barchasining qo'llari ortiga mahkam bog'landi.

Safarga otlanishga hamma narsa tayyor bo'lganda, Aloke soqchilarning boshlig'iga yana bir karra qattiq tayinladi:

— Qirg'izlarga yumshoq muomala bo'lmasin! — achchig'i kelib dedi u uzun bo'yli, ho'kizday Oltoygan boshchiga. — Ularni kun-u-tun haydangizlar. Qayerga borayotganini aytmanglar. Ular bilan gaplashmanglar. Qochishga harakat qilganlarni, qarshilik ko'rsatganlarni hech bir o'ylanmasdan o'ldirib yuboringlar! Kim mening ushbu buyrug'imni buzsa, beayov jazolanadi! — deya takroran eslatdi u.

Bu buyruqni ado etib, soqchilar qirg'izlarni ikki kun to'xtatmay haydashdi. Olatog'i ko'rinmay qolgandagina ularning qo'llari yechildi.

Ularni qayerga olib borayotganliklarini bila olmay ruhan tushgan qirg'izlar bu haqda so'rab bilish uchun qalmoqlarga Jaqipni jo'natishdi.

Adirning changidan bo'zarib ketgan Jaqip soqchilar boshchisining yoniga keldi.

— Bizni qayerga olib boryapsizlar? — charchagancha so'radi u boshchidan. — Yana qancha kun yuramiz?

— Vaqt-soati kelganida hammasini bilasizlar! — sust javob berdi savolga boshchi. — Bizga sizlar bilan gaplashish taqiqlan-

gan. Shu boisdan bizga hech qanday savol bermangizlar. Baribir hech qanday o'ng javob ololmaysizlar!

Buni uqqan Oqbolta o'kinchli bosh chayqadi.

— Qalmoqlar bizni el-yurtimizdan haydagani, mana bunday qiynagani kamlik qilganday, endi bizning ichimizni ham pishiraylik do'yishgan, chog'i?! — dedi Jaqipga.

— Ha! — tund javob berdi Jaqip Oqboltaga. — Ular bizni noma'lumlikdan dimiqib, parishonxotir bo'lsin deyishyapti.

— Xuddi shunday bo'layotir ahvol! — Jaqipning so'ziga qo'shilib boshini silkidi Oqbolta. — Biz qayerga borayamiz, qanday elga yuz kelamiz, qanday kunga duch kelamiz — buni Alloh taolodan bo'lak hech kim bilmaydi, chamasi!

Nima bo'lganda ham yaxshilikdan umid uzmaylik, amaki! — Oqboltani tinchlantirib dedi Jaqip. — Yaxshi niyat — yarim davlat. Balkim yangi yerda baxtimiz ochilib, avvalgidan ham kuchquvvatli ahvolga yetib qolarmiz!

— Aytganing kelsin, o'g'lim! — umidvor gapirdi Oqbolta. — Ungacha hammamiz kulfatdan omon bo'laylik!

Baxtga qarshi, bari ular o'ylaganday bo'lgani yo'q. Keng dala, jazirama cho'lning issig'idan olti echkidan sut chiqmay, ular qurg'oq shuvoqni chaynab qolishdi. Qirg'izlar noilojlikdan ularni so'yib yeyishdi. Uch sog'in sigir oqsim kasalidan o'lib, ularni ham so'yib tashlashdi. Mollarning ortidan to'rt xachir nobud bo'ldi.

Bular yetmaganday, olis yo'lning azobidan qari-qartanglar o'la boshlashdi. Ochlikni ko'tara olmay, qirg'izlarning bolalaridan yorug' olam bilan vidolashganlari ham ko'paydi.

Bahorda yo'lga chiqqan qirg'izlarning soni kundan kunga ozayib borar edi. Ularning Olatog'dan haydalganiga olti oy bo'lib, kuz ham keldi. Bu vaqt mobaynida surgun qilingan el Echkio'lmasdan o'tdi. Qo'rdo'y, Mangqan, Ilanin boshi Uchorolni oshdi. Ho'kizoshuv, Toyoshuv, Kichi-Jildiz, Cho'ng-Jildizni bosdi. Safariga olti oy bo'lganda Oltoyning Aq-Talaa degan yeriga yetishdi qirg'izlar.

Soqchilar kechgacha tinimsiz yayov yurib charchagan qirg'izlarga to'xtashga buyruq berib, o'zlari ham dam olishga tayyorlana boshlashdi.

— Biz qaysi yerga keldik? — deb so'radi Jaqip soqchilarning boshchisidan.

— Aq-Talaaga! — javob berdi boshchi.

— Endi qayoqqa boramiz?

— Bo'ldi. Boshqa yerga bormaysizlar. Sizlarning yangi makoninglar Aq-Talaa bo'ladi! — dedi boshchi.

— O'o', Allohga shukur! — quvonib ketdi Jaqip. — Biz chindan ham mo'ljallangan manzilga yetdikmi?

— Ha, — deb jilmaydi odatda tund yurgan boshchi. — Aloke sizlarni shu maskanga yetkazinglar deb buyruq bergan.

— Allohga shukur! — dedi Jaqip. — Qani, birodarlar. Ertaga tong otganda bu yangi makonimizni yaxshilab qarab ko'raylik-chi! Hozir bo'lsa kech kirdi! Ovqatlanib olib, barchanglar dam olinglar!

Barcha uning so'zlariga qo'shilib, ovqatlangandan keyin uyquga ketishdi. Ertasi tong otganda qariyalar, Oqbolta, Jaqip atrofga ko'z yugurtirishdi. Nari-beri bosib, aylanani qidirib chiqishdi. Aq-Talaa adirli, botqoqli, qamishli yer ekan. Uning etagi Oltoy. Oltoyni oshsa, Sayan keladi. Sayandan o'tib Enesay, Mingsuuga yetsa bo'ladi.

Oqbolta soqchilarning boshchisidan kelgan joyi haqida yana qo'shimcha ma'lumot olish uchun unga savol bilan murojaat qildi.

— Biz mana shu yerda qolamizmi?

— Ha!

— Atrofda el bormi?

— Ha!

— Qanday el?

— Qalmoq, jo'rjo'n!

Boshqa savol bermasdan, Oqbolta, Jaqip yangi maskan bilan tanishuvni davom ettirdi. Aq-Talaa bag'ri chalov, etagi supurgi ekan. Yigitlar chuxri, rovoch mo'l o'sganini ko'rishdi.

— Yaxshi bo'lmadimi bularning o'sgani! — suyunib ketdi Oqbolta. — Ularni bolalarimizga vaqtincha sut o'rniga berib turamiz.

— Ha! — dedi Jaqip. — O'zimiz mollik, echkilik bo'lguncha shunday qilib tursak bo'ladi.

Bundan nari bosgandan keyin ular qiyg'os o'sgan shuvoqni ko'rishdi. Botqoq bo'yida bo'lsa qamishlar g'uj o'sib turardi. Buloq suvlari bo'ylab tog' toli, zambi tollar qalin ekan. Yigitlar yo'lda uchragan adirdan o'taverishda qalin o'sgan to'qayni ko'rishdi. Uning ichida qayberenlar, morollar, bug'ular, kiyiklar o'tlab yurishadi.

Undan nari borganda qirg'izlar tirg'o'o't, qalmoq, jo'rjo'nning gavjum moli yovvoyi tarzda yoyilib yurganini ko'rishdi.

— Xudoga shukur! — rozi bo'lib dedi Jaqip. — Eplab o'troqlashib olsak, molga ham, o'zimiga ham yoqimli yerga kelibmiz. Mol boqsang, yaylovi keng ekan. Botqoq bo'yidagi qamishlardan vaqtincha yashab turgani kapa qurib olamiz.

— To'g'ri! — qo'llab dedi uni Oqbolta. — Tollardan bo'lsa uvuq, kerege yasab, bo'z uylarni qurib olamiz. Chorvalik bo'lguncha to'qaydagi bug'u, kiyiklarni otib, go'shtini yeb turamiz. Suvda baliqlar ko'p ekan. Ularni tutīb, ovqat qilamiz.

Kelajagidan umidi uzulay deb qolgan qirg'izlar shunday qilib yangi borgan maskaniga muqimlashib, turmushini davom ettirishdi. Mahalliy ellar bilan kelishib, qirg'izlar ularda sog'uvchi, yilqichi bo'lib yollanib, ishlay boshlashdi. Keyin oltin konin topib, uni qazishdi.

Qora qalmoq, manchju yer haydashni bilmagan el ekan. Shu boisdan qirg'izlar keyingi yili yerning yuzini kovlatib, hovuchlab urug' sochib, oq bug'doy nonini chaynashdi. Oq mehnatining mevasi qaytib, molga, nonga to'q bo'lib qolishdi.

Ularning ichidan Jaqip nihoyatda boyib, to'plagan oltinining o'ziyoq yetti tog' bo'lib, yilqi-moli hisobsiz ko'paydi. Biroq, Jaqip qanchalik boy bo'lgani bilan ko'p yil qayg'urib, bir bolaga zor bo'lib yurdi.

II. Manasning tug'ilishi

Ko'k o'tloq dalani shimol tarafidan baland tog'lar, janub tarafidan tepaliklar o'rab turadi. Osmon nihoyatda musaffo. Falakning ba'zi bir joylaridagina birin-ketin oq bulutlar suzib borishadi. Dalada qo'ylar yeyilib, o'tlab yurishadi. Qo'ylarni chet-chetidan cho'ponlar bilan katta bo'ribosar itlar qo'riqlash bilan ovora.

Dalaning chetida turgan tepalikka olib boruvchi yolg'izoyoq yo'l bilan oq soqolchan Jaqip tayog'iga tayanib chiqib bordi. Uning yuqori qismiga chiqqandan keyin u entikib, manglayidan sharillab oqqan terini choponining etagi bilan artdi. Keyin yerda yotgan ulkan toshning ustiga o'tirib, dalada o'tlab yurgan qo'ylarga o'ychan boqdi.

"Qartayib qolibman! — xafa bo'ldi ichida. — Ilgari bu do'nglikka yugurgan bo'yi chiqar edim. Hozir bo'lsa entikib-hansirab, arang chiqmadimmi!".

Jaqipning tepalikka chiqqanini ko'rgan cho'ponlarning boshchisi qorato'ri, chayir badanli, ingichka jag'li Qubat Jaqipning yoniga otchan chopib keldi. Unga yetganda Qubat otidan sakrab tushib, Jaqipga egilib salom berdi.

— Assalomu alaykum, boy! — dedi u.

— Vaalaykum assalom, Qubat! — alik oldi Jaqip.

Jaqip bilan Qubat qo'l olishib ko'rshishdi. Keyin Qubat choponini yerga to'shadi. Jaqip choponning ustiga o'tirdi. Qubat qaytadan otiga borib, unga ortilgan xurjundan sanoch bilan ikki chinni olib keldi. Jaqipning yoniga kelib, choponga — uning yoniga o'tirdi. Qubat bilan Jaqip indamasdan, asta-sekin chinnidagi qimizdan icha boshlashdi.

Qubat qimizining yarmini ichib, chinnisini choponining ustiga qo'yib, Jaqipga savol bilan murojaat qildi.

— Boy, jo'ngina keldingizmi yoki biron narsa ro'y berdimi? — so'radi u Jaqipdan.

— Hech narsa bo'lgani yo'q, Qubat! — javob berdi Jaqip oxista. — Bor-yo'g'i uyda yotib, zerikib, qo'ylarimdan xabar olgancha biroz sayr qilib kelayin deb bu yerga kela soldim. Qanday, qo'ylar tugal, eson-omonmi?

— Ha, boy, hammasi joyida, qo'ylarning barchasi omon! — dadillik bilan dedi Qubat, yana chinnilarga qimiz quyarkan. — Xudoga shukur, qishdan eson-omon chiqib oldik. Endi qo'ylarni jut oladi deb qo'rqmasak ham bo'ladi.

— Gaping to'g'ri, Qubat! — og'ir xo'rsindi Jaqip. — Qo'yni jut olmaydi, ular aksincha ko'payadi. Birgina men ko'paymayman. Naslim yo'q o'tyapman, tuyoqsiz ketaman bu dunyodan!

Qubat nima deyishini bilmay, Jaqipga ayanchli qaradi.

— Xafa bo'lmangiz, boy! — dalda berdi u Jaqipga. — Xudo bersa, hali farzandlik ham bo'lasiz!

Jaqip qayg'uli boshini chaqadi.

— Eh, Qubat, qaydan deysan?! — xafa bo'lib dedi u. — Mana, bu yil yoshim ellikka chiqdi. Ammo haligacha bolalik bo'lganim yo'q. Otam O'razli xon qazo qilgandan keyin dushmanlarimiz, yer yutgur qalmoqlar bizning elimizga qo'l solib, yerlarimizni tortib olishdi. O'zimizni Olatog'dan shu tarafga — Oltoyga surgun qilishmadimi. Boy og'amlarning qayda ekanligini haligacha bilmayman. Men bo'lsa mana shu yerda o'troqlashib qoldim.

— Tug'ilgan yeringizdan ayrilsangiz ham, bu yerda baxtingiz ochilib, boyibsiz, xo'jayin! — Jaqipning cho'kkan kayfiyatini ko'tarishga harakat qildi Qubat. — Hozir qirg'izlarda sizdan o'tgan boy yo'q.

— Xudoga shukur bu yerga kelgandan keyin omadim yurishib, dehqonchilik qilib, oltin konlarni ishlatib, nihoyatda boyidim! — rozi bo'ldi Qubatdan Jaqip. — Biroq oradan qancha yil o'tsa ham, tug'ishganlarimga bo'lgan sog'inch yuragimni ezmoqda. Biz shu bo'yi umr bo'yi ko'ringandan tepki yeb, shu yerda xor bo'lib qolib ketamizmi? Yoki qaytadan tug'ilib o'sgan yerimizga, Olatog'ga qaytamizmi? Sochilgan qirg'izni to'plab, uni himoya qilib, nomusini talashadigan eryurak botir chiqarmikin bizdan yoki yo'qmi? Bu savol ham yuragimni birato'la ezib bitdi!

— To'g'ri aytasiz, boy! — mung'ayib dedi Qubat. — Shunday botirning kelishini bizning qirg'iz eli chidamsizlik bilan kutayotir.

Qubat Jaqipning hamda o'zining chinnilariga sanochdan qimiz quydi. Jaqip chinnisidagi qimizni bir-ikki ho'plab, Qubatga yana xafali qaradi.

— To'g'ri! — so'zini davom ettirdi u. — O'zing aytganday, boylik bo'yicha hech kimni oldimga solmayman. Biroq bolali bo'lganim yo'q. Xitoylar bizni surgun qilgan davrda otamning tug'ishgan inisi Chiyir qazo qilib, xotini Shaqanga uylangan edim. Uni barcha hozir Chiyirdi deb atashadi. Keyin manchjurlardan Bo'yo'nning o'g'li Chayan deganning Baxtdavlat ismli qizini olganman. Biroq ikkalasining ham ko'zi yorimadi. Shunga xafa bo'lib, armon qilib yurmaymanmi?!

— Xafa bo'lmangiz, boy! Xudo xohlasa, farzandli bo'lib qolasiz! — rahmi kelib qaradi Jaqipga Qubat.

— Qaydan deysan? — yana og'ir xo'rsindi Jaqip. — O'zim qaridim, xotinlarim ham qaridi. Qandoq qilib endi bolali bo'lar edim? Yosh kunimdan mol yoyib, bola bilan ishim bo'lmabdi. Hozir o'ylasam, mening yurganim chala ekan. Dunyoning egasi bola ekan-ku! Ortingda farzanding bo'lmasa, dunyoyingning bir tiyinchalik qadri yo'q, buzilib ketgan qal'a ekan!

Jaqip shu so'zlarini aytib, yig'lab yubordi. Keyin o'rnidan turib, otini mindi-da, ovulga, uyiga qarab jo'nadi.

* * *

Jaqip qishloqqa yetib kelganda, oldidan qorato'ri, oriqdan kelgan, ingichka jag'li Mengdiboy degan bola chiqdi. Uning yoshi o'n birda. Qulun mingan Mengdiboy Jaqipning yig'lab kelayotganini ko'rib, undan hayron qolib so'radi:

— Hoy, boy ota! — dedi u Jaqipga. — Nega yig'layapsiz? Sizga nima bo'ldi?

Jaqip Mengdiboyni ko'rganda, bundan ham battar yuragi ezildi.

"Attang-a! — armon qildi u. — Xudoyim menga shuncha mol bergandan ko'ra, Mengdiboyga o'xshagan bir bola bermaydimi? U meni qarshilab, otajon deb kutib olmaydimi?! Eh, Xudoyim-a?! Men qanchalar baxtsizman!".

Shularni o'ylab, u bolaning savollariga javob berish o'rniga, bundan battar ho'ngradi. Uyiga qanday yetib kelganini ham sezmay qoldi. Otini bog'lamasdan, yig'lagan bo'yi uyiga kirib bordi.

Jaqipning uyi qishloqning o'rtasida joylashgan. Uyning ichiga qalin kigizlar to'shalgan. Shiftlarga ilingan shamchiroqlar uyni nihoyatda yoritib turadi. O'choqda ko'mir cho'g' bo'lib yonib turadi.

Jaqip kirib borganida, ayoli to'shakda sochini tarab o'tirgan edi. Chiyirdi oq yuzli, o'rta bo'yli, qora soch, qora ko'z, biroz to'lishgan, yoshi qirq besh-ellik chamalardagi chiroyli ayol edi.

U uyga kirib kelgan Jaqipni ko'rib, sochini o'nglab, ro'molini solib, o'rnidan turdi. Kuyovining yuzi qizarib, ko'zidan yosh oqib turganini ko'rgan Chiyirdining yuragi shuv etib ketdi.

— Boy! Sizga nima bo'ldi? — tinchsizlanib so'radi u Jaqipdan. — Nega yig'layapsiz? Xafachilikning sababini aytingiz bizga?

— Voy, esi yo'q qanday ayolsan? — dedi unga Jaqip achchiqlanib. — Esidan ozgan qanday kofirsan? Erkalatgan bolang bo'lmagandan keyin, nimangga kerilasan? Xalqning bari tug'mas xotini yuradi deb, seni aytishyapti. Sening yo'lingni quvib, Baxtdavlatning ham yo'li bog'landi. Mana shularni o'ylab, men Xudoga yig'lab iltijo qildim!

Jaqip to'shakka o'tirib, jahl bilan Chiyirdiga qaradi. Kuyovi kelganiga quvonib ketgan boyvuchchaning kayfiyati tushib, birov uning boshiga xoda bilan urganday shalpayib tushdi. Ko'zlariga yosh to'lib, yig'lab yubormayin deb, arang o'zini bosdi.

— Voy, Xudoyim-ey! — dedi Chiyirdi mung'ayib. — Meni nima uchun yaratgan eding? Menday qarigan kampirni mehnatga bunyod ettirganmiding, Xudo? Yoshim ellikka kelib, haligacha bolali bo'lmadim!

Chiyirdi xafa bo'lgancha tishini tishiga qo'yib turdi. Keyin bir narsa esiga tushganday, Jaqipga achchiq bilan qaradi.

— Ha, sening erkalatgan ayoling Baxtdavlat nimaga haligacha tug'maydi? — g'azablanib so'radi u. — Senga bola tug'ib berganday bosib yuradi cho'zilib! Sho'rlik boshim. Azaldan ishim teskari edi. Yoshligimdan tul qoldim. Endi bo'lsa tug'mas ayol degan nomga qo'nib o'tiribman. Mevasiz daraxt o'tindir, tug'maydigan bo'lsang gar, tumshug'i yo'q ayoldir!

So'zini zo'r-bazo'r tugatib, Chiyirdi qaytib to'shakka o'tirmasdan, ho'ngrab yig'lay boshladi. Uni qanday yupatishini bilmay, Jaqip boshini osiltirib, yerga qarab o'tirib qoldi.

Shu asno eshikdan uzun bo'yli, nozik jag'li, oq yuzli, yoshi o'ttiz-o'ttiz besh chamasidagi Baxtdavlat kirib keldi. U Chiyirdining yoniga kelib, unga xafa bo'lib dedi.

— Boyvuchcha! — dedi u Chiyirdiga. — Hamma gaplaringizni eshitdim. Ammo, Xudo xohlasa, men ham bolali bo'laman. Sababi men hali yoshman. Siz bo'lsangiz, bola tug'madim deb or qilib o'lmasdan, menga tashlanasiz! Xudo hech bir bandasini sizdek qilmasin!

Chiyirdi yig'isini to'xtatib, kundoshiga achchiqlanib qaradi. Biroq uning javobini kutmasdan, Baxtdavlat teskari burilib, uydan chiqib ketdi.

Baxtdavlatning bu qilig'idan yanada battar izza bo'lgan Chiyirdi faryod chekib yig'lab, erining oldiga yiqildi. Ikki qo'lini yuqoriga ko'tarib, u Xudoga yolvora boshladi.

— O'o', Alloh taolo! — ko'z yoshini to'kib dedi u. — Mening to'rt turli molimni, barcha narsamni ol! Biroq cholimni omon qo'y, tilagimni ber. Bola ber bizga. Tilagimni bersang, hech narsamni sendan ayamayman, o'-o', Alloh talo!

* * *

Tong endi otib borayotgan palla. Yerga asta-sekin yorug' tusha boshladi. Qishloqda itlarning hurgani, mollarning mo'lagani onda-sonda eshitiladi. Ovulning ko'pchiligi shirin uyquda.

Jaqip ham uyida Chiyirdi bilan to'shakda uxlab yotadi. Bir payt Chiyirdi uyg'onib ketib, o'rnidan turdi. O'choqning yonida turgan paqirga borib, undan cho'michda suv olib ichdi.

Chelakning taraqlaganidan Jaqip uyg'onib ketib, to'shakdan boshini ko'tardi.

— Hoy, xotin, senga nima bo'ldi? — norozi bo'lib so'radi u Chiyirdidan. — Qarg'a g'aq, quzg'un quq demay turib o'rningdan turib olibsan?!

Chiyirdi chap qo'li bilan yuragini tutib, nari-beri yurdi. Keyin Jaqipning yoniga kelib, hayajonlanib dedi:

— Boy! — dedi u. Tunda o'ta ajoyib, boshqacha tush ko'rdim. Shunga uyg'onib ketdim.

— U qanday tush ekan? — g'udrandi uyqusi chala qolgan Jaqip.

— Tushimda yig'lab yotsam, oldimga oq sallalik, oq soqolli bir odam keldi — tushini ayta boshladi Chiyirdi. — U menga shunday dedi: "Meni sizlarga choling ikkoving yig'lamasin deb, Alloh taolo yubordi. Mana, oyoqday bo'lgan, Alloh buyurgan oq olma. Uni kavsha! Aytganimni qil. Oltmish quloch ajdar, ot o'rnida min!" — dedi.

Buni eshitgandan keyin Jaqip o'rnidan turib, to'shakning yonida yotgan choponini kiydi. Qaytadan to'shakning ustiga o'tirib, Chiyirdiga qovoq uyub qaradi.

— Xo‘sh. Keyin nima bo‘ldi? — sust so‘radi ayolidan.

— Men haligi oq olmani yesam, u qornimga to‘libdi, — to‘lqinlanib javob berdi Chiyirdi. — Ostimdan chiqib pishqirib, ajdar bo‘libdi. Achchiqlanib nafas olsa, oy-olamni so‘ribdi. Mening bo‘yim bo‘lsa uzayib, bir yuz o‘ttiz gazga yetibdi. O‘shanda men cho‘chib, uyg‘onib ketdim, cholim!

— Yo, tavba! Shunday ham bo‘larkanmi? Sen ajoyib tush ko‘ribsan, men bundan kam emas tush ko‘rdim, boyvuchcha! — Jaqip o‘tirgan yerida lol qolib boshini chayqadi.

— U qanday tush ekan, ayt-chi? — qiziqib so‘ragan Chiyirdi Jaqipning yoniga kelib, to‘shakka o‘tirdi.

— Qayg‘urma-chi, kampirim! — mehr ila jilmaydi boyvuchchasiga Jaqip. — Men e’tiborli bir tush ko‘rdim. Tushimda bir qush olibman, uni tumanli yerga solibman. Uning qushdan bo‘lak uni, qushdan oppoq juni, alp qora qush suri bor ekan. Men unga oltmish quloch ipak bog‘ni oyog‘iga taqibman. Oy nurini yem qilib, nihoyatda siylab boqibman. U nihoyatda haybatli ekan. Osmondagi qanoti haybatidan ucha olmaydi, yerda yurgan oyog‘i yelib qocha olmas ekan. Unga qo‘nishga qo‘ndoq joylabman. Ola bo‘yin oq shunqor unga qo‘shib bog‘labman!

— Og‘zingga moy, cholim! — o‘ta quvondi Jaqipning so‘zlariga Chiyirdi. — Xudoyim boshingga davlat qushini qo‘ndirar ekan. Yurakdagi g‘ussangni aritar ekan! — deb Chiyirdi quvonganidan yig‘lab yubordi.

— Aytganing kelsin, boyvuchcha! Qo‘y, endi, yig‘lama! — yupatdi Chiyirdini Jaqip. — Xo‘sh, endi nima qilsak ekan?

Chiyirdi yig‘isini to‘xtatib, yoshini artib, Jaqipga kulimsirab qaradi.

— Boyim, — dedi u. — Tushlarimiz o‘ngidan kelishi uchun, biroz to‘y qilib qo‘yaylik. Hech bo‘lmasa qirq-ellik mol so‘yaylik. Elning fatvosini olaylik!

— Voy, xotin! — joni chiqib ketayozdi ayolining so‘zlaridan Jaqipning. — Senga nima bo‘lgan, miyang aynib qolganmi? Boshidan shuncha mol so‘ygani, men nima, mo‘g‘ul, xitoyni yakka chopib olibmanmi? O‘g‘il bola tugul, qiz tuqqaning yo‘q, qolganiga men shuncha molni qiraymi?! Mol tugab qolganidan

so‘ng sening farzandingni nima qilaman? Bola bo‘lsin mol bilan, arg‘umoq bo‘lsin yol bilan. Har kim o‘z ishini qilmaydimi, o‘ziga yarasha hol bilan!

— Boy! Tirishmasdan qirqta biya so‘ying! — qaysarlik qilib dedi Chiyirdi.

— Bo‘ldi, ko‘p gapirma! — yanada battar achchiqlandi Jaqip. Charchadim sening so‘zingdan! — deb u o‘rnidan turib, uydan chiqib, zaifasi Baxtdavlatning uyiga jo‘nadi.

Baxtdavlat bo‘lsa ushbu damda uyqudan endigina uyg‘ongan edi. U o‘rnidan turib yuz-qo‘lini yuvib, sochini taradi. Keyin to‘shaklarini bo‘z uy chetiga yig‘ishtirib qo‘ydi.

Shu payt tashqaridan uyga Jaqip kirib keldi. Baxtdavlat unga egilib salom berdi.

— Xush kelibsiz, boy! — dedi u Jaqipga.

— Omonmisan, suyanchim! — alik oldi Jaqip.

Baxtdavlat yig‘ilgan to‘shaklardan birini olib, yerga solib, uning ustiga ikkita yostiqni qo‘ydi. Jaqip to‘shak ustiga, yostiqlarga yonboshlab o‘tirdi. Baxtdavlat bo‘z uy chetida turgan past-dekkina mis xontaxtani uning oldiga jildirdi. Xontaxta ustiga dasturxon yozib, ikkita non, qo‘y go‘shti, bir chinni sariyog‘, bir sanoch qimiz qo‘ydi. Keyin nondan sindirib, sanochdan chinniga qimiz quyib, choliga uzatdi. Jaqip chinnidagi qimizni indamasdan bir-ikki ho‘plab, yana uni xontaxtaga qo‘ydi.

— Boy, biron narsaga achchig‘ingiz kelib turibdimi? — Baxtdavlat Jaqipga savol berib qaradi. Nihoyatda qizarib-bo‘zarib ketibsiz?!

— Achchig‘ing keladi-da hov anavi kundoshingning so‘ziga! — jahli chiqib dedi Jaqip.

— Siz bunchalik achchiqlanadigan nima dedi u? — hayron qoldi Baxtdavlat. — Men unga tunda ko‘rgan tushimni aytdim, — tushuntira boshladi yomon kayfiyatining sababini Baxtdavlatga Jaqip. — Tushimda bir qush olibman. U nihoyatda haybatli ekan. Undan osmondagi qushlar, yerdagi hayvonlar ham qo‘rqishar ekan. Shuni aytsam, kampirim o‘z tushini aytdi. Tushida u oq olma yeb, qursog‘i to‘libdi. Keyin ortidan ajdar chiqib, ot o‘rnida bo‘libdi.

— Yo, tavba, qanday chiroyli tushlar ekan! — suqlandi Baxtdavlat.

— Boyvuchcham ham shunday so'zlarni aytdi, — dedi Jaqip hamda oldidagi nonni sariyog'ga botirib, uni yeya boshladi. — U holda nega unga achchiqlanyapsiz? — ajablanib qaradi boyiga Baxtdavlat.

— Nega achchiqlanmayin? — g'azablanib javob berdi Jaqip. — U ahmoq, bu ishning ta'biri uchun qirq biya so'y deb taklif qilmadimi? Shuyam gapmi? Bunday so'zga qanday achchiqlanmay? To'g'rimi, xotin?

Baxtdavlat Jaqipga hamda o'ziga qimizdan quydi. Chinnisidagi qimizdan bir-ikki ho'plam ichib, u Jaqipga o'ychan qaradi.

— Boy! — dedi Baxtdavlat. — Bul savolga javob berishdan avval, ruxsat beringiz, men sizga o'zimning tushimni aytib beray.

— Sen ham tush ko'rdingmi? — hayron qoldi Jaqip. — Xo'sh, aytaver. Qulog'im senda.

Baxtdavlat chinisidagi qimizdan bir-ikki ho'plab, so'zini boshladi.

— Tushimda siz bo'z ola lochinni o'ng qo'lingizga olibsiz, — dedi u Jaqipga. — Uni po'palab, erkalatibsiz. Uni nimaga solsangiz ham, baribir yo'lingizda taltayib yotibdi. U uydan turib talpinsa, mening uyimdagi ikki qushim yana qochib qo'rqar ekan.

— Ko'rgan bo'lsang tushingni, o'nglasin Xudo ishingni! — quvondi Jaqip. — Hayron qolib turibman. Bu ishning yo'rig'i uchun kattaroq mol so'ysakmikin?

— Nega ayaysiz, chol bu erkin qolgan ko'p molni? — dimog' qildi Baxtdavlat. — Boyvuchchangiz qancha mol so'y dedi?

— Biyadan so'ygin qirq dedi, barin tanlab chiq dedi! — javob berdi Jaqip.

— Qirq biyani so'y desa, qizg'ongan ekan boyvuchcha! — jilmaydi Baxtdavlat. — Boyim, senga ep bo'lsa, sakson biya so'y!

Jaqip achchiqlanib o'rnidan sakrab turdi hamda Baxtdavlatga nafrat bilan qaradi.

— Nima? Sakson biya?! — ko'zini chaqchaytirdi hamsoyasiga. — Sen kundoshingday bo'lib, aqlingdan ozdingmi? Sen ham aytyapsan so'ygin deb. Bu so'lib qolar qanday gap? Hoy, molni

boqsa son bo'lar, mollik kishi xon bo'lar. Gapingni, ayol, olmayman, qayg'usiga molning qolmayman! Ketsa davlat qo'limdan, unda gadoy bo'lib zorlayman!

Shuni aytib Jaqip ters burilib, to'shakka qaytib o'tirdi. O'shanda Baxtdavlat ho'ngrab yig'lab, uning qo'lidan ushladi.

— Boy, siz nima deyapsiz?! — qo'lidan ushladi Jaqipning Baxtdavlati. — Eslamaysan, bilmaysan, ellikka to'lgan yoshingni. Dunyo bisyor, chala yo'q, yurasan yig'lab bola yo'q. Boy, boyvuchchaning aytganini qil. Molni ayamay qir!

— Dovdirama ko'p! Bitta ham molni so'ymayman! — tishlarini g'ichirlatib javob berdi Jaqip.

Baxtdavlat bundan besh battar kuchab yig'ladi.

— Ho'ngramay uningni o'chir deyapman! — deb jini keldi Jaqipning.

Shu payt tashqaridan uyga Chiyirdi kirdi.

— Bo'tam, to'qolga nima bo'ldi? — tinchsizlanib so'radi u. — U nega yig'layapti? Uning o'kirib, baqirgani qishloqning har burchiga dona uqilib turibdi.

— Nega yig'layapti deb qo'yadi, qilg'ilikni qilib qo'yib?! — yoqtirmay qaradi unga Jaqip.

U o'rnidan turib, g'azablanib uyning ichida nari-beri bosdi. Chiyirdi bo'lsa xontaxta yonidagi to'shakka kelib o'tirib, Jaqipga hayron qolib qaradi.

— Sen buncha achchiqlanadigan, men o'shancha nima qildim? — so'radi u Jaqipdan.

— Nima qildim emish?! — achchiqlandi unga Jaqip. — Hoy, sening qirq baytal so'y deganingni unga aytsam, bu tentak "men ham tush ko'rdim, ikki qushni bog'ladim. Sen qirq emas, sakson baytal so'y!", — deb aljiramayaptimi?!

— Ha-a, sho'rlik boshim! — xafa bo'lib dedi Chiyirdi. — Shunday baxil, qoqbosh cholga xor bo'lgan ekanman-ku! Eldan fatvo olib, bolali bo'lish o'rniga, molini ayab turgan ekan, bu yalmog'iz!

Chiyirdi Baxtdavlatga qo'shilib, to'xtovsiz yig'lay boshladi.

— Hoy, sizlarga jin tegdimi?!— esi og'di shunda Jaqipning. — To'xtatinglar yig'inglarni. El-yurt sizlarni eshitsa nima deydi?!

Baxtdavlat bilan Chiyirdi bosilishning o‘rniga, undan battar kuchayib yig‘lab berishdi. Chorasiz qolgan Jaqip achchiqlanib nari-berdi bosdi. Keyin u Baxtdavlat bilan Chiyirdiga baqirdi.

— Bo‘ldi, o‘chiringlar uninglarni, odamni sharmanda qilmay! — dedi u. — Bo‘pti, mayli. Men tushlarimizning yo‘rig‘i uchun to‘y beray. Biroq sizlar aytganday sakson baytal so‘ymayman. To‘qqizta qari biya, to‘qsonta qari qo‘y, yettita mol, ikkita tuya so‘yaman. To‘yga Oqbolta biyni, domlani, Berdikeni chaqiraman. Ularning barchasidan tushlarimizning ta’birini olaman!

* * *

Jaqip achchiq bilan Baxtdavlatning uyidan chiqib, boyvuchchasi Chiyirdining uyiga qarab yurdi. To‘satdan uning qarshisidan Mengdiboyning enasi Begimjan chiqdi. Uzun bo‘yli, qorato‘ri, erkakbashara Begimjanning fe’li ham erkaknikiga o‘xshash. Ayollarga xos qisilib o‘tirmasdan, o‘yidagini kimga bo‘lmasin yuziga aytadi. Bunday fe’li tufayli Begimjandan ko‘pchiligi hayiqib turadi.

Begimjanning sirini bilgan Jaqip uning achchig‘iga tegmaslikka harakat qilardi. Sababi ayol bilan aytishib hech bir erkak obro‘ topmaganini tushunar edi. Shu sababdan u bilan silliq-sipo gaplashib, hurmati bilan yurardi. Biroq hozir uning salomiga arang alik olgan Begimjanning qizarib-bo‘zargan yuzini, yig‘layverib shishib ketgan ko‘zlarini ko‘rib, Jaqip cho‘chib ketdi.

— Bo‘tam, singlim, senga nima bo‘ldi? — so‘radi u. — Yig‘laganday avzoying bor. Umuman senga nima bo‘ldi?

— Menga nima bo‘lganini boyvuchchangiz aytmadimi?! — achchig‘ini arang tiyib so‘radi Begijan.

— Yo‘q.

— Men tunda sizlarnikiga borgan edim. Siz uxlab yotgan ekansiz. Aytadigan so‘zning barini boyvuchchangizga aytib, qaytib kelavergan edim.

— Nima deding? — hayron qoldi Jaqip.

— Kecha siz uyingizga kelganda, Tuuchunaq otingizni bog‘lamay qo‘yibsiz. U chilvirini sudrab jo‘naganda, mening bolam Mengdiboy toychoq oti bilan uning ortidan tushgan. Bolamning o‘shandan buyon daragi yo‘q. O‘zi ham yo‘q, oti ham yo‘q!

— Nihoyatda yomon ish bo‘libdi-ku! — deb qayg‘uli bosh chayqadi Jaqip.

— Ha! — ho‘ngrab yig‘lab yubordi Begimjan. — Hurmat qilib, amaki der edim. E’zozlab siz der edim. Sen meni to‘g‘atmaysan! So‘zlarimni chivin chaqqanchalik ko‘rmading!

— Voy, nimalar deyapti bu! — xushidan ketay dedi Jaqip. — Sen bunday deyishing uchun men senga nima yomonlik qildim? Seni har doim hurmat qilib yuraman-ku?

— Hurmating bilan yerga kir, betuyoq! — deb ovozi boricha baqirdi Begimjan. — Bolam qani? Top uni, bepusht!!!

— Hoy, o‘ylanib gapir gaplaringni, singlim! — achchig‘i keldi Jaqipning. — Men nima, bolangga otimni ushla deb buyruq beribmanmi? O‘zi ortidan quvib ketibdi!

— Bolaning qadrini bilmagan, tuyoqsiz! — undan battar chinqirdi Begimjan. — Biz sizlarga nima, malaymidik? Ellikdan ortiq xizmatkoring bor. Nimaga o‘shalarga bog‘lattirmading? Nimaga suzilib yurgan to‘qolingga otingni bog‘lattirmading, betuyoq? Tuni bo‘yi bolamga nima bo‘ldi? Ikki oyoqli hayvon bor, to‘rt oyoqli yirtqich bor. Ularga bolam yem bo‘ldimi? Harom o‘lgur otingni ushlayman deb, yolg‘iz bolam yo‘q bo‘ldimi? Agarda bolam yo‘q bo‘lsa, men sening joningni tek qo‘ymayman! Sening hisobi yo‘q molingni bolamning chinchalog‘iga teng ko‘rmayman! Bolaning qadrini bilmagan, tuyoqsiz, top bolamni?!

Yana to‘lib-toshgan so‘zlarni aytib, Jaqipni qarg‘ab-qarg‘ab nari ketdi Begimjan. Uning og‘uli so‘zlaridan hang-mang bo‘lib turib qoldi Jaqip. Bir cheti aytilgan gaplarga Jaqip nihoyatda izza bo‘ldi.

“Qancha boyliging bo‘lsa ham, bolang bo‘lmasa, barchasi bir tiyin emas ekanmi! — deb xafa bo‘ldi u. — Qarasang, hech narsasi yo‘q, itga mingan yalangoyoq ayolning aytgan so‘zlarini. “Bor dunyoingni bolamning chinchalog‘iga tenglamayman!” — deydi, yashshamagur! Demak, mening shuncha boyligim buning monqa bolasiga teng kelmas ekan-ku?!” — achchig‘iga chidamay, qaltirab titradi Jaqip.

Betayin ayolning ortidan borib, uning boshini yorib, tilini sug‘urib olgisi keldi. Biroq o‘zini o‘zi to‘xtatib, achchig‘ini bosdi Jaqip.

"U deysin, bu deysin, biroq bu o'lmagurning so'zlarida ham haqiqat bor! — bo'yniga oldi gunohini Jaqip. — Yolg'iz bolasi bo'lsa, sho'ring qurgur ena u uchun kuyib-pishib turmayaptimi. Mening xizmatkorlarim bilan hamsoyamning azobi o'tdi. O'shalarning biri otimni bog'lab qo'ysa, shuncha qiy-chuv yo'q edi!".

Jaqip endi xizmatchilari bilan Baxtdavlatga achchiqlana boshladi.

"Mana shu eshaklar tufayli mana shuncha haqoratli, og'uli so'zlarni uqib, so'kishga qoldim! Qo'y, bunday koyib o'tirishdan foyda yo'q. Ish avj olib ketmay turib, men Mengdiboyni topay!", — deb Jaqip bir cho'ponning qo'ng'ir-kulrang otini so'rab olib, Mengdiboyni izlagani jo'nadi.

Qishloqdan chiqib, qaysi tarafga yurishni bilmay, karaxt bo'ldi.

"Otim qayerga ketdi ekan?" — o'ylandi Jaqip qishloq chetiga chiqqandan keyin. Bola — bola ekan-da. Bo'lmasa u mingan toychoq mening otimga qanday yetsin?! Endi o'zi omon bo'lsa bo'lgani. Agarda u yirtqichlarga yem bo'lgan bo'lsa, yoki biron kishi qo'lida nobud bo'lgan bo'lsa, Begimjan meni sog' qo'ymaydi!".

Esi og'gan Jaqip tog'-to'qayning, jarlig-u pastlikning hech birini qoldirmay izlab chiqdi. Biroq boladan tayin yo'q. Uni izlab, Jaqip Salqinduuning o'zanidan, Aq-O'to'kning orolidan o'tdi. Bola-da, o'zining oti ham yo'q. Oxiri oroldan o'tib, nariroqdagi to'qaydan izlay dedi bolani. U to'qayga yaqinlab borganida, u yerda Tuuchunag'i ko'rindi. Biroq ustida bola yo'q, yo'lbars terisigina yopilib turibdi.

Buni ko'rganda otini ushlab turgan Jakipning esi og'di.

Bolani yo'lbars yeb ketganga o'xshaydi! Endi sho'rim chindan ham qurib qoldi! O'lgan bolaning enasi mening terimni teskari sidiradi!" — deb, nima qilishini bilmay, u o'rnida qotib qoldi.

Shu payt to'qaydan hech narsa bo'lmaganday kulimsirab, toychog'ini tepinib minib, Mengdiboy chiqib keldi. Uni tirik ko'rganiga ishonmay, Jaqip hayron qolib so'radi:

— Hoy, sen Mengdiboymisan?

— Ha, menman! — dedi bola.

— Xudoga shukur, omon ekansan! — quvonchini yashira olmadi Jaqip. — Senga nima bo'ldi? Tuni bo'yi qayerda yurding?

— Amaki! — so'zini boshladi kulimsirab Mengdiboy. — Bolam yo'q debgina yig'laysan. Aslida sening qirq bolang bor ekan-ku!

— Nima deding? — og'zi ochildi Jaqipning. — Qayoqdagi qirq bola?

— Hozir hammasini aytib beraman! — javob berdi Mengdiboy. — Kecha sen yig'lab uyingga kirib ketgandan keyin qarasam, oting bog'lanmay qolibdi. Birozdan so'ng u qochib ketdi. Amakimning otini qochirib yubormayman deb, toyni minib, uni quvib ketdim. Uzoqqa qochgan bo'lsa, ortga qaytaman dedim. Sababi Tuuchunaqqa mening toyim quvsa ham yeta olmasligini tushundim. Bir belni oshgandan keyin Tuuchunaqning uncha qattiq qochmaganini ko'rdim. Bo'lgani u to'qayga yaqinlab qolibdi. Unga kirib ketsa, otni topish qiyin bo'ladi deb, men toyim bilan u tomonga chopdim. Unga yetib, ushlay deganda mo'jizaviy voqea yuz berdi.

— Qanday voqea? — qiziqib so'radi Jaqip.

— Qaysi joydan kelgani noma'lum, arg'umoq mingan qirq bola "Manaslab" hayqirib, to'qaydan chiqib, Tuuchunaqqa tegib ketdi, — dedi bola. — Tuuchunaq to'qayga qarab qochganida, oldidan yo'lbars chiqdi. Tuuchunaq undan qochib ketdi. Biroq yo'lbars uni quvib yetdi. Otga o'kirib hamla qilganda, Tuuchunaq burilib, yo'lbarsni tepdi. Unga basma-bas qirq bolaning biri qo'lidagi gurzi bilan yo'lbarsning boshiga urdi. O'shanda haligi bola yo'lbarsning terisini shilib, uni Tuuchunaqqa yopdi. Shundan so'ng o'sha bolalar meni ovqatlantirishdi.

— Uyga ketaman deb ularga nega aytmading, esi yo'q?! — koyidi bolani Jaqip. Sen tufayli onang tuni bo'yi uxlamay chiqdi. Bolalarga onam meni so'kadi, uyga boray deb nimaga aytmading?

— Aytdim, amaki! — gunohkorona boshini silkillatdi Mengdiboy. — Biroq ular meni qo'yib yuborishmadi. Ular bilan tong otguncha o'ynadik. Ular o'zlarini "Biz qirq chiltonmiz" — deb tanishtirishdi. Tong otganda bolalar meni to'qaydan chiqarib qo'yishdi. Men ortga qayrilib qarasam, meni kuzatib kelayotganlarning birontasi ham yo'q. To'qayga singib ketdimi yoki qayta osmonga chiqib ketdimi, men tushunmay qoldim.

Jaqip bolaning gaplarini chin yoki yolg'on ekanini tushunmay unga tang qolib qaradi.

— Bolam! — asta so'radi u bolani cho'chitmaslik uchun. — Sen mana shularning barini o'zing ko'rdingmi? Yoki bularning barchasi tushingga kirdimi?

— Yo'q, amaki! — aniq javob berdi Mengdiboy. — Men buning barini o'z ko'zim bilan ko'rdim!

Jaqipning boshi bundan ham karaxt bo'ldi. Bolaga ishonmay desa, Tuuchunaqqa yo'lbarsning terisi yopilib turibdi. Unga ishonay desa, Mengdiboyning aytganlari ertakka o'xshab turibdi.

Nima bo'lganda ham, bola omon qolibdi. Asosiysi shu. Qolganiga boshimni og'ritib nima qilaman? — deb o'zicha o'ylandi Jaqip. — Bolani eson-omon enasining qo'liga toshiray. Uning aytgan so'zlarining chinligini vaqt ko'rsatadi!".

* * *

Osmon nihoyat musaffo. Quyosh yarqirab porlab turibdi. Jaqipning uyi oldida yosh bolalar qiy-chuv qilishib, bir-birini quvalab, o'ynab yurishadi.

O'choqqa qozon osilib, unda qo'yning go'shti qaynab turadi. Jaqipning cho'poni go'shtni uchli tayoq bilan ag'darib yuradi. Ikkinchi cho'poni o'choqqa o'tinni yorish bilan halak.

Bo'z uyning ichiga to'shaklar solinib, yostiqlar qo'yilgan. O'rtaga katta dasturxon yozilgan. Dasturxon to'la taomlar, meva-chevalar, ichimliklar, qimiz qo'yilgan. Uning atrofida Jaqip, Baqtigul, Boyjigit, Uyshun qariya, Taz chechek, Oqbolta, Er Eshtek, domla, Abdilda turli taom yeb, qimiz ichib, chaqchaqlashib o'tirishibdi.

Bir payt Jaqip oldidagi chinnidan bir ho'plab olib, so'z boshladi.

— Og'a-ini, tug'ishganlar! — dedi u. Mening yoshim ellikka chiqib, qirg'izning oldingi boylarining biriman. Mol-mulkdan hech qanday kamchiligim yo'q. Biroq "biri kam dunyo" deganlaridek, Alloh taolo egam menga bola bermadi. Shunga zor bo'lib yursam, bir necha kun avval men, ikki ayolim ham yaxshi tushlarni ko'rdik. O'shalarni ta'birlaylik deb, men elga ikki kun to'y berdim. Menimcha, to'yimda barchasi rozi bo'lsa kerak?!

Jaqip indamasdan, atrofidagilarga qaradi. O'shanda Jaqipning o'ng tarafida o'tirgan qorato'ri, o'rta bo'yli, soqol-mo'yloviga oq oralagan, bo'ladan kelgan Baqtig'ul jilmayib javob berdi.

— Allohga shukur, boy! — dedi u. — To'yingiz nihoyatda chiroyli o'tdi. Elning bari rozi bo'ldi! To'g'rimi, birodarlar?

Uyda o'tirganlarning barchasi "To'g'ri, to'y nihoyatda yaxshi o'tdi!" — deb chuvillashdi.

— Men ham elning barchasidan roziman! — dedi Jaqip. — Mening hurmatimni qilib, to'yimga kelib berganinglar uchun sizlarga katta rahmat. Endi, ruxsat bersangizlar, men tushimni aytay.

— Aytaveringiz, qulog'imiz sizda, boy! — boshini silkitdi Baqtig'ul.

Jaqip oldidagi chinnidagi qimizdan yana bir-ikki ho'plab, og'zini artib, so'zini boshladi.

— Tushimda bir qush olibman, — dedi u. — U haybatli, qarasa, alp qora qush, suri bor. Men uning oyog'iga ipak bog'ich taqibman. Uning haybatidan qushlar ham, jonivorlar ham hayiqishar ekan. Men unga qo'nishga qo'ndoq joylab, unga qo'shib ola bo'yin oq shunqorni birga bog'labman.

— Ayollaringizning tushiga nima kiribdi? — berilib so'radi Baqtig'ul.

— Boyvuchchamning tushida u olma yeb, ichi to'libdi, — javob berdi Jaqip. — Ortidan chiqib pishqirib, oltmish quloch ajdar ot o'rnida bo'libdi. To'qolimning tushida bo'lsa uyida ikkita qush ko'ribdi-da, qapshitga qo'ndoq bog'labdi, ikkovini teng bog'labdi. Bular nimaning belgisi? Bu tushlarni yo'rib beringlar-chi, qariyalar?

Uyda jimjitlik hukm surdi. Bari bir-biriga termilishdi. O'shanda dasturxon chetida o'tirgan keng yelkali, uzun bo'yli, ingichka jag'li Boyjigit gap boshladi.

— Boy Jaqip! — sipo gapira boshladi u. — Tushingiz tush ekan. Bu o'ngidan keladigan ish ekan. Tushingizdagi qush — bu bola. Oy tekkan, kun tekkan yerning barchasini olar ekan bolangiz. Undan tinsin nolangiz! Shuningdek oltmish quloch ipak bog'ich oyog'iga taqqaning, oy nurini yem qilib mehr bilan boqqaning — bu bolangning oltmish yoshga chiqquncha hokim

bo'lib, yurt so'ragani. Bolang dunyoni olar ekan. Boyvuchchangning ajdarni ot qilib minib yurgani — o'sha bolaning ruhi dunyo yuzin surgani. U ajdarday haybatli, arslonday g'ayratli, o'g'il bola bo'lib, ne-ne zotlarning barchasi hisob berib, el bo'lib, qarar ekan ko'ziga. Qora tog'dek xosiyat qo'nar ekan o'ziga!

Boyjigitning so'zini eshitib, Jaqip quvonganidan bo'zlab yig'lab yubordi.

— Og'zingga moy, Boyjigit! — ko'zidan yoshini ko'llatib so'zladi u. — Aytganing kelsin, ilohim!

Birozdan keyin Jaqip yig'isini to'xtatib, teran nafas oldi. Bir narsa esiga tushganday boshini ko'tarib, u Boyjigitga murojaat qildi.

— Boyjigit! — dedi u. — Sen men bog'lab qo'ygan oq shunqor haqida hech narsa aytmading-ku?!

— Boyjigit Jaqipga mehr bilan qaradi.

— Shumqor — bu qiz! — javob berdi u.

Jaqip "tushundim!" deganday, boshini silkidi. Keyin yana Boyjigitga qaradi.

— To'qolimning uyida bog'langan ikki qush nimani bildiradi? — deb so'radi u.

O'shanda Jaqipga uning chap tarafida o'tirgan o'rta bo'yli, oq yuzli, oriqchiroy domla javob berdi.

— Barakalla, Boyjigit! — rozi bo'ldi u. — Tushni xo'p yo'riding! Endi Baxtdavlatning tushidagi ikki qush — ikki o'g'il, Jaqip boy. Kenja xotiningiz ikkita o'g'il tug'arkan, boy! Ular og'asining o'rnini olar ekan! Qani, og'a-inilar, Jaqipga bir fatvo beraylik!

Domla qo'llarini yoyganda, uyning ichidagilarning barchasi fatvoga kaftlarini ochishdi.

— Boy! — dedi u. — Tushing duch bo'lsin, o'ngidan kelsin. Bola-chaqali bo'l, ularning huzurini ko'r! Hech bir yomonlik ko'rmagin! Alloh Taolo egam seni qo'llasin! O-omin!

* * *

Kunduz. Osmon biroz bulutli. Salqin yel esib turadi. Alokening uyini ikki askar nayza, qalqonlari bilan qo'riqlab turishadi. Bir payt ular olisdan chopib kelayotgan Irangquduqni ko'rishdi. U Alokening uyiga biroz yetmay, otdan tushib, unga yayov bosib

bordi. Soqchilar Irangquduqni tanishib, uni indamasdan uyga kirgizishdi.

Uyga kirgandan keyin Irangquduq unga ko'z yugurtirdi. Uning ichiga qalin kigizlar to'shalgan. Shiftlarga shamchiroqlar osilib, uyni yorug' qilib turadi. O'choqda ko'mir cho'g' bo'lib qizarib turadi. Uning yonida pastdekkina jez stolda sig'inish uchun Buddaning haykali qo'yilgan. Uy to'risiga to'shaklar to'shalib, qizil dasturxon bilan yopilgan past dumaloq jez kursi joylashgan. Uning ustidagi tovoqda qo'y go'shti, sindirilgan non, kichkina pichoq, qimiz quyilgan chinni hamda sanoch turadi.

Irangquduq kirib borganda Aloke go'sht yeb o'tirgan edi. Rohib Aloke bilan egilib salomlashdi.

— Tez kelsin deb chaqirtirgan ekansiz! — dedi u Alokega. — Barcha ishlarimni tashlab, yetib keldim. Qulog'im sizda, xonim!

— Chaqirganim rost! — boshini chayqadi Aloke. — Sen bilan gaplashadigan ishlar chiqib qoldi. O'tir, bashoratchim!

Irangquduq Alokening hurmatini qilib, stolning quyi tomoniga o'tib, to'shakka o'tirdi.

— Go'shtdan yeb, qimizdan ich! — taklif qildi Aloke.

Irangquduq dasturxondagi tovoqdagi go'shtni o'zi tomonga jildirib, pichoq bilan undan biroz kesib yedi. Keyin sanochdagi qimizdan Alokega hamda o'ziga quydi. Ikkalasi chinnilardagi qimizni asta-sekin, shoshmasdan rohatlanib ichishdi.

O'shandagina Aloke Irangquduqqa murojaat qildi.

— Men bir so'z eshitdim, — dedi u. — O'shaning rost-yolg'onligini so'ray deb seni chaqirtirdim.

— So'rangiz, xonim!

— "Qirg'izdan bir botir chiqib, qalmoq, xitoyni chopar ekan", — degan mish-mish so'zlar sendan tarqayotgan ekan. Bunga nima deysan? — so'radi u bashoratchidan.

— To'g'ri, xonim. Bu so'z mendan chiqdi.

— Sen bu gapni qayoqdan olding? — norozi bo'lib so'radi undan Aloke.

— O'zingiz bilasiz — menda xosiyatli, kelajakning bari yozilgan "Istirlap" nomli kitobim bor, — javob berdi Irangquduq. — Shuni o'qisam, yaqinda qirg'izlarda Manas ismli botir tug'ilar

ekan. U qalmoq, qang'ayni emas, naryoqdagi xitoyni ham chopadi. Dong taratgan Bejinni o'ziga qaratib oladi deb yozilibdi.

Bu so'zlardan keyin Aloke go'shtdan pichoq bilan kesib olib, uni o'ychan yeya boshladi. Keyin chinnisidagi qimizdan ikki-uch ho'plab, rohibga qaradi.

— Bu so'zingga qanchalik darajada ishonsa bo'ladi? — savol berdi u.

— To'lig'i bo'ydan ishonaveringiz, xonim! Shu paytga qadar "Istirlap" dagi so'zlarning birontasi ham yolg'on chiqqani yo'q-ku, xonim!

— Gaping to'g'ri! — ma'qulladi uning so'zlarini Aloke.

— Ha, xonim, — dedi Irangquduq. — Ozroq qoldi sizlardan, so'ngra qolsa bizlardan. Xosiyat qochar o'zingdan, yeringni tashlab ko'chasan, qang'ay sari o'tasan!

Bu so'zlarni uqqanda Aloke achchiqlandi.

— Meni choparkanmi, bu burutlarning bolasi?! — qovoq uyib gapirdi u. — Bejinni olarkanmi, qizitaloq shumtakasi?! Yo'q, men bunga yo'l bermayman. Men bugundan qolmay qirg'izning barcha bo'g'oz ayollarini topishga buyruq beraman. Ularning barchasining qursoqlarini yordirtiraman. Biroq Manasning tug'ilishiga yo'l bermayman!

* * *

Kunduz. Alokening uyining yonida Oqbolta boshlagan bir necha qirg'izning oqsoqollari turishadi. Ularni qalmoqning nayzachan hamda qalqonchan bir necha askari o'rab olgan.

Oqsoqollarning oldiga qo'liga qamchi tutgan Aloke hamda Irangquduq chiqdi.

— Xo'sh, qirg'izlarim, menda qanday so'zinglar bor? — deb, Aloke oqsoqollarga qahrli qaradi.

Oqsoqollar ho'ngrab yig'lashib, Alokening oldiga cho'kka tushishdi. Ularning oldida turgan Oqbolta Alokega murojaat qildi.

— Jon sovg'a, xonim, jon sovg'a! — dedi u. — Senga to'nimiz yopiqli, otimiz tortiqli. Bizga shafqat qilib qo'y, xonim!

— Chirillab, boshni og'ritmasdan, arz-dodlaringizni tez aytinglar, qirg'izlar! — norozi bo'lib qiyqirdi ularga Aloke.

— Bo‘lmasa barchangizni quvib yuboraman! — deb po‘pisa qildi u.

— Aytaylik, xonim, aytaylik! — ko‘z yoshini to‘xtata olmay so‘yladi Oqbolta. — Biz sening fuqarolaringmiz. Sen nima desang, aytganingni qilamiz. Qayga haydasang ham, g‘ing demay ketamiz. Biroq, bunga qaramasdan, rohiblaring bilan sening askarlaring bizning minglagan bo‘g‘oz ayollarimizning qorinlarini yordirtirib, chinqiratdi. Avrati bilan ichidagi bolalarining qonini sochib, itlarga irg‘itdi!!!

— Buning barini men bilaman, — pinak buzmasdan javob berdi Aloke. — Ular mening buyrug‘imni bajarishyapti.

— Xonim, bizni qaysi gunohimiz uchun jazolab, ayollarimizni tug‘mas qilayotirsan?! — qaltirab-titrab so‘radi undan Oqbolta.

— Sizlarda yaqinda Manas ismli bola tug‘ilar ekan, — kerilib javob berdi Aloke. — Keyin u bizni, xitoyni chopar emish. O‘shani tug‘ilmasin deb ayollaringizni o‘ldirtiryapman!

— Xonim, buni senga kim aytdi? — Oqbolta Alokega tong qolib qaradi.

— Buni yonimda turgan folbinim xosiyatli “Istirlap” nomli kitobiga qarab aytdi. — Aloke yonida qappayib turgan Irangquduqni qamchisi bilan ko‘rsatdi.

Irangquduq “Aloke to‘g‘ri aytyapti”, deganday, boshini egib qo‘ydi. Oqbolta ortidagi oqsoqollarga, keyin Alokega qaradi.

— Xonim! — yalinib so‘radi u. — Biz sen uchun o‘rkachi tuyalarga oltin, kumush ortib keldik. Xohlasang, ulardan yana beramiz. Yolg‘iz o‘tinchimiz — bizning elimizni tinch qo‘y, ayollarimizni o‘ldirtirma!!!

— Yo‘q! — boshini ters chayqadi Aloke. — Sizlarni ayab, bunday qo‘rqinli dushmanning tug‘ilishiga men yo‘l bera olmayman. Dushmanni ayagan unmas, biri ikki bo‘lmas!

Oqsoqollar yana bir-birlariga qarashdi. O‘shanda Oqbolta takroran Alokega murojaat qildi.

— Xonim, aytganingiz to‘g‘ri! — dedi u. — Dushmanni ayagan unmaydi. Biz sening dushmaning emasmiz. Shu boisdan, ayollarimizni o‘ldirma deb biz sendan so‘ranamiz. Senga birgina o‘tinchimiz bor.

— Aytaver! — qulog'ini tutdi Aloke.

— Bashoratching kitobidan qirg'izdan Manas tug'iladi deb o'qibdi, — dedi Oqbolta. — Biroq u kimdan tug'ilishini senga aytmabdi. O'shani undan so'ra-chi. Manasni tug'adigan ayolnigina o'ldirganing o'ng emasmi? Agarda sen qirg'izning barini naslsiz qoldirsang, keyin senga kim soliq to'laydi? Kim senga xizmat qiladi, xonim?

Bu javobni uqqanda Aloke biroz indamay, o'ylanib turdi. Keyin xaxolab kulib yubordi. Uning yonidagi navkarlari, Irangquduq ham xushomadga qo'shilib xaxolashdi.

— Xa-xa-xa! — kulgusini tiya olmay so'yladi Aloke. — To'g'ri so'zni aytding, qirg'izim! Shunday jo'ngina o'y qanday qilib avvalroq boshimga kelmadi ekan?! Behudaga ming nafar ayollarni qirib, fuqarolarimning tubiga yetay deb qolgan ekanman-ku?!

Aloke boshini chayqab, Irangquduqqa achchiqlanib qaradi.

— Aytilgan so'zlarni uqdingmi, folbinim?

— Uqdim, xonim! — duduqlanib javob berdi Irangquduq.

— Uqqan bo'lsang, javob ber. Manasni kim tug'adi?

Irangquduq Alokega tik qaray olmay, boshini quyi soldi.

— Kimdan tug'ilishi topilmay turadi hozir, — qaltirab javob berdi u Alokega.

— Nima deding?!

— Qaysi ayol tug'ishi noaniq, — shoshqaloqlab javob berdi Irangquduq. — Biroq ruxsat bersang, men senga tug'ilajak botirning belgisini aytib beray. Sen bo'lsa uni elingga tarqat.

— Aytaver, — ko'ndi Aloke.

— Qirg'izlarda o'g'il bola tug'ilsa, qo'lini ochib qarat, — tushuntira boshladi Irangquduq. — Uning bir kaftida qon, ikkinchi kaftida moy bo'ladi. Kaftiga oppoq muhr bosilib, "Manas" ismi bo'ladi.

Aloke bir soniya o'ylanib qoldi. Keyin u o'zining navkarlariga murojaat qildi.

— Buyruqni uqinglar! — dedi u. — Bundan keyin qirg'izning ayollari o'ldirilmasin. Biroq qirg'izlar bittadan uyga qo'nmasin. Besh-beshtadan bo'lib bir qo'nsin. Besh uyga bizning bir rohib

qo'yilsin. U bo'g'oz ayollarni sanasin. Bolalar tug'ilganda, ularning kaftlari qaralsin. Manasni topgandan keyin, uni menga topshirsin!!!

* * *

Jaqipning uyi. Uyda solingan dasturxon atrofida, to'shakda Jaqip, Oqbolta, Adilbek, Qipchoqboy o'tirishadi. Dasturxonning ustida turli taomlar, non, qimiz qo'yilgan. Barchasi go'shtdan yeb, qimizdan ichib o'tirishadi. Mehmonlarga Jaqipning ikki xizmatkori xizmat qilib, chinnilarga qimiz quyib turishadi.

Jaqip chinnisidagi qimizni ichib, soqol-mo'ylovini siladi.

— Mana osmondan izlaganim yerdan topildi! — quvonib so'yladi u. — To'ydan to'qqiz oy o'tgandan keyin ayolim Chiyirdining bo'yida bo'ldi. U o'zgacha nur sochib, go'zal bo'lib qoldi. Uning homilador ekaligini bilgandan keyin "chin qiyomat keldi!", — deb, qalmoqlarning rohibi qishlog'imdan nari ketmay qo'ydi.

— Buning to'g'ri, Jaqip, — dedi Oqbolta. — Bu shumshuk barcha uylarda tintib yuradi!

— Jaqip og'ir xo'rsinib, boshini chayqadi.

— Rohib kelsa mol berib, yemakni ham mo'l berdim, — dedi u. — Araq tortib qimizdan meshga quyib achitib, yoniga bog'lab yana berdim. Nima bo'lganda ham, Manas mendan tug'iladigan bo'lsa, eplab uning jonini sog' olib qolayin deyapman. U o'lmay, eson-omon ulg'ayib olsa, qirg'izning o'chini olib beradi, elining keragiga yaraydi degan umiddaman!

— To'g'ri, Jaqip! — qo'lladi uni Oqbolta. — Agarda Manas eson-omon tug'ilib, bo'yga yetib olsa, qirg'izning barcha orzu-umidlari yuzaga oshadi. Xor, tarqoq bo'lib, ezilib yotgan elimizni biriktirib, dushmanlarimizning barchasining tubiga yetadi. Shu sababdan, biz qo'ldan kelgan harakatning barchasini bajarib, ovulda yurgan rohibni Manas tug'ilganda aldashga harakat qilaylik.

— Payqashimcha, u araq ichishni yaxshi ko'rgan kishiga o'xshaydi?! — Jaqip Oqboltaga kulimsirab qaradi.

Qimizini ichayotgan Oqbolta kulib yuborib, chinnisini dasturxonga qo'ydi.

— Men ham buni payqadim! — dedi u kulgidan o'zini tiyib. — Shu tufayli biz bu imkoniyatdan foydalanaylik. U hech narsadan shubhalanmasligi uchun, uni bugundan boshlab araqqa to'ydiraylik. Aytganining barini berib, hech narsadan kam qilmaylik. Biz uning eng yaqin do'stlariga aylanaylik. U araqni ichaverganidan boshqa birovning emas, o'zining nomini ham unutib qo'ysin!

Bu ishni amalga oshirib, Jaqip qalmoqning rohibiga o'zgacha ko'ngil bura boshlab, uning inoq do'sti bo'lib qoldi. Uni ertadan kechgacha siylab, go'shtga, araqqa xohlashicha to'ydirdi.

Shu paytda unga kutilmagan joydan katta muammo yaraldi. Chiyirdi boshqorong'u bo'lib qoldi. Bo'lganda ham yo'lbarsning yuragiga boshqorong'u bo'lib qoldi. U bolga, shakarga qaramaydi, hech bir taomga ishtahasi yo'q. Yolg'iz qo'msagani — yo'lbarsning yuragi.

— Voy-bo', boyvuchcha! — ayolining boshqorong'uligi to'g'risida dastlab uqqan Jaqip beixtiyor kuldi. — Boshqalar meva, yemakka boshqorong'u bo'lsa, sen yo'lbarsga boshqorong'u bo'lgan ekansan-da?!

— Ha, chol! — pinak buzmay javob berdi Chiyirdi. — Yo'lbarsning yuragini yeb, sho'rvasini ichgim kelyapti.

Buni eshitgan Jaqipning joni chiqib ketayozdi.

— Sen, xotin, nima, jinni bo'lib qolganmisan? — dedi u achchiqlanib. — Shuncha jonivoring, taomning turi tursa, sen yo'lbarsni tanlab oldingmi?

— Ha! — deb javob berdi Chiyirdi.

— Men senga yo'lbarsning yuragini qayerdan topaman? — deb yanada battar achchiqlandi Jaqip. — Yo'lbars degan mushuk, chumchuq emas. Uni ancha-muncha mergan otolmaydi.

— Buni tushunib turibman! — iltijoli qaradi Jaqipga Chiyirdi. — Biroq aynan o'shanga boshqorong'u bo'lib tursam nima qilay?! Yo'lbarsning yuragini yegim kelganligidan, o'zimni qo'yarga joy topmay, naq jinni bo'lib qolay deyapman! Uni topmasang bo'lmaydi, chol! O'zing bilasan. Agarda boshqorong'u narsani homilador ayolga bermasa, uning bolasi tug'ilganda og'riqchan yoki aqli past bo'lib qoladi.

Buni eshitganda Jaqipning joni bundan battar qiynaldi.

— Menga sening o'sha boshqorong'uliginggina yetmay turgan edi! — nolidi u. — Ma'qul, merganlardan so'rab, bo'lajak bola uchun uni topishga harakat qilay!

Shundan keyin Jaqip yo'lbarsning yuragini merganlardan surishtira boshladi. Biroq u hech kimdan chiqmadi, hech qayerdan topilmadi.

— Chor atrofda nima ko'p, yo'lbars ko'p! — deb achchiqlandi Jaqip. — Merganlar undan ham ko'psizlar! Shunday ekan, qanday qilib endi bir yo'lbarsni ota olmaysizlar?!

— Yo'lbars sichqon emas! — deb kulishdi merganlar. — Uning ham yashagisi keladi! Uni menman degan merganlar otmasa, bizga o'xshagan chala merganlarning qo'lidan bunday mardlik kelmaydi. Yo'lbarsning o'zini emas, unini uqqandayoq oldi-ortimizga qaramay qochamiz!

Bu so'zlardan Jaqipning yanada battar chorasi qolmadi. Oxiri Chiyirdining tilagini bajo keltirishdan umidi uzila boshlaganda, Qang'ayning qora mergani yo'lbars otganini uqdi. Surishtirsa, mergan o'ziga yo'lbarsning terisinigina shilib olibdi. Jigar, yurak, qolgan go'shti dalada qolibdi.

Bu xabarni aytgan yilqichi Badalbayga, Jaqipdan avval o'zib, Chiyirdi o'zi uning oldidan yugurib chiqdi.

— Yo'lbars otilganligi haqidagi xabarni sen aytdingmi, bolam? — so'radi u yilqichidan.

— Ha, boyvuchcha! — muloyim javob berdi do'rdaygan, qorato'ri, yoshi yigirma-o'tiz chamasidagi Badalbay.

Bu javobni uqqandan keyin Chiyirdi Badalbayning qo'liga qoraquloq katta yombi oltinni tutqazdi.

— Buni menga nima uchun beryapsiz, boyvuchcha? — o'zini qoqulay sezib so'radi Badalbay.

— Bolam! — yig'lamsirab javob berdi Chiyirdi. — G'oyibdan dunyo top. Sen menga ota-onamdan ham yaxshi ko'rinyapsan. Sen bu yerda turmasdan, aksincha ildam chop. O'zing ko'rgan yo'lbarsning yuragini yorib, menga olib kel. Senga bu xizmating uchun xohlaganingcha haq to'lab beraman!

Buni eshitgan Badalbay hayratdan qotib qoldi.

"Boyvuchchaga nima bo'lgan? Bir yo'lbarsning yuragi uchun shuncha dunyo va'da qiladimi? — deb o'zicha o'yladi u. — Mayli. Nima bo'lganda ham, u keyin yana boylik berib, so'zida turadimi, yo'qmi, — menga baribir emasmi? Asosiysi — shunday arzimagan topshiriq uchun menga kattagina yombi bermadimi! So'zidan yana aynib ketib, yombini tortib olgunicha boyvuchchaning o'tinchini bajarib, yo'lbarsning yuragini uning qo'liga tutqizay!" — deb o'ylagan Badalbay uyiga shoshib bordi.

U uyidagilar bilan hayrlashib, hayallamasdan yo'lga chiqdi. U tinmay yurib, ora-churada dam olib, yo'lbarsni ko'rgan joyiga bordi. Qarasa, yo'lbars qotib, muzlab qolibdi. Badalbay yo'lbarsning yuragini olib, darrov iziga qaytdi.

Yo'lda kelayotganida u bir biyaning ham tanasi yotganini ko'rdi. Yilqichilar yig'ilib, uni so'yib olishibdi.

"Boyvuchcha menga rost aytdimi yo so'zlari yolg'onmikin? — o'ylandi Badalbay. — Uni bir sinab ko'ray. Yilqichilardan biyaning yuragini so'rab olayin. Ikki yurakni teng boyvuchchaga beray. O'shanda u nima deyishini payqab ko'ray!" — deb o'ylangan yilqichi niyatini amalga oshirib, biyaning yuragini yilqichilardan so'rab olib, ertasi choshgohda Chiyirdiga yetib keldi.

Uni chidamsizlik bilan kutib turgan Chiyirdi u tomonga jilmayib yurib keldi. Badalbay unga ikkita yurakni berganida, boyvuchcha juda hayron qoldi.

— Bolam! Nega menga ikkita yurak beryapsan? — tinchsizlanib so'radi u Badalbaydan. — Nima, yo'lbarslar yo'lda yotib qolishibdimi? Yoki Qang'ayning qora mergani qatorasiga ikki yo'lbarsni otibdimi?

— Yo'q, boyvuchcha! — deb javob berdi Badalbay. — Yo'lbarslar ham yerda yotgani yo'q. Qang'ayning mergani ham birgina yo'lbarsni otibdi!

— Unga menga nega ikkita yurakni beryapsan? — yanada battar shubhalandi Chiyirdi. — Yoki meni aldab, mol yuragini yo'lbars deb, mening sho'rimni quritay deyapsanmi?

— Yo'q, boyvuchcha! — kulib yubordi Badalbay. — Siz menga yo'lbarsning yuragini tayinlab, buning uchun katta miqdorda haq berib, yana qo'shimcha haq va'da qilganingiz meni nihoyatda

lol qoldirdi. Shu boisdan, sizni sinab ko'ray deb, yo'ldan biyaning yuragini olgan edim. Buning uchun sizdan kechirim so'rayman, boyvuchcha!

— Ha-a, unmagur, shumshuk! — deb qiqirlab kuldi Chiyirdi. — Qarang buning quvligini! Naq yuragimni tushirmadingmi?

Shundan keyin uning ko'ngli o'rniga tushib, ikki yurakni qozonga soldi. Ularni chala-chulpa pishirib, hech kimga bermay o'zi yeb qo'ydi. Ikki kosacha sho'rvasini qoldirmay ichganidan keyin, boshqorong'uligi barham topib, joniga ora kirdi.

* * *

Vaqt-soati yetib, bolaning tug'iladigan muddati keldi. Chiyirdining to'lg'og'i payshanbaning tunida boshlandi. Biroq uning to'lg'og'i elnikidan boshqacharoq bo'ldi. Unga oltindan xoda qo'yildi. Oq kulrang biya so'yildi.

Bolani tug'a olmay, Chiyirdi uyida olti kun, yetti kun to'lg'oq yedi. Unga yordamga qishloqning bari yig'ildi. Jaqip aylanib, bola tug'ilarmikin deb, yuragi orziqib, Chiyirdining yonidan olis ketmadi.

Chiyirdi bo'lsa ichidagi bolasi qimirlab ketsa, ko'zi suzildi. O'ziga kelgandan so'ng boyvuchcha ingrashini bosib, un chiqardi:

— Bu mening jonimni yeb, boshimni yeb, Jaqip boyni tul qoldiradigan bolami? Nega tug'ilmaydi?! — deb, u qaytadan xodani ushlab baqirganda, barchasining esi og'ib qolay dedi.

Ayolining qiynalayotganini uqqan Jaqipning yuragi achishdi.

"Xudo o'zing asra!" — ichidan yalina boshladi u. — Xotinim eson-omon tug'ib olsin. Bu bola qachon tug'iladi?! O'zi ham tug'ilmay, ayolimning ham boshini yeb, meni azob-qayg'uga solmasin?! — aziyat chekdi Jaqip.

Yettinchi kuni "boyvuchchang endi tug'adi!" — deganda mana shunday o'ylarda azob chekib baqirib yig'lab yubordi.

— Yo, Xudo! — ko'zining yoshini to'kib yolbordi u. — Shuncha dunyom bo'lib turib, bir bolaga zor bo'ldim! Agarda birov o'g'il bolalik bo'lding deb suyunchilasa, elga masxara bo'lib, yiqilib yoki horib qolmayin!

Nima bo'lganda ham erkak ekanligini eslab, Jaqip ko'z yoshini artib, o'zini qo'lga oldi.

— Qo‘y, men cho‘l tarafga borayin. Bola tug‘ilganligi haqidagi xabarni o‘sha yoqdan eshitayin! — deya ahd qildi u.

Keyin u suyunchiga qirq bo‘z uch yillik jonivorlarni bog‘latdi.

— Men dalaga ketdim, birodarlar, — dedi u qishloqdoshlariga. — Agarda men qizlik bo‘lsam, qimirlamay uyda qolaveringlar. Agarda o‘g‘il bo‘lsa, anig‘ini bilib olib, keyin meni adirdan topinglar!

Shundan keyin Jaqip yo‘lga chiqdi. Biroz yurgandan keyin uning yo‘lidan Jo‘rgo‘bo‘z ayg‘ir uyuri chiqib qoldi. Jaqip qarasa ularning orasidagi qora yolli kula biya bukilib qolibdi.

— Yo, tabva! — o‘zicha lol qoldi Jaqip. — Boshqa kun topmaganday, kula biya aynan shu kuni qulun tug‘adimi?!

Jaqip otidan tushib, yilqisiga ko‘z soldi. Kula biya chindan ham tug‘adigan holi bor ekan.

— Agarda biyam nor qulunli bo‘lsa, bolamga atab qo‘yay! — deb niyat qildi Jaqip. — Bundan keyin Jo‘rg‘o‘bo‘z ayg‘irni “Qambarbo‘z” deb otini o‘zgartayin!

Bu paytda yilqining barchasi quvalashib, jilg‘aga kirib ketishdi. Otquloqli nam maskanga oldi borib to‘xtab, yilqi nari-beri bo‘lib o‘tlay boshladi.

Jaqip ketgan kunning ertasi Chiyirdining to‘lg‘og‘iga sakkiz kun bo‘ldi. Unga yordam bergan o‘n ikki ayol charchab bo‘lishdi. Sababi, bola hech tug‘ilmay qo‘ydi. Biroq boyvuchchaning rang-ro‘yiga qarab, bunday holni ancha ko‘rgan ayollar bu paytning yaqinlab qolganini sezishdi.

— Qani bo‘lmasa, ayollar! — deb o‘ktam ovoz chiqardi o‘shanda Baxtdavlat. — Bola tug‘iladiganday bo‘lib qoldi. Xudo o‘zi bersin boyvuchchamga quvvatni! Uning to‘lg‘og‘i boshlanganda, dadil bo‘linglar!

Baxtdavlat so‘zini aytib bitgunicha to‘lg‘og‘i kuchaygan Chiyirdi jon-holi qolmay qiyqirdi.

— Ayollar! — xirilladi u. — Tayyorlanib turinglar! Bolam tug‘ilayotganga o‘xshaydi! A-a-a!!!

O‘shanda bolaning ovozi yangrab, bola yerga tushdi. Yerda qimirlab, “inga-inga” deb, yig‘lay boshladi. Unga qo‘shilib Chiyirdi ham yig‘lab yubordi. Ayollar g‘ala-g‘ovur bolaning yonida to‘planishdi.

— O‘g‘ilmikan, qizmikan? Menga qachon aytasizlar? — deb Chiyirdi yoshini tiymay, tinchlanib ko‘zi ilindi.

Bolaga qaragan ayolning ko‘ziga bolaning cho‘chog‘i tashlanib, o‘g‘illigi bilindi.

— O‘g‘il! O‘g‘il! — deya bu ayol qiyqirganda, Chiyirdi esidan tonganday bo‘ldi.

— Enasiga nima bo‘ldi? — deb ayollarning barchasi cho‘chidi. — Qora bosdi, chamasi!

Biroq Chiyirdi o‘ziga kelib, to‘shakdan qayta boshini ko‘tarib, uzun bo‘yli, qorato‘ri, biroz to‘liq kelgan Xonimjonga murojaat etdi.

— Ayollar! — holsiz so‘yladi entikib Chiyirdi. — Alanglamay, bolani yerdan tez olinglar. Oqboltaning zaifasi, bolaning kindigini o‘zing kes!

Xonimjon bolaning yoniga kelib, uning kindigini kesdi. Uni ko‘hlikka o‘rayotsa, bola o‘ng qo‘lini o‘n beshdagi bo‘z o‘g‘lonning kuchi bilan sug‘urib oldi.

— Qo‘lini sug‘urib oldi! — deb nihoyatda hayron qoldi Xonimjon. — Qirqdagi kishidek oyog‘ini tortib oldi. Qarab turmay, bolani ushlashinglar, ayollar! — so‘randi u yonidagi ayollardan.

— Qayoqdagi bo‘lmagan gaplarni aytyapsan, Xonimjon! — norozi bo‘ldi Baxtdavlat. — Ushlashga quvvating yetmasa, nari tur-chi!

Baxtdavlat chirqirab yotgan chaqaloqni yerdan oldi. Uning salmog‘i o‘n besh yoshdagi bolanikiday ekan. Bolani ko‘rib qotib qolgan Baxtdavlat unga qaramay, go‘dakni hidlab, o‘pib oldi.

Keyin Baxtdavlat bolaning o‘ng kaftini ochib, “Manas” degan yozuvni ko‘rdi.

— Xudoyim, chindan ham berib qo‘yganga o‘xshaydi! — deb nihoyatda quvondi. — Biz ko‘pdan buyon qo‘msab kutayotgan Manas tug‘ilibdi!

U oziqlantirmoq uchun bolaning og‘ziga ko‘kragini soldi. Bola o‘zagini uzay deb bir so‘rgan edi, Baxtdavlatning joni chiqib ketayozdi. O‘shanda Baxtdavlat sandiqdan uchta qorin moy olib, bolaning og‘ziga soldi. Bola ularning barchasini bir lahzada yamlab qo‘ydi.

Keyin Baxtdavlat Chiyirdiga bolani emizish uchun uzatdi. Chiyirdi bolaga hadeganda o'ng emchagini berdi. Bola emchakni so'rganda, avvalo sut chiqdi. Keyin suv chiqdi. Uchinchisida qon chiqdi.

Og'riganiga chiday olmay, Chiyirdi bolaning og'zidan emchagini sug'urib oldi.

— Bola bo'lmasang, qo'ya qol! — bolasidan rozi bo'ldi Chiyirdi. — Shunday botir, polvon bolani bergan Alloh taologa roziman! Sizlarga ham, xotinlar, roziman! Bolamga sakkiz biya so'yib, ziyofat beraman. Biring qolmay barchanglar kelinglar. Qadrli mehmon bo'lib ketinglar. Hozircha sizlarga atab qo'yganim bor edi. O'shalarni olib, rozi bo'lib, ziyofatga kechikmasdan kelinglar!

* * *

Shu payt qishloqdagilarning barchasi sarosima bo'lib, suyunchi olish uchun ko'pchilik bo'lib Jaqipni tog', adirdan izlab yurishdi. "Mening kuyovim ular bilan birga bo'lsa kerak?" — deb o'ylagan Xonimjon asta-sekin uyiga keldi.

Biroq hammasi u o'ylaganday bo'lgani yo'q. Uyiga kelgandan so'ng qarasa, Oqbolta uyda ho'mrayib o'tirib olibdi. Uni ko'rib Xonimjon cho'chib ketdi.

— Hoy, cholim! — dedi u. — Sen nega uyda o'tirasan? Yo, dunyodan to'ydingmi? Nimaga el qatori suyunchiga bog'langan qirq yilqining birini olganga intilmay, pismayib uyda o'tirasan?! — jig'ibiyron bo'lib, achchiqlanib so'radi u kuyovidan.

Oqbolta ayoliga o'qrayib qaradi.

— Hoy, qora omadi yo'q Xonimjon! — dedi u. — Aqling bormi sening? Qishloqning bari suyunchi olamiz deb, qachonlar chopib ketishgan. Shuncha eldan menga biron narsa osharmidi?

— Sen ham quvonchli xabarni uqqaningdan so'ng darrov Jaqipga chopsang, bir yering kamayib qolarmidi? — yanada achchiqlandi Xonimjon.

— Ayol! — ayolining achchiqlanganini ko'rganda yaltoqlana boshladi Oqbolta. — Qishloqda qancha odam bor. Jaqipga qo'radosh qancha qo'shni bor. Men o'rnimdan qo'zg'alguncha, ular-

ning sharpasi ham ko'rinmay qoldi. Ustiga-ustak, hozir ot minishga mening darmonim yo'q.

— Buni qarasang! — xafa bo'ldi Xonimjon. — Umuman bahonasi ko'p bu yalqovning!

— Bo'ldi, gapirma! — silkindi achchig'i chiqqan Oqbolta. — Qiyratib yuborganday, qancha kundan buyon Chiyirdiga qaralashib yurgan eding. Qani sening olganlaring?!

— Mana, ikki elechek, bir chopon oldim o'ljaga! — deb Xonimjon olib kelganlarini kuyovining oldiga tashlab qo'ydi.

Ularni ko'rgandan so'ng Oqboltaning og'zi yopilib qoldi.

— Xo'sh, cholim, Jaqipni izlagani endi borasanmi? — hovuridan tushirib so'radi Oqboltadan Xonimjon.

— Ko'kchalo'q yolg'iz otim bilan yengishga qanday boraman? — iltijoli qaradi boyvuchchasiga Oqbolta. — Alahsib ketgan Jaqipni hech kim topmay yursa, men qanday uni topaman?

— Hech narsa emas! — aytganidan qaytmadi Xonimjon. — Topganniki emas, boqqanniki. Yugurganniki emas, buyurganniki. Bulut minib uchsa ham o'ljani buyurgan oladi. Balkim sen Ko'kchalo'qni minib, qo'qqisdan Jaqipni topib olarsan?!

Chorasi qolmagan Oqbolta oxiri xotinining so'zlariga noilojlikdan ko'ndi.

— Ma'qul! Borsam borayin. Ustiga-ustak, uyda yotib, zerikib ketdim! — deb Oqbolta otini minib, Jaqipni izlab jo'nadi.

Bu paytda Jaqip qishloqqa yaqin pinhona joyda, qora suvning chetida bolasi haqida xabarni kutib turgan edi. U o'zi taxmin qilganday, kula biya bir oqsur qulun tug'di. Jaqip qulunning boldirini o'nglab, ishqalab, tumshug'ini siqib, yurishga o'rgatib, enasiga erchitib yurgan edi.

"Xudo buyurib, o'g'il bolali bo'lsam, bu qulunni unga atab qo'yaman!" — deb suyunib o'tirdi u.

Uning shirin o'ylarini to'satdan kelib qolgan Oqbolta buzdi. Ko'kchalo'qni mingan Oqbolta Jaqipni ko'ra solib, olisdanoq baqirdi.

— Suyunchi! — qiyqirdi u Jaqipga.

— Nima deysan? — quvonib so'radi Oqboltadan Jaqip.

— Arslonim! Sen qariganda boyvuchchang senga qoplon, yo'lbars, yo'ldosh topdi! — deb Oqbolta hay-hay soldi.

Jaqip suyunganidan ko'zlaridan yoshi o'n dalaga oqdi.

— Ey, Xudo! — yolvordi u Yaratganga. — Men chindan bola ko'rdimmi? Bu dunyodan bolasiz munkaygan bo'ydan o'taman deb o'ylagan edim. Bolamning tug'ilganigagina suyunmay, uning turishini ham tilayman sendan, o', Yaratgan! — deb quvonchli xabardan Jaqipning esi og'ib qoldi.

Oqbolta uning yoniga kelib qiyqirib, tebratdi. Biroq Jaqip qilt etmadi.

— Suyunchli xabarni aytaman deb, inimdan ayrilib qolganga o'xshayman?! — rangi o'chdi Oqboltaning.

U oq qalpog'ini qo'liga olib, Jaqip yotgan yerdan olis emas yoqqa suvga yugurdi. Suvdan olib kelib, xushidan ketgan Jaqipning ko'kragiga purkadi. Suvni sepganda Jaqip o'ziga kelib, boshini yuqoriga ko'tardi.

— Oqbolta cholim! — holsiz so'yladi u. — Mening quvongandan esim og'ib qolibdi. Sen xabaringni qaytarib ayt-chi?!

— Men aytmadimmi senga?! — quvonch bilan dedi Oqbolta. — Boyvuchchang o'g'il tug'di. Menga suyunchiga nima berasan?

— Bu aniqmi, rostmi? — hanuz ishona olmadi Jaqip. — Sen buni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi? Yoki xotinlardan uqdingmi? — Bolam chindan ham o'g'ilmikan?

— Boyvuchchang zo'r o'g'il tug'di! — qaytaladi quvonchli xabarini Oqbolta. — Uning tug'ilgandagi chinqiragan ovozini men uyimda o'tirib eshitdim. Qarashgan kelinlar aytganday, bolang boyvuchchangning bag'rini balchiqday ushlab chiqibdi. Uni o'raganda, o'ttiz kishining kuchiday chiranibdi. Hamma uni bola bo'lganda ham, zo'r deyishyapti.

— Suyunchi deganing yaxshi gap! — javob berdi Jaqip. — Biroq men o'lanli yerga o't qo'ygan, o'z yurtimga chuv solar o'tkir, epchil bolali bo'lganga o'xshayman?! Bolam balog'atga yetganda, bu alpozda mening molimni suvday sochadi-ku?! To'xta, aytgancha, men yaxshi tushunmay qolibman so'zlaringni. Bolam, nima, enasining bag'rini yulib olibdimi? Asli, boyvuchcham eson-omonmi?

— Sen qanday odamsan?! — Jaqipning so'zlariga Oqboltaning nihoyatda achchig'i keldi. — Bolam yo'q, qoram yo'q deb,

munkayib, qiyshayib, bo'zlab yurgan eding. Endi yangi bolaga yetganda, undan molingni ortiq ko'ryapsanmi? Sen o'taketgan zahar, baxil, qizg'anchiq ekansan-ku?! Molimni saqlayman deb yurib, imonsiz o'lib qolmagin?! — deb Jaqipni so'kdi. — Qo'y, menga beraring bo'lsa ber. Bera olmasang, yoki berging kelmasa, ochig'ini ayt. Men ovora bo'lib, quruq umid bo'lmay, uyga qaytay!

— Qo'ydim, qo'ydim, Oqbolta! — deb xaxolab kuldi Jaqip. — Sen suyunchiga Qambarbo'zning uyuridan tanlab turib, to'qqizni ol. Tuyadan to'rtni, to'rt turfa moldan to'qqizni ol. Qolganini bo'lsa ayollardan suzib ol. Qiz bolalardan, kelinlardan qimtib, netib ol. Shuning bari sening suyunchingga yetadimi, Bolta chol? — kulgancha so'radi u Oqboltadan.

— Yetadi! — deb quvondi Oqbolta.

O'shanda Jaqip unga Qambarbo'zning uyuridan to'qqiztani ushlab berdi.

— Oydalada netaylik? Uyga borib, boyvuchchaning bolasini ko'raylik! — deb, Oqbolta bilan Jaqip erchishib, qishlog'iga qaytib borishdi.

Uyga yetay deb qolganda, ularning oldidan o'rdakka ketgan qirq kishi chiqib qoldi. Ular suyunchilab, hayqirib, Jaqipning yo'lini to'sib olishdi.

— Bo'lsin, bo'lsin! — deb kuldi ularga Jaqip. — Qay biringni ilg'ayin? Baringlar yaqinimsizlar, yotinglar yo'q. Shu tufayli suyunchiga har biringlar o'zinglar mingan otinglarni olinglar. Otdan quruq qolganlar, dodinglarni Xudoga aytinglar!

Jaqipning suyunchi tarqatayotgan unini eshitib, qishloqdagi ayollar uni to'sib chiqishdi.

— Beshikbog'i bek bo'lsin, beshikbog'i qut bo'lsin! — deb, Jaqip quvonib uyga kirdi.

Uyda yoqut po'stin yopinib, yoqqan o'tday ter bosib, bolasin olib, Chiyirdi o'ltiribdi. Uning yonida Baxtdavlat bosh bo'lgan ikki-uch ayol bor ekan.

— Baxtdavlat! — kenja xotiniga murojaat qildi Jaqip. — Boyvuchchaning bolasini olib kel-chi menga!

Baxtdavlat bolani olguncha, Chiyirdi o'zi ildam bolani Jaqipga uzatdi.

— Bola degani mana shu ekan-da! — deb Jaqip ho'ngrab yig'lab yubordi.

Uning yig'laganini eshitgan bola ham yig'lay boshladi. Jaqip bolasiga tikilib qarab, uni o'zicha sinay boshladi.

"Bolamning manglayi keng, boshi tor ekan-ku! — o'yladi u. — Labi qalin, ko'zi chuqur. Er bo'ladiganday ro'yi bor ekan. Yo'lbars bo'yin, yo'g'on bilak, bo'ri quloq, yo'lbars to'sh — boshqalardan o'zgacha yuzi bor ekan bolamning. Xudoyim menga buni qut qilgan bo'lsa, bolam o'tgandan olar o'chimni, ketgandan olar kekimni!" — deb quvondi Jaqip bolasiga.

Mana shularni o'ylab, Jaqipda bolaga nisbatan mehr paydo bo'ldi. U bolani betidan o'pib, uni qaytarib Chiyirdiga berdi.

* * *

Jaqip kelgandan keyin ko'p o'tmay tug'ilgan bolani ko'rgani uning uyiga Oqbolta bilan Adilbek keldi.

Oqbolta to'shakda yotgan Chiyirdining qo'lidan Manasni olib, unga tikilib qaradi.

— Umrli bolsin bola! — deb Manasning betidan o'pib, minnatdor bo'lib dedi u.

— U barchamizning o'chimizni dushmandan olib bersin!

Oqbolta qo'lidagi Manasni Jaqipga berdi. Jaqip Manasga suyunib qarab, betidan o'pdi.

— Menga ham Manasni beringiz-chi! — so'randi o'rta bo'yli, oriqdan kelgan, qorato'ri Adilbek.

Jaqip Manasni asta Adilbekka berdi. Adilbek Manasga ancha tikilib qarab, keyin u ham Manasning betidan oxista o'pdi.

So'ngra bir narsa esiga tushganday yalt etib Adilbek cho'chib Jaqipga qaradi.

— To'xta, endi qalmoqning rohibini nima qilamiz? — so'radi u Jaqipdan. — Undan Manasning tug'ilganligini qanday yashiramiz?

Yig'ilganlarning bari nima deyishini bilmay, bir-biriga qarashdi. Uyda anchagacha sukunat hukm surdi.

Bir payt iyagidagi soqolini qashlab, o'ychan turgan Oqbolta yonidagilarga quvonchli qaradi.

— Topdim, topdim buning chorasini! — dedi u.

— Nimani o'ylab topding, amaki? — so'radi undan umid bilan Jaqip. — Ayt. Yaxshi o'y bo'lsa, barimiz uni g'ing demay bajaramiz.

— Qo'raning narigi chetida g'ingshigan itning kuchugining uni chiqyapti, — Oqbolta o'z o'yini aytdi. — Jaqip, biron kishiga sezdirmay o'shani olib kel. Sen bo'lsang, Adilbek, rohibni bu yerga yetaklab kel. Sen esa, Baxtdavlat, Manasni qo'shni uyga olib borib, uni yashirgin!

— Sen qanday hiyla o'ylab topding? — tang qoldi Jaqip.

— Vaqtni bekorga ketkizmasdan, sizlar mening aytganimni qilaveringlar! — javob berdi Oqbolta. Keyin barini o'zinglar tushunib olasizlar.

— Ma'qul! — deb Jaqip, Adilbek, Baxtdavlat Oqboltaning buyrug'ini bajara boshlashdi.

Uyning ichida Oqbolta bilan Chiyirdi qoldi.

Bir necha vaqt o'tgandan keyin tashqaridan Jaqip kirdi. U Chiyirdining yoniga borib, to'shagini ochib, qo'yniga yashirib kelgan kichkina qora kuchukni asta boyvuchchasining qo'yniga solib qo'ydi.

— Mana, endi hammasi joyida! — to'shakni qaytadan yopib, rozi bo'lib so'yladi Jaqip.

Shundan keyin barchasi Adilbekni kuta boshlashdi.

Birozdan keyin Adilbek uyga o'lguncha mast qalmoq rohibni boshlab kirdi.

— Keldingmi, hurmatli rohib! — Oqbolta mehmonga egilib salom berdi.

— Nimaga meni bu yerga chaqirdinglar, burutlar! — norozi bo'ldi uzun bo'yli, oriqdan kelgan, sarg'ish tusli rohib. — Men yayrab araq ichib, nazorat qilib yotgan edim. Sizlar bo'lsa mening tinchimni oldinglar!

— Kechiring, rohibim! — tebranib, zo'rg'a oyog'ida turgan rohibga Oqbolta muloyim jilmayib murojaat qildi. — Biz seni Alokening "qirg'izning ayollari tug'sa, so'zsiz mening rohiblarimga bildirilsin!" — degan buyrug'ini bajarish uchun chaqirdik. Sababi Jaqipning ayoli tug'di.

— Jaqipning ayoli tug'dimi? — irjaya so'radi rohib.

— Ha! — javob berdi Adilbek. — Jaqipning ayoli tug'ar deb, qishloqda rohib yurarsan. Sen, qalmoqning mullasi, ko'pgina ishni bilarsan. Ana-mana demasdan, tez, ildamroq kirarsan!

Rohib Oqbolta uzatgan bir chinni qimizni olib, uni bir yutib bo'shatdi. Keyin Jaqip bergan qo'yning bir kesim go'shtini chaynagan ko'yi temsalib, Chiyirdining oldiga bordi. Uning to'shagini ochib, boyvuchchaning yonida qora kuchukning yotganini ko'rdi.

— Tushmagur, Oqbolta, yeding-ku meni?! — kuchukni ko'rganda rohib bir zumda seskanib tushib, entikib, arang dedi:

— Jaqipning ayoli odam emas, it tug'ibdi-ku?!

— Rohib boshqa so'z so'ylay olmay, Chiyirdining to'shagidan ortga qaytib, esi og'ib yiqildi. Uning yoniga Jaqip shoshib bordi.

— Voy sho'rim! — pachog'i chiqdi uning. — Bu rohib o'lmasin! U o'lsa, qalmoqlar meni sog' qo'ymaydi. Meni tiriklayin so'yib tashlashadi!

Jaqip rohibning yuziga suv sepdi. O'shanda u o'ziga kelib, ko'zini ochdi.

— Qandaysan, rohibim?! — tinchsizlanib so'radi undan Jaqip.

— Yaxshi! — arang javob berdi rohib.

— Unda mening yigitlarim bilan yotgan uyingga borib, go'shtdan yeb, qimiz ichib, dam olgin! — rahmi kelib murojaat qildi qalmoqqa Jaqip.

— Yo'-yo'q, qirg'izlar! — boshini ters chayqadi rohib. — Sizlar endi menga qimiz emas, bor bo'yim bilan teng oltin bersanglar ham bu yerdan turmayman. Ayoli odam emas, it tug'gan elda rizq ham, baraka ham bo'lmaydi. Men sizlarning qishlog'inglarda turmayman. Bugunoq qishlog'inglardan ko'chib ketaman!

Turganlar qanchalik yalinib-yolvorsa ham ko'nmasdan, hech kimning so'zini uqmasdan, rohib zo'rg'a o'rnidan turib, tentiragan bo'yi tashqariga chiqib ketdi.

U ketgandan keyin Baxtdavlat Manasni uyga olib kirib, uni Oqboltaga berdi. U Manasning o'ng qo'lini ochib, "Manas" degan yozuvni ko'rdi.

— Bu Xudoning bergani! — Oqbolta quvonib murojaat qildi barchaga. — Ko'pdan beri qo'msab kutgan Manasimiz tug'ilibdi.

Endi u bizning ishonchimizni oqlab, el-u yurtimizning keragiga yaragan yigit bo'lsin!

Uydagilarning bari "aytganingiz kelsin!" — deb chuvillashdi. O'shanda Adilbek bir narsadan xavfsiraganday, Oqboltaning yoniga keldi.

— Oqbolta amaki! — dedi u. — Biz-ku hozir Manas tug'ildi deb quvonyapmiz. Rohibni ham quvlik bilan bu yerdan quvib yubordik. Biroq ertaga boshqa qalmoqlar bizda o'g'il bola tug'ilganini bilib, tekshirgani kelsa, sirimiz ochilib, sharmanda bo'lib, Manasdan quruq qolmaylik?!

— Bu turgan gap, — qo'lladi Jaqip. — Qalmoqlar ertagayoq Jaqipda o'g'il tug'ilibdi, deb mening uyimga yetib kelishadi. Shu boisdan qandaydir bir chora izlab topishimiz zarur. Kimda qanday o'y bor? — murojaat qildi savol bilan bariga Jaqip.

Uydagilar bir-biriga qarab qolishdi. O'shanda barchasini yana Oqbolta qutqardi.

— Birodarlar! — dedi u. — Rozi bo'lsanglar, biz bolaning ismini "Manas" emas, "Cho'ng Jindi" deb qo'ysak. O'shanda qalmoqlar bizdan shubhalanmay, bolamiz eson-omon qoladi. Shunga rozimisizlar?

Barchasi "rozimiz", — deb chuvillashdi.

— Yo'q! — Adilbek boshini ters chayqadi. — Bu amal yaramaydi. Sababi erta-indin keladigan qalmoqlar bolani ko'radigan bo'lsa, qo'lidagi "Manas" degan belgisini ko'rganda, darrovgina barini tushunishadi. O'shanda biz Manasdan ayrilamiz. Qalmoqlarni aldaganimiz uchun o'zimizning sho'rimiz quriydi!

Bu so'zlarga nima deb javob berishini bilmay, barchasining kayfiyati o'chdi. O'shanda Adilbekning so'ziga Jaqip javob berdi.

— Kelgan-ketgan qalmoqlarning epini topishni menga qo'yib beringlar, birodarlar! — dedi u. — "Oltin avliyoni ham yo'ldan chiqargan!", — degan gap bor emasmi. Kim tekshiruv bilan kelsa, men uni go'shtga, araqqa bo'ktirib, nihoyatda to'ydirib, xohlashicha oltin berib, kelgan yo'liga solaman. Nimaga kelib, nimaga ketganini o'zi bilmay qoladi!

— Unda so'zni mustahkamlaylik! — xulosa chiqardi Oqbolta. — Manasning tug'ilganligi haqida hech kimga aytmaylik. Balkim,

bir necha kundan keyin uning qo'lidagi yozuvi ham o'chib qolishi mumkin.

— Unday bo'lganda bizning mushkulimiz xiyla yengillar edi! — deb, ho'rsindi Jaqip.

— Ha, — rozi bo'ldi Oqbolta. — Endi bo'lsa, bu sirni hech kimga ochmay, uni ko'z qorachig'idek saylaylik!

Hammasi rozi bo'lib, uylariga tarqab ketishdi. Biroq ular bir necha kundan keyin yana Jaqipning uyiga kelishdi. Sababi bolali bo'lganiga quvongan Jaqip el-yurtni chaqirib, katta to'y berdi. U uch kunga cho'zildi. Qalmoqlarni Ushang botir, qozoqlarni Aydarxon to'ra boshlab keldi.

Jaqipning yetmish tutun eli yoppasiga turib, kelgan mehmonlarni hurmat bilan kuzatdi. Go'sht Olatog'day, ichimlik Oydinko'lday bo'ldi. Har xil ko'ngilochar o'yinlar, tomoshalar o'tkazildi. Oxirida go'sht ortinib, mol yetaklab, to'yga kelganlar uylariga tarqab ketishdi.

III. Manasning bolalik chog'i

Oradan bir necha yil o'tdi. Jaqipning oilasi ko'pchilikning qatorida o'zining ovulida o'tkazar edi. Ko'p yillar bo'yi bolaga zor bo'lib yurgan hamsoyalar bor kuchini Manasni o'stirishga sarflashdi. Ota-onasi uni bandadan boshqacha erkalatishdi, ardoqlashdi. Erkalatmay nima qilishsin? Ota-onasining yolg'iz bo'tasi bo'lsa.

Biroq Manas beshga to'lganda arang tetapoya bo'lib bosa boshladi. Olti yoshida bo'lsa qo'chqorday et olib, shunchaki er yetdi. Sakkiz yoshida bo'lsa odamdan boshqacha bo'ldi. Goho qarasang, belin bog'lab, kechga qadar yuvinar. Goho qarasang, bir oy ham qo'lin yuvmasdan yuraverar. Goho qo'ydan yuvosh bo'lar. Qay bir kuni bog'latmagan jinnidek bosib yurar. Xayoliga kelganin qilar. Mozorni ko'rsa qiyar, devona ko'rsa urar, tayog'in tortib olar. Xo'jani ko'rsa qo'rqitar, bir korsonda qimizni qo'liga bersa bir yutar.

Qishloqdagilar Manasga norozi bo'la boshlashdi: "Jaqip boyning bu o'g'li bir falokat qiladi. Bu bola emas ekan, balo!".

Bunisi kamlik qilganday, Manas dunyoning farqini ham hech bilmas. Yombi tegsa qo'liga, chaqa pulcha to'xtatmas. yengil oshiq ekan deb, toytuyoq yombini soqqa qilib chikka o'ynar.

Tentak bolasini to'g'ri tarbiyalash maqsadida uni urib-savalashga Jaqipning ko'ngli chopmadi. Qartayganda ko'rgan yolg'iz o'g'lini bunday usul bilan bosim o'tkazib, uning ko'nglini og'ritib, pixini qayirishni ota o'zi uchun ep ko'rmadi. Manasni iliq-yumshoq so'z bilangina odoblilikka chaqirishni Jaqip maqsad qilib, bolasi u-buni tushuna boshlaganda u bilan bo'sh vaqtining hammasini o'tkaza boshladi.

— Bolam! — dedi u Manas bilan ilk bor bu borada suhbatlashganda. — Sen endi kichkina bola emassan. Sen sakkiz yoshga chiqib, katta yigit bo'lib qolding. Shu sababli o'zingni yaxshi olib yurishing kerak.

— Agarda men o'zimni yomon olib yursam, unda nima bo'ladi? — erkalanib so'radi Manas otasidan. — Nima, unda meni urasanmi, otajon?

— Yo'q! — ters javob berdi Jaqip. — Men seni urmayman. Biroq unda elning bari "Manas yomon bola ekan. Hech kimning so'zini uqmas ekan!" — deb seni yomonlashadi. Ularning bunday so'zlarini uqqandan keyin onang ikkovimiz nihoyatda xafa bo'lib yig'laymiz, bolam!

— Katta odamlar ham yig'laydimi, otajon? — hayron qoldi Manas.

— Ha, bolam! — jiddiy so'zladi Jaqip. — Agarda bolalar tentak bo'lsa, ona-onasining tilini olmay, o'zini yomon olib yursa, unda katta odamlar ham yig'laydi. Sababi har bir ota-ona bolasining yaxshi, tartibli bo'lishini xohlaydi, bolam!

Otasining so'zlarini qunt bilan uqqan Manas bir zum indamay, o'ylanib qoldi. Keyin u otasiga yana savol bilan murojaat qildi:

— Otajon! — dedi u. — Agarda bola ota-onasini uqmay, yomon bola bo'lsa, unda u qanday jazolanishi mumkin?

— Bunday bola har xil jazolanadi! — javob berdi Jaqip. — Birinchidan, uni elning bari yomon ko'rib, u bilan hech kim do'stlashmay qo'yadi. Bolalarning hech kimisi u bilan o'ynamay qo'yadi!

— Chindanmi? — ko'zlarini baqraytirib, o'ylanib qoldi Manas.

— U bola ham qanday jazolanishi mumkin, otajon? — takroran so'radi birozdan keyin u otasidan.

Jaqip bir lahza tutilib qoldi.

"Bolamga shariat haqida tushuncha bersammi yo yo'qmi? Balkim, shu haqda to'xtalganim durustdir? Bolam mening aytganlarimga tushunarmikan? Yoki yoshlik qiladimi?!".

Biroz o'ylangandan keyin u bolasiga ta'lim berishga ahd qildi.

"Shariat xususida bunga aytaveray!" — o'ylandi u. — Balkim u mening aytganlarimning ko'pini tushunmay qoladi. Yo'q deganda so'zlarimning u biroz qismini tushunsa, harakatim zoye ketmagan bo'ladi!" — deb o'ylangan ota bolasiga mehr bilan qaradi.

— Bolam! — dedi u Manasga. — Ota-onasining gapini uqmagan bolalar Alloh taoloning qahriga uchrab, do'zaxga tushadi. Agarda ular bu dunyoda o'zini yaxshi olib yursa, behishtga kirishadi.

— Alloh taolo, do'zax, behisht degani nima, ota?! — og'zi ochildi Manasning.

— Alloh taolo bizni yaratgan Xudo! — tushuntira boshladi Jaqip. — Behisht — yaxshi odamlar o'lgandan keyin yashaydigan mo'jizaviy yer. Do'zax bo'lsa yomon odamlar o'tda kuyib, jazolanadigan yer.

— I-iy! — jirkandi jajji Manas. — Do'zax yomon joy ekan. Unga tushgan odamlar nihoyatda qiynalar ekan-da!

— Ha, bolam! — dedi bolasining bunday narsalarga aqli yeta boshlaganiga quvongan Jaqip.

— Do'zax yomon yer. Shu sababli barcha behishtdan umid qiladi. Buning uchun ular har doim rahmdil bo'lib, birovlarga yaxshilik qilishga intilishi zarur.

— Ota! — shonli so'zladi Manas. — Men do'zaxga tushishni xohlamayman. Menga behisht ko'proq yoqdi. Shu bois men endi faqatgina yaxshi ishlarni qilaman.

— Barakalla, bolam! — rozi bo'lib bolasining boshidan siladi Jaqip. — Biroq behishtga kirish uchun yaxshi ishlarni ado etish yetarli emas. Birinchi navbatda odam ota-onasini rozi qilishi zarur.

— Nimaga, otajon?

— Sababi ota-ona bolasidan rozi bo'lmasa, Alloh taolo unga rozi bo'lmaydi. Shu tufayli bola ota-onasining ikkovining ruxsatisiz gapirishi, ikkovining oldida yurishi to'g'ri emas. Ota-onasini norozi qilgan odam qancha yaxshi ishlarni qilsin, baribir behishtga kirmaydi. Bu haqda hadislarda shunday deb aytilgan.

Ilgari Muhammad payg'ambarimiz zamonida Alqama ismli yigit yashagan ekan. U o'ta tirishqoq, kichik fe'l, rahmdil bo'lgan ekan. U doimo namoz o'qib, ro'za tutib, ko'p sadaqa qilarkan.

Bir kuni u og'rib, kasali kuchayibdi. Ayoli Payg'ambar (sallollohu alayhissalom)ga kuyovi o'lim oldida ekanligini xabar qilgani chopar jo'natibdi. O'shanda u Hazrati Bilol bilan Alini, Salmon bilan Ammorni: "Uning ahvolini ko'rib kelinglar" — deb yuboribdi.

Ular Alqamaning uyiga kelishibdi.

— Sen "Laa ilaaha illallah" degin" — deb iltimos qilibdi Alqamadan Salmon. — Sababi, musulmon odam ushbu kalimani aytib o'lsa, behishtga kiradi. Ayta olmasa, do'zaxga tushadi! — debdi u Alqamaga.

Biroq bu kalima Alqamaning tiliga kelmabdi. Borgan mehmonlar Alqamaning imonsiz o'lib, do'zaxga tushar ekanini tushunishibdi.

O'shanda ular Bilolni Payg'ambarning oldiga bu xabardan voqif etish uchun jo'natishibdi. Bilol Payg'ambarga kelib, bo'lgan voqeani aytib beribdi.

— Uning ota-onasi bormi? — deb so'rabdi Payg'ambar Bilol so'zini tugatgandan keyin.

— Alqamaning otasi qazo qilgan. Bir yoshi qaytgan onasi bor, — deb javob beribdi Bilol.

— O', Bilol! — debdi Payg'ambar unga. — Onasining oldiga bor, mendan salom ayt. Aytgin: "Mumkinchiligingiz bo'lsa, Rasullohning yoniga yuringiz. Agarda mumkinchiligingiz bo'lmasa, o'tirib turingiz, oldingizga Rasulullohning o'zi keladi deb ayt!", deb Bilolni kampirga yuborib.

Bilol Payg'ambar aytgan yerga borib, bu xabarni Alqamaning enasiga yetkazibdi.

— Jonim Rasulullohga sadqa, men borishga roziman! — deb javob beribdi kampir hamda qo'liga hassasini olib, Payg'ambarimizning oldiga kelibdi.

— Menga rostini aytingiz, yolg'on gapirsangiz, menga Alloh Taollodan xabar keladi. Alqama o'zini qanday olib yurar edi? — deb so'rabdi Payg'ambarimiz.

— O', Rasulullоh! — javob beribdi Alqamaning onasi. — Alqama doimo namoz o'qir edi. Ro'za tutib, sadaqa berar edi. Buning miqdorini hamda sonini bilmayman.

— Sizning u bilan muomalangiz qanday edi? — yana savol beribdi Rasulullоh.

— O', Rasulullоh, men undan xafaman! — rostini aytibdi Alqamaning onasi.

— Nima sababdan?

— U ayolini mendan baland qo'yar edi. Unga quloq solib, menga quloq solmas edi! — xafa bo'lib javob beribdi kamir.

O'shanda Rasulullоh turganlarga shunday debdi:

— Onasining achchig'i o'g'lini "Allohdan boshqa Xudo yo'q", — deb guvohlik berishdan to'sibdi!

— Ko'p o'tin to'pla. Biz hozir Alqamani yoqamiz!

— O', Rasulullоh! — rangi o'chibdi kampirning. — O'g'limni, yuragimning mevasini, ko'z o'ngimda yondirasizlarmi? Bunga yuragim qanday qilib chidaydi? — deb qo'rqqanidan hamda bolasini ayaganidan yig'lab yuboribdi u.

— Hoy, Alqamaning onasi! — javob beribdi kampirga Rasulullоh. — Allohning azobi qattiq hamda abadiy. Agarda Alloh uni kechirishini xohlasangiz, undan rozi bo'lingiz. Jonim qo'lida bo'lgan Zotga ont, agarda siz unga achchiqlansangiz, namoz bilan sadaqasi foyda bermaydi! — debdi u kampirga.

Uning so'zlarini uqqandan keyin Alqamaning onasi qo'lini yuqoriga ko'taribdi.

— O', Rasulullоh! — debdi u. — Yolg'iz Allohning elchisi bo'lgan sizni hamda atrofimdagilarni Alqamadan chindan ham rozi ekanligimga guvoh qilaman! — deb ont ichibdi kampir.

— Hoy, Bilol! — murojaat qilibdi Rasulullоh Bilolga. — Alqamaning oldiga borib qara-chi. U "Laa ilaaha illallah" —

deyaptimikan? Balkim Alqamaning onasi Payg'ambardan uyalib, ko'nglida yo'q narsani aytgan bo'lmasin tag'in?! — deb Bilolni takroran Alqamaning uyiga jo'natibdi.

Bilol Alqamaning uyiga borib, eshikka yetganda, "Laa ilaaha illallah" deb Alqamaning kalima keltirganini eshitibdi.

O'shanda Bilol uning uyiga kiribdi.

— Ey, odamlar! — debdi u uyda o'tirganlarga. — Alqamaning onasining achchig'i imon kalimasini uning tilidan to'sgan ekan. Endi rozi bo'lganligi uchun tilini bo'shatib yubordi! — deb quvonibdi Bilol.

Alqama o'sha kuniyoq qazo qilibdi. Keyin Rasulullоh uning uyiga borib, uni yuvishga hamda kafanlashga buyuribdi. Va Alqamaning janozasini o'zi o'qibdi.

Uni qabrga ko'mgandan keyin Rasulullоh to'plangan xalo-yiqqa murojaat qilibdi:

— Ey, mo'minlar jamoati! — debdi u. — Kimda kim xotinini onasidan yuqori qo'ysa, yoki ota-onasini boshqacha xilda norozi qilsa, Allohning qarg'ishiga qoladi. Uning bu dunyoda amalga oshirgan yaxshilik ishlari hamda o'qigan namozlari, bergan sadaqalari, tutgan ro'zalari qabul bo'lmaydi. Bunday kishi do'zaxga kiradi! — deb ogohlantiribdi barchani u.

Bu hadisni qunt qo'yib, indamasdan eshitgan Manasga bu nihoyatda katta ta'sir ko'rsatdi.

— Otajon! — dedi u Jaqipga. — Odam bolasi behishtga kirish uchun so'zsiz ravishda ota-onasini rozi qilishi kerak ekan-da?

— Ha, bolam! — deb javob berdi Jaqip.

Boshini qashlab, biroz o'ylanib qolgan Manas otasiga qaradi.

— Otajon! — dedi u. — Yana bir savol. Agarda onam ikkovinglar meni bir vaqtda chaqirib qolsangizlar, men birinchi bo'lib kimga borishim kerak?

— Onangga, bolam!

— Nimaga? — hayron qoldi Manas. — Ota — oila boshchisi, shu boisdan uning so'zlarini doimo barchasi uqishi kerak deb siz menga ko'p marta aytgan emasmidingiz? Unda nega hozir boshqacha gapiryapsiz?

— Bolam, bunda hech qanday tang qoladigan narsa yo'q. To'g'ri, ota — oilaning boshlig'i. Biroq unga qaraganda ona-

ning bolasiga nisbatan haqi ko'p. Sababi, ona bolasini qornida qiynalib-qistalib ko'tarib yuradi. Keyin uni yigirma oy emizib, unga oq sutini beradi. Shu sababli bola ota-onaning ikkovi teng uni bir vaqtda chaqirib qolsa, hadeganda onasiga borishi qarz. Uning aytganini eshitib, keyin otasiga borib, uning so'zlarini uqadi. Shundan so'ng ikkalasining topshirmalarini teng ado etishi kerak! — deb tushuntirdi bolasiga Jaqip.

— Men hammasini tushundim. Bundan keyin sizlarning aytganinglarni doimo bajaraman! — va'dasini berdi Manas. — Sababi men do'zaxda kuyishni xohlamayman, ota!

— Xuddi shunday qilib yurgin, bolam! — deb bolasining to'g'ri yo'lga tushganiga quvondi Jaqip.

* * *

Otasi aytib bergan hadisning ta'siri bilan Manas ancha vaqtgacha qo'yday yuvosh bo'lib yurdi. Biroq keyin uni bolaligiga borib, unutib qo'ydimi, — xullas, u takroran avvalgi holatiga tushdi.

Bolasining o'nglanmaganini, odat bo'lib qolgan ters qiliqlarini davom ettira boshlaganini payqagan Jaqip boyning unga juda achchig'i keldi. Shu tufayli u ayoli Chiyirdi bilan bir kuni maslahatlashdi.

— Payqasam, bolangning aqli oz, dilozor, dinga qasd! — dedi u. Uni aqlga keltirish uchun mol azobini unga torttiraylik. Yaylovdagi O'shpir cho'ponga uni olti oyga malaylikka beraylik. So'z aytishga ko'niksin, suyagi pishib chiniqsin. Dunyo qadrini bilsin, boylik qanday to'planishini tushunsin!

— Mayli, O'shpirga bersang ber bolani! — rozi bo'ldi Chiyirdi. — Qo'zi qaytarib, mehnatga pishsin! Sovuq ko'zdan ham olis bo'ladi!

Xotini rozi bo'lgandan so'ng Jaqip bolasini chaqirdi.

— Men qarib boryapman, bolam, — yuzlandi u Manasga. — Biroz tuya, yilqim bor. Yana mol topgani qayda deysan menda hol? Arzimagan yuz qo'yim bor. O'shani sen ko'paytiradigan vaqt keldi.

— Mayli, ota! — dedi Manas. — Men nima qilishim kerak?

— Tog'da O'shpir degan boy bor. O'shaning qo'zisini olti oy boqsang, haqiga bir to'da qo'y beradi senga. Bunga nima deysan? — so'radi tinchsizlanib Jaqip Manasdan.

— Ota! — lol qoldi Manas. — U qurigan qanday jon? Bolasi yo'q, moli ko'p boy bo'ladimi? Agarda u meni ochga qo'ymasa, meni unga hozir eltib qo'y. Unga qadar qancha kunlik yo'l?

— Orasi bir kunlik yo'l! — javob berdi Jaqip.

— Unda men tayyorman! — rozi bo'ldi Manas.

Bolasi rozi bo'lganiga quvonib, Jaqip Manasni o'zining qo'ychivoni O'shpirga olib bordi. Uning qo'rasiga kelganda Jaqip baqirdi:

— O'shpir boy, bormisan uyda? Men senga qo'ziboqar malay olib keldim.

Jaqipning ovozini eshitib, uzun bo'yli, keng gavdali, qorato'ri kelgan O'shpir shoshib chiqib, mehmonning otining chilviridan tutdi.

— Kelinglar, hurmatli mehmonlar! Uyga kiringlar! — mehmondo'stlik bilan chaqirdi mehmonlarni O'shpir.

Jaqip bilan Manas uyga kirib, to'rdan o'rin olishdi. O'shpir bir zumda semiz qo'zini so'yib, uning go'shtini pishirib, sho'rvasi bilan mehmonlarning oldiga tortdi.

Yo'ldan qorni ochib kelgan Jaqip bilan Manas oldiga qo'yilgan taomni indamay yeya boshlashdi. O'shpir ularga xalaqit bermay, indamasdan ovqatini yeb o'tirdi.

Qornini to'yg'azib olgandan so'ng Manasni tashqariga chiqarib yuborib, Jaqip bilan O'shpir yuzma-yuz maslahatlashishdi.

— Bolam uydan tashqariga shu paytgacha chiqib ko'rmagan, — dedi Jaqip. — O'zi yolg'iz qo'zi boqsa, qiynalib qolishi mumkin. Qo'zilaringni bo'riga oldirib yoki jardan qulatib, senga ancha ziyon keltirib qo'ymasin deb qo'rqaman, O'shpir boy!

— Bunday so'zlarga hojat yo'q, boy! — rozi bo'ldi O'shpir. — Avval tog'da qo'y-qo'zi boqib ko'rmagan tentak bola yayratib qo'ychilik qila olmaydi. Shu sababdan unga mahalliylardan birovni qo'shib qo'yish kerak.

— Qishlog'inglarda shundaylardan bormi? Agarda u bolam bilan teng-tush bo'lsa, juda ham soz bo'lardi?! — umid bilan qaradi O'shpirga Jaqip.

O'shpir boshini qashlab, biroz o'ylanib qoldi. Keyin Jaqipga suyunib qaradi.

— Boy! Bunday bola bizda bor, — dedi u Jaqipga.

— U kimning bolasi? — savol bilan tikildi O'shpirga Jaqip.

— Uning otasi o'zimizning qirg'izlardan, — darrov javob berdi O'shpir berilgan savolga. — Ismi Qado'o'boy. Bolasining ismi bo'lsa Chegeboy. Uning yoshi, chamamda, o'n-o'n birda bo'lsa kerak.

— Yaxshi ekan, bo'lmasa! — bolasiga sherik tezgina topilganiga suyundi Jaqip. — Biroq bu bola senga malay bo'lishga rozilik berarmikin?

— Beradi! — ishonchli so'zladi O'shpir. — Sababi Qado'o'boy menga bir necha kun burun kelib bolasiga yumush topib berishimni so'ragan edi.

— Unda yaxshi ekan! — ko'ngli yanada taskin topdi Jaqipning. Bolam bilan Chegeboy ikkoyi har bahor qo'zi boqishsin!

— Mayli, boy! — deb javob berdi O'shpir.

U o'rnidan turib, oti bilan Qado'o'bayga borib, uni bolasi bilan uyga olib keldi. O'shpir bilan Qado'o'bay Chegeboyning oylik haqisi haqida kelishib olishdi.

Ishning bari bitganidan keyin Jaqip o'sha kuniyoq qaytib uyiga otlandi. Xayrlashayotib, u O'shpirni chetga chaqirdi.

— Bolamga qattiqqo'l bo'l! — qattiq tayinladi O'shpirga Jaqip. — Yumshoqlik qilma unga. O'yiga qo'yma. Goho och, goho to'q bo'lsin. Agarda senga gap qaytarib, so'zingni uqmaydigan bo'lsa, uni ayamasdan ur hamda so'k! Borga ham, yo'qqa ham ko'nsin bolam!

— Mayli, boy! Barchasi siz aytganday bo'ladi! — deb O'shpir va'dasini qattiq berib, so'ngra yo'lga otlandi.

* * *

Otasi ketganidan so'ng Manas Chegeboy bilan birga qo'zilarni qaytara boshladi. Ikki bola bir-biridan qoniqib, tezdagina do'stlashib olishdi. Yoshi Manasdan to'rt yoshga katta bo'lsa ham, qorato'ri, yoqimtoy, ingichka jag'li o'n ikki yoshdagi Chegeboy tez orada do'stining allaqancha kuchli ekanligini tushundi. Shu sababli aytganlarining barchasini g'ing demay bajarib yurdi.

Qo‘y qaytarganiga ikki-uch kun o‘tgandan keyin Manas unga taklif qildi:

— Chege, sen mening, yakka mening jo‘ram bo‘lasan!

— Men roziman! — rozi bo‘ldi Chegeboy.

Qo‘zilarni boqqaniga yetti kun bo‘lganda bolalar yaylov ko‘tarib, qo‘zilarni tog‘ni ko‘zlab haydashdi. Ular qo‘llariga xipchin olib, bolaning so‘zini so‘zlashib ketib borishar edi. To‘satdan ularning oldidan qop-qora, g‘o‘daygan bo‘ri chiqib, qo‘zilarga qo‘l soldi. Qo‘zilar hurkib qochayotganda bo‘ri bir qo‘ziga yetib, uni silkib irg‘itdi. Qo‘zi yerga qulaganda, uni bosib olib, quyrug‘ini yulib oldi.

— Voy, bu nima? — hayron qolib so‘radi Chegeboydan Manas.

Chegeboy o‘z navbatida uning so‘zlaridan lol qoldi.

“Bu bola nima, jinnimi? — o‘ylandi u. — Yo osmondan tushganmi? Qishloqda yashab turib, qanday qilib bironta ham qashqirni ko‘rmagan bo‘lsin?”

— Sen nima deyapsan? — achchiqlanib so‘radi Manasdan u. — Qanday qilib bu nima ekanligini bilmay qolasan?

— Rost aytyapman, Chege! — iltijoli javob berdi Manas. — Men avval bunday itni umrimda ko‘rgan emasman. Men shu paytgacha uydan bir qarich ham chiqmaganman. Yolg‘iz bola bo‘lganligimdan, ota-onam meni uydan olisga yuborishgan emas.

— Ha-a! — achchig‘ini bosdi Chegeboy. — Unda tushunarli. Bu it emas, bo‘ri, — tushuntirdi u Manasga. — Erkiga qo‘yib bersang, u qo‘zilarning barini yeb, tog‘ tomonga ketaveradi!

Chegeboy qashqirni qochirish uchun hay-hay solib, qiyqira boshladi.

— Sen nega qiyqiryapsan? — norozi bo‘lib so‘radi undan Manas. — G‘ing etmayla qo‘y. Bo‘ri yesa, bir qo‘zini yeb, qorni to‘yganda ketadi.

— Men senga aytdim-ku, bo‘ri yesa bittani yemaydi. Barcha qo‘zilarni qirib ketadi! — g‘azablanib javob berdi unga Chegeboy.

Shu payt bo‘ri o‘zi yarador qilgan qo‘zini sudrab, qochib ketdi. Chegeboy qo‘zini ajratib olish uchun qo‘lidagi tayog‘ini ko‘tarib, bo‘ri tarafga qarab yugurdi. U yaqinlashganda, bo‘ri tu-

rib qolib, bolaga chap berdi. Qo'rqqanidan qora bo'yi qaltirab Chegeboy qayta qochib, Manasning yoniga yugurib keldi.

— Nega qo'rqib, aqlingdan ozib, bo'ridan qaytib qochding? — achchiqlanib so'radi Manas Chegeboydan.

— Qochmay nima qilardim?! — entikib javob berdi Chegeboy. — Qochmasam, u meni yeb qo'yardi!

— Odamni ham bo'ri yeydimi? — yanada battar g'ashi keldi Manasning. — Men hozir borib, bo'rining ikki qulog'idan olib, tumshug'ini yerga sanchaman!

Manas qo'rqmasdan bo'rining oldiga yugurib borganida, bo'ri qo'zini ko'tarib qochdi. U to'xtamasdan tog'dan oshib, ikki qoya o'rtasidagi dara bo'ylab g'oyib bo'ldi.

"Qanday qilib men seni, bo'ri, qutultirib yuboray? Qanday qilib senga yetmay qolay?! — deb o'ylagan Manas o'chakishib qo'zining qonini quvalab ketaverdi.

Qonning izi bir qoya tubidagi cho'ng o'ngurning yoniga kelib to'xtadi. Uning oldiga kelganda biroz to'xtab qolgan Manas hadiksiramasdan o'ngurga kirib bordi. Uning ichida arg'umoq, qanotli bedov* otlari bor, o'zlari bashang kiyingan qirq kishi turli noz-ne'matlar to'la dasturxonda ovqatlanib, choynakdan choy ichib o'tirishibdi.

Ularning yonida yarmi yeyilgan qo'zi omon ma'rab turibdi. Manas bunga nihoyatda hayron qoldi.

— Mening qo'zimni bir qashqir ko'tarib ketdi! — yuzlandi u o'tirgan kishilarga. — Mening ko'z o'ngimda uning yortisini yeb qo'ygan edi. Endi bo'lsa uning hech bir joyida dog'i yo'q tirik turibdi. U qashqir qayerga ketdi?

— Bo'ri bo'lgan biz! — ularning biri, keng yelkali, uzun bo'yli, alp gavdali, qizil yuzli kishi bolaga jilmayib javob berdi. — Biz qirq chilton deganlar bo'lamiz.

— Qanday qilib odam bolasi qashqir bo'lib qolsin? — deb savol berdi Manas.

Unga javob bergan qizil yuzli kishi qiqirlab kuldi. Keyin o'rnidan turib, bir silkingan edi, ko'kyol bo'riga aylanib qoldi.

Shu asnoda o'ngurga Chegeboy yugurib kirdi. Manasni, qirq chiltonni ko'rib, ko'ngli o'rniga tushdi. Biroq chetda o'ldi degan qo'zisining tirik ma'rab turganini ko'rib, u ham nihoyatda lol qoldi.

— Sening isming Manas! — deb yuzlandi o‘shanda bolalarga qizil yuzli kishi. — Sening do‘stingning oti Chegeboy ekan. Bundan nari uni Chegeboy demay, Qutubiy deb atab yur. Sening bundan boshqa o‘ttiz to‘qqiz yo‘ldoshing bo‘ladi. Ularning ismlari ham bizning qo‘limizda. Endi bo‘lsa biz bu yerda o‘tiravermay, yo‘lga otlanaylik. Sababi biz seni Qizir Ilyas degan bilan qirq kundan beri izlagan edik. Yaxshi qol, botir!

O‘shandan keyin qirq kishi qipiqday sharpasi qolmay, ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Bunday mo‘jizaga hayron qolib, ikki bola tentirab, qo‘zisini yetaklab, tog‘ning boshiga, ko‘p qo‘zilarning yoniga kelishdi. Kelgandan keyin Manas Chegeboy bilan fikr almashdi.

— Do‘stim! — dedi u Chegeboyga. — Qarishqir olgan qo‘zini so‘yib, go‘shtini yeb, to‘yaylik.

— Nega? — so‘radi undan Chegeboy.

Sababi unga biz ko‘rgan ko‘p kishilar bo‘ri bo‘lib tishi, odam bo‘lib qo‘li tegdi. U kishilarning tagi kishi emasligini aytmasa ham tushunarli. Qo‘zi sog‘ bo‘lgani yo‘q! — tushuntirdi Chegeboyga o‘yini Manas.

— Ota-onamizga nima deb javob beramiz? — mung‘ayib so‘radi Manasdan Chegeboy.

— Ularga qo‘zini bo‘ri oldi deb qo‘yaylik! — o‘ylanmasdan darrov taklif qildi Manas.

Chegeboy ko‘nganidan so‘ng ular qo‘zini so‘yishdi. Chegeboy qarag‘aydan shoxchalar yig‘di. O‘tin tayyor bo‘lgani bilan bolalar uni yondirgani o‘t topa olishmadi.

Nima qilishini bilmay turishganda, ularning yonidan besh tanacha haydagan uzun bo‘yli, sariq yuzli, ingicha jag‘li, tishlari deyarli tushib qolgan Bayancho‘r degan qalmoq chol bo‘z ot minib o‘tib qoldi. U bolalarga ko‘z qirini solib, ularning yonida so‘yilgan qo‘zini ko‘rib, ularga otildi.

— Sizlar qanday bebosh bolasizlar?! — so‘ka boshladi Bayancho‘r bolalarni. — Nega hech kimdan ruxsat olmay qo‘zini so‘yib oldinglar? Bu ishinglarni ota-onanglarga aytaman! Aytib qo‘yib qaytaman!

Chol yo‘lida davom etaman deb turganda, uning yonida chaqmoqtoshi borligini ko‘rgan Manas suyunib ketdi.

— Chol, to‘xta! — deb, u cholning otining yolidan oldi. — Bizga o‘t ber!

— Utuguno‘ sho‘o‘day! — ijirg‘anib javob berdi Manasga Bayancho‘r.

Bu so‘z qalmoqda yomon so‘z bilan so‘kinish ekanini yondosh yashagan qirg‘izlar singari Manas ham yaxshi bilar edi. Shu sababdan uning qalmoqqa nihoyatda achchig‘i keldi. U Bayancho‘rni kamaridan ushlab, otidan ag‘darib, yerga bir solgan edi, Bayancho‘r chalqanchasiga tushdi. Kamari ilingan kissasi bilan uzilib, chetga uchdi.

— Qo‘y-qo‘y, qarigan cholni o‘ldirma! — deb Chegeboy yetib kelib, yerda ag‘anab yotgan cholni yo‘ladi.

Manas cholning chaqmoqtoshi bilan pichog‘ini, kamarini tortib oldi.

— Chaqmoqtosh so‘rasam, bo‘ralab so‘kkan sen qanday ahmoqsan?! — achchiq aralash qat’iy aytdi Bayancho‘rga Manas. — Yomonlikka olsang, bo‘lgan voqeani boyim O‘shpirga aytib borasan. O‘zingni so‘yib tashlayinmi?! Yoki g‘unajiningning birini so‘yaymi?!

— Jon sadqa!!! — yalina boshladi unga Bayancho‘r. — Burut, kimning bolasi bo‘lasan? Otingni ayt-chi?

— Ism-sharifimni so‘rab nima qilasan?! — achchiq qilib javob berdi Manas. — Sog‘-omonligingda tuyog‘ingni shiqqilat bu yerdan!

Yuragi tushib qolgan chol so‘ppayib otiga o‘tirib, O‘shpirni ko‘zlab jo‘nadi.

— Shoshmay tur, burutning bolasi! — xafa bo‘lib borar edi u. — Xo‘jayiningga aytib, adabingni beraman. Agarda u senga hech nima qilmasa, o‘zimning qalmoqlarimga aytib, sening tosh-tolqoningni chiqaraman! Qalmoqni oqsoqollarini tentib kelgan burutlarning mana shunday kichkina bolasi zulm o‘tkazgani ularga ham yoqmasa kerak?!

* * *

Bayancho‘r qochib ketgandan so‘ng Manas bilan Chegeboy o‘tni katta yoqib, qo‘zining go‘shtini pishirib, uni yeyishdi. Qorni to‘yib, bolalar hech narsadan tashvish tortmay yayrab o‘tirishdi.

Bir payt xuddi o'sha yaylovga to'rt bola keldi. Ular qo'shni Salamatning qishlog'ining qo'zi boqib yurgan bolalari edi. Ular tutun buruqsatib o'tirgan ikki notanish bolani ko'rib, maslahat solishdi.

— Bu yer — bizning qo'zilar o'tlaydigan yaylov! — deyishdi ular. — Yuringlar, anavi bolalarni quvib yuboraylik. Agarda qiyshanglashsa, ularni yig'latib, ezib, yanchib, yakson qilsak, uylariga borishadi. Bu yerga kelishdan umidi uzilib, bizdan qo'rqib qolishadi! — deb, to'rt bola Manas bilan Chegeboyning yoniga mard bo'lib bosib kelishdi.

Ularning oqsoqoli oq yuzli, qop-qora sochli, bo'ladan kelgan Aynaqul o'ziga ishonib Chegeboyga baqirdi:

— Ey! Sizlar qayerdan kelib qolgansizlar? Yo'qolinglar bizning yaylovdan! — po'pisa qildi u.

— Bolalar! — sipo javob qaytardi o'rnidan turib Chegeboy. — Nega qiy-chuv qilib, baqiryapsizlar? Urushmasdan, o'tirib, go'shtdan yenglar!

— Go'shtingni it yesin! — deb Aynaqul Chegeboyga yugurib borib, uni yerga yiqitib, to'shiga minib oldi.

— To'ram, yordamga! — qiyqirdi o'shanda iltijoli ohangda Chegeboy, Aynaqulning ostidan chiqa olmay.

Manas uning yoniga darrov yugurib keldi.

— Ey, bachchag'ar, tur o'rningdan! — deb Manas Aynaqulni tortib yiqitdi.

Achchiqlangan Aynaqul o'rnidan tura solib, Manasga musht qo'yib yuborgan edi. Javob tarzida boshga urmoqlikni xushladi. Manas turib mushtlaganda, Aynaqulning boshi uzilib ketayozdi. Ikki ko'zidan yosh oqib, Aynaqul esdan toyib, yotib qoldi shalpayib.

— Sen qanday ahmoq narsasan? — deb Manas yerda yotgan Aynaqulni yoqasidan sudradi. — O'zing tegishib olib, endi esing og'ib ketdimi. Ajab bo'lsin senga! O'ylamasdan og'zingga kelgan gapni gapirding. Mening do'stimni yetib kelib bosguday, kim bo'lib ko'rindi u sening ko'zingga?

— Bas qil, jonim chiqib ketadi. Sudrama meni! — deb Aynaqul Manasga yalina boshladi. — Boshim yorilganga o'xshaydi. Ko'zimdan yoshim oqib, o'rnimdan turolmayapman!

Aynaqulning qayg'uli ahvolini ko'rib, Manasning unga rahmi keldi.

— Tur! — deb u Aynaqulning qo'lidan ko'tardi.

O'shanda Aynaqulning uch o'rtog'i Manasga osilib ketishdi. Ikkitasi ikki qo'liga, biri bo'yniga tashlandi.

— Otangni urayinlar desa! — jahli chiqdi Manas. — Men bularning do'stiga yordam berib, o'rnidan turg'izsam, bularning menga osilganini qara!

Achchig'i bilan Manas ikki qo'lini siltab yuborganda, ikki bola ikki tarafga chalqancha uchib tushdi. Bo'yniga osilgan uchinchisini boldiridan ushlab, Manas uni ham yerga chopdi. Keyin unga otilgan to'rt bolani teng tuya bosdi qilib yotqizib, Chegeboyni ularning ustiga mindirib qo'ydi.

Bir tarafdan joni og'riganidan, bir tarafdan qo'rqqanidan bolalarning barchasi ho'ngrab yig'lashdi.

— Jon sadqa, botir, jon sadqa! — yalina boshlashdi ular Manasga.

— Jon sadqa deb qo'yishadi tushdan keyin! — kuldi ularning ahvoliga Manas. — Boyagina mana shunday odamcha muomala qilsanglar bo'lmasmidi, hayvoncha bizni usmasdan!

— Kechir bizni, botir! — ho'ngrashdi bolalar. — Biz ikkinchi marta senga ham, boshqalarga ham bunday qo'rslik qilmaymiz. Barchasi bilan silliq bo'lamiz!

— Aytganinglar chin bo'lsa, to'ra denglar meni! — buyruq berdi ularga Manas.

— To'ra, to'ra! — jon-holi qolmay qiyqirishdi bolalar.

— Azamatlar! — rozi bo'ldi ularga Manas. — Endi o'rninglardan turib, go'sht yenglar! — deb taklif qildi bolalarga u.

Kaltak yegan to'rttovlon teng o'rnidan arang turib, qo'zining go'shtidan kabob qilib yeyishdi. Ular ovqatlanib bo'lgunga qadar Manas barcha qo'zilarni qo'shib yubordi.

— Bu nima qilganing, to'ram? — qaltirab so'radi undad Aynaqul. — Biz endi qishloqqa qanday qilib qaytib boramiz? Qo'zilarimizni ajratguncha tun yarmi bo'lib ketmaydimi?

— Qishloqqa borib nima qilasizlar?! — qo'rs javob berdi Manas. — Olti bola yig'ildik. Xuddi shu yerda yotamiz. Oshiq o'ynaymiz! — hukm chiqardi Manas.

Bolalar qo‘rqqanidan Manasga e’tiroz bildirishga darmoni yetmadi. Bari jam bo‘lib, o‘ynay boshlashdi. Uning qizig‘i bilan bolalar qanday kech kirganini payqamay qolishdi.

Tun yarim bo‘lganda, Manas ularga yana bir qo‘zi so‘ydirdi. Barchasi uni kabob qilib yeb olishdi. O‘shanda qursog‘i nihoyatda to‘ygan bolalar uyquga ketishdi. Manas bo‘lsa uxlamay, qo‘zilarni o‘zi tuni bo‘yi qaytarib chiqdi.

Sarg‘aygan tong otganda Manas yana bir qo‘zini yotqizdi. Keyin bolalarni uyg‘otdi.

— Turinglar, sasib yotavermay! — qiyqirdi u bolalarga. — Ertaga och bo‘lamiz. Men yana bitta qo‘zini so‘ydim. Tezda uni pishiringlar! — dedi u o‘rtoqlariga.

Uyqusiragan bolalar temsalanib, Manasning buyrug‘ini bajara boshlashdi.

... Qo‘zilarining kelishini kutib charchagan O‘shpir Manasning qayerga yo‘qolganini bilmay, tashvish chekdi.

— Qo‘zilarim qayerga ketdi ekan? — qayg‘urdi u. — Jaqip boyning bolasi tagiga yetmasagina bo‘ldi. Uni men endi qayerdan izlayman?

U ortiqcha g‘alva boshiga tushganiga xafa bo‘lib, otini minib, Manasni izlagani jo‘nadi. Qo‘ychivoni bilan qo‘zilarini, jarlik-qirlardan tinmay izladi. Biroq hech joydan izlaganini topmadi.

Bu payt bolalarning dastidan Salamatning qishlog‘i ham sarosimaga tushib, uyqusiz tunni o‘tkazdi.

— To‘rt bolaga nima bo‘ldi? Umuman o‘zlari omonmi? Yosh bolalar adashib qolgan, shekilli? Qarishqir qo‘zilardan xiylasini qirgandir?! — deb bir guruhi aytsa, ikkinchisi:

— Qirsa qirgandir. Mol topiladi, bola topilmaydi. Bolalarimizni omon topib olsak bo‘lgani! — deb Yaratganga yalinib yurishdi.

Qishloqning barchasi kecha oqshomdan beri bolalarni izlab chiqdi. Har bir jarlikni ko‘rib, Almaluuning jilg‘asiga yetishdi. Bir tepalikka chiqib olis yerdan qarashsa, bolalar haydab yurgan qo‘zilardan birini dalada olti bo‘ri talab yuribdi.

— Bizni Xudo uribdi! — vahimaga tushdi qishloqliklar. — Qo‘zilarning hammasini bo‘rilar qirishyapti. Qizitaloq bolalarimiz qayda ekan? Nimaga qarishqirlarni haydashmaydi?

O‘kirik-baqiriq bilan qishloqdagilar chor tarafdan bostirib, qo‘zilar tomonga qarab chopib ketishdi. Ikkinchi tarafdan O‘shpir yetib kelib, hay-hay solib, qo‘zilarga yordamga jo‘nashdi. Ikki taraf teng qo‘zilarga shunchalar qiy-chuv bilan yetib kelib qarashsa, qashqir tugul, tosh yo‘q. Bolalaridan boshqa hech kim yo‘q ekan.

Kelganlar bunga benihoyat hayron qolishdi. Keyin bolalarni so‘roqqa olishdi:

— Nega qishloqqa bormadinglar? Nima uchun bu yerga qo‘ndinglar?

— Biz aybdor emasmiz! — oqlana boshladi Aynaqul. — Barini vayron qilgan anavi O‘shpir boyning malayi. U barimizni kaltaklab, uch qo‘zini so‘yib, bizni uyimizga yubormay qo‘ydi. Shu yerda qo‘nim topib yotasizlar dedi!

— O‘rta bo‘yli, qorato‘ri, chayir tanli Salamat uning so‘ziga norozi bo‘lib boshini chayqadi.

— Bolalar rost aytishyaptimi yo yo‘qmi — buni bilish uchun qo‘zilarni bo‘lib sananglar! — buyruq berdi u.

Kelgan qishloqliklar qo‘zilarni sanashsa, barchasi to‘liq chiqdi.

O‘shanda yana battar hayron qolgan Salamat O‘shpirga yuzlandi.

— Sen ham qo‘zingning hisobini ol-chi! — deb so‘randi u.

Qado‘o‘bay bilan O‘shpir qo‘zilarini sanashsa, ularning qo‘zilarining barchasi omon ekan. Salamat O‘shpirning bu javobini indamay eshitdi.

— O‘shpir boyning malayi qo‘zi so‘ydi deb bolalar yolg‘on aytishibdi! — qishloqdoshlariga murojaat qildi u. — Biroq biz o‘zimizga o‘zimiz yolg‘onchi bo‘ldik. Bizning qo‘zilarimizni olti bo‘ri oralab, qirib yurganini barchamiz ochiq ko‘rgan edik. Kelsak, olti nafar boladan bo‘lak hech kim yo‘q.

— To‘g‘ri aytasan, boy! — qo‘lladi uni O‘shpir. — Biz ham olti bo‘rini ko‘rgan edik.

— Nima bo‘lganda ham, bu topishmoqning javobini o‘z vaqtida toparmiz! — xulosa chiqardi Salamat. — Hozir bo‘lsa qo‘zilarimiz bilan bolalarning omon qolganligiga shukurchilik keltirib, qishloqqa qaytaylik!

Hammasi bunga ko'nishdi. Qo'zilarini ajratib olib, Salamat qishloqdoshlari bilan ovuliga qaytdi.

O'z vaqtida O'shpir qo'zilari bilan qishlog'iga yetay deb qolganda, boyagi Bayancho'r qalmoq tentirab yetib keldi.

— Sen rosa topibsan malayni! — otildi u O'shpirga. — To'qqizdagi bola ekan, do'zaxi bo'lgur jon ekan. Kamarimni, chaqmoqtoshim bilan pichog'imni tortib oldi. O'zimni otdan ag'darib yubordi. Barchasini menga malayingdan olib ber. Bo'lmasa adabinglarni beraman! — deb g'udrandi chol.

— Unday dema! — yalina boshladi unga O'shpir. — Achchig'ingni bos. Agarda malayim chindan ham sendan aytgan narsalaringni tortib olgan bo'lsa, men senga hammasini qaytib olib beraman!

— Ma'qul! — rozi bo'ldi Bayancho'r. — Olib bermasang, mendan xafa bo'lma!

O'shanda O'shpir bilan Bayancho'r qo'zilarning ikkinchi tarafida yurgan Manas tomonga jo'nashdi.

Uning yoniga kelganda O'shpir achchiqlanib dedi:

— Hoy, bolam! — dedi u. — Bu nima qilganing? Kelganingga sakkiz kun bo'lmay turib, chatoqni boshlabsan?!

— Men nima qilibman? — pinagini buzmay so'radi Manas.

— Yetmish to'rt yoshga chiqqan bu qalmoqni do'pposlabsan! — javob berdi O'shpir. — Kamarini uzibsan. Chaqmoqtoshi bilan pichog'ini olib qo'yibsan. O'ynab olgan bo'lsang, berib qo'y! Agarda shunday fe'ling bo'lsa, seni qiynab pichaman! Qaytarib berian olganlaringni! — buyruq berdi u bolaga.

Manas O'shpirga xo'mraya qaradi:

— Boy! — dedi u. — Men kecha bu cholning aytgan narsalarini jo'ngina olganim yo'q. Ularni yangi o'lja deb oldim.

— Nima? — achchiqlandi O'shpir. — Qayoqdagi o'lja? Sen nima, bu chol bilan jang qildingmi? O'ljani jangda oladi, tentak!

— Ha! Men bu qalmoq bilan jang qildim kecha! — qaysarlik qilib javob berdi Manas. — Kecha men undan o'tinimni yondirib olish uchun chaqmoqtosh so'rasam, bu ahmoq meni bo'ralab so'kdi. Bu menga urush e'lon qilgani bo'lmay nima? Men buning chaqirig'ini qabul olib, uni kaltaklab, buyumlarini o'ljaga oldim!

— Ko'p gapirmasdan olganlaringni Bayancho'rga qaytar! — achchig'iga chiday olmay baqirdi Manasga O'shpir.

— O'ljani hech kim qaytarmasligini yaxshi bilasan, O'shpir boy! — Manas asta-sekin g'azablana boshladi. — Men tushunib turibman — chol suyanar chollarga. Biroq men o'ljani bunga qaytarmayman. Ustiga-ustak, olganlarimning barchasini men yonimdagi bolalarga sovg'aga berib qo'yganman. Ularni qaytadan bolalardan olish men uchun o'lim bilan barobar.

— Seni... — ijirg'andi unga mushtumini tuygancha O'shpir.

Biroq Manas uning so'zini bo'ldi.

— O'yingni tushundim, boy! — tund so'yladi u. — O'ljani ber desang, unda men janjal chiqaraman. Yoningdagi qalmoqni o'ldirib, bir to'da xunin bog'lab beraman! — deb Manas achchiq bilan Bayancho'rga yugurdi.

Uning vajohatiga chiday olmay, qalmoq otiga minib qochib ketdi. Manas uning ortidan quvib, otliqqa yayov yetolmay qoldi.

Buni ko'rgan O'shpirning rangi o'chdi.

"Bu qanday qurigan bola?" — o'yladi u. — Kelganiga hech qancha bo'lmay turib, qilgani shu bo'lsa, keyin qanday bo'ladi? Jaqip boy buni menga meni quritish uchun bergan ekan-da! Qo'y. Men tez orada unga boray. Bolaning bayonini aytay. Quv boladan qutulib, so'ngra tinchlik olayin!".

* * *

Maqsadini amalga oshirib, O'shpir ertasi kuniyoq qishloqdagi Jaqip boyga bordi. Barchasi bilan ko'rishgandan keyin u arzini boshladi.

— Boy! — dedi u Jaqipga. — Bolang bilganini qilyapti. Men sizlarning qo'yinglarni boqib yurgan bir qashshoqman. Xo'jayinimning bolasiga hech bir qarshi so'z ayta olmayman. Biroq indamasdan bolangning o'yiga qo'ysam, u qo'zi bilan qo'yingning tubiga yetadiganga o'xshaydi. Qalmoqlar bilan hozirdanoq chopisha boshladi. Och qornim, tinch qulog'im. Bolanglarni qaytib olinglar. Bo'lmasa tez kunlar ichida oqsoqol O'shpir o'ldi degan xabar uqasizlar! — deb yig'lamsiradi O'shpir.

— Otangni urayinning bolasi desa! — beixtiyor so'kindi Jaqip. — Jo'n yurmasdan, qalmoq bilan mushtlashib, molimning tubiga yetadigan bo'libdi, shumshuk!

Kuyovining bu so'zlarini uqib, Chiyirdi sulayib, o'rnida qotib qoldi.

"Bu aljiragan chol dovdirab nimalar deyapti? — achchig'i keldi uning. — Qariganda ko'rgan bolasini ayamasdan, uning eson-omonligini tilamasdan, moliga kuyib o'tiribdimi? Yo'q, chol! Senga bolaning keragi bo'lmasa, menga kerak. Barcha mol-dunyoingni bolamning tirnog'ining uchiga ham tenglamayman!".

Bolasi uchun izza bo'lgan Chiyirdi O'shpir ketgandan keyin Jaqipga tashlanib dedi:

— Qanday ahmoq cholsan sen? — dedi u. — Kimsasiz dalada, yovvoyi cho'lda yolg'iz bolamga qo'zi boqtirgan, mehri yo'q qanday otasan?

— Hoy, sen nega o'kirasan menga? — hayron qoldi Jaqip ayoliga. — Bolani O'shpirga ikkovimiz maslahatlashib turib bermadikmi? Chiniqib, odam bo'lsin demadikmi?

— Ha! O'shanday deganmiz! — taslim bo'lmadi Chiyirdi. — Biroq men senga mening yolg'iz bolamni o'ldirib ber, undan qutulay degan emasman! Tentak bolang o'ziga keladi, to'xtaladi deb o'ylagan edim. To'xtalmabdi, o'nglanmabdi!

— Aytganlaring to'g'ri, boyvuchcha! — rozi bo'ldi Chiyirdiga Jaqip. — Endi nima qil deysan meni?

— Qutula olmay yuribsanmi yolg'iz bolangdan?! — achchiq aralash so'radi Chiyirdi. — Zudlik bilan uni qaytarib uyga olib kel. Qalmoq degan haromdan qutqar uni. Olib kelgin bolamni, saqlatmayman dalangni! — deb to'lib-toshdi u.

— Mayli, boyvuchcha! — og'ir xo'rsindi Jaqip. — Hammasi sen aytganday bo'lsin. Men ertagayoq uni olib kelaman. Sening qo'lingga sog'-salomat topshiraman.

Ertasi kuni bolasining toychog'ini olib, Jaqip O'shpir bilan Manasning oldiga bordi. Hadeganda uni qattiq ta'zirini berishni o'yladi. Biroq keyin o'yidan qatdi.

"Tentak o'sgan bolam nihoyatda erka, qaysar! — ko'nglidan o'tkazdi u. — O'z aytganidan qaytmagan o'jar. Agarda hozir

uning g'ashiga tegib olsam, u uyga qaytmay qo'yishi mumkin. Unda sho'rimning aniq qaynagani bo'ladi! Kecha bir qalmoqni savalasa, ertaga yana boshqasini ursa, achchiqlangan qalmoqlar mening shuncha yil topgan mulkimni bir kunda talab, yo'q qiladi. Meni qariganda itga mingan yalangoyoqqa aylantiradi! Bolamni ham o'ldirib qo'yishi mumkin. Bundayga yetkazmay, bolam bilan iliq-yumshoq gaplashib, uni aldab-suldab, qishloqqa olib ketib, enasining qo'liga topshiray. Birovni do'pposlab, to'nasa ham o'zimizning qishlog'imdagina yursin! Meni qalmoqqa yem qilmasin!".

Shularni o'ylab, Jaqip Manas bilan hech narsa bo'lmaganday, yayrab-yashnab ko'rishdi.

— Bolam! — dedi u yumshoq. — Men seni menga suyanch bo'lib, pul topib, dunyoyimni ko'paytirar desam, ishonchimni oqlamay qo'yibsan!

— Nega? — hech narsani tushunmaganday qaradi otasiga Manas.

— O'shpir senga qo'zi boq desa, boqmay qo'yibsan!

— Yolg'on! — qa'tiy javob berdi Manas. — Men Chegeboy bilan kun sayin qo'zilarni boqib yurdim. Ishonmasangiz, undan yoki otasi Qado'o'baydan so'rangiz.

— Bir tunda uchta qo'zi so'yibsan?! — savol berdi Jaqip. — Bunga nima deysan?

— So'ysam, so'ygandirman, — pinak buzmay javob berdi Manas. — Biroq bundan hech kim ziyon tortgani yo'q. O'shpirning ham, Salamatning ham qo'zilarining barchasi to'liq.

— Qarigan qalmoqni nega urding? — so'radi bolasidan barcha savollariga javob topganiga g'ashi kela boshlagan Jaqip. — U o'chakishib, meni bir baloga giriftor qilishni o'ylab ketibdi!

— Ha, uni urganim chin! — bo'yniga oldi Manas. — Biroq u o'zi menga otildi. Men undan chaqmoqtosh so'rasam, oqsoqol boshi bilan meni uyat so'zlar bilan so'kdi. Izza bo'lganimga chidamay uni urib yubordim.

— Bolam! — achchig'ini yashirib dedi Jaqip. — Bu qilganing to'g'ri emas.

— Nima, u meni so'ksa, men molga o'xshab, indamay qolishim kerakmidi? — hayron qoldi Manas.

— Ha, bolam.

— Nega?

— Sababi ular bizni yengib olgan xalq. Ular bu yerda elning ko'pchiligini tashkil qiladi. Biz bo'lsak oz elmiz. Ularga holimiz yetmaydi. Shu boisdan biz ularning barcha qiliqlariga chidab, indamay yurishimiz kerak.

— Ular bizni so'kib, xo'rlasa hammi? — so'radi Manas.

— Ha, bolam! Mag'lub bo'lganlarning kuni shunday bo'ladi! — xo'rsinib javob berdi Jaqip. — Aks holda qalmoqlar birontamizni qoldirmay qirib tashlaydi!

Manas otasining so'zini anglab yetganday biroz o'ylanib qoldi. Keyin boshiga shumg'ib olib, bir qarorga kelganday, otasiga qaradi.

— Yo'q, ota! — dedi u Jaqipga. — Sening aytganlaring menga to'g'ri kelmaydi. Men senga o'xshab, qalmoqlardan qo'rqib, yashirinib kun ko'rmayman. O'zimni faxr bilan olib yuraman. Yigitlik nomusimni hech kimga tepalatib-depsatmayman! Dushmanlardan jon sadqa deb qolmayman. Ular bilan nomus uchun jang qilishib, chopishaman. Holim yetsa, ularni yengaman! Yetmasa, ajalim yetsa o'laman! Biroq sen aytganday, otajon, qalmoqdan hech qachon qochmayman! Shu boisdan meni mana shunday po'pisalayman degan niyatingdan qaytib, ovora bo'lmasdan, qayta uyga jo'nagin!

Kichkintoy bolasining bu so'zlariga Jaqip nihoyatda hayron qoldi.

"Otangni urayinniki desa!" — so'kindi ichida u. — Bu monqa beshikdan hali beli chiqmay turib, nimalarni dovdirab gapiryapti?! Buning botirligiga, jur'atliligiga shubha yo'q. Lekin u hozir yosh bola emasmi? Agarda uning bu so'zlari qalmoqlarga yetib qolguday bo'lsa, ular bolamni o'ldirib tashlashi turgan gap!" — deya cho'chidi Jaqip.

Biroz o'ylanib turib, Jaqip bolasining so'zlarini ma'qullaganday yuz ko'rsatdi.

— Ma'qul, bolam! — dedi u Manasga. — Qalmoqdan qochmasang qoychmay-la qo'y! O'zi tegishgan bo'la yig'lamaydi deganday, Bayancho'r qalmoq o'zi senga tashlangandan keyin munosib javob olganiga o'zi aybdor. To'g'rimi, bolam?

— To‘g‘ri, otajon! — suyunib ketdi Manas. — Uning oldida mening hech qanday aybim yo‘q.

— Men bunga endi to‘lig‘i bilan ishondim, bolam. Hozir bo‘lsa ikkovimiz erta kunni kech qilmasdan, uyga qaytaylik.

— Nega, otajon?! — cho‘chib tushdi Manas. Men bu yerdan hech qayerga ketmayman. Agarda men ketib qolsam, barcha meni Bayancho‘rdan qo‘rqib, qishlog‘iga qochib ketdi deb masxara qilishadi?!

“Bu qanday qaysar, o‘jar bola?! — o‘kirib yuborayozdi ichida Jaqip. — Xumpar! El seni nima degani bilan sening qanday ishing bor? Bu yerdan eson-omonligingda joningni olib qochmaysanmi, ahmoq?!”.

Biroq tashqarisida Jaqip bu so‘zlarni bolasiga aytmadi. Aytsa, bolasi bundan battar o‘jarlanib, uyga ketmasligini u yaxshi tushundi. Shu boisdan shirin so‘z bilan uni alday boshladi.

— Sen har kimning so‘zini uqaveradigan aqli kammiding, bolam? — jilmaydi u Manasga. — Sen aqlli bolasan! El og‘zida elak yo‘q deydi. Og‘ziga kuchi yetmaganlar har narsani aljirab gapiraverishadi. Unga hech ko‘ngil burmaslik kerak!

— Baribir uyga bormayman! — ters boshini chayqadi Manas. — Men birovlarga masxara bo‘lishni xohlamayman.

— Sen boshqalarning nima deyishi haqida o‘ylama, bolam! — bolasini boshqa tarafdan aldashga o‘tdi Jaqip. — Sen birinchi navbatda onang haqida o‘ylagin. Boyoqish onang seni juda sog‘inib, xumor bo‘lib, kun sayin yig‘lab o‘tiribdi. “Bolamni uyga olib kelmasang, men seni uyga kirgizmayman. Ko‘zimga ko‘rinmay yo‘qol unda!”, — dedi menga onang.

— Onam chindan shu so‘zlarni aytdimi? — ishonmay so‘radi otasidan Manas.

— Ha! — dedi Jaqip. — U haqiqatan shu so‘zlarni aytdi. To‘g‘rimi, O‘shpir? — yuzlandi Jaqip qo‘ychivoniga.

— To‘g‘ri, to‘g‘ri! — Manasdan qanday qilib qutulishning ilojisini topmay turgan O‘shpir shosha-pisha javob berdi. — Onang seni juda sog‘inibdi.

— Eshitdingmi, bolam?! — murojaat qildi Manasga Jaqip. — O‘shpir boy mening so‘zlarimni tasdiqladi.

— Uqdim, ota! — og'ir xo'rsindi Manas.

Bolasining pastlay boshlaganiga, uning yumshoq joyini topganligiga suyungan Jaqip unga yanada ko'proq bosim o'tkaza boshladi.

— Sen onangni yaxshi ko'rasanmi, bolam? — savol berdi u Manasga.

— Ha! — qizarib-bo'zarib javob berdi o'g'li.

— Meni-chi?

— Sizni ham yaxshi ko'raman!

— Unda sen men aytganday qil, bolam. Men bilan qishloqqa qaytgin. Sababi sen bosh tortib, uyga bormay qo'ysang, onang ichikib, yig'layverib, qattiq og'rib qolishi mumkin. Sen onangning og'rib qolishini xohlaysanmi?

— Yo'q, ota!

— Xohlamasang men bilan qishloqqa qaytgin, bolam! Onangni ko'p yig'latmagin! — yalinib so'randi Manasdan Jaqip.

Manas nima qilarini bilmay, ikkilana boshladi.

"Otam meni aldashga harakat qilyapti?! — shubhali tikildi otasiga u. — Biroq uning onam haqida aytgani rost bo'lsa kerak. O'shpir ham otamning so'zini tasdiqladi-ku! Endi nima qilsam? Bu yerda qolsammi yoki uyga ketsammi? Rostini aytsam, uyga ketgim kelmayapti. Qo'zi boqish menga juda yoqdi. Chiroyli yerlarda, hech kim yo'q kimsasiz dalada, adirlarda Chegeboy, boshqa bolalar bilan xohlaganday o'ynab yursang bo'lar ekan. Ikkinchi tarafdan qarasang, men uyga bormasam, onam qayg'urganidan chindan ham og'rib qolishi mumkin. U meni juda yaxshi ko'rmaydimi! — deb Manas og'ir xo'rsindi. — Iloj yo'q. Uyga ketishga to'g'ri keladi!".

— Ota! — yuzlandi Manas toqati toq bo'lib turgan otasiga. — Men siz bilan qishloqqa qaytishga roziman.

— Barakalla, bolam! — minnatdor bo'ldi Jaqip. — Ota o'g'il degan mana shunday mehrli, shafqatli bo'lishi zarur.

Keyin u O'shpirga yuzlandi:

— O'shpir boy! Bizga tamaddi qilgani biron narsa tayyorlab ber! Biz qorong'uga qolmay, yorug'da yo'lga otlanaylik!

— Xo'p bo'ladi! — Manasdan qutulayotganiga suyungan O'shpir oyog'i oyog'iga tegmay, uyiga yugurdi.

Qorinlarini to'ydirib olgandan keyin Jaqip bilan Manas qishlog'iga qarab yo'l tortishdi.

* * *

Esonxonning saroyi. Kunduz. Xonadagi taxtning ustida Esonxon o'tiradi. Uning oldida Bosh rohib boshini yerga egib turadi.

— Gapir, rohib! Nimaga oldimga kirishga buncha oshiqding? — so'radi Esonxon rohibdan.

— Xonim! — javob berdi rohib. — Oltoydagi qalmoqlardan o'ta muhim xabar oldim. O'shani sizga aytayin deb siz bilan uchrashishga shoshildim.

— Gapiraver! — ruxsat berdi Esonxon.

— Xonim! Bundan bir necha yil ilgari Oltoydagi qirg'izlarda Meanas degan yigit tug'ilibdi.

— Tug'ilsa, tug'ilgandir! — dedi Esonxon. — Buning bizga nima aloqasi bor?

— Buni bildirgan qalmoqlarning aytishicha, Manas nihoyatda er yurak, saxiy, botir yigit ekan. U birato'la balog'atga yetmay turib, uni tutqunlab, yo'q qilish zarur.

— Aytadigan gaping shuginami? — burnini jiyirdi Esonxon.

— Ha!

— Unda mening vaqtimni bekor olibsan! — Esonxon Bosh rohibga norozi bo'lib gapirdi. — Qayerdagi kichkinagina, oz sonli qirg'izning botiri mening xonligimga qo'rqinch sola olmaydi. Buyuk Xitoyni hech kim yenga olmaydi!

— Xonim! — dedi rohib. — Manas haqidagi xabarni uqqandan keyin men ham shunday deb o'ylagan edim. Biroq keyin o'yimdan qaytdim.

— Nima uchun?

— Xonim! Menga bu xabarni yetkazgan rohiblarning aytishi bo'yicha, Manas to'g'risidagi ma'lumotlar bizning muqaddas kitoblarda yuzlab, minglab yillar muqaddam aytilgan ekan.

Esonxon bu so'zlarni uqqandan so'ng oldiga qo'zg'alib ketdi.

— Nima? Muqaddas kitoblardami?! — ko'zi chaqchaydi uning.

— Ha, xonim! — javob berdi Bosh rohib. — Ularga muvofiq, Manas balog'atga yetgandan keyin katta qo'l bilan kelib, bizning

Bejinni bosib olar ekan. Shu boisdan bu xabarga jiddiy muomala qilib, tegishli choralarni ko'rish zarur, xonim!

Esonxon o'rnidan turib, o'ychan nari-beri bosdi. Keyin u Bosh rohibning yoniga kelib to'xtadi.

— Manas haqida qanday ma'lumotlar bor? — so'radi u.

— Hozircha bizning bilganimiz shu, xonim!

Bu so'zlarni aytib, Bosh rohib o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, Esonxonga egilib ta'zim qildi. Esonxon unga tikilib qarab, biroz indamay, o'yga botdi. Keyin taxtiga borib, o'rniga qayta o'tirdi.

— Unday bo'lsa, qalmoqlar bilan bog'lanishib, Manas haqidagi to'liq ma'lumotni olinglar, — buyurdi u. — Shundan keyin uni nima qilishni hal qilamiz!

— Xo'p bo'ladi, xonim! — hozirlik bilan javob berdi rohib hamda shoshgan ko'yi tashqariga chiqib ketdi.

* * *

Aq-O'to'kning dalasi. Kunduz. Osmonni qop-qora bulutlar qoplagan, havo aynigan. Dalada Jaqip bilan Manas otchan uyiga borishmoqda. Otlar charchab, zo'r-bazo'r yurishda davom etardi.

Bir payt Jaqip otini to'xtatib, egaridan ko'tarilib, ko'zlarini o'ng qo'li bilan pana qilib, oldi tarafiga tikilib qaradi. Manas ham otining tizginini tortib, uning yoniga kelib to'xtadi.

— Bolam, shu tarafda bizning yilqilarimiz o'tlab yursa kerak?! — o'ychan dedi Jaqip Manasga. — Ularni qaytarib yurgan besh yilqichini Iyman degan bosh yilqichi boshqaradi.

— Bu yerlarning xo'jayini kim, ota? — so'radi Manas.

— Yerlar qalmoqlarga qarashli, — dedi Jaqip. — Ular menga tegmasin deb, men ularga o'ttiz baytal, besh otni o't moyiga berdim.

— Nimaga siz ularga buncha ko'p molni berdingiz, ota? — hayron qoldi Manas.

Jaqip kayfi o'chib, otini oldinga qarab bostirdi.

— E-e, bolam! — norozi bo'lib javob berdi Manasga u. — Bermaslikka iloj bormi?! Agarda hech narsa bermasam, qalmoqlar mening yilqilarimni bu yerda boqtirmay qo'yadi. Molimni o'g'irlab, to'naydi, yilqilarimni urib kaltaklaydi.

Bu javobni uqib, Manas o'ychan, indamay oti bilan Jaqipning otining ortidan bostirdi. Ular biroz yurgandan keyin oldidan qulunlar tarqashib, toychoqlar yayrashib, quyrug'ini sirtga solishib, angilar olishib chiqdi. Birozdan keyin Jaqipning oldiga qorato'ri, uzun bo'yli, chayir gavdali, bosh-ko'zi qon bo'lgan Iyman otchan chopib keldi.

Jaqip bilan Manas uni ko'rib, otlarini to'xtatishdi.

— Hoy, Iyman! — kayfi o'chgancha so'radi undan Jaqip. — Senga nima bo'ldi? Umuman sen, mollar bilan nima ro'y berdi?

Iyman javob bera olmay, o'zini to'xtata olmay, yosh boladay ho'ngrab yig'lab yubordi. Undan nima yuz berganini aniqlab so'raguncha, uning ortidan qamchili, hayqirgan o'n nafar otchan qalmoq chopib kelib, Jaqip bilan Manasning yoniga to'xtashdi.

"Bular qayerdan chiqqan qalmoqlar?" — qo'rqib ketdi hadeganda Jaqip.

Otchanlarga tikilib qarab, ularning oldida turgan boshchisini tanigandan keyin Jaqipning ko'ngli joyiga tushdi.

— Qo'rtuq botir! — murojaat qildi u qalmoqlarning boshchisiga. — Bu nima qilganinglar? Men sizlarga ot moyin berib, yilqimni bu yerlarda boqishga sizlardan ruxsat olgan edim-ku?! Nima uchun sizlar mening yilqichimni savalab, yilqimni quvib kelyapsizlar? Yo mening bergan ot moyim sizlarga kamlik qildimi?! — xafa bo'lib so'radi u.

Uzun bo'yli, keng yelkali, sariq yuzli, qisiq ko'zli Qo'rtuq bilan qalmoqlar Jaqipning yig'laguday bo'lib, bo'zarib-qizarganini ko'rib, uni masxara qilib kulishdi.

— Sizlar nega kulyapsizlar? — bundan battar izza bo'ldi Jaqip. — Erkakcha gaplashgandan keyin so'zinglarda turmagan sizlar qanaqa qiztaka kimsasizlar?!

Jaqipning bu so'zlaridan achchiqlangan Qo'rtuq uni oti bilan yovlab o'tdi.

— Qaynotam amaldor mening, boy Jaqip! Hokimingga tog'dek sening, boy Jaqip! — g'azablanib so'kdi u Jaqipni.

Jaqip ularga nima deyishini bilmay sulayib turib qoldi.

— Ota, qalmoqning bu nima degani? — hayron qolib so'radi o'shanda Manas.

Jaqip Manasga o'girilib, shoshgancha javob berdi:

— Aylanayin bolam! — dedi u. — Buning nimasini so'raysan? Bobong nihoyatda azob tortishga hozir turibdi.

Shu payt Qo'rtuq qamchi bilan Jaqipnining boshiga chopdi.

— Bizni qiztaka degan unday emas, bunday bo'ladi! — deb so'kdi u Jaqipni.

O'shanda o'n qalmoqning barchasi Jaqipni urish uchun uni o'rab olishdi. Ularning qarigan cholni ur-tepkiga olishi Manasga oydek ravshan bo'ldi. Otasini og'ir ahvoldan qutqarish uchun u Iymanning qo'lidagi yosh qayindan yasalgan ukrukni tortib olib, oti bilan qalmoqlarga bostirib borib, Qo'rtuqning naq cho'qqisiga soldi. Qalmoqning boshi yorilib, otdan yerga qulab tushdi. Boshlig'iga suiqasd qilinganini ko'rgan qalmoqlarning izza bo'lganlikdan ranglari bo'zarib-oqardi.

— Ey, qalmoqlar! — qiyqirdi qalmoqlardan biri yonidagi sheriklariga. — Jaqipning bolasi ukruk oldi, boshchi bo'lgan Qo'rtuqning boshin yorib soldi. Bu bolani tutib olaylik, boshiga teri solaylik. Boy Jaqipga tuk qo'ymay, talab ketib qolaylik!!! — deb qiyqirganda tirik qolgan to'qqiz qalmoq Manasga hamla qilishga o'tishdi.

Manas bilan qalmoqlarning o'rtasida urush boshlandi. Manas yoniga kelgan o'rta bo'yli, sariq yuzli, yuzida tirtig'i bor qalmoqni ukruk bilan urganda, u otidan uzala tushdi. Unga ergashib to'ladan kelgan, qorato'ri ikkinchi qalmoqni Manas qamchi bilan chopganda, u ham otdan uchib tushdi.

Bir zumda uch yo'ldoshidan ajragan qalmoqlarning esi og'di. Manasga holi yetmasligini tushunib, ular otlarini qayta burishib, dala bo'ylab qocha boshlashdi. Manas bilan Jaqipning olti yilqichisi qalmoqlarning ortidan quvib ketishdi.

Bungacha nima bo'lib ketganini tushunmay hang-mang bo'lib, sulayib qotib qolgan Jaqip qalmoqlar qochgandan so'ng o'ziga keldi.

"Xudo o'zing saqla! Yuragi og'ziga tiqildi uning. — Bolam bir emas, uch qalmoqni otdan ag'darib qo'ydi. Agarda ular yarador bo'lib, yoki o'lib qolsa, qalmoqlar meni tiriklayin so'yishadi. Hech kim bu voqea haqida bilmay turib zudlik bilan to'xtatib, qishloqqa qochay!".

Shunday o'ylar bilan Jaqip Manasning ortidan otchan quvib jo'nadi.

— Hoy, to'xta, bolam! To'xta, Cho'ng Jinni! — qiyqirdi u bolasining sharpasi ko'ringanda.

Manas otasining ovozini eshtib, ostidagi otining og'zini tortib qoldi. Olti yilqichi ham otlarini to'xtatishdi. Bundan foydalanib, qalmoqlar chopgan bo'yi, qishlog'iga qochib ketishdi.

O'shanda Jaqip Manasga yetib kelib, uning otining chilviridan ushlab qoldi.

— Aylanayin, tayanchim, oldi-ortingga qaragin! — entikib so'zladi u bolasiga.

— Nega, ota? — savol bilan tikildi unga Manas.— Bu yerda qadrli qirg'iz eling yo'q, hozir epchillik qilar eping yo'q, — javob berdi Jaqip. — Boldir eting to'lgan yo'q, qora cho'g'li ko'p o'yro't, qalmoq qaydan seni sog' qo'yar? Qora ko'zin o'yarmi, qarib qolgan otangning, kofirlar tutib so'yarmi? — to'lqinlanib ketdi o'zini o'zi ayaganidan Jaqip.

— Ular sizni nima uchun so'yadi, ota? — hayron qoldi Manas. — Siz ularga hech narsa qilgan yo'qsiz-ku?!

— Nima uchun deb qo'yadi, bu juvonmarg?! — aziyat chekib dedi Jaqip. — Unutib qo'ydingmi, bolam, qilgan qiliqlaringni? Hadeganda qalmoqlarning boshchisini so'yding, meni baloga qo'yding. Keyin ulardan yana ikkisini o'ldirding. Yurgin, qaytib boraylik, qalmoqlarni ko'raylik. Ne qilarkin kofirlar, xohlasa xunin beraylik!

— Eh, otajon, behuda qo'rqding beto'zim! — norozi bo'lib dedi Manas. — Umuman ayt-chi, xun deganing ne o'zi?

— Xun deb sanab mol olar. Bu moliga ko'nmasang, jami qirg'iz talanar! — achchiqlanib javob berdi Jaqip Manasga. — Oxirida, qulunim, o'zingni ham o'ldirib, ko'zing olgay o'ydirib.

— Ota, qayg'urmangiz! — o'ktam so'yladi Manas otasiga. — Biz qalmoqlarga hech narsa bermasligimiz kerak. Biz ulardan qanchalik qo'rqsak, ular shunchalar hovliqaverishadi, ota!

— Eh, bolam, unday deganing bilan ular bizdan ko'p, — qayg'uli javob berdi bolasining so'zlariga Jaqip. — Bizning holimiz ularga yetmaydi!

— Yo‘q, ota! — Manas Jaqipga haybatli javob berdi. — Biz barchamiz birga bo‘lsak, hech kimga yemimizni yedirmaymiz.

— Gaping to‘g‘ri, bolam, — deb Jaqip og‘ir ho‘rsindi. — Birlashgan xalq hammani yengadi. Endi bo‘lar ish bo‘ldi, xumori qondi. Ajali yetgan ekan, o‘ladigan qalmoq o‘ldi. Yur, endi yilqini haydab uyga ketaylik. Xudo manglayimizga yozganini ko‘ramiz, bolam! — deb u bolasi hamda yilqichilar bilan ortga, yilqisi tarafga oxista otchan bostirib jo‘nadi.

* * *

Yo‘lda ketib borayotganda otasining qovog‘i ochilmaganini ko‘rgan Manas o‘zini nihoyatda noqulay sezdi.

— Hoy, otaginam! — dedi Jaqipga Manas. — Bir qalmoq o‘ldi deb, ko‘p qayg‘uraverma. Bo‘lgan voqealarga qalmoqlarning o‘zi aybdor. Undan ko‘ra mening bunday savolimga javob ber-chi. Yilqichi Iymanning aytishi bo‘yicha, shuncha ko‘p yilqi bizniki ekan. Shu so‘z to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri! — deb bo‘yniga oldi Jaqip.

— Yilqingning soni qirq mingga yetibdi, — dedi o‘shanda Manas. — Men qalmoqqa qirg‘in cholarda meni to‘xtatganing — rizqimni qiyganing! Men senga o‘xshab, birovdan qo‘rqib, mol yig‘mayman. Nomus uchun omonat jonimni ayamayman! Qo‘qqis shu asnoda qazo topsam, armonda ketmasligim uchun mening otanaslimni aytib ber, otajon!

— E-e, bolam! — og‘ir xo‘rsindi Jaqip. — Shu paytgacha seni hali bola deb, hech narsani senga aytmay yurgan edim. O‘zing so‘rab qolding. Endi aytmasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi.

— Aytib ber, otajon! — so‘randi Manas.

— So‘zimni uq, bolam! — dedi Jaqip. — Birinchi navbatda aytadigan so‘z — sening isming Cho‘ng Jindi emas, Manas.

— Manas?! — hayron qoldi bola. — Unda nega sizlar meni Cho‘ng Jindi deb atab yurdinglar?!

— Buning sababi — sening umringni saqlash uchun edi! — javob berdi Jaqip. — Sen oddiy bola emassan. Sen qirg‘iz eliga, qirg‘iz yurtiga Xudo bergan bolasan. Sen hozir tarqoq bo‘lgan elingni kelajakda biriktirib, uning dushmanlarini vayron qilib, qirg‘izning nomusini himoya qilib berasan!

— Haqiqatanmi? — Manas Jaqipga ishonmaganday tang qolib qaradi. — Ota, siz meni boshqa birov bilan adashtirmayapsizmi?

— Bolam, sen menga ishonmayotganingni tushunib turibman! — Jaqip Manasga mehr bilan jilmaydi. — Biroq mening so'zlarimning barchasi haqiqat. Sen tug'ilishingdan burun qalmoqlarning Irangquduq degan bashoratchisi muqaddas "Istirlap" degan kitobidan qirg'izlarda Manas ismli bola tug'ilishini, u Bejinga qadar barcha yerlarni bosib olishini qalmoqlarning xoni Alokega aytgan. O'shanda Aloke Manasni topib, uni o'ldirishga buyruq bergan. Shu sababli seni o'zimdan saqlab qolish uchun biz sening ismingni "Cho'ng Jindi" deb o'zgartirib qo'yganmiz.

Manas otasining so'zlariga ishonish-ishonmasini bilmay, boshi karaxt bo'ldi. Keyin bir narsa esiga tushganday, boshini ko'tarib, otasiga yuzlandi.

— Ota! — dedi u Jaqibga. — Men sizning so'zingizga ishondim deylik. Biroq sizlar mening aynan o'sha Manas ekanimni qaydan bilasizlar? Balkim men mutlaqo boshqa odamdirman? — savol berdi u otasiga.

Jaqip unga jilmayib qaradi.

— "Istirlap"da yangi tug'ilgan Manasning kaftida "Manas" degan yozuvi bo'lishi kerakligi aytilgan ekan, — javob berdi Jaqip. — Sen tug'ilganda o'ng kaftingda aynan shunday yozuvni barchamiz ko'rib, sening kim ekanligingni bildik, bolam!

— Menda hozir bunday yozuv yo'q-ku! — o'ng kaftini ko'rsatdi otasiga Manas. — Bunga nima deysiz?

— Sening qo'lingdagi yozuv sen tug'ilganingdan bir necha kun keyin yo'q bo'lib ketdi, bolam! — tushuntirdi Jaqip bolasiga bu jumboqning javobini.

Manas bu javobni uqib, yana o'ylanib qoldi. Keyin u qaytadan Jaqipga savol bilan yuzlandi.

— Undan keyin nima bo'ldi? — deb so'radi u. — Siz shu paytgacha meni qalmoqlardan qanday saqlab keldingiz? Ular keyin Manas ismli bolani izlamay qo'yishdimi?

— O'zining dushmanini ular qanday qilib izlamay qo'ysin, bolam? — o'shqirib yubordi Jaqip. — Nihoyatda izlashdi. Bi-

roq biz seni ulardan qo'ldan kelishicha yashirdik. Ularning rohiblari, boshqa tekshiruvchilari bizning qishloqqa kelayotganda seni berikitib qo'yamiz. Ularning o'zini bo'lsa araqqa to'ydirib, xohlaganicha pul berib, yo'liga solar edik. Shunday yo'l bilan biz seni o'limdan olib qoldik.

— Aytganlaringni tushundim, ota! Men o'zimning kim ekaligimni bildim. Endi mening ota-tagimni aytib ber, otajon?! — deb so'randi Manas.

— Mayli, bolam! — javob berdi Jaqip. — Sening urug'ing qirg'iz. Biz yurtidan ayrilgan elmiz! — deb Jaqip elining boshidan o'tgan voqyelarning hammasini aytib berdi.

Otasining aytganlarini qunt bilan uqqan Manasning ichi achishdi.

"Biz bu yerda oz el ekanmiz-da! — xafalandi u. — Otam qalmoqlardan buncha qo'rqadi deb hayron qolib yurgan edim. Anglasam, ilgari ulardan yengilib, talaygina xo'rlik ko'rgan ekan-da, boyoqish qirg'iz elim! Men bo'lsa buni bilmasdan, qalmoqni o'ldirib, shaytonday ish qilibman. Attang, haligi bo'ri bo'lib ko'ringan qirq kishi qayoqqa ketib qoldi ekan? Agarda ular yonimda bo'lsa, men qalmoqdan ham, xitoydan ham qo'rqmasdan, barchasining tanobini tortib qo'yardim!" — deb Manas dalaga umidvor qaradi.

To'satdan uning ko'ziga qizil bayroq ko'targan haligi qirq kishi ko'rindi. Ularni ko'rganda bola quvonganidan qiyqirib, suyungancha kulib yubordi.

— Bolam, nega kulding? — hayron qoldi uning yonida turgan Jaqip. — Chor atrofda kuladigan hech kim yo'q-ku?! Yo meni o'kinchga solib, qalmoqni so'yganingdan ta'sirlanib kulyapsanmi?

Manas otasiga javob berguncha, uning yoniga qirq nafar otchan kelib qoldi. Otasini ko'ziga ilmay, u otchanlar bilan so'ylasha boshladi. Bola ularga qalmoqlar bilan chatoqlashib ketganligini, ularning boshchisini o'ldirib qo'yganligini, buning natijasida otasi hozir qayg'urib, uni ta'qibga olayotganini aytib berdi.

— Sen bunga ko'p qayg'uraverma! — deyishdi qirq chiltonlar. — Yaxshisi ko'zingni yumgin!

Manas rozi bo'lib, ko'zlarini yumdi. Qaytadan ularni ochsa, ko'zi yetgan yerning barida ko'k temir kiyingan ko'p askar turibdi. Ularning oldida boshiga tilla toj kiygan, nufuzli soqolli birov turadi.

— Bu kimning qo'li? — hayron qolib so'radi qirq chiltondan Manas.

— Haq buyrug'i bizniki, askarning bari sizniki! — javob berdi chiltonlardan biri. — Sen o'tganga hech qayg'urmagin. Kelajakda sening boshingga davlat qo'nadi. Sen o'ldirgan qalmoqning bolasi senga chin dildan berilgan yo'ldosh bo'ladi. U senga ushlashga qo'l, g'azotga chiqsang yo'l bo'ladi!

Bu so'zlardan quvongan Manas yana savol berdi:

— Lashkarning boshida turgan kim?

— U amaking Boyning bolasi, o'n besh yoshdagi Baqay! Endi ko'zingni ochgin! — deyishdi ular.

Manas ko'zini ochsa, yonida hech kim yo'q. Otasi ham, qirq chilton ham g'oyib bo'libdi. O'zi bo'lsa keng dalada yolg'iz turadi. Huv olisdagina Iyman yilqini haydab, yig'ib yuradi. Buni ko'rgan Manas ho'ngrab yig'lab yubordi.

— Sho'rlik jonim! — xafa bo'ldi u. — Men qirq chiltonni o'ngimda emas, tushimda ko'rgan ekanman-da! Otajonim ham meni tashlab ketibdi. Kimsasiz dala, yovvoyi biyobonda meni yolg'iz tashlab ketguday, men unga nima yomonlik qildim?! Qalmoqni o'ldirding deb, menga kesatayotgan bo'lsa, mayli, uning aytganini qilay. Yilqining barchasini qalmoqqa haydab olib borib beray! — deb Manas qayg'urib turganda uning yoniga Iyman chavandoz bostirib keldi.

Yilqichisidan uyalib, Manas teskari qarab, unga bildirmay ko'z yoshini artib, keyin unga yana burildi.

— Iyman amaki! — dedi yilqichiga u. — Yilqingni haydab tur, Mening birlan birga yur! — deb buyruq berdi Manas.

— Qayga? — hayron bo'lib so'radi Iyman.

— O'lgan qalmoqning qishlog'iga! Biz ularga xun sifatida yilqining barchasini beramiz! — dedi Manas.

— Sen nima deyapsan?! — esi og'di Iymanning. — Qalmoqni o'ldirib qo'yib, emi o'chashganday ularning qishlog'iga borasanmi?

— Ha! — tund javob berdi Manas yilqichisiga.

Bolaning qat'iy alpozini ko'rgan Iyman Manasga yalina boshladi:

— Qo'y, bolam! — dedi u. — G'alvani boshlama! Sen hozir shoshqaloqlik qilyapsan. Biroq qalmoqlar yopirilib kelganda, o'zingni bilmay qolasan!

— Ko‘p gapirmasdan, aytganimni qil! — Manas Iymanga keskin javob berib, unga sirli qaradi.

Agarda buyruqni bajarmasa, o‘zi ham sog‘ qolmasligini tushungan Iyman chorasi yo‘q, yilqini qalmoqlarning qishlog‘iga haydab jo‘nadi.

* * *

Manas o‘ylaganday, Jaqip o‘zidan o‘zi bolasini kimsasiz dalaga tashlab ketgani yo‘q. U bolasiga ota-tagi haqida aytib bergandan keyinoq Manas bir mahal hech narsadan hech narsa yo‘q, xayoliga kelgan so‘zlarni aytib, birovlar bilan gaplasha boshladi. Oxirida “qirg‘iz, qirg‘iz!” deb xitob chaqirib, o‘rnidan turib, otiga sakrab minib, tog‘ yonbag‘irlab chopib jo‘nadi.

“Voy, bolamga nima bo‘ldi? — esi og‘di Jaqipning. — Uning bo‘yniga ajina minib, jinni bo‘lib qolganga o‘xshaydi!”

Rangi o‘chgan Jaqip bolasining ortidan otda quvib ketdi. U qanchalar qiyqirib, baqirsa ham Manas otasini eshitmas, uni yetkizmasdan, boshi oqqan tarafga qochib ketardi.

Bolasiga yeta olmay, charchagan Jaqip noilojlikdan oqshomda uyiga qaytdi. Uyda bo‘lsa Chiyirdi boyvuchcha bolasi bilan cholining kelishini chidamsizlik bilan kutib, ovqatini tayyorlab, dasturxonini yozib o‘tiribdi.

Jaqip uyga o‘zi yolg‘iz kirib kelganini ko‘rgan ena undan tinchsizlana so‘radi:

— Sen nimaga bir o‘zing kelding? Manas O‘shpirdan qayta uyga qaytishdan bosh tortdimi?

Boyvuchchasining savoliga darrov javob bermasdan, Jaqip indamasdan to‘rdagi to‘shakka borib o‘tirdi. Oldidagi dasturxonda turgan qimizdan ikki-uch marta ho‘plab, uni dasturxonga qaytib qo‘ydi.

— Bolang O‘shpirdan uyga qaytishga rozi bo‘ldi, — ayolining savoliga ko‘ngilsiz javob berdi u.

— Yaxshi ekan! — dedi Chiyirdi. — Unda bolam qani? Nimaga u sen bilan uyga kelmadi?

— Boyvuchcha! — dedi Jaqip sust. — Yo‘lda kelayotganda xayolga kelmagan ishlar bo‘lib ketdi.

— Nima bo'ldi? — yomonlikni ayttirmay sezgan boyoqish enaning yuragi shuv etib tushdi.

Jaqip qimizdan yana bir marta ho'plab olib, yo'lda bo'lgan voqeaning hammasini aytib berdi. U gapirib bo'lganda Chiyirdi unga chaqchayib qaradi.

"Bu kalbosh chol jinnimi yo sog'mi? — o'yladi u. — Bolasini tog'-toshning orasiga yolg'iz tashlab qo'yib, qanday qilib hech narsa bo'lmaganday uyga qaytib keldi? Qandoq yuragi chidab, hozir beparvo qimiz ichib o'tiribdi?!", deb achchig'i keldi uning.

— Sen qanday ahmoq cholsan? — o'kirib-qiyqirib yubordi Chiyirdi. — Hech bo'lmaganda menga Yaratgan bergan bitta mehnatkash bolamni eplab tarbiyalay olmading. Keyin to'xtalsin degan bahona bilan O'shpirga malaylikka berib, uni xo'rlading. Kamiga "bolam qalmoqni o'ldirdi, jinni bo'lib qoldi", — deb uni keng dalaga yolg'iz tashlab kelibsan! Sen nima, boladan to'ydingmi?!

— Men nima qilishim kerak edi? — oqlanishga harakat qildi Jaqip. — Bolang menga tutqich bermay, qochib ketdi!

— O'-o', sho'rlik boshim! — Yig'lay boshladi Chiyirdi. — Yolg'iz bolamdan ayrilib, uning qorasini ko'rmay, dasht-u biyobonda yolg'iz qolamanmi?

— Qo'y, boyvuchcha, ko'p yig'lama-chi! — yupata boshladi uni Jaqip. — Xudo xohlasa, bolang eson-omon uyga qaytib keladi!

Cholining bu so'zlariga yupanishning o'rniga, Chiyirdining achchig'i kuchayib, to'lib-toshib, bundan battar ayyuhannos soldi.

— Yilqing bilan qurib ketgur, nega uyga yolg'iz qochib kelding? — baqirdi u Jaqipga. — Nimaga bolamni ushlamaguncha quvlamading? Nima uchun uning o'ligini yoki tirigini menga olib kelmading? Bolam o'lsa, Alloh taoloning buyrug'i shu ekan deb, ko'nmasmidim? Yo uni qochirmay tutib, mening o'z qo'limga bermasmiding? Bolamni dalaga yolg'iz tashlagan, bolabezor qanday ota eding sen?! — deb yanada battar chinqirdi Chiyirdi.

— Qo'y, boyvuchcha! O'zingni bos! — Jaqip boyvuchchasining qo'lini silab, uni yupata boshladi.

— Silama, qo'limni! — achchig'i bilan yulib oldi qo'lini Chiyirdi!!! — Men senga mushuk emasman! Meni aldamasdan, topib ber bolamni!!!

— Men uni qayerdan topaman?! — o'z navbatida achchiqlana boshladi Jaqip.

— Qaydan topsang, o'sha yoqdan top?! — do'q urdi Chiyirdi.

Jaqip achchig'i bilan unga qattiq javob berayin deb, keyin o'zini tiydi.

— Ma'qul, boyvuchcha! — yumshoq so'yladi u. — Hozir kech bo'lib qoldi. Bugun dam olib, ertaga ertalab turib, Manasni izlagani chiqaman.

— Yo'q, — jini kelib dedi Chiyirdi. — Sen Manasni izlagani ertaga emas, hoziroq jo'nagin!

— Xotin! — qaytadan jini kela boshlagan Jaqip o'zini arang tutdi. — Qorong'uda men Manasni emas, mushukni ham topmayman. Shu sababdan uni izlagani ertaga ertalab chiqayin?!

— Yo'q! Sen hozir chiqasan! — ijirg'anib dedi Chiyirdi. — Bolangni yolg'iz kimsasiz dalaga tashlab qo'yib, sen qanday qilib uyda tinch uxlay olasan?!

— Men hozir hech qayerga bormayman! — achchiqlanib javob berdi Jaqip. — Kechgacha uni izlamagan jarlik-pastligim, qir-adirim qolmadi. Juda charchadim. Dam olib, uni ertaga izlayman.

— Nima, senga bola kerak emasmi?! — baqirdi unga Chiyirdi.

— Kerak! — loqayd javob berdi Jaqip. — Biroq men u tufayli qorong'u tunda jardan uchib ketishni, yoki kimsasiz dasht-u biyobonda chiya bo'rilarga yem bo'lishni xohlamayman!

— Unda uni ayol boshim bilan men izlayinmi?!

— Izlamaygina qo'y! Damingni ol! Men uni ertaga o'zim izlayman!

— Yo'q! Manasni izlashga men hozir chiqaman! — o'jarlanib dedi Chiyirdi.

— Bilganingni qil-chi, xotin! — charchagan kuyi javob berdi Jaqip. — Sen bilan aljirayverib, charchadim. Xohlasang Manasni hozir izla. Xohlamasang izlama! Men bo'lsa yotib, dam olaman.

Jaqip chindan ham to'shakka yotib olganda, Chiyirdi unga nafrat bilan qaradi. Cholining Manasni hozir topishga hech qanday niyati yo'q ekanligiga ko'zi yetgan boyvuchcha bolasini o'zi izlaydigan bo'ldi.

Tashqariga chiqib, u Jaqipning kelgan yo'liga razm soldi. Biroq bolasining sharpasi ko'rinmadi.

Nima qilishini bilmay, u biroz o'ylanib turdi.

"Qo'y, bunday so'ppayib turgan bilan naf chiqmaydi! — og'ir xo'rsindi u. — Men hozir boyning otini minib, yo'lga chiqay. Bolam tirik yoki o'lik ekanligini bilay. Agarda Manas qalmoqlarga qo'lga tushib qolgan bo'lsa, uning xo'rligini ko'rmay o'lay!".

Chiyirdi Qambarbo'zning uyuriga borib, chetda turgan Bo'ztaylaq otini yechib, unga mindi. Shu payt uydan Jaqip chiqib qoldi.

— Otni minib qayga ketyapsan? — otning chilvirini ushlab, achchiqlana so'radi u Chiyirdidan.

— Men sen kabi boladan to'ygan jon emasman! — xafa bo'lib javob berdi u choliga. — Qarg'a bolasini oppog'im, kirpi bolasini yumshog'im deydi. Ular bolasini po'palab boqishadi, dushmandan himoya qilishadi. Sen o'shalarchalik bo'la olmading. Yolg'iz bolangni dushmanlarning orasiga tashlab kelding. Biroq senga bola kerak bo'lmasa, menga kerak. Men uning o'lik yoki tirikligini bilmaguncha, uyga qaytmayman. Qoch yo'ldan! — Chiyirdi bor kuchi bilan, Jaqipning qo'lidan otning chilvirini sug'urib oldi.

Keyin otini choptirgancha, Manasni izlagani jo'nadi.

* * *

Manasdan omon qolgan olti qalmoqning ikkovining qo'li sinibdi, birining oyog'i chiqibdi, uchovining boshi olinibdi. O'lib yotgan Qo'rtuqni ular o'z ko'zlari bilan ko'rib, Qarsiman suvining bo'yidagi qishlog'iga borishdi. Qishloqdoshlariga Manasdan ko'rgan xo'rligini aytishib, ular nihoyatda o'kirib yig'lashdi. Bu xabarni uqqan qalmoqlar sarosimaga tushishdi. Ular qirg'izlarning barchasini o'ldirib, molini tortib olishga ahd qilishdi. Chor atrofga xabar berib, ular qo'shin to'play boshlashdi.

Qalmoqlarning bu niyati haqida Jaqipga Salamatning inisi Sarban xabar qildi. U kelganda Jaqip uyda dam olib o'tirgan edi. Uning oldidagi pasttakkina mis stolga dasturxon yozilib, tovoqda go'sht, qimiz quyilgan sanoch, non, chinnilarda qaymoq, sariyog', pishloq qo'yilgan.

Jaqip qimizdan ichib, boyvuchchasi bilan bolasining qayerda yurganini o'ylab, afsus chekib o'tirganda tashqaridan uzun bo'yli, sariq yuzli, ingichka jag'li, oriqchiroy Sarban kirib keldi. Uni ko'rgan Jaqip mehmonni hurmatlab, o'rnidan turdi.

— Kel, Sarban! — dedi u. — To‘rga o‘t!

— Rahmat, boy! — deb Sarban Jaqipning yoniga kelib o‘tirdi.

Jaqip Sarbanga sanochdan chinniga qimiz quydi. Sarban qimizdan bir-ikki ho‘plab, Jaqipga yuzlandi.

— Boy! — dedi u Jaqipga. — Men sizga bir yomon xabar bilan keldim.

— Aytaver xabaringni! — boshini silkidi Jaqip.

— Sizning bolangiz o‘ldirgan Qo‘rtuqning omon qolgan olti sherigi qalmoqlarga boribdi, — dedi Sarban. — Ular bariga Manasdan ko‘rgan xo‘rligini aytishibdi. O‘shanda qalmoqlar qishloq ahlini ko‘tarib, undagi yilqini olishga, bizga xo‘rlik solishga ahd qilishibdi. Sizni tirik qo‘ymay, molingizni to‘nab ketaylik deb, har tarafga otlanib, qalmoqlariga xabar yetkazibdi!

Jaqip chinnisidagi qimizdan bir ho‘plab, dasturxondagi nondan olib, chinnidagi sariyog‘ga botirib, yeb, biroz o‘ylanib o‘tirdi. Keyin Sarbanga savol bilan yuzlandi.

— Ular bizga qachon keladigan bo‘lishibdi? — so‘radi u sir boy bermasdan.

— Ertaga choshgohda ular sizni chopib tashlashga kelishadi! — deb javob berdi Sarban.

— Jaqip “tushundim” deganday, boshini egdi. Chinnisidagi qimizdan yana bir-ikki ho‘plam ichdi.

— Qalmoqlar bizga qattiq kek saqlaganga o‘xshaydi?! — dedi u o‘ychan. — Barchamiz birikmasak, ular bizni qirib tashlashi mumkin!

— To‘g‘ri aytasiz, boy! — ko‘ndi Sarban.

Jaqip qimizdan yana ho‘pladi. Sarban ham o‘zining qimizini icha boshladi. Bir lahza uyda sukunat hukm surdi. Jaqip boshini quyi solib, iyagini silab, o‘ychan o‘tirdi. Keyin u boshini yuqoriga ko‘tarib, Sarbanga murojaat qildi.

— Sen hozir otlanib, Oqboltaga, Bridkega, Dambildaga, Salamat bilan O‘shpirga, Qarabek qozoq biyiga, Naymandan Cho‘ro‘ botirga, qo‘ng‘urat Boybaq qariga, Aydarxonga borib, mendan salom aytgin! — buyruq berdi u Sarbanga. — Yov kelayotir, bizga yordam bersin deb Jaqip boy so‘ranyapti degin bariga. Birdam bo‘lmasak, yolg‘izlikda bizning hech birimiz qalmoqlarga turish berolmaymiz! Qalmoq kelayotganda, ular qanday yotar uyida!

— Xo'p bo'ladi, boy! — deb javob berdi Sarban. — Barchasiga sizning so'zlaringizni oqizmay-tomizmay aytib boraman!

Choparni yuborgandan keyin Jaqip o'zicha afsuslandi.

"Bo'ztaylaqni minib ketgan Chiyirdi nima bo'ldi ekan? — tinchsizlandi u. — Boshqasi yetmayotganday, shunday paytda ayolning qilig'i o'tdi menga! Tagimga kampirim yetadigan bo'ldi!"

Bolasining qochib, tayinsiz yo'qolganini eslab, Jaqip Yaratganga iltijo qila boshladi.

— O'-o', Xudo! — o'ylandi u. — Mol-mulkimni, jonimni olsang roziman. Lekin Manas bolam omon qolsa bo'lgani!".

... Jaqipni vahimaga solgan Chiyirdi bo'lsa bu paytda yig'lab, bolasini topmay yurdi. Unga yo'liqqan tog'-toshni, jarlig-u tekislikning birontasini qoldirmay, tuni bilan Manasni izladi. Biroq undan tayin yo'q.

Yerga yorug' tushganda Chiyirdi bir qirni oshib o'tgandan keyin ikki tarafi teng tog' bilan o'ralgan keng daraga duch keldi. Unda zamin to'la yilqi o'tlab yuribdi.

"Bu kimning yilqisi bo'ldi ekan? — o'zicha o'ylandi Chiyirdi. — Balkim, uni qaytargan yilqichilar bolamning tayinini bilishar? Nima bo'lganda ham ular bilan gaplashib ko'rayin! — deya ko'nglidan o'tkazdi u.

Chiyirdi yilqilarga yaqin kelganda, uning oldidan to'satdan Manas chiqib qoldi. Onasining yolg'iz yurganini ko'rgan Manas cho'chib ketdi.

— Onajon! — dedi u. — Sizga nima bo'ldi? Otamning otini minib qayerga ketyapsiz? Ikki ko'zingiz yig'laganday shishib ketibdi. Sizni kim xafa qildi? Asli sizga nima bo'ldi? — deb, savollarni yomg'irdek yog'dirdi Manas.

— Bolam! — yig'lamsirab javob berdi unga Chiyirdi. — Seni O'shpirdan olib kelaman degan otang qishloqqa yolg'iz bordi. "Manas bolang yilqiga tekkan qalmoqlarni kaltaklab, boshchisini o'ldirdi. Keyin u jinni bo'lib qolib, qochib ketdi!" — deb menga sovuq xabar aytdi. O'shandan keyin men seni izlab chiqdim. Xudoga shukur. Seni eson-omon topib oldim. Endi yur ketaylik uyga, bolam. Bu kimsasiz dalada bizga nima bor? — yalinib qaradi bolasiga ona.

— Mayli, ona! — deb javob berdi Manas.

Keyin u qirga chiqib Iymanni chaqirdi.

— Men bu yerdaman! — deb Iyman yilqining bir chetidan chiqib keldi.

— Iyman! Senda qancha yilqi bor? — so'radi undan Manas.

— Sakkiz ming besh yuz!

— Unda bunday qilinglar! — buyruq berdi Manas. — Qalmoqlar kelsa, sizlarning baribir ularga holinglar teng kelmaydi. Shu boisdan yilqining barini qalmoqlarning qishlog'iga bostirib haydanglar. Ularni to'play olmay qalmoqlar azobda qolsin!

Yilqining hammasini yilqichilar qalmoqlarning qishlog'iga hayday boshlaganini ko'rgandan keyin ko'ngli tinchlangan Manas enasi bilan qishlog'iga qarab yo'l oldi.

Biroq ularning uyiga tinch yetishiga mumkinchilik bo'lmadi. Sababi ularga yo'lda yetti qalmoq yo'liqib qoldi. Bu qalmoqlar Qo'rtuqning dalada qolgan jasadini olib ketgani bir tuyani yetaklab kelayotgan edi. Ularning orasida Manas bilan chopishganlarning biri — Tarbin degan qalmoq bor edi. Bo'yi uzun, oriqdan kelgan, sariq yuzli, siyrak soqolchan Tarbin ot ustida o'ychan borayotgan edi. U Qo'rtuqni eslab, alamidan o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan edi.

"Otangni urayinning buruti!" — ichida so'kindi u. — O'ntamizning mushtdek bir bolaga holimiz yetmadi. Bu nima degan bema'nilik?! Jimgina iching kuyar ekan. Shoshmay tur, burut?! Barchamiz to'planib, qishlog'ingga qo'l solganda qalmoqlarga qo'l ko'tarish qanday bo'lishini bilib olasan!!!".

Manasga ijirg'anib, kek saqlab borayotgan Tarbinning qarshisidan to'satdan Chiyirdi otchan chiqib qoldi.

"Bu qayerdan kelayotgan ayol? — tang qoldi Tarbin. — Tusiga qaraganda, qirg'izga o'xshaydi". Ko'rmaysanmi, bu itlarning qilganini! Endi erkaklari qolib, xotinlari ham bizning yerimizda kunduzgina emas, tunda ham emin-erkin yura boshlashibdi. Qalmoqning omadi ketgani shu emasmi?!"

Yuragi qon bo'lib, xafa bo'lgan Tarbinga Chiyirdining ortidan Manas otchan bostirib keldi.

"Bu burutning ayoli o'zi yolg'iz yurmasdan, bolasini yetaklab olgan ekan-ku?!" — nafratlanib o'yga toldi Tarbin.

Hadeganda u Manasni tanimadi. Sababi kun botib, oqshom tusha boshlagan edi. Manas uning yoniga yaqin kelgandagina, Tarbin uni yaqqol tanidi.

— Hoy, qalmoqlar! — hay-hayni boshladi u. Xuddi shu bola Qo'rtuqni yutgan!

— Aytganing chin bo'lsa, bu bolani onasi bilan qishloqqa haydab ketaylik! — dedi qalmoqlardan biri. — Ko'pib yurgan bolaning ta'zirini beraylik!

Ularning biri murda ortilgan tuyaning yonida qolib, qolgan oltovlon otchan Manasga chopib borishdi. Buni ko'rgan Chiyirdining rangi o'chdi.

— Aylanay, bolam! — yuzlandi u Manasga. — Qalmoqlar bizni ushlagani kelganini tushundingmi?

— Kelsa kelgandir! — beparvo javob berdi Manas. — Bunga namuncha qayg'urasan? Ular oltitagina kishi ekan-ku. Ularning menga holi yetmaydi. Oltita emas oltimishi kelsin. Men ularga yemagimni oldirmayman!

Chopib kelgan olti qalmoq Manas bilan Chiyirdini o'rtaga oldi. Birovi Manasning otining chilvirini ushlashga qo'lini cho'zgan edi, bolasi uchun qo'rqib ketgan Chiyirdi chinqirdi:

— Ne bo'laman endi! — dedi u. — Dahshat, Xudo bizni o'zing saqla!!!

Otiga osilgan o'rta bo'yli, qorato'ri, yuz-boshi tirishgan qalmoqqa Manasning achchig'i keldi:

— Qo'lingni tekkizma, kofir! — baqirdi u qalmoqqa. — Bo'lmasa harom o'lasan, oxiri!

Manas otining chilvirini qalmoqning qo'lidan yulib oldi. Haligi qaysarlik qilib, takroran chilvirni olish uchun qo'lini uzatdi. Jahli chiqqqan Manas uni kuragidan ushlab, egardan yulib ko'tarib, u bilan ortda turgan Tarbinni urgan edi, ikkovi teng yerga qulab tushishdi. Qattiq zarba yegan Tarbin "laylamaluu!" — deb o'sha yerda jon berdi.

Tarbinning Manasning bir zarbasiga chidamaganini ko'rgan qolgan qalmoqlar Manasga tashlana olmay, jonini saqlab, qochib qolishdi. Eplab-seplab ikki o'likni tuyaga ortib, oldi-ortiga qaramay, ular qishlog'iga qarab qochib qolishdi.

Qishloqqa borgandan so‘ng ular ko‘rganlarini qishloqdoshlariga aytishdi.

— Bu burutning bolasi bola emas, balo ekan! Bir kishining ustiga yana bir kishini o‘ldirib, hech narsa bo‘lmaganaday, uyiga asta-sekin ketib qoldi! — deb aziyat chekishdi ular.

Manas bo‘lsa qalmoqlarning ta’zirini bergandan keyin enasi bilan uyiga qaytib bordi. Bolasi bilan ayolining kelganini ko‘rgan Jaqip juda quvondi.

— Qoqilayin bolam, eson-omon keldingmi? — baqirdi u. — Sening kelishingdan umid uzib, es-hushimdan ozib qolay dedim. Endigina o‘zimga keldim! Unga qadar xayolim senga bo‘lindi. Bir tarafdan sizlar tayinsiz yo‘qoldinglar. Ikkinchi tarafdan, qalmoqlar bizga qo‘l soladigan bo‘lishdi. Endi nima bo‘lar ekan deb, kuyib kul bo‘lmadimmi?!

Jaqip Manasni quchoqlab, betidan o‘pib, uni tirik ko‘rganiga ishonmay turdi. Birozdan keyin u Chiyirdiga yuzlandi:

— Sen Manasni qanday topding? U qayerda yurgan ekan?

* * *

Qalmoqlarning qishlog‘i. Qishloq boshchisi Ataqulning bo‘z uyi. To‘rida o‘rta bo‘yli, qora sochli, qizil yuzli Ataqul to‘shakda dam olib o‘tiradi. Bir payt tashqarida qiy-chuv boshlandi. Uyga uzun bo‘yli, alp gavdali, sariq yuzli, yuzi dumaloqdan kelgan Do‘g‘o‘n shoshib kirdi.

— Eshikda nima qiy-chuv bo‘lyapti? — Ataqul Do‘g‘o‘ndan norozi bo‘lib so‘radi.

— Ataqul! — javob berdi og‘ir xo‘rsinib Do‘g‘o‘n. — Bizning odamlarimiz qirg‘izlar o‘ldirgan yana birovni, Tarabinning murdasini olib kelishdi.

Buni eshitgach, Ataqul o‘rnidan sakrab turib, Do‘g‘o‘nning yoniga otildi.

— Nima? — rangi oqarib so‘radi u Do‘g‘o‘ndan. — Qirg‘izlar bizning yana bir kishimizni o‘ldirdimi? Bizga qo‘l ko‘targan u qanday qirg‘iz ekan, bildinglarmi?

— Ha! — dedi Do‘g‘o‘n. — U— Jaqip boyning bolasi Manas ekan.

— Manas?! Qo'rtuqni o'ldirgan Manasmi? — hayron qoldi Ataqul.

— Ha, aynan o'sha.

Ataqul achchig'iga chidamay, titradi.

— Qirg'izlar nihoyatda qutiribdi-ku, yalmog'izlar! — alamli qichqirdi u. — Gangiragan Jaqip qirg'iz bizning yerimizga kelib, boy bo'lib, endi bo'lsa egasini qopgan itday, bizni qopa boshlabdi-da?!

— Ha, aynan shunday bo'lyapti, — javob berdi Do'g'o'n.

Ataqul achchig'ini bosish uchun ko'zlarini yumib, bir-ikki marta chuqur nafas oldi. Keyin ijirg'anib Do'g'o'nga yuzlandi.

— Bunday quturgan itning ta'zirini berib qo'ymasa, boshga chiqadi! — dedi u. Shu sababdan, ertaga tongda Jaqipning qishlog'ini talon-taroj qilamiz. Unga xunni, jarimani solamiz. Jarima oldik deb jimib qolmay, azobga ham solamiz. Jaqip boy bilan bolasining birini yutib olmasak, odam bo'lmay qolamiz!

— Xo'p bo'ladi, Ataqul! — quvonib javob berdi Do'g'o'n. — Bari sen aytganday bo'ladi.

... Qayinduu o'zani. Ertalabki tong otayotgan mahal. Yerga endigina yorug' tusha boshlagan. O'zanda cho'p nihoyatda g'uj o'sib, yilqilar o'tlab yuradi. Iymanqul ularni qaytarib, otchan turadi. Uyqusi qonmay qolganlikdan u og'zini kafti bilan to'sib, esnab oldi.

Bir payt u o'zanning narigi boshidan nayzalari osilgan, oyboltali bir to'p chavandozlarning kelayotganini ko'rdi. U shubhalanib, otining chilvirini tortib ushlab, otchanlarga tikilib qaradi.

— Otangning go'ri! — dedi u ichida. — Bular qalmoqlar-ku! Alpoziga qaraganda, bular sog' kelayotgan yo'q. Qo'y, ulardan pana bo'lib, jilg'aga kirib, berkinay!

Iymanqul otini burib, jilg'a tarafga chopgancha, yashirinib oldi.

Shu payt qalmoqlar o'zanga tushishdi. Qalmoqlarning oldida oyboltali Ataqul, Do'ng'o', Do'mabil kelishar edi.

O'tlab yurgan yilqilarni ko'rib, qalmoqlar ularning barchasiga osilishib, uyur-uyuri bilan enterib* tegib haydashdi. O'zanda qiy-chuv boshlandi. Otlarning kishnagani, uzangilarning qoqishgani,

qalmoqlarning bir-biriga qiyqirib gaplashganlari atrofni aks sadoga burkadi.

Shu payt Ataqul yonidagi uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Do'mabilga murojaat qildi.

— Hoy, manjulik, bizning er o'ldi, oltoylik senga ne bo'ldi? — so'radi u. To'nkarib barin olib, hech kimni ko'zinglarga ilmay boryapsizlar. Egasiz qolgan bu moldan ikki ming olgan to'ymasmu, epli olsang bo'lmasmu?

Ataqulning yonida otchan turgan Do'g'o'n ham Do'mabilga norozi bo'lib so'yladi.

— Ataqul to'g'ri aytyapti! — qo'lladi u Ataqulning so'zini. — Elidan ozgan bu burut, erta o'chin olmasmi, ensanglar qotib qolmasmi? Joniga botsa Jaqip boy, holi kelmay qolsa-da, arzga bir kun bormasmi, azobga bizni solmasmi? Ortiqcha olgan yilqining azobi bizga qolmasmi? Xuningni qachon oldik deb, Oltoydan kelgan qalmoqlar, quyrug'in sirtga solmasmi?

Qalmoqlarning o'rinsiz yo'rig'iga achchig'i kelgan Do'g'o'n yonidan oltoyliklar haydab ketib borayotgan yilqiga qayta yopirildi. Bunga achchig'i kelgan ularning boshchisi Do'mabil Do'g'o'nning yoniga chopib bordi.

— Sen, Do'g'o'n, hech kimni to'xtatma! — jahli chiqib dedi u Do'g'o'nga. — Ayb olganniki, xun quvganniki!

— Bu gaping to'g'ri! — ko'ndi Do'g'o'n. — Biroq barcha narsaning cheki bo'ladi. Sizlar o'zinglarga yetadigan yilqini olinglar. Shu sababdan bu talonchiliginglarni to'xtatinglar!

— O'zing meni yordamga chaqirib, katta ketma sen! — baqirdi unga Do'mabil. — Yoki meni chaqirganing yolg'onmi?

— Chin!

— Chaqirganing chin bo'lsa, chiqimini ber. Ot horitib, to'n to'zitib, azob berding sen! — to'ng'illadi u.

— Do'mabil achchiq bilan Do'g'o'nning otining chilviridan ushlab, beri tortdi. O'shanda Do'g'o'n Do'mabilni so'kdi:

— Ol bunimni sen!

— Otangni urayinniki desa! — izza bo'lganiga chidamay o'kirdi Do'mabil. — Men bunga yordamga kelsam, ko'rsatar menga ko'tin, yorayin qilib o'tin!

— Do'mabil oti bilan Do'g'o'nning otining yoniga kelib, oyboltasi bilan Do'g'o'nga siltadi. Do'g'o'n otining boshini burib, qochib ketganda, oyBolta xato ketdi.

O'shanda Do'g'o'n navkarlariga qiyqirdi:

— Hoy, manjuliklar! — dedi u. — Oltoylik qalmoqlarni uringlar!

Qirg'izlarni chopgani borayotgan manjuliklar bilan oltoylik qalmoqlar o'zaro chopisha boshlashdi. O'zanning ichi qiy-chuvga to'ldi. Otlar kishnab, oyboltalar taraqlab, nayzalar biri-biriga tegishib, qarsillab, otchanlar bir-birini so'kishib, bir-biriga sanchishib, qizil qirg'in boshlandi.

Oxirida manjulikning chorasin ko'zlab sapchitib, Do'mabil boshlab erlari to'xtatmay surib soldi.

— Qizitaloqni qiringlar, qizil qirg'in qilinglar, qiz, ayolin o'ljalab, shundan keyin tiningla r! — deb, oltoylik qalmoqlarning oldida borayotgan Do'mabil oyboltasini silkillatib, sheriklariga qahrli hayqirdi.

Do'mabilning askari manjuliklarni qochirdi. Ular hujumga turish bera olmay, otlarini ortga burib, qishlog'iga qarab qochishdi.

* * *

Ataqulning qishlog'i. Qishloqning ichi qiy-chuv. Mollar mo'lab, yilqilar kishnab, itlar hurib turadi. Qishloqning chetidagi bo'z uylar yondirilmoqda. Oltoylik qalmoqlar qishloqni o'rab olib, manjulik qalmoqlar bilan chopishayotgan kez.

Ataqulning uyining yonida yuz-boshi qon bo'lgan Ataqulga o'rta bo'yli, qora soch, qora qosh, oriqdan kelgan Shaqum yugurib keldi.

— Shaqum! — behol yuzlandi unga Ataqul. — Oltoylik qalmoqlar bizning tosh-tolqonimizni chiqaradigan bo'ldi. "O'zakdan chiqqan o't yomon, o'zdan chiqqan yot yomon", deb qirg'izlar aytganday, o'zimizninggina qalmoqlarimiz bizni dushmaniday ayamay qirmoqda!

— Ha! — norozi bo'ldi Shaqum. — Ular bizning tagimizga yetadigan bo'ldi.

Shu payt qishloq chetida oltoylik qalmoqlar qo'l solgan qishloq ayollarining jon sovg'alab, ayanchli qiyqirgani eshtildi. Ataqul

bilan Shaqum ikkovi teng qiyqiriq chiqqan tarafga e'tibor berib qarashdi.

— Bu quturgan itlardan bizni endi qirg'izlargina saqlay oladi! — tishlarini g'ichirlata aytdi Ataqul.

— Qo'ysangiz-chi, amaki?! — Ishonmadi Shaqum. — Qanday qilib qirg'izlar bizga yordam bersin? Biz ularning qaynatsa ham qoni qo'shilmas dushmanlari emasmizmi?

— Yo'q, bolam! — boshini chayqadi Ataqul. — Qirg'izlar bunday mayda, kekchil xalq emas. Ular keng fe'l, adolatli el. Kimda-kim bekordan bekorga, hech sababsiz xo'rlik ko'rayotgan bo'lsa, qirg'izlar ularga so'zsiz yordam berishadi. Biz bo'lsa hozir ularning talabini talashib, manjuliklardan adolatlilikni talab qilganimiz uchun bostirilmayapmizmi? Tushundingmi, bolam?

— Tushundim, amaki!

— Unda sen hozir otga mingin-da, Jaqip boyga chop. Unga borib, bo'lgan voqeani aytib, undan yordam so'ragin! — dedi Ataqul Shaqumga.

— Xo'p bo'ladi, amaki! Barini siz aytganday qilaman! O'z xo'rligin ko'rguncha, yot xo'rligin ko'rayin. Yetib borib bu haqda, Jaqipga xabar berayin! — Javob berdi Shaqum hamda otini minib, Jaqipning yoniga chopib ketdi.

Bu payt Jaqip, Manas, Oqbolta oltmish navkari bilan qishlog'ining chetidagi qirda otchan turishgan edi. Ularni hayron qoldirib, olisdagi Ataqulning qishlog'i yondirilmoqda edi. Qishloqliklarning uylaridan chiqqan qora tutun osmonga ko'tarilayotgani aniq ko'rinib turardi. Qirg'izlar qishloqning nima sababdan kuyib yotganini tushunmay, lol qolib tushirardi.

Shu asnoda barchasi qishloq tarafdan Shaqumning otchan chopib kelayotganini ko'rishdi. Shaqum Jaqiplarni ko'rgandan keyin ularga biroz yetmasdan turib, otini to'xtatdi. So'ngra u otidan sakrab tushib, nayzasining uchini yerga qaratib, unga oq latta bog'lab, Jaqipga piyoda bosib keldi.

— Jaqip botir! Jon sovg'a, botir, jon sovg'a! — ko'z yoshini to'kib yig'lab yubordi Shaqum.

Jaqip otining ustidan Shaqumga tikilib qaradi.

— Sen kimsan, bolam? Nima armoning bor? — rahmdillik bilan so'radi u Shaqumdan.

— Ota! — javob berdi Shaqum. — Men sizning bolangiz Manasning qo'lidan qazo bo'lgan Qo'rtuqning o'g'li Shaqumman.

— Qo'rtuqning o'g'liman deysanmi? — so'radi Jaqip.

— Ha, ota.

Jaqip yonida turganlarga hech narsani tushunmadim deganday hayron qolib qaradi.

— Menga qanday so'zing bor, bolam! — so'radi keyin u Shaqumdan. — Nima, bizdan xun da'vo qilib keldingmi?

— Yo'q, Jaqip ota! — javob berdi Shaqum. — Qo'rangga borib qo'nayin, qo'shning ham tug'ishgan bo'layin. Qo'qqis o'lgan otam-chun qo'zingni olmay qo'yayin! Ajaldan o'lgan otam-chun, olmasdan xunin qo'yayin!

— Unday bo'lsa seni mutlaqo tushunmayapman?! — yanada battarroq hayron qoldi Jaqip. — Sen bizga nimaga kelding?

Shaqum Jaqipning oldiga cho'kkaladi.

— Ota! Biz sizlarning yoningizni olamiz deb oltoylik qirg'izlarning balosiga qoldik, — yolvorib gapirdi Shaqum. — Ular sizlarning molinglarning barini ola boshlaganda Ataqul "qirg'izning ortiqcha molini olmangizlar!", dedi. Buning natijasida oltoyliklar bizning tagimizga yetdi, qishlog'imni talab ketdi. Ayaysan deb burutni, qishlog'imni qirib quritdi. Qirg'izdan kelgan siz edingiz, Xitoydan kelgan biz edik. Qira boshladi oltoylik, xiylamiz o'lib, qaqshadik! Bizga yordam beringiz, otajon!

— Otangning go'ri! — Jaqip boshini qayg'uli chayqadi. — Yomon ish bo'lgan ekan-ku! Endi biz senga qanday yordam beramiz? Oltoyliklarda kamida olti yuz-yetti yuz kishi, bizda bo'lsa oltmishtagina kishi bor.

— Bizga siz yordam bermasangiz, bizning sho'rimizning qurigani aniq, ota! — deb Shaqum qaytadan yig'lay boshladi.

Jaqip, Manas nima qilishini bilmay, bir-biriga qarashdi.

O'sha paytda ular turgan yerning ort tarafidagi yo'l bilan Aydarxon otchan olti yuz navkari bilan kelayotgani ko'rindi.

Jaqip ularni ko'rib, ularga quvonib qiyqirdi.

— Ildam yurib kelinglar, yigitlar!

Aydarxon Jaqipning ovozini eshtib, askarlari bilan yoniga chopib keldi. Uning lashkarlari ortidan basma-bas Jaqipning qishlog'idan to'plangan o'ttiz kishi yetib kelishdi.

— O‘, rosa soz bo‘lmadimi! — suyundi Jaqip. — Shaqum bolam, baxting bor ekan. Bizning qo‘shin ham yetib keldi.

Jaqip navkarlarni sanab yurgan Manasga murojaat qildi:

— Manas, qo‘lning bari qancha bo‘ldi?

— Yetti yuz sakson bo‘ldi, ota! — javob berdi Manas.

Kelgan askarlarning barchasi daladagi tekis yerga tizilishdi. Jaqip ularning oldiga otchan chiqdi.

— Yigitlar! — dedi u. — Shumlik ish ro‘y beribdi. Oltoylik qalmoqlar quturibdi. Manjulik qalmoqlar ularga mening molimning barchasini olmasdan, evi bilan olinglar debdi. Oltoyliklar o‘lganning xunini olmaydi deb o‘chashib, ularni qira boshlabdi. Agarda biz hozir oltoyliklarga zarba bermasak, ular keyin bizni yakson qilib ketishadi.

Askarlarning oldingi qatorida turgan Aydarxon oldinga chiqdi.

— Jaqip boy to‘g‘ri aytyapti! — qiyqirdi u. — Quturgan qalmoqning ta’zirini berish kerak!

— To‘g‘ri! — qo‘lladi uni Manas. — Biz manjuliklarga so‘zsiz yordam berishimiz kerak!

— Unday bo‘lsa, yigitlar, olomon qo‘yib qolinglar! — buyruq berdi Jaqip. — Otishgancha baringlar, ayrib buni olinglar!

— Hammamiz qalmoq bilan urushishga ma’qulmiz. Biroq, Jaqip boy, urushsak o‘lja olamiz, xitobni kim deb solamiz? — yuzlandi Jaqipga Aydarxon.

Jaqip nima deb javob berishini bilmay, askarlariga qaradi. Biroq hech kim unga javob bermadi.

O‘shanda Manas ko‘k nayzani qo‘liga olib, oldindagi sur toychoq otiga qamchi soldi.

— Manas! Manas! Manas! — deb xitob qildi.

Uning ortidan qo‘lning bari “Manas!” deb xitob qila boshladi.

Manas qo‘lni boshlab, qalmoqlarga qarata hujumga o‘tdi. Yuzma-yuz kechgan jadaldan so‘ng qalmoqlar yengilib, Do‘mabil o‘ldi. Qolgan qalmoqlarning xiylasi Qambilga ko‘chib ketdi.

O‘shanda qirg‘izning qo‘li Ataqulning qishlog‘iga g‘alaba bilan qaytib keldi. Ularni qishloq chetidagi dalada Jaqip, Shaqum bosh bo‘lgan qishloqliklar kutib olishdi. Askarlar ularga yaqinlab kelganda, Shaqum otidan tushib, qo‘lning boshida kelayotgan Manasning otining yoniga borib, chilviridan ushladi.

— Qutlug‘ bo‘lsin, Manas to‘ram, g‘alabangiz! — tabrikladi u Manasni.

— Rahmat, Shaqum! — dedi Manas. — Nima, qishloqda oltoyliklar qolmadimi?

— Yo‘q, bari qochib yo‘qoldi, — quvonib javob berdi Shaqum. — Biroq, biz ham unmadik. Bizning qirq to‘rt kishimiz o‘ldi olishuvda. Ularni yig‘ib, ko‘mib qo‘ydik.

— Yomon ish bo‘libdi! — qayg‘uli boshini chayqadi Jaqip.

— Ha, otajon, o‘lganlarga uvol bo‘ldi, — tund dedi Shaqum. — Ularning oila a’zolari juda ham yomon ahvolda qolishdi. Ular endi qanday qilib ooayal o‘tkazadi, bir Xudo bilmasa, hech kim bilmaydi.

— Ularga men yordam beraman, — qat’iy javob berdi Jaqip. — Menga Iymanni chaqiringlar!

Askarlarning biri Iymanni chaqirish uchun chopib ketdi. Birozdan keyin Iyman Jaqipga yetib keldi.

— Quloq sizda, boy?! — ta’zim qildi Jaqipga Iyman.

— Qari-qartang biyadan, qarib qolgan otlardan to‘rt yuzini haydab kel! — buyruq berdi unga Jaqip. — Otasi o‘lgan bolaga, orada o‘lgan qalmoqqa, ularga bo‘lib ber! Yig‘in uchun ikki-uch yilqi oldirtirib, so‘yib ber.

— Xo‘p bo‘ladi, boy! — dedi Iyman. — Bu yig‘inni qayerda qilamiz — shu yerdami yo o‘z qishlog‘imizdami?

— O‘z qishlog‘imizda! — deb javob berdi Jaqip.

Askarga kelgan odamni boy Jaqip qishlog‘iga olib bordi. Yetmish xonadonli birodari yetti yuz qo‘lni qo‘ndirdi, yeb-ichgan yoqdan to‘ydirdi.

IV. Manasning Esonxonning yuborgan ayg‘oqchilari bilan Nesqarani joylagani

Kunduz. Esonxonning saroyi. Saroy xonalaridan birida Esonxon o‘tiradi. Uning oldidagi yog‘och stolda har qanday qog‘ozlar yotadi. Esonxon qog‘ozlarni o‘qiyotganda tashqarida Bosh rohib kiradi.

— Nima yangliklar bor, rohib? — so'radi undan Esonxon.

— Xonim! — dedi Bosh rohib. Bizning Oltoyga yuborgan kishilarimiz keldi. Ular menga Manas haqida ma'lumot berishdi.

— Ular nimani bilishibdi?

— Manas Jaqip degan qirg'iz boyining o'g'li ekan, — javob bera boshladi Bosh rohib. — Uning yoshi hozir o'n birda. U nihoyatda kuchga to'libdi. Unga qarshi chiqqanlarning barchasining ta'zirini beribdi. Qalmoqlarning Qo'rtuq degan botirini o'kruk bilan o'ldirib qo'yibdi. Keyin manjulik qalmoqlarga bo'lishib, oltoylik qalmoqlarga qizil qirg'in solibdi!

Esonxon Bosh rohibga qo'lini uzatganda, u Esonxonga qo'lidagi qog'ozni berdi. Esonxon qog'ozni hafsala bilan o'qiy boshladi. U qog'ozni o'qib bo'lguncha Bosh rohib indamasdan, uni kutib turdi.

Qog'ozni o'qib bo'lgandan keyin Esonxon Bosh rohibga o'ychan qaradi.

— O'-o'! Bu Manas anoyi emas ko'rinadi! — dedi u.

Men shuni sizga qachondan beri aytmayapmanmi? — biroz qizishdi Bosh rohib. — Donishmandlar bari aytar, olamga solar g'uluv deb. Cho'ng Bejinga o'q otar, katta bo'lgach yurib deb.

Esonxon panjalari bilan stolni chertib, bir soniya o'ylanib qoldi. Keyin boshini ko'tarib, Bosh rohibga qaradi.

— Xo'sh, sening qanday taklifing bor? — so'radi u.

— Xonim! — dedi Bosh rohib. — O'yi teran sehrgarlar, donishmandlar podshodan buyruq olib, Manasga qarshi chiqib, qirg'izning bir tomirini qirqsak deyishyapti.

— Sen nima deyotganingni tushunyapsanmi, rohib? — jini keldi Esonxonning. — Turkdan ayol tug'masmi? Bir ayoli tug'di deb, hovliqsak Xudo urmasmi. Ularga qarshi askar yuborishga, fahmlasam, hech qanday asos yo'q.

— Siz bu ishni jimgina qo'yaylik deyapsizmi, xonim? — izza bo'lganini yashira olmay so'radi Bosh rohib.

Esonxon o'rnidan turib, o'ychan nari-beri yurdi. Keyin Bosh rohibga buyruq berdi.

— Yo'q, unday qilmay, xushyor ishni qilaylik! — dedi u. — Qirq-ellik xazinali tuya bilan yetti xitoy do'rg'o'*sini qirg'izning

yurtiga yuboraman. Ularning Jaqipi qanday yerda ekan, bolasi Manas mardmikan, aniqlab yerin ko'rishsin. Achchiq qilib bizlarga, qo'l soluvchi elmikan? Yo yashirin yurib boy bo'lgan, mening qo'mut*im to'lmas kammikan? Shuni bari bilishsin!

— Xo'p bo'ladi, xonim! — deb javob berdi Bosh rohib.

Shundan keyin qizg'in tayyorgarliklar boshlanib, bir necha kundan keyin Oltoyga Manasning daragini bilish uchun Esonxonning ayg'oqchilari jo'nab ketishdi.

... Xitoylarni tashvishga solgan Manas bo'lsa o'zining boshiga qora bulutlar uyula boshlagani bilan ishi yo'q, bu paytda chappar urib yurgan edi. U bolalarning barchasini oshiq o'ynashga to'plab olib, qishloqdan olis emas yerda joylashgan daryoning jiyagiga ularni olib bordi.

Kun musaffo ochiq. Yeldirim shamol esib turadi. Daryo bo'yiga to'shalgan yaylovda otlar o'tlab yurishadi. Ochiq, keng yerda o'rda otish uchun maydoncha tayyorlangan. Manas bilan uning o'ttiz nafar do'st bolasi o'rda o'ynashar edi. Maydoncha bolalarning kulgusiga, qiy-chuviga to'lgan.

Oshiq otish navbati Manasga keldi. Shu asnoda bolalarning yoniga ustiga ortib olgan xurjunlari bo'lgan qirq besh tuyada yetti nafar xitoy, o'n nafar qalmoq, o'nta uyg'ur-sart karvonchilar kelib qoldi. Ular o'yinga qiziqib qarab, yo'lida davom etmay, to'xtab qolishdi.

Manas oshiq otishga tayyorlanib, ularga qiyqirdi:

— Hoy, begonalar! Tuyanglarni tashqariga tortinglar!

— Tuyani tortmasak nima bo'lar ekan? — karvonchilarning oldida turgan uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri karvonboshi Manasga g'azablanib gapirdi. — Qo'y-chi, buning oshig'i o'qmikan? Nimaga holing yetadi?

Manas indamay, oshiqni qo'liga olib, quljadan olgan oshiqni qo'shib otib yubordi. O'shanda oshiq oldingi tuyaning boldiriga tegib, tuyog'ini sindirgan edi, tuya yonboshga yiqildi. Karvonboshchi tuyadan arang yerga sakrab tushishga ulgurdi.

Manasning bir oshig'i borib, oldindagi eshakning tuyog'iga tegdi. Eshak yiqilib, ustidagi sart yayov qoldi.

— Qiyinchilik ko'rdim-ku! — xitoylarga dodladi u. — Eshagimning tosh-tolqonini chiqardi bu qirg'iz bola!

Yerda tuyog'i singan tuyasining yonida o'tirib qolgan karvonboshchi yerga qattiq tekkan o'ng tizzasini uqalagancha o'rnidan turdi.

— Bu qanday bola? — qolgan karvonchilarga achchiqlanib qaradi u. — Chamasi, biz izlab yurgan Manas mana shu, shekilli?! Qani, yigitlar, ushlanglar uni!

Yetti xitoyning barchasi otlaridan tushib, Manasni tutish uchun unga osilishdi. Manasning o'ttiz o'rtog'i Manasga bo'lishib, mushtlashish boshlandi.

Manas yoniga kelgan karvonboshchini belidagi kamaridan ushlab olib, uni ko'tarib yerga chopdi. Karvonboshchi o'sha yerda til tortmay, halok bo'ldi.

Buni ko'rib, kayfi o'chgan olti xitoy qarshilik ko'rsatishni to'xtatib, Manasga bo'ysunib borishdi. Manas bilan o'ttiz bola karvonchilarning barini qo'llarini bog'lab o'rda maydonchasiga o'tqazishib, ularning atrofini qurshab olishdi.

Ular karvonchilarning tuyalarining tuyoqlarini bir-bir bog'lab, tushovlab qo'yishdi. Keyin Manas karvonchilarga yuzlandi.

— Shumshaymanglar, botirlar! — dedi u. — Sizlarning yukinglarni men o'ljaga olaman!

Manasning oldida o'tirgan past bo'yli, ingichka jag'li, qorato'ri sart o'rnidan turib, unga qaltirab javob berdi:

— Olsang, botir, barin ol! — dedi u. — Bizning hech qanday qarshiligimiz yo'q. Bor bo'lgani bizning jonimizni qiyma!

Sartning bu so'zlarini o'qib, Manas bilan o'ttiz bola qiqirlab kulishdi.

— Mayli, qiymasam, qiymay! — dedi Manas. — Ammo sizlar isminglarni aytinglar. Sizlar kimsizlar, nimani qidirib yuribsizlar? Barin aytib beringlar? — deb Manas o'sha sartning qo'lidagi ipni yechdi.

Sart ipning izlaridan qizarib ketgan qo'llarini uqalab, Manasning savoliga javob bera boshladi:

— Bizning uchimiz uyg'urdan, tubimiz turkdan! — dedi u. — Esonxon bizga "Rustamday ish qilgan, yoshligidan polvonlik qilgan Manas degan bola bor. Uning daragini bilib kelinglar!" — deb buyruq berdi. Shu sababdan biz yeringizga kelib qoldik, botir!

— Bilginglar kelsa, bilib olinglar! — haybatli ovoz chiqardi Manas. Surli otam Jaqip, otim Manas. Nari tort desa ko'nmasdan, menga do'q urib otildinglar. Qani, yigitlar, bu chaqirilmagan mehmonlarni oyog'idan bog'lab, jilg'aga sudrab boringlar. Qipiqcha narsa qo'ymasdan, kiyimin to'nab olinglar!

Manasning yonidagi bolalar, "ho'p bo'ladi, janob!" — deb chuvillashdi.

— Oshiqmangizlar, yigitlar! To'xtatdi ularni Manas. — Buning barini o'zimizgina olganimiz to'g'ri emas. Shu boisdan otam Jaqipga, Oqboltaga, Berdikega, Dambildaga, O'shpirga, Salamatga birga xabar beringlar. Barchasi kelib qolsin. Manasning topgan dunyosini payqab, bo'lib olsin. Xabar qilinglar xalqimga, qarab tursin Manasning qiladigan rusmiga!

* * *

Suvning bo'yida Manas o'ttiz do'sti, tutqunlangan xitoy, qalmoq, sartlar bilan otasi Jaqipni kutib turishdi. Ularning keladigan vaqti bo'lib qolgan edi.

Bir payt hammasi Jaqipning ot chopib kelayotganini ko'rishdi. U bilan birga Oqbolta, Berdike, Dambilda, Tuno'go'r, O'shpir, Salamat, Majik, Do'g'o'n qo'sha kelishdi.

Kelganidan keyin ular Manasning o'ljasini bir chetdan qaray boshlashdi. Uning juda katta ekanligini ko'rganidan keyin ularning esi og'di.

— Buncha tuya yuk molni Manas qayerdan topib oldi? — tinchsizlanib so'radi Oqbolta. — Tusiga qaraganda, bularning bari xazinali nordan-ku?

— Ha, xuddi shunday ekan! — javob berdi nariroqda yuklarni qarab yurgan Berdike. — Ustidagi yuklari naq oltin, qimmat zardan ekan. Bu boyoqishlarning boshchilari ham yo'qolibdi. Ularga ne bo'lgan? — qo'rqqanidan qalt-qalt etib so'radi u.

— Hoy, birodarlar, yuragim yomonlikni sezib turibdi! — ularning so'ziga qo'shildi Salamat. — Shuncha molning ortidan egasi izlab chiqmay qo'yadimi?! Shu boisdan uni olmasakmi yoki olsakmi? Yo qaytarib yo'lga solsakmi?

— Bu Manasning ortidan birni ko‘rmak bo‘ldik-ku! — aziyat chekdi Dambilda. — Ehtiyotkorlikda xo‘rlik yo‘q. O‘ljani olishdan avval daragin sartdan so‘raylik.

Shunda Jaqip tutqunlarga yuzlandi.

— Sizlar qayerdan keldinglar? — so‘radi u. — Qayerga ketayapsizlar? Shuncha mol-dunyoning egasi kim? Aytinglar-chi joyin, anig‘in uqsak tayin?

— Uyg‘urdan bo‘lar uchimiz, Shaa-Shungg‘a degan shaharda ovqat qilib yuribmiz! — javob berdi Jaqipga Manas bilan gaplashgan qorato‘ri sart. — Bizga xondan savdoning tilin bilgan, ko‘pni ko‘rgan o‘nta sart kelsin deb xabar keldi. Biz unga borsak, besh-olti yilga bel bog‘lab, menga xizmat qilib beringlar deb buyruq berdi. Noiloj barchamiz ko‘ndik. Ulkan Bejin shahrida olti xitoy, o‘n qalmoq, askardan bo‘lib ko‘p tanladi. Xazina noriga yuk orttirib, jo‘narda xon bizga bunday dedi: “Qan tog‘ining tubinda, Sanar dala bo‘yinda, oltoy degan elda Jaqip er bor. Bolasining ismi Manas. Qanday ekan bolasi, shuning barin bilinglar!” — deb bizni besh oy avval kuzatdi. Kechagi kuni biz bu yerga kelsak, Manas o‘rda o‘ynayotgan ekan. U xalaqit bermay, o‘rdadan tashqariga chiqinglar, dedi. Biz uni to‘g‘atmasdan, yo‘ldan chetga chiqmadik. O‘shanda u cho‘ng oshiq bilan tuyaning tuyog‘ini sindirib qo‘ydi, biz Manasni ushlashga harakat qildik. O‘rtada mushtlashuv chiqib, u bizning boshchimizni o‘ldirib qo‘ydi. Endi u bizni nima qiladi, bilmaymiz!

Buni uqqan Jaqipning esi og‘ib qolay dedi.

— Hoy, og‘a-ini bo‘lgan xaloyiq! — murojaat etdi birodarlariga Jaqip. — Anglanglar-chi bu gapni. Oltmishga kelgan yoshimni oxiri bolam yutadigan bo‘libdi. Sababi xitoy eli bilan yuzlashganning hech kimi omon qolmagan. Ularga hujum qilganning barisining qonini ichish odati bor. Esonxonga duch kelib, azobga qolgan ekanman. Qora boshim panalab, qaysi yoqqa ketarman? Qarab turgan og‘a-ini qanday qilsak ep bo‘lar? — deb yig‘lamsiradi u.

— Hoy, Jaqip boy! — javob berdi unga Oqbolta chol. — Ko‘pam endi koyiyverma. Bo‘lar ish bo‘ldi, xumori qondi. Bolang Manasga ko‘p achchiqlanib, norozi bo‘lma! Bola bo‘lsa sho‘x bo‘lsin, sho‘x bo‘lmasa yo‘q bo‘lsin. Haq yozganin ko‘rmasmi,

ajalli jon o'lmasmi. Xitoy yetib kelguncha, qirib bizni solguncha, hozir olib turaylik, obdan molga to'yaylik!

— Senga aytishga oson, — o'kirib yuborayozdi Jaqip. — Agarda ertagayoq xitoylar o'ch olish uchun bizga kelsa, unda bizning holimiz ne kechadi?!

— Ko'pam o'jiqaverma! — so'kdi uni Oqbolta. — Olti qo'lli qolmig'i, oz bo'lganda to'rt yuzin bolang Manas yamladi. Bunga olti oyga yaqin bo'libdi. Qani, xitoylarning kelib, bizni qirib solgani?! Shu boisdan bekorga koyimasdan, o'ljani bo'lib, uyga jo'naylik!

— Qariya to'g'ri aytyapti! — quvvatladi Oqboltani Berdike. — O'lgan jon qayta qo'parmi*, o'kingan bilan bo'larmi?! G'am chekkandan ne chiqar, g'am-anduhni qo'yaylik!

Atrofdagilarning barchasi "to'g'ri, to'g'ri gap!", — deb chuvillashdi.

O'shanda Manas achchiqlanib otasiga murojaat qildi:

— Aytingiz-chi, otajon, aqlingiz bor bir jahon? — qattiq tegdi otasiga. — Xudo solgan ajaldan, qutulgan yo'q azaldan. Sen qo'rqib yurib xor bo'lib, xo'rlikka ko'ngan ekansan. Bunday har dam joningdan qo'rqsang, dushmanlardan talab so'z kelsa, meni ularga tutib ber! Biroq men qalmoqdan qo'rqib-qaltirab, xitoydan ham qo'rqib qiltillab, yursam Xudo urmaydimi! Bir boshga bir o'lim, otajon. Qo'rqmasdan molni olaylik, elga bo'lib beraylik!

— Mayli! — noiloj ko'ndi bolasining so'ziga Jaqip. — Ko'pchilik bo'lib meni tuyabosdi qildinglar. Og'zim yopildi. Mayli, molni bo'lsak bo'lib olaylik. Nima bo'lganda ham barchasi yaxshilik bilan bitsin, bolalarim!

* * *

Esonxonning saroyi. Kunduz. Xonasida o'tirgan Esonxonga Bosh rohib kiradi.

— Qanday yangiliklar bilan kelding, rohib? — so'radi undan Esonxon.

— Xonim, javob berdi Bosh rohib. — Biz Oltoyga Manasning daragini bilishga yuborgan karvondan xabar keldi.

— Qanday xabar, rohib? — savol bilan tikildi unga Esonxon.

— Xonim, dedi Bosh rohib. — Karvoningning vayroni chiqib, barcha tuyalar mulklari bilan Manasga o'lja bo'libdi!

— Nima? Manas mening karvonimga qo'l solgani botinibdimi? — rangi oqarib ketdi Esonxonning.

— Ha, xonim. U bizning bir necha kishilarimizni o'ldirib, mol-mulkimizning barini eliga tarqatib yuboribdi.

— Mening hisobimdan saxiylik qilganini ko'rmaysanmi, bu ahmoqning! Esonxon o'rnidan turib, achchiqlanib nari-beri yurdi.

— Endi nima qilamiz, xonim? — murojaat qildi unga Bosh rohib. — Manasga qarshi askar yuboramizmi? Yo hech narsa bo'lmaganday so'ppayib, qo'lni qovushtirib o'tirveramizmi?

— Yo'q, biz bunday qilmaymiz, — takabburlik bilan jilmaydi Esonxon.

— Tushunmadim, xonim! — o'ng'aysizlandi Bosh rohib. — Mening o'yimcha, bu vaziyatdan chiqish uchun bizda mana shu ikki yo'lgina bor, xonim!

— Yo'q, rohib! — javob berdi Esonxon. — Yanglishyapsan sen. Xitoy nima uchun shunday zo'r darajaga, quvvatga yetdi? Nima uchun eli ko'payib, mamlakati kundan kunga boyimoqda?

— Sababi Xitoyning necha asrlardan beri aqlli donishmand boshqarib kelmoqda! — dedi Bosh rohib. — Eli bo'lsa ularga ishonib, ularning aytganini aytgan, deganini deganday g'ing demay bajarib kelgan.

— To'g'ri aytasan, rohibim! — Rozi bo'ldi Esonxon. — Bundan tashqari, Xitoy mumkinchilik bo'lsa, o'z elini ayab, dushmanlarini o'z qo'li bilan emas, boshqalarning qo'li bilan yo'q qilib yurgan. Bu usulni biz hozir ham qo'llanamiz. Biz qalmoqlar bilan bog'lanishib, ularni Manasga qarshi xit-xitlaylik. O'shanda qalmoqlar uni bizga tutib berishadi.

— Agarda ular Manasdan yengilib qolsa-chi? — tund so'radi Bosh rohib.

— Qalmoqlar yengilib qolsa, ularning soni ozayib ketadi! — jilmaydi Esonxon. — Bu ham Xitoy uchun yomon emas. Bizning dushmanlar bir-birini qanchalik holsiratsa, biz uchun shunchalik yaxshi. Sababi ular bizga bundan battar tobe bo'lishadi.

— Demak, Manas qalmoqlarni yengsa, biz bunga unchuqa olmay, o'tirib qolar ekanmiz-da?

— Yo‘q, rohib. Bunday bo‘lgan mahalda biz Manasni to‘xtatish uchun boshqacha, keskin choralarni ko‘ramiz. Tushundingmi meni, rohib?

— Tushundim, xonim, tushundim!

— Tushunsang, ertaga qalmoqlarning Nesqarasiga chopar yubor. U bizga Manasni ushlab bersin!

— Xo‘p bo‘ladi, xonim! — deb Bosh rohib Esonxonga egilib, tashqariga chiqib ketdi.

O‘sha kuni o‘rta bo‘yli, ingichka jag‘, sariq yuzli, bo‘ladan kelgan chopar qalmoqlarning polvoni Nesqaraga jo‘nadi. U tun-u kun tinmay yurib, bir necha kundan keyin unga yetib bordi.

Qorovullar xabar bergandan so‘ng choparni uzun bo‘yli, oq yuzli, alp qomatli Nesqara uyiga olib kelishni buyurdi. Chopar qalmoqqa Esonxonning salomini aytib, unga olib kelgan xatini uzatdi. Nesqara uni qunt bilan o‘qiy boshladi.

Xatni o‘qib bo‘lgandan so‘ng u choparga qaradi.

— Chopar! — dedi Nesqara. — Menga olib kelgan xatingda Esonxon qolgan gaplarni senga chopar aytadi debdi. Qulog‘im senda!

— Botir! — javob berdi chopar. — Esonxonning u yerda Manas haqida aytganini bilasan.

— Ha. U menga Manasni yo‘q qil debdi.

— Botir! Manas hozircha kuchga to‘lganicha yo‘q, bola bo‘ydan. Shu boisdan uni vaqt borida ushlab ol.

— Uni yo‘q qilish o‘zimning o‘yimda bor edi! — ijirg‘anib dedi Nesqara. — Bu tentirab kelgan burutning bolasi bizning elga vayronalik keltirib, ittifoqligimizni buzdi, bizga talaygina xo‘rlik ko‘rsatdi.

— Bu haqida Esonxonda to‘liq ma’lumot bor, — boshini silkidi chopar. — Shu sababli u senga Manasni qutqarmay ushlab ol dedi. Agarda uni qutqarib yuborsang, quriysan. Qochirib yuborsang, qora jondan ayrilasan! Shu sababdan Manasni borib so‘y! Agar tegsa qo‘lingga, ikki ko‘zin o‘y, dedi Esonxon.

Nesqara bir lahza o‘ylanib, keyin choparga murojaat qildi.

— Bo‘pti! — dedi u. — Men Manasga hujumga otlandim deylik. Buning uchun men Esonxondan qanday hurmat ko‘raman?

— Bunday paytda sen Esonxonning eng yaqin do'stiga aylanasan, undan xohlaganingni so'rasang bo'ladi! — ta'zim qilib javob berdi chopar.

Nesqara o'rnidan turib, o'ylanib nari-beri yurdi.

— Ma'qul unda! — choparning yoniga to'xtab javob berdi u. — Men Manasning hisobini topish uchun bir necha kundan keyin olti ming qo'l bilan unga qarshi yurishga chiqaman.

* * *

Yozning to'lib turgan pallasi. Choshgoh. Miya qaynatgan issiqdan, barcha ko'lanka izlab yurgan chog'i. Nihoyatda zarur yumushi bo'lmasa, bunday davrda uncha-muncha odam yo'lga chiqmaydi.

Shunchalar zarur ishi borga o'xshaydi, kim bilsin, xullas, Jaqipning bir tug'ishgan og'asi o'rta bo'yli, keng yelkali, oq soqolli Boy kimsasiz dalada yolg'iz yo'l bilan otchan kelayotgan edi. Oldida yo'liqqan bir tepalikning ustiga o'lib-tolib arang chiqdi.

Biroz dam olib, qayta yo'lini davom ettiray deganda, u oldidagi dalada olisdan kelayotgan Nesqaraning askarlarini ko'rdi.

— Otangning go'ri! — o'zicha hayron qoldi Boy. — Nihoyatda katta qo'l kelyapti-ku! Kiygan kiyimiga qaraganda, ular qalmoqlarga o'xshaydi.

Boy askarlarga tikilib qaradi.

— Ha, qalmoqlar ekan. Qo'y, bu yo'limdan qochayin. Askarning orqa tarafidan burib ketayin. Bularning ko'rinmayin ko'ziga, yo'liqmayin o'ziga!

Boy askarlarni aylanib, qochdi. Qalmoqlardan qochib, yo'lga chiqqaniga olti kun bo'lganda uning oldidan to'satdan Jaqip yo'liqdi. Olisdan Boyni ko'rib, Jaqip uning oldiga otchan chopib keldi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol! — salom berdi u Boyga.

— Mo'ngdu! — alik oldi Boy.

— Oqsoqol, salom berishingizga qaraganda, qalmoqqa o'xshaysiz, — jilmaydi Jaqip. — "Mo'ngdu" qalmoqcha "kel" deganni tushuntirmaydimi?!

— To'g'ri aytasan, inim! — javob berdi Boy.

— Gapirishingizga, kiyimingizga qarasam, qirg'izga o'xshaysiz! — ayon etdi taxminini Jaqip.

— Bu so'zlaring ham to'g'ri! — tasdiqladi Boy. — Men qirg'izman. Sen o'zing kimsan, inim? Ism-sharifing kim bo'ladi?

— Ismim Jaqip. Bosh otam Boyg'ur bo'lgan deyishadi, — javob berdi Jaqip. — Keyingi otalarim Babir xon, Tubo'ydu, Qo'go'ydu, No'go'y bo'lgan. Men No'g'o'yning o'g'liman.

— Ota-onang, tug'ishganlaring bormi? — o'pkasi hapqirib so'radi Jaqipdan Boy.

— Men o'n yetti yoshimda ota-onamdan ayrilib, surgunga ketgan edim. Boshimni berdim malayga, xizmatin qildim talayga. Bu yil Oltoyning tog'iga tayanganimga o'ttiz yil bo'ldi! — og'ir ho'rsindi Jaqip.

— O'tkinchi ekan dunyo-yey, umrning bari g'am ekan! — baqirib yubordi Boy. — O'n yettida sen eding, yigirmada men edim. Ikkovimiz ona-otaga erkalanib, farovon yurganda, bir-birimiz bilan ayrilib qoldik.

— Siz kimsiz? — qaltirab so'radi Jaqip.

— Bu men, Boy og'angman!!! — deb qiyqirdi Boy.

Bu so'zlarni uqqan zahoti Jaqip otidan yerga sakrab tushdi-da, o'z otidan tushgan Boyga bosib borib, uni mahkam quchoqladi. Boy bilan Jaqip ikkovi teng bir-birini ko'rganiga quvonib, yig'lashdi.

Sog'inchi biroz bosilgandan so'ng Boy bilan Jaqip yo'lning bo'yida yotgan ikkita katta toshning ustiga o'tirishdi.

— Jaqip inim! Bola-chaqang bormi? — so'radi Boy inisidan.

— Ha, bir bolam bor, — javob berdi Jaqip. — Ikki kelining-ning hozir ham bo'ylarida bor. Sizning bola-chaqangiz bormi?

— Ikkita o'g'lim bor, — jilmaydi Boy. — Bir bolamning oti Baqay, ikkinchisiniki Taylaq. Aytgancha, sening bolangning ismi nima?

— Bolamning ismi Manas, — javob berdi Jaqip.

— Manas dedingmi? — sulayib tushdi Boy. — Ismi yaxshi bo'libdi, aytgan og'izga to'libdi. Biroq...

— Nima biroq?

— Jaqip! — biroz hayallab javob berdi Boy. — Men sening shu yerlarda yashaydi degan daragingni uqib, seni ataylab izlab

chiqdim. Seni shu yerda yashab, nihoyatda boyigan deb ko'p uqdim. Shu so'z rost aytilyaptimi yo yolg'onmi?

— Rost, amaki! — astoydil jilmaydi Jaqip. — Xudoga shukur. Mahalliy qirg'izlarning orasida boyligi bo'yicha menga teng keladigan odamlar sanoqligina!

— Bunisi durust ekan! — quvondi Boy. — Sababi mening turmushim unchalik emas. Men sendek bo'lib boyiy olmadim. Shu boisdan, agarda mumkinchilik bo'lsa, mana shu yerlarga birato'la ko'chib kelsammi deyman?! — deb savolomuz qaradi Boy Jaqipga.

— Shunday qilsangiz, nihoyatda soz bo'lardi, amaki! — iliq javob berdi Jaqip.

— Xudo xohlasa, shunday bo'ladi! — dedi Boy. — Endi men senga bolang haqida eshitgan so'zlarimni aytib beray. Men yo'lda kelayotganda qalmoqlarning ulkan qo'liga duch kelib qoldim. Ular menga ziyon yetkazmasin deb, askarlarni aylanib o'tdim. O'shanda bu qo'l Nesqara devniki ekanligini, ular sening bolang Manasni o'ldirgani kelayotganini uqdim. Ularning bu gapidan haddan ziyod cho'chib, ularning ko'ziga ko'rinmay olti kun yurdim. Bugun bo'lsa senga ro'baro' keldim, qoqilayin tayanchim!

— Boy amaki! — rangi oqarib ketdi Jaqipning. — Aytganing rost bo'lsa, bu biz uchun o'ta yomon xabar. Unda otlanaylik, qishloqqa chopaylik. Kelayotgan dushmanni qarshilashga shaylanib, odam yig'ib olaylik!

* * *

Jaysan Boyning qishlog'i. Uning o'rtasida boshqa bo'z uylarning ko'rki, kattaligi bilan ayirmalanib Jaysanboyning uyi joylashgan. Barcha kunning issig'idan qochib, uylarida dam olib yotishadi.

Uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Jaysanboy ham uyida dam olib o'tiradi. Bir payt tashqarida qiy-chuv chiqdi. Jaysanboy uning sababini xizmatkorlaridan so'rab bilguncha, uyga uning yilqichisi yugurib kirdi.

— Bu nima degan to'polon? — norozi bo'lib so'radi undan Jaysanboy.

— Boyim! — sarosimaga tushib dedi o'rta bo'yli, ingichka jag'li, sariq yuzli yilqichi. — Noma'lum askarlar bizning qish-

loqqa qo'l soldi. Bizning mo'g'ullarning yurtini bosdi. Yaylovda yurgan molga tegib, uni olib qochdi.

— Kimning yilqisiga tegdi ular? — rangi o'chdi Jaysanboyning.

— Ular sizning o'n ming yilqingizga tegdi, boy! — qaltirab javob berdi yilqichi.

— Mening yilqimga?! — o'rnidan darrov sakrab turdi Jaysanboy. — Nimaga sizlar ularga qarshilik ko'rsatmadinglar, ahmoqlar?

— Boy! — boshini shilqillatib javob berdi yilqichi. — Biz ularga qanday turish berar edik? Ularning olti ming askari bor ekan!

— Voy-bo'! — vahimaga tushdi Jaysanboy. — Bu nima degan shumlik? Qayoqdagi olti ming qo'l? Ular qayerdan paydo bo'lishdi? Aslida ularga nima kerak ekan bu yerda?

— Bilmadim, boy! — boyning qahridan qo'rqqanidan zo'rg'a javob berdi yilqichi.

— Otangning boshi, eshak desa! — so'kdi yilqichini Jaysanboy. — Bilmayman deb qo'yadi! Bilmasang nima, eshak taqalab yurasanmi bu yerda! Bo'l tez, elni to'pla. Hozir noma'lum askarlarga yo'liqib, ularning muddaosini so'raylik.

— Xo'p bo'ladi, boyim! — deb yilqichi Jaysanboyning buyrug'ini bajarish uchun eshikka shoshila chiqib ketdi.

Hademay Jaysanboyning qishloqdoshlaridan besh yuz otliq to'plandi. Barchasi kengashib, qishloqning chetida yashovchi daryolik qalmoqlarning olti ming qo'liga borishdi. Ularning boshchisi uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Basangqulga Jaysanboy qishloqdoshlaridan bo'linib, o'zi yolg'iz ot minib bordi.

— Botir! — hurmat bilan murojaat qildi Jaysanboy otini o'ynatib turgan Busurmanqulga. — Hadeganda men o'zimni tanishtira ketay. Men mana shu qishloqning boshchisi Jaysanboyman. Sizlar kim bo'lasizlar? Kimni yovlab yurasizlar? Izlaganinglar kim?

— Men Nesqara botirning navkari Basangqulman! — tanishtirdi o'zini qalmoq. — Biz Jaqip boyning bolasi Manasni izlayapmiz! Uning qayerda ekanligini bilasanmi?

— Albatta bilaman! — dedi Jaysanboy. — Hozir Manas, Jaqip Qulan-jaylo'o', Quu-Tezda. Uning uchun bizning yilqini ol-

manglar, azobga bizni solmanglar, botir! Agarda burundan bizda ololmay yurgan kekinglar bo'lsa, uni aytinglar. Mana shu so'zlarimni boshchingizga aytingiz. Biz oq yerdan kuyib ketmaylik! — deb so'randi Jaysanboy Basangquldan.

— Mayli! Men sening so'zlaringni Nesqaraga aytayin! — deb Basangqul boshchisining chodiriga chopib bordi.

Basangqulning so'zlarini uqib, Nesqara miyig'ida kuldi.

— Menga sening unchalik aqlli emasliging avvaldanoq ma'lum edi! — masxara qilib dedi u. — Biroq men seni bunchalik tentak deb o'ylagan emasman!

— Nega siz meni haqorat qilyapsiz, xonim?! — achchig'iga chidamay rangi bo'zarib-qizarib chiqdi Basangqulning.

— Sen menga titramagin, ahmoq! — g'azablandi Nesqara. — Bo'lmasa boshingni chopib tashlab, itlarga yem qilib tashlayman!

— Kechirib qo'yasiz, botir?! — qo'rqqanidan ko'zi alanglay boshladi Basangqulning. Biroq siz nima uchun menga bunday izzali aytayotganingizni mutlaqo tushunmay qoldim!

— Ha-ya! Boyagina mana shunday odamcha menga savol bermaysanmi. Darrov menga itga o'xshab xirrillamasdan! — dedi unga achchig'i chiqqan Nesqara.

— Yana bir marta kechirim so'rayman, botir!

— Bir marta men seni kechirdim. Biroq yana bir marta menga sakraydigan bo'lsang, joningdan umidingni uz. Tushundingmi?

— Tushundim! — kayfi o'chib javob berdi Basangqul.

— Tushungan bo'lsang yaxshi. Endi men nima uchun seni tentak deganimni tahlil qilib beray. Biz qishloqdan shuncha askar bilan yo'lga chiqdik. O'shandan beri bu qadar ko'p molni hech qayerda yo'liqtirmadik. To'g'rimi? — yuzlandi Basangqulga Nesqara.

— To'g'ri! — biroz o'ylangandan keyin ko'ndi Basangqul.

— O'zing o'ylab ko'r-chi. Bu yerlarda qirg'iz, qalmoqlarda Jaqipdan boshqa kimda shuncha yilqi bo'lishi mumkin? To'g'ri, hech kimda! — o'zining savoliga o'zi javob berdi Nesqara. — Shu boisdan seni ahmoq qilib, o'zini Jaysanboy deb tanishtirgan kishi — Jaqipning o'zi!

— Biroq u o'zini Jaysanboyman deb atadi-ku?! — tushunmadi Basangqul. — Unga bizni aldashdan ne foyda?

— Hoy, tentak! — ustidan kulganday qaradi unga Nesqara. — U buni bolasi Manasni saqlab qolish uchun qilgan-da!

— Men sizni endi to'liq tushundim, botir! — irjaydi Basangqul.

— Tushungan bo'lsang, hozir unga qaytib borib, yilqingni bergum deb turib, iliq-yumshoq gap qilip, uning bo'yniga ukruk solgin. Xo'ppasemiz bu cholni o'zing tutib olgin! — buyruq berdi Basangqulga Nesqara.

— Xo'p bo'ladi, botir! — javob berdi Basangqul. — Bu cholni amal bilan tutsa bo'ladi.

— Nesqaradan so'kish eshtib chiqqandan keyin Basangqul askaridan chetga chiqib, olti yuz chavandozni o'ziga qo'shib oldi-da, Jaysanboyning yoniga jo'nadi. Uning kelayotganini ko'rgan Jaysanboy unga oti bilan ro'baro' keldi.

— Mening o'tinchimni xoningizga aytdingmizmi? — so'radi u Basangquldan.

— Ha! — javob berdi Basangqul.

— U nima deb javob berdi?

— Nesqara sening o'tinchingga rozi bo'ldi! — kerilib so'yladi Basangqul. — Biz sening yilqingni haydamaymiz. Sening mulkingni chopmaymiz. Biroq bu uchun sen bizga Manasni topib, ushlab ber!

— Yo'q! — bosh tortdi Jaysanboy. — Sening shunchalar cho'ng qo'lingda shu yoqlarning tog'larini ko'rgan, sizlarni Quu-Tezge, Manasga olib boradigan kishing yo'qmi?

— Bu bilan sening nima ishing bor? — achchiqlandi Basangqul. Sening vazifang — bizga Manasni tutib berish! Aks holda biz sening yilqingni tortib olamiz!

— Sizlar yilqi tugul, qishlog'imning kulini ko'kka sovurib ketsanglar ham men sizlarga Manasni tutib berolmayman! — qat'iy javob berdi Jaysanboy.

— Nimaga?

— Sababi men Manas botirga hamla qilolmayman, qo'rqaman undan! — tushuntirdi Jaysanboy. — Shu sababli uni ushlab berishga kuchim yo'q, haydab berar holim yo'q.

— Sen menga nega taltayib, qirni ko'rsatyapsan? — g'azablandi unga Basangqul. — Beri kel yonimga!

— Xoningizga boringiz, mening aytgan so‘zimdan darak berib aytingiz! — xavfsiray boshladi Basangquldan Jaysanboy. — Olar yilqingizni olingiz.

— Beriroq kel yonimga! — qaytadan qiyqirdi unga Basangqul.

— Beri kelgin menga deb, ne osilib qoldingiz? — bundan battar qo‘rqdi undan Jaysanboy.

U bularni aytib, qo‘liga qarab otchan qochdi. Basangqul uni ushlayman deb, ortidan quvdi. O‘shanda uni Tano‘o‘ degan qalmoq yoy bilan otdi. Uning o‘qi Basangqulning ko‘kragiga tegib, u otdan qulab, til tortmay o‘ldi.

Buni ko‘rgan Nesqaraning nihoyatda g‘azabi qaynadi.

— Askarlar! — qo‘liga qiyqirdi u. — Boringlar hujumga!

Uning qo‘lining ikki mingi ot qo‘yib, olomon urush qildi. Jaysanboyning olti yuz askari ularga qarshilik ko‘rsata boshladi. Ular jazoyilni yotqizib, zambarakning bir yuzini gurillatib ottirdi. Nesqaraning qo‘li zarbaga chidamay, qayta qochdi.

Bundan qahrlangan Nesqara olti ming askarining barchasini hujumga yubordi. Bunday cho‘ng qo‘lning qisuviga chiday olmay, Jaysanboyning qo‘li qishlog‘idan chiqib, tog‘ga qochib jo‘nadi. Nesqaraning askari himoyasiz qolgan Jaysanboyning qishlog‘iga qiy-chuv bilan kirdi. Ular qishloqliklarning qiz-kelinin ushlashib, mol-dunyoga ilashib, o‘ljalarin talashib, bir-biri bilan aytishib, savashdi.

Buning oqibatida ayollar faryod chekdi somtirab, bolalari yig‘lab, chirqirab. Qishloqliklarning qo‘lga tushmay qolganlari, jarlik, jilg‘a, tog‘-u toshga qochishdi. Ularning ortidan quvigan Nesqaraning askari elliktacha kishini o‘ldirib, o‘ljani ko‘plab olishdi.

Nesqaraning qo‘li o‘sha kuni o‘sha yerda tunab qoldi. Ertasi kuni otlanib, ular o‘n beshga to‘lgan yuz o‘ttiz qizni, ikki yuz epli, suluv kelinlarni o‘zi bilan birga olib ketishdi. Bundan tashqari, ular qishloqliklarning tuyalarini, eshaklarini, mollarini, qo‘ylarini, yilqisini haydatib, Manasni tutib olish uchun katta yo‘lga solishdi.

* * *

Nesqaraning kelayotganini eshitgan qirg‘izlar dushmanni to‘sib olishga hozirlik ko‘ra boshlashdi. Jaqip qo‘shni yashagan

ellarning barchasiga qahrli yov haqida xabar berib, ulardan yordam so'radi.

So'ragan qo'shin kelgunicha olti yuzday askar bilan olmali qiya yo'l bilan Manas Nesqaraning oldidan to'sib chiqdi. U zambarakni yotqizib, gumburlagan miltiqni qarsillatib ottirib, Qampas degan qal'adan, Qarajo'y degan daladan xitoylarning yo'lini bo'g'ib oldi. Nesqaraning qo'li oldiga jila olmay, to'xtashga majbur bo'ldi.

Yarim kecha bo'lganda, Jaqipning da'vatiga javob berib, qo'shni ellardan Oltoy qozoq xalqining Kambardin o'g'li Aydarxon, naymanlardan Qarabek boshlagan to'qqiz mingga yaqin qo'l qirg'izlarga yordamga kelishdi.

Bu xabarni Manas uyida yotgan Jaqipga eshittirganda, u juda ham quvondi.

— Bizda hozir qancha qo'l bo'ldi? — so'radi Jaqip Manasdan.

— Ota! Atrofimizdagi qirg'iz, qozoq urug'laridan, qalmoq, mo'g'ullarning baridan hozirgi paytda to'qqiz ming besh yuz qo'l to'plandi! — javob berdi Manas.

— Judayam yaxshi! — dedi Jaqip. — Qo'shni ellarning barchasi ittifoqlikka kelib, dushmanga qarshi birikkani nihoyatda zo'r ish bo'ldi!

— Ha! — jilmaydi otasiga Manas. — Agarda biz birikmasak Nesqara bizni bir-birdan qirib tashlashini barchasi yaxshi tushunishdi. "Bo'linganni bo'ri yer!" deganday, birdamlikda bo'ladigan vaqt yetdi!

Bu paytda qirg'izlarni endi qangay yengishini bilmay, boshi gangib qolgan Nesqara yoniga uzun bo'yli, qorato'ri, ingichga jag'li Kudo'ng botirini maslahatlashish uchun chaqirdi.

— Qirg'izlarga qaytadan hujum qilgani shart tuzildi deb o'ylaysanmi, Ko'do'ng? — so'radi Nesqara.

— Menimcha urushni boshlayversak bo'ladi, — javob berdi Ko'do'ng.

— Ha, bo'ladi, — rozi bo'ldi Nesqara. — Biroq qarasang, qirg'izlar atrofidagi ellarning barchasini to'plab, qo'liga qo'shib, askarini ko'paytirib olibdi. Agarda biz hozir ularga yuzma-yuz hujumga o'tsak, ulardan ham, bizdan ham talay askar halok

bo'ladi. Qon juda ko'p to'kiladi. Biroq bu paytda biz eng asosiy maqsadimizga — Manasni qo'lga tushirishga yetisha olmay qolishimiz mumkin. Shu boisdan qirg'izlarga qarshi qandaydir bir harbiy amalni qo'llashimiz lozim.

— Qanday amal? Aytingiz, men hammasini ado etaman! — hozirlik bilan javob berdi Kudo'ng.

— Biz bir ilojisini topib, Manasni qo'lning chetiga chiqarib olishimiz kerak. O'shanda biz Manasni osongina o'ldiramiz, — dedi Nesqara.

— O'yingizni tushundim, botir! Biz bu rejani qanday ishga oshiramiz? — so'radi Ko'do'ng.

— Hozircha bilmayman, — o'ychan javob berdi Nesqara. — Biroq men bunday amalni so'zsiz o'ylab topaman.

— Ko'do'ng bir narsa deb javob berguncha atrofda qiy-chuv chiqib qoldi. Buning sababini bilish uchun u askarlariga chopib borib, birozdan keyin Nesqaraga qaytib keldi.

— Xonim! — dedi u. — Manasning askarlari bizning askarlarga yaqin kelib, hozir biz bilan yuzma-yuz turishadi. Sizdan qanday buyruq bo'ladi?

— Attang! — o'kinch bilan boshini chayqadi Nesqara. — Bularga qarshi amal qo'llashga ulgurmay qoldik. Nachora. Unda qirg'izlarga xabar beringlar. Harbiy urf-odatni buzmay, yakkama-yakka botirlarini chiqarishsin! Bizdan ularga qarshi Dang-Dang polvon chiqadi!

— Xo'p bo'ladi, xonim! — deb Ko'do'ng qirg'izlarga chopar yubordi.

— Bizdan yakkama-yakkaga Kuno's polvon chiqadi! — deb javob berdi Manas.

Ikki qo'shin teng ortga chekinib, polvonlar to'siqsiz kuch sinashib olishi uchun o'rtada ulkan oraliqni ochiq qoldirishdi. Maydonga birinchi bo'lib uzun bo'yli, alp gavdali, sariq yuzli Dang-Dang polvon Ularbo'z otini o'ynoqlatib otilib chiqdi. Xitoylar nayzalarini balandga ko'tarib qiyqirib, polvonini olqishlab, uning otini atab, qiy-chuv solishdi. Ularning qo'lloviga o'zini yanada mard his eta boshlagan Dang-Dang hay-haylab ovoz chiqardi.

— Qancha kuchli bo'lsang ham qutqarmayman balo*dan! — deb qiyqirdi u qirg'izlarga g'azablanib.

Uning ortidan qirg'izlardan maydonga o'rta bo'yli, chayir badanli, qorato'ri Kuno's polvon chiqdi.

— Shoshma, xitoyim! — qiyqirdi u Dang-Dangga. — Yursang sayoq, yeysan mendan tayoq!

Qirg'izlar Kuno'sning masxarali so'zlariga yerni titratib kulishdi. Bunga izza bo'lgan Dang-Dang ovozining boricha baqirib, otiga qamchi soldi. Kuno'sni qochirib, unga yetganda nayzasini siltadi. Kuno's sunilgan nayzani itarib yuborib, uning o'ziga nayza sanchdi. Dang-Dang nayzadan o'zini arang olib qochib ulgurdi.

Shundan keyin polvonlar bir-birini necha marta nayza bilan qochirishdi. Biroq hech birisi yengishga ega bo'lmadi.

Nayzadan naf bo'lmagandan so'ng polvonlar uni tashlab, gurzilarini qo'lga olishdi. Ular bilan gursullatib chopishdi. Gurzilar qalqonlarga qattiq tekkanda sharaqlagan un chor atrofga eshtilib turdi.

Polvonlar bu safar ham bir-birini yengga olmaganidan keyin, gurzilarini beliga solishib, engish boshlashdi. Ikki qo'l teng o'z polvonini qo'llab, o'kirik-baqiriq bilan ularni tortar edi.

Taylaygina vaqtgacha polvonlar bir-biriga mag'lub bo'lmadi. Yakkama— yakka olishuv ikki soatdan oshiq vaqt o'tganligidan, ikki polvon teng nihoyatda charchab, qora terda cho'milishdi.

"Bu xitoy nihoyat kuchli narsa ekan-ku! — ichida o'ylandi Kuno's. — O'zi devday bo'lgan cho'ng kishi ekan. Bunga quvlikni qo'llamasam, buni yengib olishim o'ta qiyin!".

Dang-Dang ham dushmanining kuchiga rozi bo'ldi.

"Bu qirg'izboy anoyi emas ekan! — o'z navbatida o'ylandi u. — Hadeganda men buning kelbatiga qarab, osongina yalpaytirib qo'yamagan degan edim. Biroq aytganimday bo'lmadi. U menga qaragan bo'yi kichkina bo'lgani bilan kuch tarafidan mendan qolishmas ekan. Uni yengish uchun bundan ko'p harakatimni sarflay!", deb xitoy bundan battar chirana boshladi.

Biroz vaqt o'tgandan keyin Dang-Dang epini topib, Kuno'sni otdan yulib olib, aylantirib kelib yerga urdi. Tekkan yeri chang bo'lib, maydon qizil qon bo'lib, Kuno's o'ldi tang bo'lib.

— Epchil devini so‘ydim, qirg‘izni mardsiz qo‘ydim! — shonli qiyqirdi o‘shanda Dang-Dang.— G‘ayratlisini so‘ydim, qolmig‘im hayron qildim. Otim Dang-Dang, bilgin, ajalini sog‘ingan odam bo‘lsang gar, kelgin!

Xitoylar polvonining aytganiga qah-qah urib kulishib, qirg‘izlarni masxara qila boshlashdi. Buni uqqanda o‘rta bo‘yli, qora sochli, chayir badanli Ko‘kchaning nihoyatda achchig‘i keldi.

“Bularning o‘kirib-qichqirib bizni masxara qilishini qara! — izza bo‘ldi u. — Bitta polvonimiz o‘lsa, bular bizni yengib oldik deb o‘ylayotgan bo‘lishsa kerak. Yo‘q, xitoylar, unday emas. Sizlarning ishongan polvoninglarning tubiga men yetaman!” — deb u darg‘azab bo‘ydan “Aydarxon, Aydarxon!”, deb baqirib, Dang-Dangga qarab jo‘nadi.

Bolasining maydonga chiqqanini ko‘rgan Aydarxonning kayfi o‘chib ketdi.

“Bolam yoshlik qilib, bezori qalmoq bilan chopishishni niyat qilganga o‘xshaydi?! — deb jig‘ibiyron bo‘ldi u. — Halok bo‘lmay turib uni to‘xtatayin!” — deb Aydarxon uning ortidan “to‘xta, to‘xta!” — deb chopib borib, uni Dang-Dangga yetkizmay ushlab oldi.

Bunga Ko‘kcha nihoyatda izza bo‘ldi.

“Otamga nima bo‘lgan? — jini keldi uning. — Men unga nima, yosh bolamanmi? Yoki hech kimga holi yetmagan tanbalmanmi?”.

— Otajon, meni nega to‘xtatding? — norozi bo‘lganini yashira olmay so‘radi otasidan Ko‘kcha. — Nimaga shuncha elning ko‘z o‘ngida sharmandamni chiqarding?

— Jon bolam, qo‘ygin! — yalina boshladi bolasiga Aydarxon. — Boldir eting to‘lgancha yo‘q, polvon kuching bo‘lgancha yo‘q. Qo‘ygin, bolam, borma, yo‘lamagin unga! U seni o‘ldirib qo‘yadi! Kuno‘sni joylagan kimsa sening boshingni chumchuqning boshiday qilib yulib oladi!

Otasining so‘zlaridan keyin Ko‘kcha chap bera boshladi.

“Otamning aytganlari to‘g‘ri! — kayfiyati tushdi uning. — Kuno‘s nihoyatda katta polvon edi. U bilan men qancha marta olishib, hech yenga olgan emasman. Bu qalmoq bo‘lsa uni otdan yulib olib, do‘ppidek yerga irg‘itib yubordi!”.

— Mayli unda, otajon! — javob berdi oxiri Ko'kcha otasiga. — Men yakkama-yakka olishuvga chiqmay. Unda bizning nomusimizni himoya qilib, maydonga kim chiqadi?

— Men o'zim chiqaman! — dedi Aydarxon.

— Sizmi?! — tang qoldi Ko'kcha. — Ota, hazillashmangiz! Siz qartayib qolgan kishisiz. Qalmoqqa sizning kuchingiz ikki dunyoda ham yetmaydi!

— Bu haqda sen tashvish chekma, bolam! — miyig'ida jilmaydi Aydarxon. — Qalmoqda kuch bo'lsa, menda talay olishuvlarda orttirilgan tajriba bor. Men uning chorasini osongina topishimga ko'zim yetgani uchun maydonga chiqyapman!

— Unday bo'lsa, men aytganingizga qo'shilaman! — deb Ko'kcha askarlarga qaytdi.

Aydarxon bo'lsa Qarako'k otiga qamchi solib, Dang-Dangga chopib jo'nadi. Uni ko'rganda qalmoqlar qiqirlab kulishdi.

— Mening yonimga qirg'izlarning yoshlari kelgandan qo'rqib, chollari chiqqanini qara! — masxara qildi u. — Seni chap qo'lim bilanoq yanchib tashlayman, qarigan chol! — deb Dang-Dang nayzasi bilan Aydarxonni qochirdi.

Bundaylardan nechtasini ko'rgan Aydarxon Dang-Dangni nayzasiga chap berdi. Dang-Dangning nayzasi yerga sanchilib, bayrog'i yoyildi. U o'zi bo'lsa uchib kelgan bo'yi Aydarxonning nayzasining uchiga kelib sanchildi.

— Men senga masxaralash qanday bo'lishini ko'rsatay, xitoy! — deb er Aydarxon ko'kragiga nayza urdi.

— Dang-Dang egardan chayqalib tushganida, Aydarxon uning og'ziga nayza soldi. U xitoyning bo'ynini butunlay shikastlab, ortidan chiqib ketdi. O'zini qahramon his etgan Dang-Dang shunday qilib Aydarxonning qo'lidan halok bo'ldi.

— Barakalla, Aydarxon! — deb qirg'izlar quvonganidan kuchli hayqiriq solishdi.

Xitoylar bo'lsa atoqli polvonining qirg'izning cholidan halok bo'lganiga izza bo'lishdi.

— Bu nima degan shumlik? — nihoyatda achchiqlandi Nesqara. — Bizning epchil botirimizni oyog'ini arang sudrab yurgan qirg'izning choli yengib olgani nima degan masxarabozlik? Xi-

toyning nomusini himoya qilib, undan o'ch oladigan er azamatlar bormi? Yo maydonga men o'zim chiqaymi?! — deb jar soldi u.

— Xonim! — otini yo'rg'alatib o'rtaga chiqib, Nesqaraga ta'zim qildi Qo'do'ng polvon. — Maydonga sizning chiqishingizning hech zarurati yo'q. Aydarxonga qarshi men chiqaman!

— Barakalla, botirim! — rozi bo'ldi Nesqara. — Maydonga chiqib, qirg'izning ta'zirini bergin sen!

— Xo'p bo'ladi, xonim! — deb uzun bo'yli, alp gavdali, sariq yuzli, buqaday taltaygan Ko'do'ng maydonga chopib chiqdi.

U maydonning bir chetiga yetgandan keyin otini to'xtatdi. O'zini o'nglab-tuzatib, egarga mahkam o'tirgandan keyin u nayzasini oldiga sunib maydonning ikkinchi tarafida uni kutib turgan Aydarxonga qarshi chopib ketdi. Aydarxon nayzasini hozirlab, qalmoqni mo'ljallab, otining og'zini qo'yib yubordi. Maydonning o'rtasiga yetganda botirlar bir-biriga nayza solishdi. Aydarxonning nayzasining zarbasidan Ko'do'ng tebranib ham qo'ymasdan, maydonning oxirigacha chopib borib, ikkinchi marta sayishuvga tayyorlanib, otining boshini qayta burdi.

Aydarxon bo'lsa Ko'do'ngning nayzasining zarbasidan otidan uchib ketayozib, egarda arang ushlanib qoldi.

"Shayton olgurniki desa! — so'kdi u xitoyni. — Meni ayamay nayza bilan urdi-ku, bu yalmog'iz! Naq o'pka-bag'rimni uzib qo'yay dedi!".

Otining boshini burib, Aydarxon Ko'do'ngning unga qarata chopib kelayotganini ko'rdi.

"Xudo o'zing saqlagin! — deya uning yuragi og'ziga tiqildi. — Egarda u hozir meni sayadigan bo'lsa, men sog' qolmayman!".

Ko'do'ngning haybatiga chidamay, Aydarxon qo'rqqanidan qo'liga qayta qochib qoldi.

— Xa-xa-xa! — quvonganidan o'kira boshladi qalmoqlar. — Qirg'izning polvoni bizning Ko'do'ngning bir zarbasiga chiday olmay, qochdi. Ur uni, o'ldir, Ko'do'ng! Xa-xa-xa!!!

Aydarxonning qalmoqdan jon-holi qolmay qochganini ko'rgan qirg'izlarning boshlari yerga egilib, nihoyatda nomuslanishdi. Biroq, jon shirin bo'lganligidan, hech kim Ko'do'ngga qarshi maydonga chiqishga yuragi dov bermadi.

O‘shanda Oqqula otini minib, yaroqlarini shaylab, maydonga Manas chiqdi baqirib, “Boy Jaqip” deb chaqirib.

“Bu qanday katta ketib baqirgan kimsa?! — o‘zicha o‘ylandi Ko‘do‘ng. — Osmondagi oyni yulib olaman degan o‘pkasi yo‘qlardan-ku?! Shoshmay tur, qirg‘izim. Hozir ta’ziringni berib, uningni birato‘la o‘chiraman!”.

Aydarxonni qochirganiga o‘zini mard his etgan Ko‘do‘ng bul dushmanini osongina yengib olish umidida unga qarab otliq chopib kelayotgan Manasga yuzlandi. Biroq bari u o‘ylaganday bo‘lmadi. Manas yetgan yerdan Ko‘do‘ngni do‘ppidek uchirib, bosib yanchib o‘tdi. Sho‘rlik qalmoq dushmaniga nayza solgani ham ulgurmay qoldi. U otdan uchib til tortmasdan, jon berdi.

— Barakalla, Manas! Yasha, Manas! — deb quvongan qirg‘izlar hay-haylashdi.

* * *

Qalmoqlar botiri o‘lganiga kayfiyati tushib ketdi. Nesqara izza bo‘ldi.

— Kim Manasga qarshi maydonga chiqadi? — so‘radi qo‘lidan polvoni nobud bo‘lganiga joni achishgan Nesqara.

O‘shanda Manasga qarshi uzun bo‘yli, sariq yuzli, qora qosh, qora ko‘z, chiroyli kelishgan Irangsho‘o‘ polvon chiqadigan bo‘ldi. U Nayzasini olib, baqirgancha maydonga chiqdi.

— Barakalla, Irangsho‘o‘! — olqishlay boshlashdi uni qalmoqlar. — Barcha g‘ayrat senda! Manasni mahv et! Uni yo‘q qil!

Ikki botir maydonning ikki tarafidan otlariga qamchi solib, nayzalarini oldga sunib, hujumga o‘tishdi. Qoq o‘rtaga yetganda Irangsho‘o‘ o‘zib, nayzasi bilan Manasni qochirdi. Manas uning nayzasiga chap berib, uni o‘zining nayzasi bilan kekirtagiga urdi. Irangsho‘o‘ qoldi yiqilib, changga boshi tiqilib.

— Yasha, Manas! O‘lma, Manas! Bor bo‘l, Manas!!! — deb qirg‘izlar botirining yangi g‘alabasiga quvonib qiyqirishdi.

Buni ko‘rgan Nesqara bundan battar nomuslandi.

— Manasga teng kelib uni o‘ldiradigan er bormi oranglarda?! — baqirdi u. Yo xon boshim bilan unga qarshi men chiqaymi?

— Yo‘q, xonim! — javob berdi uning yonida turgan o‘rta bo‘yli, qorato‘ri, ingichka jag‘li, qora soqolchan Shangmusaar polvon. — Uni men o‘zim joylayman!

— Oq yo‘l senga, botirim! — dedi Nesqara Shangmusaarga. — Maydonga chiqib, yengish bilan qaytib kelgin!

— Bundan hech tashvish chekmang, xonim! — jilmaydi Shangmusaar. — Yoshim o‘ttizga kelib, hech kimga yengilgan emasman. Xudoyimiz buyursa, bu safar ham marra meniki bo‘ladi, xonim! — deya u Shaltang degan otini minib maydonga chiqdi.

Shangmusaarni ko‘rgan Manas g‘azablanib, unga qarab chopib ketdi. Dushmanining haybatidan cho‘chib ketgan qalmoq uni nayza bilan sanchish kerakligini unutib qolib, shosha-pisha yoyini qo‘lga olib, Manasni yoy bilan olisdan otadigan bo‘ldi. U o‘qdonga qo‘l solib, qo‘lida tortib o‘q olib, kamoniga solguncha Manas unga yetib borib, nayza bilan uni otdan uchirib yubordi. Shangmusaar o‘rnidan turguncha u Oqqula otidan sakrab tushib, uning boshini qilichi bilan chopib tashladi.

Keyin Manas Shaltang otdi yetaklab olib, qo‘liga qaytib bordi. U o‘lja bo‘lgan otni Boy amakisiga berdi.

— Boy amaki! — Urushga fatvo berib, otni olgin! — dedi Manas.

— Rahmat, bolam! Bor, Xudo yor bo‘lsin senga! — rozi bo‘lib fatvosini berdi Manasga Boy.

Buni ko‘rgan Nesqara nihoyatda orlandi.

— Enangni urayin, qirg‘izlar! — baqirdi u. Sizlarning ta’ziringlarni bermasam! Askarlarim! Olg‘a boringlar!!!

Nesqara otiga qamchi solib, hujum qila boshladi.

— Otangning go‘ri, qalmoqlar! — qiyqirdi Manas buni ko‘rganda. — Sizlarning boshinglarga oxir zamonni tushiray! — deb u Oqqulaga qamchi solib, qo‘li bilan dushmanning oldiga yetib bordi.

Qirg‘iz bilan qalmoqlarning o‘rtasida qizil qirg‘in boshlandi. Qirg‘izlar yenga boshlaganda Nesqaraning esi og‘di.

— Qoplon yo‘lda yotarmi-yey, otilarda otilmay, qadamim shunday qotarmi-yey! — qo‘rqqanidan ovozsiz ingradi.

Qalmoqlarning orasida Nesqarani ko‘rgan Manas Oqqula bilan unga chopib ketdi. Manas unga yetib, o‘q nayza bilan sanchgani shaylanib qolganida Nesqaraning rangi o‘chdi.

— Eson bo'lgin xalqim sen, otimga qamchi solaman. Qaqanchinga qochishni endi o'ylab turaman! — deb u Chabdar otiga astoydil qamchi soldi.

Uni qochirib yubormay, Manas oti bilan unga yetib kelib, oltin kamar cheti deb, u kurakning beti deb, sir nayza bilan Nesqarani urdi. Yarador bo'lgan Nesqaraning uzangidan oyog'i toya boshladi.

— Azob haydab nima uchun bu yerga keldim?! — armonli qiyqirdi Nesqara jonining og'riganiga chidamay. — Omon bo'lgin elim, tolqonlandi belim! Chabdar otim, qutqar endi meni!!!

Nesqara o'qday bo'lgan otining og'zini yozib oldi. Va Manasdan qutulish uchun u Almaluu belning ustida otini chetanli qiya chakalakzor bilan, kiyikbosmas yer bilan balandlikni ko'zlab soldi. Beli to'lib ulgurmagan Oqqula charchab, o'zgacha chopqir Chabdar otdan ortda qola boshladi. .

— Yer tubiga yetsang ham, Bejin tugul naryog'iga kirib ketsang ham, baribir senga yetaman! — o'jarlandi Manas. — Yo seni o'ldirmay, Nesqara, yo o'zim o'lmay, men qandoq qilib ortga qaytaman?! — deb u yanada battarroq Oqqulaga qamchi ura boshladi.

Chopqir ot Oqqulani o'ziga yetkazmay, chopgan bo'yi ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu payt Manasning oldiga Tuuchunaq oti bilan Jaqip yetib keldi-da, Oqqulaning chilviridan tutdi.

— To'xtab tur, bolam! — deb qiyqirdi u Manasga.

— Qo'yib yubor, ota! — chinqirdi Manas. — Men so'zsiz Nesqaraga yetishim kerak!!!

— O'zingni bos, bolam! — yalina boshladi unga Jaqip. — Nesqara allaqachonoq qochib ketgan. Sening oting yosh. Uning Chabdar otiga qancha harakat qilsang ham yetolmaysan. Bekorga otni qiynamasdan men bilan qo'lga qayt!

Qancha o'jarlik qilsa ham, Jaqip Manasning otining chilvirini qo'yib yubormay, uni qaytarib qo'liga olib keldi. Ota-bola kelgandan keyin qiy-chuvga guvoh bo'lishdi. Xitoylarning ulgurgani qirg'izlardan qochib ketishibdi. Boshida Basangquli, keyin manmansirab kelgan polvoni, ulug'lari o'lgan, Nesqarasi qochib ketgan, o'zlari qochishga ulgurmay qolgan xitoy, qalmoqlarning barchasi qaltirab, qora ko'zi yaltirab, jon sovg'alab turishibdi.

"Sizlarga endi hech qachon hamla qilmaymiz!" — deb ular qo'lini tepaga ko'tarib, qirg'izning oqsoqollariga qo'yday chuvurlab borishdi.

Uyshun, Umo't Nesqaraning askariga tutqun bo'lgan Jaysanboyning tullarining barchasini bo'shatishdi. Jaysanboyning qishloqdoshlari Nesqaraning askari to'nab olgan mulkini tanishib, uni yig'ib-to'plab ko'tarib, Manas, Aydarxon, Jaqip, Do'g'o'nning oldiga olib borishdi.

— Sizlar bularning hammasini nega bizga olib keldinglar? — hayron qoldi bunga Jaqip.

— Hurmatli qirg'iz birodarlar! — qo'llarini ko'kragiga qo'yib yukindi Jaysanboy. — Sizlar bizni Nesqaraning askaridan qutqardinglar. Agarda sizlar bizga yordam bermaganinglarda, ular bizning mulkimiznigina tortib olmasdan, o'zimizni ham tirik qo'ymas edi. Bizning elimizning nomidan mana shu mol-mulkni sizlar o'zinglarga olinglar!

— Biz buni qabul qilsak, sizlar qanday qilib tirikchiliginglarni o'tkazasizlar? — dedi o'zini noqulay sezgancha Jaqip.

— Omon bo'lsa boshim, tag'in chiqar sochim! Jonimiz omon bo'lsa, bunday mulkning anchasini topamiz. To'g'rimi, birodarlar? — murojaat qildi Jaysanboy qishloqdoshlariga.

— To'g'ri, to'g'ri! — qo'llashdi uni barchasi.

Oqsoqollar nima deyishini bilmay, turib qolishdi. O'shanda Jaysanboyga Manas javob berdi.

— Mo'g'ullar, sizga ne bo'ldi? — achchiqlanib so'radi u. — Aqling qayga yo'qoldi? Biz hozir sizlarning mulkinglarni yovdan tortib oldik deb, olib qo'ysak, bizning otimiz kim bo'ladi? Sizlarni chopib ketgan Nesqaradan unda bizning qanday farqimiz qoladi? Bizni ham sizlar bosqinchi, qaroqchi deb, ichinglardan yomon ko'rganinglarni bizga nima keragi bor?

— Yo'q, botir! — shoshilib gapirdi Jaysanboy. — Hech kim sizlarni qaroqchim bosqinchi demaydi. Bularning barini biz sizlarga chin yurakdan hadya etyapmiz.

— Yo'q! — boshini ters chayqadi Manas. — Biz sizlardan hech narsa olmaymiz. Akincha, yetmayotgan narsanglarni sizlar bizdan olinglar. Uch kun yig'lab yurgan edinglar. Endi kulginglar ham chiqsin!

— Sizlar chindan ham bizning tortiqdan bosh tortyapsizlarmi? — og'zi ochildi Jaysanboyning.

— Ha! — kulimsiradi Manas. — Oyoq boshni yig'aylik. Oyoq yog'i Uchoro‘, yonboshing Qaraqum bo'lsin. Xabarlashib yov kelsa, o'troq yering shu bo'lsin. Nesqaraning askarini tor-mor etganimizni bilsa, Esonxon bizni sog' qo'ymaydi. U bizga qarshi so'zsiz askarlarini jo'natadi. Ungacha biz jim turmay, mahkam bo'lib olaylik, qilichlarni solaylik!

Manasning mardligiga, saxiyligiga qarab turgan elning barchasi hayron qolishdi. Jaysanboyning qishloqdoshlarining mulki egalariga qaytarib berildi. O'shandan keyin Manas asir tushgan xitoyliklarning taqdirini yecha boshladi. O'zgacha shafqatsizlik ko'rsatgan, boya ayol, qizlarga hamla qilgan sakson olti kishini narigi dunyoga jo'natdi. Qolgan olti ming uch yuz qo'lning jonini Manas omon qoldirib ularni uyiga qo'yib yubordi.

* * *

Vaqt o'tib, Manas o'n to'rt yoshga chiqdi. Turmush o'z yo'lida o'tib borardi. Qish o'tib, bahor ham keldi. Uning ortidan yoz ham yetib keldi. Uyda yotib zerikkan Manas kunlardan bir kuni ovga borib kelishga ruxsat so'radi:

— Otajon! — dedi u otasiga. — Men uyda yotib zerikdim. Ruxsat bersang, o'rtoqlarim bilan Uchorolga borib bug'u, marol otib kelayin. Bir chigalim yozayin!

— Borsang bor, bolam! — rozi bo'ldi Jaqip. — Biroq ehtiyot bo'linglar!

— Xo'p bo'ladi, ota!

Manas yoniga yetti yigitni hamroh qilib, it qo'yib, qush solib, besh-olti kunga Uchorolga yo'l oldi. Biroq ketganiga o'n bir kun bo'lsa-da, undan hech qanday xabar bo'lmadi. Bu tugul uning xabarini uqqan tirik jon yo'q.

Manasning tayinsiz yo'qolganidan uning ota-onasining tinchi yo'qoldi.

— Bu bolaga nima bo'ldi? — vahimaga tushdi Jaqip. — U qayoqqa g'oyib bo'ldi?

— Sen buni erkak bo'lib turib bilmasang, uyda o'tirgan men ayol boshim bilan qayerdan bilardim?! — norozi bo'lib to'ng'illadi Chiyirdi.

— Chor atrofdagilarning barchasi bizga qasd, birodar bizga oz edi! — bundan battar tinchsizlandi ayolining so'zlariga ko'ngil burmay.

— Bu gaping to'g'ri, chol! — qo'shildi bunga Chiyirdi.

Jaqip o'rnidan turib, nari-beri o'ychan yurdi. Keyin bir qarorga kelganday, boyvuchchasining oldida to'xtadi.

— Men uyda o'tiravermasdan, Manasni izlashga chiqay, — dedi u Chiyirdiga. — Bugun dalaga borayin. Uchorol yo'lin qarayin. O'n bir kundan buyon tayinsiz bo'lgan bolangning ro'yini ko'rayin!

— Shunday qilgin, chol! — qo'lladi Jaqipni Chiyirdi.

Ayolining fatvosini olib, Jaqip tashqariga chiqdi. Tuuchunaq otini minib, u bolasini izlash uchun jo'nadi.

"Qaydan bolamni izlasam ekan? — o'ylanib borardi u ot ustida. — Quv bolam qayerga ketib qoldi? Balkim u olis yo'lga solib, Shumuray, Ala-Ko'lga yetib qolgandir? Yo tentakligiga olib, dengizga ketib qoldimi?".

Har narsani o'ylagan Jaqip qishloqdan chiqib, otchopar yo'lga yetdi. To'satdan uning oldidan ko'm-ko'k sovut kiygan, beliga qilich bog'lagan, qo'lida nayzasi bor, piltali miltiq osib olgan o'n bir otchan kishi chiqib qoldi. Jaqipni ko'rib, ular uni darrov qurshab olishdi. Ularning oldida turgan boshchisi, uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Baqburchun Jaqipning otining chilviridan oldi.

— To'xta, oqsoqol! — buyruq berdi u. — Sen kimsan? Qayoqqa ketyapsan?

— Yo'l bo'lsin, botirlar! — qo'rqqanini bildirmay, sabrli gapirdi Jaqip. — O'zinglar kimsizlar? Nimani izlab yurasizlar?

Bizning kim ekanligimizni so'rab nima qilasan? — jini keldi Baqburchunning. — Biz Jaqip chol deganni, uning bolasi Manasni izlab yuramiz. Sen ularni taniysanmi? Asli o'zingning isming nima?

"Xudo o'zing saqlagin! — yuragi og'ziga tiqilay dedi Jaqipning. Bular aftidan xitoylarga o'xshaydi. Bizni shunchaki so'rayotgani yo'q. Niyati qora bularning! Qo'y, mumkin bo'lishicha bularning sirini bilishga harakat qilay!".

Qo'rqqanini bildirmay, hech bir sir bermasdan, Jaqip Baqburchunga do'q urib gapirdi:

— Hoy, sizlar qanday beadab narsasizlar?! — dedi u. — Hadeganda o'zinglarni tanishtirmaysizlarmi? Asli qaysi yurtdan bo'lasizlar? Boy Jaqip bilan Manasni ne sababdan izlayapsizlar?!

— Ey, murda! — yanada battar achchiqlandi Baqburchun. — Sen nima deb dovdirayapsan? Bizni so'roq qilgani sen kimsan o'zing?! Harom o'lmay turib ismingni tezda ayt! — so'kinib so'zladi u.

Jaqipning mutlaqo chorasi qolmadi.

"Bularga ismimni aytmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi! — tipirchiladi u. — Biroq rostini aytsam, bir baloga duch kelmayin. Undan ko'ra bularni aldab sirini bilayin!".

Jaqip boshidagi qalpog'ini qo'liga olib, Baqburchunga jilmayib qaradi.

— Aybga buyurmaysan, botir! — kechirim so'raganday dedi u. — Menga o'xshagan qarigan, aljiragan cholga norozi bo'lmanglar. Bizning elda hadeganda mehmonlar o'zini tanishtirib, keyin o'zining muhtojligini aytadi. Men shu sababdan sizlarning ismi-sharifinglarni so'ragan edim.

— Ko'p mahmadonalik qilmay, ismingni ayt?! Takror talab qildi Baqburchun. — Bo'lmasa boshingdan judo bo'lasan!

— Aytayin, botir, aytayin! — asta jilmaydi Jaqip. Mening ismim Berdike.

— Berdike?! Sen Jaqipni, Manasni taniysanmi? — so'radi undan Baqburchun.

— Albatta, taniyman. Biz, qirg'izlar, bu yerda ozmiz. Shu tufayli bir-birimizni yaxshi taniymiz.

— Tanisang, ayt rostini. Jaqip sening do'sting yoki tug'ishganing emasmi? — shubha bilan qaradi Jaqipga Baqburchun.

— Qaydan deysan?! — qo'lini siltadi Jaqip. — Bunday tug'ishgandan dushman ortiq. Jaqip mening murosasiz dushmanim, qasdoshim. Bolasi Manas o'n to'rt yoshda. Sizlar Jaqip bilan Manasni haydab ketasizlarmi yoki o'ldirib qo'yasizlarmi — menga baribir. Men aksincha bunga quvonaman. Shu boisdan, rostini aytinglar-chi, yigitlar. Sizlar ularni nima uchun izlab yuribsizlar?

Baqburchun darrov javob bermasdan, Jaqipga tikilib qaradi.

"Bu kalbosh qirg'iz rost gapiryaptimi? Yoki bizni aldab, ayyorlik qilyaptimi? — o'yladi u. — Aytishiga qaraganda o'taketgan shumshukka o'xshaydi. Bunga rost gapni aytsammi yoki yo'qmi?"

U bir lahza o'ylandi.

"Bu cholga rostini aytay! — ahd qildi u nihoyat. — Balkim bu murda chindan ham Jaqipning dushmanidir?! Unda u bizga eng kerakli odam ekan! Biroq baribir buning tizginini tortib qo'yay!"

— Sen nega qayta-qayta bizning sirimizni bilmoqchi bo'lib so'raysan, chol?! — achchiqlandi Baqburchun. — Agarda sen Jaqipning dushmani bo'lsang ayt-chi — uning qishlog'i qayerda? Bizni o'sha yerga boshlab borgin!

— Hech bo'lmasa uni nima uchun izlayotganinglarni aytinglar! — o'jarlik qildi Jaqip.

— Hoy, sen qanday sovuq narsasan? — endi rostakamiga achchig'i keldi Baqburchunning. — Sen nega sirimizni bilishga intizor bo'lib turibsan? Yo'q so'zni aytib, boshimizni og'ritma. Joningdan umiding bo'lsa, bizni Jaqipning qishlog'iga boshla!

"Bularning turqi buzila boshladi! — qo'rqdi Baqburchundan, qizarib-bo'zargan yuziga qarab Jaqip. — Bu kofirlar achchiq ustida meni rostdanam o'ldirib qo'ymasin. Sog'-omonligimda bularni teskari tarafga haydab, o'zim bulardan qochib qutulib, Manas bolamni topayin!".

— Xo'p bo'ladi, botir! — bo'ysunganday dedi Jaqip. — Jaqipning qishlog'ini aytsam aytay. Tarbag'atay degan tog' yonbag'ri bor. O'sha yerdan otlansa, orasi ikki kunchalik Terektuu degan joy bor. Jaqipning qishlog'i o'sha yerda. Borsanglar, uni bolasi bilan oson ushlab olasizlar. Tushungdingmi, botir?

— Tushundim!

— Tushungan bo'lsanglar, o'zinglar haqingda aytib beringlar, botirlar?!

Baqburchun Jaqipning o'jarligiga beixtiyor kulib yuborganda, ortidagi boshqa qalmoqlar xaxolab kulib yuborishdi.

— Voy, o'jar cholim! — kulgusini tiyib javob berdi qalmoq. — Qanchalik qo'rqitib, hurkitsak-da, o'zingning aytganingdan

qolmading. Ma'qul. Biz haqimizda bilging kelsa, uq. Biz xitoyning ayg'oqchilarimiz. O'zimiz Qaqanchinning har qaysi shaharlaridanmiz. Birimiz Qumuldan, boshqalari — Qambildan, Mardan, Tarlandan, Qo'ngudan, Jerkendan bo'lamiz. Bizni Qananchinning xoni Esonxon bundan olti yil burun Manasni ushlab kelishga ushbu safarga jo'natgan. Sababi u yo'q bo'lmasa, biz jang-u jadaldan mosuvo bo'lmaymiz. O'shandan buyon biz Manasning daragini topmay yuribmiz. Seni uchratganimiz juda yaxshi bo'ldi. Bizga uning qishlog'ini ko'rsatib ber, Berdike!

Bu so'zlarni eshitgan Jaqip jonidan qaytadan xavfsiray boshladi.

"Bulardan eplab qutulib, bolamni topib, uni olib qochmasam, aniq sho'rim qurir ekan!", — deb esi og'di, uning.

— Qo'yinglar, bolalarim! — zorlanib dedi Jaqip. — Meni ko'p qiynamanglar. Menda tuya, yilqi, mol bor. Ularni qaytarmasam, qarishqir yeb ketadi. Shu boisdan sizlarni Jaqipning qishlog'iga olib borishga holim yo'q.

— Sen bizni olib bormasang, uning qishlog'ini qayerdan topamiz? — achchiqlandi Baqburchun.

— Uni men sizlarga aytib beraman. Anavi katta tog'ni ko'rdinglarmi?

— Ha!

— Sizlar o'sha tog'ga qarab to'g'ri yo'ldan ketaversanglar, Jaqipning qishlog'ini osongina topib olasizlar!

Jaqipning ular bilan borishga mutlaqo niyati yo'q ekanligini tushungan Baqburchun noilojlikdan navkarlari bilan ko'rsatilgan tog' tarafga jo'nashdi.

Ulardan qutulganiga quvongan Jaqip to'xtovsiz qishlog'iga qarab chopib ketdi.

"Xudoga shukur! — suyunib borardi chol. — Boyagi yer yutgur xitoylardan eplab qutulib oldim. Biroq Manas bolamning ahvoli nima bo'ladi? U to'satdan xitoylarga duch kelib, nobud bo'lib qolmasin?!"

Buni o'ylaganda Jaqipning kayfiyati qayta buzildi. Otining yo'rg'alashini sekinlashtirib, u teran o'yga cho'mdi.

"Albatta, hozir Manas menda yolg'iz farzand emas! — o'ylandi u. — Kichik xotinim Baxtdavlat ikki yarim oy muqaddam

o'g'il tug'di. Unga ham to'y berib, mo'l-ko'l mol so'yib, ismini Abike qo'ydim. Xudo saqlasin-ku, Manas shahid ketsa, menda Abike o'g'lim qoladi. Ammo u ulg'ayib, bo'yga yetguncha men tirik bo'lamanmi yoki narigi dunyoga safar qilamanmi — buni bir Alloh taolo biladi! Ustiga-ustak, Manasni joylagandan keyin xitoylar meni ham tek qo'ymasa kerak! Menga ham osilishi mumkin. Abike bo'lsa beshikdagi yosh bola. U mening belimga kamar bo'la olmaydi. Og'asi Manasning o'rnini bosa olmaydi!".

Mana shularni o'ylab, Jaqip jig'ibiyron bo'ldi.

"O'-o', shum dunyo! — armonli o'yladi u. — Qariganda bir bolalik bo'lsam, unga ham har tarafdan osilishyapti. Uni qanday qilib saqlab qolaman? Bog'im bo'lsa qiysammi? Yo molim bo'lsa yig'sammi? Yo Manasni saqlab qolish uchun Turkiston yoqqa ketib qolsammi?

Uyga yetguncha bu o'ylar Jaqipning yuragini ezib o'tdi. Biroq qishloqqa yetganda u hech kimga sir bermasdan, asta-sekin uyiga bordi. Otidan tushib, uyiga kirib, Jaqip Chiyirdining o'ychan o'tirganini ko'rdi. Choli kirganda, Chiyirdi o'rnidan turdi.

— Keldingmi, chol? Manasni topdingmi? Uni olib keldingmi? — savolni yomg'irdek yog'dirdi Chiyirdi.

— Yo'q, topganim yo'q! — tutilib javob berdi Jaqip.

— Bo'tam, bu chol nimay deydi? — g'azablandi Chiyirdi. — Bolamni topmasang, unda nega uyga yetib kelding? Yo senga bolaning keragi yo'qmi?

— Bola senga qanday kerak bo'lsa, menga ham shunday kerak! — yoqtirmasdan javob berdi Jaqip. — Uni izlashni to'xtatib, uyga qaytib kelganimning sababi boshqa.

— Bu qanday sabab? — so'radi Chiyirdi.

Jaqip boyvuchchasiga xitoylarga yo'liqqanini, ularni qanday aldab, qochib ketganining hammasini aytib berdi. U gapirib bo'lganda Chiyiyrdi ho'ngrab yig'lab yubordi:

— Qoqilayin tayanchim! — dedi u. — Sening barcha dushmanlaring yo'q bo'lib, ishlaring o'ngidan keldi desam, boshingga yana qora bulutlar uyulgan ekan-da! Endi seni dushmanlaringdan qarigan ota-onang qanday himoya qiladi?! — deb beto'xtov yig'ladi u.

— Qo'y, boyvuchcha, yupata boshladi uni Jaqip. — o'kirib-baqirib yig'lagandan hech foyda yo'q. Men Manasni asrash uchun bir-ikkita amal o'ylab topdim. O'shani o'rtaga solib, kengashib ko'raylik!

— Ma'qul, chol! — ko'z yoshini artib dedi Chiyirdi. — Men nima qilishim kerak?

— Sen xizmatkorlarga aytib, qishloqdagilarning barchasini uyga chaqirgin. Qishloq boshchisi Oqbolta, maslakdoshim Berdike — barchasi kelishsin!

— Xo'p bo'ladi! — Chiyirdi o'rnidan turib, Jaqipning buyrug'ini bajarish uchun tashqariga chiqib ketdi.

Bir soatdan keyin Jaqipning uyining yoniga chaqirilgan qishloqdoshlarining barchasi kelishdi.

— Hurmatli haloyiq-xalq! — murojaat qildi ularga Jaqip. — O'zinglar bilganday, mening bolam Manas mahkam chiqib, elning yonini oladigan mard azamat bo'ldi. Uning bunday harakatlari dushmanlarimizga yoqmayapti. Manasning daragini qizil cho'g'li ko'p millat, xitoy uqibdi. Shu boisdan ular bolamni hozir kuchga to'lib ulgurmagan davrida yo'q qilishga bel bog'lashibdi.

— Buni senga kim aytdi? — savol berdi Jaqipga Oqbolta. — Balkim bu jo'ngina mish-mish, ig'voli so'z bo'lmasin?

— Shunday bo'lganda qaniydi?! — og'ir xo'rsindi Jaqip. — Baxtga qarshi, ahvol bunday emas. Manasni o'ldirishga otlanib chiqqan xitoylarga men o'zim to'satdan yo'liqib qoldim. Ularning aytishicha, xitoy xoni Esonxon Manasni so'zsiz ravishda o'ldirishga buyruq beribdi. Manas tirik bo'lsa, xitoylarga tinchlik bo'lmas emish!

Jaqipning so'zlaridan keyin barcha bir-biriga tikilib, nima deyishini bilmay, jimjit bo'lib qoldi.

— Endi nima qilamiz? — tinchlikni buzdi Oqbolta, hech kim gapirmayotganini ko'rib. Biz Manasni so'zsiz saqlab qolishimiz kerak. Manas hozir yosh bola. U er yetib, kuchga to'lsa, bizning nomusimizni himoya qilib, ulardan azalgi o'chimizni olib beradi. Uni saqlab olish bo'yicha kimning qanday o'yi bor?

Barcha yana indamay qoldi. Hech kimdan hech qanday fikr chiqmayotganini ko'rgan Jaqip elga murojaat qildi:

— El-yurt! — dedi u. — Xitoylar bizga qattiq kek saqlab qolishibdi. Ular endi Manasni yo'q qilmaguncha tinchishmaydi. Qayta-qayta bizga osilaveradi. Ularni aldov uchun biz xitoylarga Manasning o'rniga boshqa bir bolani bersak qanday bo'ladi? Men bunday odamga mol ham, pul ham berar edim?!

Atrofda yana tinchlik hukm surdi. O'tirganlar falonchi deb ayta olmay, bir-biriga tikilib, ikkilanib qolishdi. Ichlarida ko'pchilik Jaqipning bu fikrini yoqtirishmasa ham, tashqarisida hech kim unga jur'at etib qarshi gapira olmadi. Sababi Manasni qanday yo'l bilan bo'lsa ham omon saqlab qolish kerakligini barchasi juda yaxshi tushunib turardi. Lekin o'z bolasini qurbonlikka keltirishga hech kimning ko'zi qiymas edi.

Birgina Boy Jaqipga tap tortmay, unga o'z o'yini ochiq aytdi:

— Boyvuchcha bilan boy Jaqip! — achchiq so'zladi u. — Sizlar qanday ahmoq jonsizlar?! Bolasini sizlarga molga, pulga kim beradi?! Sening hayvonday bo'lgan so'zingga kim ko'nadi?!

— Men sizlarga hozirgi qiyin ahvoldan qanday chiqish haqida o'zimning taklifimnigina aytdim! — oqlana boshladi Jaqip.

— Sen nega ahvolni qiyin deyapsan?! — g'azablanib qaradi unga Boy. — Nima, bizni bu yerda qamal qilib turgan qo'l bormi?! Birov bizni qurshab olib, xafa qilayaptimi?

— Yo'q! — qisilib javob berdi Jaqip.

— Unda sen nega dovdirayapsan?! — achchiqlanib so'radi Jaqipdan Boy. — Esingdami, olti ming besh yuz qo'li bilan Nesqara bizga kelgan edi?

— Esimda!

— Manas bolang ularning barchasini yakson qilib, qiyratdi-ku?! To'g'rimi?!

— To'g'ri!

— To'g'ri bo'lsa, sen nimaga o'zingcha qiynalyapsan? Xafa bo'lmagin, inim. Biroq sen farosati yo'q, yomon kishi ekansan! — Boy Jaqipga norozi bo'lib yuzini ters burdi.

Boyning so'zini qo'llab, yig'ilganlar qiy-chuv qilib yuborishdi: Elning muddaosini fahmlagan Chiyirdi xijolatchilikka chidamay, yig'lab yubordi:

— Men arang bir bola tug'sam, atrofdagilarning barchasi unga osilishyapti! — deb faryod chekdi u. — Bu azob qachon bosiladi?!

* * *

Barchani g'am-tashvishga solib, onasini yig'latgan Manas bu paytda hech narsani o'ylamay, parvoyi falak bo'lib, ovda ko'ngil yozib yurgan edi. Uyidan chiqqandan keyin Manas hadeganda Uchorolga bordi. Undan so'ng Taldi-Suu o'zaniga yuzlandi. Bu paytda ularning safarga chiqqaniga yetti kun bo'ldi. Manasga hamroh bo'lgan yetti yigit olti bo'ri, o'n tulki, ikki bug'i, uch quljani otib oldi.

Oqshomda ular otib olgan o'ljasini pishirib yeb, dam olgani yotishdi. Ertasi kuni bo'lsa yerga yorug' tusha boshlagan paytda Manas hech kimni uyg'otmasdan, yigitlaridan bo'linib, Qurbu-Qumga yo'l oldi.

Tong birato'la otib, kun chiqqanda uyg'ongan yigitlar Manasni topolmay qo'yishdi. Uning adashib qolganini yo qishloqqa qaytib ketganini bilmay, tinchsizlangan yigitlar Manasni izlab jo'nashdi.

Manas bo'lsa bu paytda allaqachonoq Qurbu-Qumga yetib, atrofga suqlanib qarayotgan edi. Qurbu-Qum ulug' suv bo'lib, unda quljalar yayrab yuradi. Manas u yerda qayin, terak, tolning zich o'sib turganini payqadi.

Kelgan joyiga ko'z yugurtirgan Manas qo'qqisdan suv jiyagidagi to'qaydan o'rtoqlari chiqib kelayotganini ko'rdi.

"Ular bu yerda yurishgan ekan-ku" — deb Manas suyungan bo'yi Oqqulani ularga qaratib yo'naltirdi. Odatda, qushday uchgan ot negadir hurkib, qadam bosmay, qochib turib oldi.

"Bunga nima bo'lgan? — tang qoldi Manas. — Nimadan hurkiyapti bu to'ng'iz?"

Manas atrofga ko'z tashlasa, ostki tarafdagi orolda kattaligi ho'kizdek, to'shi jag'jayinqi*, boshi katta qozonday, quyruqli, qanotli, yap-yalang'och santalaq* turibdi. Uning boshida shoxi ham bor ekan. Manas bilan ishi yo'q, u tepalikka chiqib, bir qiyqiriq solgan edi, ovozi besh kunlik yerga eshitildi. Bu qiyqiriqdan yetti yuz o'n to'rt qulja yiqilib, til tortmay jon berdi.

Bunga Manas nihoyatda hayron qoldi.

"Bu nima degan shumlik? — achchig'i keldi uning. — Umrimda bunday jonivorni ko'rgan emasman. U odammi, hayvonmi, farqi yo'q, zolim ekan. U och hayqiriq solib, shuncha quljaning uvoliga

qoldi. Agarda men hozir uni tek qo'ysam, uning ovozi bilan atrofdagi jonivorlarning tubiga yetadi. Barcha jonivorlar qirilguncha, bu yalmog'izning o'zi o'lgani yaxshi! Men uni otib tashlay!" — deb Manas qo'lida osilib turgan Aqkelte miltig'ini oldi.

Ko'k pilikni tutatib, qarshisidagi hayvonning o'pkasini mo'ljallab, ko'kragiga otdi. To'g'ri borib tekkan o'qdan hayvon yerga qulab tushib, jon berdi. Manas uning o'ligining yoniga bosib borib, qilichi bilan uni ikkiga bo'lib tashladi.

Shu asnoda uning yoniga yigitlari chopib kelishdi.

— Eson-omon keldinglarmi? — jilmaydi ularga Manas.

— Manas! Sen qayoqqa ketib qolding? Biz seni arang topdik. Qayerda ekanligingni aytib qo'ysang bo'lmasmidi? — yigitlar Manasga norozi bo'lib qarashdi.

— Kechiringlar meni, yigitlar! — iltijoli javob berdi Manas. Men ertalab yo'lga chiqayotganimda sizlar nihoyatda shirin uxlab yotgan edinglar. Sizlarning uyqunglarni buzmay deb, hech kimni uyg'otmasdan, bu yerga kelaverdim. Kelganim bekor bo'lmabdi. Juda qiziq voqeaga duch keldim. Bu yotgan jonivorning qiyqirig'idan yuzlagan quljalar nobud bo'ldi. Ularni ko'rdinglarmi?

— Ha! — deyishdi yigitlar.

— Sizlar hozir qishloqqa chopinglar! — buyruq berdi Manas yigitlarga. — Hammasiga arxari yo'q, quljalar o'libdi deb xabar beringlar. Qishloqliklar ot, tuya, ho'kizdan ko'proq olib kelishsin. O'lgan quljalarning go'shti sasib ketmay turib barchasini so'yib, qishloqqa yuklab ketishsin!

Yigitlar buyruqni bajarib, qishloqdan ikki ming odamni erchitib kelishdi. Ular o'lgan quljalarning go'shtini yuklab, minnatdor bo'lgancha yana qishlog'iga qaytishdi. O'sha suvning etagi o'shandan buyon "Qulja" deb atalib qolibdi.

* * *

El quljalarning go'shtini bo'lishtirib yurganda u yerga Manasni izlab yurgan o'n bir xitoy kelib qoldi.

— Bu nima degan qiy-chuv? — deb hayron qoldi Baqburchun.

Uning savoliga javob berganday, qishloqliklar "Manas, Manas!" — deb chuvullab qolishdi. Xitoylar hech kimga bildirmay, asta kuzatishib Manasning kim ekanligini bilishdi.

— Osmondan izlaganimiz yerdan topildi! — quvonib yuzlandi o'rtoqlariga Baqburchun. — Biz izlagan Manas mana shu yerda ekan. Uni shuncha ko'p elning ko'z o'ngida qo'lga olib keta olmaymiz. Shu boisdan el tarqaguncha kutib turaylik. Barchasi ketgandan keyin Manasni tutib, Xitoyga olib ketamiz!

Barchasi bu taklifga ko'nishib, elning oyog'i siyraklashguncha kutib turishdi. Manas yigitlari bilan qolganda Baqburchun navkarlari bilan uning yoniga otchan bostirib kelishdi.

— Manas degan sen bo'lasanmi? — qahrli so'radi u Manasdan.

— Ha! Sizlar kimsizlar? — lol qolgancha qaradi notanish kishilarga Manas.

— Sening otang Jaqipmi? — uning savoliga javob bermay yana so'radi xitoy.

— Ha! — yanada battarroq hayron bo'ldi Manas. — Sizlar buni qayerdan bilasizlar?

— Biz hammasini bilamiz! — rasmiy turda javob berdi Baqburchun. — Biz xitoy xoni Esonxonning jaysanglarimiz. Uning buyrug'i bo'yicha biz seni hamda otang Jaqipni Xitoyga olib ketamiz.

— Nima uchun? — savol bilan tikildi Baqburchunga Manas.

Sizlar Qaqanchin* uchun xavfli odamsizlar. Shu sababdan sizlar biz bilan ketasizlar. Yur, otang qayda? Biz uni ham olib ketishimiz kerak! — dedi Baqburchun.

— Otamni so'rab nima qilasizlar? — norozi bo'ldi Manas. — Otam ikkovimiz hech kimga yomonlik qilmagan mo'min odamlarmiz. Boshqa birovlar menga mana shunday muomala qilsa, qanday javob berishni o'zim bilar edim. Biroq sizlar Esonxonning odamlari ekansizlar. Shu boisdan men sizlarni otamga olib boray. Uni ko'rgandan keyin sizlar o'zinglarning qattiq yanglishganinglarni tushunasizlar. Men bo'lsam sizlarga qilgan xatoyinglar uchun tavba qildirtiraman. Yuringlar men bilan! — deb Manas xitoylarni qishlog'iga olib bordi.

Uyiga borgandan keyin Manas mehmonlarni joylashtirib, yigitlaridan birini otasiga yubordi. U Jaqipga borib, bolasining chaqirayotganini bildirdi. Buni eshitgan Jaqipning rangi o'chdi.

— Xitoyliklar bolamni ushlab olishgan ekan-da! Jaqipning yuragi og'ziga tiqildi. — Bolam meni endi aniq falokatga solibdi.

Qo'rqqanidan Jaqip Xudoga nolib yig'ladi. Qishlog'ining barchasini to'plab, Manasning oldiga borishga qaror qildi.

— Arslon Manasim bor bo'lsa, meni xor qilmaydi! — deb g'ayratga to'ldi Jaqip. — Xitoylarga nomusini berib qo'ymaydi!

Shu asnoda xitoylar o'zlariga o'zlari go'riston bo'lib o'tirgan kez edi.

"Esonxonning buyrug'ini bajardik!" — suyunishdi ular. — Topilmay yurgan Manasni tutib oldik. Endi otasi Jaqipni topsak, xonimizning oldida yuzimiz yorug' bo'ladi".

Jaqip boshlagan qishloqliklar Manasning oldiga kelganda, Baqburchun unga savol berib qaradi:

— Bular kimlar?

— Mening qishloqdoshlarim, — javob berdi Manas.

— Otang Jaqipni menga ko'rsat-chi? — so'randi Baqburchun.

— Otam mana bu kishi! — Manas qo'li bilan qishloqliklarning oldingi qatorida turgan Jaqipni ko'rsatdi.

Unga bir qarashdayoq Baqburchun uni tanib, achchig'iga chidamay titrab ketdi.

— Jaqip senmiding? — ovozini baland qildi Baqburchun. — Nima uchun bizni aldab, teskari yo'lga solding, qoqbosh chol?

Jaqip nima deb javob berishini bilmay, qo'rqqanidan pichirlab, indamay turib qoldi. Bunga Baqburchunning yanada battarroq achchig'i keldi.

— Sen Esonxon xonning aniq dushmani ekansan! — qiyqirdi u Jaqipga. — Uning buyrug'ini bajarishda bizga yordam berish o'rniga, bizni aldading. Sening kasofatingdan yeringning shartini bilmay, tog'-toshni oralab, itdek qiynaldik. Yigitlar, buning boshiga teri kiydirib, bog'lab tashlanglar!

Boshchisining buyrug'ini bajarish uchun to'rt yigit Jaqipning oldiga kelishdi.

— To'xtanglar, yigitlar! — shashti ketgan Jaqip ularga iltijoli qaradi. — Agarda mening gunohim bo'lsa, kishaninglarni menga solinglar. Biroq bizning elni oz ko'rib, do'stinglarni qasd ko'rib, behuda uvolga qolmangizlar!

Xitoylar Jaqipning so'zini chivin chaqqanchalik ko'rmay, ushlash uchun unga yoppasiga tashlanishdi. Otasining qiyin ahvolda qolganini ko'rgan Manas Baqburchunga yuzlandi:

— Bu nima qilganinglar? — norozi bo'lib so'radi u. — Qari kishiga nega osilyapsizlar? Sizlar xonning odami bo'lsangizlar ko'ringanni ushlab, bog'layverasizlarmi? Be'mani bu qilig'inglarni to'xtatinglar!!!

— Sen qanday o'pkasini cho'zgan ahmoqsan? — baqirdi unga Baqburchun. — Qarasang buning mardlik qilganini?" Yolg'onchi, nokas otasiga bo'lishar emish. Qani, yigitlar. Bu sasigan burutni otasiga qo'shib bog'langlar-chi!

Baqburchunning so'zini ikki qilmay, xitoylar Manasga osilishdi.

— Hurmatinglarni bilmagan qanday ahmoqsizlar!!! — Manasning yanada battar achchig'i keldi. — Otamni bog'latib qo'yib, indamay qarab turadigan odam emasman! — deb Manasning so'zidan jahli, ko'zidan yolqini chiqdi.

O'ziga osilgan xitoylarning birini Manas o'ng qo'lidan, ikkinchisini chap qo'lidan, uchinchisini kuragidan, to'rtinchisini yoqasidan oldi. To'rttalasini ushlab turib, ko'ylakday yelpib, ko'tarib yerga urdi.

Quruq nomusga oldirgan qolgan yetti nafar xitoy Manasga yopishib, hamla qilishdi. O'shanda Manas ularning ikkitasini ko'tarib yerga chopgan edi, uning oldida oltita xitoy tipirchilab, o'rnidan tura olmay yotib qolishdi. Qolgan besh xitoy Manasga osilganda u ikkitasini tutib, ular bilan yonida turgan ikkitasini urgan edi, barchasining esi og'ib, yerga qulashdi.

Manasning polvonligini ko'rgan Baqburchun qochishini yoki dushmaniga osilishini bilmay, esi og'ib, o'rnida qotib qoldi. Uning yoniga rangi oqargan Manas kelganda, u bundan battar o'zini yo'qotdi.

— Xo'-o'sh! — achchiq bilan dedi Manas. — Endi nima deysan, xitoyim?! Qo'y desam bo'lmay, izzatingni bilmay, otamga, menga osilding. Bu qilig'ing uchun qoningni ichib, joningni olaymi?!

— Jon sovg'a, botir, jon sovg'a!!! — Baqburchun ovozi boricha baqirib, Manasning oldiga cho'kka tushdi.

Manas uni yutib yuborguday dikkayib qaradi.

"Taqdirim qanday bo'ladi? Tirik qolamanmi yoki shu yerda o'ligim it-qushlarga yem bo'ladimi?!" — deb qo'rqqan Baqburchun Manasga javdirab tikilmoqdan bo'lak iloj topmadi.

Dushmanining bunday ayanchli ahvolini ko'rgan Manasning achchig'i tarqab, odatdagi saxiyligi tutdi.

— Shuncha qo'lim tekkandan so'ng, birontangni qoldirmay, barchangni so'ysam bo'lar edi?! — o'ychan dedi u Baqburchunga ko'zlari bilan teshib qarab.

— Jon sovg'a, botir, jon sovg'a!!! — jonidan umidini birato'la uzgan Baqburchunning bundan battar rangi o'chdi. — Bir qoshiq qonimdan kech!!!

— Mayli, kechsam kechayin qoningdan! — chorasizlikdan kuldi Manas. Sizlarning hammanglarni qo'yib yuboraman. Biroq xoninglarga aytib boringlar. Menga osilishni tashlasin. Aks holda men qahrlansam, sizlarda bitta ham tirik jon qolmaydi. Endi bo'lsa otinglarga minib, jo'nanglar uyinglarga! — deb Manas xitoylarni yo'liga soldi.

V. Manasning o'rtoqlari bilan solbiringa borgani

Manasni tutgani kelgan o'n bir xitoyni haydagandan keyin Jaqipning qishlog'ida qaytadan tinchlik, osoyishtalik hukm surdi. Turmush o'z yo'lida o'tib borardi. Har qanday kurash, olishuv, urushlarga ko'na boshlagan Manas uchun bunday osoyishtalik aniq azobga aylandi. Nima qilishini bilmay, u uyda ertadan kechgacha nari-beri yuradi. Qishloqni oralaydi. Tog'ga chiqadi. Biroq kuz, qishning sovuq kunlarida qayoqqa ham borar edi. Iloj yo'q, ota-onasining manglayida o'tirdi.

Qishning izg'irini ketib, gullab yashnab kuttirgan bahor keldi. Uning ortidan yozning saratoni yetib keldi. Avval qor bosib, yopilib turgan oshuvlar ochilib, butun chor atrof qizil-yashil bo'lib, qulf urdi. Sovuqning kunlarida uyda yotib zerikkan yoshlar ovga borishga ahd qilishdi.

— Barchamiz yig'ilib, Charqastanning bo'yiga, Urkun suvga boraylik! — taklif qildi Manas to'plangan o'rtoqlariga. — Uni yerning go'zali deb ko'p aytishadi. Oltoy tog'ining poyoni Barko'l ko'li deydi. Shimoli esa Angir beli ekan. U yerlarning kiyigi odam bilmas,ovga juda ham qulay deyishadi. O'sha tarafga ovga chiqaylik. Uyda yotaverib zerikib ketgan bo'lsanglar kerak?

Yig'ilganlarning barchasi bu taklifga rozi bo'lishdi. Solbiringa borishga sakson to'rt kishi oziqlarini ko'plab solishib, olg'ir qushdan olishib, ham miltig'in osishib, burgutlarin sapchitib, tag'anlarin g'ingshitib, tayyorlana boshlashdi.

Ko'pchilikning qatorida Manas ham hozirlik ko'ra boshladi. Kamchiliklarini to'liqlash uchun u otasi Jaqipga bordi.

— Otajon! — dedi u Jaqipga. — Men o'rtoqlarim bilan solbiringa borayin deyapman!

— Borsang bor, bolam! — rozi bo'ldi Jaqip. — Do'stlaring bilan ovchilik qilib, ko'ngil yozib kelasan!

— Solbiringa borishga menga Qambarbo'zning uyuridan uchta toyni ushlab beringiz, ota! — so'randi Manas.

— Bolam! — mehr bilan jilmaydi Jaqip. — Kerak bo'lsa Qambarbo'zni uyuri bilan olgin. Bu molning barini men sen uchun yig'ganman. Bo'lgani o'zingni ehtiyot qil, aylanayin tayanchim! — deb Jaqip yilqichilariga buyruq berib, Manasga uchta emas, beshta to'rt yashar toylarni ushlab berdi.

Manas uchta yo'rg'aga uchta yigitini mindirib, ikkitasini yalang yetaklab, o'rtoqlari bilan ovga jo'nadi. Ular ot horitib, qush solib, olti qo'nib, Charqastanning bo'yiga yetib borishdi. Bo'ri, tulki ko'p olganlikdan barchasining kayfiyati ko'tarinki bo'ldi.

Munosib yerni topib, yigitlar o'sha yerda dam oladigan bo'lishdi. O'zlari bilan olib kelgan kapalarini ko'lanka yerga o'rnatib, ichiga to'shaklarini olib kirishdi. Boshqalari yer qazib, o'choqqa o'tin tayyorlashdi. Boshqa birovlari to'qayning ichidan o'tinlikka yaraydigan quruq butoqlarni yig'ib kelishdi.

O't yoqib, qozon osib, unga go'shtdan ko'p-ko'p solishdi. Uni yegandan keyin bari uning ta'mini maqtab, oshpazlarning chevarligiga rozi bo'lishdi.

O'shanda qora soch, qora qoshli, oq yuzli Aynaqul o'tirganlarga yuzlandi:

— Bolalar! — dedi u. — Bu yerda sakson to'rt kishi o'tiramiz. Oldimiz yigirma besh yoshdamiz, oxirimiz — o'n beshda. To'g'rimi? — so'radi u.

— Ha! — deb javob berishdi o'tirganlar.

— Menda bunday taklif bor. Biz oramizdan birovni to'ra deb, uni oq terlikka solib, xon qilib olsak qanday bo'ladi?

— Juda chiroyli fikr! — qiqirladi er Ko'kcha. — Biroq biz kimni xon qilib olamiz?

— Hech kimda arazlash bo'lmasligi uchun bunday qilaylik! — javob berdi Aynaqul. — Kim xon bo'lgisi kelsa otini so'yib bizni mehmon qilsin. Keyin qishloqqa borganda biz uni chin ko'ngildan xonimiz deb qolaylik. Otni hazillashib yedik deb, hozirgi so'zimizdan qaytish bo'lmasin. Shunga rozimisizlar?

— Rozimiz! — kayfiyati tushib javob berdi barchasi uchun Ko'kcha.

— Unda kim otini so'yib, xon bo'lgisi keladi? — jilmayib murojaat qildi do'stlariga Aynaqul. — Kim mardlik qiladi?

Bari bir-biriga tikilib, indamay qolishdi.

"Hazil-chin aralash aytilgan bu taklifga qaysi tentak rozi bo'ladi? — ichida o'yladi Ko'kcha. — Qanday jinni otini so'yadi? Buning ustiga, sen xon bo'ldingmi yo yo'qmi — senda boshqalardan farqlanib, hech qanday imtiyozlar bo'lmaydi. Boshqargan eling bo'lmaganidan keyin bunday quruq nomning kimga keragi bor?"

Yaqindagi o'rtoqlarining yuziga qarab, Ko'kcha ular aynan shunday o'yda turishganini tushundi. Aynaqul bo'lsa, hech narsani sezmaganday, o'zining taklifini yuzaga oshirishga harakatlana boshladi.

— Shaqun! — murojaat qildi Aynaqul o'ng tarafida yonma-yon o'tirgan o'rta bo'yli, keng yelkali, qorato'ri manjulikka. — Sen xon bo'lmaysanmi?

— Men jon dilim bilan xon bo'lar edim! — shoshqaloqlab javob berdi Shaqun. — Biroq bizni oltoylik qalmoqlar qamayotganda, men otimni yo'yib, Manasga navkar bo'lganman. O'zinglar bilasizlar — navkar hech vaqtda xon bo'la olmaydi. Shu boisdan men sizlarning taklifinglardan bosh tortishga majburman.

Ma'qul deganday, Aynaqul Shaqunning so'zlariga boshini chayqab qo'ydi. Keyin u chap tarafida o'tirgan uzun bo'yli, ingichka jag', sariq yuzli O'shpirning o'g'li Nazarbekka qaradi.

— Xon bo'lishga sening o'ying qanday? — so'radi Aynaqul Nazarbekdan.

— Xonlikka Nazarbek eng munosib nomzod! — chuvullashdi o'tirganlar. — Nazarbek nihoyatda adolatli, sabrli, haqgo'y yigit. Bizga ajoyib xon bo'lib beradi!

— Menga ishonch bildirganlaring uchun katta rahmat! — irjaydi ichidan joni chiqib ketayozgan Nazarbek. — Biroq men ham xon bo'la olmayman. Men ham sakkiz yoshimda Manasga erkinligimni berib, unga navkar bo'lgan edim. Shu sababdan sizlar boshqani xonlikka ko'taringlar!

Aynaqul navbati bilan er Ko'cho'ga, Qaraqo'jo' bolasi Qaldarga, yana boshqa besh-olti yigitga xon bo'lish haqidagi taklifini qaytaladi. Barchasi har qanday bahonalar bilan bundan bosh tortishdi. Hech kim otini so'ygisi kelmadi.

O'shanda Ko'kcha o'tirganlarga achchiqlanib yuzlandi:

— Yigitlar! — dedi u. — Bu bo'lmagan so'zni to'xtataylik. Mazax so'z uchun ahmoq otini so'ymasa, hech bir sog' odam so'ymaydi. Shu boisdan bu hazilni yig'ishtiraylik. Shu qadar och qolgan bo'lsanglar, buguncha chidab yotib turinglar. Ertaga ovda kiyik bo'lmasa, ular-pular otinglar. Uni topmasangizlar, bug'u-sug'u otinglar. Hech nima topmasangizlar qishloqni ko'zlab qaytinglar!

Ko'kchaning so'ziga o'rta bo'yli, sariq yuzli, bo'ladan kelgan Asqarning o'g'li Jabag'ining achchig'i keldi.

— Sen nimalar deyapsan, Ko'kcha? — achchig'ingni bos. — Sen o'zing Sari-Arqani joylagan, son qozoqni haydagan xonlarning naslidansan. Boshidan quruq kishi emassan. Shu boisdan boshqalar bunday so'zni aytsa ham, sen elni aynitmasdan, vaysamasdan jim o'tir!

— Bo'ldi bo'ldi! — qiqirlab kuldi noqulay Ko'kcha. Agarda elni mengina buzayotgan bo'lsam, unda men o'chdim. Biroq sen, Jabag'im, bekor yotgan mol topsang, o'z otingni so'yib, bizga xon bo'lmaysanmi?!

— Yo'q, men bunday qila olmayman! — qizarib-bo'zarib javob berdi Jabag'i.

— Otingni so'ymaysanmi?

— So'ymayman!

— So'ya olmasang, unda menga nisbatan kinoyali so'zingni qo'yib tur! — kinoyali qaradi do'stiga Ko'kcha.

To'g'ri aytilgan so'zga javob topolmay, Jabag'ining boshi xam bo'lib, quyi qaradi.

O‘shandan keyin Aynaqul o‘z taklifini barchaga qaytalab chiqdi. Unga hech kim roziligini bergani yo‘q. Xon bo‘lish Aynaqul bilan Manasgagina taklif qilinadimi.

— Aynaqul! — kulib murojaat qildi o‘shanda unga Shaqun. — Xon bo‘lishdan bari bosh tortdi. O‘zlarini bu o‘ringa noloyiq deb hisoblashyapti bolalar. Menimcha, bizning oramizdan xonlikka sendan boshqa munosib hech kim yo‘q. Shu sababdan sen o‘zinggina bizga xon bo‘lib ber-chi, do‘stim?!

— To‘g‘ri, to‘g‘ri so‘z! — xaxolab kulishdi barchasi. — Xonlikka eng munosib odam — Aynaqul! — shovqin solishdi yigitlar.

Aynaqul indamasdan, ularga jilmayib qarab turdi.

— Yigitlar! — dedi shovqin-suron bosilgandan keyin. — Menga xonlikni taklif qilib, katta ishonch ko‘rsatib, shunchalar chuvullab, qo‘llaganinglar uchun boshim osmonga yetdi. Bu taklifdan men hech qachon qaytmas edim. Biroq, baxtga qarshi, men ham xon bo‘la olmayman.

— Nimaga? — norozi bo‘lib so‘radi Shaqun.

— Sababi men ham o‘z davrida Manasdan yengilib, unga navkar bo‘lib, uni “to‘ram” deganman! — javob berdi Aynaqul. — Uning kuchi bilan saxiyligini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, umr bo‘yi esimdan chiqmaydigan ta’sir oldim. Shu boisdan, yigitlar, rozi bo‘lsanglar, biz Manasni xon qilib saylab olaylik.

— Manasnimi? — so‘radi gumonsirab Shaqun. — Biroq u bizning eng kichigimiz emasmi? U xonlikni eplay olarmikin?

— To‘g‘ri! — rozi bo‘ldi Aynaqul. — Manas bizning eng kenjamiz. Ammo u mardligi, botirligi bilan butun qirg‘iz eliga nomi chiqdi. Otasi Jaqip haddan ziyod boy. Uning moli behisob. Manasni xon qiilib ko‘tarsak, u bizda eng zo‘r boshchi bo‘ladi. To‘g‘rimi, yigitlar?

— Aynaqul to‘g‘ri aytyapti! — qaytadan chuvullashdi yigitlar. — Manas xonlikka eng munosib nomzod!

Hammasining uni qo‘llayotganidan sherlangan Aynaqul shu paytgacha indamay o‘tirgan Manasga yuzlandi:

— Manas bola! Sen elning o‘yini eshitdingmi?

— Eshitdim! — deb javob berdi Manas.

— Bunga sen nima deysan? Bizga xon bo‘lishga rozimisan?

— Men nima der edim?! — kulimsiradi Manas. — Shunchanglar so'ranib tursanglar, men sizlarga qanday yo'q deyman. Ot minmasam qo'yayin, biroq sizlarning ko'nglinglarni og'ritmayin. Mening Oqqula otimni so'yinglar. Otin so'ymay baxillik qildi deb o'ylamanglar!

— Barakalla, Manas!!! — suyunganidan zaminni larzaga keltirib qiyqirishdi o'tirganlar.

Birgina Manasning yonida o'tirgan o'rta bo'yli, chayir gavdali, qorato'ri Chegeboy ularga qo'shilgani yo'q. Aksincha, Manasga nihoyatda norozi bo'ldi.

— Bu nima qilganing, Manas?! — kuragiga turtdi do'stini u. — Aynaqul hazil tariqasida aytgan taklifiga sen nega otingni so'ymoqchisan? Zudlik bilan so'zingdan qayt!

— Yo'q! — boshini chayqadi Manas.

— Nega?!

— Er yigit hech qachon o'z so'zidan qaytmaydi!

— Unday bo'lsa, Oqqulani so'ydirmay, boshqa otni so'ydir! — jig'ibiyron bo'ldi Chegeboy. — Oqqula senga kelajakda qo'lingga qo'l, oyog'ingga oyoq bo'lib beradigan jonivor.

— Yo'q! — boshini chayqadi Manas. — Men unday qila olmayman. Oqqulani so'yinglar deb olib, endi so'zimdan qaytib, boshqa otni taklif qilganim — yerdagi tupugimni qaytib og'zimga olganga teng!

— Mayli-mayli! — chidamsizlik bilan javob berdi Chegeboy. — Sen Oqquladan boshqani so'ydirmayotganingning sababi shugina bo'lsa, bu masalani hal qilishni menga qo'yib ber!

Manas unga javob berguncha, Chegeboy o'rnidan turib ulgurdi.

— Do'stlar! — dedi u Oqqulani ushlashga tayyorlanayotgan yigitlarga. — Meni uqinglar. Biz Oqqulani so'yganimiz bo'lmaydi. Sababi u o'ta oriq, eti yo'q yilqi. Uni yegan bilan o'zinglar eng avvalo norozi bo'lasizlar.

— Unda yegani Manasda boshqa yilqi bormi? — tinchsizlanib so'radi Ko'kcha.

— Ha, bor! — hozirlik bilan javob berdi Chegeboy. — Mening qo'limda bitta to'rt yasharli bo'z tulpor bor. U ukuruk, yugan tegmagan nihoyatda semiz ot. O'shani so'yaylik. Bayroq bog'lab tug' qilib, Manasni xon ko'tarib qo'yaylik!

Barcha bunga rozi bo'lib, bo'z tulporni so'yib tashlashdi. Darrov qozonga solib, go'shtini tekis bo'lib, yeb olishdi.

Go'shtni yeb bo'lgandan keyin Aynaqul qaytadan barchasiga murojaat qildi.

— Qani, yigitlar! — buyruq berdi u. — Aytgan so'zimizda turaylik. Manasni xon qilib ko'tarib olaylik.

— Keragi yo'q, yigitlar! — Manas ularga kulib javob berdi. — Men xon bo'laman deb otni so'yganim yo'q.

— Biz bo'lsak seni xon qilib ko'taramiz deb otingni yedik, — dedi Aynaqul. — Shu boisdan endi so'zimizni bajaraylik.

— Qo'yinglar, bolalar, menga buning keragi yo'q! — deb qocha boshladi Manas.

Ammo yigitlar uni hol-joniga qo'ymasdan, mahkam ushlab olib, oq terlikka solishdi.

— Bizning xonimiz Manas! — deb Aynaqul jar soldi.

— Biz xonning navkarimiz! — kulgancha javob berishdi bo'z bolalar.

O'yin-kulgu, hazil bilan yigitlar bu kunni shunchalar ko'ngilli o'tkazishib, dam olgani tarqashdi.

* * *

Ertasi kuni barchasi turib, ovqatlanib bo'lganidan so'ng Manas o'rtoqlariga murojaat qildi:

— Yigitlar! — dedi u. Hol-jonimga qo'ymay, xon ko'tarib qo'ydinglar. Barchanglarga ep bo'lsa bir so'z aytayin.

— Aytaver! — deb ruxsat berdi Aynaqul.

— Sizlar rozi bo'lsanglar, biz bu yerda yotavermasdan, ayg'oqchilikka chiqaylik! — taklifini aytdi Manas. — Oltoy tog'da Angartini oshib olaylik. Uyog'i Maral Kechuvga qadar boraylik. Balkim, Xitoyning bizga qarshi qaroqchilari bordir? O'shani payqashtirib ko'raylik. Qaroqchi bo'lsa ushlaylik, o'g'ri bo'lsa tutaylik. Og'u-yog'iy jon bo'lsa, sog' qo'ymay boshin yutaylik!

Barchasi bu buyruqqa bosh egib, apil-tapil ot to'qib, yo'lga chiqishdi. Ancha yurishib, Angartini oshib olib, oxiri Maral-Kechuvga, Urqun daryoga yetib kelishdi. Uning suvi nihoyatda tez oqqanini ko'rib, barchasining esi og'di.

Undan o'tgandan keyin ular keng dalaga yetib, uchga bo'lingan yo'lni ko'rishdi. Ikkita yo'l o'ng tarafda, bittasi chap tarafda. U yerda terak, tol zich o'sgan ekan. Jonivorning hammasi shu yerga to'planganday, chor atrofda ko'plab yayrab, o'tlab yurishadi.

Manas o'rtoqlari bilan shu yerda besh-olti kun dam olishga ahd qildi. Mahkam bog'lab otlarin, ko'rpachasin olishib, ko'k maysa uzra yoyib solishib, yigitlar keng-kavir yotib olishdi. Zerikkanda kiyik, bo'g'ilganda bug'u otishib, bo'g'ilmasa taltayib dam olishdi.

Ular o'tloq uzra beparvo yotishganida ikkinchi tarafdan bu yerga Esonxonning to'qqiz yuz askari kelib qoldi. Ularning boshchisi uzun bo'yli, keng yelkali, sariq yuzli Nuuker shuncha qo'l bilan Oltoyga jo'n kelgan emas edi. Uni olti yarim yil avval yuborilgan qirq besh tuyalik karvonining tayini hamda Manasning xabarini bilgani Esonxonning o'zi yuborgan edi.

— Mening qirq besh tuyam puli bilan yo'qoldi. Qancha kishimning tayini yo'q. Ularning xabarini topinglar! — qahrlanib buyurdi unga Esonxon. — Sizlarga qarshi chiqar jon bo'lsa, boshin uzib chopinglar.

Xonining bu buyrug'ini bajargan Nuuker askari bilan Urqunning jiyagiga kelib qarasa, narigi qirg'oqdagi o'tloqda Manas o'rtoqlari bilan yotibdi.

— Yo'lim bo'lganga o'xshaydi! — suyunib ketdi Nuuker. — Oltoylik odam oldimdan chiqib qoldi. Soni yuzga yetmas ekan. Hozir ularga yuz kishimni yuboray. Oltoyliklarni menga olib kelishsin. Bormaymiz deganni urishsin. Ajali yetgan o'lar, o'lmagani kelar, menga javob berar!

Nuuker buyruq berganda yuz kishi yo'lga chiqishdi. Ular Urqunga kelib qarashsa, u nihoyatda quturibdi. Uning to'lib-toshib, shuvillaganidan unga yaqin kelgan odamning a'zoyi-badani zirqiraydi. Suvning vajohatidan Nuukerning askarlarining hushi uchdi.

— Bu suvdan hech kim kechib o'ta olmaydi! — dedi ular. — Kechaman deb kirgan jon berib o'sib unmas. Suvga kirsak, barchamiz qolmay o'lamiz. Shu boisdan Nuukerga barchamiz boraylik. U bizga hukm qilsa kechaylik. O'zimiz bilsak ketaylik! — deb unga chopar yuborishdi.

— Sizlar qanday qo‘rqoq odamsizlar! — buni uqqan Nuuker choparga otildi. Sizlarni navkar deb kim aytadi! Suvdan hayiqmasdan, barchasi uni kechsin!!!

Chopar bu javobni aytgandan keyin yuz askar, chorasiz, bari birday suvga kirishdi. Suvning tez oqimi ularni darrov bir-birdan bo‘lib tashladi. Har qaysisi har yerda o‘rdakday bo‘lib ko‘rinib qolishdi. Otining yolini qo‘ldan chiqarmaganlargina eplab-seplab suvdan chiqa olishdi.

Suvdan chiqqandan keyin ular o‘zlarining hisobini olishsa, yigirma nafari suvda oqib o‘libdi. Qolgan saksoni kiyimlarini siqib, Manas o‘rtoqlari bilan yotgan tarafga jo‘nashdi.

Xitoylarning suvga kirganini ham, chiqqanini ham Manas qorovullikka qo‘ygan Ko‘kcha ko‘rib turdi. U darrov Manasga qaytib, ko‘rgan-bilganini aytdi.

— Xonim! — dedi u Manasga. — Bu odamlar sog‘ emas. Bari qurollangan. Bizga qarab yuztasi yoppasiga suvga kirishdi. Agarda ularga ulug‘i buyruq qilmasa, qaysi jonidan to‘ygan odam shunday sharqiragan suvga o‘z erki bilan kiradi?! Bular bo‘lsa-bo‘lmasa bizga qasd niyat bilan kelishayotir, xonim!

— To‘g‘ri aytasan, botir! — ma’qulladi Manas. — Hukmdori bo‘lmasa, o‘limga to‘g‘ri kim kirar?! Shu sababdan, yigitlar, otinglarni mininglar. Kelgindilarni payqab bilinglar. Agarda ular dushman bo‘lsa, darrov ular bilan olishuvga kiringlar!

Manas so‘zini aytib, og‘zini yopguncha Nuukerning sakson navkari ularga yetib kelishdi. Xitoylarning uzun bo‘yli, keng yelkali, qorato‘ri boshchisi otini Manasning yonida to‘xtatdi.

— Eling oltoylikmi? — Manasdan achchiqlanib so‘radi.

— Ha, javob berdi Manas.

— Hozir qayerdan kelding?! Saltanating xon yanglig‘ ekan. Sen ne qilib yurgan jonsan? Yo boqib yurgan moling yo‘q. Yo tikib yurgan bog‘ing yo‘q. Qurol-yarog‘li ekansizlar. Qir-adirda ov qilib yurganlarga o‘xshaysizlar. Asli sizlar kimsizlar? Hozir qaydan keldinglar? — savolni yomg‘irday yog‘dirdi u.

Notanish odamning bunday qo‘pol muomalasi Manasning achchig‘ini keltirdi. Ammo achchig‘ini bosib, mehmonning hurmatini saqlab, u kichikfe’llik bilan boshchiga yuzlandi:

— Sizlar juda ham past-baland gapirar ekansizlar-ku! — dedi u. — Hukm bilan yurganday sizlar kimsizlar?

Savollarga javob berishning o'rniga Manas aksincha unga savol bilan murojaat qilganiga boshchining joni chiqib ketayozdi.

— Biz Qaqanchining xalqimiz. Bizning boshchi Nuuker sizlarni olisdan ko'rib, haydab kel deb bizni yubordi. Shu sababli otlanib, biz bilan yuringlar! — qat'iy buyruq berdi u Manasga.

Lekin Manas uning so'zlarini chivin chaqqanchalik ko'rgani yo'q. Aksincha, u qaytadan boshchiga savol bilan yuzlandi:

— Qani, Nuukerning botirlari, aytinglar-chi! — dedi u. — Bizda qanday ishing bor? Bizda kim degan dushman kishing bor?

Manasning so'zlariga boshchining yanada battar achchig'i keldi.

— Hoy, chaqchaygan musulmon?! — baqirdi u Manasga. — Sen bola bo'lib turib buncha qattiq gapirasan? Biz Nuukerning dushmani kim ekanligini bilmaymiz. Bilishingni ham xohlamaymiz! Agarda seni bu savol qiziqtirsa, uni xon Nuukerning o'zidan eshitasan! Hozir bo'lsa qiyshanglamay, biz bilan ildam bostir! Bo'lmasa harom o'lasan! — po'pisalab dedi boshchi.

Manasning endi astoydil achchig'i keldi.

— Meni haydab boradigan sensanmi? Mana, boradigan kishing menman! — deb Manas qilichini sug'urib olib, boshchining boshini uchirib chopib yubordi.

Manasning hamrohlari xitoylarga birontasi qolmay yopirildi. Ular hovliqib kelgan xitoy navkarlarining barchasini qirib tashlashdi. Ularning oti, to'nlarini o'ljaga olishdi.

Bu paytda o'zi yuborgan yuz kishidan darak bo'lmagandan keyin Nuuker devning tinchi ketdi.

"Navkarlarimga nima bo'ldi? — toqati toq bo'ldi uning. — Bu chog'gacha kelib qolishi kerak edi. Chamamda, ular qandaydir bir falokatga uchraganga o'xshaydi! Hozir tun ekanligiga qalamay hujumga otlansammi?".

Biroz o'ylanib Nuuker o'yidan qaytdi.

"Yo'q! — boshini chayqadi u. — Bunday qilganim yaramaydi. Birinchidan, men bu yerning shartini bilmayman. Ikkinchidan, dushmanlarimning aniq soni menga noma'lum. Mening qo'lim ochiqda, yaydoq dalada yotibdi. Ular bo'lsa to'qayda. Ularning ozi,

ko'pligini bilmayman. Ayg'oqchi yuborsang, ular ko'zga ilinmaydi. Shu tufayli sabr qilib, tong otguncha kutishdan bo'lak iloj yo'q!".

Tong otgandan keyin Nuuker urushga chiqishga nog'ora qoqdi. Baqillatib karnayni, taqillatib surnayni xitoylar Urkunning suviga kelgandan keyin narigi sohilga o'tishga tayyorlana boshlashdi.

Ular suvning sirin bilmasdan, sollari bilan bo'lak-bo'lak kirmasdan, bari birin-ketin kirib olishdi. Natijada sollar tez oqqan suvning oqimi tufayli bir-biriga to'qnashib, orada yuzdan oshiq xitoylik suvga cho'kib o'ldi.

Qolgani daryodan chiqqanda sakkiz yuz askardan olti yuz to'qsonigina qolganini ko'rgan Nuukerning kuymagan yeri kul bo'lib, nihoyatda aziyat chekdi.

— Bu ne degan ko'rgilik?! — o'kirdi u navkarlariga. — Biz dushman bilan yuzlashmay turiboq yuzdan oshiq askarimizdan ayrildik. Tetapoya bolalarni ushlaymiz deb, shunday yo'qotishlarga uchradik. Hoy, yigitlar! Otga mininglar. Ancha-muncha yovni chiqarib yubormay, ushlab olinglar.

Navkarlar buyruqni bajarib, har tarafga borishdi. Biroq ularni boyadan beri kuzatib yotgan Manasning navkarlari atrofini qurshovga oldi.

Buni ko'rgan uzun bo'yli, alp qomatli, sariq yuzli, qisiq ko'zli Chang-Chang degan xitoyning boshqalarga o'xshab rangi o'chdi.

— Hoy, sizlar kimsizlar? — shoshilib so'radi u qirg'izlarning oldida turgan Manasdan. — Qaysi xalqdan, urug'dan bo'lasizlar? Qanday yer bo'lar turar joyinglar?

Unga Manas achchiqlanib javob berdi:

— Tub otam Tubo'y xon, bosh otam Babirqan, cho'ng otam No'g'o'y, otam Jaqip, o'zimning otim Manas bo'ladi. Mendan oladigan keking bo'lsa, nomusing uchun talash!

Manas hay-hayni solganda, uning sakson to'rt yigiti o'rta yerga yig'ilib qoldi.Urushni boshlashdan avval ikki tarafning polvonlari yakkama-yakka olishuvga chiqadigan bo'ldi. Xitoylar tarafdan olishuvga uzun bo'yli, keng yelkali, ho'kizday torvaygan, sariq yuzli Qimqar polvon qilichini sug'urib, qiyqirib oldiga chiqdi.

Buni ko'rgan Ko'kcha Manasga norozi qaradi.

— Hoy, Manas! — dedi u. — Sen tufayli barimiz bir chetdan qirilamiz, chog'i. Kiyik otib, jo'n ketmasdan, xitoylarni o'ldirib

charchadik. Esonxonni arzon o'ylab sen qizitaloq, arining uyasini qo'zg'ading. Agarda ular qo'l bilan kelsa, biz ularga turish bera olmaymiz. Barchamiz yayrab qochib jo'nasak, bizni yomon ko'rasan! — deb nolidi.

O'shanda Manas unga mana bunday javob berdi:

— Seni men aqlli yigit desam, aqling yo'q ekan-ku! — achchiqlanib qaradi Ko'kchaga u. — Har bir odam manglayiga yozilganini ko'radi. Ming qochsa ham ajali yetsa o'ladi. Shu sababdan sen harom so'zlarni aytma-chi! Olti yuz xitoy kelsa ham gangirab qolding. Shunday deya aytaversang, barining hushini olasan. Sendan iltimos — yo'q yerdagi so'zni aytmasdan jo'n tur! — jerkib tashladi Manas Ko'kchani.

Shundan keyin er Manas Qimqarga yakkama-yakka chiqishga shaylana boshladi.

— Bu nima qilganing? — achchig'i keldi unga Aynaqulning. — Xon bo'lganingdan so'ng, jim turmaysanmi?!

— Unda Qimqarga kim chiqadi? — so'radi undan Manas.

— Men chiqaman! — javob berdi Manasning so'zlaridan izza bo'lgan Ko'kcha.

Otiga qamchi urib, u Qimqarga yuzma-yuz bordi. Ikki taraf teng botirlarga maydonda sanchishishga mumkinchilik berib, o'rtani keng ochib qo'yishdi.

Polvonlar maydonning ikki qarama-qarshi taraflariga borib, otining boshini burib, to'xtab qolishdi. Berilgan belgi bo'yicha ikkalasi nayzalarini mahkam ushlab, otlariga qamchi solib, bir-biriga peshvoz chopib ketishdi. Ular bir-biriga yaqinlab kelganda, Qimqar o'zib, birinchi bo'lib Ko'kchaga nayza saydi. Ko'kcha uning nayzasini chetga qoqib yubordi. Va, o'z navbatida, xitoyning ko'kragiga nayza bilan urganda, Qimqar otidan uchib tushib, jon berdi.

Buni ko'rgan xitoyliklarning orasidan o'rta bo'yli, keng yelkali, ingichka jag', sariq yuzli Bo'ljo'ng botir po'lat qilichini olib, Ala-Mo'yno'k otini choptirib, askarlarning oldiga Ko'kchaga qarshi yakkama-yakka olishuvga chiqib keldi.

— Qimqarni qirdan solgan sensanmi, qizitaloq musulmon?! — qiyqirdi u Ko'kchaga. — Manmansiramay kel menga, o'tingni yorib tashlayin?!

Unda qilich, nayzadan tashqari miltig'i bor ekanligini ko'rgan Manas xavfsiray boshladi.

"Bu yer yutgur xitoy Ko'kchani aldab, nayza sanchish o'rniga, uni miltiqdan otib tashlamasin?!" — deb tinchsizlandi u do'sti uchun.

Bo'ljo'ngning miltig'ini belidan olib, unga qarab chopib kelayotgan Ko'kchani otishga tayyorlanayotganini ko'rgan Manas undan oldinroq, xitoyni Aqkelte bilan otib, yer tishlatdi.

Bo'ljo'ngning otdan uchib tushib, qazo bo'lganini ko'rgan Nuukerning joni chiqib ketayozdi.

"Unmagan oltoyliklar" — so'kindi ichidan u. — Tek qo'ysang, ular yakkama-yakka olishuvda mening eng yaxshi askarlarim, polvonlarimning tubiga yetadigan bo'ldi. Hujumga o'tmasam, barcha navkarlarimdan ajraladigan bo'ldim!".

U otiga qamchi solib, navkarlariga baqirdi:

— Yakkama-yakka olishuvga men o'zim chiqaman! — dedi u. — O'rninglardan qimirlamanglar!

Nuuker oldiga otilib otchan chiqqanida, Manas Oqqulasiga qamchi solib, unga qarshi otlanayin degan edi, Ko'kcha uning otining chilvirdan ushlab qoldi.

— Botir Manas! Senga nima bo'ldi? — hayron qolib so'radi u. — Men maydonda turganda, sen nega yulqinib turibsan?

— Men Nuuker haqida avval ham eshitgan edim! — javob berdi unga sabrsizlik bilan Manas. — Uni asrdan oshgan ajoyib deb maqtashadi. Uning tusini ko'rgandan keyin, senga jonim achishdi. Seni o'ldirib qo'ymasin deb, kelib qoldim!

— Yo'q, u bilan men o'zim chopishaman! — deb Ko'kcha Nuukerga qarshi otiga qamchi solib, baqirib maydonga kirib bordi.

Miltiq otmay, yoy otmay, nayza qilich ko'tarmay, Ko'kcha Nuukerga achchiqlanib yetdi. O'shanda Nuuker baqirib, uni otdan yulib oldi-da, uni ko'tarib toshga urishga tayyorlanib qoldi.

Uni ko'rib er Manas Oqqulaga qamchi solib, Nuukerga yetib bordi. Ot ustidagi Nuukerni u kuragidan oldi.

— Qo'yib yubor Ko'kchani! — deb baqirdi u.

Biroq Nuuker o'jarlanib, Ko'kchani yanada mahkam ushladi. O'shanda Manas ikkovini teng ot ustidan yulqib olib, otining

yoliga qo'yib, askarlariga qaytib chopib ketdi. Ularga yetgandan keyin Manas Nuukerning boshini qilich bilan chopib tashlab, Ko'kchani bo'shatib oldi.

Nuukerning boshini chopilganini ko'rgan xitoylar "olomon!" deb, barchasi birdek ot qo'yib, qirg'izlarga hujumga o'tishdi. Manas bilan o'rtoqlari nayza, qilichlarini olishib, "bahovuddin!" deb baqirib, "Manas" lab xitob qilib, xitoylar bilan chopisha boshlashdi.

Aylana qiy-chuv, o'kirik-baqiriqqa to'ldi. Dushmanlar bir-birini oybolta bilan urishdi boshga shaq-shaq, nayza sanchishdi to'shga taq-taq, qilich bilan chopishdi shaqa-shuq. Qora qon selday oqib, tanasidan judo bo'lgan boshlar to'p kabi dumalab yotdi. Manas yurar baqirib, er Ko'kcha yurar alahsitib xitoyni, bir chetidan yopirilib, changi ko'kka sovurilib.

Urush boshlanganidan so'ng ancha vaqt o'tgach, qirg'izlarning hujumiga chiday olmay, xitoylar chekina boshladi. Sababi qirg'izlardan ko'p bo'lsa ham Manas bilan uning sakson o'rtog'ining xitobi sakkiz ming qo'lday bo'ldi. Selpillagan xitoyning seldan qoni mo'l bo'ldi. O'rta yeri o'yilib, o'ligidan yo'l bo'ldi.

O'shanda xitoylar qo'rqqanidan, omon qolish uchun Urkunning suviga qarab qochishdi. Oti yaxshilar eplab narigi qirg'oqqa chiqib olishdi. Talayginasi sohilga yeta olmay, suvga cho'kishdi.

Yetti yuz askardan ikki yuz nafarigina suvdan arang o'tishib, Budang tog'ni ko'zlab qochishdi. Undan nari Esonxonga qarab chopishdi.

Manas bilan o'rtoqlari xitoylarning ustidan to'liq g'alaba qozonishdi. Ularga qarshi kelgan to'qqiz yuz askarning yetti yuz nafari o'ldi. Ularning ot-to'nini qirg'izlar o'lja qilib olishdi. Shunday qilib, Manas bilan o'rtoqlari o'ljaga boyib qolishdi.

VI. Manasning xon etib saylanishi hamda Jo'lay devni, o'n bir sarbozni yenggani

Nuukerning askarini yenggandan keyin Manas o'rtoqlari bilan Angirti oshuvini oshishib, Oltoyning tuzin bosishib, qaytib keldi eliga, Jaqip boy qo'ngan yeriga. Ular solbirinda qanday voqealar-

ga duchor bo‘lganini, dushmanlarni qanday yengganini el-u yurtga aytib berishdi.

Kelganiga uch kun bo‘lgandan keyin Manas Qambarbo‘zning uyuridan to‘qqizta ushlab kelib, barini bir paytda so‘ydirdi. U yer o‘chog‘in o‘ydirib, oltoylik elini ota bolasidan tuk qo‘ymay, tugal chaqirib oldi.

— Oltoyda yotgan el! — dedi u to‘plangan elga. — Oyoq-boshing yig‘ishtirib, hisobing qancha, ber! — deb so‘randi u.

Barchasi kim, qaydan Manas oldiga kelganini aniqlay boshlashdi. Hisob-kitob nihoyasida unga oltoyliklarning barchasi to‘planganligi ayon bo‘ldi.

— El-yurt! — murojaat etdi barchasiga Salamat. — Manasning da’vati bo‘yicha barchamiz bu yerga kelibmiz. Ko‘pchilikning qatorida hozir olchin, uyshun, nayman bor, arg‘in Qaraqo‘ja bor. Abaqlarning ichida Aydarxon botir qo‘sha bor. Qipchoqlardan chechan Taz, no‘go‘ylardan Boy Jaqip, no‘yg‘utlardan — Oqbolta, to‘tudan — To‘kto‘biy, lo‘qushlardan — O‘murzaq, o‘zbekdan Dambilda bor. Aylanada yashagan ellarning barchasi yig‘inda qatnashmoqda.

— Bu yaxshi ko‘rinish! — rozi bo‘ldi Manas. — Endi men nima sababdan sizlarni chaqirganimni aytay. Bizni chor atrofdan dushmanlar qurshab olgan. Ular bizning g‘alabalarga rozi bo‘lib, bizdan o‘ch olishga harakat qilmaydi deb o‘ylash — borib turgan anqovlik ekanligini barchanglar tushunib turibsizlar. Hozir ovqatlanib bo‘lgandan keyin bundan nari qanday yashaymiz, o‘zimizni qanday himoya qilamiz — mana shu to‘g‘risida o‘z o‘yinglarni aytinglar, birodarlar! — deb so‘zini tamomladi Manas.

Hammasi ko‘nishib, ovqatlana boshlashdi. Ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng xon Jaqip boshlagan qariyalar, elning donishmandlari majlis qurishdi.

— Xaloyiq—xalq! — birinchi bo‘lib so‘zni Jaqip qariya oldi. — Manas bolam to‘g‘ri so‘zni ko‘tardi. Biz kelajagimizni o‘ylamasak bo‘lmay qoldi. Sababi biz xonga qildik qasdlikni, podshoga qildik mastlikni. Tub-Bejinga nihoyatda yaqin bo‘lgan Oltoyni maskan qilganmiz. Bu yerdagi qalmoqning ko‘pchiligini haydab yubordik. Nariyog‘i O‘ro‘l-To‘o‘, Dedizdi, Ile cho‘lini

xitoy bermaydi deb o'ylayman, Andijon, Qashg'ar yerini. Qarab tursang xaloyiq, atrofdagilarning barchasi bizga yov bo'ldi. O'ylanmasak bo'lmas, yoronlar! Qirg'iz, qozoq, turk o'g'li qolmas deyman omon, sog'. Xitoylar bizni qamasa, qaydan sog' qolamiz! Ular ko'plashsa, falokat soya solmasin, bola qolmay qolmasin. Urg'ochingni kun qilib, erkagingning barchasini tovon-la bosib jun qilib, savdoga solib qilib, ota o'g'lidan tuk qo'ymay, haydab yurib qirmasin, har tarafga soylatib! — deb so'zini to'xtatdi Jaqip boy.

Uning aytgan so'zini qunt bilan uqqan donishmandlar aqllasha boshlashdi. Ularning ba'zi biri Nesqara qilgan urushni esga oldi.

Yana boshqa birovlar to'qqiz yuz askarli qo'l solib, Oltoyni ko'zlab yo'l olib Nuuker polvon kelganin, uni urishib bolalar yengganin eslashdi. O'shanda oltoylik qalmoqning xiylasi Anjuni ko'zlab ketganin, ularning arzi Esonxonga yetganin aytishdi. Bu voqealarning bari Jaqipning so'zlarining shubhasiz ekanligini ayon etib turdi. Endi qanchalik yalinib-yolvorgan bilan xitoylar qirg'izlarni sog' qo'ymasligi ochiq-oydin bo'ldi.

Uyqusiz tunlarda o'ylagan o'ylarining, elining muddaosi amalga oshganini ko'rgan Jaqir qaytadan so'z oldi.

— Hukm bo'lmay o'nikmas, o'zicha bu yurt ko'nikmas! — dedi u. — Boshchisi bo'lmay yayramas, bosholomon yoritmas. Xoni bo'lsa xor bo'lmas, yaroqli kishi zor bo'lmas. Atrofimizning barchasi yovlar, birodarlar. Shu boisdan biz o'zimizni himoya qilamiz desak, munosib birovni xon qilib saylab olaylik! Xonli yurt bo'lib qolaylik! Bu taklifga nima deysizlar, xaloyiq—xalq? — savolomuz qaradi barchasiga Jaqip boy.

— Yaxshi gap! — deb turganlarning barchasi gungirashdi.

— Jaqip boy to'g'ri aytyapti! — qo'lladi qondoshini Salamat. — U eng kerakli o'yni bizning oldimizga tashladi. Shu boisdan, teran o'ylanib turib, bir munosib odamni xon qilib ko'taraylik. Bu yerda oltoyliklar oz bormiz. Qang'aylikdan qancha bor, manjulikning boshi bor. Tirg'o'o'tdan bir ming tutun bor, uch urug' qozoq bo'lgandan tarqog'i yo'q butun bor. Qani, xon bo'laman deganinglar chiqinglar! El uchun, yer uchun ishlab beringlar!

Biroq bu chaqiriqqa hech kim javob bermadi.

"Xon bo'laman xalqqa, qanday bo'lsa chidayman, xalq boshqargan narxga!" — deb aytadigan odam yo'q bo'ldi. Barchasi fikrlashib to'xtalib, bir-biriga qarab qoldi.

O'shanda Manas bilan ovga borgan sakson to'rt yigitning nomidan Aynaqul gapiradigan bo'lib, elning oldiga chiqdi.

— Xaloyiq—yurt! — dedi u.— Bu qanday gap? Bizda tayyor xon tursa, yana xon saylaymiz deganinglar bo'lmagan ish!

— Bu nima deganing? — tang qoldi uning so'zlariga Salamat.

— Hoy, xaloyiq! — deb tushuntira boshladi Aynaqul. — Biz Chege mingan oq tulporni keng dalada so'yganmiz. Manas degan bolani xon deb saylab qo'yganmiz. Biroq biz ko'targan xonimiz sizlarga to'g'ri kelarmikin? — elga savol bilan termildi.

Bu so'zlarga elning barchasi hang-mang bo'lishdi. Ularning ichida bunga norozi bo'lganlari ham bor edi. Mana shunday odamlarning o'y-fikrini O'zubek o'g'li Abdilda hammaga bildirdi.

— Jaqip boyning bolasi Manasni xon qilganing chin bo'lsa, unda uning qirq vaziriga o'zingla boshchi bo'l, Aynaqul! — deb koyidi u Salamatning bolasini.

Ammo uning kesatiq so'zlari ko'pchilikka yoqmadi. Ko'kchani bo'lsa Qambarga ta'na qila boshladi.

— Enang seni tug'may qolsin! — so'kdi u Ko'kchani. — Tug'ilgandan beri dunyodan qaysi yeringdan kamiding? Bir toyni ayab, xonlikdan quruq qolibsan. Mana shu otang ikkovinglarniki o'tib ketdi. Har doim odamdan molni yaxshi ko'rasizlar! Boshidan Xudo baxt bergan Manas molni ayamasdan so'yibdi. Qamalib yotgan qora yurt bo'lsa uni xon ko'tarib oldi! — deb Qambar xon xafalandi.

Uning so'zlari qulog'iga chalingan Oqbolta kelajakda chiqishi mumkin bo'lgan norozichiliklarni oldindanoq bosishga ahd qildi.

— Xaloyiq—xalq! — murojaat qildi u turganlarga. — Biz hozir barchamiz rozi bo'lib, bir kishini xonlikka ko'tarishimiz kerak! Hozir Manas xonlikka ko'rsatilyapti. Uni qilmas edik deb, armoning ichda qolmasin! Agarda sizlar norozi bo'lsanglar, uni xon qilmaymiz desanglar, o'yinglarni shu yerda ochiq aytinglar. Atab qo'yib xonlikka, ortidan g'alva qilib yurmanglar! — deb, xitobni yurtga tashladi.

Oqboltaga birov javob berguncha, elning oldiga Manas chiqdi.

— Hurmatli qondoshlar! — dedi u. — Hammanglar bilganday, mening oldimda bo'lgan og'a yo'q. Ortimdagi inim bo'lsa hali yosh. Otam Jaqip qarib qolgan odam. Dalada bir ot so'ygan edim, sizlar meni xon ko'tarib qo'ydinglar, endi so'zinglarda turinglar deb, men el-yurtning hamjihatligini buzib, o'z nafsimga tortmayin. Qozoq, qirg'iz — tug'ishgan. Xon bo'luvchi birov bo'lsa, o'shani tanlab olinglar. Meni bo'lsa o'z holimga qo'yinglar! — deb so'randi Manas.

Biroq ko'pchilik bunga ko'nmadi.

— Xon bo'lishga sen o'zinggina loyiqsan! — deb odamlar Manasni o'rab olishdi.

Manas qaysarlik qilib rozi bo'lmay, xon bo'lishdan nayza kabi qochdi. Toqati toq bo'lgan el oxirida Jaqipni xon qilib ko'taradigan bo'ldi.

— Er qadami qutlug'! — dedi Oqbolta elga. — Nima qilsa ham Jaqip boy, dunyosi qo'lda bor. Manas ko'nmasa, qarisa ham Jaqipni xon ko'tarib olaylik. Qoplon Manas bolani sabr qilar dushmanga botir qo'yib solaylik!

Bu gap ko'pchilikka ep keldi. O'shanda o'n yigit olti quloch oq kiygizga oppoq soqolli Jaqipni solishga harakat qilishdi.

— Meni xon ko'tarmanglar! — deb Jaqip yalina boshladi. — Qariganda xon bo'l deb, meni g'alvaga solmanglar. Uvolimga qolmanglar. Xon yumushi ko'p bo'lar, bolalar. Agarda xonlikni chindan ham menga ravo ko'rsanglar, bolamni qilsanglar ep bo'lar! — deb yig'ladi ko'p xo'rliklar ko'rgan mo'ysafid chol.

Qozoq, qirg'iz o'rashib, qalmoq, mo'g'il qo'llashib, oq kiygizning ustiga boy Jaqip bilan bolasi Manasni solishdi.

— Bo'ldi, bolalar, bo'ldi! — deb ular yetti qadam bosganda, Jaqip qariya yerga tushib qoldi.

— O'shanda yakka Manas bolani ko'pchilik ko'tarib olib, hali turgan joyida yetti aylanishdi.

— Xon tojisi shu! — deb Oqbolta er Manasning boshiga jig'ali bo'rk*ni kiydirdi.

O'shanda Jaqip quvonganidan to'qson biya so'ydirib, bolasi Manas xon bo'lganligi hurmatiga to'qqiz kun to'y berdi.

* * *

El saylagandan keyin Manas toj kiyib, xon bo'ldi. Qirq to'rt yigit unga jon bo'lib, xizmatida bo'lishdi. Aytganining bari yurtga un bo'lib, qiyshaymasdan ado etilar edi.

Bu davrda undan to'qmoq yegan o'n bir xitoylik polvon esonomon yurtiga yetib borishdi. Ularning biri Qumul xonligidan edi. U polvon Qumulning boshchisi Qultang xonga borib, Manasdan ko'rgan xo'rligini aytdi. Qirg'izlarning bunday o'zboshimchaligiga Qultang xon nihoyatda izza bo'ldi. O'zining askarlariga Oltoyga yurishga chiqishga hamda qirg'izlarni qattiq jazolashga buyruq berdi.

Qolgan o'n polvon o'zlarining xonlariga shunday tarzda arzlanishdi. Ularning xonlari Kultang xon bilan bog'lanishib, o'n bir sarboz Manasni chopib olishga bir yarim yildan keyin bir yuz o'n ming qo'li bilan otalanadigan bo'lishdi.

Xitoylarning bu maqsadidan hech xabari yo'q Manas uyida Uchorolning boshidan Qang'ar Tog'ga tayanib, yotgan edi joy olib. Yozning to'lib turgan davri bo'lganligidan, tashqarida nihoyatda issiq. Eshikda birozgina tursang, qo'l shol bo'lib, terga botasan. Shu boisdan barcha kunduzi tashqariga chiqmaslikka harakat qilib, bo'z uyning ichida yorma, qimiz ichib, dam olishga intilishadi.

... Manas uyida dam olib, to'shakdagi yostiqqa yonboshlab yotdi. U chanqog'ini qondirish uchun goh-gohida yonidagi pastdekkina mis stolning ustiga qo'yilgan chinnidagi qimizdan ho'plab turardi.

Uning o'ylarini tashqaridan kirib kelgan Aynaqul buzdi.

— Kel, Aynaqul, o'tir! — dedi Manas do'stini ko'rib.

U bo'sh chinniga qimiz quyib, uni Aynaqulga uzatdi. Qimizdan bir-ikki ho'plagan Aynaqul chinnini stolning ustiga qo'yib, Manasga murojaat qildi.

— Xonim! — dedi u. — Bizning ayg'oqchilar Manjuriya yurtidan Jo'lo'y degan botir to'qqiz yuz tuyaga choy yuklab, Qora-Shaarga borayotganini xabar qilishdi.

— Borsa borgandir, — yelkasini qisdi Manas. — Buning bizga nima aloqasi bor?

— Xonim! — javob berdi Aynaqul. — U Manjuriyadan. Demak, dushman eldan.

— Nima uchun dushman eldan deb o'ylaysan, Aynaqul?

— Xonim! Biz shuncha xitoylarni chopib, mulkini tortib olsak, ular bizni do'st ko'radi deb o'ylaysanmi? — so'radi Aynaqul Manasdan. — Buning ustiga, bizning odamlarimizning aytishicha, bizga qarab yuz minglik xitoylarning qo'li kelayotganmish. Ularni biz ikki yil avval o'ldirmasdan, quvib yuborgan o'n bir polvon boshlab kelayotir.

— Shundaymi qovog'ini uydi Manas.

— Ha, xonim. Shu boisdan biz xohlaymizmi, xohlamaymizmi, endi biz xitoylarning el bo'lmas dushmanimiz.

— Sen qanday taklif berasan? — biroz o'ylangandan keyin so'radi Aynaquldan Manas.

— Biz to'xtovsiz turda Jo'lo'ygą qarshi chiqib, uning yukini tortib olishimiz kerak! — keskin javob berdi Aynaqul.

— Ma'qul! — dedi Manas. — Unda xalqqa xabar qilgin. Bu Xudoyimning bergani. Jo'lo'yni bizga ajal haydab kelibdi. Navkarlar talon-tarojga tayyorlanishsin!

Buyruq bajarilib, nog'ora qoqib gumburlab, tog' ko'chganday dungirab, Manas navkarlari bilan Chibanga boruvchi yo'l bilan Jo'lo'yning yo'lini to'sgani jo'nab ketishdi.

Mo'ljallangan joyga borganda qarashsa, karvon hech narsadan xavfsiramay, asta-sekin ketib boryapti. Dushmanning bunday bexabarligidan foydalanib, qirg'izlar qo'qqisdan talashga o'tib, qisqa vaqt ichida xitoylarning yuz to'qson to'rt kishisini so'yib tashlashdi. Jo'lo'y botir Achbuudan otini minib, yolg'iz qoldi. Uzun bo'yli, alp qomatli, qorato'ridan kelgan Jo'lo'y o'ng qo'lidagi o'n ikki qarich qozonda bo'lgan kursisini mijiqladi.

— Burutlar! — azoblanib dedi u o'zini qurshab olgan qirg'izlarga. — Yoshim yigirma birga chiqsa ham, sizlarday qutirgan ahmoqlarni ko'rmadim!

— Nima uchun biz ahmoqmiz? — savol bilan tikildi unga Manas.

— Sizlar hozir Esonxonga o'zinglarni namoyish qilyapsizlar! — javob berdi Jo'lo'y. — Mening o'rtoqlarimning hammasini o'ldirdinglar. Balkim men ham sizlarning qo'linglardan o'larman. O'lmasam, barchanglarni qiraman. Esonxon eson bo'lsa, qaqan-

ning xalqi qoplasa, chorasi yo'q burutlar, kuninglarni ko'rasizlar! — deb Jo'lo'y kursisini qo'lga irg'itdi.

— Otangning go'ri, kofir! — so'kdi kelishtirib uni Manas. — Ko'rsang buni o'zini o'xshatganini! Ey, xitoy! Sen qanday er ekansan, nimaga askarlaringdan bo'linib qochding? G'ayrating bor er bo'lsang, men bilan yakkama-yakka chiq! Nihoyatdan ko'pgan kimsa ekansan. Elingning ko'pligini aytib, menga po'pisa qilasan. Men senga, nima, elsiz, yersiz odam bo'lib ko'rindimmi ko'zingga? Mening turk o'g'illi elim bor, Turkiston yanglig' elim bor. Erkakman deb menga jahl qilasan. Alloh taolom qo'llasa, o'sha ko'p elingning barini chopaman, lovullagan o'tda yoqaman. Agarda sening qaqangchingni talqalamasam, mening otim qurisin! — deb Manas hayqirib, Jo'lo'yga qarab chopib ketdi.

Uning haybatidan Jo'lo'yning yuragi tushdi.

"Otangni urayinniki desa!" — tepa sochi tikka bo'ldi Jo'lo'yning. — Men o'zimni botir deb yursam, bu unmagan burut mendan ham abjir ko'rinadi! Qarasang, arslonday bo'lib menga chopib kelayotganini. Agarda qochmasam, bu yalmog'iz meni sog' qo'ymaydi, terimni toshga yoyadi!", — deb Jo'lo'y Qo'lqus tog'ga yuz burib, Achbudan otiga ustma-ust qamchi solib, o'kirib qochib jo'nadi.

Manas uni Oqqula bilan quvib, yaqinlab bordi. Buni ko'rganda Jo'lo'yning bundan battar yuragi tushdi.

— Mo'ndu, mo'ndu! Boyna, Boyna! — deb baqirib, u kuchini otiga chiqardi.

Jo'lo'y boyoqish jonivorni boshiga, ko'ziga, duch kelgan joyiga ura boshladi. Ammo uni Manas qochirib yubormasdan, unga yetib borib, orqasiga nayza botirdi. Yarador bo'lgan Jo'lo'y bundan battar o'kirib, otga qamchi solgan edi, Achbuudan otgan o'qday bo'lib, Oqqulaga yetkizmay qochdi.

Quvgani bilan unga yetolmasligini tushungan Manas otini to'xtatdi.

— Attang-a! — o'kindi u. — Seni o'ldira olmay qoldim! Shoshma, omon bo'lsak, yana sen bilan yo'liqarmiz. O'shanda sening qoning qolar to'kilib, qobirg'ang qolar so'kilib!

Manas otini tortib, qayta yo'liga tushdi.

Manasdan arang qochib qutulgan Jo'lo'y bo'lsa Dag'alaq shahriga, Qirmuz xoniga borib, Manasdan ko'rgan xo'rligini aytib berdi.

— Sizlarga choy yetkiz deb xonimiz buyruq bergan edi! — dedi u Qirmuzga. — Lekin bizni Oltoyda Jaqip boyning bolasi Manas to'nadi. Yonimdagi bir yuz to'qson kishining barchasini o'ldirdi. Men o'zim Qo'qo'-Naar qolmig'i bo'laman. Manas nihoyatda quturibdi. "Xitoylarning barini chopaman, qiraman, yakson qilaman, qonini suvday oqizaman!" — deb jahli chiqdi. Uning tizginini hozir tortib qo'ymasanglar, keyin kech bo'lib qolishi mumkin! — deb Manasni ayamay shuvadi dev Jo'lo'y.

O'rta bo'yli, sariq yuzli, bo'ladan kelgan Qirmuz shoh bu so'zlardan tang qoldi.

— Kelsin bu yoqqa Boyman! — deb u amaldorga buyruq berdi.

Birozdan keyin uning oldiga qulog'i, burni, bir ko'zi, bir qo'li yo'q dumaloq birov kirib keldi.

— Jo'lo'y bolam! — yuzlandi Qirmuz Jo'lo'yga. — Bu kishining oti Boyman. O'zi tengi yo'q polvon. U o'n polvon bilan Manasni ushlashga borgan edi. Lekin uning o'zini Manas mana shunday yarim jon qilib qo'yibdi. Olti oydan beri mening oldimda yuradi.

— Ahmoq Manas desa! — so'kindi Jo'lo'y. — Uni ulug' Xitoyning askarlariga qo'l ko'tarishga qanday haddi sig'di?

— Ha, shunday qilishga uning haddi sig'ibdi! — qayg'uli bosh chayqadi Qirmush shoh. — Ammo u o'zini o'zi o'lim jazosiga buyuribdi. Men uning ta'zirini berish uchun chor tarafga xabar berganman. Hozir biz qo'l to'playapmiz. Shu sababli qayg'urma, Jo'lo'y bolam! Esonxon eson bo'lsa, o'chirmay o'chini olar Manasdan! — deb u Jo'lo'yni yupatdi.

Barcha xitoylar Manasga qarshi yurishga tayyorlanayotganini uqib, Jo'lo'yning ko'ngli tinchib, joni taskin topdi.

O'sha kezda o'rta bo'yli, oq yuzli, oriqdan kelgan, ingichka jag'li Jaanger qo'jo' degan kishi yashagan. U Hazrat Isoga qirq yil xizmat qilib, undan fatvo olgan ekan. Bu dunyoni qidirib yurganlikdan Jaanger nomiga ko'nibdi. Yoshi sakkiz yuz ellikda ekan. Uning bormagan yeri, ko'rmagan shahri qolmabdi. Shom,

Ko'po'ni sidirib, Misr, Quddusni qidirib, Naraan shahri, Bag'dod, Xuroson, Ispan — xullas, barcha yerda bo'libdi.

O'n besh yil muqaddam u Misrda zaifa olibdi. U xo'jaga Bilerik degan bir bola tug'ib beribdi. Bolasi o'n bir yoshga chiqibdi. Qo'jo' Mamboyga boraman deb, Kebilstandagi ayoli bilan Bilerik bolasini olib jo'nabdi. Yo'lga yetti marta qo'nganda, uni Nesqara ushlab olib, Qirmuz shohga olib bordi.

— Qirmuz shoh Nesqaraning so'ziga kirib, Jaangerni ayoli bilan qo'yib yuborib, Bilerik bolasini olib qoldi.

— Xonim! — norozi bo'ldi unga Jaanger. — Nima uchun sen bolamni ushlading? Agarda senga so'zsiz birovni tutish kerak bo'lsa, meni ushla, zindonga sol. Biroq bolamni qo'yib yubor!

— Men bekor yurgan begunoh bandani nega ushlar ekanman?! — Javob berdi Qirmuz shoh. — Sizlar qayerga borsanglar, boringlar. Yo'linglar bo'sh!

— Bu adolatliging uchun rahmat! — dedi Jaanger. — Ammo sen saxiyligingni birato'la ko'rsatib, bizga bolamni qo'shib ber.

— Yo'q, Jaanger! — bosh tortdi Qirmuz shoh. — Men seni qarab tursam, senda bizga nisbatan dushmanliging bor ekan. Sen bundan nari borib, musulmonlaringga xabar berasan. O'shanda sening bolang menda garovda bo'ladi. Mening jonimni sendan saqlab turgan kafillik bo'ladi!

— Xonim! — bo'zlab yig'lab yubordi Jaanger. — Bunday zulmlik qilma! Agarda senga garovga birov kerak bo'lsa, meni olib qol. Biroq yosh bolamni qo'yib yubor!

— Yo'q! So'z bitdi. Senday qoqbosh, aljiragan cholning menga nima keraging bor?! Menga bolang kerak. U kafil bo'ladi, menga eshakday xizmat ham qiladi! — deb, Qirmuz shoh tishlarini ko'rsatib kuldi.

Uning so'zlaridan Jaanger nihoyatda orlanib yig'ladi, bolasi uchun zorlandi. Ammo Qirmuz shoh so'zidan qaytmay, Bilerikni olib qoldi. O'tin yoqdirib, suv tashitib, xizmatiga soldi.

Uning ota-onasi bolasini ko'zi qiymay, yo uni bo'shatib ololmay, dasht-biyobon bir cho'lda do'kon qurishdi bir yo'lga.

"Borib kelib turganlardan bolamizning daragini uqib turamiz! — deyishdi chorasi qolmagan ota-ona.

Ular o'sha yerni makonlab, uy solib, yetti yil yashashdi.

Bu vaqt ichida Jaanger bolasini hech unuta olmadi. Yer quchoqlab yig'ladi, yig'lab yoshin tiymadi. O'shanda uning yoniga Hizr keldi.

— Jaanger! — dedi u. — Sen bolangga ko'p yig'layverma. Sening zoring Alloh taologa yetdi. Bolangni qutqarish uchun sen hozir xosiyatli Qo'sho'y ismli yigitga bor. U hozir yigirma yetti yoshda. Unda ming polvonning kuchi bor. Qo'sho'y ko'p jonga yordam bergan. Senga ham yordam beradi!

Suyungan Jaanger o'sha kuniyoq otini minib, Qo'sho'yga qarab yo'l oldi. Qizilni, Uzunni, Nurg'apni, Sanamar tog'idan o'tib Qunduzdagi Qo'sho'yga yetib bordi.

Jaangerning ismini eshitib yurgan Qo'sho'y uni iliq qabul qildi.

— Siz menga qayerdan kelib qoldingiz? — deb so'radi Jaangerdan u.

Jaanger unga Qirmuz shohdan ko'rgan xo'rligini aytib berdi.

— Bolamning garovga olinganiga bu yil yetti yil bo'ldi! — og'ir xo'rsindi u. Seni izlab, yo'lga chiqqanimga naq qirq to'rt kun bo'ldi. Agarda menga yordam bermasang, yolg'iz ko'rgan tuyog'imni dastidan sog'inib o'laman! — deb Jaanger yig'lab yubordi.

Buni uqqan uzun bo'yli, alp gavdali, oq yuzli, ingichka jag' Qo'sho'yning nihoyatda achchig'i keldi.

— Men ko'pdan beri Qirmuz shohning xabarini uqib yuraman. U qo'liga tushganlarning hech kimisini ayamas ekan. Ma'qul, men senga yordam berayin! — deb Qo'sho'y oltmish ming qo'l bilan Qashg'arga kelib, undagi Nayzaqanning askarlariga qirg'in soldi. Ularni bironta ham qo'ymay chopib tashladi.

Qashg'arda biroz dam olib, u Qirmuz shohga borishga tayyorlana boshladi. O'shanda uning Aruuke degan zaifasi unga maslahat berdi.

— Sen yo'lda borayotganingda ehtiyot bo'l! — dedi u Qo'sho'yga. — Sababi Mag'utdan o'tgan yo'lingda senga yap-yalang'och boshli, yalangoyoq, yalang'och sakkiz-to'qqiz yoshdagi bola yo'liqadi. "Oshig'ing bo'lsa bergin!", — deb senga osiladi. Sen uni chilvirga yetkizma. Mabodo uning qo'li chilvirga tegsa,

ot-to'ningning bari kuyib-yonib ketadi. Undan nariga o'tgandan keyin, oqqan daryo suviga duch kelasan. Yo'l bo'yida qumg'on ushlagan bir ayoln ko'rasan. U sendan chandir so'raydi. Unga berish uchun sen adirga chiqib, olti kun kiyik, arxar ot. Ularning payini yig'ib ol. Haligi ayol sendan chandir so'raganda ovloqroq turi, berib qo'y. O'shanday qilsang, omon qolasan. Bo'lmasa ajalingni topasan! — deb so'zini tamomladi Aruuke.

Qo'sho'y ayolining aytganiga ko'nib, kiyir, arxar otib, payni mo'l hozirlab, yo'lga chiqdi. Aruuke aytganday, yo'lda bola bo'lib ko'ringan Kungo'y sehrgarni yengdi.

Keyin qo'liga qumg'on ko'targan ayolga yo'liqib, uning ham hiyla-amallarini yondirib, o'zini yengib oldi.

Hiyla bilan Qirmuz shohga yetib, uni ham o'ldirib, Bilerikni bo'shatib oldi.

* * *

Manasni chopib olish uchun o'n bir sarboz yuz o'n bir ming qo'l bilan yo'lga chiqishdi. Ular qirg'izlarga borayotganda, Bulg'arda ikki ming uyli eli bor no'g'o'ylarning Eshtegi yo'liqdi. Xitoylarga ochiq jangda teng kela olmasligini tushungan Eshtek askarlik quvlikka bordi. U o'z askarlari bilan Qanaqirning tog'ini tayanib, tor darada dushmanning yo'lini to'sdi.

Kichkina to'pni yotqizib, piltali miltiq ottirib, ular daraning og'zini to'sib olishdi. Ular xitoylarga vayronli hiyla solib, o'n to'rt kun solishishdi. Qanchalik harakat qilishsa ham, xitoylar jarlikdan o'ta olishmadi. O'zlari bilan olib kelgan oziq-ovqatlar tamom bo'lgandan so'ng ular ocharchilikdan otlarini so'yib yeya boshlashdi.

Ular shunday qilib turganda, sariq no'g'o'ylardan xabar olgani o'n to'qqizdagi Manas olti ming askari bilan yo'lga chiqdi. Qanaqirning qora tog'iga kelganda u daraning og'zida qumlagan askarlarni ko'rdi. Gaplarini tinglab, ularning xitoy ekanligini tushundi.

— Xudo bizga aniq beribdi! — deb kuldi Manas. — Kofirlar bulg'arlikning elini hamal qilgan ekan-da!

Manas yoniga Baqirning o'g'li Boymaqni chaqirtirib oldi.

— Sen ot ko'tarib min! — buyruq berdi Boymaqqa u. — Hozir yo'lga chiq. Oltoyga xabar ber. Turk o'g'liman deganning

barchasi bu yerga otlansin. Askarga qo'shilmaganlar ko'zimga ko'rinmasin. Ko'rinar bo'lsa ko'zimga, torinmasin o'zimga. Undan o'tib Kerko'kul uluqqa, O'ro'ning o'g'li Siyga bor. O'ro'lning sirtida dengiz bor. U yerdagi qozoqqa xabar sol. Men endi Jaziyra* yurtini yovlayman. Bizga o'zlari bostirib keldimi, endi ularning ta'zirini beraman!

— Xo'p bo'ladi, to'ram! — deb yo'lga otlangan o'rta bo'yli, qora sochli, qorato'ri Boymat Manas tilga olganlarning barchasiga xabar berib uch kun deganda yurtiga yana qaytib keldi.

Bu davrda Eshtek bilan jang qilayotgan xitoylar ikki tarafdan teng qurshovda qolishdi. Narigi tomonini bulg'orlar bo'g'ib, berigi ketar yo'lini Manas egallab oldi. Xitoylarning hammasi yayov qolishdi, sababi ocharchilikdan ọtlarining barchasini yeb qo'yishdi.

Xabar berilgandan o'n uch kun keyin Manasga yordamga ko'plab qo'l keldi. Ularni ko'rgandan keyin xitoylarning qurshovdan chiqib ketishga birato'la umidi uzildi. Tirik qo'lga tushishdan or qilib, ular bir-birini qirib o'ldirishdi. Ularning qilich, miltiqlari, qolgan yarog'lari yerda sochilib yotdi.

Sonsiz xitoyning oltmishta sehrgarigina tirik qoldi. Dushmanlariga ko'rinmasdan adirga chiqib, ular sehrning kuchi bilan arxarlarni ushlab olishdi. Ushlagan arxarlarini ot o'rnida minib, Manasni yo'q qilishga qattiq ont berib, sehrgarlar yurtiga qochib ketishdi.

Manasning qo'li bo'lsa bundan bexabar jilg'ada xitoylarning yo'lini bo'g'ib turishdi. Ular jilg'aga kirganiga qirq kun bo'lganda ularga no'g'o'ylarning er Eshtegining bolasi Jamg'irchi ro'baro' keldi. Buncha ko'p qo'l kimga taalluqli ekanligini bila olmay, uning boshi karaxt bo'ldi.

"Bular kim bo'ldi ekan? — oldindagi askarlarga ko'z yugurtirib o'ylandi u. — Xitoylarmi yoki turk yigitlarimi? Yo turk bolasi qisilib, qoni suvdek sochildimi? Samarqan, Buxar oralab, ular yoppasiga qochdimi? Unday bo'lgan bo'lsa, bizni Xudo ozdirib qo'ygan ekan-ku?!" — deb zehni kayidi Jamg'irchining.

Manasning qo'li turgan yerga Jamg'irchi qo'qqisdan kelib qolgani yo'q. Ular no'g'o'ylarning boshchilarining topshirig'i bo'yicha ayg'oqchilikka kelgan edi.

U paytda no‘g‘o‘ylarning yetti kishi biylab turgan. Ularning ismi Qatarliq, Satarliq, Basarliq, Salala, er Eshtek, Asaliq. Bu kishilarning bilarmoni bo‘lib er Eshtek hisoblanadi.

— Bizga og‘ir ish bo‘ldi-ku?! — xo‘rsindi er Eshtek uning uyiga kunlardan bir kun hamma to‘planganda. — Atrofda nima bo‘layotgani haqida bizda to‘liq ma’lumot yo‘q. O‘n kundan beri biz tarafga xitoylar qumday otilib turishibdi.

— To‘g‘ri! — qo‘lladi uning so‘zini Qatarliq. — Oz deganda ularda yuz ming qo‘l bor ekan. Tub Bejinning bari bizga qarshi otlanganga o‘xshaydi!

Ahvolni bilib kelish uchun birov ayg‘oqchilikka borishi zarur bo‘ldi. Sababi to‘rt kundan beri xitoydan hech qanday xabar yo‘q. Ular tars etib miltiq otmay, churq etmay yotib qolishdi. Yig‘ilganlar kimni ayg‘oqchilikka yuborishni bilmay qamalib turganda, Eshtekning o‘g‘li Jamg‘irchi Telkuro‘ng otini choptirib, xitoylarning ahvolini bilib kelishga rozi bo‘lib, yo‘lga chiqdi.

U mo‘ljallangan yerga yetib kelganda, sehrgarlardan bo‘lak barcha xitoylar o‘lib yotishibdi. Ularni oralab o‘tib, Jamg‘irchi oti bilan qirga chiqdi. To‘satdan u Kun-Tiybes degan suvning etagida qaynab yotgan qalin qo‘lni ko‘rdi.

“Bu kimning askari ekan?!! — deb hayron qolgach, payqashtirib, askarning turklarniki ekanligini tushundi.

Bu ochilishdan quvonib ketgan Jamg‘irchi ular tomonga chopib ketdi. Qirg‘izlarning qo‘li kulgu bilan tomoshada ekanligini ko‘rgan Jamg‘irchining ko‘ngli yanada battar ko‘tarildi. Ularning orasidan u jiyani, taniqli Ko‘kchani yo‘liqtirdi.

Ko‘kchani Jamg‘irchining jiyani deganimizning sababi — Qambarning o‘g‘li Aydarxon o‘z vaqtida Eshtekning qizi Aqqo‘ngurni olgan. Undan Ko‘kcha tug‘ilgan.

Jamg‘irchi qirg‘izlarning qo‘liga yetib kelganda, tog‘a-jiyan bir-birini tanishdi. Ko‘kcha tog‘asini hurmat-e’tiborga belab, mehmondo‘stligini ko‘rsatdi.

Manas bo‘lsa bu davrda Kun-Tiybesdan ko‘z ilg‘agan joyda o‘zining qo‘li bilan turgan edi. U ham xitoylardan hech qanday xabar bo‘lmay, atrof jimjit bo‘lganiga nihoyatda tang qoldi. Oxiri u ayg‘oqchilikka borishga qaror qildi.

"Qiyin yo'lga solayin! — o'yladi Manas. — Qirga chiqib, xitoyning nima qilayotganini kuzatay. Yoyilgan mol bo'lsa, qo'y-qo'zisin qarayin. Agarda yorilib yotgan jon bo'lsa, o'lchovin bilib olayin!".

Niyatini amalga oshirib, Manas arxar yurmas qir bilan, askar baland tog' bilan Oqqulani minib o'ldim-toldim deganda o'zanning boshini oshdi.Qirga chiqib, asta-sekin ostki yog'iga qarasa, zamin to'la yilqi yoyilib yuradi.

"Bu xitoy, qalmoqning moli bo'lsa kerak?! — taxmin qildi u o'zicha. — Kam deganda, bu yerda qirq ming yilqi bor. Nima qilsam ekan? Buning barchasini men o'zim yolg'iz haydab ketolmayman. Shu boisdan ko'pini bo'lib haydayin. Agarda ortimdan quvg'in boshlansa, ko'ringanin joylayin!".

Maqsadini ishga oshirib, Manas yilqini hurkita boshladi. Hadeganda u oq do'mbrani qars qo'ydi. Keyin Aqkelte miltig'i bilan tars otdi. Yilqi chindan ham hurkib, jilg'ani ko'zlab chopib jo'nadi. Manas bundan battar hurkitib, ularning ortidan quviy boshladi.

Bir payt uning oldidan qorato'riq ot mingan oltmish-oltmish besh yoshdagi, uzun bo'yli, keng yelkali, oq yuzli chol peshvoz chiqdi.

— Haydama yilqini! — baqirdi u Manasga. — Sen jinnimisan yoki sog'misan? Yo poylab kelgan yovmisan?

Manas uning savollariga javob bermaganiga cholning g'ashi keldi.

— Sen nega indamaysan? — qiyqirdi u Manasga. — Ayt, sen kimsan? Otangning oti kim? O'zingning oting kim? Ayt, bo'lmasa men yetsam o'lasan!!!

Manas bu so'zlarga nihoyatda tang qoldi.

"Bu qanday zot o'zi? — jini keldi uning. — Qarasam, xitoyga ham, qalmoqqa ham o'xshamaydi. Tubimni so'raydi. O'ylanib men ham turayin. Kim ekanin bu cholning o'zidan so'rayin!" — deb u cholga haybatli so'yladi:

— Otamning oti — otam! Qo'rslik qildi u cholga. — O'zimning otim — o'zim. Sen yilqining oldini to'sma! Oq soqolli kishi ekansan. Shu bois seni ayab turibman. Sen o'zing kimsan?

Savollariga javob olmaganiga cholning bundan battar jini keldi. U qochirib kelib Manasga nayza soldi. Qattiq zarbadan Manas

otdan uchib ketayozdi. O'nglanib olgandan keyin u ham cholga nayza soldi.

Chol tog' solganday to'xtalib, Manasning nayzasin to'sib oldi. Undan keyin ikkovi bir-birin qochirishib, qarama-qarshi o'tishdi. Oz qolganda orasi qunon chopib ketishdi.

Manas qarigan cholni yenga olmaganidan juda ham nomuslandi. U Oqqulasiga qamchi solib, "Baabedin!" — deb baqirib, "Manas"lab xitob chaqirdi.

Buni uqqan chol sulayib tushdi. Sababi bu er Eshtekning o'zi edi.

"Bu yigit qaydagi Manasni aytyapti? — yuragi jig' etdi Eshtekning. — Balkim u nabiram Manas bo'lib yurmasin? Mening qizim Shaqanning bolasidir?!"

Taxminining aniqligini bilish uchun Eshtek Manasga baqirdi:

— Qoqilayin suyanchim! — dedi u. Beri kel-chi!

Manas Eshtekka shubhali qaradi.

"Bu chol anoyi emasday ko'rinadi! — o'ylandi u. — Quvligini qarasang, yenga olmasligini tushunganidan keyin meni aldashga o'tganga o'xshaydi, bu yalmog'iz! Men ham bo'sh kelmay, uning tag-tugini so'ray-chi!" — deb Manas cholning yoniga bostirib keldi.

Cholning savollariga javob berib, u o'zining kimligini aytdi.

Manasning kim ekanligini bilgandan keyin Eshtek hay-hayni balandroq soldi:

— Cho'lponim, sultonim mening! — deb yig'lab yubordi u. — Ozib qayda yurasan?! Otang, onang, el-yurting omonmi?

— Bari eson-omon! — javob berdi cholning yig'laganidan nihoyatda hayron qolgan Manas. — Siz kimsiz?

— Aylanayin bolam! — yanada battar yig'ladi yetina olmay Eshtek! — Men sening tog'ang Eshtekman!

— Tog'a! — deb Manas otidan sakrab tushdi.

Eshtek ham otidan tushgandan keyin ikkovi bir-birini quchoqlashib, ko'rishishdi.

— Tog'a! — yuzlandi Eshtekka Manas. — Mening eshtishimcha, sizlar Bulg'arda yashar edinglar. To'g'rimi?

— Ha, bolam! — ko'zidan yoshini artib javob berdi Eshtek.

— To'g'ri bo'lsa, siz bu yerda shuncha yilqi bilan nima qilib yurasiz?! — so'radi Manas tog'asidan.

— Eh, bolam! — og'ir xo'rsindi Eshtek. — Biz bu yerga noilojlikdan keldik. Bulg'arda yashayotganimizda, Jaziyradan xitoyning qo'li kelib, makonimizga qo'l soldi. Biz mana shu Qanar tog'ga tayanib, ulardan qochib keldik. Xitoylar bizning ortimizdan quvib kelib, qurshab olishdi. Biz darani bo'g'ib tashlab, ular bilan o'n to'rt kun jang qildik. Men bu yerga hech kim kelmaydi deb o'ylagan edim. Sen qayerdan kelib qolding? Qorasi qolgan yilqini qaydan ko'rib haydading? Qoqilayin tayanchim! Omon bo'lsang, sening qo'lingdan har qanday ish keladi. Hozir bo'lsa olgan yilqingni ajratib haydab ket. Hech uyalmagin! — dedi u Manasga.

O'shanda Manas tog'asiga hayron bo'ldi:

— Tog'a! — dedi u. — Men hech narsa olmayman. Sizlar hamalda yotsanglar, men sizlardan yolg'iz toy olsam, men yomonotliqqa qolmaymanmi?!

— Unda yilqiga nega tegding? — savol bilan tikildi Manasga Eshtek.

— Tog'a! Men bu yilqini xitoy yoki qalmoqniki deb o'ylagan edim. Shu tufayli uni haydaganman! — deb javob berdi Manas shalpayib.

— Sen bu yerga nima maqsad bilan kelgan eding? — deb so'radi Eshtek Manasdan.

— Men tog'am sariq no'g'o'y deb, sen bilan uchrashgani olti ming qo'l bilan yo'lga chiqqan edim. Yo'lda kelayotib xitoyning qo'lini ko'rdim! — deb tog'asiga boshidan o'tgan voqealarni aytib berdi.

— Unda biz hammamiz adashib, bir-birimizdan qo'rqayotgan ekanmiz-da?! — qayg'uli boshini chayqadi Eshtek.

— Ha, tog'a! — dedi Manas. — Xitoylarning oldi tarafidan biz otib, orqa tarafidan sizlar otib, ularni o'rtaga olibmiz. Sizlarni xitoy deb biz qo'rqsak, bizni xitoy deb sizlar qo'rqibsizlar. Aytgancha, Jamg'irchi tog'am qayerda?

— U erta bilan xitoyni kuzatib kelayin deb, ayg'oqchilikka ketgan edi.

— Tog'a! Sizlar nimaga Bulg'ardan bu tarafga qochdinglar? — qiziqib so'radi Manas.

Biz bilan Xitoyning orasi o'n besh kunlik yo'l, — javob bera boshladi Eshtek. — Oxirgi paytda xitoyning fe'li buzildi. Bizning

molga tegib, chopib ketadigan bo'ldi. Keyin ularning bizga qo'l solishga hozirlik ko'rayotganini qalmoqlardan eshitdik. O'shanda biz tug'ilib-o'sgan yerimizdan qochishga majbur bo'ldik. Xitoylar bizning ortimizdan quvib jo'nashdi. Shu yerda ular bilan o'n to'rt kun chopishdik. Biroq to'rt kundan beri xitoylarning tayini chiqmay qoldi. Yur, bolam! Qirga chiqib, ularning nima qilayotganini qiyalab qarab ko'raylik! — deb taklif qildi Eshtek.

Manas rozi bo'lib, tog'asi bilan chetanli qiya chet, chalovli bet bilan ko'rinadigan yerga bordi. Qarashsa, xitoylarning bari tirrayib, o'lib yotibdi.

Buni ko'rgan Manas qo'liga qaytdi. Er Eshtek ham o'z eliga g'alaba haqida xabar berdi.

Ertasi kuni Eshtekning eli bilan Manasga qarashli oltoyliklar xitoylar o'lib yotgan yerga kelishdi. Ular xitoylarning qurol-yarog'ini, naq oltin kamar qurlarini olishib, o'ljaga ko'plashib borishdi. O'shanda Manas yig'ilgan elga murojaat qildi:

— Bu qizitaloq xitoylar manmansiraganini qo'ymadi! — dedi u. — Bizni qiramiz deb yerimizga uch marta bostirib kirishdi. Ularning yaksonini chiqarmasak, bizni tinch qo'ymaydi. Shu boisdan biz ularga qarshi jangga chiqaylik. Ta'zirini berib, ularni bizning yerimizga ikkinchi marta bosqinchilik niyati bilan kelmaydigan qilaylik!

Barchasi ko'nishib, Dag'alaq shahriga, uning zo'ri Duburo' xonga qarshi yurishga tayyorlana boshlashdi.

VII. Manasning Duburo' xonni yenggani

Duburo' xonga qarshi yurishga hozirlangan Manasning qo'li ikki yuz to'qson ming askar bo'ldi. Ular Dag'alaqqa borayotgan yo'lda Mang'uttin shahrini olishdi. To'rtinchi kun deganda, ular Estetga yetib, uni ham olishdi.

Estetni olgan qo'lining orasida Jaqipning og'asi Boy ham bor edi. O'zining qariligiga qaramay, u Manas inisining yonida yurishni to'g'ri ko'rdi. U qurolli to'qnashuvlarga qatnasha olmasa ham o'zining turmush tajribasiga tayanib, Manasga qo'lidan

kelgan maslahatlarini berib turdi. "Qarining so'zini qopga sol" deganlaridek, Manas amakisining maslahatlaridan to'g'ri xulosa chiqarib, ulardan jamoatchilik faoliyatida foydalanib yurdi.

Jiyani uning so'zlarini chetga qoqmay, baholaganiga quvongan Boy Esetning ko'chalari bo'ylab qirg'izning qalin qo'lining qatorida ketib borardi. Ularga birin-ketin yo'liqqan shaharliklar qo'lni ko'rganda yo'lning chetiga chiqib, egilib ta'zim qilib turishardi.

"Bularning bizga egilib salom berishini qara!" — ichida masxaraladi Boy. — Shu paytgacha bizni odam o'rnida ko'rmay, nihoyatda xo'rlab kelishgan edi. Allohning buyurgani ekan, endi shunday bizga tobe bo'lib qolishdi bular. Bu mavaffaqiyatlarga qirg'izlarni yetkizgan kim? Mening jiyanim Manas!" — deb quvonib kelayotgan Boyni to'satdan yo'lning chetida otchan turgan bir yigit belidan tortib oldi.

"Meni oqsoqol boshim bilan kim bilqillatib tortyapti?!" — deb achchig'i bilan burilib qaragan Boy o'g'li Baqayni ko'rdi.

— Aylanayin bolam, borsanmi?! — quvonganidan qiyqirib yubordi Boy.

— Borman, ota! — Baqay otasini ot ustida quchoqladi.

Ota-bola otlaridan tushib, yo'lning bo'yidagi kesilgan terakning ustiga o'tirishdi.

— Qoqilayin oltinim! — yetina olmay dedi Boy. — Seni ko'rganimga qanday quvonayotganimni sen tasavvur qilolmayotgan bo'lsang kerak?!

— Ota! — dedi o'rta bo'yli, keng yelkali, oq yuzli Baqay. — Men ham sizni bu yerda yo'liqtirib qolganimga juda ham suyunyapman! Siz uydan chiqqaningizga bu yil roppa-rosa olti yarim yil bo'libdi. Biz sizning tirik yo o'lganligingizni bilmay, nihoyatda azob chekdik. Siz shuncha vaqtdan beri qayerda yurdingiz? Bu ko'p qo'lga qanday qilib qo'shilib, qanday qilib bu yerga kelib qoldingiz.

— Eh, bolam! — og'ir xo'rsindi Boy. — Bu oraliq ichida boshimdan talay voqealar o'tdi. O'zing bilganday, men inim Jaqipni izlab yo'lga chiqqan edim. Unga borayotib, yo'lda Nesqaraning askarlariga yo'liqib qoldim. Ulardan arang qutulib, qayga borishimni bilmay tursam, Xudo yorlaqab, menga Jaqipning o'zi yo'liqib qoldi. U mendan hamda boshqa tug'ishganlaridan ayril-

gandan keyin shu yerga haydalibdi. O'zining halol mehnati bilan nihoyatda boyibdi. Meni qishlog'iga olib borib, mo'ltiragan suluv qizga uylab qo'ydi. Ana-mana uyga qaytaman deb yurib, shuncha vaqtning qanday o'tganini o'zim ham bilmay qoldim! — dedi Boy.

— Tushunarli. Meni yangi onalik qilib qo'ygan ekansiz-da, ota?! — deb kuldi Baqay.

— Ha, bolam. Shart shunday bo'lib qoldi, — jilmaydi Boy.

— Shariat bo'yicha erkak kishi to'rt ayol olsa bo'ladi-ku. Shu boisdan sizga hech xafagarchilik yo'q, ota! Lekin siz bu qo'lga qarigan chog'ingizda qanday qo'shilib qolganingizni men tushunmay turibman?! — deb savolga tutib qaradi otasiga Baqay.

— Bu sirning javobi osongina, bolam, — qayta jilmaydi Boy. — Shuncha qo'lni boshlagan mening inim Jaqipning bolasi Manas bo'ladi.

— Voy-bo'! — tanirqadi Baqay. — Barchaning rangini o'chirgan bu askarlarni mening tug'ishganim boshqarar ekan-da?!

— Ha,— javob berdi Boy. — Manas sening ining bo'ladi. Yur, men seni Manas bilan tanishtirib qo'yay!

Boy bolasini ergashtirib, shaharning eng chiroyli uylaridan birida dam olib yotgan Manasga bordi. Unga Baqayni tanishtirdi. O'sha kezda Baqay yigirma sakkizda, Manas o'n to'qqiz yarim yoshda edi. Birinchi uchrashgandayoq og'a-ini bir-biridan qoniqib, bir-biriga iliq hislar paydo bo'ldi. Ular bu tuyg'ularni umrining oxirigacha saqlab yurishdi.

Bolasini ko'rib, qattiq sevinganidanmi yoki boshqa sababdanmi, xullas, Boy o'sha kuniyoq qattiq og'rib, to'shakka yotib qoldi. Biroz vaqt o'tgandan keyin u olamdan o'tdi.

— Jon berish oldida Boy uning to'shagining yonida amakisining og'rib qolganiga qayg'urib yotgan Manasga qayrildi:

— Manas bolam! — dedi u. — Xudo yorlaqab, qariganda bo'lsa ham men yo'qolgan inimni topdim. Uning senday er azamat o'g'li bilan tanishdim. Xudo menga shafqat qilib, olti yildan buyon ko'rmagan Baqayimni bugun yo'liqtirib, uni sen bilan tanishtirdim. Bundan buyon ikkoving erish-arqoq bo'lib, bir-biringlarga tirgak bo'lib, doimo birga yuringlar. Qirg'izning nomusini hech kimga oldirmay, dushmanlar bilan birga kurashinglar!

— Amaki! — mehr bilan jilmaydi Manas Baqayga. — Xudo buyursa, siz o'zingiz bizga bosh— qosh bo'lib, o'zingiz bizni boshlab yurasiz. Siz bolangizni yo'liqtirib, biroz to'lqinlanib kelibsiz. Bir-ikki kun dam olsangiz, qulonday sog' bo'l ketasiz!

— Yo'q, bolam! — boshini ters chayqadi Boy. — Shunday bo'lsa qani edi. Biroq men odam bo'lmay qolganga o'xshayman. Narigi dunyoga safar tortadigan vaqtim kelganday!

— Amaki! — so'zini boshladi Manas, biroq Boy qo'lini chayqab uni to'xtatdi.

— Bolam! — og'ir nafas olib gapirdi u. — So'zimni bo'lmay tur. Aytadigan gapimni tirik kezimda aytib olay. Manas bolam! O'lik emassan, tiriksan. Sening qadaming butun dunyoga yetadi. Sen yetti sultonning birisan. Xudo buyursa, otlansang, Bejinni olarsan! Mening bolam Baqay bilan inoq bo'lib yuringlar. Baqay ham aqlli, ham er yurakli yigit. Uni oqsoqol qilib ol, Manas! Sababi u bilan olishgan sog' bo'lmaydi, qarg'agani o'ng bo'lmas. O'zingga tirgak, ko'zingga oynak bo'ladi! — deb Manas bilan Baqayga oq fotihasini bergan Boy yorug' olam bilan vidolashdi.

Boyni oxirgi safarga to'plangan yuz ming kishining bari kuzatishdi. Uning janozasini Jaanger xo'ja o'zi o'qidi.

* * *

Boy amakisini oxirgi safarga kuzatgandan keyin Manas yetti yuz ming qo'li bilan Dag'alaqqa yo'l oldi. Uchinchi kuni sonsiz qo'l unga yetib, uni qurshab oldi.

Manas shahar eliga elchi yubordi.

— Xoni bo'lsa chiqsin! — dedi u. — Xabarimni uqsin. Urushar bo'lsa kelsin. Urushmas bo'lsa hisobin endi bizga bersin! — talabini aytdi Manas.

— Dag'alaqning eli bunga nima deb javob berishini bilmay, hang-mang bo'ldi. Sababi ularning sehrgari o'lib, xoni yo'q. Ularga g'ayrat beruvchi hech kim qolmagan. Chorasiz qolgan shaharliklar maslahatlashib o'tirib, jang qiladigan bo'lishdi.

Ular shaharning darvozasidan o'z qo'lini chiqarishdi. Shaharlik navkarlar Manasning qo'li turgan dalaga borib, ularning qarshisiga kelib to'xtashdi.

Harbiy urf bo‘yicha jang qilishning oldida yakkama-yakka urush o‘tkaziladigan bo‘ldi. Dag‘alaqliklar unga Qatiqul polvonni chiqarishdi.

Uzun bo‘yli, qora qoshli, qora ko‘zli, sariq yuzli Qatiqul polvon qamishdan yasalgan nayzasini yelkasiga shart ilib, Aqjal otini minib, maydonga chiqdi.

— Menga Manas chiqsin! — baqirdi u qirg‘izlarga. — Uni men qurib qolgan cho‘p misol uqalab tashlayman!

Buni eshitgan Manasning Qatiqulga achchig‘i keldi. U nayzasini qo‘lga olib, Oqqulaga qamchi urib, Qatiqulga chopib ketdi. Uning kelayotganini ko‘rgan Qatiqul unga qarshi otini choptirdi.

Manas yetib kelib, Qatiqulga nayza soldi. Manas nayzani uchidan ushlab Qatiqulning qo‘lidan yulib oldi. Qurolsiz qolgan Qatiqul qo‘rqqanidan askarini ko‘zlab qochib jo‘nadi. Manas uni quvib yetib, ko‘p askarining ichidan otdan yulib olib, ko‘pkarida tortgan uloqday oldiga qo‘yib olib, o‘z askariga qaytdi.

— Qanday qilsanglar ham, mana, o‘zinglar bilinglar! — u oldiga to‘nkargan Qatiqulni o‘zining qo‘liga berib qo‘ydi.

Buni ko‘rgan qirg‘izlar Manasning qo‘rqmasligiga hamda kuchiga nihoyatda hayron qolib, rozi bo‘ldi. Xitoylarning bo‘lsa yuragi tushdi. Bu botirga yelkama-yelka chiqsa, hech kimisi sog‘ qolmasligini tushundi. Lekin, iloj yo‘q, nomus uchun Manas bilan sayishiga Ko‘o‘do‘ng polvonni chiqarishdi.

Ko‘pchilik ichida er Ko‘o‘do‘ng bormayman deb ayta olmay, Sariker otini minib, Manas bilan chopishadigan bo‘ldi. Ko‘o‘do‘ngning naq o‘ziga qarasang, Rustamdayin zoti bor. Uning otiga qarasang, hayvondan bo‘lak zoti bor. Sababi uning ikki quloch bo‘yi bor ekan. Polvonning qo‘lida ushlagan gurzusi kumushdan qilingan. Qalqoni po‘latdan, kiygan to‘ni ko‘k temir.

Maydonga chiqardan burun Ko‘o‘do‘ng alengir* yoy, sir nayzani bo‘yniga osib uzunligi olti yuz qulochdan kam emas ipak arqonni qo‘yniga tiqib oldi.

“Shoshmay tur, Manas!” — ichidan jahli chiqdi Ko‘o‘do‘ngning. — Asov yilqi tutganday, arqonni otaman. Sening bo‘yningga sirtmoq solaman. Menga yuz olib kelsang, Manas, ajal topasan!”

Qurol-yaroq bog‘lanib, tog‘ qushiga aylanib, Ko‘o‘do‘ng maydonga chiqdi.

— Menga qarshi botir Manas, o'zing kel! — baqirdi u. — Bir Manas tugul bu kunda, ming Manas kelsa ham tirik qo'ymayman! Bilsang otim er Qo'o'do'ng. Qonxo'r Manas o'zing kel. Joningdan umidingni uzaver! — deb Ko'o'do'ng gurullab, uqqan, ko'rgan odamning vujudini titratdi.

— Manasdan boshqani bu polvon xohlamadi! — boshini chayqadi buni ko'rgan xaloyiq. — Chindan ham uning haybati qattiq, zahri kuch ekan. Ko'p dushmanni olgani tusidanoq ko'rinib turadi! — deb ba'zi bir suv yuraklar shoshqaloqlab qolishdi.

Buni uqqandan so'ng er Manas boshini chayqadi.

— Bu xitoyning umuman dimog'i baland-ku! — dedi u masxara qilganday. — Uning izlagani men bo'lsam, iymanib qandoq qolayin. Unin oldiga borayin. Qodir Alloh yor bo'lsa, men bir kuch sinashib ko'rayin!

Buni aytib er Manas, yarog'in belga taqinib, Shohimardon pirga yalinib, sovutini kiyib, dastasi uzun nayzani qo'lga olib, Aqkelte miltiqni yonga olib, achchig'i yuziga aylanib, olishuvga chiqdi elidan.

Er Manasni maydonning qarama-qarshi tarafidan ko'rganda Ko'o'do'ng polvon belidan arqonni yechdi.

"Manas yaqin kelsa gar, arqonni boshiga solaman!" — ichida g'udrandi u. — Har qanday Manas bo'lsa ham, ha dedirmay olaman!".

Uning bu o'yini bilmagan Manas otiga qamchi solib, "Baabedin!", — deb baqirib, maydonning ikkinchi chetida turgan dushmaniga otini choptirib jo'nadi.

Ko'o'do'ng polvon bo'lsa otini shoshmasdan choptirib, maydonning o'rtasiga jo'nadi. Maqsadini yuzaga oshirib, u olti yuz quloch arqonni Manasga olisdanoq otdi. Arqon Manasga o'ralib, uning ikki qo'li bog'lanib qoldi. Uning Oqqula otining oldingi tuyog'i ilashib, yiqilib ketayozdi u. Er Manas sir nayzasi bilan yerga tayanib, otning ustidan yiqilmadi joy olib.

"Men sirtmoqni mahkam soldim! — quvondi buni ko'rgan Ko'o'do'ng. — Endi har qancha Manas menga bas kelmas. Marrani bo'lsa men oldim! — deb u Sarikerga qamchi solib, o'n bir quloch nayzani qo'liga ushlab, Manasni ko'zlab yuzlandi.

Dushmanining unga chopib kelayotganini ko‘rgan Manas arqondan bo‘shanishga harakat qildi. Ammo bundan hech qanday natija chiqmadi.

“Xudo meni aniq uribdi! — joni azoblandi uning. — Oldirarda yozdirar degani shumikin! Men bu ahmoqni nayza bilan sayishadi desam, u meni arqon bilan joylamadimi! Men sariq og‘iz palaponday bo‘lib, uning quvligiga aldanibman. Endi bo‘lsa ishtoniga joylagan boladay hech narsaga yaramay turib qolibman. Olqish menga!” — deb o‘zining anqovligidan norozi bo‘ldi Manas.

Ko‘o‘do‘ng polvon bo‘lsa Manasga yaqinlab kelgandan keyin uni nayza bilan qochirdi. Ikki qo‘li bog‘langan qoplon Manas oxirgi kuchini sarflab, o‘ng qo‘li bilan qilichini qindan misli ko‘rilmagan chiranish bilan sug‘urib olib, unga sunilgan nayzani chopib tashladi. Keyin o‘ziga solinib turgan arqonni ham chopib tashladi.

Arg‘amchisi yig‘ilgan, nayzasi qo‘ldan qiyilgan Ko‘o‘do‘ng o‘qdoniga qo‘l solib, qo‘liga nayza o‘q olib, Manasni otayin deb, yoy ipiga o‘q soldi. Vayron Manas botiring oyog‘idan arqonni bo‘shatib, Ko‘o‘do‘ngga Oqqula oti bilan yetib borib, uning bag‘riga nayza soldi. Nayza qalmoqning orqasidan ko‘rinib, oz bo‘lganda yarim gaz chiqib keldi serrayib.

“Laylamaluu!” — deb Ko‘o‘do‘ng nayzaning uchida shishib o‘ldi. Manas Ko‘o‘do‘ngni nayzaga sanchib ko‘tarib, qalmoqlarning oldiga bordi.

— Ol, botiring o‘ldi! — Manas Ko‘o‘do‘ngning oyog‘idan olib, qalmoqlarga otib tashlab, qayta qo‘liga ketdi.

Uloqtirilgan er Ko‘o‘do‘ng kelib tekkanda, anqayib turgan sullohlardan to‘qqiztasi o‘lib ketdi. Ko‘o‘do‘ng bilan o‘ntasin ajali hozir yetdi. Buni ko‘rib qalmoqlarning aqli boshidan ketdi. Manasning g‘ayratidan qo‘rqib, ular qochib ketayozishdi.

O‘zlariga kelgandan keyin ular maslahatlashib, olishuvga Manasni joylaganga, o‘chirmay o‘chni olganga, uning o‘tini yorganga, Ashtali degan polvonni chiqarishdi. U ko‘m-ko‘k temir to‘nchan, ko‘ndalangcha o‘lchasang o‘ttiz tovon yo‘g‘on, doshqozonday boshli, yastangan itday qoshli, o‘ttiz bilan qirqning o‘rtasida yoshi bor botir. Qurol-yarog‘in osinib, u chiqdi maydonga baqirib.

Oldi-ortiga qaramay, u maydonda turgan Manasga yetmasdanoq otini choptirib borayotib, kamondan o'q otdi. O'q chiyillab yetganda xushyor turgan Manas oltin qubba qalqonni to'sib oldi. O'q qalqonga tars etib, qattiq tegdi. To'qqiz qavat qalqonning qubbasi yo'mirilib, shart etib yerga tushdi. Agarda Manasdan boshqa jon bo'lsa, bunday o'qdan omon qolmas edi.

Dushmaniga endi chinakamiga achchiqlangan Manas Oqqulaga qamchi solib, nayzasi bilan cho'chchaygan qalmoqni qochirib kirib bordi. Manasga yana o'q otib ulgurmay qolgan Ashtali gurzisini qo'lga oldi. U gurzini ko'targuncha Ko'kyolda Manas unga yetib, uning gavdasiga qo'yib ketdi. Ashtali shuvoqday uchib, tushdi qora yerga sulayib, o'lib qoldi tirrayib.

— Olinglar, mana polvoning! — deb er Manas xitoyning polvonini o'ng qo'lidan olib, uning tug'ini ko'zlab irg'itdi.

Ashtalining jonsiz tanasi inqislagan qo'liga yetib, ulardan yettitasiga tegdi. Tekkanlari til tortmay, otidan o'lib tushdi. Shu bilan Manas kabi botirdan Ashtali polvon bosh bo'lib, qirilib tushdi sakkiz jon.

Shuncha botiri qirg'izning bir polvonidan o'lgandan keyin xitoylar serrayib, qo'rqib qoldi shalpayib.

— Bizning botirlarning bari o'ldi! — deyishdi ular. — Shu sababdan jonni qiysak ne bo'lar?!

Shunda ulardan biri qolganlarini sabrlilikka chaqirdi.

— Bunday qilganimiz yaxshi emas! — dedi u o'rtoqlariga. — Biz jonni qiysak, qizitaloq musulmonlar qiz-kelinning barchasin o'lja qilib olishar. O'n ikki qal'a Dag'alaq vayron bo'lar.

Bu so'zlar isbotsiz haqiqat bo'lganidan, qo'l yig'ladi ho'ngirab, faryod chekib chirqirab. Chorasiz qolgan xitoylar Manasga holi yetmasligini tushunib, ikki yuz ming qo'li bilan uning yetti yuz ming qo'liga bo'ysunib borishdi. Qirg'izlar navbatdagi g'alabaga yetishib, Dag'alaq shahriga kirib borishdi.

* * *

Manasning qo'li Dag'alaqda o'n yetti kun dam oldi. O'n sakkizinchi kuni Manas bundan keyingi harakatlar haqida jon-navkarlari bilan maslahatlashdi.

— Qarshi bo'lmasanglar, biz Boyqush degan yerga boraylik! — dedi u yig'ilganlarga. — Unda ko'sho'k urug' eli, Dang'a degan shahar, Chatuqan, Saniro'o', Ko'bo' degan yerlar bor. Bularning aksariyatini Budangchang ismli xon biylaydi. Undan nari borsang, Maral degan shahar bor, Qungqu, Qo'to'n degan yerlar bor. Ularning Boyman nomli begi bor.

Berigi yog'ida Jerken degan yer, Qara-Qish degan qal'a bor. Ularning Ayiq degan xoni bor. Tilga olingan taraflarda bundan boshqa nechalab atoqli shaharlar bor. Biz o'shalarni ko'zlab boraylik. Unday qilmasak, bizni xitoyning o'n bir duv-duvsi sog' qo'ymaydi. Tez orada ularning zo'ri Duburo' xonni ko'zlab otlanaylik! — deb so'zini bitirdi Manas.

Hammasi shunga rozi bo'lishdi. Shundan so'ng to'qqiz yuz ming askarning barchasi jamlanib, oziq-ovqat g'amlashdi. To'lqinlangan ko'lday bo'lgan bu qo'shin Sangiro'o'ga bet oldi.

Ular tizzadek bo'lgan tog'i yo'q, to'sib chiqqan yovi yo'q, kimsasiz dasht, yovvoyi cho'l bo'ylab yetti kun, yetti tun tinmay yo'l yurdi. Sakkizinchi kun deganda sonsiz qo'l Aspan degan yerga yetdi.

Oqib yotgan suvni ko'rib, Manas askariga otlar bilan dam olishga ruxsat berdi. Berilgan buyrug'ining bajarilayotganiga ishongandan keyin u Dag'alaqning Ko'do'ng choli bilan ayg'oqchilikka boradigan bo'ldi. Manas o'zi bilan birga Er Urbuni, Ko'kchani, Jamg'irchini hamda Baqayni olishga ahd qildi.

Bizning qo'shin mana shu yerda dam olib tursin! — dedi u o'rtoqlariga. — Biz olti kishi otlanib, har tarafni kuzataylik. Haybatli qal'a, yovvoyi dala, oqimi qattiq suv, oshuvi baland tog', otishib chiqar yov bormikan? Barchasini payqab ko'raylik, — deb u besh botir bilan otlanib, kuzatuvga chiqib ketdi.

Ular ketgandan keyin Manasning qo'li dam olib yotganda Qutubiy bosh bo'lgan merganlar ovga chiqishdi. Kiyik ovlab yurganda oldidan Adamduq nomli bir ko'zli dev chiqdi.

Dev merganlarning barchasini tutib olib, qo'ydek haydab, o'nguriga olib bordi. Sababi u odamxo'r dev ekan. Undan qutulish uchun Qutubiy payt poylab, uning ko'ziga otib o'ldirdi. Keyin u Adamduqning dev ayolini ham hamrohlari bilan otib tashladi.

Devlardan qutulgandan keyin ular g'orni ag'dar-to'ntar qilib, unda tutqun bo'lib yotgan ko'plab odamlarni erkinlikka chiqarishdi. Devlar to'nab olgan hisobsiz dunyoni topib, ularni o'ljalab olishib, Qutubiy do'stlari bilan qo'liga eson-omon qaytib borishdi. Olib kelgan o'ljasini qimtib olmasdan, ular uni ko'pchilikning o'rtasiga solishdi.

— Qutubiy aniq qutli ekan! — uning saxiyligiga barcha rozi bo'lib, o'ljani adolatlilik bilan bo'lib olishdi.

Shu paytda qiy-chuv, o'kirik-baqiriq eshtildi. Nima bo'lganini tekshira boshlaganda, Qutubiy bilan birga ovga chiqib, biroq keyin undan bo'linib, alohida ketishgan ikki yuz mergan qo'lga kelgani bilindi. Ular nima sababdan shunchalar shoshgan ravishda o'rtoqlari yoniga qaytib kelganini aytib berishdi.

Ularning aytishicha, ular Qutubiyning to'pidan ajrab, adirga chiqib, haydalgan ming yilqiday ko'plab qulonlarni ko'rishgan. Merganlar qulonlarni quvlaganda, ular hurkkan bo'yi Asharuu degan cho'l tarafga qochib ketishgan.

"Charchaganda qulon to'xtar!" — degan umid bilan merganlar ularni quviy boshlashadi. Bir joyga borganda ularning pastki yog'ini qarasa, yuz ellikday tuya o'tlab yuribdi.

"Tuyalarga omonlik bermay, chopamiz!" — deb o'ylagan merganlar yaqin kelganda, tuyalarni Xudo urdi. Ular yovvoyi tuyalar ekan. Shu sababli shamol tarafga yuzlanib, hurkib, tuyalar qochib ketib qolishdi. Ularni tutish uchun merganlar tuyalarning ortidan chopib jo'nashdi.

Suvi tanqis, yeri keng dalaga yetganda, qochgan tuyalar bilinmay, qarasa ko'zga ilinmay, g'oyib bo'lib qolishdi.

"Tuyalar qayga ketdi?" — deb tang qolgan merganlar tun kirib qolganligidan o'sha yerga qo'nishdi.

Tong sarg'ayib otganda ular otlanib, shimoldagi Dangdun tog'i tarafga yurib ketishdi. Merganlar Ko'ro'so'n bilan Aspanning qo'shilishgan yo'liga yetganda ularning oldidan Aspiyan yoqqa yo'l tortib, Kenjutdan chiqqan Martiq polvonning yetti ming qo'li paydo bo'ldi. Bunday qalin qo'lning sharpasini ko'rib, ikki yuz mergan qirg'izlarning qo'liga qochdi. Qochib borayotib, ular Martiqning talay askarlarini qirib tashlashibdi.

Barchasini vahimaga solgan qiy-chuvning sababini tushungandan keyin qirg'izlar otlanishib, Martiq polvonning askarlarining oldidan chiqib, ularni yakson qilib, to'liq g'alabaga erishishdi.

...Qo'lni dam olishga to'xtatib qo'yib, kuzatuvga chiqqan Manas boshlagan botirlar bo'lsa tushga qadar yo'l yurib, olisdan aylanasi teng dasht bo'lgan O'rto'q tog'ini ko'rishdi. Ular otlarini choptirib, oqshomda u yerga yetib borishdi.

Tog'ning cho'qqisiga chiqib, Manas o'rtoqlari bilan aylanaga durbin soldi. Uning ko'z o'ngida qorayib yotgan bog'i, bo'rtib chiqqan tomi bor shahar yotardi. Bu — Duburo' xonga tegishli Duqan shahri edi.

Duqanda bo'ladigan voqealarni oldindan bilgan Qo'yush, Bo'g'ush, Sag'ush, Qiyar degan to'rt sehrgar yashar edi. Ular Manasning kelayotganini sezishib, nihoyatda tinchsizlanib, Duburo' xonning saroyiga borishdi.

Ular saroyga kelganda o'rta bo'yli, qora sochli, qora soqolli, bo'ladan kelgan Duburo' xon tushki ovqatdan keyin bo'lmalarining birida dam olib yotgan edi.

Sehrgarlari kelganini eshitgan Duburo' xon ularni kiritishga ruxsat berdi. Sehrgarlar xonining oldiga kirgandan keyin ularning boshlig'i Qiyar xoniga murojaat qildi.

— Xonim! — dedi bosh sehrgar Qiyar. — Oti Manas degan er yigit hisobsiz qo'li bilan to'rt kundan beri Aspan suvining bo'yida dam olib yotibdi. Ularni hech kim yenga olmayapti hamda yenga olmaydi. Manas duch kelgan dushmanlarining barchasining yaksonini chiqarib kelyapti. Uni hozir biz bu yerda to'xtatmasak, u kun-u tun aylanib, tub Bejinga urush ochadi. Biz asta-sekin hozirlik ko'rmasak, xalqimiz zarar tortib qoladi!

Past bo'yli, siyrak soqolli, sariq yuzli, ingichka jag'li Qiyar so'zini tugatgandan keyin shunga qadar indamay o'tirgan Duburo' xon unga achchiq bilan qaradi.

— Manas degan kim ekan? — baqirdi u. — Menga hamla qilgani, u qayerdan chiqqan jinni? Bizda to'lib-toshgan askar tursa, qaysi jonidan to'ygan tentak bizga qo'l solgani botina oladi?! Men sizlarni sehrgar, hech narsadan qo'rqmas, doimo meni qo'rg'ay oladi deb yursam, sizlar nimaga bunchalik esdan og'ib, qo'rqayapsizlar? — deb jini keldi uning.

— Xonim! — sabrlilik bilan javob berdi ichidan g'ashi kelgan Qiyar. — Agarda senda haqiqatan ham askar ko'p bo'lsa, unda uni olib, O'rto'q tog'ga Manasdan burun yetib bor. O'shandagina sen Manasni to'xtata olishing mumkin.

Duburo' xonning Qiyarga undan battar jini keldi. Darrov uni jazolab, ta'zirini berishni o'yladi. Ammo biroz o'ylanib turgandan keyin u o'z niyatidan qaytdi.

"Sabrlilik qilaylik!" — deb hal qildi u. — Bunga qadar sehrgarlarim meni aldagan emas edi. Agarda ular qandaydir bir sabablar bois qora ko'ngillilik qilib, ataylab elni sarosimaga solayotgan bo'lsa, men ularni jazolashga har doim ulguraman! Hozircha bularning aytganini qilayin!".

Shunday qarorni qabul qilgandan keyin Duburo' xon uning javobini chidamsizlik bilan kutib turgan sehrgarlarga sirli qaradi.

— Ma'qul! — dedi u sehrgarlarga. — Men sizlarning aytganinglarni ado etib, tegishli farmonni chiqaray. Biroq meni yo'q yerdan aldagan bo'lsanglar, unda joninglardan umid qilmanglar! — ogohlantirdi Duburo' xon sehrgarlarini.

* * *

Bir necha kundan keyin Duburo' xon chaqirganlarning barchasi uning oldiga to'plandi. O'shanda to'ra Manas botirga kunini ko'rsataman deb, Duburo' xon Duqandan on besh polvon dev, o'n ming askar bilan O'rto'luuga bet oldi.

Ularning kelayotganidan xabari yo'q Manas bu paytda besh yo'ldoshi bilan tog'ga chiqib tayanib, turgan edi ikki yog'in kuzatib. Qalin qo'l kelib qolganda Manas safdoshlari bilan bu kim ekaligini aniqlaguncha, Duburo' xonning askari ularni qurshab oldi.

Harbiy urfni saqlab, Duburo' xon jangni yakkama-yakka olishuvdan boshlashga qaror qildi. U tanlab olgan uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Jayan ismli o'ttiz to'rt yoshdagi polvon qo'lning ichidagi fillarning eng kuchlisini tanlab minib, Manas turgan yerga bostirib keldi.

— Qani, menga kim chiqadi? — baqirdi Jayan qo'lidagi gurzisini mijiqlab ushlab. — Ajali yetgan sho'rlik bo'lsang, chiq menga! Ildam kel o'limga shay bo'lib!

— Bu ko'p gapirgan qanday ahmoq?! — Jayanning so'zlariga Manasning achchig'i keldi. — Ko'rayin-chi buning kuchin!

Manas yarog'larini olib, Oqqulani minib, Jayan tarafga qarab chopib ketdi.

Uning kelayotganini ko'rgan Jayan Manasning suridan hayiqdi. Qirg'iz polvonining yetib kelishini kutib turmasdan, yoy bilan uni otib yubordi. Manas qalqonini to'sib olganda, undan nom-nishon qolmay, parchalanib ketdi.Qalqonni chil-parchin qilib, temir sovutga uchib botib, qalmoqning o'qi to'xtadi.

Manasning bunga jini keldi.

— Otish unday emas, mana bunday bo'ladi! — deb u Aqkelte miltig'ini o'qlab, Jayanni otdi.

Otilgan o'q bekor ketmasdan aniq tegib, Jayaning boshi yulinib ketdi. Uning tanasi qoldi, boshi yo'q, qayoqqa ketgani bilinmay, g'oyib bo'ldi otgan o'q. Jayanning o'zi fildan qulamasdan, uning ustida qaqqayib turdi. Fil bo'lsa maydondan qochishning o'rniga turgan yeridan jilmay qoldi.

— Jayanning nodon fili nega jilmaydi?! — deb achchiqlangan arslon Manas botir nayza bilan qochirib, filning ko'ziga bir urdi.

O'shandagina fil qo'liga qarab qochdi. Qochib borayotib u munkib ketib, uning ustidagi Jayan polvon go'yo bir tog' ko'chganday quladi. Buni ko'rib er Manas otini burib tortib, qayta ortiga qaytdi.

Jayan o'lgandan keyin uzun bo'yli, alp kelbatli, sariq yuzli Qambil polvon yakkama-yakka olishuvga chiqib, filni minib, maydonda uni kutib turgan Manasni nayza bilan qochirib qoldi.

Nayza kelib tegarda Manas uni qilichi bilan qiyib chopib soldi. Keyin u Qambilning o'zini chopgan edi, u fil-mili bilan birga ikkiga bo'linib, yerda jon berdi.

Qambildan keyin Dushda degan kuluk filni minib, yakkama-yakkaga qorato'ri, chayir tanli, ingichka jag'li Sanamo'o'r polvon Manasga qarshi chiqdi. Chopib kelayotib, u Manasni olisdanoq miltig'i bilan otdi. O'q chetlab o'tib, Manasning o'ng yelkasidan olis ketdi.

O'qining behuda ketganini ko'rgan Sanamo'o'r uzun nayzasini qo'liga olib, miltig'i bilan yana bir marta otib, Manasni nayza

bilan qochirdi. Qalmoq og'a yetguncha Manas kutib o'tirmasdan miltig'i bilan Sanamo'o'rni otdi. Otilgan o'q uning boshini yorib ketib, Sanamo'o'r o'sha yerda Xudoga omonatini topshirdi.

Sanamo'o'rning fili Dushda Oqqulani tumshug'i bilan sag'risiga urib, bir terlikday terisini supurgan bo'yi ortga qochdi. Manasning bunga achchig'i kelib. Filni quvib yetib, uni po'lat qilichi bilan beliga urdi. Zarbadan filning beli ikkiga bo'linib, qoni suvday oqdi.

Sanamo'o'rdan keyin maydonga filni tepinib, uzun bo'yli, sariq yuzli Sang'a dev degan polvon chiqdi. U Manasga yetganda, nayza sanchishning o'rniga uni kamon bilan otdi. Chap tarafdan otilgan yoy sovutiga borib yetdi.

Nayzadan omon qolgan Manas javob tarzida nayzasini qo'liga olib, Oqqulaga qamchi solib, Sang'aga yetib bordi-da, nayza bilan uning ko'kragiga urdi. Sang'a fili bilan birga qulab, o'sha yerda jon berdi. U Manasning qo'lidan ajal topgan xitoylarning to'rtinchi polvoni bo'ldi.

Qandaygina bo'lmasin, Manasdan o'ch olish uchun unga qarshi xitoylarning alp gavdali, qorato'ri Do'bo't polvoni maydonga chiqdi. Jang qilgani fil yaramas ekan deb, u bir ot minib oldi.

Qilich, qurol-yarog'in olib, "laylamaluu! — deb u Manasga yaqinlasha bordi. Botirlar bir-birini nayza bilan qochirishdi. Ular nayza bilan sanchishib, qilich bilan chopishib, gurzi bilan urishib, miltiq bilan otishib, yo'lbarsday olishib, qilich kabi chopishib, qip-qizil qonga botishdi. Qanchalik harakat qilmasin, ular bir-birini yenga olmadi.

Peshinda boshlangan botirlarning bellashuvi tun yarmigacha davom etdi. Urushning epkini bilan ular qo'lni buzib, suvsiz qaqshagan biyobon dalaga chiqib ketishdi. Osmonda jimirlab yulduz to'lganda Manas epini topib, Do'bo'tni o'ng qo'li bilan engashtirib olib, o'ng-so'lga aylantirdi. Keyin uni ko'tarib, quruq yerga urgan edi, Do'bo't til tortmay nobud bo'ldi.

"Uf! — yengil xo'rsindi nihoyatda charchagan Manas. — Bu qalmoq haqiqiy polvon ekan. Uni arang yengmadimmi! Yana biroz bo'lganda men uni yenga olarmidim, yo'qmi — buni Alloh taolodan boshqa hech kim bilmaydi! Olishuv o'ta ko'p kuchimni olib qo'ydi!".

Yengishiga rozi bo‘lgan Manas Do‘bo‘o‘tning otini minib, Oqqulani yetaklab, tong yorishib qolganda qo‘liga qaytib bordi. Borsa, xitoylar uning askarlariga hujum qilishayotgan ekan. Eshtek o‘g‘li Jamg‘irchi, Aydarxon o‘g‘li Ko‘kcha, Baqay, Tazning o‘g‘li er Urbu to‘pdan otib, aq jo‘ko‘r* miltiq otib, xitoylar bilan qizil qirg‘in solishib, ularning talayini qirib solishibdi.

Manas qiyin ahvolda turgan safdoshlariga yordamga shoshdi. U xitoylarga nayza sanchib, miltiq otib, ular bilan chopisha boshladi. Bunga qadar qirg‘izlarni qisib kelayotgan qalmoqlarning hujumi so‘lg‘inlab qoldi.

— Endi bularning hisobini topdik!” — deb quvona boshlagan botirlarning kayfini o‘chirib, o‘n ming xitoyga ortidan yana yigirma ming otchan yordamga keldi.

— Yigitlar! — murojaat qildi o‘shanda Manas navkarlariga. — Biz to‘liq bo‘ydan dushmanlarning qurshovida qoldik. Ularga yana qo‘shimcha qo‘l qo‘shildi. Quruq g‘ayrat qilavergandan nima foyda? Bizga yordam kelguncha xitoylarga qarshilik ko‘rsatishni davom ettiraveraylikmi yo dushmanning qo‘lini yorib o‘tishga harakat qilaylikmi?

— Bizning qo‘l yordamga kelguncha, biz omonatimizni Xudoga topshirib qolishimiz mumkin! — boshini chayqadi Baqay.

— Ha, ahvol aynan shunday bo‘lyapti! — ko‘ndi Manas Baqay bilan. — Shu boisdan biz yovni yorib, qo‘lni ko‘zlab yo‘l olaylik. Ajalimiz yetsa o‘lamiz, bo‘lmasa eson-omon qo‘limizga yetib olamiz! Bunga nima deysizlar?

— Eng to‘g‘ri fikr! — javob berdi Baqay. — Bu yerda turaversak, o‘q-dorimiz tugaganda xitoylar bizning boshimizni chumchuqning boshini yulganday yulib oladi. Uni kutmasdan biz qurshovdan chiqishga harakat qilaylik. Yotib o‘lguncha otib o‘laylik!

— Unday bo‘lsa, hujumga tayyorlaninglar! — buyruq berdi Manas.

Qurol-yarog‘ini tayyorlaganidan so‘ng botirlar shimol tarafga bet olib, qiyqirig‘i bosh yorib, xitoylarni bir chetda qirdi qiyratib. Qarshisida turganlarni bo‘ri tekkan qo‘y kabi bo‘lib-yorib, qurshovdan sug‘urilib chiqishdi.

— Joninglardan umid qilsanglar, otinglarga ayamasdan qamchi solinglar! — qiyqirdi o'shanda o'rtoqlariga Manas. — Xitoylarni yetkazmay, eson-omon qo'limizga yetib olaylik!!!

Botirlar jon-holi qolmay, otlarini qamchi bilan urishib, chopib ketshdi. Xitoylar ularning ortidan "mo'ndu"lab quvalay boshlashdi. Polvonlar ularning yetib kelganlarini mo'ljallab otib borishdi. Vaqt o'tgan sayin ular Aspanga, qirg'izlarning qo'liga yaqinlayverishdi.

Quvg'inning qiy-chuvi eshitila boshlaganda, dam olib yotgan Manasning qo'li sarosimaga tushdi.

— Bu qanday urush? Kim kim bilan jang qilyapti? — deb qo'ldagilar bir-biridan so'ray boshlashdi.

Ularga javob berganday Aqkeltening ovozi chinqirab, Manasning och qiyqirig'i yangradi.

— Xudo o'zing saqlagin! — shoshib qolishdi qo'ldagilar. — Manas arslonimizni xitoylar quvalab kelayotgan ekan-ku. Barchanglar unga yordamga otlaninglar!!!

Karnay-surnaylar yangrab, nog'oralar qoqilib, shosha-pisha otlariga minib, nayza, qilich yarog'in olib, ellik ming askar Manasga yordamga chopib jo'nadi. O'ttiz ming xitoyga yetganda ularga qizil qirg'inni solishdi. Xitoylar qirg'izlarga qarshilik ko'rsata boshlashdi.

Shu payt Qara-Qishtaq qal'asini olib, qo'liga qaytib kelayotgan Manasning to'rt yuz ming askari xitoylarning ortidan qo'l soldi. Natijada xitoylar to'liq qurshovda qolishdi. G'azabi to'lib-toshgan azamatlar xitoylarning qatorini buzib-yorib kirishdi.

Ulardan o'n besh mingi o'lgandan keyin, qolgan xitoylar jonlaridan umid uzishib, jon sovg'alab qirg'izlarga bo'ysuna boshlashdi. Baqay, Ko'kcha, Jamg'irchi askarlarga urushni to'xtatib, tutqinlarga tegmaslikka buyruq berishdi. Urushdan keyin taslim bo'lgan xitoylarning joni omon qoldi.

Qirg'iznig qo'li o'sha yerdan olis bo'lmagan yerda joylashgan ko'lni tanlab olib, uning qirg'og'ida dam olish uchun u yerga bordi. Qo'sh boshiga bir baytalni so'yishib, charchagan navkarlar rohatlanib ovqatlanishdi. Ehtiyotkorlikda xo'rlik yo'q deb, ular qorovulni qattiq qo'yishib, o'shal kuni sohilda yotib qoldi qo'nishib.

Tong yorisha boshlayotganda Manas Duburo'ni olish uchun ellik ming askarini qo'shinda qoldirib, qolgan to'rt yuz ming askar bilan daryo bo'ylab, qal'ani ko'zlab bet oldi.

* * *

Manas Duburo' xonga otlanardan bir kun avval qal'aga o'rta bo'yli, oriqdan kelgan, ingichka jag', sariq yuzli sehrgar So'no' keldi. U darrov Duburo' xonga borib, bo'lgan voqealar to'g'risida aytib berdi.

— Tungulu xonim! — dedi u oxirida Duburo'ga. — Manas chindan ham zo'r ekan. U bilan yuzlashgan jonning sho'ri qurib qolmayaptimi!

— Sen nega bunday deyapsan? — tang qoldi Duburo'. — Burutning bir bolasi yuraginglarni shuncha tushirdimi? — deb mazax qilib so'radi u.

— So'zimga bekorga ishonmayapsan! — qayg'uli boshini chayqadi So'no'. — Manasning botirligi botir ekan. O'zing o'ylab ko'r-chi, xonim. U bizning fil mingan polvonlardan to'rttasini so'yib tashladi! Nihoyasida to'ra Manas botirga Do'bo't polvon otlanib, kechki payt urush qildi! Ular tuni bo'yi yo'q bo'lishdi. Tongotganda Manas uning otini olib, o'zi yolg'iz keldi.

— Do'bo't nima bo'libdi? — tinchsizlanib so'radi Duburo' So'no'dan.

Uning nima bo'lganini bilmaymiz! — qo'llarini yozdi So'no'. — Manas yolg'iz o'zi keldi. Unga qadar uning besh o'rtog'ini o'rab, solishayotgan edik. Manas kelgandan keyin darrov bizning qo'lning chetini qiyratib, kun chiqarni bet olib, ko'lni ko'zlab solib, yo'ldoshlari bilan qo'liga qarab qochdi. Ularning ortidan bizning ko'p askar quvib ketdi. Men shuning xabarini aytgani senga keldim! — dedi So'no'.

Buni uqqan Duburo' xonni achchiqdan qaltiroq bosdi.

"Bu Manas anoyi emas ko'rinadi! — deb o'ylandi u. — Men uni o'zimga teng olmay, bekor beparvo bo'libman! Uning bunday botir ekanligi uch uxlasam ham tushimga kirmagan yangilik bo'ldi.

Agarda ahvol shunday aksiga aylanishini bilganimda, qo'lni o'zimgina boshlab borar edim manasga qarshi!" — deb nihoyatda o'kindi Duburo' xon.

Biroz xafa bo'lib turgandan keyin u qaytadan o'zini qo'lga oldi.

"Endi g'am chek-chekma, baribir! Manasni to'xtatish uchun keskin choralarni ko'radigan vaqt yetdi!".

Duburo' xon qoshini ko'tardi.

— Sen hozir bizning atrofimizdagi qalmoqlarning barchasiga xabar ber! — dedi u So'no'ga. — Xaloyiqni chopib, barchasini ildam yig'ib kel!

— Xo'p bo'ladi, xonim! — So'no' sehrgar tashqariga chiqdi.

U jangari tulpor otini minib, Asar degan yerdagi, Maymina tog'idagi, Kishi arishdagi, Sangiro'o' botqog'idagi hamda boshqa yerlardagi qalmoqlarning bariga Duburo' xonning buyrug'ini yetkazdi.

Duburo' xon bo'lsa So'na sehrgar ketgandan keyin Manasdan xavfsiragan o'ylarini unutib, qaytadan beparvo bo'ldi.

"Men o'zimcha nega cho'chiyapman? — ichidan kuldi u. — Manas biz kabi ko'p xitoy eli uchun kim? Puflab qo'ysa uchib ketadigan kul! U bizni hech qachon yenga olmaydi. Uni o'ttiz ming ketgan askarim vayron qilib keladi! — deb o'sha bo'ydan Duburo' shoh bu haqda o'ylanmay yotib qoldi.

Biroq har qanday tasodiflarning oldini olish uchun "Manasni bog'lab kelinglar!" deb O'rdada yotgan askarlarini jalb etdi.

Baxtga qarshi, keyingi voqealar Duburo' shoh o'ylaganday bo'lmadi. U yuborgan askarlarning birontasi qaytib kelmadi. Yo kelib, xabarini bermadi. Uning o'ttiz ming qo'li qumga singgan suvday shu bo'yi yo'q bo'lib ketdi.

Bunga Duburo' xon hang-mang bo'lib, nima deb o'ylashini bilmay yotganida tuman askar qo'l bilan, Duqan bilan Dag'alaqning orasidagi yo'l bilan qal'aga er Manas yetib keldi. Shaharliklarning ulgurganlari qal'adan qochib ketishdi. Ulgurmay qolganlari Misburush butxonasiga yashirinishdi.

Bu butxona nihoyatda ixcham solingan ekan. Uning aylanasi olti ming quloch. Balandligi ellik qulochni tuzadi. Keng qo'rg'oni temirdan solingan, ichi temir, tashi tosh. Shaharliklarni butxonaga oddiy kunlari hech kim kirgizmas edi. Ammo hozir dushman bostirib kirganidan keyin, bari jonini olib qochib, unga to'lib olishdi.

Butxonaga tiqilgan uch yuz mingcha ayol-bola, qari-yoshning orasida Duburo‘ xon ham bor. Qalmoqlarning qayerga yashirinib olganini eshitgan qirg‘izlarning ikki yuz mingdan ortiq askari butxonaga borib, uni qurshab olishdi.

Manasning qo‘lidan qutulolmasligiga ko‘zi yetgan qalmoqlar esdan tonib anqayib, esi chiqdi so‘ppayib. O‘shanda ularning o‘ziga ishongan zo‘rlari o‘ziga xanjar urishdi.

— Qirg‘izlardan o‘lguncha, mung‘ayib xo‘rlik ko‘rguncha, bu dunyodan jo‘naylik! — deb qalmoqlarning o‘ttiz mingi o‘z jonini qiydi.

Buni ko‘rgan shaharliklarning rangi o‘chdi.

— Xudoyimiz, qutqar! — deb ular butga yalina boshlashdi.

Ularning xoni Duburo‘ ham jonidan umidini uzdi.

— Bizni qutqar, Xudo! — faryod chekib yoshin to‘kib, Burqanning oyog‘ini quchoqlab, bo‘zlab yig‘ladi.

Duburo‘ning yig‘layotganini ko‘rgan yosh-qarining bundan battar hushi uchdi.

— Agarda bizning xonimiz shuncha harib bo‘lsa, biz qayga boramiz?! — yig‘lashdi ular. — Kimga armonimizni aytamiz? Bunday ahvol o‘zgarmasa, qolmas ekan tirik jonimiz!!!

Kelajagidan qo‘rqqan shaharliklar folbinlaridan qur’a tashlab, fol ochishni so‘ranishdi. Sababi darvozasi qulflangan butxonada yashirinib, qirg‘izlardan omon qolishga hech qanday mumkinchilik qolmadi. Manasning askarlari o‘n ikki filga sudratib, cho‘ng zambarakni butxonaning yoniga olib kelishdi. Agarda ular butxonaning darvozasini u bilan bir marta otsa, u bir zumda vayron bo‘lishi oydek ravshan edi. O‘shani bilib, shaharliklar qo‘rqqanidan ayyuhannos solishdi, fol ochishni talab qilishdi.

O‘shanda Do‘ke qalmoq yurtidan o‘rta bo‘yli, boshida kokili bor, sariq yuzli, yigirma to‘rt yoshdagi To‘lo‘bek ismli bashoratchi yonida olib yurgan qirq bir fol toshini olib, bahuzur fol ocha boshladi. Bashoratiga qaraganda, O‘rta Osiyodan boshlab, Manchjuriyagacha bo‘lgan yerlarning barchasini o‘ta kuchli Manas botir olib, adolatli xon bo‘lib, qalmoqlarga ham, boshqa fuqarolariga ham hech qanday zulm qilmas ekan.

Folini tugatgandan keyin To'lo'bek yerdoshlariga quvonib qaradi.

— Darvozani ochinglar! — dedi u yonidagi shaharliklarga. — Qirg'izlar hech kimga tegmaydi. Ularning Manas botiri olamning barini olib, adolatli xon bo'lar ekan! Qo'rqmasdan eshikni ochinglar!

— Yo'q! — qiyqirdi shaharliklarga Duburo' xon. — Bu bashoratchi yolg'on aytyapti. Qirg'izlarga taslim bo'lib bersangizlar, ular birontangizni qo'ymay qirib tashlaydi!

— Mening so'zlarimga ishonmasanglar, darvozani ochmayoq qo'yinglar! — norozi bo'lib dedi To'lo'bek. — Men qalmoqlardagi eng zo'r bashoratchiman. Shu kungacha aytganlarimning yolg'oni bo'lgani yo'q. Buni hammanglar yaxshi bilasizlar.

— Unda bizni nima qil deysan? — xonining so'zini qiya olmay, bashoratchisidan umid qilib so'rashdi shaharliklar.

— Nima qilishni o'zinglar bilasizlar! — sovuq javob berdi To'lo'bek. — Men sizlarga folga tushgan narsalarnigina aytdim. Aytgancha, yana bir narsani aytaman deb unutib qolibman. Agarda sizlar darvozani ochmasangizlar, bir soatdan keyin qirg'izlar zambaragi bilan butxonani portlatishadi. O'shanda barchamiz teng mana shu yerda o'lamiz. O'ligimiz ko'milmay, it-qushga dalada yem bo'ladi!!!

— Bunday kundan Xudo o'zi saqlasin! — baqirishdi shaharliklar.

Butxonaning ichi yosh bolalarning yig'isiga, o'kirik-baqirig'iga to'ldi. Bari jonidan kechib, kelajagidan umidini uzdi.

Birozdan keyin joni achishib, aqldan ozib turgan shaharliklar esini yig'ishdi.

— Darvozani ochmasak, hozir o'lar ekanmiz! — deyishdi ular. — Agarda uni ochsak, tirik qolishga imkoniyat bor ekan. Shu boisdan darvozani ochib, qirg'izlarga taslim bo'lib beraylik!

— Hoy, shaharliklar! — achchiqlanib qiyqirdi Duburo' xon. — Nega qo'rqoqlik qilyapsizlar? Qirg'izlarga tutqin bo'lib, xo'rlik bilan o'lguncha, obro'yinglar bilan o'lmaysizlarmi? Sizlarda nomus degan bormi?!

— Yo'q, xonim! — boshini chayqashdi shaharliklar. — Biz sening aytganingga qo'shila olmaymiz. Sen bizning xonimiz

bo'lib turib, bizni himoya qila olmading. Shuncha ko'p askaring turib, do'ppidek bo'lgan qirg'izlarga holing yetmadi. Biz askar emas, tinch yurgan aftoda xalqmiz. Quruq nomus uchun biz o'zimizning, bola-chaqamizning umrini qiya olmaymiz! — deb shaharliklar darvozani ochishga shaylana boshlashdi.

— Ochmanglar darvozani! — shaharliklarni to'xtatishga so'nggi harakatini qildi Duburo' xon. — Agarda folbininglar yolg'on aytgan bo'lsa, qirg'izlar sizlarning teringlarni tiriklayin shilib olishadi!

— Balkim, folbinning bashorati yolg'on chiqib qolar! — rozi bo'lishdi shaharliklar. — Unda biz itning o'limi bilan o'lamiz. Agarda uning aytgani haqiqatga aylansa, biz tirik qolamiz. Bir boshga — bir o'lim. Eshikni ochsak ham, ochmasak ham o'ladigan bo'ldik! Shu tufayli tavakkalga solib, darvozani ochib, tirik qolish uchun oxirgi mumkinchiligimizdan foydalanib ko'raylik. Xudo yorlaqab, balkim qirg'izlardan tirik qolarmiz!

Shaharliklarning eshikni ochishiga ko'zi yetgandan so'ng podshoni Xudo urdi. Tojisini boshidan olib, Burqanning oldidan bir necha qadam ortga chekindi. Keyin qayta butga yugurib, uni qo'chqorday suzdi.

— Qo'llamasang mana! — deb Xudosini qarg'ab, tizzasiga boshini bir suzib, qulab tushdi Duburo' xon.

Uning peshanasi butga urilib, ko'zidan qoni quyilib, sulayib yotib qoldi.

— Podshohimizning ko'rgani shunday bo'ldi! — yig'ladi shaharliklar. — Ikki kun-u, uch tun biz butga yalinib, Xudoladik chirqirab. Nima uchun u bizni qo'llamay qo'ydi? Yalinib yotib o'shandan, jonimiz bunda to'ydi! — deb shaharliklar butxonaning eshigini ochishdi.

Eshikni ochgandan keyin Baqay, Aqcha xon, er Urbu, Jamg'irchi boshlagan qirg'izlar butxonaga kirishdi. Uning go'zal bezaklariga suqlanib, Baqay butxonaning ichini qiziqish bilan qaray boshladi. Qo'rqqanidan burishib qolgan shaharliklarni oralab, butga yetganda uning tagida qizil qonga belanib, esi og'ib, sulayib yotgan Duburo' xonni ko'rdi. Uning yerda yotgan tojini qo'liga olib, Baqay qalmoqqa tikilib qaradi. Uning boshining suyak-

lari majaqlanib ketganini ko'rib, Duburo'ning umrining chekiga sanoqli vaqt qolganini tajribali askar qatori tushunib, qinidan qilichini sug'urib oldi.

— Yerga kirsin, johil! — Baqay Duburo'ning yelkasiga qilich bilan urib, boshini bo'lib tashladi.

Xonining o'lganini ko'rgandan keyin butxonada turgan shaharliklarning yuraklari og'ziga tiqildi. Duburo'ning qirg'izlarning qora niyatliligi, ularga bo'ysunmaslik kerakligi haqida aytganlari haqiqatga aylanadiganday bo'ldi.

Baqay qilichining qonini Duburo'ning kiyimiga artib, keyin shaharliklarga qaradi. "Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar!" — bo'lib, qalmoqlar uning ko'zlaridan qonxo'rlikni, shafqatsizlikni ko'rishdi. Baqay ularni ayamasligini tushunishdi.

Biroq hammasi unday bo'lmadi. Baqay qilichini qiniga solib, shaharliklarga jilmayib qaradi.

— Nega menga chaqchayib qarab qoldinglar? — muloyimgina so'radi u qalmoqlardan. — Yoki sizlarni ham xoninglarning ortidan jo'nataylikmi?! U sizlarga bizning qonxo'rligimiz haqida aytib, o'ta qo'rqitgan bo'lsa kerak?!

— Ha! — qaltirab javob berishdi shaharliklar.

— Men ham o'shanday deb o'ylagan edim! — kuldi Baqay. — Biroq Duburo' sizlarga o'taketgan yolg'onni aytgan. O'ladigan xoningiz o'ldi. Sizlar endi bo'shsizlar. Uylaringizga ketaversangizlar bo'ladi!

Bu so'zlarga ishonmay, butxonadagi uch yuz ming odam chirqirab, yig'lay boshladi ho'ngrab.

— Jon sovg'a! — bari turdi bo'g'ilib, Baqayning manglayida yukinib.

— Yukinmanglar, boringlar! — kuldi Baqay. — Yursin omon joninglar! Uylaringizga eson-omon ketaveringlar!

Shundagina qalmoqlar chindan ham omon qolganiga ishonib, darvozaga yuzlanib, dupurlab jo'nab qolishdi. Jon shirinligi shunday ekan, ular bir-biri bilan quvlashib, hovliqqan bo'ydan darvozani talashib, bir-biriga qaramay, bir-birini sanamay, tashqariga chiqishga intila boshlashdi. Bu tugul yerda yotgan Do'bo'ro' podshoning boshini ko'zga ilmay, uni to'p kabi tepkilab, tepalashib tashlashdi.

Bunga er Baqayning nihoyatda achchig'i keldi.

— Hoy-hoy, qalmoqlar, to'xtanglar! — deb hayqiriq soldi.

Uning qiyqirig'idan shaharliklar to'xtab qolishdi.

— Eh, ahmoqlar! — qiyqirdi ularga Baqay. — Sizlar qanday Xudo urgan bandasizlar? Nega Duburo'ning boshini tepalaysizlar? U sizlarning xoninglarning boshi-ku?! Uni hatlab, bosib o'tmanglar! — deb Duburo'ning boshini yerdan oldi.

Keyin Baqay Duburo'ning tanasi bilan boshini askarlariga buyruq berib, odam depsamaydigan yerga qo'ydirdi. Uning ayolini toptirib, xonning o'ligini unga ko'mish uchun berdi.

"Xon boshi bo'lsa ham ko'prik, undan hatlab o'tma!" — degan so'z o'shanda qirg'izda maqol bo'lib qolgan ekan.

VIII. Manasning Qayip xonni yenggani

Manas boshlagan qo'l Duqanda o'n sakkiz kun dam oldi. O'n to'qqizinchi kuni ularga qalmoqlarning qo'shini qo'l soldi. Qirg'izlar qiyin ahvolda qoldi. Sababi ularning qo'lining ko'pchiligini Duqan shahrining yonidagi boshqa shaharlarni bosib olish uchun Qo'sho'y olib ketgan edi. Shu sababdan qirg'izlar qo'lini bir nechtaga bo'lib, o'zlarining ozligini bildirmay, dushmanga qarshilik ko'rsatadigan bo'lishdi.

Kelgan yovga hadeganda er Ko'kcha urush soldi. Xitoylar kirib kelganda dovdirab, Ko'kchaning askarlari ko'chaning yo'lini bo'g'ishib, to'g'ri otishib, botirlanib kelgan dushmanning barini quvib, qochirishdi. Ikki taraf kun-u tun otishishdi.

Ertasi kuni tong otganda er Urbuning qo'liga dushman bilan jang qilish navbati keldi. Ular ham xitoylarga quturgancha qarshilik ko'rsatib, dushmanni shaharga kiritmay qo'ydi.

Keyingi kuni xitoylar bilan er Jamg'irchining askarlari solisha boshlashdi. Ular ko'chaning yo'lini bog'latib, qal'aning ichiga kiritmay, dushmanlarni qayta surib haydadi.

To'rtinchi kuni urushga Baqayning qo'li kirdi. Ular ham kechgacha chopishib, xitoylarni shaharga kiritishmadi.

Ertasi choshgohda uzun bo'yli, alp qomatli, qorato'ri Do'g'o'n botir boshlagan to'rt yuz ming askar qalmoqlarga yordamga keldi.

Ulardan biroz avval qalmoqlarga o'n uch ming qo'li bilan Dang'u shahrining boshqaruvchisi, o'rta bo'yli, oq yuzli, qorato'ri, biroz to'lishgan Qayip dang kelgan edi. Do'g'o'n botir Qayip dangning oldiga uchrashgani bordi.

— Xonim! — murojaat qildi u Qayipga. — Biz Manasning qo'lini yengmasak, hech to'g'ri bo'lmaydi. Sababi qirg'izlar Duqanni butunlay olishibdi.Undagi qiz-kelinlarning barini o'lja qilishibdi.

— Bu ma'lumot menga yetdi! — qayg'uli bo'zladi Qayip xan. — Shu sababdan siz o'zingiz qo'lni boshqarib, urushni boshlangiz. Bu musulmonlar uch yuz mingday uyi bor Duqanning barchasini tuk qo'ymay qiribdi. Elni boshqargan Duburo' xon qurbon bo'libdi. Ishongan Esonxonimiz olisda. Hindiston xoni uch oylik yo'lda. O'risning yurti yanada yiroq. Elni boshqargan xonlardan hech kimisi qolmadi. Qo'ro'so'n, Aspan musulmonlariga qo'y deb to'xtatishga kishi yo'q. Men shundan qo'rqyapman! — shoshib so'zini bitirdi u.

Buni uqqan Do'g'o'n botir Qayip xonga tang qolib qaradi.

"Bu xonga nima bo'lgan? — noqulay bo'lib o'yladi u. — Elimiz shunchalik ko'p bo'lib turib, nega ozgina bo'lgan qirg'izlardan bunchalik qo'rqadi? Manas bizni hozir yengib olsa ham, biz ko'p bo'lsak, baribir uni yakson qilishimiz barchasiga tushunarli emasmi?!"

— Hadeganda Do'g'o'n achchig'i bilan mana shu o'ylarini Qayipning betiga aytib, uni qoqib solay dedi. Ammo biroz o'ylanib, o'zining niyatidan qaytdi?!".

"Yo'q! — o'ylandi u. — Bu bilan aytishib, muomalani buzmay. Nimasi bo'lsa ham, uning xonlik nomi, darajasi bor! Agarda u menga o'chakishib qolsa, Senqanga arzlansa, sog' qolmayman. Sababi men bor bo'lgani askar odamman. Qayip xon bilan chopishadigan bo'lsam "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi!", — deganday, Esonxon mening emas, uning tarafini oladi. Bu yalmog'izlarning barchasining tili bir. Shunday urush chiqib ketgan paytlardagina biz bilan hisoblashmasa, tinchlik paytida bizni to'g'atib ham qo'ymaydi!", — aziyat chekdi u.

Do'g'o'n mana shu sabablar tufayli Qayip xonga qo'pol so'zlashdan tiyildi.

— Buncha pushaymon bo'lib, xafa bo'lavermangiz, xonim! — sir bermay, kichik fe'llik bilan javob berdi u Qayipga. — Askarlar tanaffus qilib, joylansin. Otlar ham dam olsin. Shundan keyin men bu ishning chorasini topaman!

— Hammasi sen aytganday bo'lsin! — suyunib ketdi kayfiyati tushib turgan Qayip.

Ikki qo'l bir-biriga tashlana olmay, o'sha kuni yayrab, dam oldi. Ertasi kuni ahvol keskin o'zgardi. Manasning og'ir ahvolda qolganini uqqan Qo'sho'y qo'li bilan unga yordamga yetib keldi. U Duqanning shimol tarafidagi Dag'alaqning yo'li bilan kelib, tug'ni tug'ga urdirib, surnay quloq tindirib, xitoylarning ort yog'ini egalladi.

Natijada xitoylarda Manas bilan Qo'sho'yning askarlarining qurshovida qolish qo'rqinchi tug'ildi. Buni tushungandan keyin xitoylar shoshqaloqlab qolishdi. Tuzilgan vaziyatdagi muhokama uchun Qayip xon bilan Do'g'o'n majlis qura boshlashdi.

— Bular qayerda yurib buncha ko'p qo'l to'plab olishgan? — o'ychan so'radi Qayip xondan Do'g'o'n botir.

— Zamonning buzilgani shu! — xafa bo'ldi Qayip xon. — Avval bizga yuqoriga qarab so'zlagani qo'rqqan qirg'izlar endi mana bunday himoyalanishga majbur qilib, ensamizni qotiryapti. Agarda hozir dalaga chiqib ketmasak, qirg'izlarning qo'lining qurshovida qolib, harom o'lamiz!

— To'g'ri aytasiz, xonim! — tund so'yladi Do'g'o'n. — Biz hozir chekinmasak, nobud bo'lamiz. Ruxsat bersangiz, men chekinishga buyruq beray, xonim?! — savol bilan tikildi Qayipga Do'g'o'n.

— Mayli! — Qayip xon roziligini berdi.

O'shanda Do'g'o'n navkarlarining oldiga chiqdi.

— Askarlar! — dedi u. — Hammanglar otinglarga minib, dalaga chiqinglar!

Buyruqni bajarib, shoshib, qo'rqib, otga qamchi solishib, ola bayroq, ko'k nayza kiftlariga ilishib, keng dalaga chiqqan xitoylar o'sha yerda yotib qolishdi.

Manas bilan Qo'sho'yning qo'llari bo'lsa birikkandan keyin urush qilishga shaylanib, Duqanda qolishdi. Uch kundan keyin ular shahardan chiqib, Qayipning askarlarining yoniga kelib, ularga yuzma-yuz turishdi.

Harbiy urf bo‘yicha hadeganda dushmanlar ikki-ikkidan bellashuvga tushishdi. Keyin Do‘g‘an botir maydonga o‘zi chiqdi. Halokatli kamoni bir qo‘lida, oltmish gazli nayzasi ikkinchi qo‘lida, beliga uzun qilich bog‘lagan, bo‘yniga miltiq solingan Do‘g‘o‘n jambil otini minib dang‘uu-dang‘uu deb aytib, otasining ismin chaqirib, xitobin baland soldi.

— Botir, polvon bo‘lsang kel beri! — baqirdi Do‘g‘o‘n. — Ori yo‘q, kaftchalik qirg‘izlar! Qiyqirsam, o‘lib yotgandirsan. O‘luvchilar menga kelinglar. Sizlarning sog‘ingan ajalinglar menda!

Buni eshitgan Qo‘sho‘y hay-haylab qo‘lga chiqdi:

— Yigitlar! — qiyqirdi u askarlarga. — Bu quturgan xitoy barchanglarni bellashuvga chaqirdi. Kiminglar unga qarshi chiqasizlar?

Botirlar biri-biriga jovdirab tikilishdi. Do‘g‘o‘nga qarshi chiqqan kishi sog‘ qolmasligini. tushunishdi. O‘laman deganlargina bormasa, unga qarshi bellashuvga hech kim chiqmaydi. Unga teng kelsa birgina Manas teng kelishini sezgan botirlar Manasga borishdi.

Ularning o‘yini ayttirmay tushungan er Manas miyig‘ida jilmaydi.

— Botirlar, nimaga to‘planib keldinglar? — so‘radi u kelganlardan.

— Do‘g‘o‘nga qarshi bellashuvga kimni chiqarishni bilmay turibmiz, botir! — uyalganidan yerga qarab javob berdi Qo‘sho‘y.

— O‘lsa Manas o‘lsin, biz o‘zimiz omon qolaylik deb hal qilibsizlar-da, botirlar?! — xijolat bo‘lib kuldi Manas.

— Yo‘q, unday emas! — shoshilgancha javob berdi Qo‘sho‘y. — Biroq bizning hech kimimizning Do‘g‘o‘nga holimiz yetmasligini tushundik. Uni o‘zing yengmasang, hech kim yenga olmaydi!

— Ma’qul, botirlar! — achchiq bilan javob berdi Manas. — Xohlagan bo‘lsanglar barchanglar, men borayin sayoqqa! Beli qattiq cho‘ng Qula ot, olib kelinglar bu yoqqa!

O‘shandan keyin Manas qurol-yarog‘ini osib, jabduqlangan Oqqulani minib, “Manas!”lab xitob chaqirib, maydonga chiqdi.

— Qani, qaydasan sen, er Do‘g‘o‘n? Qiyqirdi Manas qalmoqqa. — Og‘ziga kelganni aytib, sen qanday hovliqqan kimsasan? Botir bo‘lsang, meni seskanmay qochir!

— Qochirsam qochirayin! — baqirdi maydonning ikkinchi tarafida otchan turgan Do‘g‘o‘n.

Oshkora belgi berilgandan keyin maydonning qarama-qarshi taraflarida turishgan botirlar otlarining og‘zini qo‘yib yuborib, bir-biriga yuzlanib chopib ketishdi. Atrofdagi askarlar, polvonlarga madad berib, qiy-chuv, hay-hayni solishdi.

Maydonning o‘rtasiga yetganda Manas bilan Do‘g‘o‘n bir-birini qochirishib, nayzalari bilan gavdaga urib ketishdi. Ikkovi teng otida qolib, qilt etmasdan nari chopib ketishdi.

Maydonning poyoniga yetgandan keyin ular otlarining boshini burishib, qaytadan bir-biriga intilishdi. Qo‘chqorday suzishib, to‘qmoqday qoqishib, ular nihoyatda jang qilishdi. Biroq ular bir-birini nayza bilan yenga olishmadi.

O‘shanda nayzalarini yerga irg‘itib, polvonlar qo‘llariga gurzilarini olishib, bir-biriga qarab ot solishdi. Yuzma-yuz kelganda Do‘g‘o‘n botir gurzisi bilan Manasning boshiga chopdi.

Manas uni qalqoni bilan qoqib yuborib, yonidan quvlik bilan o‘tib borayotgan Do‘g‘o‘nni qo‘lidagi oyboltasi bilan yuziga chopdi. Do‘g‘o‘n qalqonini qo‘yib, zarbadan omon qoldi. Bor kuchi bilan Do‘g‘o‘n Manasni qilichi bilan chopganda, Manas Achalbars bilan uni chetga qoqib yubordi.

O‘shandan keyin botirlar qilich bilan chopisha boshlashdi. Ko‘pga cho‘zilgan bellashuvda ular bir-birini yenga olmadi.

Polvonlar qilichlarini tashlab, miltiqlarini o‘qlashdi. Do‘g‘o‘n o‘z miltig‘idan, Manas Aqkeltedan otdi. Otilgan o‘qlar o‘rtada suzishib, aro yo‘lga tushdi.

Botirlar miltiqlariga qaytadan o‘qni solishib, bir-birining manglayi, boshi deb, tepki bosib turishdi. Qalqonlarini yopinsa ham, o‘qlar ikkovining teng boshiga tegdi. Ikkovidan birisi o‘ldi-ku deb, ko‘pchilik o‘ylab qoldi. Biroq bunday bo‘lgani yo‘q. Botirlar boshiga o‘q tegib, yarador bo‘lganiga qaramasdan, bir-biriga ot solishdi. Jahllanib, yoqalashib, oxirida yengishga o‘tishdi.

— Bularni ajratib qo‘yaylik! — deb qalmoqlardan ikki otchan chopib kelishdi.

Ularni ko‘rib, Qo‘sho‘y boshlagan yuz qirg‘iz polvonlar tomonga chopib ketishdi.

Buni ko‘rgan Qayip xon qo‘rqib ketdi.

— Yopirim! — qiyqirdi u. — Qirg‘izlarning yuz kishisi bizning Do‘g‘o‘n botirni o‘ldirib qo‘ymasin. Barchanglar hujumga!!!

Urushda turish yo‘q! Buyruqni bajarib, yuz ming xitoy qirg‘izlarga ot qo‘ydi. Bu yurish qirg‘izlarning tinchini oldi.

— Xitoyni Xudo urdi! — er Baqay hay-hay soldi. — Qoplangizlar ularni!!!

Ikki qo‘l bir-birini qochirib qoldi. Quturgan jadal boshlandi. Qop-qorong‘u tun bo‘ldi, dushmanlar bir-birini ko‘rmas kun bo‘ldi. Bir-birini sanchishib, bir-birini chopishib, otishib, to‘zoni tog‘day burildi, ikki askar epsiz qoldi. Otlarning o‘ligi undan ham ko‘p bo‘lib, aylana o‘kirik-baqiriq, qiy-chuvga to‘ldi. Egasiz qolgan otlar hurkib, kishnab, esini yo‘qotganday nari-beri chopishib, aylanada yanada kuchliroq aks sado berdi.

Manas bilan Do‘g‘o‘n bo‘lsa ikki qo‘lning hujumi boshlanganini payqamasdan, bir-birini qo‘yib yubormay, olishuvini davom ettirdi. Bellashuvning qizig‘i bilan ular askarlaridan bo‘linib, bo‘ylaridan qon to‘kildi. Hech qaysisi bo‘ysunishni xohlamay, chopishishni to‘xtatishmadi.

Dushmanini yenga olmaganiga izza bo‘lgan Manas Oqqulaga qamchisini qattiq solib, Do‘g‘o‘nni qochirdi. Dushmaniga yetganda uning belbog‘idan ushlab, otdan sug‘urib olib, do‘ppidek ko‘tarib, yerga urdi. Do‘g‘o‘n yerga tegib non bo‘lib, chor atrofi qon bo‘lib, ajal topdi.

“Uf! — og‘ir xo‘rsindi Manas. — Do‘g‘o‘nning polvonligi polvon ekan. Men bilan nihoyatda olishdi. O‘zini ham, meni ham ayamadi. Uni yengib olganimga Xudoga shukur!” — deb rozi bo‘lgan Manas Do‘g‘o‘nning Jambil otini yetaklab olib, qo‘liga qaytib bordi.

— Sovg‘a, botir, sovg‘a! — qiyqirdi uning oldini to‘sib chiqqan er To‘shtuk.

Manas unga Do‘g‘o‘nning otini ushlatib qo‘ydi. O‘zi bo‘lsa qon maydonga kirib, xitoylar bilan chopisha boshladi. U xitoylarga vayronlik solib, ostin-ustun qiyratdi.

Ko‘m-ko‘k temir kiyingan, qirq ming askarni boshlagan Qayip dang buni ko‘rgandan keyin “laylamaalahu!” — deb baqirib,

yoniga payqatmasdan kelib qolgan Manasga nayza soldi. Manas sunilgan nayzaning uchini tutib, Oqqulaga qamchi soldi. Qayipdan nayzasini sug'urib olib, askariga qarab chopib ketdi. Qayip yarog'ini qaytarib olish uchun otini qamchilab, Manasning ortidan quvib ketdi.

Quvg'ining qizig'i bilan Qayip qirg'izning qo'lining ichiga qanday kirib ketganini payqamay qoldi. Epchil Baqay Qayipga yetib, biqiniga nayza saydi. Havolangan dang yoydek qora otining ustidan shilq etib yerga qulab tushdi. Uni o'rnidan turg'izib qo'ymay, Quldurdun o'g'li Chaliboy o'ng qo'lidan, kuldiruvchi Abdilda chap qo'lidan olib, ko'pkari tortgan kimsaday, qalin qo'lining orasiga ko'tarib ketishdi.

Do'g'o'n botirdan, Qayip xondan ajragan xitoylarning hafsalasi pir bo'ldi. Boshchilari yo'q, ular kechga yaqin jadalni to'xtatishdi.

Ertasi kuni bo'lsa, yer yorishganda, qarshilashgan ikki tarafdan teng og'ir yo'qotishlar bo'lgani ayon bo'ldi. Askarlarning yotgan jasadi uzala tushgan qo'yday ko'rindi. Ustma-ust yig'ilganlarning o'ligi uyulgan toshday yotadi. Qirg'izlarning uch yuz ming yetti yuz askari qurbon bo'libdi. Xitoylarning o'ligi son-sanoqsiz. Shu sababdan ikki taraf teng urushni to'xtatib, odamlarining o'liklarini topib, ularni ko'mib yurdi.

Kech kirgandan keyin xitoylar qaytadan qayg'urib, shovqin-suron qila boshlashdi.

— Qanzaadadan, Duburo' xondan, boshqa boshchi, botirlarimizdan ayrildik. Endi nima qilamiz? Qanday omon qolamiz?! — yig'lashdi ular.

Oxirida xitoylar chekinib, Imalay tog'ga bet olib, panalab jo'nashdi. Qirg'izlarning qo'li ularni quvib jo'nadi. Oti yurmay, ortda qolganlarni olomon o'ldirib, otlarini olib olishdi.

Qirg'izlarning orasidagi manmansiragan, maqtanchoq bo'z bolalarga oqsoqollar pand berib turdi.

— Hovliqib, ilgari borma, chopma! — nasihat qilib borishdi ular. — Qochib bergan yovni ayol ham sayib oladi. Qo'qqisdan xitoyni quvib, ularning orasiga kirib borsang, ular qiya tortib yoy otsa, bekor o'lib ketasan!

Shunday qilib, qirg'izlarning qisuviga turish bera olmay, xitoylar Duqan shahrini tashlab, ikki yuz ming qo'li bilan

Asiro‘o‘-Maymun tog‘iga, jarlikka qarab qochishdi. Yurishga chiqqan to‘rt yuz ming xitoydan bor bo‘lgani yarimigina el-yurtiga qaytib keldi.

Ularning orasida Qayip dangning bolasi ham bor. U barchasiga “Otam o‘ldi, o‘zim ko‘rdim buni!” — deb ovoza qilib yurdi.

Ortidan quvgan qirg‘izlardan qochib, xitoylar tog‘dan oshib, cho‘ng o‘zanning bo‘yiga tushishdi. Askarlarning bunday qayg‘uli ahvolini ko‘rgan mahalliy el yosh-qari, ayol-bola demay, barchasi vahima bo‘lib, hurkishdi. Ularning tikilgan bo‘ydan uyi, tiyalgan bo‘ydan doni, yoyilgan bo‘ydan moli, bog‘lagan bo‘ydan toyi qoldi.

* * *

Qochgan ko‘ch Aq-Dang‘il jarligiga kelib to‘xtadi. Uni himoya qilish uchun qalmoqning askarlaridan uch yuz yasovul bo‘lindi. Ularni oson qochiramiz, deb borgan qirg‘izning oltmish navkari shahid ketdi.

Bunga nima sabab bo‘lganini bilish uchun kelgan Baqayning ko‘kragiga yoyning o‘qi tegdi. O‘qni kim otganini aniqlay boshlaganda xitoylarning ko‘chining so‘ngida turgan, sur yo‘rg‘a mingan, qunduzday sochi quyilgan, niholdek beli bo‘g‘ilgan, sof oltin to‘n kiyingan, dahshatli yoychan noma’lum qiz yoy otganligi ma’lum bo‘ldi. Qirg‘iz navkarlari unga yo‘lay olmay, ko‘ch oldiga borish uchun ko‘pi tizmaga chiqishdi. Qolgan navkarlar oldidagi xitoylik merganlarga yuzma-yuz borishdan qo‘rqib, to‘xtab qolishdi.

Shu payt ularning yoniga Oqqulani minib Manas keldi.

— Yigitlar, nima bo‘ldi? — achchiqlanib so‘radi u. — Nima uchun to‘xtab qoldinglar?

Unga uzun bo‘yli, keng yelkali, sariq yuzli Akimbek o‘g‘li Mengdiboy javob berdi:

— Botir! — dedi u. — O‘zing ko‘rganday, biz daraning ichida turamiz. Bizning qo‘l tomonidan dushmandan ko‘p ekanligimiz bu yerda hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi.

— Nimaga? — so‘radi Manas.

— Bizning oldimizda xitoyning uch yuz mergani turadi, — javob berdi Mengdiboy. — Ularning o‘ttizi qiz, qolgani erkaklar. Qizlar faqat kamon, erkaklari bo‘lsa miltiq bilan o‘q otishyapti.

Ular tor yerdan hech kimni o'tkazmay, mardlik qilib borganlarning barchasini qora yer bilan teng qildi. Ularning boshchisi — Qarabo'rk suluv.

— Qarabo'rk? U kim ekan? — hayron qoldi Manas.

— Surishtirsak, u Qayip dangning qizi bo'lib chiqdi. Uning o'qidan Baqay botir yarador bo'ldi.

— Baqay amakim yarador bo'ldimi? — cho'chib ketdi Manas.

— Ha, botir! — gunohkor boshini silkillatdi Mengdiboy.

Manas unga yana savol berguncha, ularning yoniga Baqay otchan bostirib keldi.

— Amaki! Sizga nima bo'ldi? Jarohatingiz og'irmi? — tinchsizlanib so'radi Manas undan.

— Xudoga shukur, hammasi joyida. Ahvolim hozir durust, — javob berdi Baqay.

— Sizga qanday qilib o'q tegdi, amaki? — yana so'radi Manas Baqaydan.

— Men qochgan yov bo'lak urishmaydi deb sovutimni kiymagan edim! — duduqlanib javob berdi Baqay. — Bu yerga kelganda, qaydan ekanligi belgisiz, menga yoyning o'qi kelib, ko'kragimga tegdi. Keyin bilsam, menga Qayip dangning qizi Qarabo'rk otibdi. Qizdan yarador bo'lganimga izza bo'lib, jarohatimni bog'latgandan keyin qurol-yarog'imni olib, o'ch olish uchun qayta keldim.

— Amaki, bu vazifani menga qo'yib beringiz! — dedi Baqayga ko'zi o'tday qizargan, o'rdakday bo'yni uzaygan Manas.

Amakisining javobini kutmasdan, Manas oldindagi Oqqulaga nihoyatda qattiq qamchi solib, xitoylarga nayzasini ko'tarib chopib ketdi.

— Yopirim, Manas, to'xta! — baqirdi Manas. — Behuda mayib bo'lma! O'zingni bos! Qayt ortga!!!

Manas uning so'zini uqmay, hech kimni ortidan yetkizmay, dushmanlarga yetib bordi. U yomg'irdan mo'lroq yoy tortib, jazoyil bilan to'p otdi. Manasning jahliga chidamay yalpi qalmoq qo'l qochdi. Manasga qarshi o'ttizta qizgina qoldi.

Ularning boshchisi Qarabo'rk qizlarini tashlab ketgani ko'zi qiymadi. O'zini nayza bilan saygani kelayotgan Manasni ko'rib,

Qarabo'rk qilichini olib, uning oldidan chiqdi. Manasni qilich bilan chopaman deganda, botir uning qo'lidan ushlab qoldi.

Chap qo'li bilan qizning otining tizginini olib, uni yo'lidan burgancha tortdi. Keyin qizdan qilichini, qurol-yarog'ini tortib oldi. Qarshilik ko'rsatganiga qaramasdan, Manas Qarabo'rkni egardan do'ppiday yulib olib, yerga yalpaytirib chopib, amakisi Baqayning o'chini olishga niyat qildi. Biroq Qarabo'rkning yuziga qarab, uning go'zalligini ko'rgan er azamat qizga bir zumda oshiq bo'ldi. Uzun kiprikli, ingichka burun, qalam qosh, marjonday tiniq tishli, qora sochli, oppoq yuzi yulduzli Qarabo'rk kimni bo'lsa ham suqlantiradigan parizoddan kam emas qiz. Uni ko'rganda yigirma ikkiga chiqquncha urg'ochiga ko'z solmagan Manas qizning suluvligiga asir bo'ldi.

Qarabo'rk bo'lsa Manasning bu ahvoliga hech qanday ko'ngil burmadi. O'zini notanish birov ushlaganiga nihoyatda uyaldi.

— Haqiqatan kuchli zot ekansan? — achchiqlandi qiz. — Anglab tursam, o'zing ham, oting ham boshqalardan ayrimalanib turadi. Haybating qattiq, zahri kuch bo'lgan sen kimsan?

— Men Jaqip boyning bolasi Manasman! — arang javob berdi botir. — Ilk urug'im alashman, tubim turkning o'g'liman. Sen kimsan? O'ttiz navkar qizing bor ekan. O'q yog'dirib, yoy tortib, navkarlarimning barchasini charchatibsan. Buning ozlik qilganday, amakim Baqayni yarador qilibsan.

Qarabo'rk Manasning ismini eshitganda seskanib tushdi.

— Bizning elimizning botirini sho deydi, — javob berdi qiz. — Joy olgan yerimiz Sangiro'o'. Otam — Qayip dang. Oltmish mingdan ortiq qalmoq xitoy elimiz. Biz to'rt otadan beri hech kimga yengdirmay kelgan el edik. Bugungina sizlardan yengilib, barchamiz qochishga majbur bo'ldik.

— To'g'ri! — faxrlanib dedi Manas. — Hech kim yenga olmagan sizlarning yaksoninglarni biz chiqardik.

— To'g'ri aytasan, botir! — kayfi o'chgancha dedi qiz. — Biroq sen ko'pam shodlanaverma. Agarda meni ayol qilib olaman degan niyating bo'lsa, bundan eson-omonligingda qaytgin!

— Nega? — hayron qoldi Manas.

— Sababi sen mening otamni o'ldirding! — achchiq qiyqirdi qiz. — Buni og'am aytib keldi. Shu boisdan mendan umid qilma!!! Men senga o'lja ayol emasman. Sen bilan yuradigan qiz ham emasman.

Agarda zo'rlik bilan meni ayollikka olsang, bir kuni nogoh qorningni yorib ketaman! Yo ovqatingga og'u solaman!!!

— Urg'ochining erga tegishi — azaldan ma'lum! — vazmin javob berdi Manas. — Biroq men jonidan to'yganlardan emasman. Shunday g'azablanib, mag'rur bo'lib tik qarasang, seni o'ldirib tashlashga majbur bo'laman!

— Otamni o'ldirgan senga ayol bo'lguncha o'lganim yaxshi! — tap tortmasdan so'zladi Qarabo'rk.

Qizning so'zlari Manasning achchig'ini keltirdi. Uni o'ldirish uchun Manas qilichini qinidan sug'urib olib, uni siltashga tayyorlandi.

Buni pastda turgan Baqay ko'rib qoldi.

— Alloh bergan nasib ekan, g'azotda yuramiz! — qiyqirdi u qirg'oqning ustki yog'ida turgan Manasga. — Shariat bo'yicha o'ljaga tushgan qizlarni qilich bilan chopishga ruxsat yo'q!

Amakisining so'zini uqqan Manas qilichini qiniga soldi.

— Johillanib o'laman deb, kimga o'chashding? — so'radi u qizdan.

— Senga!!! — yanada battar g'azablandi Qarabo'rk.

— Nimaga. Men senga nima yomonlik qildim?

— Agarda meni chindan ayollikka olaman deb niyat qilganingda, qo'lga tushgan otamni o'ldirmagan bo'larding! — achchiq qilib javob berdi Qarabo'rk suluv. — Sen chinakam arslonlardan bo'lganingda, bunday qilmagan bo'larding! Qo'lga tushgan erni o'ldirgan tubi yomon yurtdan ekansan. Otam sizlar bilan chopishib, qon maydonda o'qdan o'lsa, taqdiri shunday ekan deb, jim bo'lar edim. Biroq sizlar uni asirga olib, qo'rqoqlarcha ko'plashib o'ldirdinglar. Shu sababdan meni aldab, ayol qilib olaman deb, mendan hech umid qilma. Sen mening tengim emassan! Senga xotin bo'lib, tirik yurar kishilardan emasman! — ko'zlari bilan teshib qaradi Manasga Qarabo'rk.

Qizga nima deb javob qaytarishni bilmay, boshi karaxt bo'lgan Manas uni yetaklab, soylikdagi amakisi Baqayga bordi.

— Ushlaganing qutlug‘ bo‘lsin! — shonli so‘zladi unga peshvoz chiqqan Akimbek o‘g‘li Mengdiboy.

Unga hech narsa deb javob bermasdan, Manas atrofga ko‘z yugurtirdi. Qirg‘izlar qalmoqlarning qochishini to‘lig‘i bilan to‘xtatib, harbiy odatga ko‘ra o‘ljaga olib, sho‘rini qurityapti. Askarlarning ba’zi birlari o‘ljaga qizlarni tanlab yursa, boshqalari tuya, qulun, biyalarni ushlab yurishadi. Uchinchilari mol, qo‘ylarni bo‘lisha olmay ovora.

Elining bo‘zlab, yig‘lab turganini ko‘rgan Qarabo‘rkning o‘kinchdan ko‘zlaridan beixtiyor yosh quyildi. Ho‘ngrab yig‘lab yubormaslik uchun labini qattiq tishladi. Biroq Baqayning yoniga kelgan tutqunlarning orasida onasini ko‘rganda uning ko‘zlari chanog‘idan chiqib ketayozdi.

— Ona, onajon!!! — ovozi yetgancha qiyqirdi Qarabo‘rk. — Sen asir bo‘ldingmi?!

Qizini ko‘rgan ona bo‘zlab yig‘lab yubordi.

— Chirog‘im bolam!!! — o‘ngachini tortdi u. — Senga nima bo‘ldi?! Qo‘lga tushib, xor bo‘lib, o‘lja bo‘lib ketdingmi? Men seni uch og‘ang kabi qochib ketganga ulgurdi deb suyunmaganmidim? Qarasam, sen menga o‘xshab, qo‘lga tushgan ekansan-da, oltinim?! — boyoqish ena kuyutdan yerni larzaga keltirib chinqirdi.

Enasining so‘zlaridan yig‘lagisi kelgan Qarabo‘rk o‘zini arang tutib qoldi.

— Yo‘q, ona! — tund so‘zladi u. — Men hech qachon, hech kimga o‘lja bo‘lmayman! Bundan ko‘ra o‘lganim ortiq!!!

Qizining so‘zlarini uqqan enaning yoshi darrov bosildi.

— Unday dema, bolam! — yumshoq so‘zladi u qiziga. — Bunday yo‘riqni boshlaganing bo‘lmaydi. Erkak tutib, qizni olgan — azaldan qolgan o‘rnak. Tirik yurgan banda oxiri talabiga yetadi. Agarda o‘chakishadigan bo‘lsang, o‘zingni xo‘rlab, qalmoqdan kelgan bir kun deb o‘ldirib, qirg‘izlar seni kimsasiz dashtga tashlab ketadi!

— Unda nima qilay? — jinini arang tiyib so‘radi Qarabo‘rk.

U onasining suv yurakligiga bir cheti achchiqlanib, bir cheti hijolat chekdi.

— Tilimni uqsang, o‘lma, bolam! — qat’iy javob berdi onasi. — Seni qirg‘izlardan kim ushladi, qizim?

— Manas! — javob berdi qiz.

— U seni nima qilar ekan?

— Menga uylanaman deyapti. Biroq men unga hech qachon xotin bo'lmayman! — qat'iyat bilan so'zladi Qarabo'rk.

— Bolam! — yumshatib so'zladi qizini onasi. — Men aytgan so'zga ko'nsang, Manasning so'ziga rozi bo'l, unga tegib ol. Seni munosib yigit, qirg'izlarning podshosi ushlabdi. O'laman deb qo'rqitmay, uning hukmiga izn ber, qizim!

— Yo'q, ona, men bundayga bormayman! — keskin javob berdi qiz. — Manas senga agarda yoqib qolsa, unga o'zing tegib ol! — qattiq tegdi onasiga Qarabo'rk.

— Eh, bolam, menday kampirning kimga keragi bor! — chorasizlikdan kuldi ona. — O'ladigan otang o'ldi. Olaman desa, men ham bularning biriga tegar edim. Qarib qolgan ayol, g'ijillagan kofir deb, meni olar kishi yo'q!

Bu so'zlarga atrofdagilarning barchasi duv etib kulib yuborishdi. Qarabo'rk ham arang kulgusini tiyib, onasiga surli qaradi.

— Yo'q, ona! — dedi u. — Men Manasga tegmayman. Qishlog'imni buzgan, otamni, tullarni o'ldirgan tagsiz odamga hech qachon xotin bo'lmayman!!!

Qizining jonini eplab omon qoldirish harakatida bo'lgan sho'rlik ona nima deb javob berishini bilmay, turib qoldi. Qizi o'z so'zidan qaytmay turganligi uning keskin alpozidan payqalib turdi. Bunday bo'lgan paytda u dushmanlarga xor bo'lib, o'ligi kimsasiz biyobonda qolishi ochiq-oydin edi.

Shu payt chor atrofga qiy-chuv solib, hayqirig'i bosh yorib, Manasning yoniga o'rta bo'yli, keng yelkali, xushchiroy epchil botir Chalibay chopib keldi.

— Ushlagan qizing qayda? — yuzlandi u Manasga.

— Mana! — Manas qo'lini chayqab, yonidagi Qarabo'rkni Chalibayga ko'rsatdi.

Qizga tikilib, Chalibay qizning go'zalligidan nihoyatda lol qoldi.

— Ushlagan qizing parining o'zi ekan-ku! — suqlanib so'zladi u. U qanday jonning qizi ekan?

— O'lib ketgan Qayip dangning qizi! — Manasdan o'zib javob berdi Baqay.

— Nima?! — hayron qoldi Chalibay. — Qayip dang qachon o'ldi?

— Biz uni ushlagan kuni, — javob berdi Baqay.

— Ha-a, shunday demaysizlarmi?! — kuldi Chalibay. — Men bu yerga kelguncha u o'lib qoldimi deb cho'chib ketmadimmi?!

— Bu nima deganing? — o'z navbatida hayron qoldi Manas. — Qayip dang tirikmi?!

— Tirik bo'lmaganda, nima bo'lar edi?! — yana qiqirladi Chalibay. — Qo'lga tushgandan keyin uni o'zimizning qo'shga qo'shib oldik. Bu tugul xonlik hurmatini qilib, uni bog'lagan ham emasmiz. U bo'shgina yuradi.

Otasining tirik ekanligini uqqan Qarabo'rk otidan sakrab tushdi. Ko'zining yoshini do'l kabi to'kib, Manasning oyog'ini quchoqlab yukindi.

— Botir! Ko'p xatolik qildim. Meni kechir! Senga dilimni berdim. Biroq otam tirik bo'lsa, uni menga ko'rsat!!! — qiz ho'ngrab yig'lab yubordi.

Kuyovining tirik ekanligini uqqan boyvuchcha quvonganidan chuqur xo'rsindi.

— Boyim tirik bo'lsa meniki! — iltijoli qaradi u Manasga. — Qanishim mening yolg'iz qizim. U senga munosib. Uni olgin. Agarda senga oq xizmat qilishga ayansa, qirchiningda sinsin!

Yuz berayotgan voqealarga Manas beixtiyor tang qoldi.

— Buning kuyovi qayda? — so'radi u Chalibaydan.

— Uni qo'shda ko'rdik, zo'rlik ko'rmasdan tirik yotibdi! — javob berdi Chalibay.

— Qo'shga ildam qaytib bor! — buyurdi Manas. — Qayip dangni tez olib kel.

— Xo'p bo'ladi, botir! — deb Chalibay qo'shiga chopib ketdi.

O'shandan keyin Baqay botir qirg'izning qo'liga jar solib:

— So'yishdan ortiq mol so'ymanglar! Qalmoq, xitoylarni uruntirib qo'ymangizlar. Ularning uvoliga qolmangizlar. Ular ham Xudoning bandasi. O'zlari bersa, o'lchamga loyiq mol olinglar! — qiyqirdi u barchaga ovoza qilib.

Mana shu farmonga muvofiq, talab to'nash to'xtadi. El bo'lsa dushmanlar bilan aralashib, Keng-o'zan tog'iga borib, qo'nib

olishdi. Qalmoqlarga mol so'ydirdi, o'zlarini qozonchi qilib, qirg'izlar o'zini qadimgi mehmonlarday his etib, dam olishdi.

Ertasi kuni oqshomda Chalibay olti yigiti bilan Qayip dangni qora otga mindirib, Manasga olib keldi. Uning yonida Qarabo'rk qizi bilan boyvuchchasi o'tirganini ko'rgan Qayip dang Manasga qalmoqcha salom berdi:

— Mo'ngdu!

— Bayna! — quvonganidan o'rnidan turib ketib, qalmoqcha javob berdi Manas.

— O'tir, o'tir, bolam! — Qayip dang Manasni qaytib o'rniga o'tqazishdi.

— Nima bo'lganda ham Qarabo'rk suluvni olding! — qiqirlab kuldi Baqay. — Qayip xon "mo'ngdu!" deganda, shoshganingdan "bayna"ni aytib, qora jonga kuch kelib, qoplon botirim, qalmoq bo'la qolding.

Atrofdagilarning barchasi duv etib kulib yuborishdi. Kulgi bosilgandan keyin Qayip dang xizmatkorlariga buyruq berib, uy ko'tarib, toy so'ydi. Boyvuchchasi bilan maslahatlashib, Qarabo'rkni Manasga xotinlikka berishga rozi bo'ldi.

Shundan keyin Qayip to'yga tayyorlana boshladi. Barcha hozirliklar bitgandan keyin nikoh o'qilib, Manas bilan Qarabo'rk uylanishdi.

Qayip dangni qaytadan xon qilib, Manas qaynotasining yurtida mehmon bo'lib turdi. Uch oydan so'ng qalmoqlardan tushgan o'ljasiga Qarabo'rkning sepini qo'shib, Manas xotini, qo'li bilan Oltoyga, otasi Jaqipga jo'nadi. Sakkiz yarim kun deganda yurtiga yetib, Qarabo'rk bilan yashay boshladi.

Qarabo'rk odobli, aqlli qiz bo'lganligidan qayin yurtining qutiga qut qo'shildi. Manasning tug'ishganlari uning Baqayga qilgan o'zgacha muomalasiga nihoyatda rozi bo'lishdi. Qaynog'asini otib yarador qilgani uchun pushaymon bo'lgan Qarabo'rk Baqayni ko'rganda chidab qarab tura olmay, qochib ketar edi. Uni ko'rgan sayin, qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilardi.

— Boy bo'l, bolam, boy bo'l! — rozi bo'ldi Baqay Qarabo'rk ilk bor unga salom berganida. — O'g'il tug'gin, bolam! — kaftini yozib, chin ko'ngildan keliniga fatvosini berdi.

O‘shandan buyon qirg‘izlarda yangi kelinlarning qaynog‘asidan qochishi odat bo‘lib qoldi.

IX. Jaqip elni to‘plab, Oltoydan Andijonga ko‘chaylik deb aytgani

Manas botir Oltoyga qaytib kelgandan keyin turmush o‘z maromida o‘taverdi. Odobli, yaxshi kelinlik bo‘lganiga Jaqip boy bilan Chiyirdi o‘ziga sig‘may yurishdi. Qariganda ko‘rgan bolasining xotinining qo‘lidan taom totib, ehtirom ko‘rganiga Jaqip nihoyatda quvonib, kayfiyati chog‘ bo‘ldi. Ammo uning yuragini bir savol o‘yib, afsuslantirib turdi.

“Xudoga shukur!” — uyqusiz tunlarda to‘shakda o‘ylanib yotdi u. — Manas bolam uylanib, bitta boshi ikkita bo‘ldi. Mana shunday kunlarga meni yetkazganiga Alloh taologa cheksiz minnatdorman! Endi kelin bolam meni nabirali qilsa, bu dunyodan armoni yo‘q o‘tar edim. Biroq dushmanlarimiz bizning shunday baxtli bo‘lib yashaganimizga ko‘nisharmikan? Shuncha askarini o‘ldirib tashlagandan keyin ular bizdan o‘ch olmay, jim yotaveradi deb kim kafillik bera oladi? Hech kim! — o‘zining savoliga o‘zi javob berdi Jaqip. — Ular bizga qo‘l solmaydi deb o‘ylashning o‘zi ahmoqlik! Shu boisdan, qalmoq, xitoylardan birato‘la qutulish, elni omon saqlab qolish uchun ota-bobomizning makoniga, Olatog‘ga ko‘chib ketish kerak. Biz bu yerda ozmiz. Olatog‘da bo‘lsa bizga mador, suyanch bo‘ladigan qalin qirg‘iz elimiz bor!”

Qish o‘tib, bahor kelgandan keyin Jaqip o‘yini ishga oshira boshladi. Xalqiga xabar berib, donishmandlarni majlisga chaqirdi. Belgilangan kuni Oqbolta, Berdike boshlagan oqsoqollarning barchasi uning yoniga kelishdi.

— Hurmatli xaloyiq—xalq! — uning bo‘z uyiga to‘planganlarning shivir-shiviri to‘xtagandan keyin so‘zini boshladi Jaqip. — Esinglardami, otam O‘razli o‘lganda bizni xitoy, qalmoq bosib olib, barchamizni har qaysi tarafga kaklikday tarqatgan edi. Birimiz ketdik Erenga, birimiz tushdik teranga. Birimiz ketdi Qang‘ayga, birimiz kelib tiqildik, mana u qora qalmoq Oltoyga!

— To‘g‘ri, Jaqip! — og‘ir xo‘rsindi Oqbolta. — U qayg‘uli kunlarni hech kim unutgani yo‘q. Ularni eslasam, hozir ham jig‘ibiyron bo‘lib ketaman.

— To‘g‘ri, biz o‘shanda nihoyatda xor bo‘ldik! — boshini tebratdi Jaqip. Ota bolaga, ena qizga zor bo‘ldi. Bunday kunlarning yuzini Xudo bizdan nari qilsin!

Uyda bir lahza sukunat hukm surdi. Barchasi boshidan o‘tganlarni eslab, ichidan siqilib, qayg‘urib o‘tirishdi. Jimlikni qaytadan Jaqip o‘zi buzdi.

— Bizning boshimizga o‘sha kunlar qaytib tushmasa ekan deb Xudodan so‘rangan edim! — dedi u. — Baxtga qarshi, oxirgi paytda ahvolimiz og‘irlashib ketdi. Biz qalmoq, manjuga o‘chakishib, arining uyasini qo‘zg‘ab qo‘ydik. To‘g‘ri, barchamiz ko‘pdan buyon qo‘msab kutgan Manas o‘chimizni olib, ularning talayining ta’zirini berdi. Uch yarim yil dushmanlar bilan urushib, qirg‘izning nomusini himoya qildi. Shuning hammasini hisobga olsak, Oltoyda turishimiz murakkab bo‘lib qoldi.

— Ha! — ko‘ndi Oqbolta. — Bu — shubhasiz so‘z. Agarda ular bizga hamjihatlikda qo‘l solsa, choramizni topmay qolishimiz mumkin. Biz ulardan allaqancha ozmiz.

— To‘g‘ri! Bu Oltoyda yerimiz yo‘q. Yuzma-yuz solishsak, belga belbog‘ bo‘ladigan qirg‘iz elimiz yo‘q! Shu boisdan, mening o‘yimcha, biz qayta Olatog‘ga ko‘chib ketishimiz kerak. Sizlar bu fikrga nima deysizlar?! — Jaqip o‘tirganlarga savol bilan qaradi.

— Parvardigor Xudo-yey! — qayg‘uli boshini chayqadi Berdike. — Barchasini daf qilding, Jaqip! Sen mo‘g‘ulga, xitoyga qo‘nib yurib, ulardan nihoyatda qo‘rqib qolibsan, boy!

— Men hech kimdan qo‘rqqanim yo‘q! — xijolat bo‘ldi Jaqip. — Bor-yo‘g‘i men elu yurtimiz xavfsiz yerda bo‘lsin degan o‘yimni aytyapman, xolos. Ehtiyotkorlikda xo‘rlik yo‘q. Xavfsizlik choralarini oldindanoq ko‘rgan el hech vaqtda kam bo‘lmaydi!

— Rost, kam bo‘lmaydi! — un chiqardi Berdike. — Maqol bilan gapirib qolding, boy. Men ham maqol bilan senga javob beray. Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinadi! Zag‘izg‘on xushyorligidan o‘lmaydi, suqligidan o‘ladi!

— Balkim, men qo‘rqsam qo‘rqayotgandirman! — achchig‘i kelganini yashira olmay javob berdi Jaqip. — Biroq men hech

qanday suq zag'izg'on emasman. Shu boisdan, o'ynasang ham o'ylab gapir, Berdike!

— Menga bunday sakrayverishning keragi yo'q! — o'z navbatida achchiqlana boshladi Berdike. — Seng chichanglama! Chichanglagan chin bo'lar. Seni bekordan suq zag'izg'on deganim yo'q. Mana shu taklifni kiritib, bu yerdan Olayga ko'chib, hisobsiz molingni saqlashga harakat qilayotganingni aytmasang ham bari tushunib turishibdi. Olis yo'lda molingning yarmi qirilib ketsa-da, senda baribir son-sanoqsiz chorva qoladi. U holda moli oz gadoylarning holi ne kechadi? Biroz molidan ayrilib qolsa, ular qanday qilib tirikchilik o'tkazadi? Sen bu haqda o'ylandingmi, boy?!

— Men aynan o'shalarni o'ylaganim uchun mana shu taklifni beryapman! — bo'yin bermadi Jaqip. — Agarda qalmoq, xitoylar qo'l solsa, sen aytgan gadoylargina emas, menga o'xshagan boylar ham mol-u jonidan ayriladi! Sen elingga shuni xohlaysanmi?! — teshib tikildi Berdikega Jaqip.

— Yo'q! — keskin javob berdi Berdike. — Men buni xohlamayman. Biroq sening so'zingga mutlaqo qo'shila olmayman.

— Nega?

— Xitoyga tegib qo'ydik deb, biz qayerga vahimaga tushib qochamiz?

— Men aytdim-ku — Anjiyanga, Alayga.

— Qarasang buni — Anjiyan bilan Alayni qo'msab qolibdi! — masxaraomuz kuldi Berdike. — Hozir u yerlarni Aloke boshqarib turganini bilasanmi?

— Bilaman!

— Aloke hozir bizga yomon yov! Uni bizning yengishimiz shubha-gumon. Buning ikkita sababi bor. Birinchidan, uning askari haddan ziyod ko'p. Ikkinchidan, biz Alokega boradigan bo'lsak, Anjiyan bilan Qashg'arning orasida oshuvi baland, yeri tik qiyin ulug' tog' bor. Biz uni oshib o'tamiz deb, xonumonimizni topolmay qolamiz. Shu sababdan bu yerdan ko'chaylik degan so'zni to'xtataylik, birodarlar! — deb Berdike so'zini tugatdi.

Uning gapini "to'g'ri emas, bo'lmagan gap!" — degan hech kim bo'lmadi.

— Mening taklifimga kimning yana qanday o'yi bor? — murojaat qildi yig'ilganlarga Jaqip.

— Men o‘z fikrimni aytay! — elning oldiga chiqdi Boyjigit. — “Mo‘ylov bor yerda soqol ham bo‘ladi!” — degan xalqimizda maqol bor. Boy Jaqip bizga yomon so‘z aytgani yo‘q. U elimizni kulfatdan saqlab qolaylik deb, ataylab hammamizni o‘ziga chaqirdi. Buni to‘g‘ri tushunib, birgalikda qaror qabul qilishimiz kerak. Aks holda g‘ijinglashgan xitoyga yem bo‘lamiz. Sonsiz xitoy qo‘l kelsa, qirg‘in topib qolmaylik! Bir xiyla elning O‘ro‘lning uzun tog‘iga yaqin borsak degan gapi bor. Shuning barchasi bo‘yicha maslahatlashib, bundan nari nima qilish kerakligi to‘g‘risida oldindanoq o‘ylanib olganimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi!

— Taklifimni qo‘llab berganing uchun rahmat, Boyjigit! — rozi bo‘ldi Jaqip. — Qirg‘izlarning o‘yini hammamiz eshitdik. Qozoq birodarlarimiz bu savol bo‘yicha qanday fikrda? — murojaat qildi u Aydarxonga.

— Taklif bo‘yicha bizning o‘yimiz bunday! — o‘ktam javob berdi Aydarxon. — Qarab tursam, boshdan oyoq baringlar, xon Jaqip boshlab qaringlar, g‘ayratni tashlab qo‘yibsizlar! “Qochamiz, hurkamiz!” — degandan boshqa gapni aytmay turibsizlar. Sizlarga yana nima kerak? Sizlarni kim qirib yuboraman deyapti? Qaysi xitoy kelib, qoqib yeyman demoqda? Qirg‘iz, qozoq yig‘ilib, bugun g‘ijillab ne ko‘rdik? Shunday deya o‘tirsak-da loyda joy olish bo‘lar. Tug‘ilmoq bor, o‘lmoq bor, yaxshilik bilan yomonlikni ko‘z o‘ngingda ko‘rmoq bor. Omonat bergan quv jonni, ajal yetsa bermoq bor!

— Anglanglar-chi, bolalar! — gapga aralashdi Oqbolta. — O‘zimizni o‘zimiz kamsitib, ko‘ringandan qo‘rqaverganimiz to‘g‘ri emas. Qaranglar-chi, o‘ncho‘y, alash bolalarining joylashgan yerlarini! O‘rta yeri ochilib, pastga-tog‘ga sochilib, poyoni Namut bo‘yida. Boshin ko‘rsang mana bu, Oltoy tog‘dan yuqori Angirtining quyinda. To‘g‘ri, O‘razli o‘lgandan keyin qalmoqlarga yengilib, noilojlikdan Oltoyga surilib keldik. Shu boisdan “xushyor bo‘lsak!” — degan so‘zinglar asli o‘rinli aytilib turar! — Oqbolta og‘zin yopguncha, Manas, Ko‘kcha, Jamg‘irchi, Abdilda, Bo‘lo‘t, Shaqum, Aynaqul yettovlon majlisga yetib kelishdi.

Manasning Alayga ko‘chish bo‘yicha niyati bor ekanini avvaldan bilishgan oqsoqollar “mushkulotga qoldik!” — deb ikkilanib qolishdi.

Bundan xabari yo‘q Manas ko‘p el to‘planib turganiga lol qodi.

— Otajon! — yuzlandi u Jaqipga. — Og‘a-inilaringiz oldingizga qachon keldi?

— Kecha keldi! — javob berdi Jaqip.

— Ularni kim chaqirdi? — yana so‘radi Manas.

— Hammasini men chaqirtirdim! Sening chivinday joningni Alloh taolo omon qo‘ysin, bolam!

Shuncha elni otasi nima uchun chaqirtirib olganligini ayttirmay tushungan Manas indamasdan o‘z uyiga bordi. Yilqichilarning boshchisi Iyman bilan O‘sko‘nboyni o‘ziga tez kelishini buyurdi.

Ular kelgandan keyin Manas yilqichilarga buyruq berdi:

— Tezroq borib, yilqidan o‘n ikki baytal olinglar! Qambarbo‘zning uyuridan ikkidan birini so‘yinglar. Dardman emas, sog‘idan, qorasi emas, oqidan birni olinglar!

Iyman bilan O‘sko‘nboy yilqiga jo‘nab ketgandan keyin Manas yig‘indagilarning barchasini o‘ziga chaqirtirib oldi. Bahor bo‘lganligidan, achigan qimiz oz. Manas olti azamatni choptirib, olti yuz meshda qimizni toptirdi. Qishloqdagilarning birini ham qoldirmay, mehmonga chaqirdi.

Ko‘k ola maydon o‘tloqqa dasturxon soldirib, Manas mehmonlarin siylay boshladi. Ular qimizni xohlagancha ichib, sariq qazi, qiyma jalg‘a*, oppoq moyga juda to‘yishdi.

O‘shanda Manas kelib, ularga murojaat qildi:

— Hoy, og‘a-ini, yurtim! Otajonim barchanglarni yig‘ib, somtiratib, evi yo‘q ish qilibdi. Biroq uning maqsadi maqtovga arzigulik — sizlarni kulfatdan saqlash! Bir necha yildan beri xitoylar bilan chopishib, ularga yengdirmay kelayotirmiz. Qanchalagan yerlarimizni bo‘shatib oldik. Buning bari dushmanlarimizning g‘ashini keltirmoqda. Ular qo‘lidan kelsa, bizni tirik qoldirish niyati yo‘q. Xitoylarning menga o‘xshagan yigirma to‘rtga chiqqan yoshlarni, otamday qartaygan chollarni yer quchoqlatsam deyishga ikki ko‘zi to‘rt!

— Sen buni birovdan uqdingmi yo o‘zing taxmin qilyapsanmi? — kinoya bilan so‘radi Manasdan Berdike.

— Yo‘q! — teskari boshini chayqadi Manas. — Bu mening taxminim emas. Men bu gapni O‘shpirdan eshitdim. Ters-Suudagi Tekes xon “bosh yoqni bulut oldi. Shu ishni paysalga solmay, ularni yakson qilaylik” — deb Kenges sehrgarini Kemen jang-jungga yuboribdi. Tekesdan tashqari, Ker-Ko‘lda hech kim yenga olmagan O‘rg‘o‘ xon yashaydi. Uning oz bo‘lganda oltmish ming askari bor deyishadi. Ular birikib, bizga keladigan bo‘lsa, taqdirimiz nima bo‘ladi? Yo yalinib, kechirim so‘rasak, ular jonimizni omon qoldiradi deb o‘ylayapsizlarmi?! — Manas o‘tirganlarga shu savollar bilan murojaat qildi.

Uning o‘rinli so‘zlariga javob topa olmay, barchasi shalpayib o‘tirib qolishdi. Endi qalmoq, xitoylar qirg‘izlarni hech qachon kechirmasligini hamma nihoyatda chiroyli tushunib turishdi. Ular xohlasa ham, xohlamasa ham urush ertaga bo‘lmasa, indinga boshlanishi oydek ayon.

— Hech kim xitoylar bizni ayab qo‘yadi deb o‘ylagan yeri yo‘q! — yig‘ilganlar indamay o‘tirganligidan Manasning savoliga noiloj javob berdi Boyjigit. — Ular bizning el bo‘lmas dushmanimizga aylanganini hammamiz tushunib turibmiz.

— Tushunsanglar, u holda nega yaltoqlanib o‘tiribsizlar? — qizishdi Manas. — Besh oychalik Bejindagi Esonxon o‘ta qiyin deb, nega undan qo‘rqib yotibsizlar? U axir odammi yo pari devmi? Jang qilib olgandan keyin jonni ayagandan ne foyda?

— Bu aytganlaring ham to‘g‘ri! — uni yumshatgan kuyi javob berdi Berdike. — Sening taklifing qanday? — chorasiz qaradi Manasga u.

— Biz Oltoyda turmasdan, ulkan qo‘l to‘playlik! — o‘yi bilan bo‘lishdi Manas. — Otishmadan bosh tortmay, ota yo‘lin tutaylik. Omonat jonimiz chiqquncha, nomus yo‘lin quvaylik. Otadan qolgan yerimizni olti oyda xitoydan qayta tortib olaylik. Ota-yurtni oldirib, qiyomatda yurguncha, qirg‘iz o‘g‘li bo‘lmoq-chun qirilib yotib qolaylik!!!

Qiziqarli muhokamadan keyin donishmandlar Manasning so‘ziga ko‘nib, qalmoq, xitoylarga hujumga otlanish uchun qo‘shin to‘plashga rozi bo‘lishdi.

Yig‘indan keyin barchasi yana ikki kun Manasning mehmoni bo‘lishdi. Ularni siylash uchun Manas ellikta yilqi so‘ydi. Sariq

qazi, yol berib, qimizga chayqab bol berib, barchasini qondirdi. Elning bari uning saxiyligiga, qo'li ochiqligiga rozi bo'lishdi.

Mehmonlarni kuzatayotib, Manas ularga shunday deb murojaat qildi:

— Mening taklifimni qo'llab berganinglar uchun rahmat, birodarlar! Unday bo'lsa tarqalinglar barchanglar. Besh kundan qolmay, Alayga ketishga shaylaninglar. Barcha eryurak yigitlar, polvonlar yurishga tayyorlansin. Eng zo'rlarning birontasi qolmasin. Bozg'on chopgan ustalar bexabar yotib qolmasin. Bobomdan qolgan yerni olaman deb, bor yarog'in shaylasin! Meni o'ynayapti deb o'ylamanlar. Qiyshanglamay baringlar yo'lga chiqinglar. Uqdinglarmi barchanglar, ulug'-kichik qarilar? — deb qahrlanib, Manas xalqning hammasini tarqatdi.

Yig'ilishda qatnashganlar so'zida turishdi. Besh kundan keyin sakkiz yuz ming qo'l Manasning oldiga keldi. Oltoyning cheksiz dalasi kelgan askar bilan liq to'ldi. Manas ularnig orasidan arvoq qursoq chollarin, fe'li zaif bollarin, yarasi bor mayibin, til chiqmagan dudug'in, qulog'i yo'q karlarin, ko'zi ojiz ko'rlarin, ko'ngli to'lmas adosin, oyog'i mayib cho'log'in, aytishgan gapga no'nog'in — hammasi bo'lib ikki yuz ming odamni askaridan chiqarib, uylariga qaytardi. Qolgan olti yuz ming qo'l bilan Manas Naamanni ko'zlab yo'l tortib, Turkistonga qarab bet oldi.

X. Manasning Tekes xonni yenggani

Manas botirning yig'ilgan elga Tekes xon haqida aytganlarining barchasi haqiqat edi. Tekes qirg'izlarning g'alabalariga achchig'i kelib, ularga qarshi qo'l to'play boshladi. Manasning askari Oltoydan Olatovga qarab yo'lga chiqqanda, qalmoqlarning qo'lini to'plash qizg'in davom etayotgan kez edi.

Hadeganda o'rta bo'yli, oq yuzli, to'ladan kelgan Tekes qirg'izlardan juda hayiqdi. Biroq oldiga to'plangan minglagan navkarlarning haybatli qiyofasini ko'rganda ko'ngli o'rniga tushdi. Shuncha qo'l bilan kimni bo'lsa ham yenga olishiga birato'la ishonib qoldi.

Dushmanlarini qanday qilib yo‘q qilish yo‘llarini o‘ylab, bo‘z uyida astoydil qimiz ichib o‘tirgan Tekesning o‘yini to‘satdan kechki payt Qultang botir buzdi. Uzun bo‘yli, qora sochli, keng gavdali, sariq yuzli qalmoq Tekesning yoniga o‘tirdi.

— Shunchaki keldingmi yonimga, Qultang botir? — savol bilan tikildi mehmoniga Tekes.

— Qaydan deysiz, Tekes xonim! — qayg‘uli javob berdi Qultang. — Uch-Turpandagi Qara-Suu qal’amdan sizning yoningizga, Ters-Maega qochib keldim.

— Bo‘tam, bunchalar sening yuragingni kim tushirdi? — Kel, sening tanglayingni ko‘tarib qo‘yay?! — hazillashib kuldi Tekes.

— Masxara qilmang meni, xon! — qovog‘ini uydi Qultang. — Siz yaxshi bilasiz — men uncha-muncha odamdan qochmayman. Hamla qilganning barchasining ta’zirini beraman. Biroq bu safar yerimdan qochishga to‘g‘ri keldi. Sababi bizga oyon Manas kelmoqda ekan.

— Manas deganing kim? — kerilib so‘radi Tekes.

— Uning cho‘ng otasi O‘razli xon, bebosh bo‘lgan bir jon! — javob berdi Qultang. — Urug‘i qirg‘iz alashdan, uyg‘urlikning barisi urishib o‘ldik Manasdan! Shaylanmasak, quridik, xabarga kelib turibman, yolg‘oni yo‘q bunimning! Ertalab barchasiga xabar bermasang, elikni yig‘ib olmasang, barchamizning sho‘rimiz qaynar! Manas barchamizni joylar! — Qultang Tekesning oyog‘ini quchoqlab, yig‘lab yubordi.

Buni ko‘rgan Tekesning esi og‘di.

— Sening qo‘rqib-titraganingga qaraganda, qiyinroq bo‘lganmi deyman, qirg‘izlarning Manasi! — qaltiragan un bilan so‘zladi u. — Men bu yerga ulug‘ bo‘lgandan beri alashlar Bejin tugul, Qara-Shaar, Qumulga yaqin bostirib kela olishmaydi. Biroq Manas qancha oliy bo‘lsa ham Alokeni ololmas, jangga jur’at qilolmas!

— Aytganing kelsin, xonim! — ko‘z yoshini artib javob berdi Qultang. — Manasning tubiga yetish uchun barchaga xabar beringiz. Qirg‘izlar bugun bo‘lmasa, ertaga kelishadi. Men ham senga xizmat qilayin. Menga yo‘ldosh qo‘shib bergin!

Uning so‘zlariga rozi bo‘lgan Tekes bir kunlik yerdan Quyas degan sehrgarini chaqirdi. Keyin eng yaxshi oltmishta navkarini ayg‘oqqa yubordi.

— Otlanib, enkayib yo'lga tushinglar! — buyruq berdi Tekes. — Kungo'y tog' borib tugaydi, kunchiqar yoqqa boringlar. Echki-O'lbo'sdan yov chiqsa, ko'rib olib, qochinglar. Yarminglar kelinglar, yarminglar qolinglar. Kelib menga xabarin aytinglar!

Askarlar ketgandan so'ng tun yarim bo'lganda Tekesga o'rta bo'yli, ingichka jag', sariq yuzli, sanochday semiz Quyas sehrgar yetib keldi.

— Kelganing yaxshi bo'ldi! — quvonib ketdi Tekes uni ko'rganda.

— Xonim, nega meni bunchalik shoshilinch chaqirding? — tinchsizlanib so'radi Quyas.

— E-e! — boshini kuygancha chayqadi Tekes. — Sen so'rama, men aytmay! Sen yo'qligingda xayolda yo'q ishlar bo'lib ketdi! — deb u Qultangning qochib kelganini, uning aytgan so'zlarini Quyasga to'kmay-sochmay aytib berdi.

— Hech narsadan qo'rqmangiz! — manmansirab dedi Quyas, Tekes so'zining oxiriga chiqqandan keyin. — Bosh tarafda Qaspan, Qaqanchin, kun botishda Tirgo'o't, Aqbeshim yotsa, bizga hamla qilgan burutlarni arvoh uribdi! Qaydagi bir tentirab kelgan oltoylik oltmish uyli burutdan qo'rqsangiz, unda sizni ham Xudo aniq uribdi!

— Chindanmi? — uyalganidan qizarib ketdi Tekes. — Qaydagi ozgina sonli qirg'izlardan men nimaga buncha cho'chidim?! Biz puflab qo'ysakkina, ularning kuli ko'kka sovurilmaydimi? Qalmoq, xitoylarga bu dunyoda kimning holi yetadi? Hech kimning!

— Balli, xonim! — rozi bo'ldi Quyas. — Endi o'zingizga keldingiz! Sizdek xonga birovdan qo'rqish yarashmaydi!

— To'g'ri! — Tekes pushaymon bo'ldi. — Shashtimni haligi ahmoq Qultang olib qo'ymadimi? U yig'lamsirab, Manasdan cho'chisa, unga qo'shilib, yosh boladay qo'rqib ketmadimmi?!

— Qo'rqqanga qo'sh ko'rinadi, xonim! — qiqirlab kuldi Quyas.

Beixtiyor Tekes u bilan qo'shilib kuldi.

Quyasning so'zlariga birato'la erib ketgan Tekes o'lishini unutib qo'ydi. Ilebin bilan O'rg'o'ga, Aqunbeshim podshoga chopar yuborish niyatidan qaytib, hech kimni xabarga yubormadi.

"Burutlar kelsa, hammasini o'zim o'ldiraman, o'zimning kuchim bilan joylayman!" — deb Tekes hamma narsaga beparvo, tinch yotib oldi.

Bu uning o'ta jiddiy xatosi bo'ldi. Sababi to'rtinchi kun deganda uning yeriga olti yuz ming askari bilan Manas yetib keldi. U Ters-Maedan ancha olis emas joylashgan dalada go'dayib turgan Tekesning askarlarini ko'rdi.

Manas askarlarga xonlikka ko'targan Qambarning o'g'li Aydarxon yoniga bostirib keldi.

— Manas botir! — dedi u. — Xon Tekesning qo'li nihoyatda ko'p ekan. Qarasang, askari dalaga botmay qolibdi. Chor atrofga qarasam, biz to'rt kishidek ko'rindik. Tekes qoshaygurga hujum qilmay, ortga qaytsakmi? — tinchsizlanib so'radi u.

— Bu nima deganing? — Aydarxonning so'zlariga achchig'i keldi Manasning. — Qalmoqdan qochib, qayga borasan? Ularning qaynagan qo'shini bizga qo'l solsa, qayga qochasan? Yo yer ostida yotmasang, moling bilan boshingning borin yerga tiqmasang, yo osmonga chiqib ketmasang! Bo'lmagan so'zni to'xtatinglar. Barchanglar hujumga tayyorlaninglar!

O'shanda Manasga Baqay oti bilan bostirib keldi.

— Botirim! — dedi u. — So'zga izn bersang, o'yimni aytay.

— Aytingiz, amaki! — ruxsat berdi Manas.

— Men ayg'oqchilikka borayin! — taklif qildi Baqay. — Qorovulni bir qarayin. Ular meni ko'rganda, qochgan bo'lib qolayin. Ular meni quvganda, sen meni ajratib, ularning yaksonini chiqarasan!

— Ma'qul, amaki. Ayg'oqchilikka borib kelsang, borib kel.

Manas ruxsat bergandan keyin Baqay ikkinlanmay yo'lga chiqdi.

Bir necha soat o'tgandan keyin Baqay otchan qaytib keldi.

— Botirim! — yuzlandi u Manasga. — Men kuzatuvga borib keldim. Tekesning askarlarining kam-ko'stini bildim.

— Sening o'ying qanday — biz hujumga o'tsak bo'ladimi? Yoki Aydarxon aytganday, uyga qarab qochaylikmi? — savol bilan termildi amakisiga Manas.

— Yo'q! — teskari boshini chayqadi Baqay. — Albatta, ular bizga qaraganda alaqancha ko'p ekan. Biroq bizga ortga cheki-

nishga iloj yo'q. Bor kuchimizni sarflab, yoppasiga hujum qilsak, Xudo xohlasa, biz zafarga erishamiz.

— Unday bo'lsa olg'a, yigitlar! — buyruq berdi Manas.

Hujum natijasida Tekesning qo'li to'lig'i bilan tor-mor qilindi. Qirg'izlarga Ters-Maega yo'l ochildi. Ular ikkilanmasdan qal'ani ko'zlab ot qo'ydi, ot qo'ysa ham bot qo'ydi.

Ketib borayotganda qirg'izlar Maening yeri yoz, Tekesning el boy ekanini ko'rishdi. Molga yaxshi joylari ham ko'p ekan.

Qirg'izning yurti gurkirab, botirlar kunday yarqirab, qishda kirgan tuyaday, shaharga yurish qilishdi ko'plashib. Buncha ko'p askarni ko'rgan Tekesning qo'lining kayfi o'chib, yolchitib ham qarshilik ko'rsata olishmay, bir chetdan qocha boshlashdi. Manasning qo'li shaharga toshgan selday qoplab kirdi.

Paytdan foydalanib, qirg'izlarning ba'zi birlari aldirmaq*da besh olti ming yilqini har yerdan haydab kelishdi. Yilqilarin chuvlatib, yilqichisin sulaytib, o'q-yarog'in tashidan kiyib yurgan juda ko'p. Jo'ngina yilqi quvalab, tegib yurgan sondan ko'p.

— Urg'ochiga osilma, yo'lingda kasri urar! — bir-birini to'xtatib, qiz-kelinlarga tekkizdirmay, tiyib yurgan undan ko'p.

Boshqalari bo'lsa shaharliklarning yashirib qo'ygan mulklarini izlab, shaharlar bilan qo'rg'on-cheplarning buzilgan xarobalarini tintib yurishdi. Qirg'izlardan qo'rqib, shaharliklar qiyqirib yugurib, dalaga qochdi sochilib.

— Xudo o'zing saqlagin! — qayg'urishdi shaharlik ayollar. — Urg'ochimiz kun bo'ldik, urug'ga shunday dun bo'ldik. Erkagimiz qul bo'ldik. Erlarning barchasi o'lgandan so'ng, ayollar qolib tul bo'ldik. Xon Tekes, Quyasga ishonib, ko'rganimiz shul bo'ldi!

Kelgan qo'ldan qochib, yuganin ushlab yugurib, yayov yurgani ham bor. Qalmoqlar qo'yin haydab ma'ratib, molin haydab mo'latib, tuyasin haydab to'platib, shahardan chiqib ketishga intilib turishdi.

Manasning askarining qoplab kirib kelayotganini uqqan Tekesning rangi o'chdi. U o'rdasida nima qilishni bilmay, jig'ibiyron bo'lib o'tirganda tashqaridan yuz-boshi qon bo'lgan Quyas yugurib kirdi.

— Quyas! — o'rnidan sakrab turdi Tekes. — Sen qanday xabar olib kelding? Qirg'izlar bilan urushimiz nima bo'ldi? Ularning hujumini qaytara oldinglarmi?

— Tekes xonim! — entikib javob berdi Quyas. — Ish teskarisiga aylandi. Bizning qo'limiz qirg'izlarning hujumiga turish berolmay, sarosimaga tushib, qiyqirib, dalaga qochdi tirqirab. Ayol bilan bolasi uy-uyida chirqirab!

— Nima deysan?! — Tekesning ko'zlari chaqchayib tushdi. — Biz qirg'izlarga yengildikmi?

— Ha, xonim! — qaltiradi Quyas. — Biz ularga birato'la yengildik.

— Ahmoq desa! — juda izza bo'ldi Tekes. — Shuni aytib suyunchilagani menga yetib keldingmi?! Yovdan qochguncha, ular bilan solishib o'lsang bo'lmasmidi, qo'rqoq?! Mana, senga! — Tekes xon pichog'ini sug'urib olib, Quyasning qursog'iga urdi.

Quyas yerga qulab, o'sha zahoti qazo bo'ldi.

Achchig'i bilan Tekes qon bo'lgan pichog'ini qo'lida mijiqlab, uyidan tashqariga chiqib, qirg'izlar qo'lining kelayotganini ko'rdi. Dushmanlar uni har tarafdan qurshab olishdi.

Navkarlari bilan otchan kelayotgan Manasni, Baqayni ko'rgan Tekesning bundan battar joni azoblandi. Manasning maqsadi — uni tiriklayin tutqunlikka olish ekanligini Tekes darrov tushundi.

— Men hech qachon sizlarga tirik bo'ydan qo'lga tushmayman! — u o'jarlanib o'ziga pichoq urib, yerga qulab tushdi.

Tekesning pichoq solganini ko'rgan Manas unga shoshilib chopib bordi. Biroq kech bo'lib qolgan edi. Tekes xon bu yorug' dunyo bilan vidolashib, yerda qimirlamay yotardi.

— Bizga qarshilik qilaman deb, oxiri o'zingning tubingga yetding-ku, sho'rlik azamat! — qayg'uli boshini chayqadi Manas.

— Buni biz endi nima qilaylik? — so'radi Baqay.

— Tekesning jasadini yerga beringlar! — buyruq berdi Manas. — Barcha askarlarga eslatinglar — qalmoqlarning hech narsasiga tegishmasin! Olmanglar siniq ignasin! Ne qilamiz qalmoqning, azaldan yig'gan dunyosin! Boylaridan so'yish olsangizlar ham, kambag'allarining chichqoq ulog'iga ham ko'z solmanglar!

— Manas! — norozi bo'ldi Baqay. — Qalmoqlarni ayab nima qilasan? Ular bizni talab-to'naganday, ularning mol-mulkini tortib olganimiz durust emasmi?

— Yo'q, amaki! — rozi bo'lmadi Manas. — Bizga bunday zolimlikning keragi yo'q. Dunyodan quruq qolganday, birovning mulkiga suqlik qilmaymiz. Birovning mulki hech qachon boshqaga baxt olib kelmaydi. Mening bu buyrug'im barchaga yetkazilsin.Tushundingmi, amaki?

— Tushundim, botir! — Baqay qo'liga qaytish uchun otining boshini burdi.

— Yana bir gap! — to'xtatdi uni Manas. Siz Oltoyga Jaqip otamga chopar yuborsangiz. Ularga bizning g'alaba haqida xabar berib, muqaddas Olatovimizga yo'l ochiq ekanligini bildirsin. Otamlar el-yurt bilan darrov bu tarafga safar tortishsin.

— Xo'p bo'ladi, botir! — javob berdi Baqay. — Chopar bugunoq yo'lga chiqadi.

Shundan so'ng Manas To'to'ning Turso' beliga qizil qirg'indan omon qolgan tirg'o'o't, qalmoq elining tukin qo'ymay chaqirtirdi. Aytilgan yerga ikki yuz ming o'n olti odam keldi.

— Tekes duv-duvinglar o'ldi! — dedi u to'plangan elga. — Unga biz tekkanimiz yo'q. U o'z jonini o'zi qiydi. Shu boisdan bizga bu bo'yicha hech qanday tuhmat bo'lmasin!

— Yo'q, Manas botir! — hammasi uchun javob berdi uzun bo'yli, oq soqolli, sariq yuzli Qaracha oqsoqol. — Oramizda Tekesning o'z ajali bilan o'lganini ko'rganlar bor. Uning o'limi bo'yicha sizlarga hech qanday norozichilik yo'q.

— Yaxshi! — boshini silkitdi Manas. — Biroq sizlar endi birovni xon qilib saylab olinglar! Boshi yo'q qolsa tananglar, tirikliging bo'larmi, jim qo'ysa Manas unarmi? Ko'tarib tug'ingni bog'la, ko'pchilik xoningni sayla!

Buni uqqan ko'pchilik sarosimaga tushdi.

— Bizga sen xon bo'lmaysanmi? Yoki boshqa bir odamingni xon qilib bermaysanmi? — hayron qolib so'radi Manasdan Qaracha.

— Yo'q! — boshini ters chayqadi Manas. — Sizlarni boshqarish niyatimiz yo'q. Elinglarni o'zinglardan saylangan birov boshqaradi.

— Mayli, unda! — Qoracha o'rnidan turib, vatandoshlariga murojaat qildi. — Xaloyiq — xalq! Xonimiz to'satdan o'lsa ham jonimiz omon qoldi. Manas botir bizga yangi xonni saylab olishga mumkinchilik beryapti. Shu boisdan maslahatlashib, bir munosib odamni xon qilib ko'tarib olaylik!

— Xonlikka munosib kim bor? — deb elning donishmandlari kengasha boshladi.

Hadeganda o'rta bo'yli, oriqdan kelgan, ingichka jag', oq yuzli Uyshumboy boyga bu taklifni aytishdi.

— Sening uch yuz mingcha mol, tuya, yilqing bor, — murojaat qildi unga Qaracha. — Bir o'zingga qaragan uch ming uycha jon bor. O'ta boy odamsan! Bizga xon bo'l!

— Molim bo'lsa xonman! — javob berdi Uyshumboy. — Biroq men azaldan xon bo'lgan emas edim. Shu boisdan hozir ham bundan bosh tortganim durust! — U rozi bo'lmay, bo'yin tovladi.

O'shanda Qaracha uzun bo'yli, alp qomatli, qizil yuzli Dardaq polvonga murojaat qildi:

— Unda sen bizga xon bo'lgin! Sen bizning eng kuchli yigitlarimizning birisan. Sen bilan hech kimdan qo'rqmasdan yashaymiz.

— To'g'ri! — rozi bo'ldi Dardaq. — Mening kuchim bor. Ammo hech qanday epim yo'q. So'zga ham chechan emasman. Eplab yaxshi gapni ham gapira olmayman. Mendan qayerdan ham yaxshi xon chiqar edi?! Eng yaxshisi, yetuklardan biri xonlikka saylanglar! — deb u ham xonlikdan bosh tortdi.

Turgan elning bari uning so'ziga kuldi.

Chorasiz qolgan Qaracha To'qo' boyga murojaat qildi:

— To'qo'! Sen chirik boylarning birisan. To'rt ming moling bor. Ham aqlli, ham polvon, ham chechansan! Sen bizga xon bo'l!

— Yo'q, men rozi emasman! — bosh tortdi qisqa bo'yli, yumaloq betli, sariq yuzli, bo'ladan kelgan To'qo'. — To'g'ri, men boyman. Biroq elni-yurtni boshqarib, xon bo'lish niyati menda yo'q.

— Sen rozi bo'lmasang, unda biz kimni xonlikka ko'taramiz?! — achchig'i keldi Qarachaning. — Qiyshanglamay, xon bo'l deganda, bo'lavermaysanmi? El, yer uchun ishlab bersang, bir yering kamayib qoladimi?

— Bo'lmayman! — kesib javob berdi To'qo'. — Menga osilganni qo'yib, shunchalik el uchun kuyib-pishsang, o'zing xon bo'l!

— Menmi?! — ko'zini chaqchaytirdi Qaracha.

— Ha, sen! — javob berdi To'qo'. — Sen mendan kam emas boysan. Senga qarashli to'qson ming uyli jon bor. Elni boshqarish bo'yicha tajribang ham bor. Sababi sen do'o'tayliq mansabiga egasan.

— To'qo' to'g'ri aytyapti! — chuvullashdi atrofdagilar. — Xonlikka sendan o'tgan munosib odam yo'q. — O'zing-la xon bo'l! — deyishib, barchasi Qarachani qistay boshlashdi.

Qaracha elga nima deyishini bilmay qoldi.

— Sizlarning so'zinglarda shubha yo'q! — dedi u ko'pchilikning ra'yini qaytara olmay. — Men chindan ham yoshligimdan hukumatga aralashib yuraman. Biroq menda bir kamchilik bor. O'zinglar bilganday, men qartayib qoldim. Yoshim saksonga yaqinlab qoldi. Xonlikka yoshroq birovni ko'tarib olinglar! — so'randi u eldan.

— Yo'q! — dedi To'qo'. — Qarisang ham xon bo'lgin! To'g'rimi, xaloyiq?

— To'g'ri, to'g'ri! — deb barchasi chuvullashdi.

Qaracha halloslab, bo'lar bilan bo'lmasning o'rtasida qoldi. Oxiri xon bo'lishga bo'ysunganda, unga Sayqal ismli qizi yetib bordi. Et chiviqday egilgan, erkakcha kiyim kiyngan, marjon tishli, qiyiq qosh, yoziq manglay, tugma bosh, Sayqal kimni bo'lsa ham suqlantiradigan suluv qiz.

— Qandaysan, ota?! — achchiqlanib so'radi u Qarachaga. — Hukmdan toliqib qolganday, o'lib qolgan Tekesni to'nab to'nin olganday, nega xon bo'laman deyapsiz? Buningiz yaxshi emas. El-yurtga sharmanda bo'lmay, joyingizga turingiz!

— Xaloyiq—yurt! — so'zladi mutlaqo chorasiz qolgan Qaracha. — Men xonlikdan bosh tortdim. Sababi bolam bunga rozi bo'lmayapti!

— E-e! — norozi bo'lishdi turganlar. — So'zimizni yerda qoldirib, esi yo'q qizingning gapiga kirib, qo'pollik qilding bizga!

— Qarab turgan xaloyiq! — barchani tinchlantirib dedi Qaracha. — Mening bosh tortganim uchun nimaga xafa bo'lyapsizlar? Baring qarshi bo'lmasang, Teyishni xon ko'taraylik!

— Qaysi Teyishni? — so'radi undan To'qo'.

— Tekesning inisi Teyishni! — javob berdi Qaracha. — O'zinglar bilganday, ularning otasi Temir xon. Undan olti o'g'li bor. Ularning to'ng'ichi Tekes xon bo'lgan. Eng kenjasi bo'lsa — Teyish. U ham aqlli, ham dono yigit. O'shani xon qilib saylab olaylik?! — taklifini qaytaladi Qaracha.

— Aytganlaring to'g'ri desang! — boshini chayqab javob berdi To'qo'. — Biroq u bor bo'lgani o'n sakkiz yoshda. Xalq qadrini bilolmay, xafa qilib, til olmay, bizni abgor qilib qo'ymasmikin bu bola?!

Hammasi to'g'ri so'zga yumshab, bir-biriga tikilib, indamay qolishdi. Elning kayfiyatini boyadan beri so'zga aralashmay kuzatib turgan arslon Manas boshini chayqadi.

"Bersang ham yomonsan, bermasang ham yomonsan! — o'ylandi ichida u. — Men qalmoqlarga boshchilik qilishdan bosh tortib, o'zinglar boshqa birovni xon saylab olinglar desam, bularning qiyshanglaganini qarasang! Tek qo'ysang, o'n yilda ham murosaga kelib, birovni xon qilib oladigan ahvoli yo'q. Bu ishga o'zim aralashmasam, hech qanday naf chiqmaydi. Shu boisdan haligi Teyish degan kimsasini ko'rayin-chi. U qanday yigit ekan? Agarda durust bo'lsa, o'shani xonlikka ko'tarib, bu qiy-chuvni bosayin!" — deb Manas yonidagi yigitlarining birini o'ziga chaqirdi.

— Teyishni bu yoqqa olib kelinglar! — buyruq berdi Manas.

Birozdan keyin Teyish uning yoniga o'zi bosib keldi. Uzun bo'yli, qora sochli, chayir tanli, oq yuzli Teyish Manasning ko'nglini darrov qoniqtirdi.

"Tusiga qaraganda, durust yigitga o'xshaydi! — o'ylandi ichida Manas Teyishga tikilib qarab. — Yosh bo'lsa ham, aqlli ekanligi payqalib turibdi. El-yurtini xor qilmay, adolatli xonlik qila oladi, bu yigit. Agarda adolatli bo'lmas, uni har qanday paytda almashtirib qo'yishga to'liq mumkinchilik bor. Hozircha shu yigit xon bo'lib tursin!", — deb hal qilgan Manas qalmoqlarning bu bo'yicha o'yini eshitgisi keldi.

— Xaloyiq— xalq! — dedi u. — Menimcha, Teyish xon durust yigit. U sizlarga adolatli xon bo'lib beradi deb o'ylayman. Shu boisdan uni xon qilib saylashga sizlarning fikringlar qanday?

Er Manasning Teyishni xon qilib ko'tarish to'g'risidagi taklifiga qalmoqlar ko'nishdi. O'shandan keyin ular Teyishni oq kigizga solib Temirqanning qal'asini aylantirishdi.

— Xon qildik, Teyishni, tashladik koyishni! — deb hayqirishgan qalmoqlar Teyishni uch marta aylantirib olishdi.

Keyin o'to'go'* dingse* sayilgan, to'ti qushning dumi ikki yelkasiga yoyilgan Teyishni Aydarxon bilan Manasning oldiga olib kelishdi.

— Mirza, seni yoshligingdan xon qildik! — dedi Manas Teyishga. — Xonliging qutlug' bo'lsin! — deb u qalmoqning boshidan tilla sochdi.

Bunga Teyish nihoyatda quvondi.

— Oshiqmagin, arslon er! Aqkelte miltiq otib, olti kuncha bizda yot. Alloh bersa biz Aqunbeshim podshoni olarmiz! Unga qadar xon bo'lganimning hurmatiga to'y beray. Sizlar mehmon bo'linglar, botir! — so'randi Teyish xon.

XI. Teyish xonning to'yi hamda Manasning qiz Sayqal bilan uchrashgani

Va'dasini bajarib, Teyish xon bo'lib saylanganligi hurmatiga to'yini boshladi. Urf bo'yicha, unda har qanday o'yinlar o'tkaziladigan bo'ldi. Ularga sovrinlar ham tikildi.

Ot chopish bo'yicha sovrinning boshiga to'rt yuz yilqi, uch yuz mol, yuz tuya qo'yildi. Qirq otga mukofot tikildi. Sovrinning eng oxiri ikki yilqi, bir tuya bo'ldi. Ot chopganlar Mangqan bilan Qo'rdo'yni bosib o'tib, Echki-O'lbo'sning ro'parasidan musobaqani boshlashsin degan qaror chiqarildi.

Sovringa qiziqib, ot chopishga chiqqanlarning soni to'qqiz yuz bo'ldi. Ular uchinchi kun deganda marraga yetib, sovrinini oladigan bo'lishib, otlarini haydab, Echki-O'lbo'sga jo'nashdi.

To'yga kelganlar keng-kavir taom totib, ko'ngil ochsin deb, Teyish xon olti yuz qora mol, o'ng ming qo'y to'platdi. Teyish xon saxiyligini, mehmondo'stligini ko'rsatdi.

— Qo'yni so'yinglar! — buyruq berdi u. — Bu yerda ikki kun mehmon bo'lib yotasizlar. Agarda yetmay qolsa, qorninglar

ochib qolsa, qora molni ham so'yinglar! Qimiz ichaman deganlarga ming biya bog'latdim. Xohlaganinglarcha qimiz ichinglar!

— Barakalla, barakalla! — Teyishdan elning barchasi rozi bo'ldi.

Otlar haydalib ketgandan keyin boshqa o'yinlar boshlandi.

— Birinchi bo'lib kurashga polvonlar chiqsin! — farmon berdi Teyish xon. — Bosh sovringa to'qqiztadan mol, birdan tuya!

Kurashga qozoqlarning o'rta bo'yli, chayir badanli, qorato'ri Bayqap polvoni chiqdi. Qalmoqlar "yangi qarindosh bo'ldik!" — deb unga qarshi chiqishdan bosh tortishdi. Qirg'izlardan maydonga uzun bo'yli, alp qomatli, oq yuzli Isparaning o'g'li Ko'kjo'ru chiqdi.

Kurash boshlanganda Ko'kjo'ru Bayqapni dast ko'tarib, boshidan uch aylantirib, yerga urib, uni bir zumda yengib oldi.

— Voy-bo'! — hayron qolishdi qozoq, qalmoqlar. — Biz qirg'izlarga teng kela olmaymiz! — deb ko'ngillari g'ash bo'ldi.

Ko'kjo'ruga boshqa polvon chiqmay, o'yin to'xtatildi.

— Kurashga hech kim chiqmasa, unda botir sayishni boshlanglar! — Teyish xon navbatdagi farmonni e'lon qildi.

Kurashdan qirg'izlarga yengilib, teng kela olmaganiga nomuslangan qozoq bilan qalmoqlar bu safar marrani qirg'izlarga bermaslikka ahd qildi. Biroq sanchishga chiqadigan hech kim bo'lmadi. Hech kim "men chiqaman sayishga!" deyolmay, bari ikkilanib qoldi.

O'shanda nomus uchun qalmoqlardan o'n yetti yoshdagi Sayqal qiz sanchishga chiqadigan bo'ldi. Yovga kiyar yarog'in kiyib, to'qqiz quloch nayzasin ushlab olib, sariq burul otin minib, Sayqal maydonga chiqdi qarqibar*.

— Qani, xohlovchilar bo'lsa chiqinglar! — Aydarxon ovoza qildi. — Bu quturgan kunni yiqitinglar! Ayoldan erkak qolmas, ataa* qora bunday bosmas!

— Buncha osha chopmangiz, botir! — asta dedi Aydarxonga yonida turgan Teyish xon. — Bu qiz tekin emas. Uni bizning yurt tek, otasini do'o'tay-bek* deydi. Qanchalagan qalmoqning menman degan botirlari bellashib, Sayqalga holi yetmay qo'ydi!

— Shundaymi?! — ko'zlarini baqraytirdi Aydarxon.

Sayqalning xabarini oldindan eshitib yurganmi, noma'lum, biroq unga qarshi bironta qirg'izning polvoni chiqmadi. Maydon-

ga Sayqal ertalab kirgan bo'lsa choshgoh og'ib bo'lgunga qadar unga bironta jon chiqmadi.

O'shanda Berdike, Oqbolta, Baqay qirg'izlarga murojaat qilib, och qiyqiriqni solishdi:

— Nega indamasdan, nomusni boy berib turibsizlar?! Ayoldan qochgan ne yo'riq? Chiqinglar sayishga!!!

Bunday achchiq murojaatdan keyin ham baribir hech kim Sayqalga qarshi chiqqani yo'q. Natijada qozoqlar bilan qalmoqlar sovrinni jo'ngina olib ketadigan bo'lishdi.

— Bundan izza bo'lgan Manas yonidagi botirlarni bo'ralab so'kdi.

— Baringlarni onanglar tug'may qolsin! — qiyqirdi u. — Ayolga sayishtirib, orimni ketirdinglar. U har qancha botir bo'lgani bilan uning oti urg'ochi-ku! Aqsarg'il otni olib kelinglar!!!

Manas achchiq bilan bor yarog'ini bog'lab, qahri yuziga aylanib, sur nayzasi qo'lda g'o'dayib, Aqsarg'il otni minib, maydonga chiqdi. Uni ko'rgan Sayqal ichidan quvonib ketdi.

"Osmondan izlaganim, yerdan topilmadimi! — ko'nglida pichirladi u. Buni abjir er deyishgan edi. U bizning elimizni qandaygina holdan toydirmadi! Bizning qanchalagan erlarimizning umrini qiydi! Endi undan o'ch oladigan payt kelibdi. Manasni o'ldirib, qirg'izning yurtini qiray, o'ziga ishonganin shahid qilayin!".

Sayqal sariq ola bayroqli nayzasini qo'lga o'rnashtirib olib, Manasni sanchib olish uchun sariq burul tulporiga qamchi soldi. Manas unga peshvoz bostirdi qochirib.

Sayqalga yetib kelib, Manas unga tikilib qoldi. Qizning nihoyatda suluv ekanligini ko'rdi. Keng manglay, ochiq to'shli, kichik burunli, gavhar ko'zli Sayqal Manasning yuragini sug'urib olganday bo'ldi.

"O'zim oladigan qiz ekan! — quvonib ketdi ichidan Manas. — Qattiq saysam, qo'qqisdan o'lib qolmasin!" — deb u qizning o'ng kuragining ustini mo'ljallab, yarim kuchi bilan nayza sanchdi.

Sayqal uni turtib yuborib, Manasning to'shiga nayzasi bilan urdi. Qirg'izning ko'zidan o't sachrab, egardan qulab ketay deb, arang ushlanib qoldi.

Manasning juda achchig'i keldi. Sayqal bilan bor kuchini sarflab, chopishadigan bo'ldi. Biroq Sayqal Manas oldingi qat-

tiq zarbadan o'ziga kelguncha kutib turmasdan, qang'aylab xitob qilib, uni takroran nayza bilan sanchdi. Nayza Manasning o'ng qo'litig'ini yirib, orqasidan g'o'dayib chiqdi. Manas yana otdan qulab ketayotib, bazo'r o'zini o'nglab oldi.

Toy chopim yergacha ikki botir yonma-yon chopib borishdi. Manasning qo'ltig'ida nayza chiqib yurganini ko'rgan qozoq, qalmoqlar uni masxaralab, kula boshlashdi.

Nomusi uyg'onib ketgan Manas chap qo'li bilan Sayqalni o'ng kuragidan ushladi. Qancha tortsa ham qiz qo'liga bormadi. Aksincha, Manasni o'ng qo'li bilan ko'kragidan olgan edi qalqon, sovut, yarog'i, chiqib ketdi oxista.

"Urg'ochini yiqita olmasam o'lganim o'sha! — izza bo'ldi Manas. — Qizga oldirsam, asr quvar gap bo'lar!".

Manas Sayqalning yoqasiga qo'l uzatdi. Qizning jahli chiqib, oyboltasi bilan yigitning boshiga chopdi. Manas qalqonini to'sib olganda, oybolta unga qars etib tegdi.

Manasning yanada battar jini keldi.

"Bu andishasiz qiz ekan! — achchiqlandi u. — Ayaganni bilmaysanmi, mana senga!" — deb u chap qo'liga oyboltasini olib, qizning naq boshiga soldi.

Qiz qalqonini to'sib, Manasni o'ng yelkasidan oldi. Ot kuchiga solib, Sayqal uni ag'darib tortisha harakat qildi. Qiz otiga qamchi soldi. Manas egardan qiyshayib, uzangidan oyog'i toya boshladi. Uning otdan ag'darilib tushishiga ozginagina vaqt qoldi.

Unga yetkizmay, Oqboltaning Chubag'i ikki botirning o'rtasiga chopib keldi.

— Bu yerda egish emas, sanchish bo'lyapti. Sizlar sanchishinglar!

Chubaq Sayqalning otining boshiga qamchi soldi. Ot yalt etib, hurkib ketdi.

Sayqalning botirligiga elning bari hayron qoldi. Agarda Chubaq bo'lmaganda, u so'zsiz Manasni yengar edi. Qizning tarafini olgani qozoqning uzun bo'yli, qorato'ri er Do'g'o' polvoni o'rtaga chiqdi.

— Hoy, qirg'izlar! Sizlar bir qiz bilan yanchishib turibsizlar! Nega unga ikkovlon chiqyapsizlar?!

— Holbuki, bu yerda egish emas, sanchish bo'lyapti! — achchiqlanib javob berdi Do'g'o'ga Chubaq. — Sanchmay, egaman degani qizning qaydagi ishi?!

Qo'qqis qurolli ikki taraf janjallashib, urushni boshlamasin deb xavotirlangan qozoqdan Aydarxon, qirg'izdan Baqay o'rtaga ot chopib chiqishdi. Ikki taraf teng o'zining aytganidan qaytmay, qiy-chuv boshlandi.

O'shanda ular Teyish xonni xolislikka chaqirishdi.

— Qo'yinglar, birodarlar, bahslashishni! — yumshata dedi u. — Ikki yosh bola chopishsa, sizlar mana bunday quruq nomusga oldirib, o'rtanglardagi inoqlikni buzmanglar. Ikkovini ajratib qo'yinglar!

Oqsoqollar bunga ko'ndi. Qalmoqlar Sayqalni, Baqay Manasni ikki tarafga ajratib ketishdi.

* * *

Baqay yarador bo'lgan Manasni chetga chiqarib, uning yarasiga qunt bilan e'tibor qaratdi. Sayqal sanchgan nayzaning tupo'guni* supurib, jildirib sug'urib oldi. Nayza sug'urilgan yerdan tizillab, nihoyatda ko'p qon ketdi.

— O'ta yomon yara ekan! — achinib boshini chayqadi Baqay. — Uning tuzalishi anchaga so'ziladiganday.

Buni eshitgan Manasning achchig'i keldi. Cho'ntagida doimo yonida olib yuradigan o'rjemil degan dorisini olib, hammasini yutib oldi. To'xtamay oqib turgan qon darrov bosildi. Ko'zi oynadek ochilgan Manas g'azablangan ko'yi Asqarg'il otini yo'rg'atib, ortidan changni to'zg'itib, qaytadan maydonga chiqdi.

Uni ko'rgan Sayqal xitob chaqirib, maydonga chiqib, Manasni ko'zlab chopib jo'nadi. Qizning nayzasini hozirlab, o'zini sanchgani kelayotganini ko'rgan Manas nihoyatda ichidan o'kindi.

"Yov ayagan — yarali, ayoli qoralik" degani shu ekan-da! — xafa bo'ldi u. — Men qizning suluvligiga suqlanib, uni og'ir yarador qilmay, xotinlikka olayin deb, sungam nayzamni bo'sh urmadimmi! Bu bo'lsa meni o'ldirishga chin dili bilan chiranib turibdi. Chala menga!!!".

Olishuv boshlangandan keyin Manas bilan Sayqal ikki marta sanchishib, yanchishib o'tishdi. Boshidan qizga qarshi bor kuchi bilan sanchishmaganiga o'kingan Manas endi bor kuchi bilan kurasha boshladi. Jahli chiqib, nayza bilan Sayqalning to'shiga urdi. Qattiq zarbadan qizning ko'zidan o't chaqnab, esidan adashdi. Biroq Manas uni bir sanchganda yiqita olmadi. Uning Aksarg'il oti zaiflik qilib, tuyoqlari bukilib, qobirg'asi qayishib qoldi. Ot o'nglana olmay, o'tirgan itday dikkayib qoldi.

Bundan foydalanib, Sayqal Manasni nayzasi bilan urdi. U o'mrovga sanchildi. Manas otdan qulamasdan, o'ktam o'tirgan bo'yicha qilt etgani yo'q. Bundan hushi uchgan Sayqal sariq otining boshini burib, elini ko'zlab qochdi. Manas uning ortidan quvib jo'nadi. Sayqal unga yetkizdirmay, qalin elning ichiga kirib ketdi.

O'shanda Manas qalmoqlarga achchiqlanib baqirdi:

— Qizinglarni sanchishga chiqaringlar! Qo'lidan kelsa meni yiqitsin! Qo'rqmasdan Sayqal chiqsin!

Qalmoqlar Sayqalni topib, undan qaytadan maydonga chiqishni so'ranishdi. Esidan tonib qaltirab, aqldan ozib aljirab turgan serka suluv Sayqal sanchishga qayta chiqishdan bosh tortdi.

— Manasga qarshi chiqmayman! — chinqirdi yuragi tushib qolgan qiz. — U chindan ham polvon, botir ekan. Agarda men hozir unga qaytadan chiqadigan bo'lsam, sog' qolmayman. Bormayman unga qarshi!

Uning Manasdan qattiq qo'rqib qolganini tushungan qozoq bilan qalmoqning sillasi quridi. Bir tarafdan Sayqal sanchishmayman deb tursa, ikkinchi tarafdan Manas "chiqaringlar qizinglarni, chiqaringlar!" — deb o'kirib tursa, qanday chora topsa bo'ladi?!

Manasning qahri qattiq ekanligini bilgan xalq Teyish xon bilan Aydarxonni Qo'yush bilan Munarga yuborishdi.

— Qirg'iz birodarlar! — dedi ularga Aydarxon. — Sovringa tikilgan to'qson yilqi, to'qqiz tuyani sizlar olinglar. Bizning botir sanchishga qaytadan chiqishga bosh tortdi. Shu boisdan sanchishni to'xtataylik!

Qo'yush bilan Munar ko'nishib, Manasga borishdi.

— Manas! — murojaat qildi unga Munarqan. — Biz sovrinni oladigan bo'ldik. Endi sanchishishni to'xtataylik!

— Bozor ko'rgan boyoqishsan sen! — ranjib boshini chayqadi Manas. — Menga bunday so'zlarni aytma! Agarda mana shunday qashshoq bo'lsang, mendan to'qson yilqi emas, to'qqiz yuz yilqi olchi, boy bo'lgur! Ammo meni maydondan qayt demay, qalmoqlarga qayta boringlar! Ayolni sanchib yiqita olmay, men qandoq qilib elga boray?! Sayqal menga bot chiqsin, yo yiqilsin. Yo yiqitsin meni!

Manasning so'zlariga javob topa olmay, kelganlar o'z qo'liga qaytishdi. Yoniga Baqay, bao'oratchi qora To'lo'qni qo'shib olib, ular Aydarxon bilan Teyish xonga jo'nashdi.

Manasning javobini eshitgandan keyin barchasi qaytadan Sayqalga borishdi. Otidan tushib olgan qiz sanchishga takror chiqish o'tinchini qunt bilan eshitdi.

— Boshimni olsanglar ham endi sanchishga chiqmayman! — keskin javob berdi Sayqal.

— Nimaga? — yalinib qaradi unga Teyish xon. — Nimadan qo'rqyapsan, qizim? Sen u bilan tengma-teng sanchishmadingmi? Yana biroz harakat qilsang, uni osongina yengib olasan!

— Yo'q! — boshini chayqadi Sayqal. — Men ham hadeganda shunday deb o'ylagan edim. Manas sanchish boshlanganda meni nayza bilan bo'sh sanchganda men uni holi yo'q, bo'shang narsa ekan deb o'ylagan edim. Jarohatin tozalab, qonini to'xtatib, qaytadan maydonga chiqib, menga nayza sanchganda, men ko'p yanglishganimni tushundim. U shunchalar meni qattiq sanchdi degin, xuddi jigar-bag'rim uzilib tushganday bo'ldi. Yaxshiyamki, nayza sovutdan o'ta olmay, to'xtab qolibdi. Bo'lmasa o'sha yerda til tortmasdan, nobud bo'lar edim! — yig'lamsiradi qiz. — Manas meni qandaydir bir sabab bilan dastlabki safar ayab, oxista nayza sanchganiga o'shanda yanada battar inondim. Nima qilsanglar, o'shani qilinglar. Manasga qarshi endi maydonga chiqmayman. Men jonimdan to'yganim yo'q! — deb Sayqal qiz teskari burulib ketdi.

Chorasi qolmagan vositachilar qaytadan Manasga borishdi. Ularga qo'shilib olgan boy Qaracha Manasga yuzlandi:

— Manas bolam! Sanchishuvga Sayqal qiz chiqmaydigan bo'ldi. Biz, qalmoq, qozoqlar sizlarga, qirg'izlarga yiqildik. Sen so'nggi nomusni olding! — deb Manasga ta'zim qildi.

— Yo‘q! — bundan battar achchiqlandi Manas. — Bu yerdan yo yiqilib, yo yiqitmay turib, hech qayoqqa ketmayman! Chiqaringlar sanchishga Sayqalni!!!

— Unday bo‘lsa, iloj yo‘q! — og‘ir xo‘rsindi Qaracha. — Sayqalga boraylik. Uni maydonga chiqishga ko‘ndirishga harakat qilib ko‘raylik!

Oqsoqollar kayfi o‘chgancha yana qalmoqlarning to‘piga jo‘nashdi. Barchasi Sayqalning qaroridan qaytmasligini tushunib qaytdi. Og‘ir ahvoldan chiqish uchun qandaydir bir boshqa yo‘lni topish kerak edi.

O‘shanda bo‘shashib turgan sheriklariga Qaracha bunday dedi:

— Birodarlar! Barchanglar ep ko‘rsangizlar, bir taklifni aytayin.

— Aytingiz, oqsoqol! — umidli qaradi unga Aydarxon.

— Biz hozir Sayqalni maydonga qayta chiqara olmaymiz. Manasning achchig‘ini ham bosa olmaymiz.

— Gapingiz to‘g‘ri, oqsoqol! — ko‘ndi Aydarxon. — Sizning taklifingiz qanday?

— Biz Sayqalning o‘rniga Manasga uning otini tortiq qilaylik.

— Manas shunga ko‘nadi deysizmi? — ishonib-ishonmay so‘radi Qarachadan Aydarxon.

— Bundan boshqa chora yo‘q, birodarlar! — yelkasini qisdi Qaracha. — Manasni mana shu taklifga ko‘nishga harakat qilib ko‘raylik. Uni sabrli bo‘lishga chaqiraylik!

Barchasi indamay o‘ylanib qolishdi.

— U-bu desak ham bundan boshqa choramiz qolmadi, birodarlar! — jimjitlikni buzdi Aydarxon. — Manasga borib, uni ko‘ndirishga bor kuchimizni sarflab ko‘raylik. Balkim, u shunga ko‘nar?!

Ular Sayqalga borib, o‘z o‘yini aytishdi. Qiz indamasdan sariq otini ularga ushlatib qo‘ydi. Otni olib, oqsoqollar Manasga borishdi.

— Xo‘sh, keldinglarmi? — so‘radi ulardan tund Manas. — Qizinglar maydonga chiqadigan bo‘ldimi?!

— Yo‘q, botir! U yana bosh tortdi, — javob berdi Qaracha.

— Unda sizlar menga nega keldinglar? — shubhali tikildi oqsoqollarga Manas.

— Biz senga Sayqalning otini tortiqqa olib keldik.

— Menga uning oti emas, o'zi kerak! — sovuq javob berdi Manas. — Ovora bo'lmasdan, ortinglarga qaytib, uni maydonga olib kelinglar!

Manasning qahrli alpozidan cho'chib, barchasi qo'rqqanidan indamay qolishdi.

O'shanda Aydarxon tap tortmasdan Manasga tik qaradi.

— O'zingni bos, Manas! — sakrab so'zladi u. — Sabrli bo'lgin. Bir qizga teng kelaman deb, endigina birodarlashgan ellarning irqini buzmagin!

— Oqsoqol to'g'ri aytyapti! — qo'shildi Aydarxonning so'ziga Teyish xon. — Ayolga o'chashgan — haqiqiy azamatning ishi emas!

Oqsoqollarning bu so'zlaridan keyin Manas noqulaylikni seza boshladi. Achchiqqa oldirib, oshirib yuborganini tushundi.

— Siz nima deysiz, amaki? — dedi biroz indamay turib qolgan Manas Baqayga savolli termilib.

— Nima der edim, jiyan?! — og'ir xo'rsindi Baqay. — Bir tarafdan, sening shunchalar achchiqlanayotganingning sababi bor. Sen boshida ayagan Sayqal sal qolsa seni o'ldirib qo'yayin dedi. Agarda Chubaq dallol o'rtaga tushmaganda, sen tirik qolarmiding yo yo'qmi — buni Xudodan boshqa hech kim bilmaydi.

Gapingiz to'g'ri deganday, Manas boshini silkib qo'ydi.

— Ikkinchi tarafdan qaraganda, oqsoqollarning aytgani ham to'g'ri! — so'zini davom ettirdi Baqay. — Sayqal bizning birodarlarimiz qozoqlar bilan endigina birodarlashgan qalmoqlarning nomidan senga qarshi sanchishga chiqdi. Agar sen Sayqalni maydonga chiqsin deb qaysarlik qilaversang, buning oqibati katta janjal bilan tugashi mumkin. Bizni shunchalar quvvatli dushmanlar qurshab turganda, o'zaro it-mushuk bo'lib, tindalashib-talashganimizdan qanday foyda topamiz?! Bu bilan biz o'zimizni holsiratib, dushmanlarimizning chirog'iga moy tomizgan bo'lamiz. Shu boisdan, jiyanim, o'jarlik qilmay tortiqqa kelgan otni olib, o'pkangni bosgin! — deb so'zini bitirdi Baqay.

Amakisining so'zini bo'lmay, oxirigacha sabrlilik bilan tinglagan Manas bir lahza indamay, o'ychan o'tirdi. U qanday qarorga kelar ekan, deb oqsoqollar jig'ibiyron bo'lishdi.

— Men sizlarning taklifinglarga ma'qulman! — tund javob berdi Manas. — Elning intifoqligini buzmaslik uchun o'yimdan qaytdim. Aytganinglarga ko'ndim. Tortig'inglarni ham ko'rdim. Biroq men uni olmayman. Otni qalmoqlarning qariyasi Qaracha boyga berdim!

— Rahmat, botir! — rozi bo'ldi Qaracha. — Bergan qo'ling qurimasin, martabang doimo oshaversin! — deb u chin ko'ngildan Manasni alqadi.

Katta muammoning urush-janjalsiz hal bo'lganiga quvongan oqsoqollar jamoalariga qaytishib, bo'lgan voqealarni aytib berishdi. Yaxshi xabarga barchasi suyunishdi. Ayniqsa Sayqal bu balodan qutulganiga o'ta xursand bo'ldi. Manasdan qattiq qo'rqib qolgan qiz uning ko'ziga shu bo'yi ko'rinmay qo'ydi. Manas bo'lsa "naq mana shu qizni olsam!", deb Sayqalni xayolidan chiqarmay yurdi.

To'y bo'lsa ertasi kuni ulanib, egish bo'ldi. Unga ikki yuz polvon qatnashib, elga ermak bo'lishdi. U tugashi bilan kechki salqin peshinda chopishga tushgan otlar kela boshladi. Ag'iyasning chotidan otning changi ko'rindi. Ko'pchilik qaysi ot birinchi kelayotganini ko'rish uchun yo'l chetida hovliqib-dupurlab turishdi.

Birozdan keyin otlarning oldida Manasning Oqqulasi kelayotgani bilindi. Burnidan qora bug' chiqib, u hech kimga yetkizmay, otlardan bo'linib kelayotgan edi. Uning ortidan Aydarxonning Qarasuri, Manasning Ko'ktelkisi, O'shpirning O'rqizili, Salamatning Saralasi chopib kelar edi. Qolgan otlar ulardan xiyla ortda qolishibdi.

Marraga birinchi bo'lib Oqqula yetib keldi. Qirg'izlar quvongandan atrofni qiy-chuvga to'ldirishdi.

Musobaqaning sharti bo'yicha dastlab kelgan qirq otga sovrinni Qaracha boshqarib, bo'lib berdi. Manasga birinchi o'rin uchun to'rt yuz yilqi, uch yuz mol, yuzta tuya hadya qilindi.

— Botir! — murojaat qildi unga Qaracha. — Xizmatkorlaringga aytib, sovrinni boshqa moldan bo'lib ol.

— Yo'q! — kulimsiradi Manas. — Men sovrinimni olmayman.

— Nimaga? — tushunmadi Qaracha.

— Men uni mana shu yerda turgan xaloyiq-xalqqa sovg'a qilib beraman.

— Shuncha molni sovg'aga berasanmi?! — eshitgan qulog'iga ishonmadi Qaracha. — Bu mislsiz katta boylik emasmi! Uni o'zingga olganing durust emasmi, bolam?!

— Men uchun eng katta boylik — elimning osoyishtaligi, ittifoqligi! — javob berdi Manas. — Shu tufayli mening sovrinimni shu yerda turgan to'rt urug' yurtga bo'linglar!

— Yasha, Manas!!! — quvonganidan o'kirdi turgan el. — Saxiyliging uchun Alloh taolo seni qo'llab, martabangni ulug' qilsin!

Qaracha boshlagan oqsoqollar Manasning sovrinini qozoq, qirg'iz, qalmoq, sartlarga teng ravishda bo'lib berishdi. Barchasi qoplon Manasning mardligiga minnatdor bo'lib jamoalariga qaytishdi.

O'yin-kulgi bo'lsa undan nari ulanib, oltinchi kun deganda to'y tugadi. Manas eng yaxshi mergan, polvonlardan askar tanlab olib, Ker-Ko'lni ko'zlab yo'lga otlandi.

Qo'lni o'zi boshlab, Qirqiraning pastiga, Qara suvning bo'yiga qaynab tushdi. Orolni makon qilib, Tangshan tog'ga tayanib, bug'u, marolni otib, dam olib yotishdi.

XII. Manasning O'rg'o' xon bilan urushi

Manasning to'rt yuz ming qo'li Aralda dam olib yotganda unga peshvoz O'rg'o' xonning uch yuz ming qo'li kelayotgan edi. Unga Tekes xonning Manasdan yengilganini qirg'izlardan eson-omon qochib qutulgan sehrgar Qultang yetkizgan edi. Qanchalik so'rangani bilan Tekes xon Manasni to'g'atmay, uni o'zim yengaman deb, boshqa xonlarga xabar bermay qo'ygan. Natijada Tekesning qo'li yakson qilinib, o'zi ajal topdi.

Uning o'lganini o'z ko'zi bilan ko'rgan o'rta bo'yli, ingichka jag', sariq yuzli Qultang Bilchaqay, To'to'ni oshib, uchinchi kun deganda O'rg'o'ning o'rdasiga kirib bordi.

Uni iliq qabul qilgan O'rg'o'ning hushini Qultang nihoyatda uchirdi.

— Oltoydan Manas degan qirg‘iz botir chiqdi! — dedi u O‘rg‘o‘ga. — Tekes bilan Quyasni o‘ldirdi. Yer-suvdagi qalmoqni qirg‘iz, qozoqqa bo‘ldi. Endi senga oqqan selday bo‘lgan qo‘l bilan kelayotir. Yarog‘ingni g‘amlamasang, polvoningni shaylamasang, undan sho‘ringning qurigani. Seni Manas yakson qilib, el-yeringni to‘lig‘i bo‘yicha chopib oladi. Agarda yolg‘on aytgan bo‘lsam, meni ayamay urushgin, it degin!

Buni eshitgandan so‘ng uzun bo‘yli, keng yelkali, qorato‘ri O‘rg‘o‘ xon olti amaldorini chaqirdi. Har tarafga ularni xabar bilan choptirdi.

— Eki-Bashdagi Burqan qaldayga boringlar — buyruq berdi O‘rg‘o‘. — U barcha erlarini to‘plab, to‘xtovsiz ikki kundan qolmay, menga kelsin! Undan nari Sayan yaylov, Uch-Suudagi Qulutqa amaldorga, Qora-Ko‘ldagi So‘o‘run qalday*ga, Qulus jang-jun*ga, Altang, Qultang boshliqlarga, Kemen xonga, Aqunbeshim podshoga, Ilebinga, Qashkel duu-duuga shunday xabarni beringlar. Qashqeldan qayta tortinglar!

Choparlarning bari darak berish uchun chopqir otlarini minib, chopib ketishdi. Shundan keyin chaqirilganlardan birinchi bo‘lib qora soch, ingika jag‘, ko‘zlari chaqchaygan Qulus yetib keldi.

— Meni nimaga chaqirding, xonim? — O‘rg‘o‘dan tinchsizlanib so‘radi Qulus.

O‘rg‘o‘ xon unga Qultangning so‘zlarini aytib berdi. Qulus ularga ishonish-ishonmasligini bilmay turib qoldi. Aynan shu paytda yoshi o‘ttiz ikkidagi, oybolta boshiga tegib, qoshiga qoni quyulgan Tuno‘go‘r degan qalmoqning botiri O‘rg‘o‘ xonning oldiga kirdi.

— Senga nima bo‘ldi, botirim? — cho‘chib so‘radi undan O‘rg‘o‘ xon. — Kim seni yarador qildi?

— Xonim! — ho‘ngrab, yosh boladay yig‘ladi Tuno‘go‘r. — Meni qozoq, qirg‘izlar yarador qildi. Ularni Manas botir boshlab kelmoqda. Qirg‘izlar bizning qo‘shinni to‘lig‘i bilan tor-mor qildi. Ulardan yarador bo‘lib, arang jonim omon qoldi. Agarda ularga qarshi shaylanmasak, biz tamom bo‘ldik! — Tuno‘go‘r Quyas xonni ko‘rib, uning oyog‘ini quchoqlab, faryodni soldi.

— Bu yer quritgan burutlar anoyi emasga o‘xshaydi! — esi chiqdi O‘rg‘o‘ning.

Ertasi kuni u chaqirgan xonlar o'z navkarlari bilan kela boshlashdi. Barchasi yig'ilganda, askarning yalpi soni uch yuz mingga yetgani ma'lum bo'ldi.

— Xonim! — qochib borgan Qultang mung'aya tushdi. — Askaring oz ekan. Sababi qirg'izlarning to'rt yuz ming qo'li bor.

— Urushda g'alabaga son bilan emas, sifat bilan erishiladi! — kuldi O'rg'o'.

— Balkim shundaydir! — Ko'ndi Qultang. — Otishsang, yo'ling bo'lsin, xonim. Biroq menga javob bergin. Men bu yerdan ketib, Aqunbeshim podshoga yetayin.

— Yuraging qirg'izlardan nihoyatda tushib qolibdi! — masxaralab kuldi O'rg'o' xon. — Ma'qul, borsang borgin Aqunbeshimga. Men unga xat yozayin. Sen uni mening nomimdan xonga berib qo'y!

— Ma'qul!

O'rg'o'ning xatini olib, tulpor otini minib, Qultang yo'lga chiqdi.

U ketgandan keyin O'rg'o'ning qo'li Manasning askari dam olib yotgan Aralga jo'nadi.

Shu paytda u bilan uchrashgani Kungo'yning uzun bo'yli, alp gavdali, sariq yuzli So'o'run qaldayi askarlari bilan birga bordi. U yerda So'o'run o'zining molchisi Tuno'go'rni qo'qqisdan yo'liqtirib qoldi.

Boyini ko'rganda Tuno'go'r quvonganidan baqirib, ko'z yoshini no'xat qilib yig'ladi.

— Bay! — So'o'running oyog'ini quchib faryodni soldi Tuno'g'o'r. Seni tirik ko'rganimdan nihoyatda quvonchdaman! Molching bilan razm solib qarasam, mendan bo'lak biri ham qirg'izlardan qutulmabdi! — deb molchi yanada balandroq yig'ladi.

So'o'run bu so'zlarni eshitib, juda ham achchig'i keldi. Molining to'liq bo'ydan yo'q bo'lganiga ichi achishdi. Qanchalik sabr qilsa ham, vujudini qaltiroq bosdi.

"Molim o'lguncha, o'zim o'lsam yengil bo'lardi! — aziyat chekdi u. — Dunyom qolmagandan keyin mening kimga keragim bor? Itga mingan yalangoyoq bo'lib, senlanib qayerga boraman? Arz-dodimni kimga aytaman? Kim so'zimni eshitadi? Kim yordam beradi?".

Ichi yonib ketayozgan So‘o‘run O‘rg‘o‘ xon bilan uchrashib, kelajakdagi harakatlar to‘g‘risida kengashish niyatini unutdi. Achchiqqa oldirib, darrov xon maydonga borib, Manasdan o‘chini oladigan bo‘ldi.

— Olib kelinglar otimni! — baqirdi u askarlariga. — Ko‘k tangri bilsin dodimni!

Yigitlar unga Alatek otini darrov olib kelishdi. Boy So‘o‘run otini minib, asrlonday chopinib, gurzisin qistirib beliga, salog‘in ilib egariga, nayzasin oldi qo‘liga, miltig‘in osib bo‘yniga, mahkamlanib jo‘nadi, ne bo‘lsa ham so‘ngida!

— Burut Manas qayerda? — baqirdi u maydonga chiqib. — U burungi qahramon bo‘lsa ham bu dunyoda uning jonini tirik qo‘ymayman!

So‘o‘running haybatini ko‘rgan olamlarning barchasining a’zoyi badani zirqiradi. Bunday polvonga uncha-muncha odamning holi yetmasligi ochiq-oydin edi.

Buni payqagan So‘o‘run bunda battar mag‘rurlandi.

— Qaydasan sen, yaramas Manas? — baqirdi u. Menga tez kel. Zudlik bilan urushgani kel!!!

So‘o‘running ovozini uqqanda, uning ortidagi askardan to‘qson mingi qirg‘izlarga qarshi chiqdi. O‘shanda ot minib, ot minsa ham bot minib, qirg‘izdan yuz ming askar ot qo‘ydi, ot qo‘ysa ham, bot qo‘ydi.

Ikki qo‘shin yuzlashib, qarama-qarshi turib qoldi. Qalmoqlarning oldida Alatek otin o‘ynatib, oq nayzasini tutib, So‘o‘run turdi jim qotib.

Uning jang qilish haqidagi da’vatini qabul olib, Oqqula otin choptirib, ortidan changin sopirib, maydonga arslon Manas yetib bordi.

Ikki botir maydonning ikki tarafidan bir-birini sanchish uchun otlarini chopib jo‘nashdi. Ular bir-biriga yaqinlab qolganda So‘o‘run birinchi bo‘lib ilgarilab, Manas botirning to‘shiga nayzasini soldi. Qattiq urilgan zarbadan Manasning ko‘zidan o‘t sachradi. Arang egarida o‘zini tutib qoldi.

G‘azablangan Manas oyboltasi bilan So‘o‘running nayzasini chopa boshladi. U teng ikkiga bo‘linib, sinib ketdi. Ko‘ngli taskin

topgan Manas otga yulqinib minib, baqirgan bo'ydan So'o'runni o'ng kiftidan ilib, uni sangillatib otdan oldi. Olishuvni qarab turgan askarining ko'z o'ngida do'ppidek aylantirib, keyin yerga urdi. So'o'running temirdan to'ni sharaq etib, yonidagi qilichi taraq etib, yotib qoldi taltayib, o'lib qoldi torvayib.

So'o'runni yengganidan keyin Manas uning Alatek otini olib, qo'liga qaytib bordi. Bunday botirlikni ko'rgan qalmoqlarning yuragi tushib, Manasga yo'lay olmay, o'rnida qotib qolishdi. Bor bo'lgani miltiqlarini o'qlab, piliklarin cho'g'latishga quvvati yetdi.

* * *

Boshchisi qazo bo'lganligidan, nima qilishini bilmay, qalmoqlar O'rg'o'ga chopar yuborishdi.

— So'o'run qalday o'ldi! — dedi chopar O'rgo'ga. — Uni Manas botir yengib olib, Alatek otini olib ketdi. Bizning askarlar shu kunda jim turadi, urusha olmay to'xtashib!

Buni uqqanda O'rg'o'ning nihoyatda achchig'i keldi.

— So'o'run bo'lmay yerga kir! — so'kindi u. — Bir og'iz kelib kengashib, undan keyin Manas bilan urushga chiqsang bo'lmasmidi? Chala po'lat og'a!

Nihoyatda xafa bo'lgan O'rg'o' boshini o'kinchli chayqadi.

— So'o'running urushaman deb achiqqa oldirib, Manasga borib, bot o'lgani yomon bo'libdi! — Og'ir xo'rsindi u. — U bizning eng kuchli polvonlarimizning biri edi. Do'o'taylarim, jang-junglarim, xonlarim! Endi qanday chora topamiz? Kimni Manasga qarshi chiqaramiz?

Altang jang-jung qo'lidagi Atan polvonni olishuvga chiqarishni taklif qildi.

— Buning chindan polvonmi? — so'radi Altangdan O'rg'o' xon ishonmasdan.

— Ha, xonim! — javob berdi Altang. — Atan bir kunda bir qora molni o'zi yolg'iz yeydi. Kurashganda uni yetmish polvon arang bog'laydi. Erikkanda bu kofir ikki yuz polvon bilan olishib, ularning esini og'diradi! — ko'tarib maqtadi polvonini Altang.

— Bu yigit haqiqiy polvon ekan-da! — rozi bo'ldi O'rg'o' xon. — U holda uni maydonga solib ko'raylik. U yengsa yengdi,

yengmay yutilib, ajali yetsa urushda, aynimasdan, otishib yotib o'laylik!

Cho'ng qozonday boshi, yastanib yotgan qora itday ikki qora qoshi, uch qulochday bo'yi bor Atan polvon Bangqara otini minib, qo'lni oralab maydonga jo'nadi. Chap qo'liga oltin qubbali qalqon ushlagan, ko'm-ko'k temir kiygan, to'qson quloch nayza ushlagan Atanni ko'rganda askarning bari quvonib, olqishlab, uning yo'lini ochdi.

Atan qo'lni oralab borayotganda oldidan ko'zi yiringlagan, ko'kragi xirillagan, munkib yerga yiqilgan, changillagan yomon chol chiqdi. Bari yo'ldan qochganda, u o'rnida turib qoldi.

— Hoy chol, qoch yo'ldan, o'lasan! — deb navkarlar cholga qiyqirishdi.

U bo'lsa o'n ikki qadam qo'ysa ham, bir qarich yerga yetmadi. Buni ko'rgan Atanning unga juda ham achchig'i keldi.

"Bu qanday yo'li qotgan chol? — achchiqlandi u. — Arang qimirlab yurgan narsa qo'lga qayerdan kelib qolgan? Bu yovdan o'lsa, bizni sharmanda qiladi. "Qalmoqlar askari yetmaganidan chollarni ham o'zlarining qo'liga qo'sha boshlashibdi!" — deb bizni qirg'izlar masxara qilmasin. Hozir men cholni bo'ynidan ushlab olaman. El tarafga otib yuboray. Ajali yetgan bo'lsa o'ladi, bo'lmasa qoladi. Nima bo'lganda ham el ko'rsin!" — deb o'ylandi Atan.

Biroq uning oti Dangqara bir narsani sezganday pishqirib, chol tarafga yurmasdan, hurkiy boshladi. Atan bundan achchiqlanib, otini qamchi bilan qamchiladi. Ot noilojlikdan cholning yoniga keldi. O'z kuchiga ishongan Atan cholni qo'lga irg'itib yuborish uchun uning kiftidan oldi. Shu payt hech kim kutmagan voqea yuz berdi. Chol Atanning o'zini belidan olib, yerga ko'tarib chopdi.

Keyin u pichog'ini sug'urib, Atanning boshini olib tashlab, uning otini minib, maydonga chiqib, yolg'iz turib qoldi. Qarasa, chol Ko'yush polvon ekan.

Atanning o'lganini ko'rgan O'rg'o' xon hujumga o'tishga buyruq berdi. Barchasi yoppasiga urushga kirdi. Qirg'izlarning qo'li ham hayqirib nayza solib, hammasi aralashib ketishdi. Miltiqning uni chirqirab, zambarak uni gumburlab, singan qalqonlar sharaqlab, kamonning o'qi zuvillab, qon to'kildi sharqirab. Ikki taraf bearmon solishdi, oldga-ortga chopishdi.

Xitoyning barchasi "taa-taalab!", qalmoqning bari "jaa-jaalab!", qirg'izlar "Manas, Manas!" — deb xitob chaqirib, dushmanlar o'zini ham, o'zgani ham ayamay chopishishdi.

Choshgohda boshlangan urush, tushgacha cho'zildi. O'rg'o' xonning askari qirg'izlarning qisimiga chidamay, ot so'o'rusin* solib, qochadigan bo'ldi. Ular endi qochar paytida toshli kungay yo'l bilan Keymen yetmish ming qo'lni boshlab, yordamga yetib keldi. Qalmoqlar ularning yordamiga tayanib, qirg'izning qo'lini qiyratib, ularni Sarto'lo'g'o'y tog' yoqqa yoppasiga surdi.

Vaziyatning og'irlashib ketganiga pushaymon bo'lgan Baqay Manasning chodiriga chopib keldi.

— Botir! — yuzlandi u jiyaniga. — Ahvolimiz keskin o'zgardi. O'rg'o'ga yangi qo'l yordamga kelib, qalmoqlar bizning askarlarni surib, qizil qirg'inni solishmoqda. Biz qandaydir bir qat'iy choralarni ko'rmasak, ulardan to'liq yengilib qolishimiz mumkin.

— Siz aytganlarning barchasi men uchun yangilik emas! — vazmin javob berdi Manas. — Keymening kelganini, qalmoqlar bizni surib kelayotganini men juda yaxshi bilaman. Ahvol mana shunday tarzda o'zgarib ketishini sezib, buning oldini olib zarur choralarni ko'rganman.

— Sen qanday choralar xususida gapiryapsan? — qiziqib so'radi Manasdan ko'ngli biroz joyiga tushgan Baqay.

— Men askarlarimning barini urushga solgan emasman! — tushuntira boshladi Manas. — Har tarafdan dushman kelib qolmasin deb, men Ko'kchani sakson ming askari bilan pistirmaga qo'ygan edim. Ular shu paytgacha jangga qatnashmay turishdi. Men hozir qalmoqlarga hujumga o'tishga buyruq beraman. O'shanda, Xudo xohlasa, biz ahvolimizni qaytadan o'nglab olamiz! — deb Manas Ko'kchani chaqirib, unga tegishli ko'rsatmalarni berdi.

Er Ko'kcha Qizil-Qiya yo'li bilan qalmoqlarni qochirib, ularga vayronagarchilik keltirib, dushmanlarni yana ortga surdi. Bir zumga hujumni bo'shashtirmasdan, qalmoqlar tarafga yopirildi, jang qilib kunni ham botirdi.

Kech tushganda ikki qo'l ikkiga bo'linib, suluv yerga o'tov bilan chodir tikishib, urushishni to'xtatishdi. Qurol-yarog'ini tartib-

ga keltirib, ko'zga ko'rinmay qolganlarin yo'qlashib, dushmanlar ertangi olishuvga tayyorlana boshlashdi.

— Falon kishi bormi? — deb qirg'izlarning ba'zi birlari o'lganlarning orasidan yaqinlarini izlay boshlashdi.

Boshqalari qizil qonga belangan yarador o'rtoqlarini otiga yuklashib, qo'shinga olib kelishdi. Ularning boshiga yostiq qo'yib, o'q yutqizib qustirib, nashtar bilan turtkilab, yashirin o'qni jildirib, qo'l-oyog'i singanlarga shox yo'nib, yaradorlarga qo'ldan kelgan yordamini ko'rsata boshlashdi.

Uchinchilari ahvoli o'ta og'ir yaradorlarga g'amxo'rlik qilib turishdi.

— Falonchi yomon yotibdi. Omon qoladimi, yo'qmi, bila olmadik taqsir! — deb ular bunday askarlarning tug'ishganlariga xabar berish bilan ovora bo'lishmoqda.

Yana birovlari dalada yotgan o'liklarni otlariga yuklab, qo'shinga olib kelishardi.

— O'ligingni olgin! — ular o'lgan navkarlarni jo'ra-yo'ldoshlariga, qarindoshlariga berib yurishdi.

Qalmoq, xitoylar ham mana shunday tuyshuk bilan halak bo'lishdi. Eplab-seplab o'lganlarini, yaradorlarini ajratib olgandan keyin ular jang-jung Qulus shahriga qochib kirdi.

— Esonlar hisob bersin! — deb aytilgandan keyin qalmoqlar askarlarini hisoblashdi.

— Hisoblashsa, ularning ikki yuz mingga yetmagan askari qolidi. Yuz yetmish mingdan ziyod odam o'lib yoki yarador bo'libdi.

Buni bilgandan keyin qalmoqlarning kayfi o'chib, esankirashib qoldi. Sababi otasidan ayrilib, qancha bola qoldi bukilib. Og'asidan ayrilib, ini qoldi yolg'iz o'kinib.

* * *

Askarlari ozayib qolgani bilan O'rg'o' xon o'jarlanib, hech kimga bo'yin bermay, qirg'izlar bilan jang qilish niyatidan qaytmadi. Saroyiga ulug' sardorlarini to'plab olib, urushni bundan nari davom ettirish to'g'risida kengash qurdi.

— Bizga shuncha qirg'inni solgan qizitaloq qirg'izning biz nimasini oldik?! — nihoyatda xafa bo'ldi O'rg'o' xon. — Ular qan-

chalagan azamat yigitlarimizning umrini qiyishdi. Bizga yordamga Chuudan kelgan Keymen xon o'n besh ming askaridan ayrilib, bizdan battar qiynaldi.

— To'g'ri aytasiz, xonim! — og'ir xo'rsindi uzun bo'yli, qorato'ri Keymen. — Avval esga olmay, odam qatori ko'rmay yurgan burutlar tubli bo'lib olishib, bizga choh qazib, elimizni quritadigan bo'ldi.

— Rost, xuddi shunday bo'ldi! — qayg'uli boshini silkitdi O'rg'o'. — Tolqonlandi tomimiz, talonga qoldi molimiz. Anduh bilan o'ldi-ku kampir bilan cholimiz. Buzulmoq bo'ldi shahrimiz, mung'ayib qoldik barimiz. Uzoqda yotgan Esenqanga, Aqunbeshi podshoga ishonib, barchamiz harom o'ladigan bo'ldik! Jang-jung, do'o'taylarim! Maslahatinglarni beringlar. Qirg'izning Manas botirining javobini qanday beramiz? — nayza tegmay qonsirab, ko'zning yoshin to'kdi O'rg'o' holsirab.

Xonning bo'g'ini bo'shab, g'ayratidan qaytganin ko'rib, hokimlarning bari oldirib, tildan qolgan kimsaday, o'ltirib qoldi javdirab.

— Nega indamaysizlar? — yig'lamsiradi O'rg'o'. — Qo'lpo'ng bilan Shibang'im, Arsi bilan Qubanim, Burtaq bilan Qultqa, tobinglar aql bu yurtga!

Atalgan yuqori tabaqalar og'ziga suv to'ldirib olganday, hech narsa deb javob bermasdan, yerga qarashdi indamay.

Hech kim lom-lim demayotganini ko'rgan O'rg'o' xon og'ir xo'rsindi.

— "Ishongan xo'jang suvga oqsa, oldi-ortingdan tol ushla!" — degan qirg'izning so'zi chin ekan-ku! Ma'qul, sizlar indamasanglar, aqlni men aytayin. Omon qolishning yo'lin topayin. Hozir harbiy quvlikka borib, Manas boladan biroz kun muhlat so'rayin. Ungacha Aqunbeshim podshoni yordamga chaqirayin. Uning qo'li kelganda, qirg'izlar bilan jang qilishib ko'ramiz! — deb boshini qayg'uli chayqadi O'rg'o'.

— Agarda Aqunbeshimdan yordam kelmasa, nima qilamiz? — tund so'radi o'rta bo'yli, sariq yuzli, beti tumtaygan Burtaq.

— Undan qo'l kelmasa, qirg'izlardan qo'rqsak, bu yerni tashlab qochamiz! — boshini shilqillatib javob berdi O'rg'o' xon.

— Jang-jung, do‘o‘tay, qaldaylarim. Shunday amalni qo‘llasak bo‘ladimi?

Xonada o‘tirganlarning barchasi bunga ko‘ndi. O‘rg‘o‘ kotibini chaqirib, Manasga xat yozdirib, el-u yurtini yig‘ib olishga bir necha kun muhlat so‘radi.

Xatining oxiriga muhr bostirib, Bo‘do‘ng degan sehrgarini Manasga jo‘natdi.

Bo‘do‘ng shoshib yurib, Manasning chodiriga choshgohda keldi-yu, unga O‘rg‘o‘ning xatini topshirdi.

— Amaki, o‘qingiz! — Manas O‘shpirga xatni berdi.

O‘shpir uni o‘qib bitgandan keyin Manas o‘tirganlarga o‘ychan qaradi.

— Xatning ma’nosini barchanglar tushindinglarmi? — so‘radi u chodirda o‘tirganlardan.

— Tushundik! — barchasi uchun kulimsirab javob berdi Baqay. — Bunday quvlikka borsa, O‘rg‘o‘ xonning chorasi nihoyatda qolmaganga o‘xshaydi. Bizni yenga olishiga ko‘zi yetib, u, chamasi, Aqunbeshimdan yordam so‘raganday. Uning qo‘li kelguncha yetti kunlik muhlatni so‘raganining sababi shunday bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman.

— To‘g‘ri aytasiz, amaki! — ko‘ndi u bilan Manas. — Bizni tentak deb, bu qalmoq o‘zini nihoyatda aqlli sezyapti!

— Unda biz nima qilsak? — savol bilan tikildi Baqay. — Unga bu muhlatni beraylikmi yoki yo‘qmi?

— Agarda biz keladigan Aqunbeshimning askaridan qo‘rqsak, unda O‘rg‘o‘ga tanaffus uchun hech qanday muhlat bermasdan, unga to‘xtovsiz hujumga o‘tishimiz kerak! — so‘zga aralashdi o‘rta bo‘yli, qorato‘ri Ko‘kbo‘ru. — Agarda biz Aqunbeshimdan qo‘rqmasak, unda O‘rg‘o‘ning o‘tinchini qondirsak bo‘ladi.

— Sening o‘zingning bu bo‘yicha o‘ying qanday? — savol berdi unga Manas.

— Botir! — javob berdi Ko‘kbo‘ru. — Buni ko‘pchilik bo‘lib hal qilaylik!

— Ma’qul! — rozi bo‘ldi Manas. — O‘rg‘o‘ning o‘tinchi bo‘yicha kimning qanday o‘yi bor?

— Donishmandlar! — dedi Qirg‘il. — Ruhsat bersanglar, men o‘z o‘yim bilan bo‘lishayin.

— Gapiraver! — boshini silkidi Manas.

— Menimcha, biz O'rg'o'ning taklifini ikki hisob bo'yicha qabul qilishimiz kerak, — so'zini boshladi Qirg'il. — Birinchidan, hozir O'rg'o'ga darrov hujum qo'ysa bo'lmaydi. To'g'ri, uning askarlari katta talafotlarga uchrab, holsirab qoldi. Biroq bizda ham yo'qotishlar jiddiy bo'ldi. Askarlarimiz tinimsiz jadallardan charchashdi. Ular dam olishga muhtoj.

— Hozir O'rg'o'ni yenga olmaymiz demoqchi bo'lyapsizmi? — savol bilan qaradi Qirg'ilga Baqay.

— Yo'q, yengamiz! — javob berdi Qirg'il. — Bu bo'yicha hech qanday gumonim yo'q. Mening aytayin deganim — charchagan askarlar bilan hozir hujumga o'tsak, oshiqcha yo'qotishlarga uchrashimiz ehtimoldan xoli emas. Shu sababli qo'limizni dam oldirib, O'rg'o'ning taklifini qabul olganimiz o'ng.

— Tushunarli! — dedi Manas. — Endi ikkinchi sababni aytaver!

— Ikkinchi sababi bunday! — kulimsiradi Qirg'il. — Men aytganday, hozir biz dam olishga muhtojmiz. O'rg'o' bo'lsa bunga bundan battar muhtoj. Aqunbeshimning qo'li kelmasa, u to'lig'i bo'ydan tor-mor etiladi. Demak, O'rg'o' bu tanaffusga bizdan ko'proq manfaatdor. Shunday bo'lgandan keyin ahvoldan foydalanib, bir o'q bilan ikki quyonni o'ldiraylik. Uning taklifini qabul olib, qo'limizni dam oldiraylik. Buning uchun O'rg'o'dan o'zimizga zarur narsani so'rab olaylik!

— Nimani so'raylik? — tushunmadi Ko'kbo'ru. — Asli yengilayotgan dushmandan nimani so'rasa bo'ladi?

— Bizda yo'q narsani! — javob berdi Qirg'il. — O'zinglar bilganday, bizda suv tortish. Shu boisdan biz O'rg'o'dan bir chiroyli yerini so'raylik! Bunga nima deysizlar?

"Bir tarafdan Qirg'ilning aytganlari to'g'ri! — o'ylandi Manas. — Albatta, hozir O'rg'o'ni yakson qilishga qudratimiz yetadi. Ammo Qirg'il aytganday, askarlarimiz juda charchadi. Ularni bekorga qiynashlikning hojati yo'q. Oldimizda yana ko'p jang-u jadallar turibdi!", — deb u Qirg'ilni qo'llaydigan bo'ldi.

— Qirg'il to'g'ri aytyapti! — dedi Manas o'tirganlarga. — Bizda chindan ham suv tanqis. Shu bois O'rg'o' xonning suvini olib, uning o'tinchini qanoatlantiraylik.

Hammasi Manasning so'zlariga ko'nishdi. Bu orada kelgan Bo'do'nni oziq-ovqatga to'ydirib, qayta O'rg'o'ga jo'natishdi. U qo'yilgan talabni aytganda, O'rg'o' rozi bo'ldi. Moyunduning to'g'ri suvidan qirg'izlarga yer ajratib berdi.

"Shoshmay turinglar, ahmoq burutlar! — achchiqlandi u ichida. — Hozircha sizlarga qo'rqoq-hurkak bo'lib turayin. Aqunbeshim kelgandan keyin barchanglarning yaksoninglarni chiqaraman. Moyunduning suviga sizlarni birma-bir so'qir kuchukday cho'ktirmasam, men men bo'lmay qolayin!".

So'raganini olgandan keyin Manasning askarlari chodirlarning barchasini taxlatib, chang bo'yicha yuklatib, ulug' tog'ning poyiga, O'rg'o' bergan ulug' suvning bo'yiga qalin bo'lib borishdi, yayrab yotib qolishdi. O'shandan buyon bu yerning oti Jirg'alang bo'lib atalib qoldi.

* * *

Oradan olti kun o'tdi. Manas bergan muhlat tugay deb qolganda asirga yaqin kezda kungay bo'yi hansirab, kun botish yog'i dupurlab, O'rg'o'ga Aqunbeshim podshoning olti yuz ming askari yordamga yetib keldi. Uni Qo'rdo'y, Chulu, Ilebin, Qashkel qalday boshlab kelishdi.

Jonidan umidi uzilib, holsirab yotgan O'rg'o' xon kelgan askarni ko'rib, quvonganidan yig'lab yubordi. Chuluga qirg'izlardan ko'rgan xo'rliklarini aytib, ko'zidan yoshini tiya olmay, unga nihoyatda arz qildi.

— Manas urushni qattiq boshladi! — dedi O'rg'o'. — Askarimning hammasini qo'ydek qirib tashladi. Sizlar yordamga bugun yetib kelmasangizlar, bizning sho'rimizga sho'rva to'kilar edi! — deb O'rg'o' Chuluning oyog'ini quchoqlab yig'ladi.

Aqunbeshimning askarini bir kun dam olsin deb, O'rg'o' uni Qara-Talning poyiga, Qashqa-Suuning bo'yiga olib bordi. Uch ming besh yuz molni, ellik yuz ming qo'yni so'ydirib, barin go'shtga to'ydirdi. Ilgari Qara-Tal deb atalgan bu yer uni qirg'izlar olgandan so'ng Qara-Ko'l deb atalib qoldi.

O'sha kuni yotib dam olgan qalmoqlar ertasi kuni tong sarg'ayib otganda qirg'izlar bilan jang qilishga tayyorlana bosh-

lashdi. Taraflar va'dalashgan yetti kun o'tib, urushadigan kun yetib keldi. Lekin olis yo'ldan charchab kelgan qalmoqlar Manasdan yana bir kun dam olishga ruxsat olish uchun O'rg'o'dan so'ranishdi. U o'tinch xat yozib, elchilarini qirg'izlarga yubordi.

Manas uning aytganiga rozi bo'ldi.

— Ozig'imiz ozaydi! O'rg'o' biz bilan otishadigan bo'lsa, bu yerga kelsin. Agarda otisha olmasa, unda bizga bir kunlik so'yish bersin! — deb Manas elchilarni qayta O'rg'o'ga yubordi.

Qirg'izlarning saxiyligini anqovlik qatori baholab, ichidan ularni mazaxlab kulgan O'rg'o' ko'nib, qirg'izlarga olti ming yilqi yubordi. Qo'sh boshiga birdan semiz otni so'yib, oq moyiga to'yishib, Manasning qo'li o'sha kuni dam oldi.

Ertasi kuni tongotarda nog'ora chalishib, durkun-durkun dupirlab, yer ko'chganday gupurlab, tug' ko'tarib, saf tortib, keng dalaga borishib, yuzma-yuz turib qolishdi. Harbiy odatni saqlab, urush oldidan botirlarning bellashuvini o'tkazadigan bo'lishdi.

Unga qalmoqlardan uzun bo'yli, sariq yuzli, burni do'rdaygan, o'zi taltoygan Manguluk chiqadigan bo'ldi. Alabayraq otini minib, qirq gazli nayza tutib, umrida hech kimga yengilmagan qalmoq botiri "mo'ngdu!"lab xitob chaqirib, maydonga chiqdi "laaylamaluu!" deb baqirib.

Manas yakkama-yakka olishuvga o'rta bo'yli, qorato'ri, siyrak soqolli, xushchiroy Qarabek o'g'li Qaldarbekni yubordi.

— Qodir Alloh o'zing qo'lla! — nayzasini mahkam ushlab, otini qamchilab, Qaldarbek otilib chiqdi maydonga.

Jangni boshlashga belgi berilgandan keyin ikki polvon bir-biriga qarab otlarini choptirib ketishdi. O'z polvonining yengishini xohlab, ikki qo'l aylanani aks sadoga to'ldirib, qiy-chuv solib, o'kirib-baqirib, och suronni boshlashdi.

Bunday qo'llovdan madad olgan ikki polvon bir zumda maydonning o'rtasiga chopib kelishib, bir-birini qochirishdi. Manguluq baqirib, qo'lidagi bayroqni yelda uchirib, Qaldarbekka nayzasin soldi. Lekin Qaldarbek o'zgancha, ostidagi to'riq otini o'ng yonboshga tortib qo'ydi. Unga sunilgan nayza qirg'izning otining egariga tegib, sirpalgan bo'yi o'tib ketdi.

Nayzani xato sanchganiga pushaymon bo'lgan qalmoq otining og'zini torta olmay, nogoh Qaldarbekning ortiga o'tib qoldi.

O‘shanda qirg‘iz o‘qdek bo‘lgan to‘riq otiga o‘nglanib qayta o‘tirib, Manguluqning ortidan chopib borib, kuragiga nayza bilan sanchdi. Qalmoqqa uni birato‘la botirib, o‘ldirishning o‘rniga Qaldarbek katta xatolikka yo‘l qo‘ydi. Dastlabki muvaffaqiyatidan havolangan qirg‘iz qalmoqni nayza bilan ko‘tarishga harakat qildi. Ammo Manguluqning bo‘ynini yorib, uning tanasidan nayza chiqib ketdi.

Tirik qolishga imkoniyat topilib qolganligidan, qalmoq jon-holi qolmay Alabayraq tulporiga qamchi solib, qirg‘izdan qocha boshladi. Izza bo‘lgan Qaldarbek nayzasini o‘nglab, qalmoqning o‘pkasiga urguncha, Manguluq otining chopqirligidan foydalanib, askarining ichiga qizil ola qon bo‘lib, bo‘yni yomon ochilib, qochib qoldi shalvirab.

Buni ko‘rgan qalmoqlar nihoyatda hayron qolishdi.

— Burun hech kimga bo‘yin bermagan Manguluqni shunday yarador qilsa, qirg‘izning botiri chinakam polvon ekan! — deyishdi ular.

Navkarlarning qirg‘izlarni qalmoqlardan baland qo‘yayotganiga uzun bo‘yli, keng yelkali, qora soqolchan, qorato‘ri Salag‘al nihoyatda izza bo‘ldi.

— Odam bo‘lmay qol! — yonida jarohatining og‘rig‘iga chidamay, o‘ntab yotgan Manguluqni kelishtirib so‘kdi Salag‘al. — Yo qirg‘izni o‘ldirib, yo o‘zing o‘lmay, sening joning nihoyatda shirin ekan!

Maydonga chiqishga ruhsat olib, Salag‘al ostidagi sariq otini choptirib, sariq qiyoq nayzasin mahkam ushlab, maydondagi Qaldarbekka otilib chiqdi. Qirg‘izga yetib kelib, Salag‘al uni nayza bilan sanchdi. Qaldarbek zarbani chetga qoqib yubordi.

— Qonin tortgan qalmoq! — g‘azablandi Qaldarbek. — Hovliqib menga nayza sanchganini qara, buning. Sening tagingga yetmasam, men men bo‘lmay qolayin!

Achchig‘i kelgan Qaldarbek qalmoqqa astoydil nayza soldi. U to‘shga taqalib qoldi. Urilgan zarbadan Salag‘alning ko‘zidan o‘t yog‘ilib, otining egarida arang ushlanib qoldi. Jonining og‘riganiga chidamay, yoyin olib, Qaldarbekni sir nayza bilan otadigan bo‘ldi. Salag‘al o‘qni kamonga joylab, ipni tortar bo‘lganda, Qaldarbek qalmoqning to‘shiga tiralib turgan nayzani tortib oldi.

Keyin u bilan qalmoqning sadog'ini kuchining boricha qoqib tashladi. Kamoni qo'lidan yerga uchib tushgan Salag'al qirg'izning jahliga qarshi tura olmay, to'riq otiga o'nglab qamchi solib, qo'liga qarab qochib ketdi.

"Xudo o'zing saqlagin! — yolvordi u. — Eson-omon qo'limga yetib olayin! Qaydanam maydonga chiqdim ekan?! Bir joyimni qisib, manmansiramay qo'lning ichida yuraversam bo'lmasmidi?! — deb armon qilgan Salag'al jon-holi qolmay, otiga ustma-ust qamchi urdi.

Qanchalik harakat qilganiga qaramay, Qaldarbek uni qochirib yubordi. Ortidan quvib yetib, "bo'ta qurdining cheti, qir orqaning beti!" deb, qiyqirib qalmoqning ortiga nayza sanchdi. Salag'alning zarbadan egardan orti qiyshayib, uzangidan oyog'i toyib, bo'ynidan qora qon oqib, zo'rg'a qo'lining ichiga kirib ketishga ulgurdi.

— Qirg'izning botiridan o'lmay, eson-omon keldim! — dedi safdoshlariga aljirab qo'rqqan qalmoq o'zining tirik qolganiga ishonib-ishonmay.

Uni ko'rib, jarohatini bog'latgan Manguluq yetib keldi.

— Xo'-o'sh, qandaysan, polvon? — mazah qilib qaradi u qaltirab-titrab turgan Salag'alga. — O'zingni botirday his qilib, menga nihoyatda dashnom bergan eding, o'zingning ahvoling nima bo'ldi? Qaldarbekni o'ldirmay, yo o'zing o'lmay, maydondan tirik kelguncha, osilib o'lganing yaxshi emasmidi, Salag'al?!

Manguluqning so'zlariga nima deb javob qaytarishni bilmay, boshi ketib aylanib, javob beruvchi tili bog'lanib, Salag'al boshini sangillatib, o'sal bo'lib qoldi.

O'shanda Qashkel polvon yaqin qarindoshi Salag'alni yomon ahvoldan saqlab qolish uchun Manguluqqa otildi.

— Sen nima deb dovdirayapsan? — g'azablandi u. — Salag'alga bunday gaplarni aytib xo'rlagani, nima u olishuvga chiqmay qo'ydimi? Yoki sanchishmasdan, qo'rqoqlik qilib, maydondan qochib ketdimi?

— Qo'rqoqlik qilgani yo'q, maydondan ham qochgani yo'q! — biroz o'ntagancha javob berdi Manguluq. — Lekin u Qaldarbekni yenga olmadi. Men shu haqda aytayapman!

— Yengmasa, yengmagandir! — darrov so'zladi Qashkel. Bu degan olishuv. "Er yigit goho tuya minar, goh yayov yurar", — deganday, polvonlar bellashuvlarda goho dushmanlarini yengadi. Ba'zan yengiladi. Asosiysi — bunday olishuvlarda omon qolish!

— Ma'qul, men sening so'zingga ishondim deylik! — so'z talashmadi Manguluq. — Endi nima qilamiz? Qirg'izning Qaldarbegiga yengilib, marrani oldirgan bo'yicha indamay qolaveramizmi?

— Yo'q! — tund javob berdi Qashkel. — Unga qarshi maydonga men chiqaman.

Boshchilarining fatvosini olib, miltiq, sadoq, bor yarog'ini bo'yniga osib, oltindan quyilgan butini qo'yniga solib, Salag'alning bo'yidan kam emas, alp qomatli, qora qoshli, iyaklari solqillagan, burni qo'nqaygan, sap-sariq Qashkel maydonga otini choptirib chiqdi.

— Otim Qashkel erman! — qiyqirdi u. — Odam o'g'li yuzlashsa, tirik qo'ymas menman! Qaldarbek, bu yerga o'limni tilab kelibsan. Bir boshingda ming joning bo'lsa ham, meni yoningga borgandan so'ng o'lganing o'sha! — po'pisa qildi Qashkel.

— Og'zingga tosh, kofir! — achchiqlanib javob berdi unga Qaldarbek. — Tosh bo'lsang ham tolqonlab, qiyrataman seni men oxir!

Botirlar ikki tarafdan otlarini choptirib, maydonning o'rtasiga kelganda bir-birini nayza bilan qochirishdi. Ikkovi teng egarlarida ushlanib qolib, ortga qarab chopib ketishdi.

Otlarining boshini burib, takroran bir-biriga yetib kelishib, ikkinchi marta nayza bilan sanchishishdi. Lekin birontasi ham zafarga ega bo'lmadi.

Bunday ko'rinish olti-yetti marta qaytalanib, olishuv yarim kunga cho'zildi. O'shanda ularning yoniga o'zlarining navkarlari borishdi.

— Sizlar bir-biringlarni yenga olmadinglar! — deyishdi ular. — Shu sababli olishuvni to'xtatib, qo'linglarga qaytinglar! — deb ajratib qo'yishdi.

* * *

Qaldarbek bilan Qashkeldan so'ng maydonga Qirg'il bilan o'rta bo'yli, keng yelkali, ingichka jag', sariq yuzli Jo'nggo'r ismli qalmoq kuch sinashga chiqishdi. Ikki polvon ikki tarafdan

maydonning o'rtasiga qiy-chuv bilan chopib kelishdi. Jo'nggo'r Qirg'ilga nayza solgan edi, qirg'izning polvoni uni qoqib tashladi. Keyin achchiqlangancha qilichini qo'lga olib, uni qalmoqqa siltadi. Qilich Jo'nggo'rning bo'yniga tegdi. Uning boshi yerga shilq etib tushib, tanasi bo'lsa otda qoldi.

Qalmoqning otini olib, Qirg'il qo'lni ko'zlab jo'nadi. U qo'liga yaqin kelganda, tog' qulagan kabi Jo'nggo'rning jasadi yerga qulab tushdi.

Shundan keyin maydonga Aynag'ul bilan o'rta bo'yli, chayir tanli, ingichka jag'li, Sari qiyar qalday chiqdi. Vaxshiylarcha olishuvdan keyin Sari qiyar qochib ketib, qirg'izning polvoni zafar qozondi.

Ulardan keyin qalmoqlardan bo'yi uzun, keng yelkali, chaqchaygan ko'zli, sariq yuzli Qatqal ismli qaldayi o'z kuchini sinaydigan bo'lib, maydonga Qara qo'ng'ir oti bilan chiqdi.

— Qo'ro'g'o'tu yerim, Sun xitoydan elim! — jar soldi u. — Kimning o'lgisi kelsa, oldimga mana shu yerga kelsin!

U bilan Manasning o'zi chopishadigan bo'ldi. U yarog'in belga osgancha, Aqkelte miltig'in taqqancha, Oqqula otini bostirib, maydondagi Qatqalga jo'nadi.

Qatqal uning yaqinlab kelishini kutib turmasdan, olisdan kerilib turib yoy tortdi. Buni payqab qolgan Manas qalqonini to'sib qo'ydi. Kamonning o'qi sovutga urilib, o'q o'tmas oq to'nda to'xtadi.

Achchig'i kelgan er Manas o'ziga otilgan o'qni olib, Qatqalni otdi. Kamonning o'qi qalmoqning sovuti bilan qiyog'in, qalqonini yorib, zirhga yetganda to'xtadi.

O'qning tekkan zarbidan Qatqalning ko'zidan o't sachrab, bo'g'in bo'shab, yura olmay, to'xtab qoldi.

— Yurmaysanmi, qalmoq?! — Manas hayqirsa ham Qatqal o'rnidan jila olmadi.

— Holing shu bo'lgandan so'ng, ortiqcha so'z atgan sen qanday ahmoqsan?! Oqqulaga qamchi urib, Manas uning yoniga bir zumda yetib bordi.

Holsirab turgan Qatqalga Manas nayza sanchdi. U qalmoqning ortidan chiqib ketib, uning chin ajali yetdi, "Laaylama jag'i!" deb joni chiqib ketdi.

O‘shanda Manasga o‘rta bo‘yli, alp qomatli, qorato‘ri Altin sundung* otlandi. Manasni ko‘rib hayqirib, haybatga solib baqirib, bayrog‘in yelda tebratib, yetib bordi unga qochirib.

Qirg‘izning yuragining xushini olish uchun Altin ovozining boricha baqirib, unga nayza soldi. Uning qiyqirig‘ini to‘g‘atib qo‘ymasdan, Manas sunilgan nayzani qoqib tashlab, qilichini qinidan sug‘urib oldi. Quvlik bilan yonidan o‘tib borayotgan qalmoqni o‘tkir qilichi bilan bo‘yniga soldi. Altinning boshi tomdan tushgan qovunday, shalaq etib yerga tushib qoldi.

— Yer quritgan qalmoqlar! — shonli qiyqirdi Manas maydonning o‘rtasida otini o‘ynoqlatib. — Botiring o‘ldi, narigi olamdagi ota-bobosin ko‘rdi. Kiming endi menga qarshi chiqasan? Kiming Altinning ortidan safar tortasan?

Manasning mazah so‘zlaridan qalmoqlarning joni chiqib ketay dedi. Millatining nomusini himoya qilish uchun maydonga uzun bo‘yli, qora qosh, qora ko‘z, hurpaygan soqolchan, alp qomatli, sariq yuzli Qubang botirni jo‘natishdi.

— Hozir maydonga chiqib, manmansiragan Manasning o‘tini yorib tashla! — buyruq berdi unga O‘rg‘o‘ xon. — Uning boshini kesib, olib kel. Men undan qimiz ichadigan idish yasatib olaman!

— Xo‘p bo‘ladi, xonim! — shaddodlik bilan javob berdi Qubang. — Hammasi siz aytganday bo‘ladi.

Qubang och qiyqiriqni solib, maydonga oti bilan otilib chiqdi. Maydondagi Manas dushmanini ko‘rib, unga sinab qaradi.

“Bu botir kuchli kimsaga o‘xshaydi?! — taxmin qildi u. — Ko‘rmaysanmi, osmondagi oyni yulib oladiganday bo‘lib choptirib turganini?! Turqiga qaraganda, menga nayza solmay, gurzi bilan urushadigan alpozi bor. Shu sababli har qanday tasodiflarga tayyor bo‘lish kerak. Buni atoqli botir deb ko‘p eshitganman!”.

Manas taxmin qilganday, Qubang uni nayza bilan sanchishdan bosh tortdi. O‘zidan avval Manasga qarshi chiqqanlarning qayg‘uli taqdirini ko‘rgan u kuch sinashning bu turidan qirg‘izning polvoniga hech kim teng kela olmasligini tushundi.

“Men buni nayza bilan emas, gurzi bilan chopib ko‘rayin! — o‘ylandi u. Balkim, baxtim ochilib, uni mana shu usul bilan yengib olarman!”.

Qubang Manasga yaqinlab kelganda gurzisini mo'ljallab, gup ettirib boshiga soldi. Xushyor turgan Manas gurzidan himoyalanib, boshiga qalqonni yopdi. Zarba nihoyatda qattiq tegib, qalqonning jaranglagan tovushi chor atrofga yoyildi.

Bunga achchig'i kelgan er Manas g'azablanib, Qubangni yoqasidan olib, qo'lidagi gurzisini yulib oldi.

— Chopish unday emas, bunday bo'ladi! — Manas Qubangni gurzi bilan kuchining boricha urdi.

Urilgan zarbadan Qubang tor-mor bo'lib, til tortmay, omonatini Xudoga topshirdi.

Shundan keyin qalmoqlarning yuragi tushib qoldi. Manasni hech kim yenga olmasligiga ishonib, ularning birontasi bora olmadi yakkaga, chiqa olmadi chekkaga.

Kuch sinashga boshqa hech kim chiqmay qo'yganidan O'rg'o' xon, Chulu ulug'i boshlagan qalmoqlarning uch yuz ming askari qirg'izlarga qarshi ot qo'yib, qizil qirg'inni boshladi.

Miltiqning o'qi yog'ildi, nog'oraning bari qoqildi. Osmon bilan yerning orasin ko'z achishgan chang bosdi. Kamonning o'qi tirqirab, odamning qoni to'kildi sharqirab.

Har ikki qo'l teng chekinishni, yengilishni xohlamadi. Tug'larining tubiga turishib, och bo'riday ulishib, armoni yo'q urishdi. Qo'li sinib, sangillaganlar, oyoq sinib, cho'loqlanganlar, ko'zi chiqib ko'ra olmay o'lganlar vaqt o'tgan sayin ko'paygandan ko'paydi. Bir-biriga marrani berishni hech kim lozim topgani yo'q.

Xitoy, qirg'iz — ikki yurt, qirilishgan el bo'ldi, qizil qon oqib sel bo'ldi. Suv qo'shilib suyuldi, keng daryo Ker -Ko'lga askarning qoni quyildi.

Olomon qattiq urushda xon Manas bilan O'rg'o' xon yuzma-yuz uchrashib qolishdi. Dahshatli jang-u jadallarda botirlar bir necha marta bir-biriga nayza sanchishdi, qilich bilan chopishdi, gurzi bilan solishdi.

Oxirida Manas ot ustida o'tirgan O'rg'o' xonning belidan ko'tarib, otdan sug'urib olib, yerga yalpaytirib chopdi. Qalmoq yerdagi toshga boshi bilan tegib, halok bo'ldi.

Eshtekning Jamg'irchisi bo'lsa kuch sinashda er Keymenni yengsa, Baqay xon Ilebinni o'ldirdi. O'shanda xonlaridan ayrilgan

qalmoqlar ko‘z bog‘langan oqshomda, kun botar kezda otin minib qochib, qarshilik ko‘rsatgan qirg‘izlarga g‘ayrati yetmay, qal’asiga yopirilib jo‘nadi. O‘tovga kelgandan keyin yaradorlari jarohatining og‘zini bog‘lashib, qolganlari jangda mingan otlarini tong otguncha sovitib, qon bo‘lgan to‘nlarini yuvishib, charchagandan cho‘zilib uxlab qolishdi.

Ertasi kuni tong otganda qalmoqlar sog‘idan yaradorlari ko‘p ekanligini bilishdi. Qirg‘izlarga yana jangga chiqsa, birato‘la qurbon bo‘lishi ularga ochiq-oydin ayon bo‘ldi. Buni kechagina anglab yetgan ba’zi bir “esli” askarlar tuni bo‘yi tog‘ni ko‘zlab qochib, chor atrofga tarqab ketdi. Qolgan askarlar jonlaridan umidini uzib, nima qilishini bilmay qolishdi.

O‘rg‘o‘ xonning ayoli o‘rta bo‘yli, oriqchiroy, yumaloq yuzli, oy jamol Sanamgul ham qalmoqlarning yengilganini tushundi. U qirg‘izlarga taslim bo‘lishdan boshqa chora qolmaganligini O‘rg‘o‘ xonning vaziri, tubi qozoq, oriqchiroy, ingichka jag‘, sariq yuzli Iramanga aytdi. Maslahatlashgandan so‘ng ular Manasga boradigan bo‘lishdi.

Xazina qo‘rg‘onidan Sanamgul bir-biriga o‘xshash o‘n otni olib, ikki bolasini, Iramanni, uning bolasi Qaratayni yetaklab, ikki g‘ildirakli aravada Jirg‘alanning bo‘yida, iliq suvning yonida yotgan Manasga jo‘nadi. U o‘zi bilan qizil kimxob, shoyidan, qimmatbaho pullardan ulkan dunyo qo‘shib olib bordi.

Aravadan tushib, Sanamgul Manasning chodiriga kirib, olib kelgan dunyosining hammasini taqdim etdi.

— Botir! — murojaat qildi u Manasga. — Bo‘lgan dunyoyimning hammasini olib keldim. Agarda bu kamlik qilib, meni o‘ldiraman desang, men bunga tayyorman. Sendan birgina so‘ranganim — mening ikki o‘g‘limga tegma. Ularning jonini omon qoldir, botir!

Manas Sanamgulning so‘zlariga nihoyatda rozi bo‘ldi:

— Uq, bovuchcha! — mehr bilan jilmaydi u. — Payqab qarasam, yaxshi kishiga o‘xshaysan. So‘zingni nihoyasida o‘ylanib so‘zlar ekansan. Shu boisdan men sening farzandlaringning umrini senga hadya qilaman. Ularning gunohidan kechdim. Xohlasang ularni olib, qal’angga ketaversang bo‘ladi!

— Katta rahmat, botir! — yig'lab yubordi suyunganidan Sanamgul. — Sening yaxshiligingni o'lguncha unutmayman. Menga qanday xizmat bo'lsa, uni bajarishga tayyorman.

— Sendan hozircha hech qanday xizmatning keragi yo'q! — javob berdi Manas. — Menda birgina o'tinch bor.

— Aytavering, botir! — ta'zim qildi Sanamgul.

— Yoningizda yurgan bola menga yoqib qoldi! Uning aqlining donoligi yurtga ko'rindi. Agarda siz ep kelsa, mana shu bolani bizga tashlab ketingiz. U bizda ertami-kech ermak bo'lib yursin!

— Bu bolaning ismi Qaratay! — javob berdi Sanamgul. — U vazir Iramanning bolasi. Sizga bolamiz yoqib qolgan bo'lsa, uni qoldirishga rozimiz!

Qaratayni, kelajakdagi qirq jo'raning biri, Iramanning Qo'shiqchi o'g'lini Manasga tashlab, qirg'izlardan zulm ko'rmay, osongina qutulganiga suyungan Sanamgul bilan Iraman qal'asiga qaytib ketishdi.

Shundan keyin Manas bilan Baqay boshqa botirlar bilan kengashib, navbatdagi yurishni Aqunbeshim podshoga qarshi amalga oshiradigan bo'lishdi. Uni yengish uchun askarni uchga bo'lishga qaror qabul qilindi. Birinchi to'pni Aydarxon bilan Ko'kcha boshqarib, yuz ellik ming qo'l olishdi. Ular Ker-Ko'lni oshib tushib, Ile bo'yidagi Ilebin xonning qalmoqlari bilan chopishadigan bo'lishdi.

Ikkinchi to'pni boshqargan Urbu ham yuz ellik ming qo'l olib, kemindegi Keymen shohning qalmoqlarini chopadigan bo'ldi.

Uchinchi to'pni Manas o'zi boshlab, Chuydagi Aqunbeshim podshoga otlandi.

XIII. Manasning Chuydagi Aqunbeshimni yengishi

Aqunshaning bu davrda xon bo'lganiga qirq besh yil to'lgan edi. Uning eli O'ro'l tog'ning ichida, O'tuz-Suuning qarshisida yashab turgan. Uzun bo'yli, keng yelkali, ingichka jag', sariq yuzli Aqunbeshim qirg'izlarning O'rg'o' xonga qo'l solganini uqib, unga yordam qatori minglagan askarlarini yordamga yuborgan. Sababi ular qirg'izlarni to'lig'i bo'yicha yakson qiladi deb o'ylagan.

Turmush uning yanglishganini ko‘rsatdi. Qirg‘izlar O‘rg‘o‘ xon bilan Aqunbeshimning askarlarini yengib olishdi. Bu to‘g‘risida Aqunbeshimga Manasning qo‘lidan arang qochib qutulganlar aytib borishdi.

Ularning birontasi ham sog‘ emasligini ko‘rganda, Aqunbeshimning yuragi shuv etdi. Qochib kelganlarning qay biri otto‘nidan quruq qolgan bo‘lsa, ikkinchilari qulog‘idan, uchinchilari ko‘zidan, to‘rtinchilari qo‘lidan, oyog‘idan ayrilib kelishibdi.

Buni ko‘rgan Aqunbeshim ko‘z yoshini ko‘lday to‘kdi.

— Biz yozi yaxshi, suvi tiniq yerlarni yerlab, yayrab yashayotgan edik! Endi bo‘lsa alashlar bizni qurshab olib, sho‘rimizni qurityapti. Biri kam dunyo! Ulardan qanday qilib qutulaman?! Chorasini qanday qilib topaman?! “O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil!” — degan shu ekan-da! — Aqunbeshim bundan battar ho‘ngradi.

Ancha ko‘p yig‘lab, hovurini chiqarib olgandan keyin esini yig‘ib, kelajakda uchrashadigan dushmanlari haqida qochib kelgan qalmoqlardan surishtira boshladi.

— Qirg‘izlar abjir ekanmi? — so‘radi u Sari qiyardan. — Ular qanday usul bilan jang qilishar ekan?

Kuch sinashga chiqib, arang omon qolgan qalmoq bu savolni eshitganda bo‘zlab yig‘lab yubordi.

— Xonim! Biz shu paytgacha jon talashib urushib, el ko‘rmabmiz! Aytganidan qaytmagan, ajaldan boshin tortmagan er ko‘rmagan ekanmiz! Qirg‘izlar shunday botir, qahramon el ekanku. Men manmansirab, olishuvga chiqib, ilojimni topmay qoldim. Qanchalik harakat qilib, g‘alabaga yeta olmadim. Jonimni qutqarib, qochib, yoningga yana qaytib keldim. Ular bo‘lsa ortimizdan quvib kelayotganini uqdim. Agarda qirg‘izlar bu yerga kelsa, soqol bilan mo‘ylovimizni terib, sazoyimizni qo‘limizga beradi, deb o‘ylayman! — ko‘z yoshini ko‘llatib, Sari qiyar qalday xoniga talay so‘zlarni aytdi.

Buni uqqandan so‘ng xonning esi og‘ib shalpaydi. Anchagacha o‘ziga kelolmay, lom-lim demay o‘tirib qoldi.

“Sho‘rim qurigan ekan-ku!” — qo‘rqqanidan qaltiradi u. — Men O‘rg‘o‘ xonga yordamga askarlarimni yuborib, katta yang-

lishlik ketkazibman! Agarda jo'n turganimda, balkim, Manas bunchalik o'chashmasdan, mening yerimga kelmay qolarmidi?!" — Aqunbeshim qilgan harakatlariga nihoyatda o'kindi.

Yonidagi navkarlari javdirab tikilib turganini ko'rgan xon uyalib ketdi.

"Menga nima bo'ldi? — pushaymon bo'ldi Aqunbeshim. — Xon bo'lgandan keyin elim uchun to'liq bo'ydan javobgarman. Shu boisdan bunday shaldiramasdan, aksincha, ularga sabr, dalda bo'lib, ruhini ko'tarishim kerak. Aks holda biz qirg'izlarga yo'liqmay turiboq yengilgan bo'lamiz!".

Aqunbeshim ko'z yoshini tiyib, atrofdagilarga tund qaradi.

— Sizlar nega sulayib, qo'rqib qolgansizlar?! — norozi bo'ldi u. Do'ppidek bo'lgan qirg'izlardan nimaga cho'chiyapsizlar? Biz ularga qaraganda allaqancha ko'p elmiz. Alashlarning zo'rligini tulpor minib, tug' yozib, turishganda ko'ramiz. Tub ko'tarib, saf tortib, urushganda ko'ramiz! Qazo yetsa, kun bitsa, qayda bo'lsak o'larmiz! Kim meni Manasdan yengiladi desa, u aljirabdi! Bir emas, ming Manasning chang-to'zonin chiqaramiz! Ular bilan urushmasdan, to'rt otam o'tgan Aban suvni hech qachon tashlab ketmaymiz! Buni barchasiga bildiringlar! Barin yordamga chaqiringlar! — buyruq berdi Aqunbeshim navkarlariga.

Podshoning ko'ngli ko'tarilib, qirg'izlarga qarshi kurashning yetakchiligini o'z qo'liga olganiga quvongan qalmoqlar chor tarafga to'qson choparni yuborishdi.

* * *

Aqunbeshim Manasning qo'li kelayotganini uqqan kundan beri rappa-raso uch oy-u on to'rt kun o'tdi. Qalmoqlar bo'ladigan urushga nihoyatda qattiq tayyorgarlik ko'rishdi.

"Manas keldi!" — degan xabarni uqqanda qalmoqlar o'n besh yuz ming qo'l bilan qirg'izlarga peshvoz chiqib, Jilg'induuning dalasiga borishdi.

Dushmanlar yuzma-yuz kelganda ikki polvon olishuvga chiqadigan bo'ldi. Qalmoqlardan oq yolli qora ot mingan, oltindan yarimoy to'n kiygan, to'nkara qalqon tortilgan, ko'k nayza ko'targan, uzun bo'yli, ingichka jag', sariq yuzli Kegeti jaysang maydonga

chiqdi. Qirg'izlardan Aqquyruq otni mingan, yarog'in belga ilgan, mubaqul* nayza ko'targan, o'rta bo'yli, keng yelkali, oq yuzli Abdilda botir otlandi.

Belgi bo'yicha polvonlar bir-biriga intilib, otlarining og'zini qo'yib yuborishdi. Ikki qo'lning suronining ishtirokida bir zumda maydonning o'rtasiga yetib borib, bir-birini nayza bilan qochirishdi. Ikkovi teng chapanilik qilib, omon qolishdi.

Otlarini choptirgan bo'yi maydonning oxirigacha borishgan polvonlar otlarining og'zini tortib, qaytadan bir-biriga intilishdi. Nayzalar bilan sanchishib, dushmanini o'ldirishga harakat qilishdi. Biroq hech kim maqsadiga yetmadi.

Shunda polvonlar nayzalarini irg'itishib, qilich bilan chopishadigan bo'lishdi. Qilichlarini yaraqlatib, dushmanining yuragining xushini olish uchun ovozining yetishicha baqirib, chopisha boshlashdi. Ikkovi teng chinakam polvonligini isbotlab, nihoyatda hunarini ko'rsatishdi. Biri chopgan qilichni qaytarib, ikkinchisi darrov hujumga o'tishdi. Unisi bo'sh kelmasdan, dushmanining qilichini chetga qoqib yuborib, o'zi hujumga o'tar edi. Natijada bu safar ham hech kim yenga olmadi.

Qilichlarini irg'itib yuborib, polvonlar oybolta bilan solishishga o'tishdi. Bundan naf chiqmagandan keyin gurzi bilan chopisha boshlashdi. Biri uqqan zarbani ikinchisi qalqon bilan to'sib, och bo'riday ulishdi. Qanchalik o'jarlik qilgani bilan biri ikkinchisidan ustunlik qila olmadi.

Bunga yanada battar jini kelgan botirlar yoylarini qo'lga olib, bir-biriga ota boshlashdi. Elliktadan o'qi tugab, hech kim marrani oldirib qo'ymadi. Oxirida bir-birini miltiq bilan otishdi. Yuzlab o'qi tugadi, biroq hech biri yengmadi.

Kun tekkanda solishishni boshlagan polvonlar kech kirgunga qadar olishishdi. Birontasi g'alabaga erishmay, charchaganda askarlariga qaytishdi.

Ertasi tong otganda qon maydonga qalmoqlardan Tug'aliq polvon chiqdi. Sari ot mingan, bo'ynida qalqoni, qo'lida nayzasi bor, lunji osilgan, burni qilichning g'ilofiday, oyboltaning sopiday, qorato'ri, tog'day haybatli qalmoq shaytoncha baqirib, paynalab xitob qilgancha, olishuvga mardlashib chiqdi. Manasning qo'lidan Aydarxonning o'g'li er Ko'kcha Tug'aliqning oldiga jo'nadi.

Maydonning o'rtasiga yetib kelgan ikki polvon bir-birini nayza bilan qochirishdi. Ko'kcha Tug'aliqning nayzasini qalqoni bilan egib, o'zi unga nayza siltadi. U Tug'aliqning ko'kragiga taqalib qoldi. Nayzadan Tug'aliq chiqa olmadi. Ko'kcha uni bir-to'la ot ustidan yiqita olmay, ikkalasi tirashib qoldi.

Shunda Tug'aliq otining boshini burib, qo'liga qochib ketdi. Ko'kcha ortidan yetib borib, uning bo'yniga nayza soldi. Tug'aliq otdan qulab ketayin deb, zo'rg'a otining bo'ynidan quchoqlab, yarador bo'lib, oqqan qoni chak-chaklab, qo'liga kirib ketdi.

Ko'kcha quvishni to'xtatdi. Sababi qalmoqlarning qo'lining ichiga kirib ketsa, dushmanlarining osongina o'ljasiga aylanar edi. Botir otining boshini burib, maydonga qayta tortdi. Uni qirg'izlar zafari bilan qutlug'lab, yerni larzaga keltirib qiyqirib kutib olishdi.

Bundan qalmoqlar nihoyatda izza bo'lishdi.

— Otadan tug'ilmay qolgur! — g'azablandi Tug'aliqqa Jamira degan jaysang. — Bizning barchamizni sharmanda qilding sen, it desa!

Uzun bo'yli, alp qomatli, siyrak soqolchan, burni do'rdaygan Jamira qo'liga nayzani olib, Alager otiga minib, maydondagi Ko'kchaga qarab chopib jo'nadi. Unga yetmasdan, osib yurgan yoyini olib, o'q otdi. O'q yetti qavat qalqonni yorib o'tib, sovutni teshib, Ko'kchaning o'ng qobirg'asiga qadalib qoldi.

Eti achishgan Ko'kcha qobirg'asidan nayzani sug'urib oldi. Jamira o'qdonidan yana o'q olib, yoyning ipiga solguncha unga yetib borib, nayza bilan to'shiga sanchdi. Zarbadan Jamira otidan ag'darilib, yerga boshi bilan sanchilib, o'sha yerda halok bo'ldi.

Yarador bo'lgan Ko'kcha uning Alager otini olib, qo'liga qaytdi. Qobirg'asi qattiq og'riganidan yotib qoldi.

Shu paytda maydonga qalmoqlardan uzun bo'yli, keng yelkali, sariq yuzli Mo'ngdu-Chebeng polvon nayzasini ushlab chiqdi.

— Burut bo'lsang kelgin! — hay-hayni soldi u. — Kim bo'lsa ham ta'zirini beraman!

Qirg'izlardan o'rta bo'yli, chayir tanli, ingichka jag', oq yuzli er Majiq u bilan kuch sinashadigan bo'ldi. U maydonga chiqishi bilan ikki polvon hayallamasdan, darrov nayza bilan sayisha boshladi. Necha marta bir-birini qochirib kelishib, hech kim g'alabaga erisha olmadi.

Nayzalardan natija chiqmagandan keyin polvonlar qilich bilan chopishishga o'tishdi. Qalmoq chapanilik qilib, Majiqning yuz-boshini bir-ikki marta qilichining uchi bilan tilishga ulgurdi. Tilingan yerlari yorilib, og'riganiga chidamay, Majiq otining boshini tortib, qo'liga qochib kirdi.

— Odam bo'lmay qol! — so'kdi uni er Urbu. — Holing yetmay, lapashang bo'lgandan keyin maydonga nega chiqasan?

Urbu g'azablanib, oti bilan Mo'ngdu-Chebengga qarab jo'nadi.

"Sen nimaga manmansirayapsan? — Urbuning otilib kelayotganini ko'rgan qalmoq miyig'ida jilmaydi. — Menga mardsirab chiqqan Majiqni chiqqan yeriga qayta kirgizdim. Sening ham ta'ziringni beraman!".

Maydonga yetib kelgan Urbu bilan Mo'ngdu-Chebeng xiylagacha jang qilishdi. Nayza bilan sanchishib, qilich bilan chopishib, bir-birini yengga olmadi. Oxiri oyboltaga navbat keldi. Qalmoqning zarbasini qalqoni bilan to'sib oldi. Urbu uni oyboltasi bilan boshining o'rtasiga urib, to'rtga bo'lib tashladi.

Oqshom kirib, kech bo'lib qolganligidan, ikki qo'l joy-joyiga borib, yotib qolishdi. Ertasi kuni kurash yana davom ettirildi.

Qalmoqlardan maydonga keng yelkali, o'rta bo'yli, sariq yuzli Salangir polvon chiqdi.

— Kel, burut! — maydonda uning baqirig'i bosh yordi.

Buni ko'rib bo'yg'utdan borgan uzun bo'yli, oriqchiroy, qizil yuzli Quban xon otga minib hayqirib, "Baabedin!" — deb baqirib, maydonning bir chetida otini to'xtatdi.

Berilgan belgi bo'yicha Quban bilan Salangir maydonning o'rtasiga chopib ketishdi. O'rtadagi oraliq qisqarib qolganda Salangir o'zgancha, qirg'izga nayza sanchdi. Quban uni qoqib yuborishga ulgurdi. Shundan keyin dushmaniga nayza sanchishning o'rniga polvonlikning boshqa turini ko'rsatdi.

Qalmoqni mahkam ushlab, olti yashar boladay otidan yulib oldi. Keyin uni uloqday otining yoliga bosib, asta-sekin askariga keldi.

— Bog'langizlar buni! — Quban xon Salangirni otining ustidan yerga irg'itdi.

Keyin qaytadan sekin-asta maydonga qaytdi. O'shanda qirg'izlar suyunganidan aylanani larzaga keltirib o'kirishsa, qalmoqlarning rangi bo'zarib ketdi.

— Bu ne degan masxarabozlik?! — kuymagan yeri kul bo'ldiku qalmoqlarning. — Bizning polvonlar nima, mushukning bolasimi? Nima uchun o'zlarini otga to'nkarib olib ketishlariga yo'l berishyapti? Asli bizda qirg'izlar bilan chopishgani holi yetadigan birov bormi? Yoki hammasi Salangirdek landavurmi?!

Qalmoqlarga marrani olib berish uchun Qubanga qarshi Tushkoluk otini minib, Tulus polvon maydonga chiqadigan bo'ldi.

Tulusning polvonligi polvon aslida. U — Chanag'ar suvini yerlagan, jang qilib uni odam yengmagan, qalmoqning eng atoqli botirlaridan biri. Burni ulkan buraday, ikki ko'zning chuquri tog' belining tubiga qazib qo'ygan o'raday. Qoshin ko'rsang qalmoqning ho'llangan qora teriday, to'shin ko'rsang, to'shi qora yeriday. Qulog'ining teshigi ustunga qazgan cho'nqurday bo'lgan Tulus jang-jung maydonga otilib chiqdi.

— Ismim Tulus, o'zim er! — qiyqirdi u nayzasini chayqab. — Aqunbashim podshoga otam tug'ishgan, donishmand. Burutlar! Kiming yashashdan to'ygan bo'lsang, kelinglar. Joninglar tirik qutulmas! Qo'lingga azobingni beraman, damingni hozir bosaman!

Uning so'zlarini eshitgan Quban chichanglab, o'ta izza bo'ldi.

— Beri kel oldimga, ahmoq Tulus! — baqirdi u. — O'chirayin uningni, tolqon qilay cho'chqaday bo'lgan yuzingni!

Bir-birini kamsitgan ikki polvon bir-birini nayza bilan qochirishdi. Qubanning nayzasini chetga qoqib yuborib, Tulus uni o'zi sanchdi. Qattiq urilgan nayza Qubanning ko'kragidan kirib, ortidan g'o'dayib chiqib qoldi. Tulus uni nayzasining uchiga ilgan bo'yi qo'liga kelib Qubanni uloqtirib askarlarining oldiga irg'itdi.

— To'g'ri urgan Quban kofirni o'ldirmay qo'yib turinglar! — baqirdi Tulus. — U nima sababdan buzulib, bizga qarshi chiqqanini bilayin? Aqunbeshimning jang-jungi edi yoshligida. Endi bo'lsa Bo'yg'utga duu-du bo'lib qoldi!

Jahli chiqqan Tulus otiga qamchi urib, qayta maydonga bordi. Uning polvonligini ko'rgan qirg'izlar sulayib, so'ylay olmay qotib qolishdi taltayib. Tulusning chinakam botir ekanligiga barchaning ko'zi yetdi.

— Kim menga qarshi chiqadi? — qiyqirdi Tulus otini o'ynoqlatib. — Sizlarning erkaginglar bormi, qirg'izlar?!

Manas unga qarshi Qara Teyit elidan Qalmat botirni chiqaradigan bo'ldi. Uzun bo'yli, alp qomatli, qirra burunli, qizil yuzli Qalmat Qarala otini minib, maydonga chiqdi.

"Tulus nihoyatda kuchli jangchi ekan! — o'ylandi u. — Uni yengish oson emasligi oydek ravshan. Bizning qanchalagan botirlarimizni yengib oldi. Bunday atoqli polvondan marrani olgan odam umr bo'yi shon-shuhratga belanadi. Nomi asrlarga qoladi. Shu boisdan bor kuchimni sarflab, uni yer bilan yakson qilishga harakat qilayin!" — o'ylandi u.

Berilgan belgi bo'yicha ikki botir xitob qilgancha, Xudolariga yalinib, bir-biriga peshvoz tarzda chopishdi. Maydonning o'rtasiga kelganda Qalmat o'zib, Tulusni nayza bilan qochirdi. Tulus unga osongina chap berib, qora o'lat o'tkir qilich bilan o'zini chopdi. Qilich bo'ynini qiyib ketgan Qalmat otdan tushib, yorug' dunyo bilan vidolashdi.

— Qora qo'yib, qon kelgin, yolg'izing qo'yib, son kelgin! — shunda g'azablanib qiyqirdi Tulus. — Joning tirik qutulmas, o'lgum degan jon kelgin!

"Bu qalmoq turishi bilan yalmog'izning o'zi-ku?! — nihoyatda hayron qoldi Manas. — Uning botirligi botir ekan. Bizning ikki polvonni bir zumda tinchitib qo'ydi. Bunga bizning yigitlardan qaysi birining holi yetadi?!"

Manas tinchsizlanib yonidagi navkarlariga qaradi.

— Bu manmansiragan qalmoqqa kim chiqadi? Kim unga bas kela oladi? — so'radi u.

— Men! — javob berdi uzun bo'yli, oriqdan kelgan, ingichka jag', qorato'ri Murahim Qayip botir.

— Sening unga holing yetarmikin? — gumonsirab so'radi undan Manas. — Tulus o'ta tajribali jangchi. Sen bo'lsang olishuvlarda yetarli qatnashgan emassan. Qalmoqdan yengilib, nobud bo'lishing mumkin. Shu boisdan Tulusga qarshi sen chiqmay qo'ya qolganing durust!

— Aytganlaringiz to'g'ri emas! — gap bermadi Murahim Qayip botir.

— Nimasi to'g'ri emas? — so'radi Manas.

— To'g'ri, men kuch sinashuvlarda oz qatnashganman! — javob berdi Murahim. — Biroq hech kim meni yosh bola, hol-

siz deb ayta omaydi. Shu paytgacha raqiblarimning barchasini yengib, hech kimga marrani oldirgan emasman. Shu boisdan hech cho'chimasdan, meni maydonga chiqaraverishingizni so'ranaman, botir!

Manas unga biroz o'ychan tikilib turib, keyin roziligini berdi. Bunga suyungan Murahim otiga sakrab minib, maydonga otilib chiqdi.

Olishuvni boshlashga ruxsat berilgandan keyin nayzasini aylantirib, Tulusni qochirdi. Qalmoq uni qalqoni bilan qoqib yubordi. Keyin nayzani hovuchlab ushlab, o'ziga tortib oldi.

Tulusning haybatini ko'rganda Murahimning esi og'di.

"Aniq sho'rim quriganga o'xshaydi! Bu qalmoqqa mening ikki dunyoda ham holim yetadiganday emas. Undan qochib qutulmasam, sog' qolmayman!" — deb Murahim qo'liga chopdi.

Biroq Tulus uni qochirib yubormay, Tushko'luk oti bilan Murahim polvonning otiga oson yetdi. Keyin qirg'izni belidan ushlab, besh yashar boladay otdan yulib oldi. O'z askariga olib borib, Murahimni ularning orasiga irg'itib yubordi.

Shundan keyin Tulus asta maydonga qaytib keldi.

— Jondan to'ygan qirg'izlar, beri kelinglar! — g'azablanib, qaytadan qirg'izlarni kamsitib baqirdi qalmoq.

Murahim Qayip botirning Tulusga osongina o'lja bo'lganini ko'rgan Manas og'ir xo'rsinib, boshini chayqadi.

— Qirg'izlar Tulusdan kuchsiz ekanligini isbotlashdi! Balkim qozoq birodarlar uning ta'zirini berishga yarar?! — savol bilan tikildi Manas yonida turgan Chag'o'o'bek botirga.

— Urunsam, urunib ko'rayin! — kulimsirab javob berdi uzun bo'yli, alp qomatli, qirra burun, sariq yuzli Chag'o'o'bek.

Kuch sinashga chiqishga hammadan fatvo olib, otiga minib, qurol-yarog'ini osib, maydonga chiqdi. Uni ko'rgan Tulus yana miyig'ida jilmaydi.

"Buning meni masxara qilganday irjayganiga qarasang! — achchig'i keldi shunda Chag'o'o'bekning. — Olishuv boshlanmasdan turib meni yengdim deb o'ylayapti-ku?! Yo'q, qalmoq! Men senga osongina yem bo'lmayman! Mendan oldingni polvonlar kabi sen bilan nayza sanchishib, qilich chopishib o'tirmayman.

Ko'zga otar merganman. Miltiq, yoy bilan ellik qadamdan olmaxonning ko'ziga aniq otaman. Shu sababdan seni olisdanoq otib tashlayman!".

Olishuv boshlangandan keyin Chag'o'o'bek bilan Tulus otlarining og'zini qo'yib yuborib, bir-biriga qarab chopib ketishdi. Qalmoqning yaqinlab kelishini kutmasdan, Chag'o'o'bek miltiq bilan bir otib, faxrlanib yoy tortdi. Tilakka qarshi, uning o'qi bilan nayzasi xato ketib, qalmoq omon qoldi.

"Oldirarda ozdirar degani shu ekan-da! — armon qildi Chag'o'o'bek. Umrimda birinchi marta nishonga tegmay qoldim! Bo'lganda ham ikki qadam yerdan torvaygan kishiga aniq ota olmadim. Endi bu yalmog'izdan qochishdan bo'lak chora qolmadi!".

Chag'o'o'bek otini ortga burib, qo'liga qochdi.

Qanchalagan olishuvlarda yengib chiqqan Tulus unga qochishga mumkinchilik bermadi. Darrov Chag'o'o'bekka yetib borib, uni otidan yulib oldi. Keyin uni otining yoliga oshirib olib, qo'liga kirdi. Chag'o'o'bekni ham eliga o'lja qilib berdi.

Bunday haybatni ko'rgan qirg'izlar Tulusning yoniga maydonga botinib bora olmadi. Xudo yorlaqab, kech kirib qolganidan olishuv to'xtatilib, ikki tarafning askarlari yotgan joyiga qaytishdi.

* * *

Ertasi kuni tong otganda olishuv davom ettirildi. Qalmoqlardan qaytadan Tulus maydonga chiqdi. Uni hech kim yenga olmay turganini tushungan qirg'izlar olishuvga Manasning chiqishini ep ko'rishdi.

Ularning aytganiga rozi bo'lib, Manas Oqqulani minib maydonga chiqdi. Uni ko'rganda Tulus qirg'izning polvonini masxara qila boshladi.

— Manas degan sensanmi? — baqirdi Tulus. — Ori yo'q, quv qirg'iz. Seni ajaling menga haydab kelibdi. O'limga tayyorlanaver, tentigan burut!

Bu so'zlarga Manasning jini keldi.

"Otangni urayin, qalmoq! — ichida so'kindi u. — Tili zahar ekan buning! So'zlari suyakka borib yetmadimi. Shoshmay tur! Agarda bu mening oxirgi olishuvim bo'lsa ham, men sendan qo-

lishmayman. Seni so'zsiz yengaman. Yo'q deganda, seni o'zim bilan narigi dunyoga olib ketaman!".

Kuch sinashni boshlashga belgi berilgandan keyin Manas darrov otining og'zini qo'yib yubordi. Maydonning o'rtasiga yetganda Tulus o'zib, gurzi bilan uning boshiga soldi. Manas qalqoni bilan yopinib olganda gursillab qalqonga urildi.

Ko'zidan o't sachragan Manas Achalbars qilichini olib, bo'yini rostladi. Uni qaytadan gurzi bilan urishga shaylanib turgan Tulusning o'ng yelkasiga soldi. Qalmoq zarbadan o'ziga kelolmay qoldi. O'ng qo'li uzilib, yolg'iz chap qo'li bilan qoldi.

Qo'lining og'rig'iga chidamay, o'kirayotgan qalmoqni Manas oybolta bilan boshini ikkiga bo'lib tashladi. Shundan keyin o'lgan Tulusning otini olib, Manas o'z qo'liga qaytdi.

O'sha kuni ham el tanaffus qilib tek yotdi. Ertangi kuni tong otib, dushmanlar maydonga karnay chalib voppilab, surnay chalib taqillab chiqishdi. Ular yana polvonlarning bellashuvini o'tkazadigan bo'lishdi.

Qalmoqlarning tog'day g'o'daygan, burni do'rdaygan, qorato'ri Sayin Chebek polvoni boshiga qalqon olib, o'rtaga chopib chiqdi.

— Chantuu bo'lsang kelgin! — och qiyqiriqni soldi u.

Unga qarshi er Manasning to'pidan Quldurning o'g'li Chalibay chiqadigan bo'ldi. O'rta bo'yli, chayir tanli, oq yuzli Chalibay Chebekdan bo'yi kalta bo'lsa ham, tajriba yog'idan undan kam emas edi. Talay marta olishuvlarda qatnashib, marrani qo'lga kiritib yurgan Chalibay kuchiga ishonib, ikkilanmasdan qalmoqning deviga qarshi otlandi.

Belgi bo'yicha polvonlar otlarini choptirib, maydonning o'rtasiga kelishdi. Chebek o'zib, Chalibayga birinchi bo'lib nayza sanchdi. Qirg'izning polvoni uni chetga qoqib yuborib, o'zi hujumga o'tdi. Ko'kragiga nayza qattiq tekkan Chebek otidan to'pdek irg'ib, yerga uchib tushib, omonatini Xudoga topshirdi.

Chebekning o'lganini ko'rgan O'to'luq o'g'li Alaqal Chalibayga qarshi otlandi. Bo'yi kichkina oriq bo'lgani bilan uning ayyorligi bor edi. O'sha qobiliyatiga ishonib, u qirg'izning polvonini yengishga umid qildi.

Alaqalning baqirig'i bosilmay, maydonga hay-hay solib kirdi. Ro'baro' kelganda, Chalibay unga guvullab nayza sanchdi. Alaqal uni qoqib yuborib, o'zi Chalibayga nayza sanchdi. Nayzasi qirg'izning o'ng biqiniga kirib ketdi. Joni achishgan Chalibay qilichi bilan sanchilgan nayzani chopib tashladi. Alaqalga o'zi nayza sanchganda, qalmoq uni qalqoni bilan chetga qoqib yuborib, qo'rqqanidan qo'liga qochib ketdi.

O'shanda Chalibayga qarshi Aqunbeshimning polvoni uzun bo'yli, alp qomatli qorato'ri Do'g'o'o'n maydonga chiqdi. U qochirgan bo'ydan Chalibayga gursullatib gurzi soldi. Gurzi boshiga tegarda Chalibay uni qalqoni bilan qoqib yubordi.

Keyin to'xtamasdan Do'g'o'o'nning kekirdagiga nayza bilan soldi. U gejgadan teshib chiqib, qalmoq til tortmay halok bo'ldi.

Bu xo'rlikka chidamay, qalmoqlardan o'ttiz polvon bo'linib, qirg'izlarga ot qo'yishdi.

— Qoplagin qalmoqni! — buni ko'rgan xon Baqay hay-hay soldi.

Manas boshlagan sakkiz yuz ming qo'l bilan Chag'iraq bo'yi yo'l bilan Baqay qalmoqlarni qiyqirib qoplab keldi. Shu payt ularga Tekelik tog'ining ro'parasidan, Sengir-Kechuu uchidan xon Aydarxon boshida bo'lgan uch yuz ming askar yordamga yetib kelishib, qalmoqlarga ot qo'yishdi. Qirg'iz bilan qalmoqlar bir-birini tolqon qilib qirishdi.

Qizil qirg'in boshlandi. Dushmanlar oybolta bilan solishib, nayza bilan sanchishib, qilich bilan chopishib, miltiq bilan otisha boshlashdi. Aylananing hamma yog'ini chang bosib, kunning ko'zi ko'rinmay qoldi. Azoblilar sulayib, ajali yetganlar joni chiqib quladi. Yerda qumlab yotgan o'liklar ustidan otlar yura olmay qolishdi. Qie-Suu bilan Chag'ir-Suuda odamning qoni sel bo'lib oqdi. Suzib suv icha olmay suv oluvchi yeridan, suvning qonin ko'rgach so'ng, ayollarning barchasi umidin uzdi eridan. Uchib yurib osmonda, qush adashdi esidan.

Dahshatli jang-u jadal ikki kun-u, ikki tun tinmasdan davom etdi. Aralashgan ikki qo'l tug' ostiga turishib, tug'imiz qochmay turar deb, matonatli urushdi, och bo'riday ulishdi. To'zon bilan ko'rinmay Taluu-Kusho'n qal'asi, qizil qonga belandi Sari-O'zo'n Chuuning dalasi.

Shunday qattiq urushni taraflar uchinchi kuni noiloj to‘xtatishdi. Sababi dalada yig‘ilmay yotgan o‘liklar issiqning kunida sasib, yurishga, ot bilan chopishga mumkinchilik bermay turishdi.

Dushmanlar tanaffus qilib, o‘zlarining o‘liklarini daladan yig‘ishtira boshlashdi. Qirg‘izlar o‘lgan navkarlarining janozasini o‘qishib, ularni oxirgi safarga uzatish bilan halak bo‘lishdi.

Qalmoqlar ham o‘liklarini izlab topishib, yig‘ib yurishdi. Sanab ko‘rishsa, ularning qirq ming navkari halok bo‘libdi. Yig‘labsiqtab, sakson ming tuyaga ortib, o‘tyoqar joyin o‘nglatib, o‘ttiz ming arava oldirib, Kie-Suu, Chag‘ir og‘ziga, No‘o‘ruzning qora tog‘iga borishib, o‘t kuydirib yondirib, qizil o‘tga soldirib, qalmoqlar o‘liklarini o‘tda kuydirishdi.

O‘lganning ustiga qo‘pgan qilib, qalmoqlarning to‘qson besh mingi har qanday jarohat olibdi. Ularning ichidan boshini quyi solgan yetti ming otigina tirik bo‘lmasa, zoti o‘lganlarga barobar ahvolda yotishardi.

Qolgan yaradorlarning ba’zi birining qo‘li sinib, kesilib, ko‘zi chiqib ko‘r bo‘lib, quloqsiz yaydoq bo‘lib. Boshqalarining ahvoli ham yayragulik emas. Ularning orasida to‘qmoq tegib lunjiga, shishib ketgani ham bor, so‘yil tegib burniga yalpaygani yana bor.

Askarlarining ahvolini ko‘rgan Aqunbeshim qayg‘urib, yoshini yomg‘irday to‘kdi.

— Elimning boshi Yulduzda, ne qildim men qozoq, qirg‘izga? Boshida bizning yerlarning talayini olib qonmagan quv burutlarni men bosilarmikin deb yurgan edim. Biroq bunday bo‘lmadi. Ular bunga qanoatlanmasdan, menga ko‘zini olaytirdi. Yerimga bostirib kirishdi. Endi ularni qanday qilib to‘xtataman? — degan Aqunbeshim bundan battar faryod chekib yig‘ladi.

Xonining bunday qayg‘uli ahvolini ko‘rgandan keyin qalmoqlarning yanada battar kayfiyati tushdi. O‘shanda Kegeti jang-junguning maslahati bo‘yicha Aqunbeshim askarin olib, qaytadan maydonga borib, qirg‘izlarni botirlari, sehrgarlari yordamida yengishga harakat qiladigan bo‘ldi.

Baxtga qarshi, uning bu maqsadi amalga oshmadi. Qirg‘izlar qalmoqlarning qisuviga turish berib, ortga surib tashlashdi. O‘shanda Aqunbeshim qirg‘izlardan qochishga majbur bo‘ldi.

— Qalmoqlarning qoni qayga qochdi? — achchiqlandi buni uqqan Manas. — Aqunbeshim yerni qazib, uning tubiga tushib ketsa ham, izlab topmadim!

U qo'lini boshlab, tug'i tug'ga urinib, to'zoni tog'day burilib, surnayi quloq tindirib, Uzun-To'o'ning qo'ynida, Sari o'zo'n Chuyning bo'yida Aqunbeshimning ortidan quvib jo'nadi.

Qirg'izlardan qochib qutula olmasligiga ko'zi yetgan Aqunbeshim Maralang-Suuning bo'yida yuzma-yuz solishishga ahd qildi. Buni bildirish uchun o'zining yaqin navkarlarini chodiriga chaqirdi.

— Qirg'izlardan qochib qutula olmaydigan bo'ldik! — so'zini boshladi Aqunbeshim. — Ular bilan chopishgandan boshqa chora qolmadi. Shu sababli Turg'ay jang-jung bilan Shaming sho qalday qo'lni Maralang-Suuning bo'yiga tezroq olib borsin. Barcha tayyorgarliklarni ko'rib, chirangan burutni birato'la qirib tashlasin!

Shundan keyin u qalmoqlarni o'zi boshqarib, o'n bir ming yuz ming qo'l bilan Maralang-Suuga bordi. Askarlar Aqun shoning qizil tug' bayrog'ini yoyishib, oyog'in yerga sanchishib, Oltoyga kelgan alashga, obro'yi baland Manasga qarshilik ko'rsatishga tayyorlana boshladi.

Shu paytda Alokening elidan, Anjiyanning yeridan Salpangning o'g'li Merkishbek olti ming askari bilan yordamga keldi. Ularni ko'rganda Aqunbeshim nihoyatda quvondi. Uzun bo'yli, qorato'ri, qirra burun, ingichka jag' Merkishbekka qirg'izlarni yomonlab, armonin aytib, ko'z yoshini to'kib yig'ladi.

— Men qirg'izlarning dastidan qal'a tugul ayolim bilan bolamdan ayrildim! — arz qildi Aqunbeshim. — Ular mening qo'limni qirib soldi. Yerimdan qizil qon oqdi!

— Xafa bo'lmangiz, xonim! — yupatdi uni Merkishbek. — Biz barchamiz birikib, Manasning ta'zirini beramiz. U qayerdan kelgan bo'lsa, o'sha tarafga quviymiz. Tug'ilib-o'sgan yerimizni hech kimga oldirmaymiz!

— Rahmat, botir! — rozi bo'ldi Aqunbeshim. — Rostini aytsam, menga Aloke yordam beradi deb hech o'ylagan emas edim. Bu qilgan yaxshiligi uchun u omon bo'lsin, yomonlik ko'rmasin, falokatdan olis bo'lsin!

— Rahmat, xonim! — javob berdi Merkishbek. — Men sizning bu yaxshi tilaklaringizni so'zsiz Alokega yetkizaman. Ha, aytganday, qirg'izlar qayda yurishibdi? Maralang-Suuning bo'yidagi qo'l o'shalarnikimi?

— Yo'q botir! — teskari boshini chayqadi Aqunbeshim. — Sen ko'rgan qo'l — bizning qo'limiz. Men uni alashlarning yo'liga qo'ydim. Ularga taslim bo'lguncha, o'lganim yaxshi. Qolgan qalmoqlar ham mana shunday o'yda.

— Tushunarli! — boshini silkidi Merkishbek. — Anjiyan elining kayfiyati sizlarnikiday.

Aqunbeshim bir narsa aytayin deguncha uning oldiga do'rgo'o'*larining biri kelib qoldi. U qalmoqlarga Aydarxonning er Ko'kchasi uch yuz ming askari bilan qo'l solganini, Analning Turg'ay botirini yelkama-yelka yerga yanchib tashlaganini aytdi.

Buni eshitgandan so'ng qirg'izlarga qarshi jangni o'zi boshqaradigan bo'lib, Aqun sho askariga bordi. Ko'p vaqt o'tmay qalmoqlarning yoniga besh yuz ming askari bilan Manas keldi. Ikki tarafning yuz minglagan askarlari Maral jarning yonida, suv o'tlari bo'lgan suvning bo'yida ro'baro' turib qolishdi.

Qalmoqlar podsholik nog'orasini qoqib, hujumga o'tishga belgi berishdi. Ularning o'n uch yuz ming qo'li qirg'izlarga qarab ot solishdi.

Ko'plashib turgan qirg'izning askari dushman kelayotganini ko'rib, alashlab xitob chaqirib. Bayrog'ini shamol uchirib, yer qaynagan qalmoqni arslon Manas bosh bo'lib, ikkilanmay qochirdi. Bir-biriga yaqinlab kelgan ikki qo'l qizil qirg'inni boshladi. Qirg'iz, qalmoq — ikki askar, buzulganday yer yuzi birin-biri qopladi.

Chopishganlar urushning qizishi bilan har yonga sochilib ketishdi. Ularning boshi Maran tog'ida bo'lsa, nihoyasi Qara-Qirchinda, Qara-Qashat sirtida bo'ldi. Qon oqdi suvday jo'sh urib, qalqonlar boshga to'silib. Kimning qo'li qaysi yerda jang qilayotgani tushunuksiz bo'lib, ko'rganlarning boshi aylandi. Sababi qirg'iz bilan qalmoqlarning bari aralashib ketdi.

Qirg'izlar qo'lining birinchi qatorlarida arslon Manas botir boshqalarga o'rnak bo'lib, qalmoqlar bilan kuchining boricha cho-

pishib turdi. To'satdan u Aqun shoning tug' tagida yuz ming qo'l bilan turganini ko'rdi.

"Shoshmay tur, quv bosh! — g'azablandi Manas. — Senga yetib, boshingni olmaday yulib olayin!".

Aqunbeshimga qarab saf tortgan Manas ikki maqsadni ko'zladi. Birinchidan, u qalmoqlarning qonini to'kishga, yoki tutqunlikka olishga intildi. Ikkinchidan, Aqunbeshim tug'ining tagida bekordan turgani yo'q. Qalmoqlar bayrog'i qulamaguncha qanoat qilib urushaverishar edi. Shu boisdan uni so'zsiz qulatish kerak bo'ldi.

Manas qalmoqlarni ostin-ustun qilib chopib, tug'ning tagidagi Aqunbeshimga yaqinlayverdi. Buni ko'rgan qalmoqning xoni Manasdan sog' qolmasligini tushunib, undan qochib, otiga qamchi soldi. Manas uni qochirib yubormasdan, Oqqula bilan unga yetib borib, ortidan nayza sanchdi. Urilgan zarbadan Aqunbeshim oq yol qora otining ustidan to'pday quladi. Yerga ag'anab, yarador bo'lib, tura olmay yotganida, Aynaqul yetib borib, uning boshini qilich bilan chopib tashladi.

Xonining o'lganini ko'rgan qalmoqlar halloslay boshladi. To'liq zafarga erishish uchun Manas Oqqulani choptirib, och albarsin qoptirib, ularga qirg'in soldi. Unga qo'shilib, har tarafdan er Ko'kcha, Munar, Baqay qalmoqlarning ta'zirini bera boshladi. Natijada qaynagan mo'g'ul, qalmoqlarning g'ayratlisi qolmadi. Unga qaramasdan, o'jarlanib, kechgacha dahshatli qarshiligini to'xtatishgani yo'q. Tuni bo'yi yulishib, tarsillashib urushgan qalmoqlar tongotardagina qirg'izlarning qisuviga chiday olmay, qocha boshlashdi.

Qirg'izlar olomonni qo'yib, ularni quvib jo'nashdi. Yetganlarini oybolta bilan solib, qilich bilan chopib, so'yib ketib turishdi. Qalmoqlarning qochganlari qutulib, qocha olmaganlari tutilib, tutqunlikka tushib, qirg'izlar bu olishuvda ham to'lig'i bo'ydan g'alabaga erishishdi.

* * *

Qochganlarning orasida Anjiyanning Merkishi, Merke jaysang bilan Shaming sho bor. Ular O'luya-Ata shahriga raxna solib borishdi. Ko'p o'tmay qalmoqlarning olti yuz ming askari ham qal'aga qochib bordi. Ularning barchasi jonidan umidini uzdi.

O‘shanda jaysang Merke, Shaming sho, Merkish, Dabag‘i birlashib, kengash qurishdi. Ular mahalliy chantuularning barchasini qiradigan bo‘lishdi.

— Biz behisob halok bo‘ldik! — dedi o‘rta bo‘yli, sariq yuzli Merke. — Qurbon bo‘lgan navkarlarimizning o‘chini olaylik.

— Qanday qilib?! — qayg‘uli boshini chayqadi uzun bo‘yli, ingichka jag‘, qorato‘ri Shaming sho. — Biz Manasning qo‘lidan yengilib, zo‘rg‘a qochib kelmadikmi?!

— To‘g‘ri! — javob berdi Merke. — Biz qirg‘izlarning askariga yengildik. Biroq bu yerda yashagan chantuularning barchasini osongina qirib tashlaymiz.

— Men bunga qo‘shilaman! — quvonib ketdi Merkish. Bizning musulmonlar ham alashning urug‘i. Ularning yoshi bilan qarisini oldirsak, o‘chimizni olgan bo‘lamiz!.

— Barchanglar bunga ko‘nsanglar, unda ertaga Anjiyanga ketaylik! — xulosa chiqardi qora qosh, ingichka jag‘, oq yuzli Dabag‘i. — U yerda alash urug‘ining birontasini qo‘ymay, qirib tashlaylik!

Qabul olingan qarorga muvofiq, olti yuz ming askar Tek-Turbasning boshidan, poyoni Aral, Janar-To‘o‘ning ro‘parasidan chantuularni bironta qo‘ymay, hujum qiladigan bo‘lishdi.

Qalmoqlar odamxo‘rlikka borishni ep ko‘rishdi. Ochiq jangda dushmanlarini yenga olmasdan, alamini qo‘l ostidagi tinch yotgan oddiy eldan oladigan bo‘lishdi. Albatta, barcha qalmoqlar bunday yomon o‘ylarning to‘lqinida qolgani yo‘q.

“Besh panja barobar emas!”, — deganlaridek, qalmoqlarning orasida odamgarchiligi, or-nomusini yo‘qotmaganlari yetarli. To‘g‘ri, ularning qirg‘izlardan dini boshqa. Biroq barchasining tub otasi bir. Aljirashib gapirib, azal-azallardan tili bir. Bunday qalmoqlar eliga qanday yaxshilikni xohlasa, boshqa ellarga, uning ichidan qirg‘izlarga ham o‘shanday osoyishtalikni xohlaydi.

Mana shunday qalmoqlarning biri — o‘rta bo‘yli, ingichka jag‘, sariq yuzli Ketelik. U o‘sha yerdagi Qudngbay degan boy bilan nihoyatda inoq muomalada. Ketelik Merkish boshlagan to‘rvining mashvaratini to‘satdan eshitib qoldi. Ichida zarracha qora niyati bo‘lmagan qalmoq vatandoshlarining qora niyat o‘ylariga nihoyatda norozi bo‘ldi. Shunday iflos harakatlarning oldini olish uchun qirg‘iz do‘stiga darrov yetib bordi.

— Qudungbay! — dedi u boyga. — Bizning qalmoqlar sizlardan Manasning o'chini oladigan bo'lishibdi.

— Qanday qilib? — cho'chib so'radi o'rta bo'yli, qora soqolli, oq yuzli Qudungbay.

— Ular mahalliy chantuularni o'ldirib, mulkini talab olishga qaror qabul qilishdi! — uyalganidan qizarib javob berdi Ketelik.

— Nima uchun? — hayron qolib so'radi Qudungbay. — Biz Manas bilan birga sizlarga qarshi jang qilmasak, unga yordam bermasak, qaysi qilmishimiz uchun bizni jazolamoqchi bo'lyapsizlar?

— Boy! — tik qaradi Qudungbayga Ketelik. — Oddiy qalmoqlarning sizlarga hech qanday da'vosi yo'q. Barchamiz o'nlab yillardan buyon mana shu yerlarni bir tug'ishganday makon aylab kelyapmiz. Hech qanday yomonliklaringizni ko'rganimiz yo'q. Sizlardan rozimiz. Biroq bizning hukmdorlar "bular alashning urug'i, Manas kelsa baribir unga bo'lishishadi, bizga yaxshilik qilmaydi!" — deb kelgan yo'liga qaytdi.

Shundan keyin qirg'izda "Qalmoqning eli sofko'ngil, kofirning yurti rahmdil!" — degan gap qolgan.

...Ketelik ketgandan keyin Qudungbay darrov ellik kishini choptirib, turk o'g'lidan tuk qo'ymay, barchasiga qalmoqlarning qora niyati haqida xabar qildi. Qum-Ariq bilan Chaldibardagi, Quymadagi, O'luya-Atadagi, Chim-Qo'rg'o'ndagi qirg'iz, qozoqning barchasi to'planib, Almandi-Suuga borishdi. Qudungbay elga bosh bo'lib, ikki yuz ming qirq olti el bo'linib, urkun — ommaviy qochish yuz berdi. El-yurtini tashlab qochishdi. Bundan bo'lak chorasi qolmadi. Sababi qalmoqlarning dushmanligi ochiqayon bilindi. Ular yoppasiga alash farzandlarini o'ldirib, qirib solish uchun olti yuz ming askari bilan tayyorlanib qolishgan edi.

Ular shunday qilib turganda, arslon Manas tog' etagidagi o'tloq yo'l bilan, o'n yuz ming qo'l bilan qochgan Aqunbeshimning askarlarining ortidan soyaday quvib borar edi.

Bu haqda Tashkendan xabar olgan Panus xon jebeng qalmoq zotidan, Subun tirg'ovut yurtidan to'rt yuz ming askar to'plab oldi.

— Har qanday alash bo'lsa ham, ularga oxirgi zamonni ko'rsataman! — achchiqlandi o'rta bo'yli, ko'k ko'zli, sariq yuzli Panus. — Birini qo'ymay qirib, Aqunbeshim podshoning o'chini olaman!

Maqsadini amalga oshirish uchun qalmoq xonining askari Do'gucho', Kuyuk, Chaqmaq yo'l bilan qirg'izlarga qarshi yurishga chiqdi. Uning qo'lining orasida uzun bo'yli, keng yelkali, tog'day do'rdaygan, qorato'ri Changtulo'o' botiri bor. U qirg'izlarni chopishga ayniqsa intizor bo'lib turdi.

— Changtuuni qirib kelaman! — achchiqlandi u. Oltoydan kelgan to'rt burutga qanday qilib Aqunbeshim podsho oldirib qo'ydi? Uni aniq arvoh urgani mana shu emasmi?!

Manmansiragan Changtulo'o' botir qalday jang-junglarning talayini yoniga olib, askarlar bilan sharq tomonga kun-u tun yo'l yurdi. Ular qo'liga alashlarni mutlaqo qo'shmay qo'yishdi.

Bunga Jilandining soyligidagi Chiyirchiq tog'idagilarning turk o'g'illari nihoyatda norozi bo'ldi. Ularning barchasi Bayg'urning elidan. Botirlari — Janay qari, Do'g'o'n o'g'li Maqatil. Maqatildan tarqagan, savob ishga yaragan Asilbek degan er bor. Undan tashqari elning xizmatiga yaragan Baymirza bek, Chalabay polvon — alashlarning faxri. Baymirzaga qondosh, urg'ochining botiri, o'ttiz yoshdagi To'rumqiz erkaklardan kam qolmay, dong'i olisga ketgan.

Xitoylarning yo'rig'idan hadeganda uzun bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Asilbek botir shubhalana boshladi.

— Bular nimani boshlamoqchi bo'lib turishibdi? — pushaymon bo'ldi u. — Ular oltindan tug'in dastladi, askarin mo'l-ko'l boshladi. Alash o'g'li bo'lganin aqlga olmay tashladi. Nima bo'lganda ham, kaftdekkina alashga arvohlar yor bo'lsin!

"Xushyorlikkka xo'rlik yo'q!", — deb Asilbek aymog'idagi botirlarni qishlog'iga chaqirtirib oldi. Kengashgandan keyin barchasi Ko'ko'to'y oqsoqolga boradigan bo'lishdi.

Ko'ko'to'y yalpi qirg'iz sardori, ko'p yashagan jon, uzun bo'yli, ingichka jag', qorato'ri, kulrang ola soqol chol. Uning yakka o'zining boshida yetti son — yetmish ming yilqisi, o'ttiz ming tuyasi, yigirma ming moli bor boy odam. Xitoyga qarasa ham, uning xonlik unvoni bor. Uning mansabini hurmat qilib, Asilbek boshlagan botirlar maslahatlashish uchun uning qishlog'iga borishdi.

— Botir! — murojaat qildi Ko'ko'to'yga Asilbek botir! — Xitoylar ko'payib-ko'pib, lashkar yig'ib, o'zanli yo'lga solganiga

naq sakkiz kun bo'ldi. Qo'liga qirg'izdan bironta jon qo'shmadi. Bularning qarab tursa ko'pligi, qora qumday. Otilarga dushman, urilarga ularga tog' qaydan topilsin? Nima sababdan xitoylar sarosima bo'layotganini tushuna olmay, oldingizga maslahatlashgani keldik. Siz ham bu voqealar haqida eshitgan bo'lsangiz kerak?!

— Eshitdim! — og'ir xo'rsinib javob berdi Ko'ko'to'y. — Sizlar ham mening so'zimni uqinglar. Bizning bobomiz o'git berib aytgan ekan boshida. Alash o'g'li tura olmas, xitoylarning qoshida.

— Bu o'gitni uqqanmiz! — boshini silkitdi Asilbek. — Bu bo'yicha Bejinni, O'rta Osiyo yurtini vayronlab qirg'iz oladi deb aytilgan. Biroq buning bari afsona, ertak. Biz kichkina el bo'lsak, qanday qilib Xitoyni yenga olardik?!

— Men ilgari shunday deb o'ylagan edim! — bo'yniga oldi Ko'ko'to'y. — Hozir bo'lsa o'yimni mutlaqo o'zgartirdim.

— Nimaga?

— Yaqin kunlardan buyon g'alati xabarni eshitib, hayron qolib turibman.

— Qanday xabarni? — qiziqib so'radi Asilbek.

— Bu xabar bo'yicha, o'ttiz o'g'li qirg'izning uyasidan chiqibdi! — o'ychan javob berdi Ko'ko'to'y. — O'n bir dang'it shahrini vayron qilib yiqibdi. Ularni boshqargan oltoylik Jaqipning bolasi Manas ekan. U Aqunbeshim podshoni haydab-surib, chopib olibdi. Taluu-Kushong shahrini tolqon qilib tashlabdi. Jamira jaysang Tulusin o'ldiribdi. Qang'ayning yurtin olibdi. Dang'itdagi Duburo'ni yakson qilibdi. Aqunbeshim xonni, Ker-Ko'ldagi O'rg'o'ni oxiratga yuboribdi.

— Oqsoqol, sizga ertakka o'xshagan bu xabarni kim aytdi? — hayron qolib so'radi Asilbek Ko'ko'to'ydan.

— Changg'ush do'rg'o'!

— U sizga yana nima dedi?

— Xitoylar Manasning qilgan xo'rligi uchun o'chini qondoshlaridan olishga ahd qilishibdi. Shu tufayli ular Chuy bo'yida alashni to'plabdi. Ularning barchasini yoppasiga qirib tashlashga bel bog'lashibdi.

— Unmagan ahmoqlar desa! — so'kindi Asilbek. — Endi nima qilamiz, oqsoqol? Qanday el-yurtimizni saqlab qolamiz?

— Birodarlar! — javob berdi Ko'ko'to'y. — Xitoyning fuqarosi bo'lganimizga xiyla zamonlar bo'ldi. Xushyorlikka xo'rlik yo'q deganday, o'zimizni saqlaylik. Yaratganning ajali — bosilmay tekkan o'q! Xitoy bizga sir aytmas, sir aytsa ham chin aytmas. O'zinglar fahmlaganday, oxirgi paytda xitoyning fe'li buzildi. O'chini olishga qiziqib xitoy qolmasin, qirg'inni bizga solmasin!

— To'g'ri aytasiz! — qo'lladi uni Baymirza bek. — Saqlanmasak, ziyon tortib qolamiz!

— To'g'ri! — soqolini silab o'ychan so'zladi Ko'ko'to'y. — Shu boisdan tegishli choralarni ko'raylik. Tog'dagi elning talayi sog' bo'lsin, yo'l qarasin. Oldi borsin qorovullikka Abilatum tog'iga. O'rtasi Salman-Suuning og'ziga soqchilikka borsin. Orti yotsin Uruuga, Chaqmaq, Ḳuyuk beliga, xabar bergin undagi alash urug' eliga!

Qariyaning so'zini barcha ma'qul ko'rdi. Bilagi yo'g'on polvoni, bilimi ortiq yo'lboshchesi, manglayi yorug' botiri bozg'on, gurzi sudrashib, nayzalarin ko'tardi. Merganlar miltiq otishdi.

Xitoyning niyati qanday ekanini bilish uchun, kerak bo'lsa ularning harom o'ylarini yo'qqa chiqarishga bel bog'lab, qirg'izning qalin qo'li ketgan askarning ortidan jo'nadi.

* * *

Qalmoq, xitoylarni vahimaga solgan arslon Manas bu vaqtda o'n bir yuz ming qo'lini boshlab, ko'kni larzaga keltirgan chuv, qashqa suv bilan, chiron solib qalmoqqa, Panus xonning hukmini qo'ldan kelsa olmoqqa, Aqunbeshim xonning qochgan olti yuz ming qo'lini quvib, Tashkenni ko'zlab borar edi. Ko'l Salang otli soyga kelganda kech kirganidan Manas to'xtab, askariga dam olishga buyruq berdi.

Aqunbeshimning qo'li vaziyatdan foydalanib, dam olishni o'ylab qo'ymasdan oldi-ortiga qaramay qochib, Panusning lashkariga yetib bordi. O'zlarining askarini ko'rganda, ko'ngli tinib-tinchidi, otidan tushib ko'rishib, cho'qinishib turishdi.

Ular Panusning askarlariga Manasning qilgan xo'rligini aytishdi.

— Bisyor edi qo'limiz, askarning ko'pin qirdirib, qochib ketib qancha jon, qaynadi bizning sho'rimiz! Avvalgi askar mo'l,

o‘n uch yuz ming qo‘l edi. Arang kelib turamiz, olti yuz ming kishimiz, otish bilan urushdan obdan bitib ishimiz! — arzini aytib chirqirab, Aqunbeshimning askari, zor yig‘ladi ho‘ngrab.

Buni eshitgan Panusning askarlari qirg‘izlarga yanada battar o‘chashdi. Manas bilan bo‘ladigan urushga tayyorlanib, Salman-Suuga tayanib, tumonat askar pastga-tog‘ga joylashib, o‘rin oldi.

Uch kundan keyin Manasning askari Salman-Suuga yetib keldi. Ular o‘n kun joy olib, dam olishdi. Dam olish tugagandan keyin Panus xonning qizil tug‘i hilpiratib ko‘tarilib, qalmoqlar qirg‘izlarga qarab jo‘nashdi. Qirg‘izning askariga yetmasdan, polvonlarning olishuvini o‘tkazish uchun to‘xtab qolishdi.

Qalmoqlardan kuch sinashga Aqjal otini minib, uzun bo‘yli, alp qomatli, yumaloq betli, qizil yuzli Qo‘do‘ng polvon chiqdi. Uning jahli chiqqan turqini ko‘rib, guruillagan ovozin uqib, qozoq, qirg‘iz alashning rang-ro‘yi o‘chib, hech kimning qalmoqqa qarshi chiqishga yuragi dov bermadi.

O‘shanda Baqay ota qamchi solib, yetib bordi unga o‘kirib. Qirg‘izni ko‘rganda ostidagi Aqjalga Ko‘do‘ng ham qamchi urdi. Yoniga chopib kelgan Baqayga nayza soldi. Baqay uni popukka yaqin joyidan astoydil chopdi. Natiajada Qo‘do‘ngning nayzasi dastak bo‘lib qoldi.

Qalmoq jon talashib, xoda bilan sanchib ko‘rishga harakat qildi. Baqay dastakni qilich bilan chopgan edi, u olti bo‘lakka bo‘linib ketdi.

Nayzasi qo‘lda qolmagan Ko‘do‘ng egaridan gurzisini olishga harakat qildi. Bunga mumkinchilik bermay, er Baqay uning boshiga qilich bilan urdi. Qoshiga qon to‘kilgan qalmoq o‘jarlanib, qalqon bilan dubulg‘ani o‘nglab boshiga kiyib, Baqayga gurzi soldi.

Biroq zarbasi xato ketib, o‘zining mingan otining tizzasiga tegdi. Oti ketdi chalinib, ont urgurning etagi boshiga ketdi surilib. Oti yerga yiqilganda Ko‘do‘ng botirning boshi yerga tiqildi.

Ust-boshi chang, qizil ola qon bo‘lgan Ko‘do‘ng o‘rnidan turib ketdi. Baqay unga nayza sanchganda u qaytadan chalqanchasiga yiqildi. Qaytib tikka turguncha, Baqay sug‘urma po‘lat o‘tkir qilichi bilan Ko‘do‘ngga ajal soldi. Do‘ppisining o‘rniga boshi tushdi u yoqqa, Tangri urgan Ko‘do‘ngning vujudi – tanasi qoldi bu yoqda.

— Ont ichgan kofir kelgin! — dushmanini yengganiga quvongan er Baqay hay-hay solib o'kirdi, maydon uzra baqirdi.

Uning chaqirig'iga qalmoqlardan Aqjal qora ot mingan, qo'lida yuz gaz nayzasi, bo'ynida oltin qalqoni bor, uzun bo'yli, sariq yuzli, chaqchaygan ko'zli Irang Ko'do'ng botir chiqdi.

U maydonga chiqib, Baqayga qarab otini choptirdi. U yetib kelganda Baqay qalmoqqa nayza sanchdi. Irang Ko'o'do'ng uni qoqib tashladi. Er Baqayga yuzlanib, nayza siltab qoldi. Baqay zarbasini tekkizmay, qoqib tashladi.

Haybatlanib er Manas, oyboltani olib, qalmoqning boshiga chopdi. Irang Ko'o'do'ng po'lat qalqonini yopinib olganda, oybolta unga urildi. U oyboltasini olib, Baqayning boshiga chopdi. Baqay qalqonini panalab oldi. Oybolta unga tars tegib, Baqayning ko'zidan o't sachradi.

O'shanda Baqay qalmoqqa hayqirib qilich soldi. Ko'o'do'ng botir uni qalqon bilan to'sib oldi. Qilich qalqonni kesib, yorib tashladi. Ko'o'do'ng qalqoniga halak bo'lib qolganda er Baqay g'azablanib, uni gurzi bilan urdi. Urilgan zarbadan Ko'o'do'ngning ko'z o'ngidan bu yolg'on dunyo g'oyib bo'lib, halok bo'ldi.

Vahshiy dushmanini yengganidan huzur qilgan Baqay hay-hay soldi.

— Ont ichgan kofir kelgin! — baqirdi u. — Qoningni suvday sopiraman. Cho'ng otam No'g'o'y, otam Bay. Boshki otam uqsang Babir xon, Sari eshon, Qirqan, Samar xon. Menga kelib yuzlansin, o'limin sog'ingan jon!

Uning vajohatini ko'rib, unga qomiqlardan hech kim chiqmadi. Buning yana bir sababi — Panusning o'n bir yuz ming qo'lining to'rt yuz mingi alashning farzandlari edi. Bu haqida Baqay bilardi.

Shu boisdan qondoshlar bir-birini behuda qirishmasin deb, Baqay maydonda turib, ularga murojaat qildi.

— Urug'im qirg'iz ulug' yurt! — dedi u. — Sizlar ham alashning jigarbandlarisizlar. Yeringlarni arvoh urgan xitoylarga oldirib qo'yib, tek yurganinglar sizlarning aqlinglarning yo'qligini bildirib turibdi. Ularga fuqaro bo'lib yurish bilan o'zinglarning qadringlarni bilmay, uyalmasdan, nomuslanmasdan bosib yurgan qanday jonsizlar? Xitoyni nima uchun yaxshi ko'ryapsizlar? Nega bizga

qarshi chiqib qo'l ko'tarmoqchi bo'lyapsizlar? O'ylaninglar! Agarda ota-bobolaringizning arvohi ursa, alvon o'tda kuyasizlar! Biroq men, Xudo bersa, sizlarni bunday sharmandachilikdan qutqaraman! Shu bois o'zimning urug'im alash ekanligini bildirdim!

Shularni aytib, Baqay oldindagi qalmoqlarning askariga umid bilan qaradi. Keyin o'zining olishuvda turganini esga solib, qaytadan qahrli qiyqirdi:

— Er bo'lsang xitoy kelgin! Urushsang, seni tolqon qilgum! Epingni topaman! — deb u tagidagi ko'k tulporini choptirib o'ynatdi.

Mo'g'ul, xitoy, qolmig'i Baqayning fe'lini ko'rgandan so'ng, unga kimni chiqarish to'g'risida maslahatlashib qolishdi. Alash o'g'illari bo'lsa Baqayning so'zlarining katta ta'siri ostida qolishdi. Shu sababdan birontasi maydonga qadam qo'ymadi, Baqayga bosib bormadi.

— Qirg'izlar — yaqin tug'ishgan elmiz. Ularga qarshi urushga bora olmaymiz! — o'zaro shivirlashib turishdi ular. — Xitoylar abjir bo'lsa, ularga o'zlari javob bersin. Qirg'iz bilan qozoqqa, qilich tortib turarga, endi unamaydi ko'nglimiz! Buning o'rniga, g'ijinglatmay xitoyni, qo'l kelgan so'ng qirg'izdan, biz mana shu yerda bosh tortmay, xitoy bilan jang qilaylik. Ota yo'lini tutib, qirilishgan sanchishda armoni yo'q o'laylik!

— Bu aql to'g'ri! — qo'lladi bunday so'zlarni janishlarning Nazarbegi. — O'z yaqinini xor qilganning tubi ko'karmaydi! Shu sababdan biz hozir maslahatga dehqon Ko'ko'to'yga borib, u bilan fikrlashib ko'raylik!

Yalpi yurt bunga ko'nib, payshanba kuni kechki payt chodirlarini taxlashib, orasini bo'lib olishib, Ko'ko'to'yga jo'naydigan bo'lishdi. Qo'l yo'lga chiqar oldida ularga Panusning qo'lining boshchisi Tutaliq yo'liqib qoldi.

— Qayerga jo'nadinglar? — so'radi u uzun bo'yli, qorato'ri, qirra burunli Nazarbekdan.

— Botir! — javob berdi Nazarbek. — Ruxsat bersang, oqsoqolimiz Ko'ko'to'yga borib, u bilan maslahatlashib kelaylik.

— Nimani maslahatlashasizlar? — tund so'radi Tutaliq.

— Nimani deysanmi? — savol bilan tikildi Nazarbek. — Senga aytmay qo'ysam bo'lar edi. So'rab qolding, shu boisdan javob

beray. Botir! Oldimizda turgan askarlar — bizning tug'ishganlarimiz. Ular ham. Biz ham alashning farzandlarimiz.

— Bo'lsa bo'lgandir. U bilan sizlarning nima ishinglar bor?! — jini keldi Tutaliqning.

— Botir! — dedi Nazarbek. — Biz gunohga botib, o'z tug'ishganlarimiz bilan chopisha olmaymiz.

— Noto'g'ri gapiryapsan, Nazarbek! — boshini chayqadi Tutaliq. — Sizlar Panus xonning lashkarisizlar.Uning bergan buyrug'ini g'ing demay bajarishga majbursizlar. Aks holda sotqin qatori boshinglar olinadi!

— Qizishma, botir! — Tutaliqni yumshatib dedi Nazarbek. —Sizlarning bizsiz ham burutdan bo'lar yo'lingiz. Yer qaynagan yetti yuz ming askaringizning biz atigi to'rt yuzi ekanmiz. Ko'pchiligingiz adirda, qalqib yotar tog' yoqda. Barchamizning boshlig'imiz Ko'ko'to'y. Mana shunday jiddiy masala bo'yicha u bilan maslahatlashmay nima qilaylik? Qarab turgan xonimizni qanday tashlab ketaylik? U bilan maslahatlashib, sizlar tarafda Manasga qarshi jang qilamiz. Yoki bundan mutlaqo bosh tortamiz!

— Bu so'zlarni chindan aytyapsanmi, yoki bu hazil gapingmi?! — ko'zlarini chaqchaytirdi Tutaliq.

— Chindan aytyapman! — jiddiy so'zladi Nazarbek. — Xitoylar ota-bobolarimizni qirib, yerimizni o'z davrida bosib olgan. Ular o'sha paytda odamxo'rliklarga borganini, qancha begunoh elni o'ldirganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu kamlik qilganday, shuncha yillardan beri bizni xo'rlab keldi. Ularga qarshi qo'zg'olon boshlaydigan vaqt yetdi. Esing bo'lsa, sen bizga qo'shil. Nima bo'lganda ham, sizlar, qalmoqlar, bizga qondosh bo'lasizlar. Bizning tub otamiz bir, Tutaliq! Tug'ishganlaringga qarshi o'q otma, botir! — deb Nazarbekning gapi tugadi.

Tutaliq indamay qolganligidan, qirg'izlar ot-otiga osildi. Bundan achchiqlangan Tutaliq ularni to'xtatishga harakat qildi.

— To'xtatinglar! — qiyqirdi u. — Esenqanga sotqinlik qilmanglar! U omon bo'lsa, barchanglarning taginglarga yetadi. O'zboshimchalik qilib, omonat joninglarni qiymanglar. Qoplab chiqsa Qaqanching, tuk qo'ymasman tukingdan, qaynataman sho'ringni. Xalq biylagan zo'ringni ushlab, qora qul qilaman. Barchangni so'roq qildirib, ko'zingni o'ydirtaman!

U to‘xtab qolganda o‘rta bo‘yli, chayir tanli, sariq yuzli Jebechi unga yetib bordi.

— So‘zingni o‘ylab gapir, Tutaliq! — tund so‘zladi u. — Hukmingga ko‘nganidan shuncha xalq mana shu yerga keldi. Sen bunday, turkni tugataman deb haddingdan oshaverma.! Qalmoq bilan mo‘g‘ul ham turkning bolasi. Sizlar bizning yaqin tug‘ishganimiz bo‘lasizlar! Agarda turk o‘g‘li jips biriksa, sizlarga o‘xshagan xushomadchilarning qolmas edi darmoni, kesilar edi boshi, to‘kilib ko‘zdan yoshi, og‘u bo‘lib ichgan oshi. Yoki alash o‘g‘li keng Tashkenga zo‘r bo‘lganini ko‘tara olmay turibsanmi?

— Og‘zingga kelganini gapiraverma, uningni o‘chir! — g‘azablandi Jebechiga Tutaliq.

— Nega men unimni o‘chirishim kerak ekan?! — tap tortmay dedi Jebechi. — Bosh ko‘tarmay, barchasi uyquda bo‘lsin deysanmi? Yo‘q. Bundan keyin sen aytganday bo‘lmaydi. Oradan Manas qondoshim chiqib, Aqunbeshim podshohing bilan kuchlilaringni Anjiyanga oshirib quvidi. U omon bo‘lsa, yana oxiringlarni xiyla ko‘rasizlar. Joninglar sog‘ qolmaydi!

— Sen nimalar deb aljirayapsan? — baqirdi Jebechiga Tutaliq. — Sen kimni qo‘rqitib, po‘pisa qilayapsan?!

— Seni! — hayiqmay javob berdi Jebechi. — Agarda mening so‘zlarim yoqmayotgan bo‘lsa, ortingdan yurgan biz bilan jang qila qolingiz. Qo‘lingdan kelsa qo‘ymasdan, yakson qilib bizni tashlangiz!

Achchiqlangan Jebechi otlanib, alashni boshlab, Chilonsoyning bo‘yiga olib borib, yotib qoldi. O‘sha yerda yotganida, ularga botir Janay boshida, Boymirzasi qoshida bo‘lgan ikki yuz ming qo‘l keldi. Ularni yordamga Er Ko‘ko‘to‘y yuborgan ekan. Qirg‘iz, qozoq birlashib, olti yuz ming qo‘l bo‘ldi. Natijada oraga xitoylar to‘g‘anoq bo‘lib, ikki tarafdan teng qurshovda qoldi. Ularning bir tarafidan Ko‘ko‘to‘yning qo‘li hamal qilsa, ikkinchi tarafidan Manasning askari o‘rab oldi.

* * *

Er Baqay bo‘lsa Panusning askarlariga jo‘shqin so‘z bilan murojaat qilgandan so‘ng lashkariga qaytib bordi. Unga qarshi kuch sinashga hech kim chiqmaganligidan uning o‘rniga manju-

likning qorato'ri, burni qo'nqaygan, o'rta bo'yli Alapi maydonga yetib keldi.

— Botir, polvon kelgin! — deb Alap turdi o'kirib.

Uni ko'rib tezlashib, achchiqlanib so'zlashib, Talquuger otin minib, uzun bo'yli, ingichka jag', sariq yuzli Qashenger botir olishuvga chiqdi.

Polvonlar maydonning o'rtasiga otlari bilan yetib kelganda Alap polvon Qashengerga baqirib nayza sanchdi. Qashenger uni qalqoni bilan qoqib yuborganda Alapning nayzasi sinib ketdi.

O'shanda Qashenger Alapni otidan olib, olti marta boshidan aylantirib, yerga urdi. Alap o'sha yerda til tortmasdan o'ldi.

Bunday ayanchli o'limdan dahshatga tushgan alashlar biroz o'zini yo'qotganday bo'ldi. Hech kimning Qashenger bilan kuch sinashga chiqishga yuragi dov bermadi.

O'shanda tavakkalga solib, qipchoqlarning zo'ri Aralbek botir Qashengerga qarshi maydonga chiqdi.

Uzun bo'yli, alp qomatli, oq yuzli Aralbek qalmoqni qochirib, unga nayza saydi. Qashenger bo'lsa kamon tortib yubordi. Uning o'qi Aralbekning to'shiga tegib, ortidan chiqib ketdi. Aral ham o'ldi, ko'z ko'rdi, azobin shunday o'tkazdi.

Aralbek qazo qilgandan keyin maydonga qozoqning sariq yuzli, ingichka jag'li, qora soqolchan Qarishpayi chiqdi.

Oti bilan chopib borayotib, Qashengerni otayin deb, u miltig'in oldi. Tepkisini bosguncha, Qashenger yetib kelib, uni gurzi bilan boshiga soldi. Qattiq zarbadan Qarishpayning boshi yorilib, Qashengerga qon aralash miyasi yopishdi.

Buni ko'rgan qirg'izlar yana aqlidan yanglishdi.

"Bunday botirni kim yenga oladi? — ular o'zaro g'ala-g'ovur qilishdi. — Qo'rqmasdan unga kim qarshi chiqa oladi?!".

Bu savollarga javob berganday, qirg'izning qorato'ri, o'rta bo'yli, alp qomatli Bo'to'bay er maydonga chiqdi.

U Qashengerga chopib borib, qilichi bilan chopdi. Qalmoq uni qalqoni bilan qoqib yuborganda, qilich Bo'to'bayning o'ziga qayta tegib, manglayini tilib ketdi. Uning ko'ziga manglayidan quyilib oqqan qon suvalib, hech narsani ko'rmay qoldi. U qonini artaman deguncha, Qashenger to'shiga nayza bilan urdi. Qizil qonga belanib, Bo'to'bay narigi dunyoga ravona bo'ldi.

Xuddi shunday qayg'uli taqdir sartning o'g'li, o'rta bo'yli, qorato'ri, chiroyli kelgan Ketaqunga ham nasib qildi. U Bo'to'bayning o'rniga maydonga kirib bordi. U nayza solguncha, Qashenger uni yoy bilan otib qo'ydi. Otilgan o'q Ketaqunning yuragiga qadalib, joni chiqib, yerdan tura olmasdan yotib qoldi.

— Qirildik-ku, bu qalmoqdan! — deb qiyqirib, Qashengerga qarshi maydonga Qara jal sariq otni mingan jarkenlik Akimjan chiqdi.

Uzun bo'yli, alp qomatli, sariq yuzli Akimjan qahrlanib, Qashengerga chopib borib, nayza sanchdi. Uni qoqib yuborib, Qashenger o'zi Akimga nayza sanchdi. Akim unga pand berdi. U qilichini sug'urib, dushmanini chopay deganda, Qashenger undan o'zib gurzi bilan urdi. Zarbadan Akim yarador bo'lib, qo'liga qochib, zo'rg'a joni omon qoldi.

Olishuvga chiqqan sariq yuzli, qora soqolchan qirg'iz Baysalbekni Qashenger sadoqdagi o'q bilan otib, yarador qildi. Uning soniga o'q tegib, o'lar-o'lmas jon bo'lib, u xalqiga keldi hansirab, ne qilarin bilmay tentirab.

Qashengerni qo'lidan qozoqlarning qorato'ri, uzun bo'yli, qizil yuzli Chimirjani ham yarador bo'ldi. U maydonga chiqqanda, ikki botir teng bir-birini qochirib nayza solishdi. Chimirjan Qashengerning nayzasini qoqaman deb, kuchi yetmay qoldi. Uning oltin kamarining chetiga Qashangerning nayzasining uchi taqaldi.

Chimirjan uni gurzi bilan solgan edi, ul tarsillab sindi. Qo'li og'rib zirqiragan Chimirjan qo'liga qochdi. Qashenger kamoni bilan otganda, o'q Chimirjanning beliga qadalib, uni yarador qildi.

Buni ko'rgan Aydarxon o'g'li er Ko'kcha maydonga baqirib chiqdi. Qashenger unga yoy bilan otdi. Ko'kcha o'qni qalqon bilan to'sgan edi, uning qubbasi chilparchin sinib ketdi.

— Otish unday emas, mana bunday bo'ladi! — deb qahri kelgan Ko'kcha Qashengerga kamondan o'q uzdi.

Qashengerning sho'ri qurib, yoyning o'qi ko'kragiga tegib, yurak shotomirining ikki enlik yerini kesib ketdi. Yarador bo'lgan Kashenger gandiraklab sudralib, Ko'kchaga yetib bordi. Qozonday bo'lgan gurzisini ko'tarib, qo'lga oldi. Biroq chopgani madori yetmay, gurzisi ort tarafiga qo'lidan tushib ketdi. Uning

ko'kragidan bo'rtib chiqib turgan kamonning o'qini sug'urib olganda, qon suvday otilib chiqdi. Qashenger o'sha yerda "Laaylamaluu!" — deb sulayib yotib qoldi.

Qashengerning o'lganini ko'rgan Ko'kcha botir hayqirib, maydonda baqirdi:

— Ont ichgan kofir, kelgin! Yakkama-yakkaga chiqqin!

Qashengerning o'chini olish uchun uzun bo'yli, qo'llari kurakday bo'lgan Tulo'ngu botir maydonga otilib chiqdi. Ikki polvon teng nayzasini qo'lga olishib, bir-birini qochirishdi. Nayza to'shga tegib, sovutdan tanaga o'tmadi.

Nayza bilan nihoyatda sanchishib, bir-birini yenga olmaganlikdan botirlar qilich tashlay boshlashdi. Tortishib ketib borayotganda, Tulo'ngu er Ko'kchaning chap qo'liga qilich bilan soldi. Yarador bo'lgan Ko'kcha Tulo'nguning bo'yniga qilich solgan edi, u sovutga tegdi.

— Bu shumshuk sovut kiyib olgan ekan-ku!

Achchig'i chiqqan Ko'kcha so'kinib, Tulo'nguning bo'yniga qilich bilan chopdi. Urilgan zarbadan uning boshi olmaday uzilib, yolg'on dunyo bilan vidolashdi.

Er Ko'kcha yarador qo'li bilan askariga qaytib bordi. "Bu jarohat kattayib ketsa, baloga qolmayin!" — deb u maydonga Shangshig'ayir polvonga chiqish niyatidan qaytishga majbur bo'ldi.

Uzun bo'yli, alp savlatli, qorato'ri Shangshig'ayir bo'lsa gurzisini aylantirib, Surali oti bilan maydonga kirib bordi.

— Ajali yetgan burut, o'zing kel! — baqirdi u. — Joning bo'lar uchgan yel, qoning bo'lar oqqan sel. Botiring bo'lsa tezroq kel! Barchanglarni qiraman! — deb Shangshig'ayir qirg'izlarni ko'zlab o'q otdi.

Otgan o'qi yetib, oltmish to'rt kishini mahv etdi. Qolgan askarlar har tarafga sochilib, sarosimaga tushib qochishdi.

— Botiring bo'lsa menga kel! — Shangshig'ayir yanada battar sherlanib qiyqirdi. — Ildamroq bo'l! Barchanglarning ta'ziringlarni beraman, burutlar!

Bunga Manas nihoyatda achchiqlandi.

— Otimni olib kelinglar! — baqirdi u navkarlariga. — Oltmish kishini o'ldirtirib qo'yib, qanday indamasdan turib qolayin! Alloh taolo buyursa, beraman qalmoqning ta'zirin!

Manas charm shimini kiyib, oq sovut to'nini yopinib, qurol-yarog'ini osinib, arslonday chopinib, maydonga yuzlandi. Shunda Shangshig'ayir unga qiziq taklif bilan murojaat qildi.

— Botir! — dedi u. — Biz itga o'xshab olishmaylik. Bu oxiri yo'qday ish.

— Olishmasak, unda nima qilamiz? — savol bilan tikildi Manas.

— Mening taklifim shunday. Sen hozir turib bergin. Men seni otayin. Agarda o'lmay qolsang, keyin sen meni otasan!

— Nima uchun sen birinchi bo'lib otishing kerak? — shubhali so'radi undan Manas.

— Sababi bu taklifni men beryapman. Biroq mendan qo'rqayotgan bo'lsang, otish navbatini senga berishim mumkin. Birinchi bo'lib sen ot! — masxara qilib qaradi Manasga Shangshig'ayir.

— Yo'q, men hech narsadan qo'rqmayman! — qovog'ini uyib javob berdi Manas. — Sen birinchi otaver!

Shangshig'ayir rozi bo'lib, Manasni miltiq bilan otdi. Uning o'qi xato ketib, Manas omon qoldi. O'shanda miltiq otish navbati Manasga keldi.

— Otish unday emas mana bunday bo'ladi!— deb Aqkelte miltig'ini oldi.

Shangshig'ayirni mo'ljallab turib, Manas tepkichni bosdi. Aqkeltening o'qi qalmoqqa aniq tegib, uning boshini yulib ketdi.

— Attang-a! — boshini chayqadi Manas. — Buning tirrayib o'lib qolganiga qarasang! Nayza yanchib, qilich chopib, bir xumordan chiqsak bo'lardi!

Qazo bo'lgan dushmanining otini yetaklab, Manas askariga bordi.

Halok bo'lgan Shangshig'ayirning o'rniga olishuvga ola kulrang otini minib, ham polvon, ham sehrgar Mayliq polvon g'azablanib chiqdi.

— Botiring kel! — Mayliq qirg'izlarni mushtlashuvga chaqira boshladi. — Holing yetsa, meni yengib ol! Holing yetmasa, o'lib ket!

— Mayli, chiqsam chiqayin bu qizitaloqqa! — dedi Manas.

U nayzasini ko'tarib, maydonda turgan Mayliqqa Oqqula bilan bostirib bordi. Mayliq uni qochirib nayza soldi. Manas esa uni qoqib, o'zi nayza soldi. Mayliq uni tutib, tortib olishni o'yladi.

Buni tushungan Manas nayzasini qo'yib yuborib, qalmoqni qilich bilan chopib tashladi. Mayliqning boshi olma qoqqan kabi uzilib ketdi.

Polvonining o'lganini ko'rgan qo'l boshchi Tutaliq olishuvga uzun bo'yli, qorato'ri Sambul polvonni chiqardi. U Manasga yetib, qochirib nayza soldi. Uni qoqib yuborib, Manas o'zi nayza soldi. Sambul ham uni qoqib yubordi.

Bir necha marta nayza bilan sanchishgandan keyin botirlar qilichlarini sug'urib, chopisha boshlashdi. Biroq hech kim g'alabaga erishgani yo'q.

"Bu qalmoq o'ta kuchli polvon ekan! — bo'yniga oldi Manas. — Qancha vaqtdan beri jang qilib, uni o'ldira olmadim. Nayza, qilich bilan juda chiroyli jang qilar ekan, bu juvonmarg. Shu sababli gurzi solib, Sambulning kuchini sinab ko'rayin!".

Manas qilichini yerga irg'itib yuborib, qalmoqni gurzi bilan boshiga chopdi. Qattiq zarbadan Samul otidan yerga qulab tushganda, Manas uni tutqunlab, qo'liga olib bordi.

O'shanda qalmoqlarni boshqargan Tutaliq nihoyatda izza bo'ldi.

— Bu qanday yer yutgur botir?! — o'kirdi u. — Hamma botirlarimizni yengib oldi-ku, bu shumshuk! Qayta eliga yubormay, bu chantuuni yutaylik. Barchanglar hujumga!

Uning askarlari qirg'izlarga "chag'a-chag'a!", "payna!" — deb ot qo'yishdi. Ularga qarshi o'n bir yuz ming alashlarni Aydarxon, Baqay xon boshlab, jangni boshlashdi. O'sha kungi bo'lgan urushdan yer yuzi yakson bo'lib, qizil qon suvday oqdi. Alashlar qalmoqlarni o'yin tog'ga uchirib, kulini ko'kka sovurdi.

Qonli jang uch kun-u uch tun tinmay davom etdi. Oziqlarin yalanglab, otlar o'lib quladi. Mo'ylovlarin bo'rttirib, odamlar sulaydi. Qizil qirg'inda Manasning ikki yuz ming askari qiyomatga bordi. Qizil cho'g'li o'yro'tdan bo'lsa to'rt yuz mingday askar qurbon bo'ldi.

Jangning to'rtinchi kunida ikki qo'l bo'lindi. O'shanda qalmoqlarning chorasi nihoyatda quridi. Sababi askarining yarmidan ko'pi yo'q. Tashkenni ko'zlab ketadigan ortidagi yo'lni Ko'ko'to'yning olti yuz ming qo'li bo'g'ib qo'ydi. Oldi tarafida bo'lsa Manasning askari turadi. Uni yenga olmayotganini tushun-

gan xitoylar qirg'izlardan chor atrofga qochdi. Ularning boshlig'i Tutaliqni qochib borayotgan yeridan Sho'ro'luqning yonidan qiron Baqay ushlab oldi.

Tutaliqning tutqun bo'lganini uqqandan keyin askarlargina emas, mahalliy el ham qirg'izlardan hurkib, qocha boshlashdi. Jetigenga yuzlanib, yer qaynagan qochqini, oltin, kumush, yombini, yerga ko'mdi mulkini. Tuyasi qoldi yig'ilmay, to'kkan yoshi to'kilmay. Qo'yi qoldi qo'rada, g'allasi qoldi o'rada.

Xitoylarning burun qilgan xo'rligi yodida qolgan alashlar o'n besh yuz ming qo'l bilan dushmanlarini to'xtatmasdan quvib tashlashdi. Xitoylar qarshilik ko'rsatishni o'ylab ham qo'ymay, holi ketib, ko'chiga qo'shilib qochdi.

Tog'-tosh tugab, yo'l keldi, yo'l tugagach, dasht bo'ldi. Xitoylarni quvalash dasht-u biyobon, yovvoyi cho'l, ho'ngragan qaro cho'lga ulandi. Oxirida Ara-Ko'l, Qulandi degan quduqqa yetganda Manasning askari tanaffusga to'xtadi.

O'shanda Ko'kcha botir qirg'izning qo'li to'xtagan yerga yaqin joylashgan o'z qishlog'ini olisdan ko'rib, unga ot qo'yib bordi. Borsa u yerda odam ham, mol ham yo'q. Hamma uylarini tashlab, hurkib ketib qolibdi. Oqargan uyigina qolibdi.

Buni ko'rgan Aydarxon qayg'uli boshini chayqadi.

— Qishloq deganning barchasi oqargan qabr ekan! — dedi u.

O'shandan keyin oxirzamon yurti bu yer Aqmo'lo' — Oqqabr atalib qoldi.

O'sha yerda yurish to'xtadi. Qiron Manas botir Qudan-Bulaq yalangligidan askari bilan ortga qaytib, Quu-Tezga kelib qo'ndi. U yerda to'rt kun yotib, qizil rangli tug', hayqirib qiy-qiy, qirg'izlagan chuv bilan Manasning askari Tashkenga Panus xonni bosib olgani yo'l tortdi.

XIV bob. Manasning Panus xonni yengishi

Tashkenda o'rta bo'yli, ingichka jag', qorato'ri, to'ladan kelgan Panus xon hech narsadan bexabar saroyidagi taxtda o'tirar edi. Shu payt karnayning ovozi vopillab, surnayning ovozi ching'illab, alashlar hay-haylashib qal'aga kirishdi.

Ularning xabarini uqqan Panus xonning esi og'ib, yerga qulab tushdi. Uning oriqchiroy, uzun bo'yli, sariq yuzli Tuuraliq sehrgari Panus xonning yoniga yugurib bordi.

— E-e, xonim! — o'kinch bilan so'zladi u. — Alashlarning xabarini uqib, ontarilib tushdingiz. Ularning o'zini ko'rganda, jonin ingiz qanday chidar ekan?

U Panusning yuziga suv purkab, xonini arang hushiga keltirdi.

— Yolg'on vaysaqi! — nolib dedi Panus xon. — Davlat-u baxtimdan, toj-u taxtimdan ayrildim. Alashlarga qarshi yuborgan askarimdan qush tilicha xabar yo'q. Botir bilan polvonimning barchasi ketib yo'qoldi. Agarda qo'l to'plab, olishib ketsam, chantuuga darmonim yetmasmidi?

— Xafa bo'lmangiz, xonim! — yupata boshladi Panusni Tuuraliq. — Bizning askarimiz ko'p, Quturgan alashlarni osongina yengamiz.

— Qaydan deysan?! — boshini xafa bo'lib chayqadi Panus. — Men chantuuning nimadir qilishini oldindanoq sezgan edim. Nima bo'lganda ham uning omadi bor ekan. Bo'lmasa alashlarga qarshi to'rt yuz ming askarni yubordim. Dushmanni yengishning o'rniga, ulardan shu kungacha tayin yo'q. Aksincha, falokat bosib, qirg'izlar ustimga kelib qoldi!

Qo'rqqanidan Panus jonini saqlab qolish uchun qo'rg'ondagi darzovasini qulf bilan berkitdi.

Qirg'izlar bo'lsa qal'aga kirib, ostin-ustun qilishdi. Guvillatib xitoyni quvib kirib qolishdi. Hurib chiqqan itlarni bir-bir otib solishdi. Qiyqilashib xitoyning, xiylasin ushlab olishdi. Qolganlari qochishdi. Shunday qilib alashlar azim shahar Tashkenga aralashib qo'nishdi. Tashkenning ichi duv bo'ldi, dupur-dupur chuv bo'ldi.

Manasning qahridan qo'rqqan Panus mol-mulkini, boyligini tashlab, oila a'zolari bilan shahardan qochib ketdi. Qirg'izlar u bilan ishi yo'q, shaharda o'ynab-kulib yotishdi. Yayrab bahra olishdi. Qimirlamay ko'p askar qirq kun dam olib, yotib qolishdi.

...Ular bilan birga dam olib yotgan qiron Manas qal'adan uncha olis bo'lmagan joyda joylashgan ulug' tog'ni ko'rib, ermakka ov qilish uchun Tiyanshanning ustiga chiqishga ahd qildi. To'qson askari bilan Aq-Suu tog'iga yo'l olib, Chiyirchiqning boshiga bor-

di. Uning tabiatiga, jonivorlariga suqlanib, nihoyatda mamnun bo'ldi.

Undan nari Manas Jerkendi, Chichqanning boshi Qarlini qidirib chiqdi. Tulusning yerini ko'rgandan keyin ortga qaytdi. yetti kun yo'l yurib, Chanach, Kindik degan yerga bordi. O'ydu ko'zlab yuzlanib, Manas yetti bug'u, uch arxar kiyik otib oldi.

Ular tog'ni aylanib, Altigana, Keldelikni oshib, Bayandi degan yerga bordi. U yerda Ko'ko'to'yning to'piga kirgan qirg'izlar yashar ekan. Ularning hech kimi avval ko'kyol Manas botirni ko'rmabdi. Buning oqibatida Manas bilan mahalliy xalq orasida tushunmovchilik kelib chiqdi.

U quyidagicha boshlandi. Manas Bayandiga askarlari bilan kelganda dalada qo'ylar yoyilib yurganini ko'rdi.

— Bu yerda kimlar yashaydi? — savol bilan termildi u yonidagi navkarlariga.

Ularning hech birining bu haqda xabari yo'qligini bilgandan keyin Manas askarlari bilan qo'y boqib yurgan bolaning yoniga keldi.

— Mo'ngdu payna! — qalmoqcha salom berdi u.

Manasning salomiga javob berish o'rniga oriqdan kelgan, qo'ng'iroq sochli, sariq yuzli cho'pon bola achchiqlana boshladi.

— Hay, sen nimaga qalmoqcha salom beryapsan? — tashlandi u Manasga.

— Sababi barchanglar shunday salomlashsangizlar kerak?! — javob berdi Manas.

— Yo'q! — ters boshini chayqadi bola. — Biz mo'ngdu paynani aytmay qoldik. Unday tilni tashladik. Eh! Holim yetsa shu yerda sening ensangni qotirar edim.

— Nimaga? — hayron qoldi Manas.

— Biz yangidan ko'nika boshladik, — dedi bola. Anglab yetsak yangidan, biz alash urug'idan ekanmiz.

Bolaning javobini uqqan Manas kulib yubordi.

— Qo'o'ma, qanday, bolam?

— Qo'ysang-chi, aka, unday so'zni!

— Endi nima deylik? — Manas bolaga savol bilan tikildi. — Senga qanday salom beraylik?

— Tashkendagi askarlarga otam borgan. Bizga hozir Oltoyda yotgan ko'p tug'ishgan kelibdi. Ularning Abunasir zamani degani ko'rishgan yerda aytadigan bo'lak bir so'z aytibdi. O'sha ko'nglimda yotib qoldi! — uyalib javob berdi bola.

Manas unga mehr bilan qaradi.

— Oltoydan kelgan qondoshni otang nima dedi? — so'radi u boladan? — Yomon dedimi? Yoki yaxshi ekan dedimi?

— Bu haqda o'zinglar bilmaysizlarmi? — shubhali so'radi bola Manasdan.

— Yo'q, bilmaymiz!

— Qiziq, mahalliy bo'lib turib, bunday narsa haqida qanday bilmay qolasizlar? Asli, sizlar kimsizlar? — yanada battar shubhalandi bola.

— Senga joyimni aytayin, — yupatib dedi Manas. — Biz Baymirza akaning to'pidanmiz. Oltoylik alash kelganda ovga ketgan edik. Endi qaytib kelyapmiz. Shu sababdan sen yangi kelgan qondoshning joyini ayt-chi. Otang Manasni qanday dedi? Boshqasi qanday dedi?

Savollarga javob berish uchun bola Manasga tik qarab, cho'chiganidan otdan qulab, otajon deb qoldi.

— Bolam, senga nima bo'ldi? — tinchsizlanib so'radi Manas.

— Kipriging uzun, ko'zing cho'g', odamda sencha shumlik yo'q! O'ta haybatli ekansan. Yo'lovchi bo'lsang yo'l olgin. Qaroqchi bo'lsang qo'y olgin. Biroq men sen bilan gaplashmayman. Sababi o't ekan ikki ko'zing! — deb qo'rqqanidan bola yig'lay boshladi.

Manas bilan navkarlari bolani erkalatib, yupata boshladi. U endigina tinchlana boshlaganda old tarafdagi cho'qqidan hay-hay chiqib qoldi.

— Bu ne degan qiy-chuv? — hayron qolib so'radi Manas. Nima balo bo'lib ketdi?

Keyin ma'lum bo'lishicha, bu — Alokening buyrug'i bilan Manasni payqamoqqa, imkoni topilsa uni bosib olish uchun Tashkenga ayg'oqqa borayotgan Qiytuu chag'a*ning bir ming askari ekan.

* * *

Uzun bo‘yli, keng yelkali, qirra burun, sariq yuzli Qiytuu chag‘a Alokening eng atoqli polvonlaridan biri. U qirg‘izlarni Oltoydan kelib, ota-bobolarining yerini bo‘shatayotganini eshitgan edi. Bunga g‘ashi kelgan polvon Aloke uni qirg‘izlarga qarshi yurishga jo‘natishini chidamsizlik bilan kutib yurdi.

Tilagi qabul bo‘lib, kunlarning birida uni Aloke xon saroyiga chaqirtirdi. Qiytuu chag‘a, uning oldiga hayallamasdan darrov yetib bordi.

— Sen qo‘ling bilan Tashkenga jo‘nagin! — dedi Aloke. — Oltoydan kelgan Manas xon Panusning tubiga yetdi. Aqunbeshimni oldi. Tashkenda qozoq, qirg‘iz iltifotsizlik qildi.

— Ular nima qilishdi? — savol bilan termildi Qiytuu chag‘a.

— Bu kamsitmay nima qilgani, — javob berdi Aloke. — Qondoshchilik qilib Manasga qo‘shilib olishibdi. Ularni boshqarib turgan Ko‘ko‘to‘y tagimizga yetadigan bo‘ldi.

— Yashshamagur ahmoqlar! — so‘kindi Qiytuu chag‘a. — Biz bilan shuncha yil yashab yurib, mushkul kezda sotqinlik qilganini qarasang, bularning!

— To‘g‘ri, — alamli boshini silkitdi Aloke. — Biz: “Bular bizga birato‘la bo‘ysundi. Ularga qilgan zo‘ravonligimiz, qanchalagan er azamatlarni o‘ldirgandan keyin tig‘i qayrildi, yuragining xushi olindi!” — deb yurgan edik. Qarasar, bular hech narsani unutmay, bizga hujum qiladigan paytni kutib yurishgan ekan-ku!

— To‘g‘ri aytasiz! — qo‘lladi Alokening so‘zini Qiytuu chag‘a. — Burutlar mana shu paytgacha qo‘tir toshini qo‘ynida saqlab yurishganligi oyday ravshan bo‘ldi.

— Ha! — dedi Aloke! — Ular bizga teng keladigan botirning kelishini, bizni bosib olishini kutib yurishibdi. Bundan ko‘p yillar burun Irangquduq rohib burutlarda Manas degan botir tug‘iladi. U bizning tubimizga yetib, Bejinni oladi degan edi. O‘shanda Manasni o‘ldirish uchun uni nihoyatda izlagan edik. Baxtga qarshi, uni topa olganimiz yo‘q. Endi o‘shaning azobini tortyapmiz.

— Bunga ko‘p qayg‘uravermangiz, xonim! — taskin berib dedi Alokega Qiytuu chag‘a. — Biz undan kam emasmiz. Qayda-

gi bir tentib kelgan burutga kuchim yetmasa, unda otimni boshqa qo'yaman. Men uni so'zsiz yengaman! — botirlandi u.

— Barakalla, botirim! — rozi bo'ldi Aloke. — Unda sen ming askarni olib, Tashkenga ayg'oqchilikka borgin. U yerdagi ahvolni, Panus xonni bilgin o'lik-tirikligini.

— Ma'qul, xonim! — javob berdi Qiytuu chag'a. — Bari siz aytganday bo'ladi. Men bu qo'pib yurgan, Oltoydan kelgan oz qirg'izni yakson qilaman. Ularning barchasini narigi dunyoga yuboraman. Ko'ko'to'y degan gadoyning yilqisini olib ketaman.

Alokega Qiytuuning so'zi moydek yoqdi.

— Oq yo'l senga, botirim!

Xonining buyrug'ini bajargani kelayotgan Qiytuu chag'a Manasning tog'da yurganini payqamay, Bayandiga, qirg'izlarning qishlog'iga kelib qoldi.

Kelgandan keyin razm solib qarasa, yaylovda yetti ming yilqi yuribdi. Ularni qo'riqlagan yilqichilardan boshqa qarshilik ko'rsatadigan hech kim yo'qligini tushungan Qiytuu chag'a miyig'ida jilmaydi.

— Xudo bizning yo'limizni ochibdi! — yuzlandi u navkarlariga. — Oldimizda Ko'ko'to'yning hisobsiz yilqisi turibdi. Uni qo'riqlagan askar ham yo'q. Uni bosib olib, o'ljaga to'naylik. Olg'a, yigitlar!

Qalmoqlar nog'ora qoqib, yilqini hurkitishdi. "Jabu"lashib qiyqirib, yoppasiga yilqiga qo'l solishdi.

Aynan mana shu qiy-chuvni cho'pon bilan gaplashib turgan Manas eshitgan edi.

Vaziyatning mohiyatini tushungandan keyin arslon Manas to'qson hamrog'i bilan Qiytuu chag'aning bir ming askarini qochirdi. Yuzma-yuz kelib qolgan Qiytuu chag'aning qo'lboshchi ekanligini tushungan Manas uning tizginini tortdi.

— Yilqiga tekkan sen kimsan?! — achchiqlanib so'radi u Qiytuu chag'adan.

— Men Ara shahar odami, Qiytuucha degan erman! — qiyqirib javob berdi qalmoq.

— Sen nima maqsad bilan kelding? — yana so'radi Manas. Izlaganing kim?

— Izlaganim sizlarsizlar, burutlar! — g'azablandi Qiytuu chag'a. — Maqsadim — sizlarning tubinglarga yetish!

— Biz senga nima yomonlik qildik?

— Sizlarni Xudo uribdi. Chiyirchiqni yer qilib, yayrab yashab turganinglar ko'zinglarga ko'p ko'rinibdi. Daladagi qirg'izni qondosh qilib, Panus xonni bostirib, botirlanib turasizlar. Biroq hech qachon sizlarning aytganinglar bo'lmaydi. Bizga xo'jayinlik qila olmaysizlar. Men sizlarning ta'ziringlarni beraman! — baqirdi Qiytuu chag'a.

Uning ming kishisi Manasning to'qson askarini to'g'atmay, hay-hay solib, boshchisining buyrug'i bo'yicha o'ttiz oltiga bo'linishdi. Past-balanddan ko'rinib, yilqi hayday boshlashdi. Yilqiga hamla qilganlarining ba'zi birlari malakayini qo'lga olib, baqirib yurishadi. Boshqalari yilqini haydab, do'ppisini qo'lga olib, tepib yurishadi. Nog'orada kuy chalib, chertib yurgan, tarsillatib miltig'ini otib turgan, mo'ngdu, jabuu xitobin aytib yurgan qalmoqlar to'la. Botir ham o'zi bo'lganday, bor g'ayrati to'lganday, qalmoqlar qiyqirib yilqiga tegishdi, hayhaylashib kirishdi.

Ularga qishloqdagilar hech qanday qarshilik ko'rsata olishmadi. Sababi, ularning aksariyati yangi qondoshlar bilan yaqindan tanishib, ulardan islomdagi harom, halolni so'rab bilish uchun Ko'ko'to'y boshlagan oqsoqollar bilan Tashkenga ketgan. Shu sababli qishloqda erkak kishi oz qolgan edi. Qishlog'ida qolganlar, bo'shatib otin solganlar, anqaygan bo'ydan yayov qoldi. Qiytuu chag'a bo'lsa hech kimni ko'zga ilmasdan, qishloqni oralab chang soldi. Jarlikka yilqi qo'ymasdan, haydab tegib ovlashdi. Ayol-bola, qari-yosh orqasidan yilqining yetmay qoldi chuvlashib. Yilqichi, qo'ychuvon barisi yilqisidan ayrilib, jila olmay qolishdi.

Buni ko'rgan Manas g'azablanib, safdoshlari bilan qalmoqlarni qochirdi. Yo'lida yo'liqqan qalmoqlardan o'ldirganini o'ldirib, yarador qilganini yarador qilib, qizil qirg'in solishdi.

Manasning askarining dastidan qalmoqlarning bir chetdan ozayib borayotganiga Qiytuu chag'a nihoyatda izza bo'ldi.

— Bizning askarlarga qo'l ko'tarishga, uni o'ldirishga sizlar kimsizlar, chantuular?! — o'kirdi u. Teringlarni teskari sidirmasam, men bo'lmay qolay!!!

Qiytuuchani Xudo urdi. Manasning kim ekanligini bilmay, manmansirab, kutilmagan joydan qochirib, unga yetib bordi. Manas uni nayza bilan urganda, qalmoq do'ppiday dumalab, otdan uchib tushdi. Sanchilgan nayzaning uchi uning orqasidan olti qarich chiqib qoldi. Botirlanib kelgan Qiytuucha mana shunday ajalini topdi.

Uni o'ldirgandan keyin qiron Manas shonli qiyqirib, qalmoqlarning yana bir botiri So'lo'o'n boshi Danayga chopib borib, uni nayza bilan sanchib, Qiytuuchaning ortidan narigi dunyoga jo'natdi.

Boshliqlarining o'lganini ko'rgan qalmoqlarning bo'g'ini bo'shab, qarshilik qilishga darmon qilmay, qirg'izlardan qocha boshlashdi. Qochmasdan nima ham nima qilar edi?! Mardlashib, qarshilik ko'rsatishga harakat qilganlarni qirg'izlar qo'yni bo'g'izlaganday bo'g'izlab borishardi. Qalmoqlar oldi-ortiga qaramay, yoppasiga qochishdi. Qiytuu chag'aning bir ming askaridan o'n uchtasigina omon qoldi.Uch yuz o'ttiz yettitasi yarador bo'lib, qolgani narigi dunyoga ravona bo'ldi.

* * *

Manas bilan Qiytuucha chopishayotganda kim ularni himoya qilib, yilqisini qaytarib berayotganini tushunolmay qishloqliklar hang-u mang bo'lishdi. Yovi qaysi ekanini bila olmay, yo'ldosh bo'lib kira olmay, qozog'i qoldi qaqqayib, qirg'izi qoldi anqayib. Haloskorlarining ismi-shariflarnni so'rashga intizor bo'lib, qishloqliklar yigirma-o'ttizdan to'planishib, yilqilarini yo'qlashdi. Qalmoqlarning tashlab qochgan otlari ham talashishga tushdi.

Qishloqliklar mana shunday yoqimli ishlar bilan halak bo'lib turgan kezda qirq-ellik xitoy, qalmoq, mo'g'ulni bog'latib, o'rtoqlariga uch yuz to'rt otni haydatib kechki payt Manas keldi. Bir ming yetti yuz qirg'iz, qozoq yig'ilib, Qo'sh-Artuu degan tekislikka barchasi to'planishdi. Biroq ular Manasning oldiga borishga, uni mehmonga chaqirishga jur'at eta olishmadi. Barchasi uning asrlonday haybatidan hayiqishdi.

— Bu botir yilqiga tekkan qalmoqni yakson qilib bopladi! — dedi to'planib turganlarga uzun bo'yli, qorato'ri, chayir tanli, qizil

yuzli uyur boshchi Jabag'i. — Uning botirligi botir ekan. Mingi unga yopirilib, asli mana shu yigitga holi yetmadi. Ko'k-Soydan bular kirganda, ko'ndalang tortib tekkanda, qalmoqlar ayolday bo'ldi. Bo'lsa-bo'lmasa, bu yigit Oltoylik tug'ishgan eldan. Ov qilgani kelib, qalmoqlar bizga qo'l solganda, ularni qo'ydek qirib yuborgan!

— Ularning ism-sharifini bilsak qaniydi! — ola-bula soqol, ingichcha jag'li, sariq yuzli Ataybek uning so'ziga qo'shildi.

O'shanda Manasga birinchi bo'lib yo'liqqan qo'ychivon bola so'zga aralashdi.

— Qo'yinglar, akalar! — dedi u. — Unga ovora bo'lmangizlar!

— Nimaga? — hayron qoldi Ataybek.

— Men adirda yurganimda ular bilan yo'liqib gaplashganman, — javob berdi bola. — Ularning boshchisi qo'yning chetiga kelib, menga qalmoqcha salom berdi. Biz qalmoqning tilini tashlaganmiz deb, men unga indamay turib qoldim. U menga "balam, qo'o'ma!" — deb xitoycha salom berdi. Buning boyaginingdan ham yomon, — deb uning tusiga qaradim. Uning zo'r haybatidan, qahrli so'zidan o'lib qolayozdim. U ko'zimga jonolg'ichday ko'rindi! Undan baqirib qochdim. O'rtoqlari to'xtatib, meni yupata boshlaganda pastlikdan qalmoqlar hay-hay solib, yilqiga hamla qildi. Men ularni mo'ngdulagan qalmoqning yo'ldoshlari ekan deb o'yladim. Biroq bari aksincha bo'lib chiqdi. Ular qalmoqlarning biqinidan chiqib, qirg'in soldi. G'ayratiga qarasam, qora olomon kishi emas, bu yerning eli emas. Agarda uning daragini so'rab bilginglar kelsa, betiga qaramay turib gaplashinglar. Qarayman deb, qo'qqisdan o'lib qolmangizlar! — deb bolaning so'zi bosildi.

Sulton Manas bu paytda suv bo'yiga chodir tikdi. Haydab borgan qolmig'i, to'qson mergani uning yonidagi o'tloqni qirqib o'tirishdi. Qirda yurgan qishloqliklarni ko'rganda, Manas ularni yoniga chaqirdi.

— Bu yoqqa kelinglar! — qo'lini chayqab, qishloqliklarga qiyqirdi Manas.

Qishloq boshchisi Jabag'a, Ataybek, Qizil-O'ylik Qulambay, qipchoq Munar, qirg'iz alapay bosh bo'lib, alashlar qirdan tushib,

Manasning yoniga borishdi. Yangi o'rgangan salomni ba'zi biri sof aytib, ba'zi biri chala aytib, salomlashib olishdi.

— Sizlar bizga nihoyatda yaxshilik qildinglar! — hammasi Manasning chodiri ichiga o'tirishgandan so'ng so'z boshladi Jabag'i. — Qalmoqlar qishlog'imizga qo'l solganda, silliqqina oldirib, yilqimizdan qaqshadik deb o'ylagan edik. Sizlar bo'lsa xitoyni qirg'in qilib, bizning bir toyimizni ham ularga bermay qo'ydinglar. Yangi qondoshga o'xshaysiz. Sizlarni boshqargan botir bola kim? — sipo so'radi Jabag'i.

Unga o'rta bo'yli, chayir tanli, oq yuzli Abilg'azi degan qirg'iz yigit javob berdi:

— Bizni boshqarib yurgan botir — bizda hurmati ortiq bir jon! Uning urug'i qirg'izdan, ulug' jangchi qo'l olib, bu yerga keldi Jildizdan. Bobolari Babir, No'g'o'y xon, otasi — Jaqip boy. O'zining ismi Manas. Otasining qariganda ko'rgan bolasi. U Xitoyga qo'zg'olon solib, menman degan Aqunbeshimning tubiga yetdi! — deb Abilg'azi Manasning mana shu paytgacha qilgan mardliklarini qishloqliklarga aytib berdi.

— Manas degan botir shumi? — Jabag'i Manasga ochiq oydin qaray olmay, haybatidan hayiqdi.

Manasdan rozi bo'lgan alashlar uning qo'lini silaydigan bo'lishdi.

— Biz so'yishga nima so'ysak ekan? — so'radi qishloqdoshlaridan Jabag'i. — Bizda, mol, yilqi, tuya, qo'y bor. Qaysi birini so'yaylik?

— Menimcha, to'ng'izni so'yganimiz durust! — javob berdi o'rta bo'yli, qorato'ri Qulambay. — Uning go'shti nihoyatda mazali!

— To'ng'iz go'shtining shirinligiga shubha yo'q! — ovoz chiqardi Ataybek. — Biroq mening eshtishimcha yangi qirg'iz birodarlarimiz musulmon bo'lganligidan, uni harom deb yeyishmas ekan.

— Sen buni aniq bilasanmi? — savol bilan tikildi unga Qulambay.

— Yo'q! — ters boshini chayqadi unga Ataybek. — Bu haqda chala-chulpa eshitgan edim. Biroq anig'ini bilmayman!

— Unda to'ng'izni so'yishga ruxsatni Abilg'azidan so'raylik! — taklif qildi Jabag'i.

Boshchisining so'ziga qo'shilgan Ataybek Abilg'aziga borib, so'yish haqidagi talash savolni berdi.

— To'ng'izning go'shtini yeyish tugul, uni yaqin yo'latmangizlar! — boshini chayqadi Abilg'azi. — Shariatning buyrug'i bo'yicha, to'ng'izning go'shti harom.

Buni eshitgandan keyin alashlar qo'sh boshiga olti qo'ydan, bir toydan so'yishdi. Qo'lga tushgan qalmoqlar siy ko'rib, ham yayrab go'shtda to'yishdi.

Ovqatlanib bo'lgandan keyin barchasi dam ola boshlashdi. O'shanda Manas qishloqdan bir kishini oldiga chaqirtirdi. U yaylovda yotgan molchidan, mol qaragan yolchidan ekan.

— Sen hozir mening qo'shinimga borgin! — buyruq berdi unga Manas. — Askarlar Araniq shahriga hayallamay ildam kelsin!

— Xo'p bo'ladi, botir! — deb molchi otiga minib, Manasning qo'liga xabarga jo'nadi.

* * *

Jarchi Manasning qo'liga yetganda, u yerda to'polon bo'layotganini ko'rdi. Sababi ovga ketgan Manasdan o'n yetti kundan beri hech qanday xabar bo'lmaganligidan, barchasi uning taqdiri haqida tinchsizlanib yotishgan.

— Bu Manasga nima bo'ldi? Qayoqqa yo'qolib ketdi? — donishmandlar gap aytib turishdi. — Oxiri Manas sog' kelmaydi. Sababi u qiy-chuvsiz yura olmaydi!

Manasning darakchisi qo'lga yetib borib, Aydarxon, Baqay, Ko'ko'to'y boshlagan oqsoqollarga uning nima sababdan kechikkanligini aytib berdi. Araniqning qo'lini Manas botir yakson qilganini uqqan Ko'ko'to'yning rangi o'chdi.

— Manas bizning sho'rimizni quritgan ekan-ku! — yig'lamsiradi u.

— Nega bunday deyapsiz? — savol bilan tikildi unga Baqay. — U sizlarning molinglarni saqlab qolganining nimasi yomon?

— Bizning el Azat-Bel, Oqsoyda yashaydi, — tushuntira boshladi Ko'ko'to'y. — Qara-Jangaq, Jiydeli, Kuydum-Salaa, Uch-

Jig'ach ham bizning yer. Uning narigi yog'ida Alokening eliga qaragan Araniq degan shahar bor. Unga Panus xonning jiyani Asharsuu biylik qiladi. O'shaning qo'lini Manas yakson qilganga o'xshaydi.

— Ha! — dedi jarchi. — Bizning qishloqqa qo'l solganlar Alokening askaridan ekan.

— Men ham shunday deb o'yladim! — yanada battar qo'rqdi Ko'ko'to'y. — Manas aniq ajdarning quyrug'ini bosibdi. U Araniqning shahriga boradigan bo'lib qolgan, chog'i. Xitoylar o'lgan askarlari uchun endi hech qachon bizni kechirmaydi. Ular ko'p qo'l to'plab kelib, barchamizni yo'q qiladi!

— Boy amaki, to'xtab tur-chi! — Baqay uning so'zini bo'ldi. — Sen qalmoq, xitoyga qo'shni bo'lib, ulardan nihoyatda qo'rqib qolibsan!

— Men hech kimdan qo'rqqanim yo'q! — xijolat bo'lib dedi Ko'ko'to'y. — Biz eli ko'p xitoyni hech qachon yenga olmaymiz.

— Yo'q! — boshini chayqadi Baqay. — Sen qalmoq, xitoylardan juda qo'rqar ekansan. Bo'lmasa Aloke bilan Asharni nega ajdarga tenglaysan? Aydarxon bilan Manasni odam o'rnida ko'rmay, sen nima deyapsan? O'ynasang ham o'ylab gapir degan gap bor. O'yingizni teran o'ylab, keyin so'ylangiz, amaki!

— Qaysi so'zim uchun koyib turibsan? — tashlandi Baqayga Ko'ko'to'y. — Betga aytganning zahri yo'q. Men bo'lgani achchiq haqiqatni aytdim. Sen bunga xijolat bo'lma, bolam!

— Men hech narsadan xijolat bo'lganim yo'q, amaki! — javob berdi Baqay. — Biroq siz noto'g'ri gapirayotganingizga achchig'im kelyapti. Tasavvur qilib ko'ring. Ustingizda o'n bir yuz minglik qalin qo'l turibdi. Alashlar Alokening qo'lidan ozmikan?! Bizga Alloh taolo yor bo'lib, Tashkenni oldik. Aylanangning barchasi olti urug' alash eli bo'lib tursa. Alokedan qo'rqqaning — bu bir aljiraganning gapi. Aloke yaqin turadi deb, undan qo'rqqanimiz yaxshimas! Manas jiyaning omon bo'lsa, talayni holsiratadi!

— Baqayning so'zi to'g'ri! — qo'lladi Baqayni Aydarxon. — Bizga endi hech kim bas kela olmaydi. Shu boisdan biz hujumni davom ettirib, botir Manas yoniga boraylik. U bilan qolgan dushmanlarni chopaylik!

Barchasi ko'nib, qalin qo'l Araniq shahriga yo'l tortdi. Ikki kun, uch kunda qo'l Araniqqa yetib keldi.

Bu davrda Araniqdagi xalq sarosima bo'lib turgan edi. Manasdan tirik qutulgan Qiytuu chag'aning o'n uch navkari Araniqqa eson-omon yetib, bo'lgan voqealarni hamyurtlariga aytib berishdi. Ularning so'zlariga shaharliklar bir cheti hayron qolib, bir cheti or qilishdi. Qiytuu chag'aning bir ming askarini Manas boshlagan to'qson qirg'iz yengib olganligi o'zgacha ularning g'ashini keltirdi.

— Bu Manasni osonlikcha yengsa bo'ladiganga o'xshamaydi! — dedi uzun bo'yli, qorato'ri, ingichka jag', qora qoshli shahar boshchisi Asharsuu. — Qiytuu chag'a ancha-munchaga yengilmagan botir edi. Biroq men baribir Oltoydan tentib kelgan Manasning ta'zirini beraman. Qalmoq, xitoylarga hamla qilish qanday bo'lishini ko'rsataman! Hamma alashlarga asrlar bo'yi esda qoladigan saboq beraman! — havolandi Asharsuu.

U qirg'izlarga qarshi otlanish uchun jami qo'lini to'pladi. Uning askariga Qara shahar, Qambildan qochganlar, Dang'u shahar, Qirmuzdan shoshganlar, Quyas sehrgar, Tekesdan quvilganlar, Bulagasin, Bang'udan buzulganlar, Dala Ukshen shahridan qisilganlar, qalmoq, xitoylarning boshqa yerlaridan kelganlar qo'shilishdi. To'planganlarning soni o'n besh yuz ming qo'l bo'ldi, pastlik bilan tog'ga naq to'ldi.

Qo'lning bari saroyning oldiga to'plandi. Uning boshchiligiga Asharsuu tog'day qaqqaygan, burni do'rdaygan, ko'zlari chaqchaygan, so'yloq tishlari tarvaqaylagan, sap-sariq Keselik polvonni tayinladi.

Bunga quvongan Keselik to'planib turgan qo'lga murojaat qildi:

— Laylamaluu! — ostidagi qora-ola otini to'xtatib qiyqirdi u. — Yigitlar! Tashkenni chantuu olganini barchanglar uqdinglar. Sizlar bunga qanday qaraysizlar — buni bilmayman. Biroq men or qilib, quymagan yerim kul bo'ldi. Bizga qul bo'lib yurgan chantuularning bunday yo'rig'i suyak-suyagimni qaqshatdi. Shu sababdan barchanglarning oldingizda erkaklik so'zimni beraman. Agarda Tashkenni tolqon qilmasam, Panusga tekkan kim bo'lsa, boshini uzib olmasam, Keselik bo'lmay qolayin!!!

Qo'l boshchisining so'ziga rozi bo'lgan aksarlar aylanani larzaga keltirib o'kirishdi:

— Yasha, Keselik! Bor bo‘l, Keselik!!!

Ularning qiyqiriga quvongan Keselik bundan battar mardlashdi. O‘nta polvonini yoniga olib, dushanba kuni Araniqdan otlanib chiqib, Taraliq tog‘ining yonbag‘riga, Qara-Suning bo‘yiga kelib to‘xtadi.

... Bu paytda er Manas to‘qson yo‘ldoshi bilan Araniqqa qarab jo‘nadi. Oqsoy bilan ketib borayotganda Aydarxon, Baqay, er Ko‘kcha uning oldidan chiqib qolishdi.

— Sen qayerda yuribsan? — achchiqlanib so‘radi Manasdan Baqay. — Hech tek yurmas ekansan, sen bola! Ovga ketib, qanday shumlikni boshlading?

— Hech qanday! — amakisining achchiqlanganiga hayron javob berdi Manas.

— Sen bunday munofiqlik qilma! — yanada achchiqlandi Baqay. — Kimni ko‘rsang manmansirab, osilaverasan. Kimni yo‘liqtirsang, chopishaverasan. Sen o‘zing yolg‘iz bo‘lsang go‘rgaydi. Lekin ortingda yuzlagan, minglagan xalqing bor. Ularning barchasi ayoli, bola-chaqasini ko‘rmay, g‘azot deb yoningda yuradi. Sen o‘shalarni o‘ylamaysanmi? Uydan chiqqaniga uch yarim yil bo‘ldi. Ko‘rsatmay uyin o‘ldirib, dafnsiz, kafansiz barchasini tashlarmikansan?!

Amakisining so‘zlaridan Manas nihoyatda izza bo‘ldi.

“Baqay nima deb dovdirayapti! — hayron qoldi u. — Menga doimo yaxshi so‘zlarni aytib, ko‘nglimni ko‘tarib yurar edi. Men qo‘lni tashlab ketganimdan beri unga nima bo‘ldi? Nima uchun ahvolimni so‘ramay, shuncha kundan beri qayerda yurganim bilan qiziqmay, meni koyib turibdi. Asli o‘zi sog‘mi?!”.

— Qandaysiz, amaki?! — tund so‘radi Baqaydan Manas. -Hol-ahvol so‘rashning o‘rniga, nega menga otilyapsiz? Men nima, kekkaygan dushmanga qaqqayib turib beraymi?

— Senga kim o‘ziga bino qo‘ydi? — biroz yumshoq so‘radi oshirib yuborganini sezgan Baqay.

— Balli, amaki! — masxara qilib qaradi unga Manas. — Endi o‘zingga kelding. So‘zingni aynan mana shunday boshlashing kerak edi. Qizitaloq Qiytuucha menga hamda tinch yotgan qishloqqa o‘zi kelib qo‘l soldi. Kattazanglik qilib kelib yilqi oldi. Buni ko‘rgandan keyin jahlim chiqib, ularning hammasini joyladim.

— Biroq... — Baqay gapira boshlagan edi, Manas uning so'zini keskin bo'ldi:

— Nima biroq, amaki? — koyidi u Baqayni. — Seningcha, men indamay, u yerdan qochib ketishim kerakmidi? Yo'q, amaki! Bostirib kelgan dushmandan hech qachon qochmayman! Ularni o'ldiraman yoki o'zim o'laman! O'lib qolsam ham, bu dunyodan "dushmanga holim yetmay o'ldim!" — deb narigi dunyoga o'kinmay boraman.

— Qiytuucha bu yerga nima maqsad bilan kelibdi? — so'zni boshqa tarafga burdi Manasning achchig'ini bosishga harakat qilib Aydarxon.

— U Alokening ayg'oqchisi ekan! — xo'mrayib javob berdi Manas. — Araniqda Asharsuu bor askarini to'plab, bizga yurish qilishga tayyorlanib turibdi ekan. Aloke ham tinch yotmay, Tashkenni qirg'iz oldi deb, bizga tishini qayrab turgan kezi ekan. Ular hozir sizdan, amaki, qo'rqib joni halak.

— Shunday ekanmi? — ko'zi chaqchayib ketdi Ko'kchaning. — Agarda qalmoq, xitoylar shunchalik o'chakishib qolgan bo'lsa, sog'-omonligimizda Oltoyga qaytib ketganimiz yaxshi emasmi?!

Aydarxon bilan Baqay bir-biriga qarashdi. Ko'kcha ularning ichidagi o'yini aytganligi ularning tusidan ko'rinib turardi.

— Shunday qilsak ham bo'ladi! — amakilarining o'yini ayttirmay tushungan Manas miyig'ida jilmayib. — Hozir otlansak, bir necha kunda Oltoyga, Jildizga yayrab yetamiz!

— Xuddi shunday bo'ladi! — suyunib dedi Aydarxon. — Hech qayerda to'xtamasak, tezgina uyga boramiz.

— To'g'ri! — xafa bo'lib jilmaydi Manas. — Biroq Turkistondagi alashlarning holi ne kechadi? Biz ketgandan so'ng qalmoqlar, xitoylar ularni tuk qo'ymay qirsa, nima qilamiz?! Ularning yuzidan qon oqsa, uvoli kimning bo'yniga?! Ko'zidan yosh oqsa, yoshi kimning qo'yniga?!

Manas amakilariga savol bilan tikildi. Ular nima deb javob berishini bilmay, indamasdan turib qolishdi.

— Javob topolmayapsizlarmi? — so'radi ulardan Manas. — Men ham bu savollarga javob topa olmayapman. Mahalliy alashlar qalmoqlardan qirilsa, qiyomatda bo'ynimga qizil qon tushib,

qiyin-qistovda qolaman! Shu sababli bu yerdan ketmayman! Haq yozganini ko'raman, nomusim uchun o'laman!

— Quruq nomusga oldirgandan nima foyda?! — o'zicha g'udrandi Aydarxon. — Esing borida, etagingni yop deydi. G'ij-g'ijlashgan xitoy bilan chopishishdan hech qanday foyda topmaymiz. Ularni yengib ham ololmaymiz!

— Quruq nomusning bu yerda hech qanday aloqasi yo'q! — ters boshini chayqadi Manas. — Bu yerdagi alashlarni tashlab ketsak, baribir jonimizni qutqara olmaymiz.

— Nimaga? — hayron qoldi Ko'kcha.

— Xitoylar Tashkenni, Turkistonni olgandan so'ng o'ch olish uchun Oltoyga askari bilan boradi. O'shanda ularga kuchimiz yetmay qolishi mumkin. Ular Oltoyni azobga solib, jasurlarni barchasini qiradi. Sizlar shuni xohlaysizlarmi?

— Yo'q, xohlamaymiz! — aniq javob berdi Baqay.

— Men ham buni xohlamayman! Men qirg'iz uchun nomus talashdim. Qizil chaqa chiqquncha, qiyomat ketsin Manasing! — achchiqlanib so'zini tugatdi u.

Baqay hech narsa deb javob bermay, sulaygan bo'yi qarab turib qoldi. Uning alpozini ko'rib, yana talay so'zlarni aytishga shaylangan Manas o'zini bosdi.

Shundan keyin hammasi otlariga minib, qo'lini ko'zlab jo'nashdi.

* * *

Botirlar to'qayli Kendir tog'iga yetganda, oldida to'lqinlanib turgan ko'p askarini yo'liqtirdi. Er Manas qaytadan askarini boshlab, Bayandi degan dalaga yetdi. Ular bo'z ola tog'ning uchiga chiqqandan keyin ot choparcha yerdan Araniq qal'asi ko'rindi.

Ko'p vaqt o'tmay, undan Keselik bosh bo'lgan ko'p askar chiqib, Manasning qo'li tarafga yopirildi. Keselikning yonida Talap, Aychang o'g'li Ketenik, Shaqur sho, Kuro'ngdu hamda boshqa atoqli askar boshchilari kelishar edi. Sonsiz askar qatorida urushga kiradigan sakkiz fil ham borar edi.

Ikki qo'l yuzma-yuz kelib, keng dalaga to'xtashdi. Harbiy odatga ko'ra, jang oldida hadeganda polvonlar olishuvda kuch sinashi-

shi shart. Xitoylarning askaridan bo'linib, minoraday bo'yi bor, ingichka jag', sariq yuzli Talap polvon hay-haylab chiqib keldi.

— Qirg'iz, qozoq eliga qirg'in solaman! — nayzasini qo'liga olib, po'pisa qila boshladi u. — Ta'ziringni berayin! Ajali yetganing kelgin. Bu yerga kelgan elingning birontasi mendan qutulmas! Bor askaring yig'ilib kelsa ham, menga yetmaydi holing. Chin ajali yetganing Talap devga tez kel!

Qirg'izlardan olishuvga qipchoqning o'rta bo'yli, keng yelkali, qorato'ri Ko'cho'k botir chiqdi. U Talapga hayqirib yetib borib, nayza soldi. Talap polvon uni qoqib tashlab, kuch bilan Ko'cho'kka gurzi urdi. O'shanda Ko'cho'k botir kul-kul bo'lib, shahid ketdi.

Ko'cho'kni o'ldirgandan keyin Talapning so'zi kuchaydi:

— Chumchuqcha chiday olmading, chiqmay qoldi armonim! — masxara qilib qiyqirdi u. — Tezroq kelinglar, botirlar! Minging qo'yib, soning kel. O'limni sog'insang, jami alash baring kel!

Qirg'izlarning o'rta bo'yli, qorato'ri Talipbay botiri Talap bilan chopishgani chiqdi. Unga yetib, qalmoqni nayza bilan qochirdi. Talap qilichi bilan uni qiyib chopdi.

Nayzasi singan Talipbay qayta qo'liga qochdi. Talap ortidan quvib yetib, oti bilan o'zini qilich bilan yorib chopganida, Talipbay ot-poti bilan bo'linib, yorug' dunyo bilan vidolashdi.

Talap yanada battar havolana boshladi.

— Menga kelaveringlar, chantuular! Sho'ringlarni quritay. Biring emas, baringlarni so'yayin! — deb xitob qildi.

— Bu ahmoq nima deyapti?! — deb qozoqning uzun bo'yli, sariq yuzli So'o'run botiri unga qarshi olishuvga chiqdi.

U qalmoqning yoniga borganda, Talap unga nayza soldi. U So'o'running jigariga tegib, sirtidan chiqdi. O'sha yerda qulagan So'o'run til tortmasdan bandalikni bajo keltirdi.

— Bu kofir nima deyapti? — nihoyatda hayron qoldi Baqay. — Otilganni sog' qo'ymay, oxiri barining qonini to'kdi!

Qahrlangan Baqay bor yarog'in bog'lanib, Yaratganga yolvorib, Talapga yetib bordi. Unga nayza solgan edi, uni uchirib tashlash uchun xitoy gurzi soldi. U tegay deganda, Baqay nayzasini burib oldi. Xato chopilgan gurzi yerga urildi.

O‘shanda Baqay Talapning kekirdagiga nayza bilan urdi. Uning tomog‘idan yel chiqib, qizil qoni sharqirab oqa boshladi. Dushmanini hol-joniga qo‘ymay, Baqay qilichini olib, uning o‘ng qo‘lini qiyalatib chopdi. U yerga uzilib tushdi.

Talap chap qo‘li bilan qoldi. Qo‘shiniga qochish uchun otining boshini tortib burguncha, Baqay uni qilich bilan bo‘yniga soldi. Talapning boshi olmaday yerga dumaladi.

Botirining qazo qilganini ko‘rgan qalmoqlar Baqayga qarshi bo‘yi uzun, qorato‘ri, sap-sariq Suqsak botirini maydonga yubordi.

— Sen Talap erni o‘ldirding! — gurzisini ushlab hayqirdi Suqsak. — Mening juda ham jinimni keltirding. Seni onang-otang borgan yeringga yuborayin, chantuu!

Qo‘lga nayza olib, tulpor otiga qamchi solib, Suqsak Baqayning oldiga bordi. Xon Baqay qalmoqning qoq yuragining ustiga nayza soldi. Suqsak oltin kamar chetiga, oy boltaning betiga nayzasin siltadi. Ikkovi teng sunilgan nayzalarni qoqib yuborishdi.

Qaytadan bir necha marta sanchishib, bir-birini yenga olishmadi. O‘shanda ular oybolta bilan chopisha boshlashdi. Bir-birini qirq-ellik marta urishdi. Hech kimisi yengilgani yo‘q.

Oyboltalarini tashlashgandan keyin Baqay yelkasidagi Ko‘kchibiq miltig‘ini olib, chaqmoqtoshni bir chaqib, nishonga qalmoqning boshini keltirib, tepkichni bosdi. Otilgan o‘q Suqsakning boshiga tegib, otidan uchib tushib, jon berdi.

Buni ko‘rgandan keyin qalmoqlardan qon maydonga uzun bo‘yli, qorato‘ri, ingichka jag‘ Ketelik otli polvon chiqdi.

— Baringlarni qiraman! — deb u Baqayga kekkayib yetib bordi.

Ikki botir anchagacha nayza bilan sayishdi. Qanchalik harakatlangani bilan hech kimisi g‘alabaga erisha olgani yo‘q. Bundan achchiqlangan er Baqay Ketelikka yetib borib, uni kamaridan ushlab, olti yashar boladay yerga urdi. Yerga tekkan tarafi sinib, Ketelik dev yarador bo‘lib, o‘rnidan tura olmay, yonboshi bilan sudralib, o‘sha yerda jon berdi.

Kech bo‘lib qolganligidan, ikki qo‘l yotadigan yeriga qaytib jo‘nab ketishdi. Qorovulni qattiq qo‘yishib, ovqatlanib olgandan keyin ikki taraf uyquga ketdi.

Ertasi kuni tong otganda botirlarning kurashi yana davom etdi.

— Tezroq kelgin bu yoqqa! — deb baqirib, qalmoqning uzun bo'yli, sariq yuzli Shaqursha botiri Jarko'k degan otini minib, maydonga chiqdi. — Tez yukun!

Unga qarshi qirg'izlardan Asrlan Urbu bordi. Ikki polvon maydonda yuzma-yuz kelishganda Shaqursha qilichini sug'urib, uni chopishda Urbu qalmoqni aniq otib ketdi. Maqtanib kelgan Shaqursha til tortmasdan, do'zaxga ketdi.

Shaqursha o'lgandan keyin Urbu bilan olishuvga uzun bo'yli, alp qomatli Kuro'ndu keldi hayqirib.

— Laylama qo'lla! — baqirdi Kurondu. — Menga kelgan jon o'larsan! Tirik jonim qolar deb, behuda ovora bo'larsan!

Nayzani qo'lga olib, Urbu botirga asta chopib borib, unga nayza soldi. Uni qoqib tashlab, Urbu unga nayza siltab qoldi. Kuro'ndu ham uni qoqib yubordi.

Polvonlar o'n besh marta qayta yuzlashib, nayza bilan bir-birini yiqitisha olmadi. Qilichini sug'urib olishib, u bilan qirq-ellik martadan chopishishdi. Olsak deya bir-birin, oybolta bilan solishishdi.

Qaqshatqich yoy, miltiq bilan bir-birini otishib, hech kimisi zafar qucha olmadi. Kech bo'lib ketganligidan, olishuv to'xtatildi.

Ertasi kuni tong otganda qalmoqlarning doshqozonday boshi, yastanib yotgan qora itday ikki qora qoshi bor, erligi oshgan elidan, ellikka yaqin yoshi bor, to'ti qushning quyrug'i boshining o'rtasiga sanchilgan Qachaliq chiqdi maydonga.

— Laylama qo'lla! — qiyqirdi u. — Qaydasan chantuu, kelgin menga!

Devday bo'lgan suridan hayiqib, hech kim unga bora olmay turganda maydonga qozoqlarning o'rta bo'yli, chayir tanli, oq yuzli Qabaybay uulu Ashanbay g'azablanib baqirib chiqdi.

Qachaliqqa borib, Ashanbay uni qora nayzasi bilan urdi. Qachaliq uni oyboltasi bilan chopib yubordi. Nayza qarsillab sinib ketib, siniqlari har tarafga sachradi. Ulardan biri Ashanbayning ko'ziga qadalib, u ko'zidan ayrildi.

Ko'zining og'riganiga chidamay, u otining boshini burib, qo'liga qochdi. Qachaliq ortidan yetib, Ashanning boshini oybolta bilan chopdi. Qozoq qalin askar qoshiga kelib yiqildi.

— O'ldirdim chantuuni! — shonli qiyqirib, Qachaliq qo'liga qayta chopib ketdi.

Biroq Ashanbay o'lmasdan og'ir yarador bo'lgan edi. Uning ayanchli ahvoliga achingan Ko'kcha Ko'gala otiga sakrab minib, Qachaliqning ortidan quvib, tezgina unga yetib bordi. Ko'kchani ko'rib, Qachaliq qaqshatqich kamonini ushlab, kuchugo'n* junli o'q bilan unga aniq otdi. Ko'kcha qalqonni to'sib olganda o'q qavatning beshalasini buzib, undan nariga o'tmay, to'xtab qoldi.

— Seni ko'kartirmasman, qalmoq! — deb Ko'kcha Qachaliqning gejgasiga nayza soldi.

Biroq nayzaning uchi sovutga botmay, sirpalangan bo'yi ketdi. Undan omon qolgan Qachaliq Ko'kchani oybolta bilan soldi. Himoyalanib, Ko'kcha uning sopidan ushladi. Oyboltani tortishib, ushlagan qo'li uvishib, polvonlar askaridan ajrab, dalaga chiqib ketishdi. Tog' tayanib, bir-birin to'qmoqlashib, to'xtamay urush qilishdi. Biroq bir-birini yenga olmay qo'yishdi.

Charchaganda ikki botir to'xtashdi.

— Eldan erkin, yurtdan toq, urush qilding ayni chog'! — entikib so'zladi Ko'cho'.

— Rost! — ko'ndi Qachaliq. — Armonsiz chopishib, hech birimiz yenggan yo'qmiz. Bunimiz yaramaydi. Shu sababli urushni to'xtatib, boshqa yo'l bilan g'alabani aniqlaylik.

— Bu qanday yo'l? — so'radi Ko'kcha.

— Itga o'xshab qopishmay, o'g'rilarday chopishaylik. Ikkovimiz miltiq bilan otishaylik. Sen turib ber. Men otaman. Mana shu yerda seni o'ldirsam, ma'rakaga botaman. Agarda men turib bersam, sen otgin. Shunday erlarday urush qilaylik, kuchligimiz yengib olaylik!

— Men roziman! — javob berdi Ko'kcha.

— Kimimiz birinchi otaylik? — savol bilan tikildi Qachaliq.

— Taklifni sen kiritding. Sen birinchi ot! — deb navbatni berdi qalmoqqa Ko'kcha.

Qachaliq rozi bo'lb, miltig'ini o'qlay boshladi. Pilikni cho'g'lab, yuziga miltiqni oldi.

"Allohim o'zing saqla!" — deb er Ko'kcha yuzini qalqon bilan to'sdi.

Qachaliq uning ikki qoshining o'rtasini mo'ljalga olib, tepkichni bosdi. Otilgan o'q to'ra botir Ko'kchaning kallasidan to'rt enlik olis ketib, omon qoldi.

O‘shanda otish navbati er Ko‘kchaga keldi. Almabash miltig‘in olib, unga ayamay dori soldi. Qalmoqni otayin deb, yuziga miltiq olganda Qachaliq chidab tura olmadi. So‘zini buzib, qo‘liga qarab qochib ketdi.

“Seni qochishga qanday qo‘yayin? — o‘ylandi Ko‘kcha. — Qalin qo‘lingga yetguncha, Alloh bersa, seni so‘yayin!”.

Ko‘kcha miltiqni yuziga olib, qochib borayotgan Qachaliqning o‘ng qo‘liga otdi. O‘q aniq tegib, o‘ng qo‘lning bilagini uzib ketdi. Yarador bo‘lgan Qachaliq og‘riganiga chidamay baqirib, chap qo‘li bilan tizgin, chilvirni ushlab, sag‘ira*dagi soy bilan, dala nishab joy bilan askarini ko‘zlab qochdi.

Biroq yolg‘iz qo‘li bilan omon qolmadi. Otiga qamchi solaman deganda, tizgin bilan chilviri qo‘lidan tushib ketdi. Chopib borayotganda u tizginga qo‘lini soldi. O‘shanda tushovlab qo‘yilgan narsadek, oti tizgin bilan chilvirga chalinib, munkib quladi. Qachaliq otining ustidan yerga qulab tushdi.

Er Ko‘kcha ortidan yetib kelib, uning ko‘kragiga nayza bilan urdi. Qachaliq chalqancha yiqilib, changga boshi tiqildi. Chap qo‘li bilan tayanib, jon talashib o‘rnidan turganda Ko‘kcha uning bo‘yniga qilich bilan urdi. Tomdan tushgan qovoqday bo‘lib, so‘ziga xiyonat qilgan Qachaliqning boshi yerda qoldi. Aydarxon o‘g‘li Er Ko‘kcha uning otini yetaklab olib, askariga jo‘nadi.

Er Ko‘kcha Qachaliqning oti bilan maydonga qaytib borganda, bari uning olishuvda g‘olib bo‘lganligini tushunishdi. Qirg‘izlar polvonining g‘alabasiga quvonib yerni larzaga keltirib qiyqiriq solishdi.

Buni ko‘rgan qalmoq tarafdan uzun bo‘yli, qorato‘ri Uquriya polvon Tulg‘ara degan otini minib, g‘azablanib baqirib, maydonning chiqdi yo‘liga. Olishuv boshlanganda Ko‘kchaga qarab chopib jo‘nadi. Er Ko‘kcha bo‘lsa o‘rnidan jilmasdan, uni asta kutib turdi. Uquriya yaqinlab qolganda Ko‘kcha uni miltiq bilan otdi. Otilgan o‘q xato ketib, Uquriya omon qoldi. U Ko‘kchaga yetib kelib, uni nayza bilan sanchdi. Qozoq uni nayzasi bilan chetga qoqib yubordi.

Ikki yurtning polvoni necha marta nayza bilan qochirishib sanchishishdi. Oybolta, qilich bilan chopishishdi. Ayamasdan so-

lishib, urushib kechga yurishdi. Hech qaysisi zafarga yeta olmadi. Qorong'-u tushib qolganidan, olishuv to'xtatilib, ikki polvon qo'llariga qaytishdi.

Ertasi kuni choshgohda qalmoqlardan maydonga Qo'rjo'ng-bo'z otiga qamchi solib, o'rta bo'yli, qorato'ri, bo'ladan kelgan er Sanamar chiqdi sharaqlab. Qirg'izlarning qo'lidan Alkuro'ng otiga minib, uzun bo'yli, keng yelkali, sariq yuzli Munar chiqdi halloslab.

Maydonning o'rtasida ikki polvon bir-birini qochirishib, nayza siltab qoldi. Mardlashgan Sanamar egardan qiyshayib, uzangidan oyog'i toyib ketdi. Munardan sog' qolmasligini tushunib, qo'liga qochib jo'nadi. Munar uning ortidan quviy boshladi. Ortiga burilib qaragan Sanamar Munarning unga deyarli yetib qolganini ko'rib, yuragi og'ziga tiqildi.

— O'-o', qalmoqlar! — jon-holi qolmay qiyqirdi u qo'rqqanidan. — Meni qirg'izlarga yem qilmangizlar! Yordamga, qalmoqlar, yordamga!!!

Sanamarni qutqarish uchun qalmoqning askari Munar panalab kirishdi. O'shanda to'ra Manas bosh bo'lgan qirg'izlar ham dushmanga qarshi otlandi, ikki lashkar bir-birini butunlay qopladi.

Ajali yo'q bandani Alloh taolo saqladi. Yiqilganni turgizmay, qora yerga toptadi. Dushmanlar bir-birini oybolta bilan boshiga solishib, nayza bilan to'shiga sanchishib, qilich bilan chopishib, aralashib ketishdi. Yaroq solib bir-birin, yaralashib ketishdi. Miltiqning uni tarsillab, dubulg'a uni jarangladi. Nayzaning barini chopishib, odamning boshi qoqishib, armoni yo'q solishdi. Kunduz kuni tun bo'ldi, quloq tingan gung bo'ldi. Yol-quyrug'i yoyilib, ot yiqilib, quladi. Soqollari yoyilib, odam o'lib sulaydi. G'ijillagan ko'pchilik aralashib ketishib, olomon urush qilishdi.

Shu payt arslon Manas botirga uzun bo'yli, alp qomatli, sariq yuzli Keselik kelib qoldi. Uning yonida urushga mashq qildirilgan sakkiz fili esh-qo'sh yuradi. Ulardan biri chavandoz Manas botirga yugurdi. U xartumi bilan itarib, uni otdan olib solishga, agarda yerga yiqilsa, talqonlab jonini olish uchun Manasga jaranglab yetdi.

Manas fildan qo'rqmasdan, uning xartumiga qilichni siltadi. Fil xartumi kesilib, tag— tubidan uzildi. Xartumidan ayril-

gan fil baqirib, askariga qarab qochdi. Fil o'rgatgan kishi cho'yan to'qmoq olib, boshiga urib, filni ortga qaytarishga harakat qildi. Fil uni to'g'atib qo'ymasdan, ortida kelgan Keselikni ot-poti bilan dumalatib qo'ydi. Fil o'rgatgan kishini bo'lsa Manas nayza bilan bir qo'yib, uning ishini bitirdi.

Achchig'i chiqqan Manas botir albars qilichini olib, olti filni o'sha yerda o'n ikkiga bo'lib tashladi. Qalmoqlarni hay-haylatib, bir chetdan qira boshladi.

Bunga chidamay, Manasga Keselik keldi o'kirib, achchiqlanib baqirib. Yaqinlamasdan turib, Keselik uni nayza bilan sanchdi. Manas uni chopib tushirdi. Keselikning zamonasi torlashdi, es-hushidan adashdi.

"Bu qanday narsa?!" — esi chiqdi uning. — Shunchalik qattiq sanchgan nayzamni qanday chopib tushira oldi? Bunday zarbadan u ot-poti bilan ag'darilib tushishi kerak edi-ku?! Qo'y, men bu yalmog'izdan qochayin, qora jonimni saqlayin!!!".

Keselik qo'rqqanidan qo'liga qayta qochdi. Manas uni qochirib yubormay, ostidagi cho'ng kula ot bilan shamolday uchib yetdi. Ortidan kuragiga sirnayza bilan sanchdi. Keselikning egardan kichigi qiyshayib, uzangidan oyog'i toyib, madori ketib qoldi.

Uni saqlab qolish uchun Manasga uzun bo'yli, alp qomatli, qizil yuzli Kuro'ndu yetib keldi. Kunday gurkirab, unga nayza sanchdi. Manas uni qoqib yuborib, o'zi Kuro'nduga nayza soldi. Qalmoq uni ham turtib yuborishga ulgurdi.

Kuro'ndu Manasni sadoqdagi nayza bilan otishga niyat qilib, o'qini paypaslab oldi. Nayza kamon ipidan chiqquncha, Manas unga nayza soldi. U og'ziga tegib, bo'ynidan chiqdi. Natijada Kuro'ndu o'sha yerda gumdon bo'ldi.

Uni o'ldirgandan keyin Manas qaytadan Keselikning ortidan quvgan bo'yi chopib ketdi. Keselik Dangg'ara otga mingancha qocha boshladi. Oqqula bilan qalmoqqa yetib borgan er Manas uning ortidan nayza otdi. Qochib borayotgan Keselik uni uchidan ushladi. Uni Manasdan tortib olishga Keselik polvon kuchini jalb qildi. Biroq nayzani sug'irib ololmadi. Jon talashgan bo'yicha u askarlarining ichiga oralab qochdi. Manas undan qolmasdan qalmoqni quvib yetdi.

Dushmanlarning ichiga yolg'iz kirib qolganidan, qalmoqlar har tarafdan Manasga oybolta, qilich solishdi. Unga do'l kabi o'q otib, mo'ngdulashib to'p otib, yomg'irday qilib yoy otib, yalpi qalmoq Manas atrofida to'dalashdi. Jahli chiqqan er Manas Aqkelte miltiqni otib, uning och qiyqirig'i yangradi.

Manasning haybatli unini uqqan amakisi Baqayning joni ko'ziga ko'rinmay qoldi. Uning xavf ostida qolganini tushungan Baqay qo'yga hamla qilgan bo'riday qalmoqlarni bir chetdan qira boshladi. Dushmanlarin o'ngga-so'lga irg'itib, yo'lini tozalab, er Baqay Manasning yoniga yetib keldi.

Manas xitoylarning tug'i turgan yerga kelib qolganligidan, amakisi ikkovi og'ir ahvolda qolishdi. Sababi tug'ni himoya qilgan askar mo'l edi. Ikki qirg'iz polvon talaygina azob chekishdi. Jon olib-jon berib, xitoyning orasida beayov jang qilishdi. Biroq ko'pchilikning ishi ko'pchilik bo'lganligidan, botirlar charchab, holdan toya boylashdi. Qirg'izlarning qo'li xiyla olisda bo'lganidan, ular hayotdan umidini uza boshladi.

O'shanda Oqboltaning Chubag'i olti ming askari bilan xitoyning qalin qo'lini yorib o'tib, Manasga yordamga yetib keldi. Ularning ortidan ergashib O'rdo'dagi o'n ming qo'lni boshlab, uvvos solib yopirilib, osmonga changni sopirib, O'yro'n Sirg'aq o'kirib, kelib qoldi baqirib.

Yordamga kelgan askarlar bilan Manas qalmoq, xitoylarni ostin-ustun qildi. Qirg'izlarning hujumiga turish bera olmay, ular chor tarafga qochib tarqaldi.

Askarining qochganini ko'rgan Keselik botirning esi chiqdi. Manasdan qutulish uchun otiga qamchi solib, u qocha boshladi. Buni ko'rgan Qo'sho'yning qaynotasi Munar oq piston miltig'ini oldi.

"Shoshmay tur, quv bosh! — g'azablandi u. — Mendan qutula olmaysan. Bizning Manasimizni ko'plashib, tog' bosdi qilish qanday bo'lishini senga ko'rsatib qo'yaman!".

Munar qochib borayotgan Keselikning ikki ko'zining o'rtasiga otdi. O'q uning boshini yorib ketdi. O'sha yerda Keselik til tortmasdan, shahid ketdi.

Tug'i qulab, qoni o'lgan qalmoq, xitoylar tura olmasdan, chor tarafga qochishdi. Olti kun, olti tun davom etgan jang qirg'izlar-

ning to'liq g'alabasi bilan yakunlandi. Bu urushda, hay-haylashgan yulishda qirg'izlarning o'n bir ming askari halok bo'libdi. Qalmoqlardan o'n to'qqiz mingi o'lib, narigi dunyoni ko'ribdi. O'ttiz mingi yarador bo'libdi. Qolgan sog'larining ahvoli ham yaxshi emas. Sog' degan oti bo'lmasa, ular asli yaradorga barobar.

O'shanda qirg'izlardan tirik qolishiga umidi birato'la uzilgan qalmoqlar Araniq shahriga qochib borishdi.

Askarlar shahar chetidagi daryoning qirg'og'iga yetganda, ularni shaharliklar to'sib chiqishdi.

— Aylanaylar! — yalina boshlashdi ular. — Sizlar bizni qirg'izlardan saqlab qolinglar! Ularga xor qilmanglar! Yaxshilab jang qilinglar ular bilan!

— Yo'q! — javob berdi uzun bo'yli, qorato'ri Asharsuu. — Ularni to'sgani chamamiz yetmay qoldi. Askarimizning ko'pi qurbon bo'lib, qanchalari yarador bo'lishdi. Men qirg'izlardan boshimga jarohat oldim. Qochmoqdan bo'lak choramiz qolmadi.

— Unday bo'lsa, Araniqning shahridan odam qo'ymay qirib ket! — baqirishdi shaharliklar. — Bizni qoldirma qozoq, qirg'izga. Xon Aloke omon tursa, qaytmasdan tashlab ketishing to'g'ri emas! Bizni qirib ketinglar! Yoki o'zinglar bilan birga olib ketinglar!

Faryod chekib, osilishib qo'yib yuborishmadi Alokening askarini Araniq yurti.

— Qo'yib yuboringlar bizni! — achchiqlanib qiyqirdi ularga Asharsuu. — Sizlar bilan akkillashib o'tirgani vaqtimiz yo'q. Manas bilan jang qilishga tayyorlanishimiz kerak!

— Yo'q! Biz sizlarni hech qayerga ketkizmaymiz! — deb to'plangan el askarlarning yo'lini to'sib oldi.

— Askarlar! — qahrli qiyqirdi o'shanda Asharsuu. — Yurishni davom ettiringlar. Agarda kimdir-birov yo'lni to'sadigan bo'lsa, ta'zirini beringlar!

Askarlar o'rnidan jilishga harakat qilishdi. Biroq shaharliklar ularni qo'yib yuborishgani yo'q.

— Yo'lni ochinglar! — achchiqlangan navkarlar ularni qamchi bilan savalay boshlashdi.

Bunga jini kelgan shaharliklar ularga qarshilik ko'rsata boshlashdi. Yosh-qarisi, ayol-erkagi demay, qo'liga kirgan narsalar

bilan askarlarni ura boshlashdi. Qizil qirg'in boshlanib, aylana qiy-chuvga, o'kirik-qiyqiriqqa to'ldi.

Askarlar bilan shaharliklar tuni bilan qarsillatib jang qildi. Talay odam qazo bo'ldi. Talaylari yarador bo'ldi. Biroq qalin elning orasidan askarlar yorib o'ta olishmadi.

— Endi nima qilamiz? — jig'ibiyron bo'lib so'radi o'rta bo'yli, qorato'ri Budabildan Ukuriya polvon. — Agarda shahardan chiqib ketmasak, qirg'izlar yetib kelib, barchamizni chopib tashlaydi.

— Bu turgan gap! — xo'mrayib rozi bo'ldi u bilan Budabil polvon. — Shuncha qirg'izni o'ldirgandan keyin ular bizni sog' qo'yarmidi?!

— Buni bir aytasanmi, ikki aytasanmi! — jini keldi sariq yuzli, to'ladan kelgan Bayman shoning. Xorning tubi zo'r bo'lar, zo'rning tubi xor bo'lar degani shu bo'lsa kerak! Necha yillardan beri alashlarga zo'r bo'lib yurgan edik. Endi ularga xor bo'ladigan fursat yetibdi!

— Men sizlardan o'tmishning afsonasini so'ragan yerim yo'q! — ijirg'andi oq yuzli, ingichka jag' Uquriya. — Hozir nima qilishimiz kerak? Mana shu savolga javob topinglar. O'tganga o'kingan bilan nima foyda?

— Biz uni Asharsuuga beraylik! — taklif qildi sanchdoshlariga Budabil. — U bizning boshchimiz emasmi?

Berigi ikkovi ko'nib, shaharliklar bilan solishishda yana yarador bo'lgan Asharsuuning yoniga borishdi. Ularning so'zini eshitgandan keyin u yuz-boshini tirishtirdi.

— Shuncha eldan biz qanday sug'urilib chiqamiz? — norozi bo'lib so'radi u. — "Qirg'iz qozoq qiradi, qilmaganni qiladi!", — deb shaharliklarning bari jonidan umidini uzib, yer quchoqlab zorlanib yotishadi.

— Unda nima qilamiz? — kayfi o'chib so'radi Budabil. — "Olma pish, og'zimga tush!", — deb qo'limizni qovushtirib o'tiraveramizmi?!

Asharsuu og'ir xo'rsindi.

— Yig'lab o'tiraverishdan foyda yo'q! — biroz o'ylangandan keyin javob berdi u. — Biz qirg'izlarga qarshilik ko'rsata olmay-

miz. Shu boisdan ularga taslim bo'lib, Manasning fuqaroligiga o'taylik!

— Bu nima deganingiz? — hayron qolib qaradi Asharsuuga Budabil. — Qirg'izlarning ashaddiy dushmani bo'lsak, ularga shuncha yildan buyon ko'rmagan xo'rlikni ko'rsatib, ezib kelgan bo'lsak, endi ular bizni ayab, fuqaroligiga oladigan tentak emasdir?!

-Yo'q! — boshini chayqadi Asharsuu. — Qirg'izlar tentak emas. Bizdan ko'rgan xo'rliklarini ham unutmasa kerak.

— Unda siz nimaga asoslanib, qirg'izlarning fuqaroligiga o'tishni taklif qilyapsiz? — so'radi Ukuriya.

— Shunchalik qo'rqqani ular yalmog'iz deysanmi? — yana og'ir xo'rsindi Asharsuu. — Qirg'izlar — kengfe'l, kechirimli xalq.Ular bilan biz bir otaning farzandlarimiz. Yaqingina tug'ishganlarimiz. Bosh egib, sovg'ani mo'l tayyorlab borsak, balkim Manas bizni kechirib, fuqaroligiga oladi degan umidim bor!

Hammasi bir lahza indamay qolishdi.

— Bunchalik shoshilishning nima zarurati bor? — savol bilan tikildi Asharsuuga Budabil. — Balkim Anjiyanga borib, Alokega qo'shilib, qirg'izlarga qarshilik ko'rsatishni davom ettirganimiz o'ng bo'lmasin?!

— Alokega ishongandan foyda yo'q! — ters boshini chayqadi Asharsuu. — Oy-olamning barchasini alash o'g'li oldi. Oq-ola soqol Aloke ularga qarshilik ko'rsatishga yaramadi. Bir qarich yerda turgan Araniqni oldirtirib yubordi. Manas omon tursa, qozoq, qirg'iz birikib, oz kunning ichida Alokega yetadi deyman. Shu boisdan bu xitoyga ishonmasdan, o'zimizning qondoshimiz Manas bilan umumiy til topishishga harakat qilaylik!

— Anchagacha sukunat hukm surdi. Hammasi hozir ularninggina emas, yalpi elining ham taqdiri hal bo'layotganini tushunib turishdi.

— Yana bir savol! — to'satdan qurib qolgan tomog'ini qirib so'zladi Budabil. — Agarda fuqaro bo'lish haqidagi o'tinchimizni Manas rad etsa, unda bizning, elimizning holi ne kechadi?

— Bunday bo'lgan taqdirda sho'rimiz quriydi! — tund javob berdi Asharsuu. — Nima bo'lganda ham, yotib o'lguncha, otib o'laylik. Qirg'izlarga borib, o'tinchimizni aytaylik. Ular rozi bo'lmasa, o'sha yerda ajalga bo'ynimizni tutib beraylik!

— Ularning qo'liga o'z erkimiz bilan tushib, beajal o'lib ketish o'rniga, bola-chaqani olib, qochib ketganimiz durust emasmi?! — fikr bildirdi boyadan beri indamay o'tirgan Bayman sho.

— Qochgan elga qo'shilib, qaysi yoqqa tarqaylik?! — xafa bo'lib so'radi Asharsuu. — Somtiratib chollarni, tirqiratib bollarni qochib qayga boramiz? — Mol-holning barin yo'qotib, umid uzib dunyodan, qayga qochib tarqaymiz?

— Bu aytganlaringiz to'g'ri! — og'ir xo'rsindi Budabil.

— To'g'ri bo'lsa, buyrug'imni uqinglar! — dedi Asharsuu. — Tong ottirmay Manas botirga sakson odam borsin. Yuz tuyaga oltin, kumush yuk yuklansin.

Ertasi kunning tongi otganda, choshgoh bo'lib qolganda, tog'dan yuzin yetaklab, chodirida yotgan Manasning oldiga qalmoqlardan sakkiz yuz kishi keldi. Ular bilan birga qirq bitta bo'yiga yetgan qiz bordi.

Ularning ortidan oqsab bosib, bo'yniga bog'ich solingan Asharsuu kelib, Manasning chodirining ichiga kirdi.

— Botir! — murojaat qildi u. — Men Araniq shahrining boshchisi Asharsuuman. Senga shahrimning elining nomidan murojaat etishga ruxsat ber!

— Qulog'im senda, Asharsuu! — rasman javob berdi Manas.

— Botir! — tomog'ini qirib so'yladi Asharsuu. — Men qo'ling bilan bo'lgan janglarda boshimdan yarador bo'ldim. Jonim og'rib turganiga qaramasdan, oldingga keldim. Sendan elimning jonini omon qoldirishingni so'ranaman!

— Bizga qarshilik ko'rsatib, yarador bo'lib, endi uyalmasdan kechirim so'raganingga yo'l bo'lsin, botir?! — qahr bilan qaradi Asharsuuga Manas.

— Ha, botir! — susayib javob berdi Asharsuu. — Olisdagi Esonxonga ishonib, seni dushman ko'rdim. Tashkendagi Panus tog'amni chopib olganingdan keyin uning o'chini olish uchun xitoy Alokega ishonib, senga qarshi otlandim. Biroq seni yenga olmay qoldim. Egilgan boshni qilich kemas. Men sendan bizning tug'ishgan el ekanligimizni eslashingni so'ranaman. Bizning tub otamiz Turon bo'ladi!

— To'g'ri aytyapsan. Turon — bizning umumiy otamiz. Qalmoqlar bilan qirg'izlar — birodar ellar. Biroq, nimagadir bu

to‘g‘risida avval o‘ylanmasdan, endigina eslayotganinglarga yo‘l bo‘lsin?! — kinoyali nigoh qadadi Asharsuuga Manas.

— To‘g‘ri, Manas! — g‘amgusor boshini silkidi Asharsuu. — Buni unutib qo‘ygan edik. Sizlarga talaygina xo‘rlik ko‘rsatdik, zor qaqshatdik. Biroq sen bizni yengib, tug‘ishgan ekaligimizni eslashga majbur qilding. Mana shu vaziyatni esga olib, elimizni omon qoldir, botir! Qilgan gunohlarimiz uchun kechir. Senga bo‘ysunganimizning nishonasi sifatida bizdan qirq bir mirza qizni tortiqqa ol!

— Agarda men bundan bosh tortsam-chi? — tund so‘radi Asharsuudan Manas. — Qilgan jinoyatinglar uchun kech o‘kinyapsizlar deb aytsam, nima qilasizlar?

— Nima qilar edik?! — boshini yanada battar quyi qildi Asharsuu. — Sen g‘olibsan. Qo‘llasang ham, qarg‘asang ham o‘z erking! Meni dorga osaman yoki to‘rtga bo‘lib tashlayman desang, amringga g‘ing demay bosh egaman. Yolg‘izgina so‘ranganim — elimning xavfsizligi, omonligi! Bizning bir otaning farzandlari ekanligimizni hisobga olib, elimning jonini omon qo‘yishingni sendan yana bir marta so‘ranaman, botir!

— Aytganing rost! — javob berdi Asharsuuning so‘zlariga erigan Manas. — Bizning tubimiz bir. Barchamiz turk otaning farzandlarimiz. Alokeng bo‘lsa xitoy urug‘i. Men uni sog‘ qo‘ymayman. Uni Anjiyandan quvib chiqaman. Kelajakda Anjiyan mening chorbog‘im, Samarkan safarim bo‘ladi!

— Hammasi sen aytganday bo‘lishiga menda hech qanday gumon yo‘q, botir! — chin ko‘ngildan aytdi Asharsuu. — Sen kelajakda butun dunyoni bo‘ysundirasan, Manas! Shunday bo‘lishni senga chin yurakdan xohlayman!

— Iliq so‘zlaring uchun rahmat! — jilmaydi Manas. — Omonat jonim bor bo‘lib, omon bo‘lsam, turkistonlik alashni qaratgayman ko‘zingga!

Shundan so‘ng Manas sovg‘alarni olib, Asharsuuga yo‘l berdi, oltinli yarim oy to‘n berdi. Elini omon saqlab qolganiga quvongan Asharsuu sakkiz yuz kishisi bilan Araniq shahriga qaytib bordi. Manasning taklifi bilan Araniq shahri o‘shandan keyin Namangen shahri deb atalib qoldi.

Qiron Manas u yerda qirq kun yotib, qo'li bilan es oldi. Ko'ko'to'yni oldirib, keng Tashkenning qal'asini, qolgan qalmoq, xitoyni unga topshirdi. Oltoydan safarga chiqqaniga uch yarim yil bo'lgan qo'l qaytadan makoniga yo'l tortdi.

XV. Manas boshlagan qirg'izlarning Oltoydan Olatovga ko'chishi

Oltoyga qaytib kelgandan keyin Manasning fe'li buzuldi. Ostki labi cho'chchayib, ustki labi osilib, sirkasi suv ko'tarmay qoldi. Hamma narsaga g'azablanib, bo'lar-bo'lmas narsa uchun silkinib-qoqinadigan bo'lib qoldi. Uning sirini yaxshi bilgan jo'ralari qo'rqib, nima qilishini bilmay, esi og'di.

Manasning yuragini nima o'yib yotganligini ochiq-oydin so'ragani hech kimning yuragi dov bermadi. Sababi kimda-kim nojo'ya ish qilsa, bunday paytda o'z otasini ham ayamasligini ular yaxshi bilishadi.

Manas bo'lsa oxirgi uch kun ichida uxlay olmay, qilichiga tayanib chiqdi. Uning yuragini sog'inch o'yib yotar edi.

"Qanday mo'jizaviy yerda bizning ota-bobolarimiz yashagan ekan! — qayg'uli o'ylab yotdi u uyqusiz tunlarda. — Ko'k o'tlog'ini aytasanmi, yo toza havosini aytasanmi — ota-bobolarning makoni behishtning o'zi ekan-ku. Shunday so'lim yerlardan ajratib, quvib chiqqan dushmanlarimizning biri ikki bo'lmasin!".

Iztirobga chiday olmay, u yotgan yeridan turib, achchiqlanib nari-beri bosdi. Mushtlarini tugib, kimdir birovlarga g'azablanar edi. Achchig'i tarqagandan keyin o'rniga o'tirib, yana teran o'yga cho'mdi.

"Endi nima qilish kerak? — o'ylandi u. — Bizni dushman o'z davrida yengib olibdi. Taqdirimiz shu ekan deb, bo'shashib, qo'ydan yuvosh bo'lib, mana shu yerda yuraveraylikmi? Yo'q! — O'ng qo'li bilan chap qo'liga qars urdi u. — Xitoylarning ko'pligidan qo'rqib, qo'l qovushtirib o'tiraveradigan men emasman. Xudo buyursa, ota-bobolarimning yerini qayta elimga qaytarib beraman. Ajalim yetib, shahid ketsam, elim, yerim, ozodlik

uchun qurbon bo'ldim deyman! Tug'ilmoq bor, o'lmoq bor. Alloh bergan omonat ajal kelsa bermoq bor!".

— Bu qarorga kelgandan keyin Manas o'zini xiyla yengil sezdi. Ikki yelkasini bosib turgan tog' ustidan tushganday erkin dam oldi. Tashqarida turgan qorovulni chaqirib, unga buyruq berdi:

— Erta bilan chor tarafga chopar yuboringlar! Oqsoqollarning bari bir haftadan keyin menga yig'ilishga kelishsin. Tilimni bilgan yurt bo'lsa, tilim bilan kelsin. Til bilmagan yurt bo'lsa, tilmochi javob bersin!

Buyruqni olgan navkar chiqib ketgandan keyin uch kundan beri uyqu yuzini ko'rmagan Manas qilt etmay, uxlab qoldi.

... Bir haftadan keyin Manasning oldiga olti yuzga yaqin oqsoqollar to'planishdi. Ularning ichida Jaqip, Oqbolta, O'shpir, Berdike, Dambilda, Baqay, Aydarxon, xullas, elning eng zo'rlarining, donishmandlarining, polvonlarining bari keldi.

Yig'ilishni ochib, Manas o'tirganlarga shonli murojaat etdi:

— Xaloyiq-yurt! Men sizlarni yig'ilishga bir jiddiy masalani muhokama qilish uchun chaqirdim! Ruxsat bersangizlar, uni sizlarga aytay!

— Aytaver so'zingni, bolam! — ovoz chiqardi Jaqip. — Kengashib kesgan barmoq og'rimaydi. So'zingni uqib, barchamiz bir xulosaga kelsak, elimiz, yerimiz uchun katta savob ish bo'ladi.

— Mening aytay degan so'zim quyidagicha! — davom ettirdi so'zini Manas. — Men ota-bobolarimizning yeri haqida gap qo'zg'amoqchiman. Behishtning o'zi bo'lgan yerlarimizdan xitoy, qalmoqlar ko'p yillar burun bizni quvib chiqibdi. Sizlarga makonimizga qaytishni taklif qilayin demoqchiman!

Yig'ilganlarning bari bir-biriga qarab qolishdi. Manasning so'zi ularning o'ylariga mos keldi. Ota yurtidan ajragan bu boyoqishlarning vatanimga qaytsam deb ikki ko'zi to'rt. Bu yerlarga kelishganiga o'nlab yillar o'tsa ham, tug'ilib o'sgan yeri kunduzi ularning o'ylasa o'yidan, tunlari uxlasa tushidan ketmay yuradi.

Manasdan farqli o'laroq, ular nima sababdan, qanday vaziyatlarda Oltoyga kelib qolganini ham unutishgani yo'q. Qahrli dushman qanday yengib olgani, qanday xo'rlab-qisgani bugungiday esida. Xitoy, qalmoqni yengib, vatanini qaytib olish osonlikcha

ro‘y bermasligini oqsoqollar yaxshi tushunib turishdi. Shu boisdan Manasga yo ha, yo yo‘q deb ayta olmay, indamay o‘tirib qolishdi.

— Nega indamaysizlar? — norozi bo‘lib so‘radi Manas. — Yo mening taklifim yoqmayaptimi?

— Taklifing qanday yoqmasin, bolam?! — qayg‘uli javob berdi Jaqip. — Biz necha yillardan beri Oltoyda yotsak ham, ko‘nglimiz doimo Olatovda, tug‘ilib o‘sgan yerimizda.

— Unda sizlar makonimizga qaytishga rozimisizlar? — umid bilan so‘radi Manas.

— Rozi bo‘lishga-ku rozimiz, — og‘ir xo‘rsindi Jaqip. — Biroq bu maqsadimizni qanday ro‘yobga chiqaramiz? Vatanimizni dushmandan qanday qaytarib olamiz? Gap shunda bo‘lib turmayaptimi? Ota yurtimizni o‘z xohishimiz bilan tashlab ketmaganmiz. Yer qaynagan xitoy, qalmoqlardan yengilgandan keyin bu aymoqqa haydalib keldik. Shuncha soni ko‘p xalqlarni qanday yengamiz, bolam?! Ular bizni qirib, tuxumimizni quritib tashlamaydimi?!

— Ota! — jiddiy qaradi Jaqipga Manas. — Siz to‘g‘ri aytyapsiz. Yerimizni hech kim mana senga, deb ushlatib qo‘ymaydi. Xitoylarning soni bizga qaraganda allaqancha ko‘p ekanligi ham shubhasiz so‘z. Ammo, shunga qaramasdan, ota-bobolarimning yerini bosqinchilardan qaytarib olishga qaror qildim. Er yigitning boshiga nelar kelib, nelar ketmaydi. Sizlar yeringlarni xitoylarga oldirib yuborib, nomuslanmasdan shu kungacha indamay yurdinglar. Men bunday qila olmayman. Ispara bilan Alayni olishga intizor bo‘lib yuribman. Bu o‘yimdan hech qachon qaytmayman!

— Bu amalga oshmas o‘ylaringni yuzaga oshirish uchun yuzlagan, minglagan er azamatlarimiz nobud bo‘lib ketsa, senga baribirmi, bolam? — tund so‘radi Jaqip Manasdan. — Holimiz yetgan ishni qilib, quruq xayolga oldirmaylik. Hozirgi hayotimiz ham yomon emas. Ajdarning quyrug‘ini bosmay, shu yerda tirikchiligimizni tinch o‘tkazaverganimiz durust emasmi?!

— Yo‘q, ota! — ters boshini chayqadi Manas. — Men bizning yigitlarning behuda o‘limini xohlamayman. Shu boisdan sizlarni yig‘ilishga maslahatlashish uchun chaqirmadimmi! Xon bo‘lsam ham, bunday jiddiy savol bo‘yicha o‘zbilarmonlikka solib, qaror qabul qilgim kelgani yo‘q. O‘yimni oldinglarga olib chiqishni ep

ko'rdim. Bu — birinchidan. Ikkinchidan — Oltoydan Olatovga ko'chib ketaylik deganimning yana bir sababi bor. O'zinglar ko'rib turganday, Oltoyning yeri — yerga chet. Biz xitoylar bilan yonma-yon turamiz. Hozir bizni mensimay, g'alabalarimizga unchalik ko'ngil burishmayapti. Oz sonli qirg'izlar qanday xavf tug'dirishi mumkin deb beparvo turishibdi. Biroq bir kun emas bir kun ular qo'l soladigan bo'lsa, o'shanda sho'rimiz sho'rvaday qaynaydi. Agarda Olatovga ko'chib ketsak, ulardan xiyla olislab qolamiz. U yerda bizga yordam beradigan qalin qirg'iz elimiz bor. Odam emas, kiyik, sirtlon arang o'tadigan tog'larimiz bor. O'sha yerda tursak, ancha-muncha yov bizga qo'l solgani yuragi dov bermaydi.

— Bu so'zlaring to'g'ri, botir! — ko'ndi Aydarxon.

— Oqsoqollar! — so'zini davom ettirdi Manas. — Bu so'zlarni to'satdanoq aytayotgan yerim yo'q. Qayda o'troqlashsak tinch, xavfsiz, baxtli yashaymiz deb ko'p o'ylandim. Barcha vaziyatlarni salmoqlab ko'rib, Olatovga ko'chishni ep ko'rdim. To'g'ri, ba'zi birovlar uchun Oltoydan ko'chib ketish og'ir bo'lishi mumkin. Ular bu yerga o'rganib qolishdi. Oltoy — ularning yangi ovuli, yangi makoni. Shu boisdan hech kimni Olatovga ko'ch deb zo'rlamayman. Oltoyda qolganlarga hech xafa bo'lmayman. Bu masalani har bir odam o'zi hal qilsin! — deb so'zini yakunladi er Manas.

Shundan keyin oqsoqollar Manasning taklifini qizg'in muhokama qilishdi. Nihoyat, barchasi Olatovga ko'chishga rozi bo'lishdi.

— Taklifimni qo'llab berganinglar uchun katta rahmat, oqsoqollar! — roziligini bildirdi Manas. — Shu kundan boshlab Olatovga ko'chishga tayyorgarlikni boshlaylik. Yana bir marta eslatib qo'yayin. Olatovga ko'ch deb hech kimni zo'rlamanglar. Ko'chishni xohlamaganlar Tarbag'atay, Ara-To'o'ni makon qilib, shu yerda qolaverishsin. Qolganlar bo'lsa ko'chishga kerakli jabduqlarini, oziq-ovqatini g'amlashsin!

— Ma'qul! — deb bari rozi bo'lishdi.

— Endi bo'lsa, oqsoqollar, qorinning g'amini yeylik! — jilmaydi Manas. — Ertalabdan buyon bosholomon so'zlab, nihoyatda qorninglar ochgan bo'lsa kerak! Shu boisdan so'zni qo'yib,

go‘sht, qimizga to‘yinglar. Sizlar uchun men sakkiz yuz qo‘y, sakson biyani so‘ygani buyruq berdim. Shoshmay o‘tirib, ovqatlanib olinglar!

— Ha, barakalla, Manas! — quvonib ketishdi oqsoqollar. — Mardligingga, saxiyligingga rahmat!

O‘sha kuni oqsoqollar Manasning mehmonlari bo‘lishdi. Ertasi kuni Manas ularni qaytadan go‘sht, chuchukka to‘ydirib, ota o‘g‘illariga bir to‘ndan yoptirib, qishloq boshi, oqsoqol, to‘p boshining barchasiga yo‘rg‘adan tanlab mindirdi.

To‘y tarqab, el ketgandan keyin Manas qishloqdagilarga tayyorlanishga buyruq berdi. Barcha tayyorgarliklar tugaganda oshuv — ulug‘ belga qorovullikka olti ming askar qo‘yilib, oltmish mingdan ortiq ko‘ch Olatovni ko‘zlab jo‘nadi.

Uch Jildizni, Kuu-Tezni, Mużbelni, Maral-Bashqini, Do‘-lo‘nni, Aqsini, Shayani, Jay-Ko‘lni, Jay-Do‘bo‘ni, Qashqarni bosib o‘tib, Qaqshaal tog‘iga tayanib, sakkiz oy yotib oldi.

MUNDARIJA

Ikki roman — ikki olam. *(Zuhriddin Isomiddinov)* 3

QOSIM SULAYMONOV

Vahshiylar saltanati. *Roman. Qurbon Sattor tarjimasi* 8
So'nggi so'z o'rnida 132

TO'LAN JO'LDO'SHEV

Manas. *Roman. Rahim Karim tarjimasi* 136
I. Qirg'izlarning Alokedan yengilib, Olatovdan surilishi 136
II. Manasning tug'ilishi 160
III. Manasning bolalik chog'i 196
IV. Manasning Esonxonning yuborgan ayg'oqchilari bilan Nesqarani joylagani 244
V. Manasning o'rtoqlari bilan solbiringa borgani 283
VI. Manasning xon etib saylanishi hamda Jo'lay devni, o'n bir sarbozni yenggani 296
VII. Manasning Duburo' xonni yenggani 313
VIII. Manasning Qayip xonni yenggani 335
IX. Jaqip elni to'plab, Oltoydan Andijonga ko'chaylik deb aytgani ... 350
X. Manasning Tekes xonni yenggani 356
XI. Teyish xonning to'yi hamda Manasning qiz Sayqal bilan uchrashgani 366
XII. Manasning O'rg'o' xon bilan urushi 376
XIII. Manasning Chuydagi Aqunbeshimni yengishi 396
XIV bob. Manasning Panus xonni yengishi 427
XV. Manas boshlagan qirg'izlarning Oltoydan Olatovga ko'chishi 456



QOSIM SULAYMONOV

TO'LAN JO'LDO'SHEV

88-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Anvar Zulpixarov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 29,0. Nashriyot-hisob tabog'i 27,34
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 154-1/22 Buyurtma raqami № 22-371

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Q 54 Qosim Sulaymonov. To'lan Jo'ldo'shev [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Zuhriddin Isomiddinov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 464 b.
ISBN 978-9943-8571-5-5

UO'K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOSIM
SULAYMONOV

TO‘LAN
JO‘LDO‘SHEV